

*O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi
Til va adabiyot instituti*

II jild

Gulgina

*Kichkintoylar uchun
badiiy adabiyot
majmuasi*



“YANGI NASHR” nashriyoti
Toshkent – 2010

BBK 83.8(5Y)

G95

“BARKAMOL AVLOD YILI”ga bag‘ishlanadi

Mazkur ikki jildlik majmua ta’lim to‘g‘risidagi Qonun va ta’lim talablari asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi-muallif

Zamira IBROHIMOVA,

filologiya fanlari nomzodi,

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi

Til va adabiyot institutining katta ilmiy xodimi

Mas’ul muharrirlar:

Murod IBROHIMOV

filologiya fanlari nomzodi,

Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati;

Tursunboy ADASHBOYEV,

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi bolalar va

o‘smirlar adabiyoti kengashi boshlig‘i

Taqrizchilar:

O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi MMXQTMORO‘MM rahbari S. S. Mirjalilova; psixologiya fanlari nomzodi F. N. Vahobova; filologiya fanlari doktori J. Jumaboyeva; filologiya fanlari nomzodi R. Barakayev; Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 455-sonli Boshlang‘ich ta’lim-tarbiya markazi direktori D. Sh. Xidoyatova; Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi 20-sonli “Chehra” maktabgacha ta’lim muassasasining mudirasi N. O. Tursunova

Loyiha menejeri A. Irisboyev

Hurmatli ota-onalar! Ustoz tarbiyachilar! Kelajakda farzandlarimizning qanday inson bo‘lib yetishishi ko‘p jihatdan Sizga bog‘liq. Bugun Siz o‘qib berayotgan asarlaringiz bilan ularning qalbiga ezgulik urug‘larini qadar ekansiz, yillar o‘tib ana shu urug‘ tup qo‘yib, palak yozadi. Sizing mehnatingiz, e’tiboringiz o‘zingizga mehr-muhabbat bo‘lib qaytishiga shubha yo‘q.

“Gulgina” majmuasi ikki kitobdan iborat. Qo‘lingizdagi ikkinchi kitobga katta yosh (5 – 6); maktabga tayyorlov (6 – 7) davri bolalariga mo‘ljallangan asarlar kiritilgan.

Ota-onalar va tarbiyachilarga qulaylik yaratish maqsadida har ikki kitobda badiiy asarlarni kichkintoylar ongi va qalbiga yetkazish yo‘llari haqida «Badiiy so‘zning qudrati» nomli uslubiy maqola berildi.

Majmua maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari va ota-onalarga, maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi kollej o‘quvchilari, oliy o‘quv yurtlari talabarlari, shuningdek, ushbu soha mutaxassis, ustoz-murabbiylariga mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-330-37-5

© “MEDIANASHR” MCHJ

© “YANGI NASHR” nashriyoti, 2010-y.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

*Abdulla Oripov so‘zi,
Mutal Burhonov musiqasi*

*Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!*

N a q o r a t

*Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*

*Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona-yurt, mangu bo‘l obod!*

N a q o r a t

*Oltin bu vodiylar — jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!*



SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Qadrli ota-onalar, buvi-yu bobolar, tarbiyachi va ustozlar!

Bola tarbiyasidek o‘ta mas‘uliyatli vazifani amalga oshirishingizda, shubhasiz, badiiy adabiyotning alohida o‘rni bor. Qo‘lingizdagi majmua sizning ushbu xayrli ishni bajarishingizda beminnat xizmat qiladi, deb umid qilamiz. Chunki unda farzandlaringizni ilk yoshidan boshlab go‘zallikka oshno etuvchi, ezgulik, yaxshilikning nurli yo‘llari bo‘ylab yetaklovchi boy og‘zaki ijodimiz va yozma adabiyotimizning eng yaxshi namunalari joy olgan. Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Sa‘diy Sheroziy va Sharqning boshqa buyuk allomalari qalamiga mansub bolalarbop asarlar; axloq-odobga doir hadislar, shuningdek, turli xalq og‘zaki va yozma ijodidan ko‘plab asarlar tanlash asosida kiritilgan. Ularni saralashda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlariga, badiiylik darajalariga alohida ahamiyat berildi.

...Oilada yangi inson dunyoga keladi-yu, sizga unut bo‘layozgan bolalar adabiyoti bilan qayta oshno etadi. Qanday qilib, deysizmi? Juda oddiy. Chunki farzandingiz tug‘ilgan dastlabki kundanoq adabiyot sizga sidqidildan xizmat qilish uchun xonadoningizga kirib keladi. Dastlab farzandingizga bo‘lgan cheksiz muhabbatningizni izhor qilish uchun u beshik boshida mehrlil qo‘shiq bo‘lib taraladi:

*Alla, bolam, alla-yo,
Ko‘rar ko‘zim, alla-yo,
Suyar so‘zim, alla-yo,
Shirin jonim, alla-yo,
Issiq nonim, alla-yo.*

Yig‘lab turgan farzandingiz allaning mayin ohangidan bu dunyoda yolg‘iz emasligini, siz kabi mehriboni borligini his etib tinchlanadi, orom olib uyquga ketadi. Uyg‘ongach, siz uni sevib-suyib erkalaysiz:

*Oppoq, oppoq, oppog‘im,
Qo‘zilar juni – qalpog‘im.
Hamma yomon deganda,
O‘zginamning oppog‘im.*





Yig'lasa, siz uni yana sevib-suyib ovutasiz:

*Suv keladi boshidan,
Hazratimning qoshidan,
Onaginang aylansin,
Ko'zginangning yoshidan.*

Qanday yaxshi! Qadim katta momolarimiz, katta buvilarimiz tomonidan qoldirilgan oltin meros — qo'shiqlar bugun ham siz va farzandingiz o'rtasida mehrlı munosabat o'rnatishda, unga bo'lgan muhabbatingizni izhor qilishingizda, avaylab-ardoqlab, cheksiz g'amxo'rlik ko'rsatishingizda sizga madadkor bo'lmoqda.

Alla, erkalama, ovutmacholardagi quyma misralar, kutilmagan ajoyib-g'aroyib o'xshatishlar, ritmik ohangdorlik, hayajonli ruh bolaning kayfiyatini ko'taradi, unga shodlik, quvonch olib keladi. Shu tariqa farzandlaringizning his-tuyg'ulari shakllana boshlaydi.

Farzandingiz katta bo'lgani sari, uning badiiy adabiyotga qiziqishi ham orta boradi. Endi siz unga asta-sekin jajjigina she'rlar, ertaklar va hikoyalar aytib bera boshlaysiz. Shu daqiqalarda bolangizga alohida e'tibor bersangiz, asar voqealari uning murg'ak qalbini butkul sehrlab olganligining, ertak yoki hikoya qahramonlari holatini, xatti-harakatlarini butun vujudi bilan his etayotganligining, hayajonlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu tashqi ifodalarning hammasi bola qalbida ro'y berayotgan chuqur ichki kechinmalarning aksidir. Shu tariqa farzandingiz badiiy asarlar orqali ilk bora go'zal xulqning ulug'ligini, birovga yaxshilik qilishning qanchalik zavqliligini, aksincha, chirkin xulq-atvorning, yomonlikning xunuk va jirkanchligini his etadi, fikr yuritadi. Asta-sekin uning ma'naviy dunyosi shakllana boshlaydi.

Farzandingiz katta bo'lgani sari hajm jihatdan kattaroq, mavzu jihatdan nisbatan murakkabroq asarlar talab eta boshlaydi. Chunki endi unda voqea-hodisalarining sodir bo'lish sabablariga qiziqish kuchayadi, idrok, tafakkur, nutq tobora rivojlanadi. Siz o'qib yoki so'zlab berayotgan badiiy asarlar uning hissiyotini, idrok va tafakkurini, xayol va xotirasini, iroda va diqqatini yanada rivojlantirib borishi bilan birga, uning qalbini asrlar davomida shakllangan milliy-ma'naviy boyligimiz, qadriyatlarimiz bilan limmo-lim to'ldiradi, ularni yuksak insoniylik ruhida tarbiyalaydi, shuuriga shuur qo'shadi.

Kelajakda farzandingizning qanday inson bo'lib yetishishi ko'p jihatdan sizga bog'liq. Bugun siz o'qib berayotgan asarlaringiz bilan uning qalbiga ezgulik urug'la-



rini qadar ekansiz, yillar o'tib, ana shu urug' tup qo'yib, palak yozadi. Sizning mehnatingiz, e'tiboringiz o'zingizga mehr-muhabbat bo'lib qaytishiga shubha yo'q.

Qadrli ota-onalar va tarbiyachilar! Ushbu majmuani tuzishda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni talablariga suyanildi va Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan maktabgacha ta'lim tizimidagi Tayanch dasturlaridan foydalanildi. Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlaymizki, Tayanch dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, asosiy yo'nalishlari, shuningdek, bu yo'nalishlar bo'yicha bolaning rivojlanganlik darajasi va boshqalar yuzasidan aniq va puxta tavsiyalar berilgan. Xususan, unda bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bo'yicha maqsad va vazifalar, har bir guruh bolalariga yil davomida o'qiladigan, hikoya etiladigan, yodlatiladigan asarlar soni, nomi, mualliflari haqida aniq maslahatlar olish mumkin.

Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, qo'yilayotgan bu talab va tavsiyalar bolani badiiy adabiyot bilan oshno etishda qat'iy qolip bo'lib qolmasligi kerak. Unga namuna sifatida qarash, erkin, ijodiy yondashish lozim.

Majmuada badiiy asarlar bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha taqsimlangan: Birinchi kitob: Chaqaloqlik davri (1 yoshgacha); Ilk yosh (1-3); Kichik yosh (3-4) va O'rta yosh (4-5). Ikkinchi kitob: Katta yosh (5-6) va maktabga tayyorlov (6-7) davri. Bu yosh davrlariga ham tarbiyachi va ota-onalar erkin yondashishlari, bolalarning saviyasi, qiziqish, tushunish va o'zlashtirish darajalariga qarab oldinga, ya'ni kattaroq yosh davriga tavsiya etilgan asarlarga murojaat etishlari yoki, aksincha, orqaga, kichikroq yosh davridagi asarlarga qaytishlari mumkin.

Majmuaning har bir yosh davri xalq og'zaki ijodi bilan boshlanadi. Chaqaloqlik va ilk yosh davriga alla qo'shig'i bilan bir qatorda erkalama, ovutmachiq, beshikka solish marosimlarida aytiladigan qo'shiqlar tavsiya etilgan bo'lsa, kichik yosh davriga mavsum qo'shiqlari, aytishma-o'yin qo'shiqlari, maqollar, ertaklar tavsiya etilgan. Shu tariqa bolalarning yoshlari katta bo'lgani sayin, tavsiya etilayotgan asar xillari ham asta-sekin ko'paytirildi. O'rta yosh davriga mavsum qo'shiqlari, hukmlagichlar, aytishma-o'yin qo'shiqlari, chandishlar, ertak, rivoyat va dostonlardan kichik bir parcha tavsiya etildi. Katta yosh va maktabga tayyorlov davri bolalariga esa mavsum qo'shiqlari, yalinmashoqlar, qiziqmashoqlar, o'yin qo'shiqlari, cheklashmashoqlar, guldur-guplar, topishmoqlar, tez aytishlar, sanamalar, maqollar, ertaklar, rivoyatlar va dostonlardan parchalar tavsiya etilgan. Shuningdek, kichiktoylar saviyasiga mos jahon xalqlari ertaklaridan namunalar kiritilgan.





Majmuaning adabiy asarlarga bag'ishlangan qismi o'zbek va jahon xalqlari yozuvchilarining she'riy hamda nasriy asarlaridan iborat.

Ota-onalar va tarbiyachilar ishini yengillatish maqsadida she'riyat bo'limini mavzu jihatdan bir qancha qismlarga bo'lishni lozim topdik: O'zbekiston – mening Vatanim; Yil fasllari; Tabiat olamida; Hayvonot dunyosi; Onalar va bolalar haqida v. b.

Nasr bo'limiga esa, faqat janr jihatidan tartib berildi: u ertak, hikoya hamda (katta yosh va maktabga tayyorlov davriga) mumtoz adabiyot namunalari va qissadan parchalar asosida tashkil topgan. Shuningdek, o'rta yosh va maktabga tayyorlov davrlariga «Buyuk siymolar haqida» bo'limi ham kiritilgan bo'lib, unda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Al-Buxoriy hamda Amir Temurlarning hayoti va faoliyatlari haqidagi matnlar joy olgan.

Ota-onalar va tarbiyachilarga yordam berish maqsadida har ikki kitobda badiiy asarlarni kichkintoylar ongi va qalbiga yetkazish yo'llari haqida «Badiiy so'zning qudrati» nomli uslubiy maqola berildi.


Xullas, kichkintoy bilan bevosita muloqotda bo'layotgan har bir katta odamning niyati «Bola kitob bilan birgalikda o'sib, kamol topsin», degan shior darajasida bo'lishi kerak. Buning uchun kichkintoy uzluksiz ravishda har kuni kitob bilan uchrashishi zarur! Shundagina bola kitobga o'rganadi, unga mehr qo'yadi va u bilan do'stlashadi. Ushbu majmuani tayyorlashdan ko'zda tutgan asosiy maqsadimiz ham shundan iborat.

Tuzuvchi-muallif



Katta yosh davri

5—6 yoshgacha





O'zbek xalq og'zaki ijodi

**“KETGAN QUSHLAR UZOQDAN
YANA BIZGA QAYTADI...”**

Mavsum qo'shiqlari

* * *

Omonlik, hey, omonlik,
Yetdik Navro'zga,
Unutilsin yomonlik,
Qut ber rizq-ro'zga.



Yurtga tinchlik so'rayman,
Olamga chiroy.
Shu ayyomni qutlay deb,
Undirdim bug'doy.

Sumalak – bir bahona,
G'animat diydor,
Shu urfimiz shohona,
Oqibatga yor.

Xudoga ming shukrkim,
Yetdik Navro'zga.
Maysa o'sibdi durkun,
Suray men ko'zga.



* * *

Navro'z keldi, yoz keldi,
Turna keldi, g'oz keldi.
Yam-yashil chorbog'lardan
Bulbulday ovoz keldi.

Navro'z keldi bu kecha,
Pishiring navro'z go'ja.
Go'jasi shirin momolarga
Beraylik bir juft jo'ja.

* * *

Qaldirg'och qayib uchar,
Qanotin yoyib uchar,
Navro'zda qozon to'lsa,
Elimizni baxt quchar.

* * *

Ketgan qushlar uzoqdan
Yana bizga qaytadi,
Kurtak ochgan shoxlarda
Sayrab qo'shiq aytadi.

* * *

Chitti gul-a, chitti gul,
Ha-yu, chitti gul.
Chitti gulga gul bosay,
Bir yonida yon bosay.





Ha-yu, chitti gul,
Ha-yu, chitti gul.

Qo'ling qo'lvoqda bo'lsin,
Beling belvoqda bo'lsin.
Ha-yu, chitti gul,
Ha-yu, chitti gul.

Dupur-dupur ot keldi,
Chiqib qarang, kim keldi?
Aravada un keldi,
Childirmada gul keldi.
Ha-yu, chitti gul,
Ha-yu, chitti gul.



Oq sholi-yu ko'k sholi,
Oq sholini oqlaylik,
Ko'k sholini ko'klaylik,
Yaxshi kunga saqlaylik.
Ha-yu, chitti gul,
Ha-yu, chitti gul.

* * *

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi,
Laylak boradi tog'ga,
Quloqlarida halqa,
Halqani opqochaylik,
El boshiga sochaylik,
Elning murodi kulsin,
Laylak balandroq uchsini!



* * *

Laylaklar uchib keldi,
Janubdan ko'chib keldi,
Lal-la-la-la!
Tol boshiga in soldi,
Shu yerlik bo'lib qoldi!
Lal-la-la-la!
Kelganlari soz bo'ldi,
Biz yoqda ham yoz bo'ldi!
Lal-la-la-la!

“TULKICHA-YA, TULKICHA...”

Qiziqmachoqlar

— Ola tog'ning boshida ne ko'rding?
— Oq beshikni men ko'rdim.
Oq beshikni ichida
Oq bolani men ko'rdim.
Oq bolaning qo'lida
Oq piyola men ko'rdim.
Oq piyola ichida
Qizil olma men ko'rdim.
Qizil olma tishladim,
Samarqandda qishladim...

* * *

Girdon-girdon tozi,
Bulbullarning yozi.
— Bular kimdi qizi?





- Shokirboydi qizi.
— Shokirboyda nima bor?
— Uchar-uchar qushi bor.
Uchib ketdi havoga,
Qaytib tushdi daryoga.
Daryo suvi quridi,
Baliqlari churidi.
— Baliqlarni kim yuvdi?
— Potma degan qiz yuvdi.
— Daryo suvin kim ichdi?
— Oqqina kuchukcha ichdi.
— Oqqina kuchukcha o'lsin,
Bolasi bizga qolsin,
Bolasini sotaylik,
Sabzi-piyoz olaylik,
Sho'rva qilib ichaylik.

* * *

- Tulkicha-ya, tulkicha,
Tunda qayga borasan?
— Momom uyiga boraman.
— Momong sanga ne deydi?
— O'tin terib kel, deydi.
O'tin terdim o'n quchoq,
Qirdan terdim qirq quchoq.
— Momong uni ne qildi?
— Non yopdi o'choq-o'choq.
Elga berdi elakday,
Kelinga berdi keliday,
Menga berdi tirnoqday.
Otib urdim eshikka,
Manglayim tegdi teshikka.



* * *

— Qurbaqajon, qurbaqa,
Afting nega bundaqa?

— Suv ichida ko'p yurdim,
Aftim bo'ldi shundaqa.

— Qurbaqajon, qurbaqa,
Oyog'ing nega bundaqa?

— Kovush-maxsi kiymadim,
Shunga bo'ldi shundaqa.

— Qurbaqajon, qurbaqa,
Ko'zing nega bundaqa?

— Men ko'zoynak taqmadim,
Shuning uchun shundaqa.



“TURNA, ARQON SOL!..”

Hukmlagichlar

- G'alvir, g'alvir!..
- Arg'amchi, arg'amchi!..
- Turna, arqon sol!
- Cho'ntagingga talqon sol.
- Talqoningni yeyaylik,
Tegaversin deyaylik.





* * *

Qaldirg'och, g'och-g'och,
Chiyillamay, bola och.
Mening sochim jingalak,
Pista bilan bodom soch!

* * *

Qaldirg'och, g'och-g'och,
Eshigingni och-och.
Eshigingni ochmasang,
Pista-bodom sochmasang,
Osh-qatig'ing icharman,
Cho'lga qarab choparman...

* * *

Laylak keldi, ilon, qoch,
Bola-chaqang olib qoch.
Yangi to'ning kiyib qoch,
Eski to'ning tashlab qoch.



“CHUMCHUQ KELADI BIR GALA...”

Chumchuq haydash

Ey, hoy gala, ey, hoy gala.
Chumchuq keladi bir gala.
Mening bog'im kichkina,
Ho' katta bog'larni tala!



“Sen tur, sen chiq!..”. O‘zbek xalq bolalar qo‘shiqlari.



* * *

Hala-yo, hala-yo,
Katta polni tala-yo.
Katta polga to'ymasang,
Kichik polni tala-yo!

“ONABOSHI, QANI, CHIQ...”

Choriamaalar

Bizlar o'ynayapmiz,
Davra qurayapmiz.
Davraga kelinglar,
Davraga kelinglar,
Bizlarga qo'shilinglar!
Bu davrani qurgan
Gulnorani ko'ringlar.



* * *

Bacha-bacha, bozi,
Kim qora qozi?
Kim o'yinga chiqmasa,
Bo'yniga tosh-tarozi.

* * *

Bacha bo'lsang, kelaver,
O'ynab-o'ynab ketaver.



To'yga onang qo'ymadimi,
Atalaidan bermadimi,
Qorniginang to'ymadimi?
Ho bale-bale, ho bale!

* *



Sarimsoq dumaloq choq,
O'yinga kel, kel, o'rtoq.

* * *

O'zbargani suvi bor,
Daraxtlari xuddi dor.
Onaboshi, qani, chiq,
Bachalaring senga zor.

“SAN TUR, SAN CHIQ!..”

O'yin boshlanmasi

Chori chambar,
Biri anbar.
Ona qiz qayda?
Ola-bula tog'da.
Tog'man, zuvman,
Pilkash to'tiqiz,
San tur, san chiq.



* * *

Qovun palak
Guvak otdi,
Guvak emas,
Chuvak otdi.
Chuvak qovun
Shirin ekan,
Safdan chiqsin,
Qo'lim tekkan.



* * *

Guldon-guldon tozi,
Mishka-mishka o'zi,
Tilla-pilla ko'k,
Chiq, gapirma ko'p.

* * *

Bo'm-bo'm-bo'm,
Igna-igna,
Uchi tilla.
Bal-bali, bal,
Sen chiqa qol!

* * *

Tiri-tiri, traktor,
Ishni buzma, qarab tur,
Bir chekkaga chiqib tur.



* * *

Lagan-lagan,
Hilpillagan.
Ko'zi qora
Sen chiq!

**“O'RAGA SICHQON TUSHDI,
GULDUR-GUP!..”**

Guldur-guplar

* * *

Dim-dim,
O'ra ko'mdim.
Gapirganning og'ziga
Bir shapaloq urdim.



* * *

O'raga sichqon tushdi,
Guldur-gup!

* * *

Jildir-ji p,
Jildir-ji p,
Gapirganning
Og'ziga cho'p.



* * *


Guldur, guldur, guldur-gur,
Gapirganning og‘ziga ur!

“BULULIM-BULULIM, BIR TANGA...”

Aytishma-o‘yinlar

* * *

Sohibjamol uydan chiqsa,
Hammani qaratadi.
Oq terakmi, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
— Jilmayibgina turgan
Bo‘tako‘z Zumrad kerak.



* * *

— Oppoq-oppoq, oq ko‘rak,
Ko‘m-ko‘k, ko‘m-ko‘k, ko‘k ko‘rak,
Bizdan sizga kim kerak?
— O‘zi a‘lo o‘qiydi,
Tartibli ham odobli.
Hammani sevar,
Tikishda chevar.
Barchadan chaqqon,
Hammaga yoqqan,
Go‘zal Ozoda kerak.





* * *

- Bululim-bululim, bir tanga,
Borib oling qirq tanga.
- Qani, bizni topib ko'ring-chi!
- Qani, endi tutib oling-chi!

* * *

Opa, opa, anjir,
Darvoza zanjir.
Darvozani ochinglar,
Cho'lga qarab qochinglar!
Cho'lning yo'li keng ekan,
Bizni tutib olinglar!

* * *

- Guldur-guldur,
Qo'ylar qayda?
- Ola tog'da.
- Nima yeydi?
- O't yeydi.
- O'ti qayda?
- O'tlog'ida.
- Nima beradi?
- Yog' beradi.
- Yog'i qayda?
- Yog'donda.
- Suti qayda?
- Sutdonda.



— Qatig'i qayda?
— Qatlonda.
Guldur-guldur.

* * *

Ro'-ro'-ro',
O'ynaymiz birga,
Men yashirinay,
Sen topolmaysan sira.



* * *

Xurmacha bog'i,
To'kildi yog'i.
Yog'i mij-mij etadi,
Yog' palovga ketadi.
Men palovni bilaman,
Kichik oshpaz
Bo'laman!

* * *

Xurmacha bog'i,
To'kildi yog'i,
To'kilsa, mayli,
Qo'shnimizning iti bor,
Qulog'ida biti bor.
Xola, xola,
Xash, tu-tu.



* * *

Besh tosh otdim uzoqqa,
Borib tushdi tuzoqqa.
Besh toshimni ololmay,
Endi jonim qiynoqda.

* * *

Umbul, baka-bum,
Dor o'yna.
Dordan yiqilib,
Yig'lab yurma!



* * *

O'toptilar, ketoptilar,
Sabzi, piyoz oloptilar,
Kattasini sotoptilar,
Maydasini yeyoptilar.

* * *

Dasturxonda sedona,
Terib yesin bedona.
Hovli ichi gulxona,
Kunda bo'lsin to'yxona.
Bizlar ikki dugona,
Qo'shilmasin begona.

* * *

Uy-uyingga,
Katta to'yingga,
Bir xo'rozim bor,
Qaysi biringga?

“BESH, OLTI, YETTI... CHUMCHUQCHA UCHIB KETDI!..”

Sanamalar

* * *

Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, etti, sakkiz,
To'qqiz, o'n... o'n-u, o'n,
Tulkiga to'n.
Tulki to'nining bahosi —
Bir-ikki so'm!



* * *

Chumchuqcha uyga kirdi,
Ochilcha uni quvdi.
Hoy, chumchuq, mana eshik,
Qani, tezroq uchib chiq.
Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, etti...
Chumchuqcha uchib ketdi!



* * *

O'n bilan o'n —
Yigirma.
Yigirmata
Childirma.

* * *

Bir, ikki, o'n olti...
O'n olti, deb kim aytdi?
O'n olti, deb men aytdim.
Ishonmasang, sanab boq:
Birov,
Ikkov,
Uchov,
Qochov!

* * *

Paroxod qatnaydi, qatnaydi,
Haftani sanaydi, sanaydi.
Dushanba, seshanba,
Chorshanba, payshanba,
Juma, shanba, yakshanba,
Tezroq qochgin,
Anqayma!



O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARI

Tabiat haqida

Bir palak,
Bir palakda
O'n ikki handalak

(Yil, o'n ikki oy)

Bostirdim ikki tovuq,
Biri issiq, biri sovuq.

(Qish, yoz)

Yumshoq, lekin paxta emas,
G'irchillaydi, taxta emas.
Daraxtlarni kiyintirar,
Oppoqqina, yaxtak emas.

(Qor)

U yog'ganda, dala-qir
Kuladi qiqir-qiqir.

(Yomg'ir)

Qo'lsiz-oyoqsiz eshik ochar.


(Shamol)

Qo'lsiz, oyoqsiz
Oynaga gul soladi.

(Ayoq)

O'tda yonmaydi,
Suvda botmaydi.


(Muz)





Hayvonlar haqida

To'rtta uning oyog'i,
 Temir mixli tuyog'i,
 Manzilgacha etkazar,
 Toshdan qattiq tuyog'i.
 (To)



Kichkinagina bo'yi bor,
 Aylantirilgan to'ni bor.
 (Yo'q)

Tug'ilganda soqoli bo'ladi.
 (Echki)

Kichkina qumg'on,
 O'tirib ko'zini yumgan.
 (Mushuk)

Uyday joyni olar,
 Sichqondan qo'rqar.
 (Fil)



Ola-bula to'ni bor,
 Quyrug'ida xoli bor.
 (Yo'lbars)

Qanoti bor, uchmaydi,
 Quruqlikda yurmaydi.
 (Baliq)



Parranda va hasharotlar haqida

Erta turadi,
Jar chaqiradi.


(*zoʻra, oʻx*)

Kasbi doim taqir-tuqir,
Qayda ilon ko'rsa, cho'qir.

(*Laylak*)

Pishirsa, osh bo'lar,
Pishirmasa, qush bo'lar.

(*Tuxum*)



Tutdan bizga ko'ylak to'qir.

(*Ipak qurti*)

Beli qilday,
Boshi xumday.

(*Chumoli*)



Uy-ro'zg'or buyumlari haqida

O'zi bitta,
Qulog'i to'rtta.

(*uozon*)

O'zi turar jimgina,
Qulog'i bor birgina.

(*Choynak*)





Mehmon keldi,
Yugurib bordi,
Qo'liga chiqib,
Labini o'pdi.

(Piyola)



Tap-tap etadi,
Tagidan karvon o'tadi.

(Elak)

Kichkina mitti
Echkini yiqitdi,

(Pichoq)

O't-olovni tishlaydi,
Og'zi kuyib-pishmaydi.

(O'tashkurak)

Hammani kiyintiradi,
O'zi yalang'och.

(Igna)

Bir chuqurda ming chuqur,
Chuqurni igna cho'qir.

(Angishvona)

Chiq-chiq boradi,
Chiq-chiq keladi.
Ikkisi bir tomon
Quvalashib yuradi.

(Soat)



TEZ AYTISHLAR

* * *

Sa'va saharda sadada sayraydi.

* * *

Pirpirak pirillaydi,
Chirildoq chirillaydi.

* * *

Tohir tog'a tog'da tulki tutdi.

* * *

Oq choynakka oq qopqoq,
Ko'k choynakka ko'k qopqoq.

* * *

Qurilishga terak kerak,
Demak, ekmoq kerak terak.

* * *

Qopqoq qop yonida,
Qop qopqon yonida.



* * *

Halimani sanama,
Salimani sana.

* * *

Sotvoldi bosvoldi qovun sotib oldi.

* * *

Hafiz, Ramiz — hammamiz
Yashil yalpiz teramiz.

* * *

Boqining baqlajoni baq-baqaloq.

* * *

Toshmat toshni tog'dan tashidi.

* * *

Tursun tunda tura tursin.

* * *

Qalpoqni top, qopqoqni yop.





O'ZBEK XALQ MAQOLLARI

Ota-ona haqida

Oltin-kumushning eskisi bo'lmas,
Ota-onaning bahosi bo'lmas.

* * *

Ona kulsa, xona to'lar,
Ota kulsa, g'aming ketar.

* * *

Bola — xizmatda, ota — izzatda.

* * *

Onangga boshingni xam qil,
Otangga gapingni kam qil.

* * *

Ota kasbing — davlating,
Saqla ota hurmatin.





Odob haqida

Odob bilan baxt topilar,
Sabr bilan — taxt.

* * *

Axloq-odob — baxt,
Sabr-toqat — taxt.

* * *

Odob bozorda sotilmas.

* * *

Odob — kishining zeb-u ziynati.

* * *

Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan.

* * *

Odobing — obro'ying.



Do'stlik haqida

Do'st ming bo'lsa ham — oz,
Dushman bir bo'lsa ham — ko'p.

* * *

Do'stlik barcha boylikdan afzal.

* * *

Do'stingga do'st bo'l,
Dushmaningga ziyrak.

* * *

Do'stsiz boshim — tuzsiz oshim.

* * *

Do'stingga qo'shiq ayt,
Mehringni qo'shib ayt.

* * *

Daryo tarmog'i bilan,
Odam o'rtog'i bilan.

* * *

Odamni kiyim, ko'ngilni do'st bezaydi.



Mehnat va hunar haqida

Mehnat va o'qish – og'a-ini.

* * *

Mehnat qilsang – boylik,
Turmushing ham chiroylik.

* * *

Mehnat qilsang, ko'ksing tog',
Hurmat qilsang, diling chog'.

* * *

Mehnat qilsang, yasharsan,
Katta-katta osharsan.

* * *

Mehnatda sinalgan — elda aziz.

* * *

Hunarli kishi xor bo'lmas,
Do'st-dushmanga zor bo'lmas.

* * *

Hunar oltindan qimmat.




Bilim haqida

Bilim — aql chirog'i.

* * *

Bilimliga dunyo yorug',
Bilimsizga qorong'i.



* * *

Bilim — kuchda, kuch — bilimda.

* * *

Bilimli o'zar,
Bilimsiz to'zar.

* * *

Ko'p bilgan oz so'zlar,
Oz so'zlasa ham, soz so'zlar.

* * *

Aqli tiyrak qand yeydi,
Aqli kalta pand yeydi.



Axloq-odobga oid hadis namunalari

* * *

Munofiqlik belgisi uchta: yolgʻon soʻzlash, vaʼdasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilish.

* * *

Chaqimchilik nima, bilasizlarmi? U – odamlarning gaplarini (ularning oʻzaro munosabatlarini buzish niyatida) bir-birlariga tashimoqlikdir.

* * *

Liboslaringizni chiroyli qilinglar, ot-ulovlaringizni yaroqli tutinglar! Yuzdagi xoldek odamlarga namuna boʻlinglar!

* * *

Qaysi biringizda jahl-u gʻazab qoʻzisa, darhol u sukut saqlashga oʻtsin.

* * *

Agar uch kishi boʻlsangizlar, ikkitalaringiz alohida uchinchi shaxsga eshittirmay pichirlab gaplashmanglar, chunki bu uni ranjitadi.

* * *

Tishlaringizni misvok — tish tozalagich bilan tozalab yuringlar va tozalikni odat qilinglar.



* * *

Ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko‘ring va hojatmandning hojatini chiqaring.

* * *

Kasbning eng yaxshisi — kishining o‘z qo‘li bilan bajaradigan ishi va halol savdodir.

* * *

Qilib qo‘yib, so‘ng uzr so‘raladigan ishdan saqlan.

* * *

Quloqqa yomon eshitiladigan gapdan saqlan.

* * *

Odamlar orasida chaqimchilik va bo‘hton gaplarni tarqatishdan saqlaninglar.

* * *

Kishining go‘zalligi uning tilidan bilinur.

* * *

Hayoning butun vujudi yaxshidir.



* * *

Hayo doimo yaxshilik keltiradi.

* * *

Muloyimlik – hikmatning boshi.

* * *

Sizlarning yaxshilaringiz – xushxulq, shirin suhbatlilaringizdir. Yomonlaringiz esa og‘zini to‘ldirib, ezmalik ila ko‘p gapiruvchilaringizdir.

* * *

Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydalirog‘i.

* * *

Mening u narsam bor, bu narsam bor, deyishlikni yoqtirmayman.

* * *

Kimki hayotda tejamkor bo‘lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi.



O'zbek xalq ertaklari

SAXIY BILAN BAXIL

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda Saxiy bilan Baxil bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni ular birga sayohatga boribdilar. Yo'lda Baxil suv solingan meshning og'zini hech ochmabdi, oziq-ovqat solgan xaltasini yechmabdi. Saxiyning suvini ichib, nonini yeb yuraveribdi.

Bir kuni Saxiyning suvi ham, noni ham tamom bo'libdi. Ular charchab, bir cho'lda dam olgani o'tiribdilar. Baxil o'z meshidan piyolaga suv quyib ichibdi, xaltasidan non olib yebdi. Ochlik va tashnalikdan holsizlangan Saxiy:

— Do'stim, menga ham ber, — debdi.

Baxil nafrat bilan:

— Men sening holingga tushishni istamayman, — debdi.

U tuyaga minib, o'z yo'ldoshini cho'lda yolg'iz tashlab ketibdi.

Saxiyning yo'l yurishga madori qolmabdi. U ochligi va tashnaligini qondirish uchun ko'karib turgan bir o'tni og'ziga solib chaynabdi. Bu o'tning ajoyib xosiyati bor ekan. Saxiy hamma giyoh va jonivorlarning tilini tushunadigan bo'libdi.

Kech kirib qolganda u qum ustiga yotibdi, och va tashna bo'lganidan ko'ziga uyqu kelmabdi. Qorong'i tushganda ikkita toshbaqa o'rmalab kelibdi.

— Qizig'i shuki, bu ahmoq tashnalikdan o'lyapti, yarim soat yo'l yursa, quduqqa yetadi, — debdi bir toshbaqa.

— Men ham shunga hayronman, — debdi ikkinchi toshbaqa. — Ahmoq ochidan o'lay deyapti, bo'lmasa quduqning yonidagi o'tovda bir ko'chmanchi turadi, suti ham, go'shti ham bor, o'sha yerga borsa bo'lardi.

Saxiy qulog'iga ishonmay, tuyaga minib jo'nabdi. Quduqni topib, to'yguncha suv ichib, mehmondo'st ko'chmanchining uyida ovqat yebdi.



Erta bilan Saxiy ko'chmanchidan oziq-ovqat sotib olib, yo'lga tushibdi. Baxil ham uning ketidan boraveribdi.

Saxiy ko'chmanchidan olgan go'sht haqini to'layotganida Baxil uning hamyoni katta ekanligini sezib qolib, niyati buzilgan ekan. Ular bir qishloqqa yetibdilar. Saxiy uyquga ketganda, Baxil bildirmay uning hamyonini, tuyasini o'g'irlab, qochib ketibdi.

Saxiy juda qayg'uribdi. Noiloj o'ziga bir tayoq kesib olib, uni hassa qilib, yo'lga tushibdi. Keta turib, devor ustida o'tirgan ikkita zag'izg'onning gaplarini eshitibdi:

— Sen o'z uyangga qayyerdan oltin tangalar tashib kelasan? — deb so'rabdi bir zag'izg'on yonidagi sherigidan.



— Manavi baland terakning tagida ko'r sichqon turadi, — debdi ikkinchi zag'izg'on. — U yetti podshoning xazinasini topibdi. Ko'r sichqonning oyog'i ostidan tangalarni o'g'irlab qochaman, u ko'rmaydi.

Saxiy terakning tagini qazib, yetti podshoning xazinasini topibdi. Shaharga yetib kelib, karvonsaroyda to'xtabdi. Saxiy o'z odatiga ko'ra, pulni ayamabdi va kambag'allarga yordam berib, ularni xursand qilibdi.

Baxil Saxiyning boyib ketganini va gadoylarga ayamay sadaqa berayotganini ko'rib, hasadi kelibdi, alamiga chidolmay, uyqusi qochibdi. Podshoga borib:

— Podsho hazratlari, sizning shahringizdagi karvonsaroyga bir qaroqchi kelib tushdi. Uni qamashga amr qiling, — debdi.

Podshoning posbonlari karvonsaroyga kelib, Saxiyini qamab, pullarini tortib olibdilar va o'zini podsho huzuriga keltiribdilar.

— Sen qaroqchisan, — deb baqiribdi podsho. — Ertaga seni dorga ostiraman. Saxiy o'zining kimligini va nima voqealar bo'lganini so'zlabdi, lekin podsho



uning gapiga quloq solishni istamabdi. Pullarni xazina foydasiga olibdi. Baxilni haydab yuboribdi. Saxiyni zindonga soldiribdi.

* * *

Saxiy qorong'i zindonda qayg'urib o'tiribdi. "Bu balo boshimga qaydan keldi?" — deb o'ylabdi. Shu payt teshikdan ikkita sichqon chiqib, bir-birlari bilan so'zlasha boshlabdilar.

— Podshoning qizi ko'r bo'lib qoldi. Shunday chiroyli qizga kishi achinadi, — debdi bir sichqon.

— Kimki malikaning ko'zini davolasa, podsho uning boshidan tilla sochadi, — debdi ikkinchisi.

— Tfu, odamlar ahmoq, — debdi birinchi sichqon. — Uni davolash oson. Cho'lda kal Abdulla degan odam qo'y boqib yuradi. Suruvning ichida qo'tir echki bor. O'sha echkinging soqolidan ikki tola olib, yondirib, kulini malikaning ko'ziga bossa, ochiladi.

Sichqonlar ketgandan keyin Saxiy:

— Men hakimman, men tabibman! — deb qichqira boshlabdi. Uzoq qichqirsa ham, zindonchilardan hech biri uning gapiga quloq solmabdi. Nihoyat, zindonchilardan biri podshoning oldiga kelib, tiz cho'kib:

— Zindondagilardan biri: "Men hakimman, men tabibman", — deb qichqiryapti, — debdi.

— Tez bu yerga olib kelinglar.

Saxiyni podshoning oldiga boshlab kelibdilar.

— Ha, sen edingmi, qaroqchi? — debdi podsho. — Nima deb qichqiryapsan? Bari bir kuning bitgan.

— Men qaroqchi emasman, — debdi Saxiy. — Men — tabibman. Men bir zumda qizingizning ko'zini tuzataman.

Podsho uning so'ziga ishonmabdi, lekin posbonlarga uni cho'lga boshlab borishni buyuribdi. Cho'lda kal Abdulla qo'y boqib yurgan ekan. U qo'tir echkinging soqolidan yarmini yulib olib, sichqonlarning aytganini qilib, Malikaning ko'zini tuzatibdi. Malika ko'zini ochibdi, podsho behad xursand bo'lib, Saxiyga ko'p oltin in'om qilibdi, o'z egnidagi zar choponini beribdi.



Saxiy og'ir qopdagi oltinlarni ko'tarib, yangi ipak to'nni kiyib, saroydan chiqqanda, Baxil uning oldiga kelib, ta'zim qilibdi.

— Nima deysan? — deb so'rabdi Saxiy.

— Nima sababdan sening omading keladi-yu, mening boshimga falokatlar tushaveradi. Shuni menga tushuntir...

Saxiy Baxildan ko'p yomonliklar ko'rgani uchun unga qaragisi ham kel-mabdi, lekin o'zining saxiylik tabiati g'olib kelib, ajoyib xosiyatga ega bo'lgan o't to'g'risida gapirib beribdi.

— O'sha o'tni yeb, jonivorlarning gapiga quloq sol. Dunyodagi sirlardan xabardor bo'lasan, — debdi.

Baxil shoshib-pishib, hatto Saxiyga rahmat ham aytmasdan, tuyaga minib, sahroga jo'nabdi.

O'sha o'tni yeb, jonivorlar tilini tushunadigan bo'libdi.

— Toshbaqa, zag'izg'on, sichqonga o'xshagan mayda-chuyda jonivorlar-ning gapiga quloq solib yuramanmi? — debdi u o'ziga o'zi. — Kichik jonivorlar kichik sirlarni biladi. Katta jonivorlar katta sirlarni biladi.

Sahroda tentirab yurib, bir g'ordan kechqurun arslon, yo'lbars, bo'ri va tulki chiqqanini ko'ribdi.

— Ana shularning gapiga quloq solish kerak, — debdi u.

Baxil qo'rqqoq ekan, lekin ochko'zligi qo'rqqoqligidan ustun kelibdi va u yirtqich hayvonlarning g'origa kirib, berkinib olibdi.

— Bu yerdan odam isi kelyapti, — debdi arslon.

— Ha, bu yerda allakim borga o'xshaydi, — debdi yo'lbars.

— Bu yerda odam bor, — deb uv tortibdi bo'ri. — U bizning tushki ovqatimizga o'z oyog'i bilan kelibdi.

Jonivorlar Baxilga hujum qilib, uni yeb qo'yibdilar.

Saxiy esa saxiyligi uchun murod-u maqsadiga yetibdi.



EGRI VA TO'G'RI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda To'g'riboy degan bir kishi bo'lgan ekan. To'g'riboyning birdan-bir davlati oti ekan.

Kunlardan bir kuni To'g'riboy mardikorlik qilgani shaharga jo'nabdi. Yo'lda bir kishi unga hamroh bo'libdi.

— Xo'sh, sherik, qayoqqa ketyapsiz? — deb so'rabdi To'g'riboy undan.

— Mardikorlik qilgani shaharga ketyapman, — deb javob beribdi u.

— E, men ham, — debdi To'g'riboy. — Otingiz nima?

— Egriboy, — deb javob beribdi u. — Sizning otingiz-chi?

— To'g'riboy.

Ular birga ishlashga ahd qilishibdi.

To'g'riboy otda ketayotib: “Sherigim charchadi. Otni navbati bilan minishaylik. Bo'lmasa, bu do'stlik emas” deb o'ylabdi.

U otdan tushib, Egriboyning otga mindiribdi. Egriboy otga minishi bilanoq qamchi urib, ot boshini qo'yibdi va bir zumda ko'zdan g'oyib bo'libdi.

— Do'st bo'lib, dushmanning ishini qildi, — debdi To'g'riboy.

U yayov ketaveribdi. Kech kiribdi. Yo'lda adashib, bir so'qmoqdan yuribdi, so'qmoq o'rmonga eltibdi.

O'rmon yalang'och, boshpana bo'lguday joy yo'q ekan. Birdan To'g'riboy oldidan bir eski tandir chiqib qolibdi.

To'g'riboy: “Kel, shu tandir ichiga kirib uxlay”, debdi-da, tandir ichiga kirib yotibdi.

Ko'p o'tmay o'rmon egalari: arslon, yo'lbars, bo'ri, shoqol, ayiq, tulki tandir yoniga yig'ilishibdi.

Ular turli-tuman voqealar haqida so'zlab o'tirishibdi. Ayiq shunday debdi:

— Bilasizlarmi, o'rmonda bir tup sadaqayrag'och bor. Qayrag'ochning pastida ikkita shoxchasi bor. Shoxlarining barglari turli kasalga davo. Uni ezib ichilsa, har qanday jonivor o'sha zamonoq dard ko'rmaganday bo'lib ketadi. Men bolalarimni shu bilan davolayman...

... Tong otibdi. Yirtqichlar tarqalishibdi.



To'g'riboy tandır ichidan chiqib, to'ppa-to'g'ri ayiq aytgan qayrag'och oldiga boribdi va uning shoxidagi barglarini terib olibdi...

So'ng shaharga boribdi. Shaharda jarchi jar solmoqda ekan:

— Hoy, odamlar... bog'da bitgan bodomlar... qudratli shohimizning qizlari yetti yildan buyon qattiq kasal yotibdilar. Kimki malikani davolasa, u kishi shohimiz marhamati bilan kuyov bo'ladi...

To'g'riboy shoh oldiga borib:

— Qizingizni men tuzataman, — debdi.

To'g'riboy bargni ezib, qizga ichiribdi. Qiz oyday bo'lib tuzalib ketibdi. Shoh katta to'y qilib, qizini To'g'riboyga beribdi. Keyin shoh To'g'riboyga:



— Kuyov, seni qaysi shaharga bek qilay? — deb so'rabdi.

To'g'riboy:

— Menga beklik to'g'ri kelmaydi. Men sodda va to'g'ri odamman. O'rmon yoqasidagi tepalikdan bir uy qurishga ruxsat bersangiz bo'lgani. O'sha yerda dehqonchilik qilib, kun o'tkazaman, — deb javob beribdi.

To'g'riboy o'rmon yoqasida dehqonchilik qila boshlabdi.

Bir kuni u Egriboyni ko'rib qolibdi. Egriboy xafa bo'lib, uning otini yetaklab kelar ekan.

— To'g'riboy, bu imoratni qanday qilib qurding? Buncha davlatni qayerdan orttirding? — deb hayron bo'libdi u yoqasini ushlab. — Men bo'lsam, — deb



yana so'zida davom etibdi Egriboy, — sendan ajralganimdan beri qornim to'ymaydi.

— Sen aldab ketganingdan keyin, mana shu yo'ldan ketaverdim, o'rmonda bir tandir uchradi, uning ichiga kirib yotdim, — deb To'g'riboy bo'lgan voqeani aytib beribdi.

— Xo'p, bo'lmasa, — debdi ko'ngli qora Egriboy. To'g'riboy bilan xayrlashib, o'rmonga jo'nabdi.

Kech kiribdi. Egriboy tandir ichiga kirib yotibdi.

Yirtqichlar shu kuni kechasi yana yig'ilishibdi...

— Oramizda chaqimchi bor, — debdi ayiqpolvon. — Qayrag'ochning birorta ham bargi qolmabdi.

— Chaqimchi tutib o'ldirilsin! — deb buyruq beribdi arslon.

Yirtqichlar: “Kim chaqimchi?” — deb axtarishibdi.

Shoqol: “Tustovuq chaqimchi”, — desa, tustovuq: “Tandir chaqimchi”, — deb uchib ketibdi.

Yirtqichlar tandirga tashlanibdilar.

Qarasalar, tandir ichida Egriboy o'tirgan emish. Yirtqichlar:

— Muttaham, qo'lga tushding-ku, — deb uni burda-burda qilib tashlabdilar.

Shunday qilib, Egriboy egrilik bilan o'z maqsadiga yetolmabdi, To'g'riboy esa to'g'rilib orqasidan murod-u maqsadiga yetibdi.

ZUMRAD VA QIMMAT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda, katta soy bo'yida kichkina uy bo'lar ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o'gay ona va uning Qimmat ismli arzanda qizi turar ekanlar. Kampirning Zumradni ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q ekan. U hadeb qizni urib, qarg'ab, ertadan kechgacha ishlatarkan, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan.

Zumrad juda chiroyli, odobli, muloyim, aqlli qiz ekan. Uni bir ko'rgan kishi yana ko'rsam, deb orzu qilar ekan.

Qimmat esa ishyoqmas, injiq va dimog'dor bo'lib, uning butun kuni urushjanjal va to'polon bilan o'tar ekan.



Zumrad erta bilan barvaqt ko'zasini ko'tarib, soy yoqalab buloq boshiga borarkan, yo'lda uchragan gullar boshlarini egib, unga ta'zim qilarkanlar. Zumrad maysalar ustida o'tirib dam olganida, gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib, unga hikoyalar aytib berarkanlar.

Ammo xuddi shu gullar kampirning arzandasini sevmas, uni erkalamas ekanlar, chunki bu qiz ularni yulib tashlar, xushbo'y gullarni hidsiz, deb tepkilar ekan. Shuning uchun ham ular Qimmat kelar bo'lsa, qovoqlarini solib, yumilib qolarkanlar.

Bularning hammasi yovuz kampirning g'azabini keltirar ekan.

Kampir buni Zumraddan ko'rarkan.

Bir kuni kampir Zumradni yomonlab, cholga do'q uribdi:

— Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor! Bo'lmasa sen bilan bir nafas ham birga turmayman!

Chol nima qilarini bilmay qolibdi. Oxiri kampir:

— Qizingni o'rmonga oborib, adashtirib kel! U bilan birga turmayman, — debdi.


Chol qizini adashtirib kelish uchun tog'-toshlarni kezib, bir o'rmonga boribdi. Ota-bola o'rmon ichida uzoq yuribdi. Oxiri quyuq soyali bir joyga borib to'xtashibdi.

Keyin chol o'tin kesgani ketibdi. Zumrad yolg'iz qolibdi. Shu payt birdan shamol turibdi. Chol esa o'rmondagi bir katta daraxtga boltasini osibdi-da, unga og'irroq tosh bog'lab, qattiq itarib yuboribdi. Bolta uyoqdan-buyoqqa urilib, to'qillayveribdi.

Shamol juda kuchayibdi. Bolta shamol kuchi bilan uzoq vaqt daraxtga urilib, "to'q-to'q" qilib tovush chiqaribdi.

Zumrad: "Otam o'tin kesayotibdi" deb o'ylab, uni anchagacha kutibdi. Oqshom tushibdi. Otasidan darak bo'lmabdi. Shamol to'xtabdi. Qiz o'rmondagi chuchmomalarni terib yurib, bexosdan bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Qarasa, otasi yo'q emish.

— Voy, sho'rim qursin! Voy, otajon! — deb uvvos solib yig'lab, to'rt tomonga yuguribdi. Hech kimdan darak bo'lmabdi, qiz adashib qolibdi. O'rmon unga yana ham vahimali bo'lib ko'rinibdi. Qiz qayoqqa borishini bilmay, axiri, kichik bir so'qmoqdan chopib ketaveribdi.



Ollayor Begali. Rangin qorlar.



Zumrad uzoq yo'l bosibdi. Qorong'ida gullar uning yo'lini yoritibdi. Keta turib, bir vaqt qarasa, uzoqda miltillagan chiroq ko'rinibdi, itning hurgani eshitilibdi. Qiz o'sha tomonga qarab yuraveribdi. Tezda kichik bir uyga yetibdi. Uyning derazasidan qarasa, bir kampir o'tirgan emish. Qiz sevinib, kampir oldiga kiribdi, boshidan kechirgan voqealarni birma-bir aytib beribdi.

Uyiga shunday chiroyli qizchani kelganini ko'rgan kampir juda quvonibdi. Bu kampir o'rmonda yashaydigan sehrgar ekan.

Kampir qizning yig'laganini ko'rib:

— Ko'p xafa bo'lma, qizim, senga yordam beraman, — deb qizni ovutibdi. Qiz ham unga:

— Rahmat! Men sizni o'z onamdek ko'raman. Buyurgan ishingizni jonim bilan qilaman, — deb javob beribdi.

Shu choq kampirning uyi tepasiga juda ko'p qushlar yig'ilibdi, ular qizchani maqtab, sayrashibdi. Qushlar tilini bilgan sehrgar kampir ham quvonibdi, xosiyatli qizga dunyoda topilmaydigan rasmlı kitob va qo'g'irchoqlar berib:

— Oppoq qizim, shirin qizim! Do'mbog'im, munchog'im! — deb boshini silab, erkalabdi.



Ular ancha kun birga turishibdi. Kampir qizchani yaxshilab parvarish qilibdi.

Zumrad ozoda qiz bo'lgani uchun, uyni supurib-sidirib, oynalarni artib-surtib, hammayoqni chinniday qilib qo'yar, buni ko'rib kampir quvonar ekan.

Bir kun kampir qizga osh qilib bermoqchi bo'lib:

— Tomdan o'tin olib tush, qizim, — debdi. Qiz dik etib o'rnidan turib:

— Xo'p bo'ladi, onajon, — deb darrov tomga chiqibdi.

Tom baland bo'lgani uchun undan hammayoq ko'rinar ekan.

Qiz atrofga qarab turib, birdan o'z uyining tomini ko'rib qolibdi. Yuragi orziqib, yig'lab yuboribdi. Buni eshitgan kampir:



— Nega yig'laysan, qizim? — deb so'ragan ekan, qiz:

— Ko'zimga uyimiz ko'rindi, otamni sog'indim, — deya yana yig'labdi.

Kampir uni aldab-suldab yupatibdi, ikkovlari ovqat pishirib, yeyishibdi.

Erta bilan qizga kampir:

— Narsalaringni yig'ishtir, qizim! — debdi.

Qiz qo'g'irchoqlarini yig'ishtiribdi.

Kampir qizga:

— Tomda qizil va oq sandiq bor, oqini qoldirib, qizil sandiqni olib tush! — debdi-yu, o'rmonga kirib ketibdi. Bir vaqtdan keyin o'rmondan saman ot qo'shilgan bir arava yetaklab chiqib, qizni o'tqazibdi.

— Qizil sandiqni uyga borganingdan keyin och! — deb kampir qizga bir kalit beribdi.

Qiz kampir bilan qayta-qayta xayrlashib, yo'lga tushibdi. Bir zumda arava qizning uyi oldida hozir bo'libdi. Shu payt uy eshigi oldida chol o'z qizini sog'inib, uning dardida yig'lab o'tirgan ekan. Qiz otasini ko'rishi bilan:

— Assalomu alaykum, otajon! — deb otasining bag'riga tashlanibdi.

Chol xursand bo'lganidan anchagacha ko'z yoshlarini to'xtata olmabdi. Oxiri yig'idan to'xtab, qiziga:

— Oppog'im, meni kechir, — debdi.

Ular uyga kirishibdi. Qizning kelgani hammaga ma'lum bo'libdi. Qo'ni-qo'shnilar yig'ilishibdi. Qiz sandiqni ochishi bilan, hamma hayron qolibdi. Qizil sandiq asil mollar bilan liq to'la ekan. Mol shuncha ko'p, shu qadar ajoyib emishki, Zumradning butun umriga yetib ortar ekan.

Bu o'gay onani tashvishga solibdi.

U cholga qizi Qimmatni ham tezda o'rmonga olib borib, adashtirib kelishni buyuribdi. Chol "xo'p" deb, Qimmatni darrov o'rmonda adashtirib kelibdi.

Kech kirganda, Qimmat xuddi Zumradga o'xshab, bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Adashganini sezib ho'ng-ho'ng yig'labdi, lekin uni hech kim ovutmabdi. Faqat tevarak-atrofidan boyqushlarning qorong'i, vahimali o'rmonlar haqida sayrashlari eshitalarmish. Bu kuylar Qimmatni yanada vahimaga solibdi. U qo'rqib, qocha boshlabdi. Qorong'i tushgan paytda sehrigar kampirning uyiga kirib boribdi. Kampir uni yaxshi kutib olibdi, ovutibdi. mehmon qilibdi. So'ngra qizga qarab:



— Xafa bo'lma, qizim, o'zim yordam beraman, — debdi.

Ammo Qimmat kampirga yaxshi so'zlar topib aytolmabdi, chunki onasi unga yaxshi so'zlar o'rgatmagan ekan. Kampir uni sevmabdi, yaxshi ertaklar ham aytib bermabdi, dunyoda topilmaydigan suratli kitoblar va qo'g'irchoqlar ham hadya qilmabdi.

Qimmat ertadan-qora kechgacha yalqovlanib o'tiraverar ekan. Uyni yig'ishtirib, supurmas ekan.

Bir kuni kampir o'rmondan qaytib kelib, unga:

— Tomdan o'tin olib tush, qizim! — degan ekan. Qiz:

— O'zingiz olib tushing, malayingiz yo'q! — debdi.

Kampir judayam xafa bo'libdi, shunga qaramay, qizni aldab-suldab, tomga chiqaribdi. Lekin qiz o'tin olib tushish o'rniga tom boshida chinqirib yig'layveribdi. Kampir buni eshitib:

— Nega yig'laysan, qizim! — deb so'ragan, ekan, Qimmat yer tepinib:

— Uyimni ko'rdim, ketaman, — deb yana ho'ngrabdi.

Sehrgar kampir qizga:

— Juda yaxshi, tomdagi sandiqni olib tush,— debdi.

Qimmat sandiqni olib tushibdi. Keyin kampir qizga bir kalit uzata turib:

— Mana kalit, sandiqni uyingga borganingda ochasan, — debdi.

Qiz o'sha onda yig'isini ham unutibdi. Sehrgar kampir unga arava ham bermabdi, qiz og'ir sandiqni ko'targanicha uyiga piyoda ketibdi.

Qizning kelishini dastavval olapar it sezibdi. U Qimmatning onasi oldiga borib:

— Vov-vov-vov, — degan ekan, kampir quloq solmabdi, it yana vovullab:

— Opam kelayotirlar, orqalarida oq sandiq, ilon bilan liq to'liq,— debdi.

Kampir g'azablanib, o'qlog'i bilan itni urib, oyog'ini sindiribdi.

— Mening aqlli qizim qimmatli mollar keltiradi, — debdi u.

Qizining kelganini ko'rib, kampir o'zida yo'q sevinibdi.

Qo'ni-qo'shnilar yig'ilishibdi. Sandiqni ochmoqchi bo'lishibdi.

Shunda kampir bilan qizi ikkisi: "Yo'q, ochmanglar!" — deb o'zlarini sandiq ustiga tashlabdilar. Keyin ikki dastidan ko'tarib, uni uyga olib kiribdilar.

Yarim kecha ekan, kampir bilan qiz eshik-derazalarni yopib, sandiqni



ochishibdi-yu, birdaniga: “Voy dod, qutqaringlar! Ajdar! Voy dod!” — deb baqirishibdi.

Sandiqda kattakon ajdar yotgan ekan. Qoqvosh kampir bilan uning urushqoq qizi dodlashib, uyni gir-gir aylanishibdi, qo‘rqanlaridan qulflangan eshikni ochisholmabdi.

Ajdar kampir bilan qizni yutib, darchadan chiqib ketibdi.

“Dod, voy”, degan ovozni eshitgan qo‘ni-qo‘shnilar eshikni buzib, ichkari kiribdilar. Qarasalar, hech kim yo‘q emish. Uydan yovuz kampirni ham, uning urushqoq qizini ham topolmabdilar.

Shundan so‘ng oqko‘ngil Zumrad bilan otasi tinchgina yashab, murod-maqsadlariga yetishibdi.

OVCHI BOLA

Bor ekan, yo‘q ekan, qadim zamonda bir beva xotin bo‘lgan ekan. Uning bittagina o‘g‘li bo‘lgan ekan. Ona har kuni unga bir qadoq ip yigirib berib:


— Shuning puliga un olib kel, — der ekan.

Bolabozorgaborib, ipni sotarkan-da, puliga un olib kelar ekan.

Bolabir kuni ipni sotib, un olmoqchi bo‘lib turgan ekan, otning dumini ko‘tarib yurgan odamni uchratib qolibdi. Undan dumni sotib olib, uyiga kelibdi. U dumdan tuzoq eshib o‘tirgan ekan, onasi kelib qolibdi. U o‘g‘lining qilgan ishidan xafa bo‘libdi.

— Buning o‘rniga un olib kelsang bo‘lmasmidi? — debdi.

Bola dalaga tuzoq qo‘yib kelibdi. Ertasiga borib qarasa, tuzoqqa bir juft g‘oz, beshta o‘rdak ilinib yotgan emish. Ularni uyiga olib kelayotsa, bir bola kuchukni o‘ldirmoqchi bo‘lib, qiynab turgan ekan. Beva xotinning o‘g‘li undan bitta o‘rdak va bir g‘ozga kuchukni sotib olibdi, qolgan ovini onasiga olib borib beribdi. Bolaning tuzog‘iga ertasi kuni to‘rtta g‘oz, to‘rtta o‘rdak ilinibdi. Ularni olib uyiga ketayotsa, kechagi bolalar bir mushukni o‘ldirmoqchi bo‘lib, qiynab turishgan ekan. Ulardan mushukni bir g‘oz va ikki o‘rdakka sotib olibdi.



Ertasiga ov yanada soz bo'libdi. Tuzoqqa ilingan o'rdak va g'ozlarni olib kelayotsa, bolalar bir ilonning bolasini o'ldirmoqchi bo'lib turgan emish. U ilonni ham bir o'rdakka sotib olibdi-da, uni yo'lda kela turib qo'yib yuboribdi. Ilon bolaga bir dona soch beribdi. Bola o'rdak va g'ozlarning ortiqchasini sotib, bozordan turli narsalarni olib, uyiga boribdi. Mushuk va itni boqib yuraveribdi.

Boshqa ovchilar ovi yurishmaganidan xafa bo'lib, bolaning tuzog'ini o'g'irlab ketishibdi. Bola dalaga borsa, tuzog'i o'rnida yo'q emish. Bola xafa bo'lib, uyida uch kun yig'lab yotibdi. Uyidagi bor narsani yeb tugatishibdi. Onasi unga:

— Bolam, tur, nega yig'laysan? Ovg'a chiq, — degan ekan, o'g'li onasiga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Shu vaqt ilon bergan mo'y bolaning esiga tushib qolibdi. Bola mo'yni kuydirgan ekan, ilon yetib kelibdi. Bola ilonga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Ilon:

— Meni qo'yningga sol, men ko'nglimdagi gapni senga aytaman, — debdi.

Bola ilonni qo'yniga solib, daryo bo'yiga kelibdi. Ilon unga debdi:

— Men, aslida, ilonlar podshosining o'g'li bo'laman. Falon oyda Chortoq soyiga sel kelganda meni oqizib, shu yerga olib kelgan edi. Sen meni otamning shahriga olib bor. Otamning eshigiga kirishing bilanoq, senga ikkita ajdar tashlanadi, ikkinchi eshikdan kirganingda ulardan ham kattaroq ikkita ajdar tashlanadi, uchinchi eshikdan kirganingda ham shunday bo'ladi. Sen ulardan hech qo'rqmay, meni ko'rsatib, o'tib boraverasan, oxiri otam oldiga kirasan. Unga:

— Selda oqib ketgan o'g'lingni olib keldim, — deysan. Otam:

— Tila tilagingni, suyunchisiga nima beray: bir shaharning hokimligini beraymi yoki mol-u dunyo beraymi? — deydi. Sen: — Menga mol-dunyo yoki shaharning hokimligi kerak emas, sizdan qo'lingizdagi uzugingizni so'rayman, degin, — deb tayinlabdi.

Bola ilonning aytganini qilibdi. Uni qo'yniga solib, ilonlar mamlakatiga yetib boribdi. U mamlakatga qadam qo'yishi bilan bolaga bir katta ajdar tashlanibdi. Ajdarning uzunligi o'n quloch ekan. Bola undan qo'rqmasdan o'tib ketibdi va ikkinchi ajdarga ro'para bo'libdi. U ajdar ham bolaga hamla qilibdi, bola qo'rqib, orqasiga qaytibdi va qo'ynidagi ilonga qarab:

— Menga boshqa yo'l ko'rsat, — debdi. Ilonning bolasi:



— Senga boshqa yo'l yo'q, qo'rqmay kirib boraver, — debdi. Bola ikkinchi va uchinchi eshikdan o'tib, ilon podshoning oldiga kirib borib, unga salom beribdi va:

— Sizga bir xushxabar keltirdim, shohim,— debdi.

— Qanday xushxabar keltirding? — debdi ilonlar podshosi.

— Bir vaqtlar sizning o'g'lingizni sel oqizib ketgan ekan, shu o'g'lingizni bolalar tutib olib, qiynab o'ldirmoqchi bo'lib turganda, men uni qutqarib qoldim va uni sizning oldingizga olib keldim, — debdi bola.

— Qani o'zi? — deb so'rabdi ilonlar podshosi.

— O'g'lingiz shu yerda, — debdi bola.

— Tila tilagingni, — debdi podsho.

— Sizda bir uzuk bor ekan, shuni bersangiz. Mening tilagim — shu, — debdi bola.

— Mendan tilasang, mol-u dunyo tilagin, men senga boshqa narsalarni berayin, — debdi podsho.

— Bo'lmasa men suyunchi ham olmayman, bolangizni ham bermayman, — debdi ovchi bola va orqasiga qarab keta boshlabdi.

Buni ko'rgan podsho qo'lidagi uzukni yigitga beribdi. Bu uzuk sehrli bo'lib, uning nomi Angush ekan. Bola uzukni olib, ilonbachchani podshoga beribdi. Ilonbachcha bolaga yana bir mo'y beribdi. Bola mo'yni cho'ntagiga solib, o'z uyiga qaytib ketibdi. Ovchi bola uyiga kelsa, onasi ochlikdan o'lar holga kelib yotgan ekan. Bola onasidan hol-ahvol so'rabdi. Onasi:

— Sen meni tashlab, qayerlarga ketding? — deb ko'p xafa bo'lib, yig'labdi. Bola onasiga:

— Qani, dasturxonni yozing, — debdi.

Kampir dasturxonni yozgan ekan, bola onasiga qarab:

— Onajon, ko'nglingiz nimani xohlaydi? — debdi.

— Mening ko'nglim qiymalik oshni va bir choynak achchiq choyni tusaydi, — debdi kampir. Bola qo'ynidagi uzukni olib:

— Angush, bir tovoq osh va bir choynak achchiq choyni hozir qil, — debdi.

Angush unga:



— Yum ko'zingni, — debdi. Bola ko'zini yumibdi. Bir vaqt ochib qarasa, u aytgan osh va choy dasturxonda turgan emish. Ona-bola Angush yordami bilan istagan ovqatlarini yeb, kun o'tkaza boshlashibdi...

DEHQON BILAN SHAYTON

Bir kuni shayton bilan dehqon uchrashib qolibdi, ikkisi bir boyning yerini ijaraga olib, dehqonchilik qilmoqchi bo'lishibdi. Yerga o'zaro maslahatlashib jo'xori ekishga qaror qilishibdi. Yerni haydab, ekishga tayyorlashibdi. Jo'xori pishibdi. Ikkisi hosilni bab-baravar bo'lish to'g'risida maslahatlashibdi.

Dehqon shaytonga:

— Jo'ra, sen xohlagan qisimingni ol,— debdi. Shayton mo'ljallab qarasa, jo'xorining poyasi ko'p ko'rinibdi. Tepasiga qarasa, onda-sonda jo'xori so'tasi turgan emish. Shayton: “Ustki qismini olsam, oz, poyasi — ko'p, kel, ko'pini olayin” deb o'ylabdi.

— Ey, jo'ra, bo'lmasa, men pastki qismini oldim, — debdi.

Dehqon:

— Hay, mayli, ustki qismi oz bo'lsa ham, bizga qola qolsin, — debdi. Dehqon jo'xorini qayirib-qayirib olibdi. Poyasi shaytonga qolibdi. Shayton: “Dehqonni xo'p aldading. Faqat besh-olti qop jo'xori olib ketdi. Ko'pi menga qoldi”, — deb quvonibdi. So'ngra o'roq bilan jo'xori poyani o'rib olibdi. Dehqon jo'xorini oftobda quritib, qopga solib, to'qmoqlab, donini ajratib olibdi. Keyin jo'xorini bozorga olib boribdi. Shayton ham bir eshakka poyani ortib, bozorga borgan ekan. Dehqon bir qop jo'xorini sakkiz tangaga pullabdi. Shayton esa bir eshak jo'xori poyasini yetti pulga zo'rg'a sotibdi. Shayton:

— Ey, dehqon, qanday noinsofsan. Meni aldabsan-ku, — debdi. Dehqon aytibdi:

— Sen qiziq gapni gapirasana, jo'xori pishgan vaqtda-ku, o'zing tanlab olding. Bo'lmasa bu yil yana ikkovimiz dehqonchilik qilaylik. Ko'nglingga ma'qul



bo'lganini tanlab ola qol, — debdi. Shayton: “O'tgan yilning zararini to'ldirib olaman” deb, ikkinchi yili ham dehqon bilan birgalikda sabzi ekibdi.

Sabzi pishgandan keyin dehqon bilan shayton maslahat qilishibdi. Dehqon shaytonga:

— Bultur “men firib yedim”, deb janjal qilgan eding. Bu yil ham ko'nglingga yoqqan qismini o'zing saylab ola qol, — debdi. Shayton sabzi ekilgan yerning to'rt yog'ini aylanib qarasa, sabzining bargi hammayoqni bosib yotgan emish. Tagini ochib qarasa, har yerda bittadan sabzi emish. Shayton: “Bultur tagini olib, firib egan edim, bu yil yuqorisini ola qolay” deb o'ylabdi-da, dehqonga aytibdi:

— Ey jo'ra, yerdan yuqorisi — meniki, yerdan pasti — seniki.

Dehqon:

— Endi xohlagan tomoningni o'roq bilan o'rib olaver, — debdi.

Shayton o'roq bilan sabzining bargini o'rib olaveribdi. Dehqon ham bir boshdan yerni kavlab, sabzini yig'ishtiraveribdi.

Dehqon sabzini yuvib, bozorga olib boribdi. Shayton ham sabzi bargini bog'lam-bog'lam qilib, eshakka ortibdi. Dehqon bir qop sabzini besh tanga, olti tangaga sotibdi. Shayton bir eshak sabzi bargini uyoqqa-buyoqqa olib borib, ikki pulga ham sota olmabdi. Shayton dehqonga:

— Menga bultur ham firib berding, bu yil ham. Men katta zarar ko'rdim. Bularni to'la! — deb janjal ko'taribdi. Ikkisi janjallashib, bozordan chiqib ketayotganlarida qarasha, yo'lda bir daraxt ostida ikki xum tilla turgan emish.

Dehqon:

— Ikki xum tilla ekan, bir xumini sen ol, bir xumini men olay, — debdi.

Shayton:

— Ikki yildan beri birga dehqonchilik qilganimizda menga firib berding. Endi bu bir xum tillaga ham sherik bo'lasanmi? — debdi.

— Bo'lmasa nima qilamiz? — deb so'rabdi.

Shayton:

— Yoshimizni surishtiramiz, qaysi birimizning yoshimiz katta bo'lsa, tillani o'sha ko'p oladi, — deb javob beribdi. Biroz turib shayton dehqonga:

— Sen necha yoshga kirding? — deb so'rabdi. Dehqon:

— Avval sen ayt! So'ngra men aytaman, — debdi.



Shayton aytibdi:

— Men bir yuz-u etmishga kirdim.

Dehqon qo'liga ro'molchasini olib, ho'ngrab yig'labdi. Shayton hayron bo'lib:

— Nega yig'laysan? — debdi. Dehqon o'pkasini tutolmay turib:

— Mening kichkina o'g'lim o'lmaganda, sen bilan baravar bo'lar ekan,— debdi. Shayton aytibdi:

— Ey, ahmoq, sening kichkina o'g'ling men bilan baravar bo'lsa, o'zing bobom bilan baravar ekansan-da? Qo'y-e, bu ishimda ham firib yedim. Endi ikkovimiz bir-birimizni opichlab, ashula aytib ketamiz, qaysi birimizning ashulamiz ko'p bo'lsa, tillani o'sha oladi.

— Ha, mayli, aytganing bo'la qolsin, — debdi dehqon.

Shayton dehqonning bo'yniga minib, uch kecha-yu uch kunduz ashula aytibdi, oxirida:

— Endi mening ashulam tamom bo'ldi, deb dehqonning ustidan tushibdi. Dehqon shaytonning kiftiga minib olib, yetti kecha-yu yetti kunduzgacha “tarala-tarala”dan boshqa narsani aytmabdi.

Yetti kundan keyin dehqon shaytonga:

— Hali sen “tarala-tarala”sini eshityapsan, “tarala”si qirq kunga boradi. Bundan boshqa ashulam juda ko'p, ularni aytib tamom qilib bo'lmaydi, — debdi. Shayton dehqonni yelkasidan itqitib tashlab, urushib, bordi-keldini uzib ketibdi. Shunday qilib, dehqon ikki xum tillaga ega bo'lib qolibdi.





OLTIN TARVUZ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'tgan zamonda bir kambag'al dehqon bor ekan. Uning atigi bir tanobgina yeri bor ekan. Dehqon shu yerda kecha-yu kunduz tinmay mehnat qilib kun kechirar ekan. Bahor kelibdi. Dehqon yer haydashni boshlabdi. Yerni ikki marta haydab bo'lib, yaqinidagi katta soyning bo'yida salqinlab o'tirsa, osmonda uchib kelayotgan bir laylak yiqilib tushibdi. Dehqon qarasa, laylakning qanoti siniq emish. Dehqon haligi laylakni darrov uyiga olib borib, siniq qanotini taxtakach bilan bog'lab, bir qancha vaqt uni boqibdi. Laylak sog'ayib, uchib ketibdi.

Bir kuni dehqon chigit ekib yursa, laylak pastlab uchib o'tibdi. Dehqon esa chigitni ekaveribdi. Biroq laylak yana pastlab o'tibdi va uch dona tarvuz urug'i tashlab ketibdi. Dehqon ularni ham ekib qo'yibdi.

Bir qancha kundan keyin chigit bilan baravar tarvuz urug'i ham unib chiqibdi. Dehqon ekinni vaqtida o'tabdi, sug'oribdi, chopibdi. Shunday qilib, hosilni yig'adigan payt ham kelibdi. Bir kuni dehqon uchta tarvuzni uzib, uyiga olib ketibdi. Tarvuzlar juda katta ekan. Dehqon o'zining yaqin qarindosh-urug'lari va oshna-og'aynilarini mehmonga chaqiribdi. Bir mahal tarvuzga pichoq ursa, pichoq sira botmas emish. Uni qo'yib ikkinchisini so'ymoqchi bo'libdi, pichoq o'tmabdi, uchinchisi ham shunday bo'libdi. Dehqon ham, mehmonlar ham hayron bo'lishibdi. Yerga bir urib yorib qarasar, ichi to'la tilla emish. Qolgan ikkitasini ham yorib ko'rishibdi. Ularning ichi ham tilla emish. Kambag'al sevinib ketibdi va hammasini mehmonlarga ulashibdi, ular ham xursand bo'lib, uy-uylariga tarqabдилar. Uch tup tarvuzning har biri o'ntadan solgan ekan. Dehqon qolgan tarvuzlarni ham yig'ib olibdi. Shunday qilib kambag'al dehqon juda boyib ketibdi.

Uning bir boy dehqon qo'shnisi bor ekan. U haligi kambag'al dehqondan: "Sen nima qilib boyiding?" — deb so'rabdi. Dehqon bo'lgan voqeani aytib beribdi:

— Qo'shni, mening yerimni o'zingiz bilasiz. Erta bahordan yerni haydashga kirishdim. Bir kuni charchab, soy bo'yida salqinlab o'tirsam, osmonda uchib ketayotgan bir laylak yiqilib tushdi. Qarasam, bir qanoti singan ekan. Rahmim kelib, ko'tarib uyga olib keldim. Qanotini taxtakach bilan bog'lab, dori-darmon



bilan parvarish qildim, boqdim. Laylak bir necha kundan keyin tamom sog'ayib uchib ketdi. Kunlardan bir kun yer haydab bo'lib, chigit ekib yursam, haligi laylak tepamdan uchib o'tdi. Ishimni qilaverdim. Birozdan so'ng laylak orqasiga qaytdi. Qaytishda pastlab uchib, yerga uch dona tarvuz urug'i tashlab o'tdi. Urug'lar yerdan unib chiqdi. Uni g'o'zalarim bilan birga parvarish qilaberdim. Tarvuzlarni so'ysam, ichidan tilla chiqdi. Shunday qilib, boyib ketdim, — debdi.

Buni eshitgan boy dehqon: “Zora men ham shunday oltinlarni qo'lga kiritsam” deb soy bo'yiga boribdi. Bir vaqt boy nariroqda laylakni ko'ribdi. U sekin borib, poylab turib laylakning oyog'iga tayoq otibdi. Laylakning oyog'i sinib, ucholmay qolibdi. Boy darrov uni tutib, uyga olib kelibdi, oyog'iga taxtakach bog'lab, parvarish qilibdi. Bir qancha kundan keyin laylakning oyog'i tuzalib uchib ketibdi. Boy dehqon har kuni dalaga chiqib, laylakni kutaveribdi. Kunlarning birida uning tepasidan tanish laylak o'ta turib ikki dona urug' tashlab ketibdi. Urug' ko'karib chiqib, tarvuz solibdi. Tarvuz pishishi bilan boy dehqon hamma qarindosh-urug'larini mehmonga chaqiribdi. Tarvuzga pichoq urgan zamon ichidan katta-katta qovog'arilar chiqib, o'tirganlarni talay boshlabdi. Boy tura solib ularni haydamoqchi bo'lganda, arilar uni boshi demay, yuzi demay chaqib tashlayveribdi. Oradan sal vaqt o'tgach, boyning kallasi, burni, lablari shishib ketibdi. Buning alamiga chidolmay, o'zini katta suvga tashlab cho'kib ketibdi.



Kambag'al dehqon halollik bilan murod-u maqsadiga yetibdi, boy dehqon o'z qilmishiga yarasha jazosini tortibdi.



QARG'AVOY

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, kap-katta ochko'z Qarg'avoy bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni Qarg'avoyning ovi baror olmay, qorni och qoldi. U ov qidirib, ko'p sarson bo'ldi.

Yuraverdi, yuraverdi. Uchaverdi, uchaverdi. Eng oxiri dengiz labiga borib qoldi.

Dengiz bo'yida barragina qo'zichoq o'tlab yurar edi. Qarg'a uchib borib, qo'zichoqning qoq beliga qo'ndi.

– Kish! – dedi qo'zichoq.

– Qor-qor! – dedi Qarg'avoy. – Qo'zichoq, men seni yeyman.

Qo'zichoq qo'rqib ketdi. U ingichka ovozi bilan ma'rab:

– Me-en hali yoshman. Rahm qil. Me-ni ema!

Qarg'a bo'lsa yana qattiqroq qag'illab, dedi:

– Qo-or-r-r, qo-o-o-r-r-r. Qarg'a yosh qo'zichoqlarni yaxshi ko'radi. Men seni eyman!

Qo'zichoq nima qilishini bilmay qoldi. Birdan iljayib, dedi:

– Mayli, Qarg'avoy, men rozi.

– Juda soz!

Qarg'avoy qo'zichoqni yemoqchi bo'lib, og'zini ochdi.

– To'xtab tur! – dedi qo'zichoq. – Ovqat yeyishdan oldin qo'lingni yuv, og'zingni chayqa!

– Nima uchun?

– Toza bo'lasan.

– Xo'p, – dedi Qarg'a.

Qarg'avoy uchib, dengizga bordi.

– Qor, qor! Dengiz, dengiz!

– Labbay.

– Menga suv ber!

– Nima uchun?

– Og'zimni chayqab, barra qo'zichoqni maza qilib yeyman!

Dengiz javob berdi:

– Yaxshi. Bor, kuloldan ko'za keltir.





Qarg'a tezlikda kulolga chopdi. Kulol loy pishitib o'tirar edi.

— Qor, qor! Kulol, kulol! — dedi Qarg'avoy, xunuk ovozi baland qo'yib.

— Menga ko'za ber, ko'zani dengizga eltaman, dengiz menga suv beradi, suvga og'zimni chayqayman, so'ngra barragina qo'zichoqni maza qilib yeyman.

Kulol javob berdi:

— Xo'p, Qarg'avoy. Lekin tuproqko'rg'ondan tuproq keltirgin, ko'za yasab beraman.

Qarg'a halloslab, tuproqko'rg'onga bordi.

— Qor-r-r, qor-r-r! Qo'rg'on, Qo'rg'on! Menga tuproq ber, tuproqni kulolga eltaman, kulol ko'za yasab beradi, ko'zani dengizga eltaman, dengiz menga suv beradi, suv bilan og'zimni chayqayman, so'ngra barra qo'zichoqni maza qilib yeyman.

Qo'rg'on dedi:

— Sendan har qancha tuproqni ayamayman.

Temirchiga borib, tesha keltirgin!

Qarg'a suyunib: "Ish o'ngidan kelyapti", dedi. U to'g'ri temirchining oldiga bordi.

— Qor-r-r, qor-r-r! Temirchi amaki! Ho, Temirchi amaki! — dedi Qarg'avoy.

— Menga tesha bering, teshani qo'rg'onga eltaman, qo'rg'on menga tuproq beradi, tuproqni kulolga eltaman, kulol ko'za beradi, ko'zani dengizga eltaman, dengiz suv beradi, suvga og'zimni chayqayman, keyin barra qo'zichoqni maza qilib yeyman.

Bu gapni eshitib, temirchining ensasi qotdi.


— Olov keltir, teshani o'tga solib, peshlab beraman, — dedi u.

— Xo'p!

Qarg'a olov axtarib ketdi.

Bir kampir chavati pishirib o'tirar edi.

— Qor, qor! Kampir ona, menga olov ber, — dedi qarg'a uchib kelib. — Olovni temirchiga eltaman, temirchi tesha yasab beradi, tesha bilan tuproqko'rg'onga boraman, u tuproq beradi, tuproqni kulolga eltaman, u





ko'za yasab beradi, ko'zani dengizga eltaman, u suv beradi, suvga og'zimni chayqab, barragina qo'zichoqni maza qilib yeyman.

Kampir o'zicha o'yladi: "Mayli, olov beray, bir kuyib o'lsin!"

– Olaqol!

Qarg'a qo'liga bir siqim kul olib, olovni uning ustiga qo'ydi-da, tez uchib ketdi. Kampir nima qilarini bilmay, hayron bo'lib qolaverdi.

Qarg'a olovni temirchiga berdi, temirchi qarg'avoy ko'tara olmasin deb, tesha o'rniga ketmon yasab berdi. Qarg'a ketmonni zo'rg'a ko'tarib tuproqzo'rg'onga bordi, qo'rg'on ko'p tuproq berdi, tuproqni kulolga eltdi, kulol beso'naqay ko'za yasab berdi, ko'zani zo'rg'a ko'tarib dengizga bordi va dedi:

– Ko'za keltirdim, suv ber!

– Olaqol!

Qarg'a juda charchagan edi. U, ko'za dengizga tushib ketmasin deb, uni dumiga bog'lab oldi-da, suvga soldi.

Ko'zaga suv to'la boshladi. U borgan sari og'irlashaverdi. Ochko'z Qarg'avoy bira-to'la ko'proq suv g'amlamoqni xayol qildi. Ko'za to'ldi. Qarg'avoy uni ko'tarib, uchish uchun qanotlarini yozdi, oyoqlarini ko'tardi, lekin uni ko'tara olmay, tiyg'onib ketib, dengizga quladi.

Ming talpinib qanot yozsa ham, bo'lmadi – cho'kib ketdi.

Buni ko'rgan qo'zichoq tumshug'ini osmonga ko'tarib kulib qo'ydi.

GILAM

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, burungi zamonda bir podsho bor ekan. Kunlardan bir kuni u kambag'al odamning qiziga sovchi yuboribdi. Sovchilar kelib, podshoning so'zini qizga aytishibdi. Kambag'alning qizi sovchilarga:

– Podshoga borib aytinglar, menga uylanmoqchi bo'lsa, men roziman. Lekin podsho birorta hunarni bilsagina, unga tegaman, bilmasa, o'rgansin, — debdi.

Sovchilar podshoning oldiga kelib, qizning shartini aytishibdi. Podsho bu gapni eshitib, avval achchig'i chiqibdi, so'ng o'ylanib turib, qizning gapi



ta'sir qilibdi: “Podsholigim hunar emas ekan-da. Hay, hunar ham o'rganay”, deb o'z o'rniga vazirini qoldirib, hunar axtarib chiqib ketibdi. Hamma hunarlarni ko'rib, gilamchilik ma'qul bo'libdi. Gilam to'qiydigan bir yaxshi ustani topib, unga shogird tushibdi. Uch yil-u uch oy deganda gilam to'qishni o'rganibdi. O'z qo'li bilan gilam to'qib, qizning uyiga yuboribdi: “Hunar o'rgandik, shartini bajardik”, — debdi. Qiz:

— Podsho shartini bajargan bo'lsa, men ham so'zimda turibman, — debdi.

Podsho to'y-tomosha qilib, qizni olibdi, baxtli yashab, podsholigini qilib yuraveribdi.


Kunlardan bir kun shu podsho mamlakatidagi elning savdogarlari, katta-katta boylaridan bir qancha kishi bedarak yo'qolibdi. Qancha amaldorlar axtarib, ularning daragini topmabdi. Bu xabar podshoga yetibdi. Podsho: “Bularni o'zim axtaraman, shaharda bir sir borga o'xshaydi, buni bilmasam bo'lmaydi”, — deb podsholik kiyimlarini yechib, boshqa kiyimlar kiyib, kechasi el-u xalq yotgandan keyin, shaharni aylanmoqchi bo'lib chiqib ketibdi. Bir kun aylanib yursa, uzoqdan bir chiroq ko'rinibdi. Podsho to'g'ri shu chiroq ko'ringan joyga borsa, oshxona ekan. Oshxonaning ichida odamlar ovqat yeb o'tirgan ekanlar. Eshikni ochib qarashi bilan, oshxona egasining ko'zi podshoga tushibdi va:

— Nima ishingiz bor? — deb shohdan so'rabdi. Podsho:

— Qornim och, ovqat yemoqchiman, — debdi. Oshxona egasi:

— Qani, ichkari kiring, to'rga o'ting, — deb podshoni ichkari uyga olib kiribdi. Podsho to'rga o'tayotib, yerning ostiga tushib ketibdi, qarasa, ro'parasida bir odam turibdi. U odam podshoning qo'lidan tutib, ichkari uyga olib kiribdi. Uyda odam juda ko'p ekan. Podsho qo'rqib, esidan adashib, xayoli qochibdi. So'ng qorovulga:

— Sizlar kimsizlar? Sizga jon kerakmi, mol kerakmi, pul kerakmi? — debdi. Ular:





— Bizga jondan boshqa bari kerak, u bo'lmasa, jon kerak, hozir sening kallang kerak, — deyishibdi. Podsho:

— Pul, mol topib bersam, bo'ladimi? — debdi. Ular:

— Bo'ladi, — deyishibdi. Podsho:

— Unday bo'lsa, bir hunar ko'rsataman, mening aytganimni qilaszlar. Men bir gilam to'qib beraman, shuni podshoga olib borsanglar, ming tilla beradi, — debdi. Ular:

— Qani, hunaringni ko'raylik, — deyishibdi. Podsho u kerak, bu kerak, deb gilam to'qish uchun kerakli narsalarni aytibdi. Haligi odamlar bozorga borib, podshoning aytgan narsalarini olib kelishibdi. Podsho ipakdan bir gilam to'qib:

— Mana bu gilamni podshoga olib boringlar. Podsho sizga ming tilla beradi, — debdi.

Haligi odamlar gilamni ko'tarib podsho saroyiga olib borishibdi. Saroydan bir mahram chiqib, gilamni ichkari olib kirib, kimga berishini bilmay, vazir bilan maslahatlashibdi. Bular podshoni yo'qotib, hayron bo'lib yurgan ekanlar, gilamni podshoning xotiniga ko'rsatibdilar. Xotin eri to'qigan gilamni tanib, gilam keltirgan odamlarga ming tilla berib yuborib, orqasidan odam qo'yibdi. O'g'ri tillalarni olib suyunib, to'g'ri oshxonaga kirib boribdi. Orqasidan poylab kelgan odam vazirga xabar beribdi. Vazir bir qancha askarlarini olib kelib, oshxonani o'rab, ichkariga kirib, podshoni topibdi. Podsho o'ziga o'xshab qo'lga tushgan odamlarni ozod qilibdi. O'g'rilarning qo'lini bog'lab, saroyga keltiribdi va hammasini dorga ostiribdi.

Podsho o'z hunaridan xursand bo'lib, xotini bilan baxtli yashab, murod-maqsadiga yetibdi.



QURBAQA QIZ

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg‘a qaqimchi, chumchuq chaqimchi ekan, bir zamonda chol-u kampir o‘tgan ekan. Ularning farzandlari yo‘q ekan.

Bir kuni kechasi kampir nola qilib:

— Shu choqqacha bizda farzand yo‘q. Endi qurbaqa bo‘lsa ham, bir qiz bo‘lsa edi, — debdi.

Bir oy o‘tgandan keyin kampir bir qurbaqa qiz ko‘ribdi. Qurbaqa qiz tezda katta bo‘libdi. Uning tili ham chiqibdi. Qurbaqa qiz uydan hovliga, hovlidan uyga kirib chiqadigan bo‘libdi.

Bir kuni kampir bog‘da ishlayotgan choliga choy, non olib borib berishga holi bo‘lmay: “Uh, qarigan chog‘imda qani endi bir farzandim bo‘lsa-yu, hozir shu choy bilan nonni cholimga olib borsa” debdi o‘ziga-o‘zi.

Qurbaqa qiz onasining bu gapini eshitib:

— Buvijon, non bilan choyni dadamga men olib boraman, — debdi.


— Voy, o‘rgilay qizim, qanday qilib borasan? Nonni ko‘tarib boradigan qo‘ling bo‘lmasa, — debdi kampir. Shunda qurbaqa qiz:

— To‘rtta nonni ustimga yuklab, to‘rtta oyog‘imga bog‘lab qo‘ying, — debdi.

Kampir suyunib, qiz aytganday qilib nonni ustiga yuklab qo‘yibdi. Qurbaqa qiz bog‘ga borsa, bog‘ning eshigi berk ekan. Nima qilishini bilmasdan, uyoqdan-buyoqqa vaqillab, irg‘iy boshlabdi. Buni eshitgan otasi bog‘ning eshigini ochib, qizini ko‘ribdi va bog‘ga olib kirib ketibdi.

Dadasi ovqatlanib o‘tirgan ekan, qiz unga:

— Dadajon, meni tomning ustiga chiqarib qo‘ying, — debdi.





Dadasi hayron bo'lib:

— Qizim, tomda nima qilasan? — debdi.

— Dadajon, tomning ustiga chiqqim kelyapti, — deb yolvorgan ekan, dadasi uni tomning ustiga chiqarib qo'yibdi. Qurbaqa qiz tomning ustiga chiqib olib, ashula ayta boshlabdi. Uning ashulasini ko'chadan o'tib ketayotgan shahzoda eshitib qolibdi va ashula aytayotgan kim ekanligini bilmoqchi bo'lib, bog'ga kiribdi.

— Ashula aytayotgan qiz kimning qizi? — deb so'rabdi choldan shahzoda.

Chol hech narsa demabdi. Shahzoda kechasi bilan u qizni o'ylab uxlamay chiqibdi, jarangdor ovozli qiz shahzodaning ko'z o'ngidan hech nari ketmabdi.



Ertasiga shahzoda yana o'sha joydan o'tibdi. Qurbaqa qiz ham shu paytda otasiga choy, non olib kelgan va tom ustiga chiqib yana o'sha ashulasini boshlagan ekan. Uning ashulasini eshitgan shahzoda yana bog'ga kiribdi va ashula kelayotgan tomonga qarab, tom ustidagi qurbaqa qizni ko'rib qolibdi.

— Otajon, bu kimning qizi? — deb so'rabdi.

— Kecha ham shu qiz ashula aytgan edi, senga uni ko'rsatgani nomus qilgan

edim, bu — mening qizim, — debdi chol.

— Shu qizingizni menga bersangiz, — debdi shahzoda.

— Bu qurbaqa-ku, qanday qilib uni sen xotinlikka olasan? — debdi chol.

— Xotin qilmasam ham, ashulasini eshitib yuraman! — debdi shahzoda.

Dadasi qizidan so'rabdi:

— Qizim, shahzoda seni olmoqchi, sen nima deysan?

Shunda qurbaqa qiz turib:

— Agar meni shahzoda olmoqchi bo'lsa, bitta oq xo'rozni yuganlab, yasatib va shohona kiyimlarni olib kelsin! — debdi.

Ertasiga shahzoda qizning aytganlarini yuboribdi. Qiz shohona kiyimlarni



kiyib, xo'rozga minib, shahzodaning oldiga jo'nabdi. Qurbaqa qizni shahzodaning saroyiga qo'yishmabdi. Shunda qiz:

— Men shahzodaning qaylig'i bo'laman, — degan ekan, darvozabonlar uni qo'yib yuborishibdi. Qurbaqa qiz darvozadan kirishi bilanoq, oq xo'roz yasatilgan oq otga aylanibdi. Qurbaqa qiz esa tengi yo'q chiroyli malikaga aylanib qolibdi. Shahzoda uning oldiga peshvoz chiqibdi, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y-tomosha qilib, qizga uylanibdi.

Podshoga qurbaqa qiz uchinchi — eng kichik kelin ekan. Bir kuni podshoga uning katta kelini oq gul, o'rtancha kelini qizil gul, eng kichigi esa bir dasta bug'doy boshog'ini sovg'a qilib, olib kiribdi. Kenja kelinining aqlliligini ko'rgan podsho:

— Mening hamma boyligim va taxtim kichik o'g'limga bo'lsin, — deb vasiyat qilibdi. Shunday qilib, shahzoda bilan qurbaqa qiz yaxshi hayot kechirib, murod-u maqsadlariga yetishibdi.

O'TINCHI YIGIT BILAN SHER

Bir yigit dalaga o'tin tergani chiqibdi. Bir daraxt yoniga kelib, shu daraxtni yiqitmoqchi bo'libdi. Bir sher kelib qolib:

— Ey, odamzod, nimaga kelding, bu yerda nima ish qilasan? — debdi.

U yigit:

— Mana shu terakni qulataman, — debdi.

Sher:

— Men shunday kuchim bilan bu terakni qulata olmayman-ku, sen qanday qilib qulatasan? — debdi.

Yigit:

— Ey, jo'ra, men juda zo'rman, — debdi.

Sher:

— Sen zo'r bo'lsang, kel, ikkovimiz kurashib kuchimizni sinaymiz, — debdi.

Yigit:



— Mayli, kurashamiz, — debdi. Ikkovi kurashmoqchi bo'lib turganda yigit:
— Kuchimning yarmi uyda qolibdi, borib olib kelishim kerak, — debdi.

Sher:

— Ha, borib kel, bo'lmasa, yiqilsang, kuchim uyda qolgan edi, deb tan bermay yurarsan, — debdi. Yigit kuchini olib kelmoqchi bo'lib ketib, bir joyda ko'rinmay berkinib turib, yana qaytib kelibdi. Sher:

— Olib keldingmi? — debdi.

— Olib keldim, — debdi yigit.

— Unday bo'lsa, qani, kurashaylik, — debdi sher. Yana ikkovi kurashmoqchi bo'lib turganda yigit:

— Ey, sher jo'ra, kuchimning tag'in pichasi uyda qolibdi. Olib kelay, — deb ketib, yo'ldan qaytib kelib:

— Sen qochib ketma, — debdi.

Sher:

— Yo'q, men qochmayman, sherning gapi bir, — debdi.

Yigit:

— Yo'q, senga ishonmayman. Seni bog'lab ketaman, — debdi.

Sher:

— Bog'lay qol, — deb o'zini bog'latibdi. Yigit sherni mahkam bog'labdi. Toldan yaxshi bir tayoq qilib olib, gursillatib sherni ura boshlabdi.

Sherning: "Jon odamzod, meni urma, endi odamzodga yo'liqmayman", — deb yalinganiga ham qaramay, uraveribdi. Shu payt bir yo'lbars kelib qolibdi. Yigit yo'lbarsdan qo'rqib, terak boshiga chiqib ketibdi. Yo'lbars sherning bog'lanib yotganini ko'rib:

— Ey, sher, shuncha kuching bilan nimaga o'zingni odamzodga urdirasan? — debdi.

Sher:

— Esing bo'lsa, odamzodga yo'liqma. Qoch bu yerdan, seni ham ushlab, bog'lab uradi, — debdi. Yo'lbars sherdan bu gapni eshitishi bilan orqasiga qaramay qochib ketibdi. Yigit terak ustidan tushib, sherni bo'shatib yuboribdi. Terakni qulatib, arralab uyiga olib borib, murod-maqsadiga yetibdi.






O'zbek xalq afsona va rivoyatlari

OY BILAN SHIRIN

Shirin degan qiz shunday go'zal ediki, tug'ilib, balog'atga yetgandan so'ng, husnining ta'rifi butun olamga yoyilgan edi. O'sha zamonda dunyo bo'yicha Oy o'zini chiroyli sanab, yer yuzida yurar ekan. Hamma go'zallikda tengi yo'q Oyni maqtar ekan. Shirin balog'atga yetib, go'zalligi kundan-kun orta borgach, odamlar Oyni maqtamay, Shirinning husnini tilda doston qilibdilar. Bunga Oyning rashki kelib: "Nahotki, men turganimda Shirinni maqtashsa? Shirin bilan men husnimizni qiyoslab ko'raylik-chi, so'ngra mening kim ekanimni bilib qo'ysinlar", debdi. Shirinni o'z yoniga chaqirib: "Sen kim-u men kim? El og'zida sening husning ovozi olamni tutyapti. Kel, ikkimiz o'zimizni taroziga solib, tortib ko'raylik-chi, kim chiroyli bo'lsa, tarozidan ma'lum bo'ladi", — dedi. Shirin xijolat chekib: "Husnda siz ziyodasiz, qo'ying, meni uyaltirmang. Men husn da'vosini qilmayman", — debdi. Bunga Oyning jahli chiqib: "Sen husn da'vosini qilmasang ham, go'yo odamlar nazarida sen mendan chiroyli emishsan. Bir tarozida tortishib, sinashmasak bo'lmaydi", — debdi. Shirinni qo'yarda-qo'ymay tarozi oldiga olib boribdi. Tomoshaga xaloyiq yig'ilgan ekan. Oy mag'rurlanib: "Mana Shirin-u mana men, ko'rarsizlar hozir, husnda kim g'olib chiqar ekan?", — deb yalpayib tarozining bir pallasiga chiqib olibdi. Shirin uyalib, noiloj o'ng oyog'ini: "Bismillo", deb tarozining bo'sh pallasiga qo'ygani ham yo'q ekan, Oy laylak bo'lib, osmonga chiqib ketibdi. Xijolatdan Oy qaytib, yer yuziga tusholmay, shu-shu qolib ketgan ekan.





NON HIDI

Sulton Husayn Boyqaro: “Dunyodagi eng yaxshi hidni keltiring!” — deb qolibdi. Unga quchoq-quchoq gul keltirishibdi. Sulton: “Yo‘q”, — debdi, qalampirmunchoqni ro‘baro‘ qilishibdi, rad etibdi. Yer yuzidagi jamiki xushbo‘y narsalarni muhayyo qilishibdi. Sulton bo‘lsa: “Men aytgan bu emas”, — deb turib olibdi. Keyin:

— Uch kun muhlat ichida — topsalaring topganlaring, bo‘lmasa hammangni jazoga torttiramani, — debdi.

Vazirlar nima qilishni bilolmay, o‘layverib boshlari qotibdi. Husayn Boyqaro istagan hidni topisha olmay, oxiri Navoiyning oldiga borishibdi.

— Sultonimiz aytgan hidni topib, bizni halokatdan saqlab qoling, — deyishibdi.



Do‘stining ko‘ngli qanday hidni istaganini bilolmay, Navoiyning ham boshi qotibdi. Dehqon bobodan so‘ragan ekan, u:

—Yangi yopilgan nondan olib boringlar-chi, otam rahmatli: “Dunyoda eng lazzeatli va yoqimli

hid — qayroqi bug‘doy unidan yopilgan tandir non, hech qaysi hid unga etolmaydi”, — deguvchi edilar, — deb maslahat beribdi.

Navoiy xursand bo‘lib, dehqonning aytganini qilib, bir savat non yoptiribdi-da, saroyga yetib boribdi. Bir zumda saroyga ajib yoqimli hid tarqab, barchaning dilini yashnatib yuboribdi.

— Rahmat, do‘stim, — debdi Husayn Boyqaro, nonlarni ko‘rib. — Ko‘nglim yangi yopilgan non isini qo‘msayotgan edi, topib kelibsiz. Dunyoda yangi yopilgan nonning isidan ko‘ra yoqimliroq hid yo‘q...

— Sultonim, rahmatni menga emas, dehqon boboga ayting, ko‘nglingizning xohishini shu kishi topdi, — deb javob beribdi Navoiy.

Husayn Boyqaro dehqonga bosh-oyoq sarpo berishni buyuribdi.



IBN SINO VA KITOBLAR

Rivoyat qilishlaricha, Buxoro muzofotida dunyoga dong'i ketgan, mashhur hakimlarning hakimi dono Ibn Sino o'tgan ekan. Ibn Sino yoshligidanoq ilm-fanga berilib, ko'p o'qibdi. O'qigan kitoblari borki, uqibdi, yod olibdi. Bundan tashqari, hayvonlarning "gap-so'z"larini ham, parranda-darrandalarning tilini ham, giyohlarning holatini ham biladigan, tushunadigan bo'libdi. Bolalar o'yin-kulgu bilan band bo'lishsa, Ibn Sino chumoli, qumursqalarni tutish, ilon, qurbaqalarni ushlab bilan ovora ekan. O'z-o'zidan giyohlardan dori-darmonlar tayyorlab, oshnalaridan birini "kasal qilib", uni davolash bilan shug'ullanarkan. Bolasidagi bu qiliq-odatlarini ko'rgan ota-ona uni maktabga beribdi. Ibn Sino maktabda o'qiladigan kitoblarni allaqachon o'qib, uqib olgan ekan. Shuning uchun maktabga bormay qo'yibdi. Ota-onasi shaharda o'qisin, deb Buxoroga ko'chib kelishibdi. Ammo madrasadagilar eshigiga yaqinlashtirishmabdi. Ibn Sino noiloj yana o'zicha o'qib, uqib yuraveribdi. Yana giyoh, o't-alafklar to'plab, ilon, chayon, qurbaqa, toshbaqalarni tutib, ular ustida soatlab, kunlab, haftalab mashq qilib yuraveribdi.

Ba'zi bir kasallar oldiga kelsa, davolab, dardiga shifo bera boshlabdi. Bora-bora juda ham zo'r tabib bo'lib ketibdi. Ammo ko'pchilikka bildirmabdi, tabibligini sir saqlabdi. Baribir, Ibn Sino qanchalik sir saqlamasin, sirlari oshkora bo'laveribdi. Chunki "Gapni gap quvadi, sirni sir ochadi", degan naql bor. Ibn Sinodan shifo topgan odamlar bugun bir bo'lsa, ertasiga ikki bo'libdi. "Men falonchidan shifo topdim", — deb bir kishi ikkinchi kishiga aytga, ikkinchisi unga yana qo'shib: "Falonchi-falonchi Ibn Sinodan shifo topibdi, kasal edi, tuzalibdi", — deb gap tarqataveribdi. Hammayoqqa ovozasini ketibdi. Shunday bo'lsa ham, g'alamis tabiblar uni tan olishmas, shaharga yo'latishmas ekan. Kunlardan bir kuni dong taratishda Samarqandga teng keladigan, balkim undan o'tadigan Buxoro shahrining amiri kasalga chalinib, yotib qolibdi. Avvaliga saroy tabiblari: "Hech gapmas, amirimiz tuzalib ketadilar, kasallari unchalik og'ir emas", — deyishibdi. Qaratishibdi, davolatishibdi — amir tuzalmabdi. Keyinchalik boshqa mamlakatlardan mana man degan tabiblarni oldirib kelib, qaratishibdi, amir tuzalmabdi. Hech kim amirning dardiga



malham topa olmayotganini ko'rib, tabiblar xavotirga tushib qolishibdi. "Endi amirimiz o'lib qolarkan-da", — deyishib, o'zlarini uyoqqa urishibdi, buyoqqa urishibdi, hech nima chiqmabdi. Oralaridan birovining esiga Ibn Sino tushib, "Shuni chaqirtirsak-chi"?, deb qolibdi. Bu gap hammaga ma'qul tushibdi. Tezlikda Ibn Sinoni saroyga keltirishibdi. Bosh tabib unga yalinib-yolvoribdi.

— Ulug' amirimizning amr-u farmonlari shunday: biz u kishini davolashimiz kerak. Aks holda, hammamizning kallamiz qilichdan o'tkazilur yoxud dorga tortilurmiz, — debdi. Ibn Sino:

— Men nima qilmog'im darkor? — deb so'rabdi.

— Xonimizni tuzatmog'ing darkor, — deb javob beribdi bosh tabib.

Ibn Sino:

— Kasalni ko'rmay, tomirini ushlaymay, qanday davolayman? Axir, meni uning oldiga olib kiringlarda, — debdi.



Bosh tabib Ibn Sinoni amirning oldiga olib kiribdi. Ibn Sino kasalni ko'rib, tomirini ushlabdi-da, iziga qaytib, qishlog'iga qarab ketibdi. Ibn Sinoning kasalni ko'rib, tomirini ushlab, hech nima demasdan qishlog'iga qaytib ketganini amir o'zicha, tabiblar o'zicha tushunibdi. Amir: "Kasalim og'ir ekan, endi o'lar ekanman" deb o'ylagan bo'lsa, tabiblar: "Ibn Sino haliyam bizdan xafa ekan. Shohni tuzatsam, bular omon qoladi, tuzatmasam, ularning boshi ketadi degan" deb o'ylashibdi. Amir tabiblarni yoniga chaqirib: "Kasalimni tezlikda tuzatmasalaring, bolachaqalaring bilan qo'shib dorga torttiramani", — debdi. Tabiblarning yana boshlari qotibdi. Ibn Sinoga yana odam yubormoqchi bo'lishibdi. Shu payt Ibn Sinoning o'zi kirib kelibdi-da, amirning oldiga kirib, uyida tayyorlagan dorini beribdi. Amir dorini ichibdi. Ibn Sino hech kimni yoniga yo'latmay, amirning boshida unga tikilganicha o'ltiraveribdi. Amir uyquga ketibdi, ancha vaqt o'tgandan keyin o'ziga kelib, yemak so'rabdi. Ibn Sino suv berishlarini buyuribdi. Amir



o'ziga kelib, tuzalib qolgach, Ibn Sinodan: “Nima bersam xursand bo'lasan?” — deb so'rabdi. Ibn Sino hech narsa talab qilmabdi. “Bir qop tilla ol!” — debdi amir. Ibn Sino qabul qilmabdi. “Yurt so'ra, yurt beray”, — debdi amir. Ibn Sino hech narsa olmasligini aytibdi. “Suruv-suruv ot, qo'y beray”, — debdi amir. Ibn Sino yana: “Hech nima kerak emas”, — debdi. Amir so'ra, beray, deyavergach, Ibn Sino: “Amirim, men harakat qildim, Xudo shifo berdiyu, tuzalib oyoqqa turdingiz. Menga hech qanday tilla ham, yurt ham, suruv-suruv ot, qo'ylar ham kerak emas, qishlog'imga bir qiroatxona qurdirib, qirq tuya kitob bersangiz bo'lgani”, — debdi. Amir xursand bo'lib, barcha ustalarni yig'dirib, Ibn Sino qishlog'iga katta qiroatxona qurdirishga kirishdi. Butun dunyoga jar soldirib kitob yig'diribdi, o'zining boy kutubxonasidan ham eng nodir kitoblardan olib, 40 tuyaga yuklatib, Ibn Sino qishlog'iga jo'natibdi. Qiroatxona bitib, kitoblar keltirib bo'lingach, Ibn Sino kutubxona ichiga kirib ketibdi. Amirni o'limdan olib qolgan Ibn Sino el og'ziga tushib, dong'i har yonga ketibdi. Boshqa tabiblar unga hasad bilan qaray boshlashibdi. Ko'pchilik bo'lib Ibn Sinoning oldiga borishibdi. Kutubxonaga kirib, kitoblar orasidan Ibn Snoni zo'rg'a topishibdi-da, undan:

— Amirlikdan kelganingizdan beri shu yerda kitob titkilab yotibsizmi? — deb so'rashibdi. Ibn Sino:

— Ha, eng yaqin do'stlarim — kitoblar bilan suhbat qurib, kun-u oy, hafta-yu yillar o'tganini ham sezmayapman. Miyamni ilmga, cho'ntagimni xazinaga to'ldirish bilan bandman,— debdi.

— Tabiblik-chi, tabiblikni tashladingizmi? — deb so'rabdi tabiblardan biri.

— Yo'q, tabibligimni qiyomiga yetkazmoqdaman. Avval ulug' ustozlarimning pand-u nasihatlari, ko'rsatmalarini bilib olib, keyin davolashga o'taman. Men shu kungacha o'zimni tabib hisoblab, katta xatoga yo'l qo'ygan ekanman. Endi mana bu kitoblardan olganlarimni amaliyot bilan mustahkamlay olsamgina, o'zimni tabib deb atashga haqliman, — debdi.

Tabiblardan yana biri:

— Bordi-yu kutubxonangizga o't ketsa, nima bo'ladi? — debdi. Ibn Sino:

— Avvalambor, kutubxonamga o't ketishidan Xudo saqlasin, bordi-yu falokat ro'y berib, o't ketsa, unda cho'chydigan joyim yo'q. Hammasini yod bilurman,



qaytadan yozib chiqishga umrim yetsa, kifoya, — debdi. Tabiblar Ibn Sinoning zehni bilan xotirasiga qoyil qolib, kelgan joylariga qarab ketibdi. Oradan kunlar o'tibdi, oylar o'tibdi, baribir tabiblar hasad qilishni qo'ymabdilar. G'alamislik yo'liga o'tib, Ibn Sinoning kutubxonasiga o't qo'yibdilar. Bundan xabar topgan Ibn Sino chopib borib, kutubxona ichiga kiribdi. “Yaxshisi, do'stlarim bilan birga yona qolay”, — deya kitoblar orasida o'ltiraveribdi. Odamlar uni zo'rg'a qutqazib qolishibdi. Ibn Sino kuygan kitoblarni yoddan qayta bitib, tiklabdi-da, kutubxonani yangitdan qurdiribdi.

IBN SINO SHOGIRDLARI

Itabiblarning tabibi, ulug' hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og'rib, ko'rpa-to'shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do'st-birodarlari yig'ilishibdi. Do'st-birodarlari yaxshi so'z aytib, ulug' tabibning ko'nglini ko'tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do'st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

—Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko'rinadi. Shu bois meni davolayman deb, bexudaga harakat qilmanglar. Bordi-yu kunim bitib, vafot etsam, yig'i-sig'i, oh-voh qilmanglar. Faqat haqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar, bas. Va yana ustoz olamdan o'tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg'urmanglar. O'rnimga besh zo'r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o'zlaringiz ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham ularga da'vat etinglar, — debdi.

Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

— Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar? — deb so'rabdi.

Shunda Ibn Sino:

— Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblarimning biri — tozalik, ikkinchisi — parhez, uchinchisi — badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo'lishlik, ko'ringan narsani, ya'ni ovqatni ko'r-ko'rona



yeyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda perhez, me'yorni bilishlik, ichkilikka ruju qo'ymaslik, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmaslik va, nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish. Mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish uyoqda tursin, bevaqt o'lim ham orqaga chekinadi.

QALDIRG'OCH HIMMATI

Nuh payg'ambar davrida qattiq yog'ingarchilik bo'lib, hammayoqni suv bosib ketibdi. Odamlar, hayvonlar, dov-daraxtlar-u tog'-u toshlar ham suv ostida qolibdi. Shunda Nuh payg'ambar bir kema yasatibdi. Unga dunyodagi jamiki hasharot, parranda va hayvonlardan bir juftdan olib, "biron-bir joyda quruqlik qolgandir", deb yo'lga chiqibdi. Ummonga aylangan yer yuzida suzib ketayotsa, sichqon qurmagurning qitmirligi tutib, kemani teshib qo'yibdi. Teshikdan suv kirib, kema ichi suvga to'la boshlabdi. Nuh payg'ambar qarab tursa, kemaga suv to'lib, undagilar suvga g'arq bo'ladigan. Shunda u: "Kimda-kim teshikni to'sib, suvni to'xtatib qolsa, dunyodagi eng shirin go'shtni unga taqdim etaman", — debdi. Shunda ilon: "Buni men bajaraman", — debdi-da, kulcha bo'lib teshikka yotib olibdi. Suv to'xtabdi. Nuh payg'ambar yanglishmagan ekan.



Bir joyda quruqlik qolgan ekan, o'sha joyga etib borishibdi. Shunda ilon:

— Nuh, aytganingni bajar endi, — debdi. Nuh payg'ambar: "Dunyodagi eng shirin go'shtni bilib kelinglar", — deb, u qushni uyoqqa, bu qushni buyoqqa yuboribdi. Qaldirg'ochni ham bir yoqqa jo'natibdi. Ilon uch ko'chaning boshida kulcha bo'lib, ularni poylab yotibdi. Bir payt qushlardan biri kelib qolibdi.

— Dunyodagi eng shirin go'sht nima ekan? — deb so'rabdi.

— Toshbaqa go'shti ekan, — debdi qush. Ilon:



— Yo‘q, u sening go‘shting, — deb changal solib, uning o‘zini yutib yuboribdi. Keyin ari uchib kelibdi. Ilon:

— Dunyodagi eng shirin go‘st nimaniki ekan? — deb so‘rabdi.

— Dunyodagi eng shirin go‘st itniki ekan, — deb javob beribdi ari. Ilon bir chang solib, uning tilini uzib olibdi. Bir payt qaldirg‘och uchib kelib qolibdi. Ilon:

— Qani, sen ayt-chi, dunyodagi eng shirin go‘st nimaniki ekan? — debdi.

Qaldirg‘och hamma parranda-yu darranda ichida odamning go‘шти eng shirinligini bilar ekan. “Ilonga odam go‘шти shirin desam, u butun umr odamzodning go‘шти bilan ovqatlanadi, shundan keyin olamda odamzod qolmaydi”, deb o‘ylabdi-da, unga qarab:

— Qurbaqaning go‘шти dunyodagi eng shirin, totli go‘st ekan, — debdi. Ilon:

— Yolg‘on aytasan, — deb sapchib unga tashlangan ekan, qaldirg‘och epchillik bilan qochib qolibdi. Ilonning og‘zi uning dumiga tekkan ekan, qaldirg‘ochning dumi ayrilib, ochiq qaychiga o‘xshab qolibdi. Shu-shu, uning dumi qaychisimon emish. Odamzodni o‘ziga do‘st-oshna qilib olibdi. Qaldirg‘ochning odamlar uyiga in qurishi, ulardan qo‘rqmasligi shundan emish. Ilon bo‘lsa har doim undan qasdini olish niyatida yurarmish. Inini buzib, tuxumi yo bolasini yeb qo‘yishi ham shundan emish.

YETTI GO‘DAKNING RIZQI

Bir onaizorning eri janggohlarda qurbon bo‘lgandan so‘ng, u yetti nafar farzandi bilan qoladi. Ochlik va benavolik ularning madorini kundan-kunga qurita boshlaydi. Qish tugab, bahor boshlanganda ularning yillik tejagan oziq-ovqatlari ham nihoyasiga yetadi. Uydan hattoki bir parcha qotgan non uyoqda tursin, bir siqim un ham topish amrimahol edi. Ona sandiqni ochib qarasa, bir kaft bug‘doy turgan ekan, o‘shani avaylab-asrab, avval pishirmoqchi



bo'libdi. So'ng keyingi kunlarini o'ylab, bug'doyni bir parcha yerga sepibdi. Bolalar har kuni yerdan bug'doy unib chiqishini orziqib kutishar, onalariga biror narsa deyishga botina olishmabdi. Nihoyat, yer betini yam-yashil maysalar qoplay boshlabdi. Bolalarning shodligi yer-u ko'kka sig'masdi. Ammo bu maysalar o'sib, voyaga yetib bug'doy bo'lib pishishi uchun hali qancha kun, qancha oy o'tishini bilishmasdi ular. Ochlikdan madori qurigan kenjatoy ko'rpa-yostiqliq qilib yotib qolibdi. Ona boshqa hech qanday iloji qolmagach, ilhaq bolalarini o'ylab, o'sha sabz maysani maydalab, taom qilishga kirishibdi. Yana ikki-uch kundan keyin bahor o't-o'lanlari o'sib chiqqach, ochlikdan xalos bo'lishlarini munis va mushfiq onaizor yaxshi bilardi. Shu bois qozonni suvga to'ldirib, sabzani pishirishga kirishibdi. Tinka-madori qurigan bolalar har vaqt-har vaqt boshlarini ko'tarib, "non", deganlarida, ona bir marta qozonni kavlab qo'yar, bolalarni biron yumush bilan band qilish uchun tosh terib kelishni buyuribdi. Yetti bola yettita tosh olib kelibdilar. Ona: "Bu toshlar xosiyatli, ovqatni shirin qiladi", — deb maysa qaynayotgan qozonga tashlabdi. Bolalar ham, onasi ham horib-charchab uxlab qolishibdi. Ertalab turib qarashsa, qozonda mazali qiyom turgan emish. Ko'klamda sumalak pishirish, sumalak qaynayotgan qozonga yetti dona tosh tashlash udumlari ana shundan kelib chiqqan ekan.





O'zbek xalq dostonlari

GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI

(parcha)

Qadimgi zamonda Yovmit degan yurt bo'lgan ekan. Uning podshosi Odilxonning Urayxon va Ahmadbek ismli o'g'illari, Bibi Oysha degan qizi bor ekan. Mari degan boshqa yurt ham bo'lib, unga Qovishtixon xonlik qilarkan. Qovishtixonning To'liboy sinchi degan o'g'li bo'lgan ekan. Odilxon podsho Qovishtixonni yengib, uning o'g'lini o'z ixtiyoriga olibdi. To'liboy sinchi voyaga yetgach, Bibi Oyshani unga nikohlab beribdi. Vaqti-soati yetganda, ular o'g'il ko'rishibdi. Otini Ravshanbek qo'yishibdi. Taqdir taqozosini qarangi, Ravshanbek turkman yurti begi Jig'alixonning qizi Bibi Hilolga uylanibdi. Bibi Hilol farzand kuta boshlabdi. ...Ammo u olamdan o'tibdi. Otasining quli Rustambek uni ko'mibdi. Qabrda Bibi Hiloldan bola tug'ilibdi...

Hiloloyga jon kelmadi. Lekin bolaga ko'kragidan sut kelib yotibdi. Oradan uch yil o'tdi. Go'ro'g'li tug'ilgandan beri go'rda chiroq yonib turardi. Bir kuni lip etib o'chib qoldi. Yana uch kun o'tdi. Hiloloydan sut kelmay, badani ko'mirday bo'lib ketdi. Ana shunda Go'ro'g'li och qoldi, enasiga qarab bir so'z dedi:

Aytsam, yetgaymikan, enajon, zorim,
Yurakda g'amim ko'p, ichda zanglarim.
Ko'kragingga nimaga sut kelmaydi?
Ochlikdan, enajon, ketdi madorim!..

Bir teshikdan go'rning ichiga kunning shu'lasini tushdi. Go'ro'g'li kunning tushganini ko'rib, qo'li bilan ushlab olaman deb, kunga qo'l urdi, ushlay



olmadi. Ushlayman deb, qo'li go'ring tepasiga yetdi. Tirmalab-tirmalab, teshikni katta qilib, go'rdan tashqariga chiqib, hayron bo'lib qoldi. “Bu nima degan sir bo'lur?” — dedi. “Och qoldim”, — deb go'rga suyanib yotib qoldi. Buni ochlikdan yig'lab yotmoqqa qo'yib, endi gapni Rustambekning baytali (biya)dan eshiting.

Bir baytalning bolasi bo'lib, bolasining o'lganiga ichi kuyib, kishnab yurar edi. Go'ro'g'lining oldiga kelib qoldi. Baytalning ko'zi Go'ro'g'liga tushib, mehri jo'shib, unga suyanib, emiza berdi. Ana endi Go'ro'g'li bu baytalni emib, qorni to'yib-to'ymas bo'lib yuraverdi. Baytal har kuni uch vaqt emizib ketaverdi. Buning bilan Go'ro'g'lining kuni o'taverdi...

Bolalar, siz maktabga borganingizda o'qishni yozishni o'rganasiz va “Go'ro'g'li” dostonini o'qib chiqasiz. Unda Go'ro'g'lining xalqiga, vataniga o'tli muhabbatini, dushmanga qarshi ayovsiz kurashlarda qahramonlikning yuksak namunasini ko'rsatgan yengilmas bahodir bo'lganligining guvohi bo'lasiz.

SHIRIN BILAN SHAKAR

(parcha)

Quyonqi shahrida Qosimxon degan podsho bo'lgan ekan. U o'g'ilga zor ekan. Oxiri Bo'tako'z degan xotini o'g'il tug'ibdi. Unga Shakarbek deb ism qo'yishibdi. Ayni vaqtda vazirning xotini ham o'g'il ko'ribdi-yu, olamdan o'tibdi. Chaqaloqqa Shirin deb nom beribdilar. Bo'tako'z go'dakni o'z bag'riga olibdi. Ular Shirin bilan Shakar bo'lib yuraveribdilar.

...Bular birga, ikkiga kirdi, ikkidan uchga kirdi, tilga enganda (kirganda) maktabga bordi. Bir kuni ikkovi maslahat qilib, ovga chiqmoqchi bo'ldi.

Egarlab mindi-ku bul bedov otni,
Belga boylab sopi oltin pichoqni.
Ko'p qaradi yurib adir-tog'larni,
Suvsab, ochqab shunday cho'lda yuradi,
Uch kecha, uch kunduz xalak bo'ladi.



Shuncha yurib hech bir ongni ko'rmadi,
Qurug' kelgani ma'qul bilmadi.

Ular Quyonqi shahrining chetiga keldilar, bir sarhovuzning betida suzib yurgan g'ozni ko'rdilar. G'ozni ko'rib, Shakarbek Shirinbekka qarab bir so'z dedi:

— G'ozni otib birga olib boramiz,
Otamning ko'nglini shodmon qilamiz.

Bu so'zni eshitib, Shirinbek Shakarbekka qarab bir so'z aytib turgan ekan:

— Sen eshitgin mendek ukang arzini,
Otma sarhovuzning yuzgan g'ozini.
Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin,
G'ozni otib, aka, jabr ko'rmagin!
Bu so'zlarni aytdi Shirinbek nochor.
Achchig'lanib yoyga o'qni soladi,
Shakar g'ozni otmoqchi bo'p chog'landi.



G'oz Shakarbek o'qidan yaralandi va suvdan ko'tarildi. Bedov otdagi Shirin bilan Shakar g'ozni yo'qotib qo'ymaslik uchun undan ko'z uzmay chopdi. Yarador G'oz bolalarning o'gay onasi — Kenjaoyimning o'rdasiga kelib qo'ndi. Yosh ovchilar u yerga borib, Kenjaoyimdan g'ozni so'raydi.

Bu g'oz Kenjaoyimning ota yurtidan olib kelgan enchi (sovg'a qilingan) g'oz edi. Kunduz kuni sarhovuzda suzib yurar edi. Oqshomda Kenjaoyimning uyiga qaytar edi. Kenjaoyim g'ozni yarador ko'rib, uni quchoqlab, bu so'zni aytib turibdi:



...— Mening g‘ozim qizil qonga botipti,
Et qizuvda jonvor munda yetipti.
Juvonmarglik qib bag‘rim qonga to‘ldirding.
— Qo‘ying, ena, — deb bordi Bek Shakar,
Shirin-Shakar — bu ikkovi birikar,
Ikkovi bir bo‘lib tortib oladi,
G‘ozni olib, kula-kula jo‘nadi...

Bolalar, yuqorida aytganimizdek, siz maktabga borganingizda o‘qishni, yozishni o‘rganasiz va xuddi “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlari kabi “Shirin bilan Shakar” dostonini ham maza qilib o‘qib chiqasiz. Siz unda Kenjaoyim va otilgan g‘oz tufayli norasidalar boshiga qanday kulfatlar tushganini, matonatli aka-ukalarning o‘z maqsadlariga erishish yo‘lidagi harakatlarini bilib olasiz.





Jahon xalqlari ertaklari

ARSLON VA QUYON

(Qirg'iz xalq ertagi)

Qalin butazor ichida bir quyon yashar ekan. Barcha quyonlar kabi u ham qo'rqqoq bo'lib, uyasi oldidan nari ketmas ekan. Kunlardan bir kuni u: "Ertadan-kechgacha yotaverib ham zerikib ketdim. Botir bo'lmoq va atrofda, umuman, dunyoda nimalar bo'layotganini ko'rmoq kerak", degan qarorga kelibdi.

U uyasidan chiqib, atrofga nazar tashlab, o'zini bardam ko'rsatmoq uchun tishlarini tirjaytirib, chakalakzor tomon yo'l olibdi.

Bir vaqt qarshisidan arslon chiqib kelgan ekan, quyon qo'rqqanidan qotib qolibdi.

Arslon yaqin kelibdi-da, tishlarini g'ijirlatib:

— Ey, uzunquloq, qo'limga tushding-ku, endi seni yeyman, — debdi.

Quyon o'zini bardam tutishga harakat qilib, arslonga shunday debdi:

— O'zing bilasan, yesang ham bo'laveradi. Lekin men bir sirni bilaman, uni senga aytishim mumkin.

— Gapir siringni, tezroq bo'!

— Sen juda kuchlisan. Men sening qudratingga, kuchingga ishonaman. Ammo shu yaqindagi quduq tubida yana bir arslon bor, seni tilka-pora qilaman, deb maqtanib yuribdi. Avval u bilan uchrashib, esini joyiga keltirib, keyin meni yesang bo'larmidi? Axir, men hech qayerga qochib ketmayman.

Arslonning g'azabi kelib:

— Qayerda u? Meni uning yoniga olib bor! — debdi.

Quyon uni yaqin-o'rtadagi bir quduqqa boshlab boribdi-da:

— Mana bu yerda, o'zing bir qara, — debdi.

Arslon suvda o'zining aksini ko'rib, o'kirishga tushibdi:



— Nahotki, men undan kuchli bo‘lmasam? Nima, u men bilan kuch sinashmoqchimi? Hozir unga kuchimni ko‘rsatib qo‘yaman.

Shunday deb Arslon o‘zini quduqqa tashlab, cho‘kib ketibdi.

Quyvon bo‘lsa hech gap bo‘lmagandek pildiragancha jo‘nab qolibdi.

UCH O‘G‘IL

(Uyg‘ur xalq ertagi)

Bor ekan, yo‘q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. Uning tirikchiligi yaxshi ham, yomon ham emas ekan. Uning uch o‘g‘li bor ekan. Bir kuni dehqon uzoq safarga chiqmoqchi bo‘libdi. Yo‘lga chiqish oldidan o‘g‘illarini yoniga chaqirib shunday debdi.

— Men uzoq yurtlarga ketyapman. Har biringizga bir juftdan tovuq, o‘rdak, g‘oz berib ketaman. Men kelguncha ularning tuxumini sotinglar, lekin pulini sarflamay yig‘ib qo‘yinglar. Keyin o‘zlaringga kerak bo‘ladi.

Dehqon to‘ng‘ich o‘g‘liga bir juft tovuq, o‘rtanchasiga bir juft o‘rdak, kenjasiga bir juft g‘oz beribdi-da, jo‘nab ketibdi.

Oradan bir necha kun o‘tgach, parrandalar tuxum tug‘a boshlabdilar. Uch o‘g‘il tuxumlarni sota boshlashibdi. Qo‘liga pul tushgan katta o‘g‘ilning fikri buzilibdi. “Tuxumning pulini yig‘ib nima qildim? Dadam kelgunicha yaxshilab o‘ynab olay. Dadam kelib tuxumning pulini so‘rasa, tovug‘ingiz tug‘mas ekan, deyman” degan xayolga boribdi.

O‘rtancha o‘g‘il oldin o‘rdakning tuxumlarini, keyin o‘zini ham sotib yuboribdi. Ikki aka-uka do‘ppisini yarimta qilib yuraverishibdi. Kenja o‘g‘il esa g‘ozning tuxumlarini yig‘ib, bostiribdi. G‘ozlarni ko‘paytirib, ularning tuxumini sotibdi. Otasi kelgunicha anchagina pul yig‘ibdi. Otasi safardan qaytgach, to‘ng‘ich o‘g‘lini huzuriga chaqiribdi. U oldindan tayyorlab qo‘ygan javobini aytibdi. “Sen yaxshi odam bo‘lmas ekansan. Qariganimda kunimga asqotmas ekansan”, — deya ko‘nglidan kechiribdi ota. O‘rtancha o‘g‘lini chaqirgan ekan, u ham yolg‘on gapiribdi. “Sen qariganimda menga qarash tugul, o‘zingni ham



eplolmas ekansan”, — deya ko‘nglidan kechiribdi ota. Kenja o‘g‘il otasi gap so‘rashini kutib o‘tirmasdanoq tuxum sotib yig‘gan pullarini beribdi. G‘ozlarini ko‘rsatibdi. Ota mamnun bo‘lib ko‘nglidan kechiribdi: “Sen mehnatkash, yaxshi odam bo‘lar ekansan”.

Oradan yillar o‘tibdi, o‘g‘illar er yetibdi. Ota avval ikki katta o‘g‘lini, keyin kenjasini uylantirib qo‘yibdi. Ammo ikki katta o‘g‘lining turmushi birinchi kundanoq o‘xshamabdi. Ular tez orada uyidagi bor bisotini sotib, yeb-ichib tugatishibdi-da, yana otalarining qo‘liga qaram bo‘lib o‘tiraveribdilar. Kenja esa tadbirkorlik bilan ish tutib, kundan-kunga yaxshi yashay boshlabdi. Otasining hurmatini joyiga qo‘yib, izzat-ikrom qilibdi. Dehqon kenja o‘g‘lidan rozi bo‘libdi.

QALDIRG‘OCH VA IKKITA QOVOQ VOQEASI

(Yapon xalq ertagi)

Qadim zamonlarda Kosuke va Otsukiti degan qo‘shnilar yonma-yon yashar ekanlar. Kosukening oilasi ochko‘z va vijdotsiz bo‘lib, Otsukitining oilasi mehr-shavqatli va or-nomusli ekan. Kosukelar boy-badavlat, Otsukitilar judayam qashshoq yashar ekanlar.

Bahor kunlarining birida shunday voqea yuz beribdi. Otsukitilar uyining bo‘g‘otida bir juft qaldirg‘och in qurib, uchta polapon ochibdi.

Bir kuni polaponlardan bittasi inidan qulab tushib, panjasi lat yebdi. Buni Otsukiti ko‘rib qolib, polaponga rahmi kelibdi va avaylabgina uning panjasini bog‘lab qo‘yibdi.

Kuz kelib, hamma qaldirg‘ochlar janub tomonga uchib ketibdilar. Ularning orasida panjasi lat yegan qaldirg‘och ham bor ekan.

Qushlar janubga uchib kelganlaridan so‘ng, panjasi lat egan qushcha qaldirg‘ochlar podshosiga Otsukitining unga beg‘araz yordam berganligini aytib beribdi. Qaldirg‘ochlar podshosi diqqat bilan tinglab bo‘lgach, shunday debdi:

— U juda ham rahmdil inson ekan. Kelasi bahorda o‘sha yoqlarga uchib borsang, uni, albatta, xizmatiga yarasha mukofotlashing kerak!




Yana bahor kelib, o'sha qaldirg'och Otsukiti uyining bo'g'otidagi qadrdon iniga qaytibdi.

Kunlardan bir kun Otsukiti hovlisini aylanib yurganida, o'tgan bahor panjasini davolagan tanish qaldirg'och uning oyog'i ostiga bir dona urug' tashlabdi. Otsukiti engashib urug'ni olibdi-da, bog'ning bir burchagiga ekib qo'yibdi.

Ekilgan urug' ko'z ochib yumguncha unib chiqibdi va gurkirab o'sa boshlabdi. So'ngra oppoq gulga burkanib, ikkita qovoq tugibdi. Ana-mana deguncha hosil yetilib, Otsukitining bog'iga fayz kiritibdi.

Otsukiti qovoqlardan birini kesib, tatib ko'rsa, u shunaqayam mazali va xushbo'y ekanki, o'zi ham juda hayron bo'lib qolibdi. Rahmdil va mehribon Otsukiti uyiga barcha hamqishloqlarini chaqirib, mazali va to'yimli qovoq bilan siylabdi. Hamqishloqlari ham bunaqa mehmondorchilikdan huzur qilishibdi.



Ikkinchi kattakon qovoqni esa quritish uchun quyosh nuri tushadigan yerga qo'yibdi. Qovoq qurigach, uni ikkiga bo'lib qarasa, ichi tilla tangalarga liq to'la ekan.

“Qanday yaxshi-ya!” — deb xursand bo'lgan Otsukiti tilla tangalarni joylashtira boshlabdi. Bu ajoyibotni qarangki, u qovoq ichidan qanchalik ko'p tilla olsa, o'rni tag'in o'z-o'zidan to'lib qolaverar emish. Shunday qilib, Otsukiti juda boyib ketibdi.

* * *

Qo'shnisi Kosuke Otsukitining bunchalik boyib ketganligini ko'rib, hasaddan yona boshlabdi. U Otsukitidan buning sababini bilib olgach, undan bitta qaldirg'och uyasini so'rab olibdi. Tezda uyada polaponlar paydo bo'libdi. Ammo Kosuke shunchalik kutsa ham, aksiga olib, bitta ham polapon yerga qulab tushmabdi. Bundan ortiq sabr-toqati qolmagan Kosuke inga tosh otibdi.



Polaponlardan bittasi qo'rqib uchib ketmoqchi bo'lib, inidan qulab tushibdi va panjasi qattiq shikastlanibdi. Kosuke sevinib ketib, uning shikastlangan panjasini bog'lab qo'yibdi.

Kuz kelib, qaldirg'ochlar tag'in janub tomonlarga uchib ketibdilar. Kosuke o'zicha shunday deb o'ylabdi: "Juda yaxshi ish bo'ldi-da! Bahor kelgach, ehtimol, qaldirg'ochlar meni ham Otsukitidek mukofotlashsa kerak!"

Qaldirg'och janubga uchib kelgach, haligi shikastlangan qushcha qaldirg'ochlar podshosiga Kosukening shafqatsizligini, ataylab panjalarini shikastlaganligini oqizmay-tomizmay so'zlab beribdi. Qaldirg'ochlar podshosi unga shunday debdi:

— Bunaqa yaramas odamning yaxshilab jazosini berish kerak.

Bahor kelgach, qaldirg'ochlar Kosuke uyining bo'g'otidagi inlariga qaytibdilar.

Bir kuni Kosuke hovliga chiqqanida, qasddan yarador qilingan haligi qaldirg'och uning oyog'i ostiga bir dona urug' tashlabdi. Kosuke juda quvonib ketibdi. "Nihoyat, xizmatimga yarasha qaldirg'ochlar meni mukofotlashdi-ya!" deb o'ylabdi. Kosuke ham urug'ni olib bog'ning bir chekkasiga ekibdi. Tezda urug' unib chiqib, gurkirab o'sa boshlabdi. Ko'p o'tmay gullabdi, ikkita kattakon qovoq yetilib pishibdi.

Kosuke ham Otsukitiga o'xshab, qishloq aholisini uyiga chaqirib, qovoqning birini kesib beribdi. Ammo qovoq toshday qattiq va zaharday achchiq bo'lib, uni tatib ko'rgan qishloq aholisining jahli chiqibdi.

Biroq ochko'z Kosuke o'zicha shunday deb o'ylabdi: "Mayli, birinchi qovoq shunaqa chiqqani bilan, ikkinchisining ichi tilla tangaga to'la bo'ladi-ku!"

Kosuke ham ikkinchi qovoqni quritish uchun kungay joyga qo'yibdi. "Bu ulkan qovoq qurib bo'lgach, men hisobsiz mol-dunyoga ega bo'laman. Har ehtimolga qarshi, kattaroq joy tayyorlab qo'yay", deb qaror qilibdi ochko'z Kosuke. U tillalarni joylashtirish uchun shunaqayam katta qutilar yasabdiki, ularni hovliga olib kirishning sira iloji bo'lmabdi.

Kattakon qovoq quribdi. Kosukening sevinchi ichiga sig'may, uni ikkiga bo'libdi. Ammo u kutgan tilla tangalar o'rniga uning ichidan burqsib qop-qora



tutun chiqqa boshlabdi. Kutilmagan bu hodisadan Kosuke titrab-qaltirab yuztuban yerga yiqilibdi. Shu ahvoldayam Kosuke: “Bu falokat tutundan yong‘in chiqib, uy-joyim va mol-dunyom yonib ketmasa go‘rga edi”, deb vahima qilarmish.

Tezda tutun tarqalib, ochko‘z Kosuke o‘rnidan turibdi. Yo tavba! Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, uyidagi bekitib qo‘ygan tillalar va qolgan hamma boyliklar bu g‘alati qora tutun bilan birga qayoqqadir nom-nishonsiz g‘oyib bo‘lgan emish.

Shunday qilib, or-nomusli va vijdonli, rahmdil Otsukiti qishloqning eng badavlat odamiga, ochko‘z va muttaham, shafqatsiz Kosuke esa qashshoq odamga aylanibdi.

G‘OZLAR-OQQUSHLAR

(Rus xalq ertagi)

Juda qadim zamonda chol-u kampir yashagan ekan. Ularning bir qizchalari va kichkintoy o‘g‘illari bor ekan.

— Qizalog‘im, oppog‘im! Biz bozorga ketyapmiz, senga shirin non olib kelamiz, ko‘ylak ham tikib beramiz, ro‘molcha sotib olib kelamiz, aqlli bo‘l, ukangni ehtiyot qil, hovlidan uzoqqa ketma! — deyishibdi ota-ona.

Kattalar o‘z ishi bilan jo‘nashibdi. Qizcha ularning pand-nasihatini juda tez unutib, ukasini deraza tagidagi maysaga o‘tqazibdi-da, o‘zi ko‘chaga shataloq otib chiqib ketibdi, anchagacha o‘ynab, sayr qilibdi. Shu atrofdan uchib o‘tayotgan g‘ozlar-oqqushlar bolani ko‘rib qolib, qanotlariga o‘tqazib olishibdi-da, uchib ketishibdi.

Qizcha uyiga qaytibdi. Qarasa, ukasi yo‘q emish! Dod-voy qilib, u yoqqa yuguribdi, bu yoqqa yuguribdi — hech qayyerdan topolmabdi. Bor ovozda chaqiribdi, yolg‘on ko‘z yoshi bilan qo‘rqitibdi, otasi bilan onasidan kaltak yeyishini aytibdi, ammo ukasidan hech sado chiqavermabdi. Keng dalaga yugurib chiqibdi, olisda g‘ozlar-oqqushlar elas-elas ko‘rinishibdi-yu, qalin o‘rmon ortiga g‘oyib bo‘lishibdi.



G'ozlar-oqqushlar yosh bolalarni o'g'irlashga odatlanib qolgan ekanlar. Ularning bu badfe'lligini hamma bilar ekan. Qizcha ham ukasini ana shular olib ketganligini fahmlab, ularning ortidan quvishga tushibdi. Yuguribdi, yuguribdi, qarasa, yo'lida tandir turganmish.

— Tandır-tandır, g'ozlar qayoqqa uchib ketishganini ayta olmasanmi? — so'rabdi qizcha.

— Javdar unidan yopilgan somsamdan yesang, aytaman, — deb shart qo'yibdi tandir.

— E, yo'q, bizning ota-bobolar hatto bug'doy unidan qilinganlariniyam yeyishmagan!



Tandır hech narsa aytmabdi.

Qizcha yana yugurib ketibdi. Yo'lida unga olma daraxti uchrabdi:

— Olma-olma, g'ozlar qayoqqa uchib ketishganini ayta olmasanmi? — so'rabdi qizcha.

— Mening jaydari olmamdan yesang, aytaman, — debdi daraxt.

— E, yo'q, bizning ota-bobolar hatto bog' olmalariniyam yeyishmaydi. U shunday deb yugurishda davom etibdi. Saldan keyin ro'parasidan sutli soy, kiselli qirg'oqlar chiqib qolibdi.

— Sutli-kiselli qirg'oqlar, g'ozlar qayoqqa uchib ketganlarini aytib berolmaysizlarmi? — o'tinib so'rabdi qizcha.

— Mening kiselimdan sutga qo'shib ichsang, aytaman! — debdi qirg'oq. Uning shartini ma'qullabdi soy.

— E, yo'q, biznikilar soy sutini ichishmaydi!

Uning baxtiga yo'lida ti pratikan yo'liqibdi, yo'qsa anchagacha dalalarda yugurib, o'rmondan-o'rmonga sanqib yurardi. Qizcha uni oyog'i bilan itarib yubormoqchi bo'libdi-yu, ammo tikani kirib ketishidan cho'chibdi. Bundan ham so'rab ko'ray-chi debdi:



- Kirpi-kirpi, sen g‘ozlar qayoqqa qarab uchib ketishganini bilmaysanmi?
- Huv anavi yoqqa! — debdi ti pratikan.

Qizcha u ko‘rsatgan tomonga qarab chopibdi. Borib qarasa, tovuqoyoq kulba turganmish, goh u yoqqa, goh bu yoqqa burilarmish. Kulbada yuzini qat-qat ajin bosgan, oyoqlari loy bir yalmog‘iz kampir bor ekan. Ukasi kursichada o‘tirib, oltin olmalarni o‘ynayotgan ekan. Qizcha sekingina uning yoniga borib, belidan mahkam tutibdi-da, olib chiqib ketibdi. G‘ozlar esa uning ketidan quvishibdi. Yovuzlarning qo‘liga tushmaslik uchun qayerga yashirinish mumkin? Sutli soy shitob bilan, kiselli qirg‘oq ham tez oqardi.

- Ena soy, yashir meni!
- Kiselimdan yeb, sutimdan ichsang!

Qizcha chor-nochor kiseldan yeb, sutdan ichibdi. Soy uni qirg‘oqcha tagiga yashiribdi, g‘ozlar ko‘rmay uchib ketishibdi. Qizcha u yerdan chiqibdi-da, “Rahmat!” — deb yana ukasini etaklab chopib ketibdi. G‘ozlar esa ortlariga qaytib, ularga qarama-qarshi tarafdin uchib kelishibdi. Nima qilish kerak? Falokat? Ro‘parada olma daraxti turardi:

- Olma, olma, yashir meni!
- Mening jaydari olmamdan yesang!

Qizcha shosha-pisha olmadan yebdi. Daraxt uni shoxlari bilan pana qilibdi, barglari bilan yashiribdi, g‘ozlar ko‘rmay o‘tib ketishibdi. Qizcha berkingan yeridan chiqibdi-da, “Rahmat!” — deb ukasining qo‘lidan mahkam ushlab olib, yana yugurishda davom etibdi. G‘ozlar tag‘in opa-ukani quvishga tushishibdi, ularga yetib olishlariga ozgina qolibdi, qizchani qanotlari bilan urib, ukasini tutib olib ketishga urinishibdi. Qizchanning baxtiga yo‘l ustida tandir turardi.

- Tandır, tandırjon, yashir meni!
- Javdar unidan qilingan somsamdan yesang, yashiraman!

Qizcha somasadan apir-shapir yebdi-da, ukasi ikkovi pechning ichiga kirib qopqog‘ini yopib olishibdi. G‘ozlar-oqqushlar pechning yoniga uchib kelib, qopqoqni ochishga harakat qilishibdi, ammo ocholmabdilar. Keyin pechning mo‘risidan kirmoqchi bo‘lishibdi, ammo kirolmabdilar, faqatgina qanotlari qurumdan qop-qora bo‘libdi. Shundan so‘ng ular pechning tepasida gir-gir



aylanib uchishibdi, ovozlari boricha qichqirishibdi, ammo foydasi bo'lmabdi, yalmog'iz kampir yoniga qup-quruq qaytishibdi.

Qizcha esa ukasi bilan pechdan chiqib uyiga qarab yuguribdi, yaxshiyamki, vaqtida yetib kelgani, yo'qsa... Sal o'tib ota-onalari ham kirib kelishibdilar. Ularga har xil sovg'alar olib kelishibdi.

HAR KIM FE'LIGA YARASHA

(Eston xalq ertagi)

Kunlardan bir kuni qosh qorayib, qorong'i tushayotgan paytda qashshoq bir qariya qishloqdan o'tib borar ekan.

O'tkinchi chol yaqin-o'rtadagi uy eshigini taqillatib, bir kecha tunashga ijozat so'ramoqchi bo'libdi. Badavlat xonadonning derzasini taqillatibdi-da:

— Bir kecha tunashga ijozat beringlar! — deb iltimos qilibdi.

Uydan boybeka chiqibdi-da, o'tkinchini urushib, qarg'ab haydab yuboribdi.

— Hozir Bo'ribosarimni yechib yuboraman! Bu uyda tunash qanaqaligini bilasan-qo'yasan! Yo'qol, ko'zinga ko'rinma!

O'tkinchi nari ketibdi. Pastakkina uy derzasini taqillatib:

— Hoy, odamlar, bir kechagina tunashga ijozat beringlar! — debdi.

— Kira qoling, otaxon, kira qoling! — deb uyiga chorlabdi muloyimlik bilan beka. — Bemalol, faqat uzrimiz bor — uyimiz kichkina.

O'tkinchi ichkari kiribdi. Qarasa, faqirgina xonadon, bola-chaqa ko'p, hammasi yupun.

— Bolalaring nega buncha juldur kiyingan? — so'rabdi o'tkinchi. — Nega ularga yangi libos tikib bermaysan?

— Qayoqdan olay!? — javob qilibdi ayol. — Erim o'lgach, bolalarimni bir ko'zlab katta qilyapman. Yangi ko'ylakni qaydan olay!? Nonga zo'rg'a pul topamiz-ku!

O'tkinchi uning so'zlarini indamay tinglabdi-da, hech nima demabdi. Beka kechki ovqatga dasturxon yozib, o'tkinchini ham chaqiribdi.



— Keling, o‘tiring, biz bilan ovqatlaning!

— Yo‘q, — debdi o‘tkinchi. — Qornim to‘q, yaqinda ovqatlanman. U to‘rvasini ochibdi, ichidan yegulik olib, bolalarga beribdi. Keyin yotib uxlabdi.

Qariya ertasiga barvaqt uyg‘onibdi, tunashga joy bergani uchun bekaga minnatdorchilik bildiribdi va xayrlashayotib:

— Ertalab nimadan ish boshlasang, kechgacha davom ettirgin! — debdi.

Beka o‘tkinchining nima demoqchiligini tushunmabdi, unga parvo ham qilmabdi. Qariyani eshikkacha kuzatib qo‘yibdi-da, qaytib kelib o‘ylabdi: “Shu qashshoq cholki, bolalarimni juldur desa, boshqalar nima derkin!”

Ayol uyida yotgan bir bo‘lak matodan hech bo‘lmasa bolasining bittasiga ko‘ylak tikmoqchi bo‘libdi. Boyvuchcha qo‘shnisining oldiga borib, matosini o‘lchash uchun uning gazini so‘rab olibdi: matosi bitta ko‘ylakka yetadimi-yo‘qmi, bilmoqchi bo‘libdi.

Kambag‘al ayol qo‘shnisikidan qaytib kelishi bilan qaznoqqa kiribdi.

Tokchadan matoni olib, o‘lchay boshlabdi. O‘lchagani sayin mato tugasmish... Shu kuni u tim qorong‘i kechgacha mato o‘lchabdi.

O‘ziga ham, bolalariga ham ko‘ylakka umrbod etadigan mato o‘lchab olibdi.

“Eha, ertalab o‘tkinchi menga shuni aytgan ekan-da!” deb o‘ylabdi kambag‘al ayol.

Kechqurun u gazni boyvuchcha qo‘shnisiga qaytarib bergani boribdi. O‘tkinchi cholning so‘zi bilan kechgacha mato o‘lchab, omborni to‘ldirib olganini oqizmay-tomizmay gapirib beribdi.

“Eh, nega bu o‘tkinchini tunagani kiritmadim-a!?” deb o‘ylabdi boyvuchcha va:

— Hey, qarol! Darhol otni qo‘sh! Tilanchi ketidan ot qo‘y! Har nima






bo'lsayam, bu yerga yetkazib kel! Kambag'alga qayishish kerak. Axir, hamma-vaqt shunday qilish kerak deyman-ku! — deb buyuribdi.

Qarol shu zahotiyuq o'tkinchi cholni izlab ketibdi. Ertasi kunigina unga yetib olibdi. Lekin qariya qaytishni xohlamabdi.

Qarol xafa bo'lib:

— Sho'rim quridi endi: sizni olib bormasam, beka meni quvib yuboradi, ish haqimniyam bermaydi, — debdi.

— Ko'p qayg'urma, bo'tam, — debdi chol. — Mayli, sen bilan birga borganim bo'lsin.



Chol aravaga o'tirib, qarol bilan birga jo'nabdi.

Boybeka darvoza oldida uni kutib turgan ekan. Qariyani ta'zim-tavoze bilan kutib olib, uyiga boshlab kiribdi, yedirib-ichiribdi, yumshoqqina joy to'shab beribdi.

— Yotib dam oling, otaxon, — debdi muloyimlik bilan.

O'tkinchi chol boybekaning uyida bir kun turibdi, ikki kun turibdi, uchinchi kun ham tunab qolibdi: yebdi, ichibdi, uxlabdi, chekibdi. Beka uni mehmon qilibdi. Shirin so'zlar aytibdi, ammo ensasi qotib: “Bu yaramas qariya qachon qorasini o'chirarkin!” deb o'ylabdi ichida. Qariyani haydagani botinmabdi: haydasa, hamma qilgan harakati bekor ketarkan-da.

Uning baxtiga to'rtinchi kuni ertalab o'tkinchi barvaqt yo'lga otlana boshlabdi. Boybeka uni kuzatib chiqibdi. Qariya darvoza tomonga ketayotgan emish-u, hech narsa demasmish. Darvozadan tashqariga chiqib ham indamabdi. Boybekaning sabri tugab:

— Ayting-chi, bugun men nima qilay? — deb so'rabdi.

O'tkinchi unga bir qarab qo'yibdi-da:

— Erta bilan eng avval nima qilsang, kechgacha o'shani qilasan! — debdi.

Boybeka yugurib uyga kiribdi, matoni o'lchash uchun gazni qo'lga olibdi.



Lekin shu choq qattiq aksa uribdi, shunchalik qattiq aksa uribdiki, hovlidagi tovuqlar har tarafga tiraqaylab qochibdi.

Shunday qilib, shu kuni boybeka kechgacha aksa uribdi:

— Ap-shu! Ap-shu! Ap-shu!

Na ovqat yeya olibdi, na savollarga javob beribdi. Faqat zo‘r berib aksiraveribdi.

— Ap-shu! Ap-shu! Ap-shu!

Quyosh botib, tevarak-atrofga qorong‘ilik cho‘kkandan keyingina tinchibdi. Shunday qilib, har kim fe‘liga yarashasini topgan ekan.

BUG‘U BILAN BALIQ

(Chukotka xalq ertagi)

Bug‘u dengiz bo‘yiga kelib, sho‘r suvdan ichib ko‘ribdi. Tuyoqlarini yuvib, tik turganicha dam olibdi. Shu mahal baliqcha suvdan boshini chiqarib bug‘uga:

— Senga qarab hayron bo‘lyapman, — debdi. — Judayam badbasharasan: shoxlaring beso‘naqay, meshqorinsan... Oyoqlaring ingichka, egri-bugri...

Bug‘u baliqchani shoxiga ilib, qirg‘oqqa irg‘itib yuboribdi.

Baliqcha toshlar ustida yotganicha bug‘uga yalina boshlabdi:

— Og‘aynijon, meni dengizga itarib yuborgin, bo‘lmasa shamolda qurib, halok bo‘laman.

Bug‘u uning gaplarini eshitib, rahmi kelibdi: “Har qalay, tirik jonivor-ku!” deb o‘ylabdi va:

— Mayli, suzaver, — debdi-yu, suvga itarib yuboribdi.

Bug‘u qirg‘oqda turib o‘zini quyoshga solib isinayotgan ekan, yana baliqcha suvdan suzib chiqib, uni masxara qilibdi:

— Oyog‘ing to‘rtta bo‘lsa ham, suzishni bilmaysan! Sen bukri, meshqorin, hech qachon menga teng kelolmaysan! — debdi.

Bug‘u shoxi bilan baliqchani bir turtgan ekan, u toshlar ustiga borib tushibdi.



Baliqcha qanotlarini qimirlatibdi, dumini o'ynatibdi, lekin yotgan joyidan bir qadam ham jilolmabdi. U yana yalina boshlabdi:

— Og'aynijon, menga rahming kelsin, meni suvga tushirib yuborgin. Endi hecham seni yomonlamayman.

Bug'u qarasa, chindan ham baliqcha o'layotganmish.

— Mayli, suza qol! — debdi bug'u va uni suvga irg'itibdi.

Baliq suv tagida biroz damini olgach, o'ziga kelibdi, suv yuziga chiqib yana bug'uni kalaka qila boshlabdi:

— O'lgudek badburushsan! Hatto duming ham yo'q! Aftingga qarashga jirkanaman! — debdi.

Bug'uning jahli chiqibdi, baliqchani shoxlariga ilib suvdan ancha uzoqroqqa uloqtirib tashlabdi-da, o'zi tog'ga qarab chopqillab ketibdi.

KAKLIK BILAN QUYON

(Afrika xalq ertagi)

Bir kuni kaklik bilan quyon kim yaxshi yashirinishga garov o'ynashibdi. Birinchi bo'lib kaklik berkinibdi. U to'nkalar orasini chuqurroq kovlabdi-da, qazigan chuquriga kirib, ustiga xas-cho'plarni tashlab olibdi. Faqat panjalari tashqarida qolibdi.

Quyon kaklikni rosa qidiribdi, hammayoqni tintib chiqibdi, ammo kaklikdan nom-nishon topa olmabdi. Oxiri quyon qidirishdan, kaklik yashirib yotishdan charchabdi. Shunda kaklik:

— Quyon bobo, berkinib yotaverib zerikib ketdim! Panjalarimga ilib qo'yilgan to'rvachangni tezroq ol! — debdi.

Quyon hayron qolganicha miyig'ida kulib to'rvachani ilib qo'ygan joyidan olgan ekan, kaklik yashirib yotgan chuqurlikdan chiqib, patlarini xas-changlardan tozalabdi.




Yashirinish navbati quyonga kelibdi. U yaqinida turgan butalar orasiga kiribdi-da, nafas chiqarmay pisib yotibdi. Kaklik ham rosa qidiribdi. Tevarak-atrofni qancha qidirmasin, baribir quyonni topa olmabdi. Shunda kaklik qah-qah urib kulib:

— Yashiringan joyingdan chiqa qol, quyon bobo, men seni ko‘rib turibman! — debdi.

Quyon uning gapiga laqqa tushib, berkinib yotgan joyidan otilib chiqibdi! Kaklik uni butunlay ko‘rmayotganligini quyon bechora xayoliga ham keltirmagan ekan.

O‘zingiz ayting: kim ayyor — kaklikmi yo quyonmi?





Mumtoz adabiyotdan namunalari

“ULUG‘LIK SARI ELTUVCHI YO‘L...”

Yusuf Xos HOJIB

QUTADG‘U BILIG

(Parchalar)

Kimki farog‘atli kunni istasa, u fe‘l-atvorini sozlashi, to‘g‘rilik va rostlikni tanlashi lozim. Ko‘pchilikka bosh bo‘lgan kishining yo‘li adolat, fe‘li ravon, qilmishi ezgulik bo‘lmog‘i, yomonlardan uzoq turmog‘i shart. Yomonlik ilonga o‘xshaydi. U chaqishi, hatto xalok etishi ham mumkin.

Ezgu ezgulikdan chekmagay fig‘on,
 Yomon o‘z fe‘lidan bo‘lar pushaymon.
 Yomonlik qilganning ulushi — o‘kinch,
 Yomonga yaxshi bo‘l, mayli, har qachon.

* * *

...Olamdagi eng ulug‘ fazilat ezgu qiliq va go‘zal xulqdir. Ikkinchisi — rostlik, uchinchisi hayo hisoblanadi. Mana shu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor bo‘ladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi. Chunki kimning xulqi go‘zal bo‘lsa, uni barcha sevadi. Xulqi soz odamga doimo to‘rdan joy tegadi.

Hayo yaramas ishlardan tiyadi. Hayosizlik, aslida, juda yomon dard, borib turgan balodir. Rostgo‘ylik, hayo va xush xulq birlashgan joyda baxtiyorlik bo‘ladi.





Korney Chukovskiy. Do'xtir, voyjonim.



* * *

Mehmonga taklif qilinsang, oshni odob bilan ye. Birovning oldidagi ovqatga qo‘l cho‘zma. O‘zingga yaqin turgan joydan ol. Pichoqni o‘ynatmagil. Qo‘lingga suyak olib, kemirib o‘tirma. Boshqalarning osh-ovqatlarini tatib ko‘rishdan asranish lozim, o‘zgalarni zo‘rlab qistash yaramaydi...

To‘q bo‘lsang ham, taklif qilingandan keyin ovqatdan yeyish lozim. Bu sening qadringni oshiradi. Qaysi bir ishni qilishga bel bog‘lagan bo‘lsang, unga astoydil yopish.

* * *

O‘zingga tilasang uzun ehtirom,
O‘zgani qadr etgin, ayo, ezgu nom.
Ulug‘ni ulug‘la, keltir hurmatin,
Shunda sen olasan ulug‘lik qutin.
Eshit: nima deydi otalar so‘zi,
Otalar so‘zida har ishning ko‘zi:
“Ulug‘ni hurmatlash — qadim odat, ko‘r,
Ulug‘ kelsa, o‘zing oyoqda tik tur.
Ulug‘ga yetishsa kichik hurmati,
Ulug‘ ham kichikka hurmat ko‘rsatar”.

* * *

Seni siz deganlarni sen sizlagin,
Yana undan afzal javob so‘zlagin.

Kishi ezgulikka shirin jon berar,
Bir ezguga qayta o‘n ezgu qilar.





Alisher NAVOIY


BIR KABUTAR

(“Saddi Iskandariy” dostonidan)

Bir tezuchar kabutar bor ekan. U juda uzoq-uzoqlarga uchib borar edi. Kunlardan bir kuni bir podsho uni tutib olibdi va qafasga qamab qo'yibdi. (Qafas juda chiroyli ekan. Kabutarga don va suv berishibdi. Lekin kabutar donni yemabdi, suvdan ichmabdi. Chunki u juda xafa ekan. Ko'zlarini yumib, osmonda maza qilib uchib yurgan kunlarini eslab, yig'labdi). Falakning gardishi bilan bechora qush ko'p yillar qafasda qiynalibdi. Bir kuni (qafasning eshigi ochiq qolgan ekan), kabutar (paytdan foydalanib) qochib ketibdi. U osmonga chiqib, xursand bo'lganidan gir-gir aylanibdi. Keyin o'z uyi tomon uchib ketibdi. Kabutar bir necha kunlik yo'lni birpasda bosib o'tibdi. Uyiga yetib kelibdi... Qarasa, uy chasi buzilib, vayron bo'lgan ekan.

Kabutar qattiq xafa bo'libdi. Ammo qaytib podshohnikiga bormabdi. “Podshohning qafasida nima qilaman? U yer menga begona. Bu yer esa buzilgan, vayrona bo'lsa ham, o'z uyimdir” debdi kabutar o'ziga-o'zi. (U uyini tuzatishga kirishibdi).

Qushning xatti-harakatlariga yaxshilab qarasangiz, u chiroyli qafasdan ko'ra, tikanli (vayrona, buzilgan) bo'lsa ham, o'z uyini qanchalik yaxshi ko'rishini bilib olasiz.



HIMMATLI BO‘LSANG...

(“Hayrat ul-abror” dostonidan)

Bir kishi Hotami Toiydan: “Ey, himmati buyuk inson, ko‘ngling saxiylikni kasb etgandan beri o‘zingga o‘xshagan saxiy odamni ko‘rdingmi?” — deb so‘rabdi.

Hotami Toiy shunday javob beribdi: “Bir kuni katta ziyofat bermoqchi bo‘lib, yuzta tuya, son-sanoqsiz qo‘zi so‘ydirib, unga sahroda yashaydigan hamma odamlarni chaqirgan edim. Shunda ziyofatni tashlab, sof havo olgani dalaga chiqdim. Sayr qilib yurganimda, mehnatda ezilgan bir cholni ko‘rib qoldim. U bir quchoq yantoqni orqalab kelardi. Yuk qaddini bukib qo‘ygan. U hassaga tayanib, horib-charchab, zo‘rg‘a-zo‘rg‘a qadam bosardi. Uning og‘ir mehnatini ko‘rib, achindim, cholga rahmim kelib, shunday dedim: “Ey, qaddini zahmat yuki bukchaytirgan, elkasiga g‘am tikani botgan odam, Hotami Toiy ziyofat berayotganidan xabaring yo‘qmi? Nega uning uyiga bormading? Bugun u hammani ziyofatga chaqirgan, barcha yaxshi-yu yomon odamlarni ziyofat qilmoqchi. Tikanni tashlab, izzat-hurmat gulshaniga bor, mashaqqat chekma, huzur-halovatga bor!”



U mendagi iztirobni ko‘rib, boshini ko‘tardi-da, kulib javob berdi: “Ey, oyog‘iga nafs kishan solgan, tama bo‘yniga kishan bo‘lgan, g‘ayrat vodiysiga qadam qo‘ymagan, himmat kungirasiga bayrog‘ini tikmagan odam! Sen ham shu tikanlar azobini tortgin-u, Hotami Toiyning minnatini tortmagin, birovning bergan xazinasidan ko‘ra, o‘z qo‘l kuching bilan bir qora chaqa topganing yaxshiroq”.

O‘sha so‘zamol cholning himmati mendan ko‘ra balandroq edi.

Navoiy:

— Agar himmatli bo‘lsang, Hotami Toiy ham senga bo‘yin egadi, — deydilar.



Zahiriddin Muhammad BOBUR

G'OR TOPILDI

(*“Boburnoma” dan parcha*)¹

Bobur o‘z lashkarlari bilan tog‘ yo‘li orqali ketayotganida qalin qor yog‘ibdi. Qor to‘rt kun tinmabdi. Ular nihoyatda qiynalishibdi. Chunki yo‘l bosish juda og‘ir ekan. Qorning qalinligi odam beligacha, hatto ko‘ksigacha kelar edi. Bobur orqadagilarga yo‘l ochib, qorni tepib-tepib borar edi. Yurib-yurib, charchab, tog‘dagi bir g‘orga yetib kelib, to‘xtabdilar. Shu yerda dam olishga qaror qilishibdi. G‘or torroq ekan. Boburning xizmatkorlari darhol unga g‘orning ichidan issiqqina, yumshoqqina joy tayyorlab berishibdi. G‘orga kiringach, Bobur bir zum qarab turibdi-da, keyin hech kimga gapirmay, burchakda turgan kurakni olib tashqariga chiqibdi. U qor kurab, chuqur qaziy boshlabdi. Qor shu darajada qalin ekanki, ko‘ksiga yetguncha chuqur qazisa ham, yer ko‘rinmabdi. Albatta, chuqurning ichi issiq emas ekan-u, ammo sovuq tog‘ shamolidan uni bemalol asrashi mumkin ekan. Shuning uchun Bobur chuqurga tushib o‘ltiribdi. Unga bir necha marta: “Siz ichkariga kiring”, – deyishibdi. Ammo Bobur ko‘nmabdi. “Barcha el tashqarida – qorda tursa-yu, men issiq joyda dam olib o‘ltiramanmi? Axir, bu insofdan emas-ku!” deb ko‘nglidan kechiribdi Bobur. “Men ham qanday tashvish bo‘lsa ko‘rayin, el toqat qilib turibdi, men ham turayin. Forscha bir gap bor: “Do‘stlar bilan birgalikdagi o‘lim to‘ydir”, – debdi u yigitlariga.

Kun bo‘yi qor yog‘ibdi. Namozni xuftongacha chuqurda engashib o‘ltirgan Boburning ustidagi qor to‘rt enlik bo‘libdi. Shu vaqt yigitlarning sevinchli ovozlari eshitilibdi: “Keng g‘or topdik, g‘orga juda ko‘p odam sig‘adi”. Bu gapni eshitgan Bobur ustidagi qorni silkib, chuqurdan tashqariga chiqibdi. Yigitlari bilan birga sovuq va qordan so‘ng ajab issiq va farog‘atli joyda maza qilib dam olibdi.

¹ Matn bog‘cha yoshidagi bolalar saviyasiga moslashtirildi. – Z. I.



Sa'diy SHEROZIY

* * *

(Gulistondan parchalar)

Bir necha amaldorlar bilan birga kemada edim. Ortimizda bir qayiq g'arq bo'lib, ikki og'a-ini girdobga tushib qoldi. Amaldorlardan biri kemachiga dedi: "Har ikkalasini qutqar, har biri uchun ellik dinordan beraman!" Kemachi darhol o'zini suvga tashlab, og'a-inilardan birini qutqardi, ikkinchisi g'arq bo'ldi. Men dedim: "Uning kuni bitgan edi, shu sababli uni xalos etishga shoshilmading, buni qutqarishga shoshilding". Kemachi kulib dedi: "Aytgan gaping to'g'ri, lekin buni qutqarishga o'zimda istak bor edi, chunki bir mahal, biyobonda qolganimda, bu meni tuyasiga mingashtirib olgan edi, u birisidan esa bolaligimda qamchi yegan edim".

Men dedim: "Olloh Taoloning aytgani ayni haqiqatdir: "Har kimsa yaxshilik qilsa ham, yomonlik qilsa ham, o'ziga qiladi".

Birovni ranjitma qo'lingdan kelsa,
 Chunki yo'l ustida tikan-nishlar ko'p.
 Darvesh kishilarning hojatin chiqar,
 Hali o'z oldingda qilar ishlar ko'p.

* * *

Ikki aka-uka bor edi. Biri podshoh saroyida xizmat qilar, ikkinchisi esa o'z qo'l kuchi bilan tirikchiligini o'tkazardi. Bir kun boy aka faqir ukaga dedi: "Nega podshoh saroyida xizmat qilmaysanki, mashaqqatli mehnatdan xalos bo'larding?"

Ukasi dedi: "Xo'sh, o'zing nega mehnat qilmaysanki, shoh oldida xo'rlanishdan qutularding? Axir, hukamolar aytganlar-ku: "Oltin kamar taqib, podshoh xizmatida turgandan ko'ra, o'z noningni yeb, tinch o'tirganing yaxshi!"





Amir xizmatida mungli va abgor,
Qo'llaring ko'ksingga qo'yguncha har gal,
Kuysa ham qo'llaring, mayli, birodar,
Kaftingda ohaktosh olganing afzal.

* * *

“Bo'ston” asaridan

Erur hammadan ham chaqimchi yomon,
Uningdek razil ko'rmadim hech qachon.
Buzuq fikr-u nodonligi birlan ul
Buzar ikki do'st o'rtasini nuqul.
Bular do'stlashurlar bo'lib jon-u dil,
Uyatga qolur o'rtada ul razil.
Ikki tan aro kimki o'tlar yoqar,
Aqldan emas bu, o'zi ham yonar.
Bu Sa'diycha xilvatda kim zavq olur,
Tilin ikki olamdan ul tortadur.
Degil foydali so'zni bilgan qadar,
Qabul etmasa ham uni kimsalar.
Pushaymon bilan oh-u voy aylagay,
Nega tinglamapman debon yig'lagay.



O'zbek bolalar adabiy ertaklari

Parizod MUHAMMADYOROVA

SHARLAR UCHDI

Oyisi Go'zalning qo'lidan yetaklab olgan edi. Uning bir qo'lida bayroqcha. Bugun bayram.

Oyisi ham, Go'zal ham yasangan.

Go'zal cho'ntagiga g'oz surati tikilgan fartuk kiygan. Jajji botinkasini to'p-to'p bosib, pildirab boryapti. Kalta sochiga taqilgan lentasi esa qanot qoqayotgan kapalakdek li pillaydi.

— Oyi, menga shar olib berasiz-a? — dedi Go'zal.

— Olib beraman, qizim, — dedi oyisi.

— Kattakon shar-a, oyi?

— Ha, kattakon shar.

— Ko'p shar-a, oyi?

Oyisi indamadi.

Go'zal bo'lar-bo'lmasga yig'layvermaydi. U juda ozoda. Ko'ylagini kir qilmaydi. Cho'ntagida ro'molchasi bor — burnini artib yuradi.

Lekin bir yomon odati bor-da!

Siz undan o'rnak ola ko'rmang yana!

Shu odatini qilib, Go'zalning nima bo'lganini sizga aytgani yuragim betlamaydi.

Nima bo'ldi deng...

Go'zal bilan oyisi muyulishga kelganlarida juda ko'p sharlarni ko'rishdi.

— Oyi, shar! — deb qichqirdi Go'zal.

Ular sharlar yoniga borishdi.

Bir-biriga urilib, irg'ishlab turgan juda ko'p: mashinaning g'ildiragidek katta, anordek kichkina, qizil, sariq, ko'k sharlarni ko'rishdi. Sharlarning ipini birlashtirib, arqon bilan bog'lab, daraxt shoxiga ilib qo'yishgandi.



Oyisi qiziga chiroyli qizil shar olib berdi.

Go'zal bo'lsa deysinib:

— Yo'q, yo'q! Tag'in ko'k, sariq ancha shar olib berasiz! — deb baqirdi.

— Qo'y, tentak bo'lma, qizim, — dedi oyisi kulib. — Ana, qara, bolalarning hammasi bitta-bittadan shar olishibdi.

— Yo'q, yo'q! Ko'p shar olib berasiz! — deb turib oldi Go'zal.

Oyisi uyalib, qip-qizarib ketdi. Nega desangiz, yon-veridagi kattalar ham, bolalar ham Go'zalning qilg'ini ko'rib, hayron bo'lib qarab turishgan edida.

Oyisi sotuvchiga pul berayotgan edi. Go'zal daraxtga osilgan sharlar oldiga yugurib bordi-da, sharlarni olaman deb, bir sakrab arqonga tirmashdi.

Shunda arqon daraxt shoxidan chiqib ketdi. Sharlar bo'lsa osmonga ko'tarila boshladi.

Go'zal buni sezmay qoldi. Oyog'ini yerga qo'yimoqchi bo'lgan edi, oyog'i yerga tegmadi, osilib turgan arqon ilmog'iga kirib qoldi. U arg'imchoqqa osilgandek, oyog'ini ilmoqqa qo'yib, ikki qo'li bilan arqonni ushlab oldi. Bunday qaragan edi, sharlar uni uchirib ketayotganini ko'rdi.

Qo'rqib:

— Oyi! — deb qichqirdi.

Oyisi qizini sharlar olib qochayotganini ko'rib, quti o'chdi, qiziga qarab:

— Ushlanglar! Hoy, ushlanglar!! — deb qo'lini osmonga cho'zib jon holatda qichqirdi.

Atrofidagi odamlar ham buni payqab qolishdi.

— Uchdi! Uchdi!

— Hoy, ushlanglar! Qiz uchdi!! — deb har tomondan shovqin solib yugurishdi.

Endi nima ham qilib bo'lardi — sharlar daraxt uchiga yetay-yetay deb qolgandi.

— Voy, sho'rlik qizcha endi nima qiladi-a?

U yig'lashini ham, dodlashini ham bilmay, qo'rquvdan qotib qoldi.

Sharlar bo'lsa bir-birlarini itarib, tikka uchmay, qiyalab uchib markaziy xiyobonga ham kelib qoldi.



U yerda turganlar Go'zalni ko'rib:

— Voy, qaranglar! Qo'g'irchoq uchyapti!

— Qo'g'irchoqni sharlarga bog'lashibdi! — deb qichqirishdi. Bolalar bo'lsa suyunib, do'ppi, shapkalarini osmonga otishdi. Go'zal chindan ham sharlarga osilgan qo'g'irchoqqa o'xshardi...

Sharlar Go'zalni balandga uchirib ketdi. U: "Oyi, oyijonim", — deb achchiq-achchiq yig'ladi. Ko'z yoshlari dumalab-dumalab oqib, yerga tushdi.

Shunda uning yonidan bir gala chumchuq chirqillab uchib o'tdi.

— Ajab bo'пти, ajab bo'пти, — deb qichqirishdi. Chumchuqlar Go'zalning sharlarga tirmashganini ko'rishgandi.

— Rost-da, — dedi katta ko'k shar. — Go'zal oyisining gapiga kirmadi, hamma sharlarni olaman, dedi. Mana endi nima bo'ldi...

— Endi biz osmonda bekorga portlab nobud bo'lamiz, — dedi tutoqib qizil shar. — Eh, bugun bayram, bolalar bizni ipimizdan ushlab, suyunib-suyunib uchirib yurishardi-ya... Bizni kichkintoylar uchirib yurishsin, deb ilishgan-da!

— Shu qilganiga, Go'zalni baland osmonga uchirib, yerga tashlab yuboraylik, o'shanda biladi, — dedi g'azablanib sariq shar.

Sariq sharning bu so'zi Go'zalga alam qildi. U ho'ng-ho'ng yig'ladi.

Atlasdek yaltiroq qanotlarini tez-tez silkib, qaldirg'ochlar o'tib qolishdi.

Ular Go'zalni ovutib:

— Yig'lama, yig'lama, — deb sayrashdi.

Sharlar Go'zalni yana ham balandga olib chiqishdi. Endi yerdagi uylarning tomlarigina ko'rinar, ko'chalar tor yo'lakday, ko'chalardagi mashinalar gugurt qutisidek, zavodlarning uzun-uzun quvurlaridan chiqayotgan tutun lentadek edi.





Birdan keng qanotlarini yoyib burgut uchib o'tdi.

Go'zal suyunib ketdi.

— Hoy, burgut, jon burgut! Qanotingga o'tqazib, oyimning oldiga olib bor! deb yalindi.

Burgut bolalariga oziq olib ketayotgan ekan. U: “Mayli, sho'rlikni oyisiga olib boray” deb o'yladi.

— Qanoting bo'lmasa, nega osmonga chiqding? — deb so'radi burgut ajablanib.

Sharlar Go'zalga gap bermay, uning qanday osmonga chiqib qolganini aytib berishdi.

— Hm... — dedi Burgut qovog'ini solib. — Yo'q, men gapga kiradigan, aqli bolalarimning oldiga boraman. — U shunday deb, tog'ga qarab pastlab uchib ketdi.

Voy, endi sho'rlik qizchanning yig'isini kim eshitadi-ya?

Osmonda g'uvillab sovuq shamolgina esardi, xolos.

Shamol qizning etagini shishirdi, sochlarini to'zg'itdi, lentasini varrakning shokilasidek pirpiratdi, sharlarni bo'lsa kun botish tomonga sudradi...

* * *

Shahar orqada qolib ketdi. Ana, ko'm-ko'k bog'lar, haydalgan ekin dalalari, qishloqlar, kumush tasmadek yaltirab, cho'zilib yotgan kanallar ko'rindi.

Qurg'ur sharlar uni qayoqqa olib borishar ekan-a?

Shunda nimadir “paq” etib qoldi. Go'zal cho'chib, nima ekan u deb turgan edi, burda-burda bo'lib ketgan sariq shar qo'lga tushdi. Qo'rqqanidan uning rangi oqarib ketdi.

Voy, sharlar portlayversa, nima bo'ladi?

U yana yerga qaradi. Yer shunday uzoq ediki, ko'zi tinib ketdi. Baland-baland tog'lar o'zi bog'chada o'ynaydigan qum uyumidek kichkina-kichkina bo'lib ko'rindi.

Go'zal endi quyoshga yaqinlashib qolgandek bo'ldi.

Nega desangiz, cho'g'dek qip-qizil quyosh endi juda katta shardek bo'lib ko'rindi.



— Go'zalni quyoshga olib boramiz, — dedi bir shar. — Ushlasa qo'li, yursa oyog'i kuysin, o'shanda biladi...

Go'zalga bu sharning so'zi alam qilib, yana yig'ladi.

Shunda tag'in bitta qizil shar paqillab qoldi. Sal o'tmay yana birin-ketin ikki kichik shar yorildi.

Yoyilib ketgan katta ko'l ustidan uchayotganlarida quyosh ko'lga botib, yarimta bo'lib qolgan edi. Ko'l betidagi mayda-mayda to'lqinlar quyosh nurida qip-qizil bo'lib jimirlar, ko'l chetida o'sgan qamishlar ko'm-ko'k bo'lib ko'rinardi.

Ko'lning qoq o'rtasiga kelganlarida ko'k shar:

— Kelinglar, Go'zalni ko'lga tashlaymiz, katta baliq yutib yuborsin! O'shanda biladi... — dedi-da, paqillab yorildi.

Go'zal ko'l tomonga tezlik bilan tusha boshladi. Nega desangiz, portlayverib uchta-to'rttagina qolgan sharlarga Go'zal og'irlik qilardi-da.

Go'zal pastga, ko'lga tikilgan edi, keng, katta ko'l vahimali bo'lib, unga tomon uchib kelayotgandek tuyuldi, yuragi "shuv" etib ketdi.

Ko'lning o'rtasida qayiq turar edi. Qayiqda qarmog'ini suvga tashlab silkina-yotgan ipga tikilib, qimirlamay baliqchi yigit o'tirardi.

Shunda samolyot ovozi eshitilib qoldi. Baliqchi boshini ko'tarib osmonga qaradi, qaradi-yu, angrayib qotib qoldi.

Sharlarga osilgan qizcha osmondan unga qarab tushib kelardi.

Shunda ko'l ustida guvillab pastlab uchayotgan samolyot paydo bo'ldi.

Baliqchi irg'ib turdi. Yana "paq-paq" etib qolgan sharlar ham yorilib bo'ldi. Go'zal otilgan toshday "cho'lp!" etib ko'lga tushib ketdi.

Baliqchi ham o'zini ko'lga otdi. U suvga botayotgan Go'zalni tutib, qirg'oqqa qarab suzdi.

Samolyot ko'lni bir aylanib, qirg'oqqa kelib qo'ndi. Samolyotdan uchuvchi bilan Go'zalning oyisi tushdi. Keyin suzayotgan baliqchiga qarab yugurishdi.

Baliqchi qirg'oqqa yetay deganda, uchuvchi ham ular oldiga yetib keldi. U qizning omon qolganini ko'rib suyundi. Uni suvdan tez ko'tarib oldi.

Go'zalning to'zg'ib ketgan sochlari xo'l, ko'ylak va botinkalaridan suv oqib turardi, g'oz surati tikilgan cho'ntagiga suv to'lgan edi.

Ko'kargan lablari titrardi.



Yig'idan ko'zlari qizargan, hayajonlangan oyisi Go'zalni quchoqlab oldi.
— Voy, qizginam, Go'zalim! — deb qizini bag'riga bosdi.
Oyisini ko'rgan Go'zal ho'ngrab yig'ladi. Uning bo'ynidan quchoqlab:
— Oyijonim, endi hech o'jarlik qilmayman, gapingizga quloq solaman! — dedi.

Mana, ko'rdinglarmi, Go'zal oyisining gapiga quloq solmagan edi, nima bo'ldi? Outqazishmaganda, u ko'lga cho'kib ketar, bironta katta baliq uni yeb qo'yardi. Siz unday bo'la ko'rmang yana!

Zamira IBROHIMOVA

GULBAHORNING DO'STLARI

Qadim zamonlarda Gulbahor degan qizcha bo'lgan ekan. U kasalmand onasi bilan xarob bir kulbada yashar ekan.

Gulbahor juda mehribon, xushmuomala va mehnatkash qiz ekan. U bir burda non uchun ertadan-kechgacha boyning uyida ishlar ekan. Ishlari juda ko'p bo'lishiga qaramasdan, har kuni vaqt topib, uylaridan ancha narida o'sadigan bir daraxtni sug'orib kelar ekan.

Kunlar ketidan kunlar o'tibdi. Gulbahorning ishlari yana ham ko'payib ketibdi. Shuning uchun u ancha vaqtgacha sevimli daraxtini sug'orishga borolmabdi.

Bir kuni ko'zlari yig'idan qizargan Gulbahor daraxtning oldiga kelibdi. Daraxt avvalgidek yashnab, savlat to'kib turganmish.

— Assalomu alaykum, daraxtjon! — debdi Gulbahor.

— Vaalaykum assalom, Gulbahor!

— Suvsiz qolgandirsan, deb juda qo'rquvdim. Qaysi yaxshi odam senga suv berdi? — debdi Gulbahor.

— O'-o', juda qiziq bo'ldi, — deb gap boshlabdi daraxt. — Seni rosa kutdim. Chanqab, endi tamom bo'ldim, deb tursam, bir kichkinagina qo'ziqorincha kelib qoldi. “Senga yordam beraman”, — dedi. Oldiniga hech ishonmadim, “O'zi kichkina bo'lsa, menga nima yordam berardi” deb o'yladim. Shunda degin, bir silkinuvdi, uzun-uzun, ingichka, oppoq ildizlari atrofga yoyilib ketsa bo'la-



dimi? Birpasda ildizlari yerni teshib, mening ildizlarim orasiga kirib, quvvat bo'lishdi. Keyin yerning tagiga borib, suv ham topib chiqishdi, o'sha suvni ichib, o'zimga keldim. Ketmoqchi edi, iltimos qiluvdim, men bilan do'st bo'lib, shu yerda qoldi. Endi men unga oziq-ovqat topib beraman, u menga suv yetkazib beradi. Ahillik, bir-biriga yordamlashish juda yaxshi ekan-da...

— Ha, rostdan ham juda qiziq ish bo'libdi. Uni shu yerda qoldi, deysan, ko'rinmaydi-ku? — debdi Gulbahor.

— Har kelganda o'zing o'tiradigan joyga qaragin.

Gulbahor daraxtning chap tomoniga o'tibdi va sallasini xiyol qiyshaytirib, mamnun qarab turgan bir dona qo'ziqorinni ko'ribdi. Gulbahor mehr bilan uning boshini silabdi-da, yoniga o'tiribdi. Shunda daraxt:

— Gulbahor, o'zing nega xafasan? Ko'zlarim ham qizargan? — debdi. Gulbahor boshini quyi egib, sekingina gap boshlabdi:

— Bilasan-ku, boyning uyida ish juda ko'p. Bugun hamma ishlarimni tamomlab bo'lay deganimda bitta piyola qo'limdan tushib, sindi, — debdi Gulbahor piq-piq yig'lab. — Keyin boy xotin meni rosa kaltaklab, non bermadi. Endi uyga qanday boraman, oyim kasal, qorni och.

Bu voqeadan daraxt xafa bo'lib, shoxlarini qattiq-qattiq silkitibdi. Kichkina qo'ziqorin ham Gulbahorning g'amiga sherik bo'libdi.

Qiz biroz tinchlangach, qo'ziqorin gap boshlabdi:

— Bilasanmi, men juda uzoqdan kelganman. Ilgari odamlar mendan lazzatli ovqatlar tayyorlab yeyishardi. Rosa maqtashardi.

— Sendan-a? — hayron bo'libdi Gulbahor. — Qanaqa ovqat tayyorlashardi?

— Meni-chi, yog'da qovurishardi, suvda pishirib, sho'rva qilishardi, quritib, qishga saqlab qo'yishardi. Yana-chi, bochkalarga tuzlab ham qo'yishardi. Ol, meni uz-da, onangning oldiga bor. Seni kutayotgandir.





— Yo‘q-yo‘q! — o‘rnidan turib ketibdi Gulbahor. — Sen mening daraxtimga suv berib, yaxshilik qilibsiz. Sizlar endi do‘st bo‘lib, birga yashanglar.

— Do‘stlik — juda zo‘r kuch. Agar sen meni ehtiyotlab, ildizlarimga shikast yetkazmay uzib olsang-da, menga bir chelak suv quysang, do‘stim daraxtning bergan ovqatlarini maza qilib yesam, men shunday ko‘payib ketamanki, terishga ham ulgurolmaysan. Yaxshilik qilishdan ham yaxshi narsa bormi olamda? Qo‘rqma, uzaver, — debdi qo‘ziqorin.

Gulbahor qo‘ziqorinni avaylab uzib olibdi, o‘rniga bir chelak suv quyibdi-da:

— Xayr, daraxtjon, men ertaga kelaman, — deb uyiga ketibdi.

Gulbahor qo‘ziqorinni yuvibdi, suvga solib qaynatibdi. Sho‘rva tayyodlab bo‘lgach, sopol kosachaga solib, onasining oldiga qo‘yibdi. Onasi kuch-quvvatdan ketib, ranglari sarg‘ayib ketgan ekan. Yog‘och qoshiqni zo‘rg‘a qo‘liga olib, bir qultum ichibdi. Ichgan narsasi ko‘zlariga nur bo‘libdi. Yana bir qoshiq ichgan ekan, ranglariga qizillik yuguribdi. Yana ichibdi, ruhi tetiklashibdi...

Onasidagi o‘zgarishlarni ko‘rib, Gulbahor sevinib, chapak chalib yuboribdi. “Onajon!” — deya uni mahkam quchoqlab olibdi, yuzlaridan o‘pibdi...

— Qizginam... o‘rgilib ketay sendan. Menga qanday shifobaxsh sho‘rva berding? Butun tanam yayrab ketdi-ya...

— Onajon, bu — qo‘ziqorin sho‘rva, — deb Gulbahor bo‘lgan voqeani onasiga aytib beribdi.

— Ha, do‘stlar bilan yashasang, murodingga yetasan, — deb ona qizini bag‘riga bosibdi.

Tong otgach, ona-bola qadrdon daraxtning oldiga borishibdi. Qarashsa, daraxtning gir aylanasi vij-vij qo‘ziqorin emish. Ular rosa sevinishibdi, birbirlariga yordam berishib, qiynalmay yashashibdi.



URUSHQOQ GUL VA BOLA

Aziz keyingi paytlarda juda o'zgarib qoldi. Qulog'iga gap kirmaydi, o'rtoqlari bilan hech chiqisha olmaydi. Kim bilan o'ynasa, turtadi, uradi, o'yinchoqlarini tortib oladi-da, sindirib tashlaydi. Shuning uchun bolalar uni "urushqoq" deb atay boshladilar.

Bugun ham shunday bo'ldi. Aziz birpasda o'rtoqlari Dilnoza, Dilmurod, Shuhratni yig'latdi-da, bir o'zi qumlarni har yoqqa sochib, o'ynay boshladi. Keyin nariroqda turgan bolalarga bir qarab: "Bilib qo'yinglar, men shunaqa zo'rman", deganday kerilib, uylari tomon yurib ketdi. Uyga kirib o'q ukasi Ahmadning o'ynab turgan qizil mashinachasini tortib oldi...

Azizning bu qiliqlari onasini qattiq ranjitdi.

Mana, uxlash vaqti bo'ldi. Ahmad o'rniga yotqizilgach, shirin uyquga ketdi. Aziz bo'lsa oyisi va dadasining gapiga kirmay:

— Yo'q, men uxlamayman, ux-la-may-man! — deb turib oldi. Oyisining jahli chiqib:

— Xo'sh, nima uchun uxlamaysan, vaqt bo'ldi-ku?! — dedi.

— "Buzoqcha" haqidagi ertakni ayting, keyin uxlayman, — dedi Aziz yalinganroq ohangda. Oyisi:

— Mayli, yur, joyingga yot. Senga juda qiziq bir ertak aytaman, — deb Azizni yotoqxonaga boshlab kirdi. Aziz karavotga yotgach, oyisi ertak boshladi:


"Qadim zamonlarda katta, juda chiroyli bir bog' bo'lgan ekan. Bog'da oq, qizil, sariq gullar inoq yashar ekanlar. Ular doim birga o'ynar ekan. Katta gullar kichiklariga ertak so'zlab berisharkan. Bir kuni ular orasiga yangi bir gul kelib qolibdi. O'zi juda chiroyli ekan. Lekin tez kunda uning nihoyatda urushqoq, maqtanchoq, salga arazlaydigan, o'rtoqchilikni bilmaydigan gul ekanligi bilinib qolibdi. U gullar bilan urushib-urushib, yakka o'zi qolibdi. U bilan hech kim o'ynamay qo'ygach, bog'ning eng chekkalariga borib, yolg'iz o'zi aylanib yura boshlabdi.

Bir kuni bog'ga shamol kiribdi-da, bir joyga berkinib olib, gullarni tomosha qila boshlabdi. Unga gullar juda yoqibdi. Birortasini uyiga olib ketmoqchi bo'libdi. Shovullab, baqirib-chaqirib ularning oldiga kelibdi. Gullar undan qo'rqish-



mabdi. Ular dadil turib, bir-birlarini mahkam ushlab, g'uj bo'lib olishibdi. Shamol qanchalik harakat qilmasin, ularning oralariga kirib, birortasini ololmabdi. Shunda shamolning xafasalasi pir bo'libdi. U bog'dan chiqib ketayotgan ekan, yolg'iz o'zi yurgan gulni ko'rib qolibdi. Xursand bo'lib: "Mana shu gulni olib ketaman", — debdi va uning yoniga kelibdi. Uni ko'rgan gul qattiq qo'rqib ketibdi va yerni mahkam quchoqlab olibdi. Shamol uni rosa yulqibdi,

barglarini uzib olibdi, ammo o'zini yerdan ajrata olmabdi. Juda charchab qolgan shamol biroz dam olishga qaror qilibdi.



U ko'zlarini bir zumga yumgan ekan, paytdan foydalangan gul o'rnidan tura solib qochibdi. Tezda o'rtoqlari oldiga yetib kelibdi. Ranglari oqarib, hansirab ketgan gulni ko'rgan o'rtoqlari, uni darrov o'rtaga olib, mehribonchilik ko'rsatishibdi. Shunda haligi urushqoq gul yig'lab:

— Meni kechiringlar. Endi hech qachon, hech kim bilan urushmayman, — debdi.

kim bilan urushmayman, — debdi.

Rostdan ham, gul keyin hech kim bilan, hech qachon urushmabdi. Ular yana do'st, o'rtoq bo'lib, ahil yashay boshlabdilar".

Oyisi ertakni tugatgach, Azizning ko'rpasini ustiga yopib qo'yib, peshonasidan o'pdi-da: — Yaxshi uxlab turgin, qo'zichog'im, — deb chiqib ketdi.

Aziz anchagacha uxlay olmadi. Ko'zlari yumilganini o'zi ham sezmay qoldi. U tush ko'ra boshladi. Go'yo o'rtoqlari bilan urushib, yolg'iz o'zi qumda o'ynab o'tirgan emish. Birdan qattiq shamol turibdi. Shamolning Qorboboga o'xshagan uzun soqoli bormish. U Azizni tortqilab: "Men urushqoqlarni yaxshi ko'raman, shuning uchun men bilan yur!" — dermish. Shunda Aziz ham gulga o'xshab, yerni ushlamoqchi bo'larmish-u, lekin atrof nuqul qum bo'lgani uchun hech mahkam ushlolmasish. U yig'lab: "Yo'q-yo'q, bormayman, endi urushmayman, urushmayman!" — deb jon holatda qichqirarmish Biroq Shamol quloq solmay, uni yulqib olib ketmoqchi bo'larmish. Shu payt



qayoqdandir hali o'zi urushgan o'rtoqlari: Dilnoza, Dilmurod, Shuhrat yordamga kelishibdi. Uni mahkam quchoqlab olishibdi. Dilmurod hali ham o'kirayotgan Shamolga qarab: "Yo'q, biz xafa emasmiz, biz o'rtoqmiz, do'stmiz! Azizni olib ketmang!" — dermish. Ammo Shamol baqirishni qo'ymas, qo'llari bilan Azizni tortqilar emish...

Aziz seskanib, uyg'onib ketdi va: "Oyi, oyi-jon...!" — deb baqirib yubordi. Oyisi uning yoniga shoshilib kirdi va yupatdi. Biroz tinchlangan Aziz birdan

ho'ngrab o'zini oyisining bag'riga otdi:

— Oyijon, bolalar bilan endi qanday yarashaman?

Oyisining ko'ngli buzilib ketdi.

— Qo'y, o'g'lim, yig'lama, hamma narsa o'zingga bog'liq. Sen yaxshi bo'lsang, bolalar ham seni yaxshi ko'radi. Agar yomon bo'lsang, bolalar ham yomon ko'rishadi. Shuning

uchun ular bilan yaxshi o'yna, urushma, hech

kimni bekordan-bekorga xafa qilmagin. Ertaga o'rtoqlaringdan kechirim so'ragin, xo'pmi! — dedi oyisi.

Aziz burnini tortib:

— Kechirishmasa-chi? — dedi.

— Kechirishadi, mana ko'rasan, ular seni, albatta, kechirishadi. Esingdami, ertakdagi urushqoq gulning o'rtoqlari unga qanday mehr ko'rsatishadi, kechirishadi. Axir, sen ham endi o'rtoqlaringni bekordan-bekorga xafa qilib, urushmaysan-ku, to'g'rimi?

Aziz boshini ko'tarib, qop-qora ko'zlarini onasining ko'zlaridan uzmay:

— Ha, oyijon, men hech qachon, hech kim bilan urushmayman, yaxshi bola bo'laman, — dedi ishonch bilan.





Turg'unboy G'OYIPOV

HUNARLI YIGIT XOR BO'LMAYDI

Qadim zamonda atrofi o'rmon-u adirlar bilan o'ralgan Marg'ilon degan go'zal bir qishloq bo'lgan ekan. Xonlar, beklar nazaridan chetda bo'lgani uchun xalqi ham, o'rmoni ham tinch ekan. Lekin Marg'ilonga xonlar yo'l topib, xalqni talashga kirishibdi. Og'ir mehnat, ochlik azoblari jonidan o'tgan bir yigit baxt axtarib yo'lga chiqibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham, mo'l yuribdi. Bir to'qayzorga kelganida allaqanday tasir-tusur tovush eshitilibdi. Yaqinroq borib qarasa, kattakon bir qoplon cholni bosib olib, bo'g'ziga tishini botirmoqchi bo'lib turganmish. Yigit o'zini qoplonning ustiga otibdi. Qoplon o'ljasini qo'yib yuborib, yigitga yopishibdi. Ikkovlari olishibdi, oxiri yigit yonidan pichog'ini olib, qoplonning biqiniga sanchibdi. Qoplon o'sha zahoti jon beribdi.

Yigit o'z jarohatlarini ham unutib, cholni hushiga keltirishga urinibdi. U bo'lsa juda holdan toygan ekan, yigitning savoliga javoban allanarsalar debdi-da, o'ng qo'li bilan sharq tomonga ishora qilibdi. Yigit cholning uy-joyi o'sha tomonda ekanini fahmlabdi. Yaqin oradan karvonlar o'tib qolishibdi. Yigit ularni to'xtatib, cholni tuyaga mindiribdi, o'zi piyoda jo'nabdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham, mo'l yurishibdi. Nihoyat, Xitoy mamlakatiga kirib borishibdi. Chol bir hovlini ko'rib, sevinganidan qichqirib yuboribdi. Yigit cholning hovlisi shu ekanini bilib, uni tuyadan tushiribdi, suyab hovliga olib kiribdi. Hovlidagi qiz cholga peshvoz chiqib, ikkovi quchoqlashib ko'rishibdi-lar. So'ngra qiz yigitga minnatdorchilik bildiribdi.

— Siz otamni o'limdan qutqaribsiz, katta rahmat, — debdi u.

Ular yigitni juda yaxshi mehmon qilishibdi. Kunlarning birida yigit qizga o'z maqsad-orzusini, nima uchun yo'lga chiqqanini gapirib beribdi. Shunda qiz unga:

— O'zimiz juda kambag'almiz. Lekin uy-joyimizni sotsak ham, sizga yordam-lashamiz. Mato olib, sizni karvonlarga qo'shib yuboramiz, savdo qilib boyib ketasiz, — debdi.

Yigit bunga rozi bo'lmabdi.



— Men otangizni mol-dunyo uchun qutqarmadim. Unga insoniylik yuzasidan yordam berdim. Taklifingiz uchun rahmat, lekin savdogarchilikdan og'iz ochmang, — debdi.

Qiz muloyimgina kulib qo'yibdi.

— Kechiring meni. Siz bizga o'xshab halol mehnat bilan yashaydigan odamlardan ekansiz. Xohlasangiz, shohi to'qish hunarini o'rgatay, — debdi qiz.

Qizning bu taklifi yigitga ma'qul tushibdi. Chunki yigit tug'ilgan qishloqda odamlar shohi to'qish, ipakni qaysi yo'l bilan olishni bilishmas ekan.

Qiz uyidan kichkina xalta olib chiqib, undagi urug'larni yigitga ko'rsatibdi:

— Mana shu urug'lar issiqda qurtga aylanadi.

Qurtlar ipak chiqaradi.

Qizning bu so'ziga yigitning ishongisi kelmabdi. Qiz bo'lsa urug'larni qurtchalarga aylantirib, ularni savatlarga solibdi. Tut barglarini maydalab, qurtlarga yedira boshlabdi. Qurtlar barglarni ishtaha bilan yeb, o'sa boshlabdi. Chol, yigit va qiz qurtlarga arang barg tashlab ulgurishibdi.

Oxiri qurtlar yengil ipak tolalarini chiqarib, o'sha tolalarga chulg'ana boshlabdilar. Qiz pillani chuvab, ipakka aylantiribdi-da, ipaklarni dastgohga tortibdi. Yigit shohi to'qishni havas bilan o'rgana boshlabdi. Ikki yil davomida u tinmay mehnat qilibdi va juda yaxshi to'quvchi bo'libdi.

Xitoy podshosi qurt boqish sirini, shohi to'qish hunarini chetga chiqarmaslik uchun mamlakatdagi kishilarga qat'iy buyruq bergan ekan. U shohi kiyimlarni faqat o'zi va saroy kishilarigina kiyishini xohlar ekan. Musofir yigitning mohir to'quvchi bo'lganini eshitib, darrov saroyga chaqirtiribdi. Yigit kelibdi. Shoh unga boshdan-oyoq razm solib:

— Uch kun ichida Xitoyda hech kim to'qiy olmaydigan ajoyib shohi to'qishing kerak. Agar uddasidan chiqa olmasang, kallangni tanangdan judo qilaman, — debdi.

Yigitning rosa boshi qotibdi. Uyga xomush qaytibdi. Uni bu ahvolda ko'rgan qiz hayron bo'libdi.






— Nima bo'ldi? — so'rabdi u.

Yigit shohning shartini qizga batafsil gapirib beribdi.

— Qayg'urma, — deb tasalli beribdi qiz. — Kishi doim dadil bo'lishi, boshiga mushkul ish tushganda o'zini yo'qotib qo'ymasligi kerak. Kel, ikkalamiz yeng shimarib, ishga kirishaylik.

O'sha paytda Xitoyda oq jujundan shohi to'qilar ekan. Yigitning xayoliga Marg'ilon o'rmonining qirg'ovullari patidek rangdor shohi to'qish kelibdi. O'z qishlog'idagilarning daraxt gullari, tomiri, meva po'choqlaridan qanday rang olishganini eslab, o'shanaqa ranglar tayyorlabdi. U oq ipakni dastgohga tortib, ipakka shu rangdan purkabdi. Shohi to'qilib bo'lgach, unga tuxum sarig'ini surib, to'qmoq bilan kuding urgan ekan, shohi juda ham tovlanib, yarqirab ketibdi.



Shoh yigit keltirgan shohini ko'rib, hang-u mang bo'libdi. Barmog'ini baland ko'tarib, "xo", debdi.

Bu a'lo degani ekan.

— Sen endi mening saroyimda shohi to'quvchi bo'lib ishlaysan, — debdi shoh unga. — Katta haq olasan.

Lekin yigit bunga ko'nmasdi. U shohga:

— Men o'z vatanimga borishim kerak, agar sizga shohi kerak bo'lsa, olavering. Men sizga emas, xalqqa xizmat qilaman, — debdi.


— Agar ko'nmasang, senga hunar o'rgatganlarni o'ldiraman, — deb uni qo'rqitibdi shoh. Yigit uch kunga muhlat olib, uyiga kelibdi. Chol bilan qiz voqeani eshitgach, o'ylay boshlashibdi. Yarim kechada chol, qiz, yigit — uchchovi birga shahardan chiqib qochishibdi, yo'l yursa ham, mo'l yuribdi, nihoyat, noma'lum bir o'rmonga yetib kelishibdi. Shu yerda ular anchagina osoyishta umr o'tkazishdi. Nihoyat, yigit, chol bilan qizni o'z qishlog'iga olib ketibdi. Ustaxona ochib, rang-barang shohilar to'qiy boshlabdi. Qiz va chol unga ko'maklashibdi. Hunarlarini oshnalariga ham o'rgatishibdi. Shunday qilib, ular to'qigan shohi Marg'ilon shohisi nomi bilan dunyoga yoyilibdi.



Rahmat AZIZXO'JAYEV

QUYONCHA BILAN TULKICHA

Kenja quyon uyasidan o'ynab chiqqanicha yugurishga havasi kelib ketdi. Yugurganda ham, bir gal onasi boshlab borgan jarliklardan ham ichkari kirib ketdi. Quyonchaga hammayoq ajoyib ko'rinar, ba'zan o'z-o'zidan hurkisa hamki, go'yo biror mahluq quvlaydigan bo'lsa, o'zini hech qaysisiga yetkazmaydigan his etganidan quvonar, o'ynoqlagani-o'ynoqlagan edi. U jarlikning naq belidan o'ynab chiqayotgan "qaynar buloq"qa yetganda, o'zidan sal kattaroq, quloqlari o'zinikiga qaraganda kalta bo'lgani bilan, dumi qamish ro'vagiday hilpiragan bir maxluqqa ko'zi tushdi. Quyoncha orqasiga bir zum ko'z tashlab, o'shanaqangi momiq dumi bo'lmagani uchun bir zum ich-ichidan kuyundi. Havasi kelib uning yoniga borgisi, u bilan do'stlashgisi keldi. Ikki odim bosib, yana to'xtadi. Quyonlar yashab turgan o'ngirda o'zlari-dan boshqa maxluqlar ham borligini ko'rib, hayratda qoldi. Qanday muomala qil-sam ekan, deb o'ylab ul-gurmasdanoq, buloqdan suv ichayotgan momiq dum, kichkina tili bilan lab-larini yalayotib, quyonchaga ko'zi tushib qoldi. U sho-shilmay, sekin-asta, muloyimlik bilan dumini chiroyli hilpillatib, quyonchani oldiga keldi-da, dedi:



- Xush kelibsiz, aziz mehmon, xush kelibsiz!
- Salom! — dedi shoshib qolgan quyoncha va boshqa gap topolmadi.
- Dumingiz juda chiroyli ekan-a?

Bu gap tulkichaga moydek yoqdi: u hozirgina uyasidan chiqqanicha, bitta katta qo'ng'izni quvalay-quvalay tutib yeb, ustidan suv ichib turgan ekan.



Buning ustiga barraday quyonchani o'z oyog'i bilan kelib, yana uning dumiga havasi kelishi tulkichani quvontirib yubordi. U dumini goh baland ko'tarib, goh past tushirib, ba'zan yerga yotib o'ynab, quyonchani kuldirdi.

— Yuring, mehmon, yuring, mehmon! — dedi tulkicha o'zi kelgan tomonni ko'rsatib. — Ajoyib bog'larimiz, semiz-semiz qo'ng'izlarimiz bor, yuring!

Quyonchani borgisi kelsa ham, o'ylab qoldi va tulkichaga qarab dedi:

— Shoshmang, mening borishim, sizga mehmon bo'lishim qochmaydi. So'raganning aybi yo'q. Avval siz menga o'zingizni taniting, keyin boray.

Tulkicha quyonchadan bu savolni kutmagan edi. Shoshib qoldi. “Nahotki, u biz haqimizda eshitmagan bo'lsa!” deb o'ylardi tulkicha. “Bo'rimiz”, degisi keldi-yu, darrov bu fikridan qaytdi. “Bo'rini eshitgach, quyonchani jon-poni chiqib ketar”, dedi-da, o'ylab turib, sekingina dedi:

— Bizmi, quyoncham, biz sizlarning qadr-don do'stlaringiz, tulkilardan bo'lamiz.

— Tulkilardanmiz, deng, — dedi quyoncha va shu ondayoq uning yodiga bobosi tushdi. Tulkilar haqida gapirganda bobosining qovoqlari uchib, dahshatdan quloqlari necha bor chimirilib-chimirilib ketgani yodiga tushdi. U qanday bo'lmasin, bu ayyor maxluqdan o'zini qutqazmasa, hozir shu chashma bo'yida so'zsiz halok bo'lishiga ko'zi yetib, yuragi shunday urib ketdiki, quyoncha esini tanigandan buyon bunaqangi yurak o'ynog'ini ko'rmagan edi, quyoncha uchun vaqt tang edi. U, tulkicha kutmagan yerda birdan kulib yubordi-da, sakrab kattagina bir toshning ustiga chiqdi va dadil-dadil so'zlay boshladi:

— Obbo, tulkicham-ey! Siz meni yuvosh quyoncha deb o'yladingizmi? Yo'q! Menga yaxshi uchrab qoldingiz: biz uzun dum qidirib yurgan edik. Ana! Ana! — dedi quyoncha o'zi kelgan tomonga qarab chapak chalib. — Mening do'stlarim, botir quyonlar, kelinglar, chopinglar! Chopinglar! Mana sizlarga uzun dumli tulkicha, uzun dumli tulkicha! Hoy, qayoqqa qochayotirsiz, tulkicham? Dumingizni yana bir o'ynating! Qochmang, deymen!

Tulkicha chunon bir qochish qildiki, quyoncha uning ketidan: “Ushlanglar! Uni ushlanglar!! — deganicha qichqirib qoldi.



Yoqubjon SHUKUROV

OYSHA

Qadim zamonda dongdor bir boy bo'lgan ekan. Boyning kambag'al chol-kampir xizmatkori bo'lar ekan. Chol boyning o'tinini yorar, suv keltirar, ot, sigir-buzoqlarini, qo'y-qo'zilarini boqar, kampir esa boy xonadonida kir yuvar, hovli supurar, butun ro'zg'or ishlarini bajarar ekan.

Ularning yolg'iz Oysha qizi bo'lib, u goh otasiga, goh onasiga ko'maklasharkan, ishga juda chechan ekan.

Ko'p o'tmay, qiz bechoraning avval otasi, so'ngra onasi vafot etibdi. Endi ular bajaradigan ishlarning hammasi Oyshaga qolibdi.

Shuning uchun ham hali oshxonada ovqat pishirsa, hali og'ilxonaga yugurib, sigir-buzoqlariga qarar, tovuqlarga don sochar, hali boyning kir-chirlarini yuvarkan. Yana erta tongda turib, ishga tushib ketarkan.

Oysha har qancha yelib-yugursa ham, boyning xotini, besh bolasi uni turtgani-turtgan ekan.

Xotini: "Idish-tovoqlarni yaxshi yuvmabsan", — deb qarg'asa, o'g'il-qizlari: "Nega suv yo'q, nega suv keltirib qo'ymaysan", — deb baqirarkan.

Oysha bir ishni bitirishga ulgurmasdan, boy: "Mollarga yaxshi qaramayapsan, ma'rashgani-ma'rashgan, sening ta'ziringni berib qo'ymasam, bo'lmaydiganga o'xshaydi", — deb koyir ekan.

Ammo Oysha hammasiga chidar ekan. Tilsiz do'stlarini silab-siypab, dardini ularga aytarkan va ularni erkalatib: "Shunaqa, echkijon, qo'yxonlarim! Iye, shirin buzoqjonlarim, suvingiz tugabdi, o'tingiz oz qolibdi", — deb qo'yarkan.

Oysha darhol suv berarkan, o't solarkan. So'ng tovuqlardan xabar olarkan.

— Mening tovuq-xo'rozlarim, besaranjom xushovozlarim! — der ekan-da, don socharkan, jo'jalarni erkalar ekan. Ammo boyvuchchalar hayvonlar ovozidan nolir ekan: "Hoy, Oysha yashamagur! Hayda tovuqlaringni! Sigir-buzoqlar, qo'y-qo'zilar ovozini o'chir", — deb koyishar ekan. Oysha bo'lsa:

— Hoy, echkijon, qo'zilarim, tinchimas tovuq-xo'rozlarim! Qichqirmanglar, uyat bo'ladi! — der ekan.

Bir kuni buni boyning o'g'il-qizlari eshitib qolib, shovqin solishibdi:

— Oysha, sen tovuq-xo'rozlar, sigir-buzoq, qo'y-echkilar bilan gaplashyapsan, shu to'g'rimi?



— To'g'ri, boyvuchchalar! — debdi Oysha.
— Ular gapga tushunmaydi-ku! Esi past, nodon!
— Biladi, tushunadi, boyvuchchalar, — debdi Oysha.
— Sen tentak qiz ekansan, jinni bo'lib qolibsan. Seni otamizga aytib, uydan haydatish kerak, — deyishibdi boyning o'g'il-qizlari uni masxaralab.

O'g'il-qizlar: “Jinni qizni haydang!” — deb turib olishgach, boy rozi bo'libdi.

— Mayli, men ketaman. Men harom tuz ichmadim, boy ota! Tuzingizga rozi bo'lib, haqimni bering. Mayli, ket desangiz, ketaveraman, — debdi Oysha.

— Ketaver! — debdi boy. — Yegan-ichganning bilan ora ochiq! Menda hech qanday haqing qolgani yo'q!

— Mayli, boy ota. Otam rahmatlik: “Odam o'lmas, rizqi kamaymas”, — degan edilar. Ochimdan o'lmasman. Hovlingizda shuncha yil tinmay ishladim, lekin xizmat haqimni bermadingiz. Endi ming bor pushaymon bo'lasiz! O'g'il-qizlaringiz hali ko'p afsuslanadi, — deb Oysha faqat hayvonlar-u parrandalar bilan xayrlashibdi-da, boyning hovlisidan chiqib ketibdi. Shundan so'ng qo'y-echkilar, sigir-buzoqlar ma'ray boshlashibdi. Tovuqlar qaqag'labdi, xo'rozlar qichqiribdi. Bir zumda hovli to's-to'polon bo'lib ketibdi. Boy dovdirab qolibdi.

U har yoqqa alang-jalang qarabdi, quloqlarini berkitib ko'ribdi, hayvonlarga o't, parrandalarga don tashlabdi. Sigir-buzoqlar o'tga qaramay, arqonini uzib, boyning xotini va o'g'il-qizlarini suzgani yuguribdi. Ular jon holatda uyga qochib kirib, qutulishibdi.

— Oysha yer yutkur qani? Borib, tez chaqirib keling uni, — debdi boyning xotini bolalariga.

— Men sen esi pastlarning so'ziga kirib, chakki ish qilibman. Endi Oysha yo'q, — debdi boy baqirib.

Bu orada echkilar ko'chaga qarab chopibdi. Unga sigir-buzoqlar, qo'y-u qo'zilar, xo'roz-u tovuqlar ergashibdi. Hovlini to'ldirgan shovqin-suron tezda bosilibdi. Boy-u boyvachchalar hayron bo'lishib, birin-ketin hovliga chiqishibdi. Hovlida biron jonivor ko'rinmabdi. Boy yoqasini ushlabdi. U yoqqa yuguribdi, bu yoqqa yuguribdi, ko'chaga chiqibdi, hayvonlarni topolmabdi.



Sigir-buzoqlar, qo'y-u echkilar, tovuq-xo'rozlar esa Oyshani qidirib topishibdi va u bilan birga tinchgina yashashibdi.

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

TO'PDAN AYRILGANNI BO'RI YER

Ona tovuq jo'jalar ochib chiqdi. Bolalari oq, qora, sariq, parlari momiq-day, chiroylilikda biri ikkinchisidan qolishmaydi. Ular onalari topib bergan donni yeb, bir to'p bo'lib ahil yashar edilar.

Jo'jalarning orasida bo'yni uzun, suqatoy bir jo'ja bor edi. U, yolg'iz yursam ko'p ovqat yeyman, deb o'ylab to'dadan ajralib chiqdi. Jo'jalar o'ngga yursa, u chapga, o'rtoqlari oldinda yurganda, u esa orqada yurardi.

Ona tovuq xafa bo'lib:

— Nega unday qilasan? — deb koyidi uni. —

Axir, bitta qorning to'yib qolar.

Sariq jo'ja qaysar edi. U sariq tumshug'ini yerga tirab, tek turaverdi. Onasining so'zini qulog'iga olmadi.

Kunlardan bir kuni bir tulki ovga chiqqandi, jo'jalarga ko'zi tushib qoldi. Tulkining qorni och, ishtahasi karnay edi. Ovni ko'rib, og'zining suvi kelib, jo'jalarga tashlanmoq uchun payt poyladi.

Ona tovuq hushyor edi. Tulkini payqab, qaqillab yubordi. Jo'jalar ham chiyillashib g'uj bo'lib olishdi. Tom orqasida suyak g'ajib yotgan Olapar shovqin-suron ko'tarilgan joyga o'qdek uchib keldi-da, tulkini quvib yubordi.

Ertasiga ham xuddi shu ahvol yuz berdi.

Tulki go'sht yeyishdan umidini uzib, ariq ichidan panalab qaytayotgan edi, "chip-chip" qilib don terib yurgan sariq jo'jaga ko'zi tushib qoldi.

Jo'ja chiyillab faryod ko'tarmoqchi bo'lgan edi, ingichka ovozini hech kim eshitmadi...





Rauf TOLIB

G'ALATI ZIYOFAT

Kirpi o'rmondan biror yegulik topa olmay, quruq qaytib kelayotgan ekan. Ola quyonning ini yonidan o'tayotsa, dimog'iga karam sho'rvaning yoqimli hidi urilibdi.

“Oh-oh! — quvonibdi Kirpi. — Ola quyonnikida sho'rva biqillab qaynayotganga o'xshaydi. O'ziyam qorin surnay chalayotgan edi-yu, ammo kirsam, qalay bo'larkin? “Aytilmagan mehmon — yo'nilmagan tayoq”, deyishadi, axir. Ba'zilarga o'xshab, betimni qalin qilib, is chiqqan joyga irshayib kirib boradigan odatim yo'q. E, och qolsam, qolay, lekin kirmayman”.



Kirpi o'z yo'lida davom etib, bir-ikki qadam bosibdi-yu, yana to'xtabdi. Hech nari ketolmay qolibdi. Sho'rvaning yoqimli hidi ishtahasini qo'zg'ab yuboribdi. Yana o'ylabdi: “Quyvon o'zimning jonajon do'stim-ku! Bir mehmon bo'lsam, bo'libman-da! Axir, quyvon ham biznikida ko'p yeb-ichgan, hatto bir-ikki gal yotib ham qolgandi... Qarang, tirikchilikdan ortib, vaqt topib quyonnikiga ham kelolmagan edim. Hoynahoy, do'stim meni ko'rib, o'zida yo'q sevinib ketsa kerak. Shundoq sho'rvani ichmay, qayoqqa boraman?”

Kirpi tortinib, ming bir andisha bilan quyvonning eshigini qoqibdi.

— Salom, do'stim quyvonboy, omon-essonmisan? — debdi Kirpi quchoq ochib. Ola quyvon Kirpini ko'ribdi-yu, birdan qovog'i osilib ketibdi. Ammo sir boy bermay:

— Xush ko'rdik, keling, — debdi ensasi qotib.

— Quyvonboy, juda qo'ling gul, pazandasan-da! Uyangning yonidan o'tib



ketayotsam, sho'rvaning xushbo'y hidi dimog'imga gup etib urildi. Kira qoldim.

— Juda yaxshi qilibsan, — debdi Ola quyon kesatayotganday.

Ola quyon ancha xasis, ziqna ekan. Birovlarnikiga mehmonga borar ekan-u, lekin o'zi biror marta ham uyiga birovni chaqirmagan ekan. Kirpining kelishi unga yoqmabdi.

Ola quyon yo'lda turgan chelaklarni oyog'i bilan taraqlatib tepib, dam u yoqqa, dam bu yoqqa o'tib, mehmonga dasturxon yozibdi.

Xuddi shu payt eshikdan ikkinchi mehmon — Yumronboy kirib kelibdi. Mehmonlarning ikkita bo'lganini ko'rgan quyonning qovog'idan qor yog'ilibdi.

— Quyonjon, sho'rva pishirayotgan ekansan, kelaverdim, bir ziyofatga tushding-da! — debdi Yumron tirjayib.

— Mehmonlarga eshigim doim ochiq, — debdi Ola quyon o'ziga yarashmagan to'nglik bilan. Ichida esa: “Senga kimning ko'zi uchib turuvdi?” debdi.

Ola quyon oshxonaga kirib ketibdi. Dam o'tmay uning shang'illagan ovozi eshilibdi.

— Voy, quribgina ketkur, tekintamoq pashshalar-ey, nuqul tayyor ovqatga yopishgani-yopishgan-a?

Ola quyon idish-tovoqlarni bir-biriga urib, shaqillatib, ovqat suza boshlabdi. So'ng xuddi: “Mana, ichlaring”, deganday idishlarni to'qillatib mehmonlar oldiga qo'yibdi.

Mehmonlar bir-birlariga qarashibdi.

Ular sho'rvadan bir qoshiq ichishibdi-yu, o'rinlaridan turishibdi.

— Quyonboy, sho'rva juda mazali bo'lgan ekan, — deyishibdi-da, jo'nab qolishibdi.

Ola quyon ularni kuzatib kelib, bundoq qarasa, mehmonlar ovqatga tegishmabdi hisob... Ola quyon hayron bo'libdi:

— O'zlari-ku: “Qo'li gul pazandasan, sho'rvangning hidi undoq, mazasi bundoq”, — deb rosa maqtashdi. Shirin bo'lsa, nega ichmay ketishibdi? Tavba... Tavba...



KECHIKKAN LOLA

Oftob “yarq” etibdi-yu, butun olam yashnab ketibdi. Qorlar erib bitibdi. Allaqanday yoqimli, dillarni erkalovchi shamol esa boshlabdi.

Boychechaklar uyg'onib, oftobga yuz tutishibdi.

Qirlardagi son-sanoqsiz lolalar ham ko'zlarini ishqalay boshlashibdi. Bahor nafasi jamiki dov-daraxtlarni gullashga, yashashga undabdi.

Huv, qir bag'ridagi bir dona Lola esa hamon olamdan bexabar uxlab yotarkan. Shamol bu holni ko'rib, esishdan biroz to'xtab, Lolaning qulog'iga shivirlabdi:

— Lolaxon, tur endi!

Lola uyqu aralash:

— E, — debdi. — Turgim kelmayapti.

— Atrofga bir qara, bahor...

— Turish bo'lsa qochmas, — debdi Lola.

Erinchoq Lola yana uyquga ketibdi.

Oradan kunlar, haftalar o'tibdi. Bir kun Lola ko'zini ochib qarasa, hammayoq qop-qorong'i. Osmonda ola bulutlar suzib yurganmish.

— Voy, hali sovuq ekan. Etim junjikyapti, — debdi-da, Lola yana uyquga ketibdi.

Olamni larzaga solib, momaqaldiroq gumburlabdi. Shatir-shutir yomg'ir yog'a boshlabdi. Allaqayyerda qo'ziqorinlar bodroqday unib chiqibdi. Butun dov-daraxtlar yomg'irda maza qilib cho'milishibdi. Tol va teraklarning yashil yaproqlari yanayam tiniqlashib, ko'zni yashnata boshlabdi. O't, maysalar shamolda serkillashib, o'yinga tushishibdi.



Ko'kda yana oftob charaqlab, yerni qizdiribdi. Binafsha, chuchmomalar ochilibdi. Qir etagidagi son-sanoqsiz lolalar shudringda yuvinishibdi, quyosh boboga salom berishibdi. Lolalarning xuddi shu turishi lo'ppi-lo'ppi qizil yuzli qizaloqlarni eslatarmish. Lolalarni ko'rgani shahardan odamlar chiqishibdi,



qirlar bayramdagiday yasanib ketibdi. Ayniqsa, qizchalarni aytmaysizmi? Ko'pdan ko'rmagan dugonalarini uchratganday, lolalarni bag'irlariga bosishibdi, o'pishibdi. Kun bo'yi yayrashibdi, kulishibdi. Qizaloqlar o'zlari bilan lolalarni ham shaharga olib kelishibdi. Lolalar esa aziz mehmondan, uy to'ridan joy olishibdi. Odamlarga qancha zavq, qancha quvonch berishibdi...

Kun qizigandan-qizib, bahor yozga yuz tuta boshlabdi. Qir etagidagi erinchoq Lola asta ko'zini ochibdi:

— Endi uyg'onsam bo'ladi, kunlar isib ketibdi, — o'ylabdi o'zicha. — O'ziyam rosa uyquga to'ydim-da!

Lola qaddini tutib, ochila boshlabdi. Husnini ko'z-ko'zlab, atrofga boqibdi. Qoqigul, bo'tako'zlarni pisand qilmay, hatto quyoshga ham tik boqibdi. "Dunyoda eng chiroyli gul o'zimman", — deb o'ylabdi Lola.

Ammo unga hech kim qayrilib qaramabdi. Turib-turib, Lolaga alam qilibdi. "Bu qanaqasi bo'ldi? Hech kimning men bilan ishi yo'q".

— Hoy, shamoljon, — deb so'rabdi Lola. — Nega odamlar meni suyib erkalashmaydi? Nega ko'ksilariga taqishmaydi, quvonib boqishmaydi?

Shamol uvillab, uyquchi Lolaning ustidan rosa kulibdi.

— Ey, sen o'sha erinchoq Lolamisan, oxiri, uyg'onibsan-da! Rosayam g'aflat bosib yotding-da!

— Bo'ldi, bo'ldi, — debdi qizarib Lola.

— Boshqa lolalarning uyg'onishgani qachonlar edi. Lolalar — elchi gullardir. Ular sovuqqa ham, do'lga ham chidashadi. Qiyinchiliklardan qo'rqishmaydi. Shuning uchun odamlar olqishiga sazovor bo'lishadi.

— Men-chi? Meni odamlar olqishlamaydimi?

— Agar sen hamma lolalarday barvaqt uyg'onganingda, odamlar seni sevishib, yuz-ko'zlariga surtishgan bo'lishardi.

— Endi-chi, endi nima bo'ladi?

— Endi senga kim ham qayrilib qarardi? Ishonasanmi, men butun olamni kezib keldim. Hammayoq yashnab yotibdi. Alvon-alvon atirgullar ochilibdi. Bog'larda nastarinlar chaman-chaman, osmon ham, yer ham gul... Olam gulga to'lgan...

Lolaning xo'rliigi kelib, ko'ziga yosh olibdi.



Olloyor BEGALI

RANGIN QORLAR

Qadim-qadim zamonda qish paytlari rang-barang qorlar yog'ar ekan. Ular ba'zan alohida-alohida, ya'ni bir ko'chaga sariq, boshqa mahallaga yashil, boshqasiga pushti ranglarda yog'ilsa, ba'zan bir joyning o'ziga yetti-sakkiz xili yog'ilib, juda g'aroyib rang-o'yin bo'lar ekan. Qishloqlarda qorbo'ron o'ynagan bolalar maza qilisharkan. Ko'chaning bu tomonidagi bolalar qip-qizil qordan to'pcha yasab, ko'chaning u tomonidagi bolalarga otishsa, u tomonidagilar oyoqlari ostida g'irchillayotgan binafsha tusli qorni hovuchga olib, bu tomondagi bolalarga yog'dirisharkan. Ayoq esa deraza oynalariga rangin naqshlar chizarkan.

Shunday qilib, o'sha davrlar ham suvday oqib o'tib ketibdi. Keyin-keyin faqat oq qorlar yog'adigan bo'libdi. Odamlar avvaliga oq rangli qorlar mo'l-ko'l yog'ayotganligidan rosa suyunishibdi. Bir-ikki yil o'tib, o'tmishda yog'gan qorlarni sog'ina boshlashibdi. Oq qorlarga esa o'rganib ketishibdi. Ularga qorning oqligi yillar osha tabiiy tuyula boshlabdi. Endi ular biror narsaning oqligini ta'riflaydigan bo'lishsa, "qorday oppoq", deb gapirisharkan.

Nega qorlar faqat oq rangda yog'adigan bo'lib qoldi?! Buning boisini bilish uchun o'sha qadim zamonlar haqidagi ertakka quloq solish kerak. Bu ertakda bir necha ming yilda bir marta bo'ladigan bo'yoq bozori to'g'risida so'z boradi...

Buyuk bo'yoqchi qirqta quloqli qozonlarda bo'yoq pishirayotgan payt ekan. Uning bo'yoqlari qiyomiga kelib, qozondan o'ziga xos rangda bug' ko'tarilib, osmon-u falakka o'rlay-o'rlay rangli bulutlarga aylanib, shamolning yetovida turli taraflarga uchib ketishi – ajoyib manzara. Buyuk bo'yoqchi xaridor kutib, yo'l kuzatayotgan mahali, olisdan bir qora ko'rinibdi. Agar qo'lni peshonaga soyabon qilib yo'l qaralsa, ushbu yo'lovchi Bahor ekanligini bilish mumkin ekan. U tobora shitob bilan yaqinlashib, uning libosi-yu qiyofasi tiniq ko'rina boshlabdi. U juda chiroyli qiz ekan: sochlarida kurtak va g'unchalar bo'rtib turganmish, ko'ylagining etaklariga binafshalar qadalgan; moychechaklar chambari kiydirilgan boshi uzra qaldirg'ochlar charx urib, yelkasiga qo'ngan sa'va-yu qumrilar chax-chaxlab kelayotir.



Bahor bozorga yetib kelgach, buyuk bo'yoqchiga ta'zim qilibdi. Buyuk bo'yoqchi xaridorlarining birinchisini bug'lanib turgan qirq quloqli qozonlar sari boshlabdi.

— Bahorjon, mana bu bo'yoqlardan keragicha ol! — debdi u. Bahor esa eng avval yashil bo'yoq qaynayotgan qozon yoniga boribdi. Bahor uchun yashil bo'yoq juda zarur ekan. Uning qo'lidagi bo'yoqlar ro'yxatida yashil rang birinchi qatorga yozilgan ekan.

Bahor bo'yoq bozoridan ko'ngli to'lib chiqib ketibdi, axir, u kerakli bo'yoqlardan istaganicha olibdi-da.

Shu vaqt bo'yoq bozoriga kunchiqish tomondan terlab-pishib Yoz yetib kelibdi. U har mahalgidek mudrab qolgan ekan. Bahor o'z aravasida xarid qilgan bo'yoqlarini ortib, momoqaldiroqlarni gumbirlatib, chaqinlar chaqnatib o'tgan mahali, Yoz uyqudan uyg'onib ketibdi-da, erta-indin dalalarda arpa-bug'doilar bo'y berib, bog'larda olma-o'riklar ta'm yig'ib olishini, ular bo'yoqlar keltirishini kutib, unga muntazir bo'lib turishini o'ylab, bozorga o'tlanibdi.

Buyuk bo'yoqchi uni ham rozi qilib jo'natibdi.

Buyuk bo'yoqchining bozoriga kuz kelgan payt ko'plab qozonlar bo'shab qolgan ekan. Qozonlardan faqat ikkitasi — za'far va oq bo'yoq qaynayotgan qozonlarda ancha bo'yoq bor ekan. Qolganlarida bo'yoqlarning yuqigina bor ekan, xolos. Kuz o'z tegishi — za'far rangli bo'yoqning hammasini olibdi. Qolgan bo'yoqlarning yuqini ham qozonlardan qirib olgach, oq buyoqdan ham oz-moz idishga solib olibdi. Uning ham tashvishi o'ziga yarasha ekan. Bog'rog'lar, o'rmon va yaylovlardagi bahorning yashil bo'yoqlarini o'chirib chiqib, ularni za'far, pushti, zarg'aldoq ranglarga bo'yab chiqishi kerak ekan.

Buyuk bo'yoqchi bo'shagan qozonlarini yuvib, ularni yig'ishtirayotgan paytda, so'nggi xaridor — qish yetib kelib qarasa, ahvol chatoq. Unga faqat oq bo'yoq qolibdi. Bo'yoqchi yangi bo'yoqlarni tayyorlaguncha minglab yil kutish kerak ekan. Qish oq bo'yoqni olib yo'lga tushar ekan, qolgan fasllardan xafa bo'lib ketibdi. O'sha kundan boshlab Kuz va Bahorning, ilojini topsa, Yozning ham bo'yoqlariga zarar keltirish payidan bo'lishga intilarmish. Ayni o'riklar gullab turgan paytda, paxtalar chaman-chaman ochilib, bog'larda



tilladay uzumlar ayni etilgan kuz kunlarida qish qahrini sochib qolarkan. Ba'zan esa Yozning saratoniga ham o'z qori, sovug'i bilan suqilib kirarkan.

Bu orada xilma-xil qorlarning guvohi bo'lgan avlod o'rniga qorning boshqa rangda ham yog'ishi mumkinligini tasavvur qilolmaydigan avlodlar dunyoga kelibdi. Qishning bo'yoq bozoriga kech qolganligi esa ertak sifatida buvidan nevaralarga meros bo'lib qolibdi. Odamlar qishni o'z qilmishidan ko'p o'ksimasligi, kelgusi safar bo'yoq bozoriga o'z vaqida borishi uchun yangi yil bayramlarida archa shoxlariga turli rangdagi o'yinchoqlar, qo'g'irchoqlar, shokilalar osishni odat qilishibdi.

Anvar OBIDJON

CHUMOLINING HIKOYASI

Ishkomning ostida timirskilanib yurib, daroyi uzumning urug'ini topib oldim. Qurib ketgur zil-zambil ekan, itarib ham, tortib ham joyidan siljitib bo'lmadi. Tavakkal qilib yelkalab olsammikan, deb turgan paytimda oldimdan "vish-sh" etib bir badbashara maxluq chiqib qolsa bo'ladimi.

Buvim kechagina yovuz ajdarho haqida ertak aytib bergan edilar. O'sha qonxo'rog'zini katta ochganicha shu tobda oldimdan chiqib turibdi-yu, u bilan solishay desam, ertakda ajdarhoni o'ldirgan Qilichbotir, afsuski, men emasan. Qo'limda siltansa, qirq gaz cho'ziladigan qilichim ham yo'q.

Darrov es-hushimni yig'ib oldim, muloyimlik bilan unga ta'zim qildim.

— Assalomu alaykum, janob Ajdarho, — dedim.



Ajdarho avvaliga negadir o'ng'ay-sizlanib, u yoq-bu yoqqa qarab qo'ydi. Keyin birdan ko'krak kerib, "Saloming bo'lmasa, ikki yamlab bir

yutardim", — deya menga ko'z olaytirdi. Men egilib yana ta'zim qildim.

Bir payt boshimni ko'tarib qaragam, hozirgina qarshimda gerdayib turgan ajdarho yo'q. U janobning yerda yotgan barg ostiga shosha-pisha kirib ketayotganini arang payqab qoldim. Gap nimada ekanligini anglab ulguranim yo'q



ediki, osmondan bir pahlavon uchib kelib, gursillaganicha yerga qo'ndi. Uning shabadasidan uch-to'rt yumalanib, yana oyoqqa turdim.

Pahlavon patlarini hurpaytirib “semizqurt qani?” deb so'radi. Endigina so'zga og'iz juftlagan edim, qo'qqisdan shamol ufurib, haligi barg pildiraganicha uchib ketdi-yu, Semizqurt nomli ajdarho yalang joyda qoldi. Pahlavon birdan hamlaga hozirlanganini ko'rib, uning Qilichbotir ekanligini fahmladim. Buvimning ertakda so'ylaganlari rost bo'lsa, endi ular qirq kecha-yu qirq kunduz jang qilishadi, deb bezillab turgan edim, Qilichbotir bir kalla solishdayoq ajdarhoni sulaytirib qo'ydi.

— Qoyil, Qilichbotir! — deb qichqirdim men zavqlanib.

— Og'zingga qarab gapir, — birdan menga do'q urdi pahlavon. — Nega meni boshqalar bilan adashtirasan, tirrancha? Men yetti iqlimga dong'i ketgan mashhur Chumchuq povlon bo'laman-a!

U shunday deya, janob ajdarhoni tishlab olganicha yana osmon-u falakka ko'tarildi.

Hozir buvimning yoniga shoshilyapman. Men unga ertak emas, Chumchuq polvon haqida o'z ko'zim bilan ko'rganlarimni aytib bersam, sezib turibman-ki, og'zi lang ochilib qoladi.

—... Xo'p, xayr, birodar. Sen ham bu g'aroyib hikoyani o'rtoqlaringga aytib berib, ularni angraytirib qo'ysang-chi!

Abdulla AVLONIY

MAQTANCHOQ G'OZ

(Masal)

Bir g'oz suvda suzub yurub, o'ziga o'zi maqtanub: “Olamda mandan hunarmand qush yo'qdur. Yerda yugururman, suvda suzarman, havoda ucharman. Bir o'zimning uch xil hunarim bor”, — dedi. G'ozning bu so'zini bir qurbaqa eshitib: “Birodar, san muncha maqtanmasang ham bo'lur edi. Chunki baliqdek suzolmaysan, kiyikdek yugurolmaysan, lochindek ucholmaysan. Chalachulpa uch hunarni bilguncha, birini yaxshilab bilgoning yaxshi edi”, — dedi.


Maqol: Maqtanma g'oz, hunaring oz.



XO'ROZ ILA BO'RI

(Masal)

Bir bo'ri daraxt ustida o'ltirgan Xo'rozni ko'rub, tutub yemak uchun daraxt ostiga keldi. Hiyla birla bechora Xo'rozni daraxtdan tushurmoqchi bo'lub: "Ey, Xo'roz o'rtoq! Man sanga bir yaxshi xabar kelturdim. Hayvonlar ila qushlar arosida sulh bo'ldi. Bir-biriga zulm qilmasga, biri ikkinchisini tutub yemasga qaror berildi. Kel, birodar, pastga tush! Bir-birimizga do'st bo'lib, birga o'ynashayluk", — dedi. Xo'roz Bo'rining so'ziga aldanadurg'on darajada nodon va ahmoq bo'lmag'anidin Bo'riga boqub dediki:



— Do'stim, so'zing rostdur, to'g'ridur. Lekin biroz sabr qil. Sandan boshqa ikki it ham sulh xabarin keltururlar. Alar ham kelsunlar. Hammamiz birga o'ynashurmiz, — dedi. Bo'ri Xo'rozdan bu so'zni eshitgan zamon dumini orqasiga qo'yub, qocha boshladi. Xo'roz: "Hoy, birodar, nima uchun qochursan, aroda sulh bor-ku?" — desa. Bo'ri:

— Oh, do'stim! Bu zolim itlar sulhni buzg'onga o'xshaydur, — deb qochub ketdi. Xo'roz orqasidan: "quq-q...qurini...qu-u...", — deb qichqirub qoldi.

Aql egasi hiylaga aldanmagay,
Hiylagarning hiylasi boshin yegay.
Do'st ila dushman so'zining farqi bor,
Fahm etar har kimki o'lsa xushyor.



Jahon bolalar adabiy ertaklari

Korney CHUKOVSKIY

(Rossiya)

DO‘XTIR VOYJONIM

I

Dilgir do‘xtir Voyjonimga
Qulay daraxt soyasi.
Shifo izlab kelganlarning
Shodligi nihoyasiz.
Navbat kutar Sigir, Bo‘ri
Qo‘ng‘iz, hatto Ayiqvoy.
Chuvalchang ham shu yerda,
Safda turar hayiqmay.
Bemorlarning anchasini
Kutganlarning barchasini
Davoladi Voyjonim.

II

“Voy, chaqib oldi ari —
Turqi sovuq”.
Olapar der: “Burnimni
Cho‘qib oldi o‘jar tovuq”
Najot izlab ona quyon,
Arzi holin etar bayon:
“Ko‘rar ko‘zim, bolajonim
Yo‘lni kesib o‘tgan chog‘da,



Oyog'ini tramvay,
 Bosib ketdi, qoldik dog'da.
 Bolam, cho'loq bo'ldi, netay?
 Qurbon bo'lay, sadag'ang ketay".
 Voyjonim der: "Tashvish qilmang,
 Bizga qo'ying bu yog'ini.
 Ola keling bolangizni,
 Tuzatamiz oyog'ini".
 Bemor keldi ko'p o'tmayoq,
 Do'xtir tikdi yangi oyoq.
 Quyon sakrab o'ynaydi
 Ona xushnud so'ylaydi:
 "Rahmat senga, Voyjonim!"

III

Bilasizmi, shu mahal
 Qayoqdandir bir Shoqol
 Baytal minib chopib keldi,
 Bir xushxabar topib keldi:
 "Bilib qo'ysin buni hamma:
 Afrikadan telegramma!"
 "Do'xtir, yordam bering bizga,
 Shifotalab bolamizga.
 Kasb-burchingiz shunday, zotan —
 Hurmat bilan Gippopotam!"
 "Xo'sh, nima gap tushuntiring?
 Nahot, kasal kichkintoylar?!"
 "Ha, tobi yo'q, zor-intizor
 Yo'lingizni ko'plar poylar.
 Bezgak, tumov, terlamaga
 Chora topmay qotdi boshlar.



Ko‘r ichag-u ichburug‘dan
Azob tortar qancha yoshlar.
Tezroq keling, mehribon,
Aziz do‘xtir Voyjonim!!”
“Bo‘pti, mayli, chopib borgum
Dardga davo topib borgum.
Manzil-makon qaysi tog‘da?
Botqoqdami yo chorbog‘da?”
“Biz yashaymiz Zanzibarda
Va Sahroyi kabirda.
Kalaxarda, Fernand Poda,
Gippo ham o‘ynar birga,
Limpopo — sayhon qirda!”

IV

O‘rnidan turdi Voyjonim,
Chopqilab yurdi Voyjonim.
Dala bo‘ylab, o‘rmonlarni oralab,
Takrorlaydi bitta so‘zni saralab:
“Limpopo, Limpopo! Limpopo!”
Yuzlarin shamol, qir, do‘llar savalar,
“Ortga qayt!”, — deb aks-sado taralar.
“Charchadim, yurmayman”, — deya so‘z qotdi.
Pahmoq Bo‘ri archazordan shu mahal
Chopib chiqdi olazarak, tez jadal:
“Qani, mining, darhol mening ustimga
Va o‘raning issiq pochapo‘stinga.
Ayting endi, manzil o‘zi qay taraf?”
Voyjonim-chi, bitta gapni qaytarar:
“Limpopo, Limpopo, Limpopo!”



V

Daryo chiqdi, iloji yo‘q o‘tguday,
To‘lqin sapchir Voyjonimni yutguday.
“Agarda men cho‘kib ketsam,
Bemorlarning holi netar?
Kim davolab, e‘zoz etar?”
Shu payt suzib kelib bir Kit:
“Minib ol, — der, — do‘xtur, meni,
Go‘yo ulkan kemadayin,
Yetkazaman olg‘a seni!”
Kitga minib, olqish aytib,
Bir so‘zni der qaytib-qaytib:
“Limpopo, Limpopo, Limpopo!”

VI

Qarshisidan chiqdi tog‘lar,
Cho‘qqilari yo‘lni bog‘lar,
Qoyalari bulut o‘pgan
Emaklab der bunday chog‘lar:
“Agarda men borolmasam,
Kasal holin so‘rolmasam,
Hayvonlarning holi netar?
Kim shifolar, e‘zoz etar?”
Shu payt yuksak qoyalardan
Parvoz etib burgut bardam:
“Keling, do‘xtir, mining, — deydi —
Sayr qilamiz, biling, — deydi!”
Voyjonim-chi, qaytalab,
Bir jumlani qaytarar:
“Limpopo, Limpopo, Limpopo!”



VII
 Afrikada,
 Afrikada
 Qora zanj
 Limpopo.
 Unda yig'lar,
 Bag'rin tig'lar,
 Shifo izlar
 Limpopo.
 U o'sha Afrikada,
 Palmalarning ostida.
 U dengizning ortida, Afrikada,
 Bizni kutar, bizni yo'qlar, rosti gap:
 "Kelarmi, — deb, — kemada
 Do'xtir Voyjonim!?"
 Baqirishar, chaqirishar,
 Fil va Karkidon.
 Suvdan chiqmas qora otlar —
 Begemotlar, begemotlar.
 Ichburug' — qorin ushlar,
 Xuddi cho'chqa bolasiday
 Nola chekar tuyaqushlar,
 Boshlarini qilar sarak:
 "Hoy, do'xtirdan bormi darak?"
 Kim davolab, ko'nglin xushlar?
 Birovining boshi og'rir,
 Birovining — tomog'i.
 Ko'kyo'tal, bezgak, qo'tir,
 Difteriya bir yog'i.
 Nima uchun kelmayotir
 Do'xtir Voyjonim?!"
 Shundoq dengiz bo'yida,



To'liqlardan quyida
 Tishi olmos Akula,
 Sira tolmas Akula
 Quyoshga bag'rin berib,
 Suzg'ichin yozib, kerib.
 Xafa bo'lib yotibdi,
 Qumga biroz botibdi.
 Sabab uning bolasin,
 Ko'kka chiqar nolasi.
 O'n ikki kecha-kunduz
 Tishi og'rir tinimsiz.
 Sho'rlik sho'x chigirtkaning
 Chiqib ketgan yelkasi,
 O'ksib yig'lar, sakrolmas:
 "Do'xtir tezroq kelsa-chi,
 Mehri daryo shifokor
 Yetib kelsa, qaniydi!
 Holimizdan xabar topib,
 Malham bersa, qaniydi?"

VIII

Osmon uzra ulkan bir qush uchib keldi,
 Qanot qoqib, havolarni quchib keldi.
 Qush ustida o'tirgan do'xtir Voyjonim
 Bosh kiyimin silkitib, so'zlar quvonib:
 "Salom senga! Aziz, qutlug' Afrika!"
 Bolalar quvnashib, shodlikdan yashnar,
 O'sha qush aylanib qo'nishga boshlar.
 Voyjonim oshiqar omonlik tilab,
 Begemot bolasin qornini silab.
 Navbat bilan bir chekkadan kuzatib,
 Barchasiga shokoladlar uzatib,



Har birining kasaliga yarasha,
 Isitmasin o'lchab qo'yar daraja.
 Olachipor Yo'lbarsning bolasiga,
 Bo'taloqqa — Tuyaning ko'z qorasiga,
 Hayvonlarning arzandasi,
 Jujuqlarga,
 Arslonlarning jigarbandi,
 Kuchuklarga,
 Parvona bo'lib,
 Kulib-o'rgulib,
 O'n kecha-kunduz
 Uyqu nima bilmasdan
 Do'xtir Voyjonim,
 Tamaddi ham qilmasdan
 Do'xtir Voyjonim
 Davoladi bechora bolalarni.
 Endi ular shifo topdi,
 Limpopo.
 Xursand bo'lib, sakrab chopdi
 Limpopo.
 O'ynab, yayrab saf tortishib turishar,
 Limpopo.
 Sho'xliklari haddan oshib kulishar,
 Limpopo.
 Ko'rib qo'ying, Gippopotam
 Kelayotir Zanzibardan,
 Kilimanjoro o'lkasidan,
 Shifo topgan, sog'lom, bardam.
 Ular takror qo'shiq aytar,
 Qo'shiqlarin jo'shib aytar:
 "Shon va sharaf Voyjonimga,
 Qoyil dilgir do'xtirga!"



Valentin BERESTOV
(Rossiya)

CHIN SO‘Z

Vashil o‘tloqdagi qurt o‘zini hammadan chiroyli deb bilar edi. U har tomchi shabnamga qarab jamolini tomosha qilishni juda-juda sevardi. Bir kuni u tomchidagi yapaloq yuzi aksiga mahliyo bo‘lib, sevinchini ichiga sig‘dirolmay: “oh, qanday go‘zalman-a!” — dedi-da, sertuk belini qayirib, undagi oltinday tovlanib turgan ikki chiziqqa ko‘z tashladi. So‘ng: “Esizgina-ya, menday go‘zalni hech kim ko‘rmayapti, hech kim!” — deb afsuslandi.

Bir kuni qurtning omadi keldi: o‘tloqqa bir qizcha kelib, gul tera boshladi. Qurt uni biroz kuzatib turdi-da, so‘ng eng chiroyli gulning ustiga chiqib, qizchanning o‘ziga yaqinlashishini kuta boshladi, qizcha uni ko‘rishi bilanoq:



— Voy, muncha xunuksan! Hatto senga qarash-gayam odam jirkanadi! — desa bo‘ladimi...

— Hali shundaymi?! — qurt qattiq xafa bo‘ldi. — Unday bo‘lsa, men chin qurtlik so‘zimni berib aytamanki, bundan buyon meni hech kim, hech qachon, hech qayerda ko‘rmaydi.

So‘z berdingmi, hattoki sen qurt bo‘lsang ham, uni bajarishing shart.

Go‘zalligi tan olinmagan qurt bir daraxt yoniga kelib to‘xtadi. Uzoq o‘ylab o‘tirmay, unga o‘rma-lab chiqqa boshladi. Daraxtning tanasidan butog‘iga, butog‘idan shoxiga, shoxidan shoxchasiga, shoxchasidan yana novdasiga, novdasidan esa bargiga yetib bordi-da, yaxshilab o‘rnashib, keyin chalqanchasiga yotib oldi. Qornidan bir g‘altak ipak chiqarib, hech kimga ko‘rinmaslik uchun o‘zini-o‘zi o‘ray boshladi. U uzoq vaqt, betinim mehnat qildi. Nihoyat, iplaridan pilla yasadi. Qurt ishini bitirgach, chuqur xo‘rsinib: “Biram charchadim. Rosa tinkam quridi”, — dedi.

Pillaning ichi issiq va qorong‘i edi. Qilishga esa ish yo‘q. Qurt uxlab qoldi...



Qurt orqasining qattiq qichishidan uygʻonib ketdi. U jon-jahdi bilan pilla devoriga orqasini ishqay boshladi. Ishqalab-ishqalab, oxiri uni teshib yubordida, yiqilib tushdi. Iye, juda qiziq-ku! Odatda, yiqilganda pastga tushar edi, u esa yuqoriga koʻtarilib ketyapti.

Shu payt qurt koʻm-koʻk oʻtloqdagi oʻziga tanish qizchani koʻrib qoldi. “Qanday dahshat, — deb oʻyladi u. — Mayli, men xunuk boʻla qolay. Bu mening aybim emas. Lekin endi hamma meni “yolgʻonchi”, deydi. Bu juda-juda yomon! Axir: “Hech kim meni koʻrmaydi”, — deb chin qurtlik soʻzini bergan edim-ku! Mana, uni bajarmadim. Uyat!” Hayolidan shularni oʻtkazgan qurt oʻtlar ustiga yiqilib tushdi. Qizcha uni koʻrgan zahoti:

— Voy, qanday chiroyli! — desa boʻladimi.

— Tavba, bu odamlarga ishonib ham boʻlmaydi, — oʻzicha toʻngʻilladi qurt. — Ular bugun bir gapni aytishadi, ertasiga esa butunlay boshqasini.

Qurt qizchanning hozirgina aytgan gapiga hayron boʻlib, tomchi shabnamga qaradi. Iya! Nima gap oʻzi? Shabnamdan unga uzun-uzun moʻylovli, oʻziga butunlay notanish bir chehra tikilib turibdi. U bir ilojini qilib orqasiga qaragan edi, katta-katta rangdor qanotlarni ham koʻrib qoldi.

“Judayam qiziq-ku, a? Nahotki, tanamda moʻjiza yuz bergan boʻlsa?

...Ha, tanamda chindan ham moʻjiza yuz beribdi. Ha, ha, moʻjiza. Eng oddiy moʻjiza. Chunki hamma kapalaklar kapalak boʻlishdan avval qurt boʻlishadi-ku. Bu narsa esimdan chiqay debdi-ya. Men ka-pa-lak-ka aylanibman!”

Qurt kapalakka aylanganidan rosa xursand boʻlib ketdi. Oʻtloq ustida chirchir aylanib, charx urib ucha boshladi.

U yana shuning uchun ham behad xursand ediki, hech qachon, hech yyerda, hech kimga “Endi meni hech kim koʻrmaydi”, — degan chin kapalaklik soʻzini bermagan edi...





Aka-uka BONDARENKOLAR
(Ukraina)

NEGA HAYVONLAR BIRGA YASHAMAYDILAR?

Qachonlardir hayvonlar — bo‘rilar, tulkilar, ayiqlar, quyonlar birgalikda, ahil yashar ekanlar. Bir kuni ular karam sho‘rva pishirmoqchi bo‘lishibdi. Ular shu paytgacha pishirilgan ovqat yeyishmagan ekan. Bitta dona karam topishibdi-da, quyonni qorovul qilib qo‘yib, o‘zlari o‘tin terib kelgani ketishibdi.

— Meni ham olib boringlar, — debdi quyon ularga yalinib.

Biroq hayvonlar:

— Sen qancha o‘tin ko‘tara olarding? Juda nari borsa, bitta kaltakni olib kelasan. Undan ko‘ra qorovulchiligingni qilaver, — deyishibdi.

Quyoning bir o‘zi karamni poylab qolibdi. Karamning atrofida aylanib rohatlanib hidlab ko‘ribdi. “Eh, qanday xushbo‘y-a!” Barmoqlari bilan bosib-bosib ko‘rdi. “Qirsillashini qarang!” Qani, tizzasiga qo‘yib bir boshdan qarsillatib yeyaversa. Lekin qanday qilib yeya oladi? Axir, karam yolg‘iz uniki emas — ko‘pchilikniki-ku. Hay-hay, mabodo yeb qo‘ysa, keyin boshi g‘alvadan chiqmaydi.

Quyon karam atrofida gir-gir aylanibdi. Karam katta, quyoning qorni esa kichkinagina. Quyon so‘lagini yutib, chivinlarni haydab, o‘ziga-o‘zi dalda berib: “Xo‘p poyloqchini topib olishdi. Ularga maza, o‘tin terishadi, xolos, havasni keltiradigan narsa yo‘q. Bu yerda bo‘lsa joningni jabborga berib poyloqchilik qil. Mana ko‘rasan, hali loaqal rahmat ham aytib qo‘yishmaydi”, debdi.

Quyon, halol xizmatim uchun karam yaprog‘idan bittasini yeyishga haqim bor, degan qarorga kelibdi. Shartta bitta yaproqni yeb qo‘yibdi. Karam andak kichik tortganday, quyoning qorni esa andak kattalashganday bo‘libdi. Hayvonlar esa hamon qaytib kelishmagandi, quyon bo‘lsa yalanglikda sandiroqlab sakrab yurardi.

“Hm, ular kuchli bo‘lsa, menga buyruq berisharkan-da. Kichkina bo‘lga-



ningdan keyin, qo‘riqchilik qil, deyishadi. Qani, yo‘q deb ko‘r-chi! Majbur qilishadi”.

Shundan keyin u shaxt bilan karam tomon yuribdi.

“Nega endi, — debdi u, — men o‘zimni qiynashim kerak? Axir, bu karamda mening ham ulushim bormi? Shunday bo‘lgandan keyin, uni hozir yedimmi, birpasdan keyin yedimmi, nima farqi bor?”

Quyvon o‘ziga qancha tegishini chamalab ko‘ribdi-da, yebdi. Karam yana andak kichik tortgandek, quyvonning qorni esa yana andak kattalashganday bo‘libdi. Quyvon oyoqlarini chalishtirib, qovog‘ini solib o‘tiribdi. Garchi bu qilg‘i unchalik yarashmasa ham, harholda, qovog‘ini solib, vaysashga tushibdi:

“Nega ular bunchalik hayallab qolishdi? To ular kelib, karam sho‘rva pishirgunlaricha, so‘laklaring oqib, adoi tamom bo‘lasan. Pishirishning nima keragi bor o‘zi? Xomi qaytaga mazaliroq-ku!”

Quyvon shunday derkan, karam tomonga surilar edi. Yaqinlashgach, yana bir nechta yaproqni yeb qo‘yibdi.


“Men, — debdi u, — hammasidan kichigiman, kichkintoylarga esa ko‘proq berishadi”.

Shunday qilib, karamning bir yaprog‘i ketidan ikkinchi yaprog‘i shilinaverib, oxiri uning o‘zagi qolibdi. Ana shundagina quyvon o‘ziga kelib: “Voy, sho‘rim, nima qilib qo‘ydim?” — debdi boshini changallab.

Shu payt kimningdir xazonlarni shitirlatib kelayotganini eshitibdi.

“Ana endi ta‘zirimni berishadi, qo‘yni bo‘riga ishonibmiz, deyishadi. Karam o‘zagi bilan urishsa ham ajab emas”.

Quyvon judayam qo‘rqib ketdi. Lekin u aqlli quyvon edi. Shuning uchun kaltaklashlarini kutib o‘tirmasdan, butalar orasiga kirib g‘oyib bo‘libdi.





O'rmondan bir quchoq qurigan silliq shoxlarni ko'targancha Tulki chiqib kelibdi. Keltirgan shoxlarini maysa ustiga tashlarkan: "Olib kelgunimcha ona sutim og'zimga keldi. Mayli, hozir karam sho'rvani pishiramiz. To'yib ovqatlanib, keyin maza qilib uxlaymiz... Iye, karamimiz qani?" — debdi.

Tulki yalanglikning u yog'iga chopibdi, bu yog'iga yuguribdi — karamning faqat o'zagini topibdi, xolos, kimdir uni yeb qo'yibdi. Quyvon ham yo'q. Shu payt butalar orasidan Bo'rsiqning qadam tovushi eshitilibdi. U o'zicha maqtanib: "Chamasi, birinchi bo'lib keldim-ov. O'zim ham rosa shoshildim-da. Ikki qo'llab terdim", — debdi.

Tulkini vahima bosibdi: "Hozir meni karam o'zagi yonida ko'rib, shu yegan, deb o'ylashadi. Boshim baloga qoladi. Holvani hakim yeb, kaltakni men yeyman. Naq po'stagimni qoqishadi. Achchiq ustida mayib qilib qo'yishlari turgan gap".

Ammo Tulki aqlli edi. Aqlli bo'lgani uchun do'pposlashlarini kutib o'tirmadi. U ham darhol o'zini butalar orasiga urdi. Uning ortidan faqat butalarning shitirlagani eshitildi, xolos. Avvallari o'zining bunchalik chaqqonligini hayoliga ham keltirmagan edi.

Yalanglikka o'tin ko'targan Bo'rsiq kirib keldi. Tevarak-atrofga qarabdi. Hech kim yo'q. Ishshayib kulib qo'ydi: "Ha, aytganimday, birinchi o'zim kelibman! Harakatlarim zoye ketmabdi. Ikki qo'llab terdim. Mana, hozir karam sho'rvani pishiramiz. Keyin uning mazasi qanday bo'lishini ko'ramiz. Iye, karam qani? Quyvon ham ko'rinmayapti".

Bo'rsiq o'tinni qo'yib, yalanglikni tintuv qila boshlabdi. Birdan karamning o'zagiga qoqilib ketibdi. Og'zi lang ochilib qoldi: "Birontasi yeb qo'yganga o'xshaydi".

Qulog'iga baqirib-chaqirib kelayotgan ayiqning yo'g'on tovushi eshitilibdi.

"E, sizlarning olib kelganlaring nima bo'lardi! Tutantiriq ham bo'lmaydi. Sizlarda kuch nima qilsin! Mana, men butun daraxtni sudrab kelyapman".

"Oh, qo'lga tushdim, — debdi Bo'rsiq va yerga o'tirib qolibdi. — Ayiq meni karamning o'zagi yonida ko'rib, hammaga uni shu yegan, deb aytadi. Boshim baloga qoladi. Terimga somon tiqishadi. Qani, ularga nohaq ayblashayotganlarini tushuntirib ko'r-chi. Tushuntirib bo'psan".



Bo‘rsiq ham aqlli bo‘lgani uchun, kaltak yeb o‘tirgandan ko‘ra, yemaganini afzal ko‘rdi-da, o‘zini butalar orasiga urdi. O‘shandan beri Bo‘rsiq Ayiqning ko‘ziga ko‘rinmaslikka harakat qiladi. Ayiq bo‘lsa o‘tloqqa chiqib u yoq-bu yoqqa qaradi, paxmoq boshini sarak-sarak qilib: “Hali hech kim kelmabdi-ku! Eh, lapashanglar. O‘tin-cho‘p terganlari bilan ko‘tarib kelolsaykan. Hamma menga o‘xshayveribdimi? Mana ko‘rib qo‘yishsin, butun boshli bir daraxtni sudrab keldim. Hozir quyonvoy bilan ikkovimiz olovni yoqamiz-da, karam sho‘rvani pishiramiz. Boshqalar kelguncha sho‘rva tayyor bo‘ladi”.

Ayiq bunday qarasa, yalanglikda bir o‘zi qaqqayib turibdi. Quyon yo‘q. Maysa ustida esag‘ajilgan karam o‘zagi yotibdi. Shu payt uzoqdan ti pratikaning ingichka tovushi eshitilibdi: “Men ham gulxanimizga cho‘p olib kelyapman. Menga ham karam sho‘rvangizdan berasizlar, mazasini tatib ko‘raman”.

“Nima qilib qo‘ydim? — Ayiq qo‘rqib ketibdi. — Endi buni mendan ko‘rishadi: “Ayiq butun boshli karamni hech kimga bermay bir o‘zi eb qo‘yibdi”, deyishadi. Qanday sharmandalik bu!”

Ammo Ayiq aqlli bo‘lgani uchun hayvonlarning yalanglikka to‘planib, kattakon ayiqni kichkinagina g‘ajilgan o‘zak yonida ko‘rishlarini kutib o‘tirmay jo‘nab qoldi. U yugurishni uncha xush ko‘rmasa ham to‘rt oyoqlab yugurib, iniga yashirinib olibdi.

O‘sha kundan boshlab hayvonlarning o‘rtasidagi totuvlik yo‘qolibdi. Bir-birlarining ko‘zlariga qarolmay, yashirinadigan bo‘lishibdi. Hammalari: “Endi meni karamni yeb qo‘ygan, deb o‘ylaydi. Shuning uchun Quyon aybini bo‘yniga olsin”, deb uni izlashar ekan. Quyonning aybiga iqror bo‘lishi uncha qiyin emas ekan-u, ammo baribir ta‘zirimni berishadi, deb qo‘rqib, o‘rmonda yashirinib, hech kimning ko‘ziga ko‘rinmaslikka harakat qiladi.



Aka-uka GRIMMLAR
(Germaniya)

BIR XUMCHA SHOVLA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir qizcha bo‘lgan ekan.

Qizcha meva tergani o‘rmonga boribdi va u yerda bir kampirni uchratibdi.

— Assalomu alaykum, buvijon, — debdi qizcha ochiq chehra bilan.

— Vaalaykum assalom, — debdi kampir qizchaga. — Menga rahm etib, maymunjonningdan ozroq bersang-chi!

— Marhamat, buvijon, oling, — debdi qizcha maymunjonlarni uzatib. Kampir maymunjonni yeb bo‘lgach:

— Sen meni maymunjon bilan siylading, endi men ham senga biron narsa sovg‘a qilaman. Mana senga xumcha. Faqat sen unga qarab:

Men uchgacha sanasam,
Qayna, sehrli xumcham,

desang bo‘ldi. U mazali shovla pishira boshlaydi.

Agar xumchani to‘xtatishni istasang, unga qarab shunday deysan:

Men uchgacha sanasam,
Qaynashdan to‘xta, xumcham.

— Rahmat, buvijon, — debdi qizcha va xumchani olib, uyiga — onasining yoniga ketibdi.

Ona xumchani ko‘rib quvonibdi. Dasturxonda doimo bemashaqqat, betashvish xushxo‘r, mazali shovla tayyor turadi-yu, quvonmay bo‘larkanmi?..

Qizcha ko‘chaga chiqib ketibdi. Onasi bo‘lsa xumchani o‘z oldiga qo‘yib:

— Men uchgacha sanasam,
Qayna, sehrli xumcham, — debdi.






Toshpo'lat Xolmatov. Ona tabiat.



Xumcha shovla pishira boshlabdi. Ko‘p shovla pishiribdi. Ona to‘ygunicha yebdi. Xumcha bo‘lsa shovla pishirishdan to‘xtamasmish.

Endi qanday qilsa to‘xtarkin?

“Men uchgacha sanasam, qaynashdan to‘xta, xumcham”, — deyish kerak ekan-u, ammo ona bu so‘zlarni unutib qo‘ygan ekan. Xumcha hamon shovla pishiraveribdi. Xonaning hammayog‘i shovlaga to‘libdi, dahliz ham shovla, peshayvon ham shovla. Xumcha esa hamon to‘xtamay shovla pishirayotganmish. Ona qo‘rqib ketib, qizchasini chaqirgani yuguribdi. Faqat yo‘ldan o‘tishning sira iloji bo‘lmabdi: issiq shovla ariqdagi suvdek oqib yotgan emish. Xayriyatki, qizchasi uydan uzoqda emas ekan. U ko‘chadagi voqeadan xabardor bo‘lib, darrov uyga yuguribdi. Juda qiyinchilik bilan peshayvonga chiqib, eshikni ochibdi va:



— Men uchgacha sanasam,
Qaynashdan to‘xta, xumcham, —
deb qichqiribdi.

Xumcha shovla pishirishdan to‘xtabdi.

Ishonasizmi, xumcha shunchalik ko‘p shovla pishiribdiki, kim shaharga bormoqchi bo‘lsa, shovla yeb, o‘ziga yo‘l ochishi kerak ekan.

Ammo hech kim bundan shikoyat qilmabdi. Chunki shovla juda xushxo‘r va mazali ekan.



Chingiz AYTMATOV
(Qirg'iziston)

JIMJILOQ

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kampir bilan cholning bo'yi jimjiloqday o'g'li bo'lgan ekan. Oti ham Jimjiloq ekan. Nima bo'пти-yu, bir kuni bu bolani qashqir yutib yuboribdi. Yo'q, undan ham oldin uni tuya yeb qo'ygan ekan. Voqea bunday bo'libdi. Jimjiloq otquloq bargining soyasida uxlab yotgan ekan, o'sha yerda o'tlab yurgan tuya bolani bargga qo'shib yamlab yuboribdi. "Tuya yutganini bilmaydi, kavshaganini biladi", — degan matal o'shandan qolgan ekan.

Jimjiloq tuyaning qornida yotib bor ovozi bilan chinqirib yordam so'rapti. Chol bilan kampir bu ovozni eshitib qolib, tuyani so'yishibdi-da, qornidan Jimjiloqni chiqarib olishibdi.



Bir kuni yo'rtib kelayotgan och bo'ri Jimjiloqni uchratib qopti.

— Zig'irtoy bo'lib olib, buncha likillaysan, kimsan o'zi? Ikki yamlab bir yutaymi? — debdi bo'ri.

— Yo'q, menga tegma, — debdi Jimjiloq. — O'zingga qiyin bo'ladi, it qilib qo'yaman seni.

— Gaping buncha betayin, bo'rining it bo'lganini kim aytdi senga? Mana shu gaping uchun seni yeyman, — debdi-da, bo'ri bolani

yutib yuboribdi. Jimjiloq bo'rining chap ichagiga ham yuq bo'lmabdi. Keyin nima yegani esidan chiqib ketibdi. Shu-shu, bo'ri bo'lganiga pushaymon bo'la boshlabdi. Qorni ochib otarga yaqinlashishi bilanoq, Jimjiloq bo'ri qornida turib, bor ovozi bilan: "Ey, cho'pon, uxlama! Men o'g'ri bo'riman, qo'yalarini qiyratgani kelyapman!" — deb jar solar ekan.

Holdan toygan bo'ri yerga ag'anapti, qorin-biqinini jahl bilan uqalay boshlabdi. Jimjiloqqa nima? Qaytangga undan battar avjiga chiqarmish:



— Ey, qo‘ychivonlar, chopinglar bu tomonga, meni savalanglar!

Cho‘ponlar bo‘rining oldida hozir-u nozir bo‘lishibdi. Bo‘rining esa dumini qisib qochib qolishdan boshqa iloji qolmabdi. Hamma hayronmish. Bu qanday sir bo‘ldi? Chunki qochib ketayotgan bo‘ri hadeb:

— Meni quvib yetinglar, — deb baqirarmish.

Bo‘ri bir amallab qutulishga qutulibdi-yu, lekin qornini hech narsa bilan to‘ydira olmapti.

Shunday qilib, bo‘ri qayerga bormasin, Jimjiloq hammani ogoh qilaveribdi. Bo‘rining toqati toq bo‘libdi. Ozib ketganidan eti ustixoniga yopishibdi. “Endi nima qilsam ekan, o‘z boshimga falokatni sotib oldim-ku? Qayga bormay, endi menga tinchlik yo‘q” deb yig‘lamoqdan beri bo‘libdi.

Jimjiloq bo‘lsa sekingina uning qornidan: “Toshmatga bor, qo‘ylari semiz! Boymatga bor, itlari qari! Ermatga bor, qo‘ychivonlari uyquchi”, — deb ovoz chiqarib qo‘yarmish. Bo‘ri oxiri hiqillab, yig‘lab: “Gaplaringga kirib bo‘pman, undan ko‘ra biron odamnikiga borib, it bo‘lib olganim yaxshi”, — debdi. Shunday qilib, bo‘ri it bo‘lib qolgan ekan.

Sharl PERRO
(Fransiya)

QIZIL SHAPKACHA

Bor ekan, yo‘q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan. U, dunyoda tengi yo‘q, juda yoqimtoy ekan. Buvisi unga tug‘ilgan kuni sharafiga bitta qizil shapkacha sovg‘a qilibdi. Qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Qo‘ni-qo‘shnilar uni ko‘rganda: “Ana, qizil Shapkacha kelyapti!” — der ekanlar.

Bir kuni oyisi somsa pishirib, qiziga:

— Oppoq qizim, qizil Shapkacha, mana bu somsa bilan kuvachadagi yog‘ni buvingga oborib bergin, eson-omonligini bilib kelgin, — debdi.

Qizil Shapkacha buvisini ko‘rgani narigi qishloqqa ketibdi.



U o'rmondan chiroyli gullar terib, sekin-asta ketayotlsa, oldidan och Bo'ri chiqib qolibdi.

— Qizil Shapkacha, qayoqqa ketyapsan? — debdi Bo'ri.

— Buvimni ko'rgani ketyapman, buvimga mana bu somsalar bilan kuvachada yog' olib boryapman.

— Buvingning uyi uzoqdami? — deb so'rabdi Bo'ri.

— Ha, uzoqda, — deb javob beribdi qizil Shapkacha. — Huv anavi tegirmon orqasidagi qishloqda. Eng chekkadagi uyni ko'ryapsanmi? O'sha.

— Yaxshi, — debdi Bo'ri. — Men ham buvingni ko'rib kelaman. Men manavi yo'ldan boraman, sen bo'lsang, anavi yo'ldan bor. Ko'ramiz, kim oldin borarkin.



Shunday deb, Bo'ri eng yaqin yo'ldan g'izillab chopib ketibdi. Qizil Shapkacha bo'lsa eng uzoq yo'ldan yurib ketibdi. U yo'lma-yo'l to'xtab, gullar teribdi, guldasta yasabdi.

Qizil Shapkacha hali tegirmon oldiga ham yetmagan ekan, Bo'ri kampirning uyiga yetib, eshikni taqillatibdi:

— Taq-taq!

— Kim? — deb so'rabdi kampir.

— Men — nevarangiz qizil Shapkachaman, — deb javob beribdi Bo'ri ovozi ingichka qilib. — Siznikiga mehmon bo'lib keldim, somsa bilan kuvachada yog' keltirdim.

Kampir bu vaqt to'shakda kasal bo'lib yotgan ekan. U chindan ham qizil Shapkacha kelibdi, deb o'ylab:

— Jonginam, ipni tort, eshik ochiladi! — debdi.

Bo'ri ipni tortibdi, eshik ochilibdi. Bo'ri chopib borib, kampirni bir yamlab yutib yuboribdi. Keyin eshikni yopib, kampirning o'rniga yotib, burkanib olibdi-da, qizil Shapkachani kuta boshlabdi. Tezda qizil Shapkacha kelib, eshikni taqillatibdi:

— Taq-taq!



Qizil Shapkacha uyga kirib, karovat yoniga kelibdi-da:

- Voy, buvijon, qo‘llaringiz muncha uzun?! — deb so‘rabdi.
- Seni mahkam quchoqlash uchun, bolaginam, — debdi Bo‘ri.
- Buvijon, quloqlaringiz muncha katta? — debdi qizil Shapkacha.
- Gaplaringni yaxshiroq eshitish uchun, jonginam, — debdi Bo‘ri.
- Buvijon, ko‘zlaringiz muncha katta?
- Seni yaxshiroq ko‘rish uchun, jon bolam.
- Buvijon, tishlaringiz muncha katta?

— Seni tezroq yeb qo‘yish uchun, jonginam! — deb och Bo‘ri qizil Shapkachaga tashlanibdi-da, uni boshmog‘i va qizil shapkachasi bilan birga yutib yuboribdi. Qizil Shapkacha dod deyishga ham ulgurmay qolibdi.

Shu vaqt, baxtiga, uy yonidan o‘tinchilar o‘tib borayotgan ekan. Yelkalarida boltalari ham bor ekan.

Ular Bo‘rining ovozi eshitib, uyga chopib kiribdilar va Bo‘rini o‘ldiribdilar. Keyin uning qornini yorsalar, ichidan qizil Shapkacha bilan buvisi chiqibdi — ikkovlari ham sog‘-omon ekanlar.

Vasil SUXOMLINSKIY
(Ukraina)

MAQTANCHOQ XO‘ROZ

Hovlida aylanib yurgan xo‘roz osmondagi kamalakni ko‘rib qoldi. Ko‘rdi-yu, mag‘rurlanib kuldi:

— Dunyodagi eng rangdor narsa mening dumim, — dedi.

U hatto kamalakdan ham chiroyli.

Shu payt birdan yomg‘ir quydi. Xo‘rozning dumi shalabbo bo‘lib, naq yerga tegay deb, osilib qoldi. Xo‘roz juda uyaldi. Indamay, qo‘noqqa ko‘tarildi-da, ikkinchi maqtanmaydigan bo‘ldi.





Xans Kristian ANDERSEN
(Daniya)

BOYCHECHAK

Qish shamoli uvillar, uychaning ichi esa shinam va issiq ekan. Bu uychada gul yashirib olgan edi. Albatta, u qor va tuproq ostida o'z ildizini yashirgan ekan. So'ng yomg'ir yog'ibdi. Tomchilar qor pardasini teshib, gul izdizlariga toma boshlabdi. Tomchilar yerdagi yorqin, nurga to'la hayot haqida hikoya qilishibdi, undan keyin esa muloyim va qat'iyatli quyosh nuri qor orasidan o'tib, ildizni ilita boshlabdi.

— Kimsiz? Kiravering! — debdi gul.

— Kirolmayman! — debdi quyosh nuri. — Men eshikni ocholmayman. Yozgacha sabr qil, o'shanda kuchga to'laman.

— Yoz qachon bo'ladi? — so'rabdi gul. Quyosh nuri har safar yerga etib borganda, ana shu savolini takrorlayveribdi. Lekin hali yozga ancha erta bo'lib, hammayoq qor bilan qoplangan ekan, har kuni kechasi suv muzlab qolarkan.

— Bu juda jonga tegdi-ku! — debdi gul. — Vujudim zirqirayapti. Qaddimni rostdashim, erkinlikka chiqishim, yozga ta'zim qilib, tongga salom berishim kerak. Oh, bu — naqadar ulug' baxt!

Oxiri gul o'rnidan turibdi, kerishib cho'zilibdi, iliq tuproq, qor suvi va quyosh nuridan namlangan qobig'iga yonboshlabdi. U ko'm-ko'k poyasi uchida och yashil g'unchasini ko'targanicha, darhol yuqoriga bo'y cho'za boshlabdi, g'unchanning nozik gulbarglari qor ustiga chiqibdi. Qor sovuq ekan, lekin ko'z qamashtirib yarqirab turganmish, uning orasidan chiqish ancha oson ekan, quyosh nurlari hatto ilgarigidan ham yaqinmish. Quyosh nurlari qo'ng'iroqday tovushlari bilan:

— Xush kelibsiz! Xush kelibsiz! — deyishayotganmish, hatto kuylashayotganmish.

Gul qor ustidan quyosh nuriga peshvoz chiqibdi.

Quyosh nurlari gulni silab-siypalabdi, nozikkina bo'sa olibdi, natijada gul butunlay ochilib ketibdi. Gul qorday oppoq bo'lib, quvonch va sharm-hayo bilan boshini quyi egib turaveribdi.

— Chiroyli gul! — deb kuylabdi quyosh nurlari. — Naqadar nafis, latifsan! Sen ilk ochilgan gul! Sen yakka-yu yagonasan! Sevikligimiz! Sen shahar va qishloqlarga iliq yozdan darak olib borasan! Qorlar erib, sovuq shamollar bosh olib ketadi! Bizning mavsumimiz boshlanadi! Hammayoq yashil libos




kiyadi! Nastarin, tolbuta, atirgul singari do'stlaring paydo bo'ladi, lekin sen ilk gulimizsan, nafis va latifsan, beg'uborsan!

U butun havo kuylaganday, quyosh nurlari uning barglari, poyalariga singib ketganday sevinibdi, latif, noziknihol, lekin shu bilan birga, yoshlik go'zalligi bilan och yashil libosida turaveribdi va yozni sharaflayveribdi. Lekin hali yozga uzoq ekan, bulutlar quyosh nurini to'sibdi, sovuq izg'irin shamol esibdi.

— Sal ertaroq bosh ko'taribsan! — debdi unga ob-havo bilan Shamol.

— Biz hali senga kuchimizni ko'rsatib qo'yamiz! Quدراتimizni bilib olasan! Uyingda jim o'tiraverganing, yasanib ko'chaga chiqmaganing ma'qul edi. Sen aytgan fursat hali kelgani yo'q!

Yana sovuqlar boshlanib ketibdi. Quyosh yilt etib ko'rinmagan badqovoq kunlar uzoqqa cho'zilibdi. Kunlar shunday sovibdiki, bechora nozik gul tomir-tomirigacha muzlab ketibdi. Lekin bu qadar matonatligini hatto uning o'zi ham bilmas ekan. “Yoz, albatta, keladi”, — degan ishonch va surur gulga kuch-quvvat bag'ishlabdi. U yozga sadoqatligicha qolibdi, “Quyosh nurlari kutishga arziydi”, — deb o'ziga o'zi dalda beribdi. Gul qalbi sevgi, ishonch va umidga to'la oq harir kiyimida oppoq qor betida turaveribdi, laylakqorlar yog'ganda va izg'irin shamol esganda esa, boshini quyidagi solibdi.



— Adoyi tamom bo'lasan, — deyishibdi unga. — Muzlab qolasan, xazon bo'lasan! Bu yerlarda nimani axtarib yurgan eding? Nega quyosh nuriga ishona qolding? U seni aldadi. Ajab bo'ldi, tentak. Sendaqa yoz xabarchisini qara-yu!

— Ahmoq! — deb takrorlabdi gul unga ayozli ohangda.

— Yoz xabarchisi! — deb qichqirishibdi bog' ichiga chopqillab kirgan bolalar. — Qaranglar, biram ajoyib, chiroyli. Endigina ochilgan yolg'iz gul ekan!

Gul bu gaplardan quyosh nuridan quvonganday sevinib ketibdi. Shunchalik sevinibdiki, hatto bolalar uni uzib olganini ham payqamabdi.

Qarasa, u bir bolaning qo'lida turganmish, bola uni o'pibdi, hademay o'zini issiqqina xonada ko'ribdi, atrofdan unga mehribon ko'zlar boqibdi, uni suv ichiga solib qo'yishibdi. Suv shunaqayam tetiklantirib, kuch-quvvat bag'ishlabdiki, gul uchun go'yo yoz boshlanib ketganday bo'libdi...



O'zbek bolalar she'riyati

O'ZBEKISTON — MENING VATANIM

Erkin VOHIDOV

O'LKA

Bog'laringni sayr etganimda,
Sen bor eding qalbda, Vatanim.
Bog' husniga she'r bitganimda,
Uni dastlab senga atadim.

Minglab tilda madhingni so'zlar
Bunda o'sgan har bitta daraxt.
Nur emadi millionlab ko'zlar,
Ko'kdan sening husningga qarab.

Jilmayadi o'zida yo'q shod,
Yangi oy ham ketmay qoshingdan.
Etak-etak olib koinot
Yulduzlarin sochar boshingdan...





Ergash RAIMOV

KUYGA TO'LSIN ONA-VATAN

Mening do'stim, qushchalar, siz
 Kuyni muncha xush chalarsiz?
 Bahor keldi, uchib keling,
 Bog'chamizga ko'chib keling.

Keling, keling, sayroq qushlar,
 Qo'shiqlari yangroq qushlar.
 Kuyga to'lsin bu bog', gulshan,
 Kuyga to'lsin ona-Vatan.



Qutlibeka RAHIMBOYEVA

O'G'LIM... SO'NG QIZIMGA BIRINCHI SABOQ

Sizlarning savollar faslingiz boshlangan.

- Aya, qushlarning Vatani qayer?
- Osmon.
- Nega bo'lmasa ular osmonda faqat uchadilar, o'tirmaydilar?
- Vatanda uchish kerak, qo'zim. Vatanda... o'tirish gunoh.

Javobimdagi suvrat sizlarga xiyol tushunarliroq ko'rindimi, boshqa savolga ko'chasizlar.

- Aya, Vatan nima degani o'zi?
- Nahot, sening tiling hali “r”, “z” ga kelmaydi, lekin fikr daraxtingning bo'yi o'sib, “Vatan” tushunchasiga yetibdi. Endi men so'zlamay, kim so'zlasin?



“Vatan” so‘zini toq aytmanglar hech qachon. “Bizning Vatanimiz” ham deya ko‘rmanglar. “Mening Vatanim” deb aytinglar. Aytayotganda har bir tovush yuragingizdan uzilib tushsin!

Vatan – bu sizga ota-bobolaringizdan yodgor qolgan Yer.

Vatan – bu Sizning ota-bobolaringizning aynan o‘zi. Chunki ular ming, million yillar quvonch-tashvishlari bilan shu yerga qo‘shilib ketganlar.

Siz Vatanni yashil daraxt, billuriy suv, qora tuproq, deb o‘ylamang. Bu – ota-bobolaringizning bugungi ko‘rinishi.

Vatandagi har bir xas, har bir tosh, hattoki har siqim tuproq ham sizlarning qarindoshingiz, jigarlaringiz!

Demak, siz, aziz bolajonlar, “Bu Vatan – meniki”, deb ishonib yashashlaringiz lozim. Ishonch sizlarga kuch beradi. Ana shu kuch sizlarni mustaqil qiladi.

Qambar OTA

O‘ZBEKISTONIM

(*qo‘shiq*)

Olamga har choq
Ochib keng quchoq.
Ochib keng quchoq,
Baxtli kulib boq,
O‘zbekistonim,
O‘zbekistonim,
O‘zbekistonim.

N a q o r a t :

Ozod, mustaqil,
Elparvar, ahil,



Saxiy, ochiq qo'l
 O'zbekistonim,
 O'zbekistonim.
 Madhiyang tilda,
 Maqoming dilda.
 Bayrog'ing qo'lda,
 O'zbekistonim,
 O'zbekistonim,
 O'zbekistonim.

N a q o r a t :

Tursunboy ADASHBOYEV

MUSTAQILLIK

Mustaqillik nonday aziz,
 Mo'tabardir, buyukdir.
 Bobosi ham irim bilan,
 Muqaddas deb qo'yubdir

Paxtaday oq, sutdayin pok,
 Imondayin u toza.
 Begardlikka qiyos qilsak,
 Bolakaylar — andoza.

Ko'k beg'ubor tovlanadi —
 Yetti rangli kamalak.
 Xumo qushi qo'ndi boshga,
 Zar uqali jamalak.





Po'lat MO'MIN

QADIM TURON

(qo'shiq)

Uch, Xumo qush,
Parvozi xush,
Osmonimda,
Makonimda.

N a q o r a t :

Keng Turkiston –
Menga makon.
El qadrdon,
Qadim Turon!

Samosi sof,
Chaqnar oftob.
Bag'ri kengdir,
Do'sti tengdir.





N a q o r a t :

Aytay chindan,
Baxtim sendan.
Sen doimo
Bor bo'l, Xumo!

N a q o r a t :

Keng Turkiston —
Menga makon.
El qadrdon,
Qadim Turon!

Abdulla ORIPOV

TOG'LAR

Eh, siz tog'lar, naqadar ko'rkam!
Sizga berar ilk nurin quyosh.
Par bulutlar, marvarid qorlar
Yuksak cho'qqi uzra qo'ygan bosh.

Sho'x shalola toshar hayqirib,
Ko'ksingizga baxsh etib chiroy.
Qoyalarga bosh urar sapchib,
Suvlar to'lib oqqan toshqin soy.


Sizdan ko'zin uzolmay har kech,
Quyosh qo'yar yostig'iga bosh.
Sof havoda olishib orom
Uxlar sokin har cho'qqi, har tosh...





Faqatgina u sho'x shalola
Daralarga soladi shovqin.
Oy suzadi ko'm-ko'k samoda,
O'qigandek husningga tahsin...

Eh, siz tog'lar, dilrabo tog'lar,
Yosh qalbimni maftun etgansiz.
Yoshlik, baxtni kuylagin, deya,
Ijodimga ilhom tutgansiz.



Ne'mat ORIPOV


ONA-YURTIM

Oyijonim singari
Suyib, quchib seni ham,
Osmoningni to'ldirib,
Uchgim keladi har dam.



Darsdan kelib, dalaga
Shoshaman yordam uchun:
Cho'llaringni gulzorga
Aylantirmayin nechun?

Dadamdek har ishingga
Yaramoqqa men shayman.
Ona-yurtim, hamisha
Seni sevib yashayman!



“GUL YUZLI BAHOR...”

Yil fasllari

CHO'LPON

BOYCHECHAK

“Boychechakning bolasi”
Ochdi yuzini.
Suvga chiqqan xolasi
Ko'rdi qizini!

“Boychechakning bolasi” —
Yetimcha bir qiz...
Uning o'gay onasi
Juda yomon, tez!

“Boychechakning bolasi”
Yulib olindi.
Yurtning ko'zi olasi
Juda sevindi!



“Boychechakning bolasi”
Har uyda kuldi.
Go‘daklarning xaltasi
Non bilan to‘ldi!..

ZULFIYA

LOLAQIZG‘ALDOQ

Ona turgan xonaga
Qizi kirdi yugurib.
Go‘yo sig‘may olamga
Dedi shoshib-ko‘pirib:

– Oyijonim, tez yuring,
Ko‘rsataman qiziq gul.
Hurriyatning tomini
Lola qoplabdi butkul.

Hali unday gullarni
Ko‘rmagansiz hech qayda.
Hatto yo‘q kitobdagi
Quyvon kezgan to‘qayda.

Tortib ona qo‘lidan,
Uydan chiqdi yugurib.
Tomga boqdi suq bilan
Ayvon labida turib.

– Oyi, qanday chiroyli
Hurriyatning lolasi.
Chiqib tersak maylimi?
Urishmasmi onasi?



– Bilmayman, jonim qizim,
Onasidan so‘ranglar.
Ruxsat bersa, chiqing-u,
Ko‘zingizga qaranglar!

Qizcha xuddi chittakday
Sakrab ketdi shu zamon.
Dam o‘tmayin ikki qiz
Tomda urishdi javlon.

Qizlar yuziday qizil
O‘sha tomning chechagi.
O‘tlar tebrandi yengil,
Tegib o‘tsa etagi.

Lola kabi ochildi
Tomda ikki qizaloq.
Tiz baravar o‘tlardan
Terdi lolaqizg‘aldoq.





Ilyos MUSLIM

BIRINCHI SOVG'A

Halima bog'ga kirdi
Tong payti shosha-pisha.
Ilk bahor gulin terdi,
Nomi — jajji gunafsha.



Haqiqatan, bog' husnin
Shu gul bezab turgandi.
Sevindi ko'rib tusin,
Ochilib qulf urgandi.

Go'zal navro'z faslida
Ochiladi g'ij-g'ij gul.
Halima gulni terib,
Qayga olib ketmoqchi?
Chin dildan sovg'a berib,
Kimni xursand etmoqchi?

Uyga kelganda bildik
Quvnagan sho'x ko'zidan,
Gulni sovg'a qilibdi
Oyisiga o'zidan.



Hayriddin SALOH

QALDIRG'OGH UCHIB KELDI

Yana sevinch ulandi
Sevinchimning i piga.
Qaldirg'och uchib keldi
Ayvonimiz shiftiga.


Qaldirg'och uchib keldi,
Yana bahor, yana gul.
Bog'lar chorlar qo'yniga:
— Kel, bag'ringa, o'yna, kul!

Qo'llarda kichik savat,
Dala-qirga chiqamiz.
Sevinchlar dilda qat-qat,
Gul termoqqa chiqamiz.

Gul teramiz dastalab,
O'qituvchiga atab,
Esar bahor yellari
Yuzimizni siypalab.

Yana ortga qaytamiz,
Do'stlarimiz yoniga.
Sho'x qo'shiqlar aytamiz
Gulbahorning sha'niga.

Yana sevinch ulandi
Sevinchimning i piga.
Qaldirg'och uchib keldi
Ayvonimiz shiftiga.





Shukur QURBON

NAVRO'ZIM

Bog'lar — daraxtlarniki,
Tog'lar — lolalarniki.
Kim nima desa-desin,
Bayram — bolalarniki,
Bayram — bolalarniki.

Bog' bahorsiz qolmasin,
To'kmasin tog' lolasin.
O'zbekiston bag'rida
Navro'zlar omon bo'lsin,
Navro'zlar omon bo'lsin.

Navro'z, navro'z, navro'zim,
Sen mening ko'rar ko'zim,
Sen mening aytar so'zim,
Sen mening xuddi o'zim,
Sen mening yorug' yuzim.





Malik MURODOV

NAVRO'ZI OLAM

Jajji bolajonlarim!

Navro'z Kun bilan Tun teng kelgan payt — 21 martdan 22 martga o'tar kechasi Yangi yil sifatida nishonlanadi. Bu bayramga sizdan tortib bobobuvilargacha — hamma-hamma zo'r tayyorgarlik ko'radi. Bastakorlar kuylar bastalaydilar, shoirlar she'r bitadi, hofizlar qo'shiq, raqqosalar raqs tayyorlaydi. Navro'z taomlari — ko'k somsa, chuchvara, ko'kosh, sumalak, halimlar pishiriladi. Ariq-zovurlar tozalanib, ko'chatlar ekiladi. Dalalarga suv chiqarilib, ekin-tikin ishlari boshlab yuboriladi. Xastalar ziyorat qilinadi... Xalqimizning har qanday kishi havas qilsa, ibrat olsa arzigulik udumlari, an'analari, qadriyatlari tantana qiladi. Navro'z — mehnat; bahor — mehr-u oqibat bayramidir.

Asom ZIYOMAT

YALPIZ TERAR GULNOZA

Ariq bo'yida maysa,
Suvlarda sho'x andoza.
Chim-chim donalab,
Yalpiz terar Gulnoza.

To'lqin-to'lqin irmoqlar
Kuy chalar, qanday soz-a.
Savatchasi yonida,
Yalpiz terar Gulnoza.

Borliq chinni kosaday,
Yuvilgan — biram toza.
Sochida tol bargagi,
Yalpiz terar Gulnoza.





Muhammadjon QO'SHOQOV

TOK OCHDIK

Tok ochdik, hey, tok ochdik,
Endi yeymiz tok oshi.
Pishganida uzumi,
Quvontirar ko'zimni.
Shoda-shoda to'lishar,
Do'stlar baham ko'rishar.
Savat-savat uzamiz,
Shinnisini suzimiz.

Habib RAHMAT

YOMG'IR YOG'AR...



Yomg'ir yog'ar shitir-shitir,
Nedir so'zlab shivir-shivir.
O'yinqaroq qushlar jimdir,
Yomg'ir yog'ar.

Osmon — borliq sokin turar,
Dov-daraxtlar xayol surar.
Xayol surar ham cho'milar,
Yomg'ir yog'ar.

Bu dam atrof nimrang tusda,
Zavq beradi ko'rgan ko'zga.
Ajib fayz bor dala-tuzda,
Yomg'ir yog'ar.

Bu yomg'irim yerga sutdir,
Har tomchisi boylik-qutdir.
To'ysa dalam, hosil butdir,
Yomg'ir yog'ar...



“ENDI QUYOSH BARCHANI BIR MEHRDA SUYADI...”

Ravshan FAYZ

YOZ

Ko'kning ko'ngli ochilib
Ko'z yoshi tinib qoldi.
Qizg'aldoqning qirmizi
Kosasi sinib qoldi.

Endi quyosh barchani
Bir mehrda suyadi.
Yalangoyoq yursang gar,
Oyoqlaring kuyadi.

Shippagi yo'q shamol-chi,
Darrov yo'lin topadi:
Oyog'in qo'lga olib
Tutqich bermay chopadi.



Sobir JABBOR

YOZ

Rang kirdi
Dovuchchaga,
Sig'may qoldik ko'chaga.
Chorlaydi chamanzorlar,
Yoz xizmatga bel bog'lar.
Dala qizib,
Hovuchlab



Daryodan suv ichadi.
Endi kekxa tog'lar ham
Oq qalpog'in yechadi.
Baliq kabi suzamid,
So'ngra chiqib qirg'oqqa,
Ko'ksimizni bosamid
Issiq
Ona-tuproqqa...

Abdurahmon AKBAR

BIRINCHI IYUN



– Bilag'on deb atashar
Do'stlaring seni, Suyun.
Top-chi, qanday kun o'zi,
Deylik, birinchi iyun?
– O'sha kuni ta'tilga
Chiqishadi bolalar.
Farzandlarin hordiqqa
Jo'natadi xolalar.
– Aytganlaring-ku to'g'ri,
Bilib ol yana shuni:
Birinchi iyun, jo'ra,
Yozning tug'ilgan kuni!

Rauf TOLIB

YO'LDAGI SUHBATLAR

– Ayt-chi, buncha jilmayib
Kulyapsan, quyoshjon?
– Ola bulutlar yo'qdir,
Qara, tip-tiniq osmon.



* * *

— Toshdan-toshga sakrab, soy,
Qayoqqa shoshyapsan, hoy?
— To'xtab turayin qandoq,
Meni kutar dala, bog'...

* * *

— Ey, qush, nega sayraysan
Tinim bilmay tonggi payt?
— Ona-yurt go'zalligin
Kuylamay bo'larmi, ayt?

* * *

— Ey, niholjon, ne uchun
Qarsak chalar yaprog'ing?
— Shodman, chunki hosildan
Egilgandir butog'im.

* * *

— Tog'jon, sen buncha yuksak,
Senmi osmonga ustun?
— Oh, bilsang, inson qo'li
Mendan ham yuksak, uzun.

* * *

— Ey, gul, buncha tovlanib
O'zingga beryapsan zeb?
— Boqqaningda, bolajon,
Ko'zlaring quvnasin, deb.



* * *

– Shamol, qayga chopyapsan,
Seni quvlarmi birov?
– Axir, qancha ishim bor,
Bo'lmas bormasam darrov.

* * *

– Bog'bon ota, siz buncha
Shod, xandon?
– Hosil bu yil mo'l-u ko'l,
Bolajon!



Ma'mur QAHHOR

SHO'X SHAMOL

Sho'x shamol bog'ga kirib,
Rosa qildi to'polon.
Daraxtlarni silkitib,
Olma qoqdi bearmon.

Ishi zarur ekanmi,
Vahti bitib qolibdi.
Birorta ham olmani
Olmay ketib qolibdi.



Zafar DIYOR

OLMA

Bog'ga kirdim, olmalar
Qip-qizarib pishibdi.
Silkitibdi shamollar,
Yerga to'p-to'p tushibdi.

Havas bilan har birin
Olib ko'rdim qo'limga.
Oltin kabi ko'rinar
Ular mening ko'zimga.

Mazasini totiyman,
A'lo erur qanddan ham.
Bunday shirin olmani
Men ko'rganman kamdan-kam.

Bunday shirin olmalar
O'z bog'chamda yetildi,
Yashnab o'ssin deb ular,
Halol mehnat etildi.

Mevalarning urug'in
Eking, asrang, o'rtoqlar.
Kelajakda ulardan
Yaratilgay gulbog'lar.





“BOG‘LAR KO‘M-KO‘K KO‘YLAGIN BO‘YAB OLDI SARIQQA...”

ZULFIYA

OLTIN KUZ

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go‘zal chog‘ingni.
Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun,
Ko‘zni erkalagan chaman bog‘ingni.

Sevaman, yerlarga rangdor yaproqlar
Yumshoq va rang-barang gilam to‘shasa.
Gul terganday terib barg qizaloqlar,
Qushlarday gurpanglab yayrab o‘ynasa...

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog‘larni!
Yong‘irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolga cho‘mganim go‘zal onlarni!..



SHUHRAT

KUZ

Tongda turib bog‘ga kirdim,
Miltillar qirov,
Go‘yo tunda ko‘kdan shakar
Sepgandek birovi.

Erta bahor ekan edim
O‘n besh tup ko‘chat.
Bargin to‘kib, yosh novdasi
Qolibdi faqat.



Yozning issiq kunlariga
Beroldi bardosh.
Agar qishga chidab bersa,
To'ldi bir yosh.

Uch yil o'tgach, deyman: — Do'stlar,
Bog'ga marhamat!
Qaytar chog'i meva tutay,
To'ldirib savat.

Ergash RAIMOV

KUZ QO'SHIG'I

Bog'lar ko'm-ko'k ko'ylagin
Bo'yab oldi sariqqa.
Shildirar zilol suvlar,
Quloq solsang ariqqa,
Kuylar kuzning qo'shig'in.

“Qiyov-qiyov” turnalar
Janub tomon oldi yo'l.
Ko'kka qarab bolalar,
Qiyqirib silkitar qo'l,
Kuylab kuzning qo'shig'in.

Dalalarda chaylalar
O'xshar tuya cho'kkanga.
Huv ana, dehqon bobo
Qovun bosar chetanga,
Kuylab kuzning qo'shig'in.





G'o'zalar chaman, qiyg'os,
Boshdan oshdi yumushlar.
Chevar qizlar tonnalab
Terar oltin-kumushlar,
Kuylab kuzning qo'shig'in.

O'lkada qaynar hayot,
Dillarda sevinch kuyi.
Yasha, mehnatkash elim!
Kuzak — mo'l hosil to'yi,
Kuyla hosil qo'shig'in!

Asom ZIYOMAT

PAXTA



Chanoqlarda
Oppoq paxta
Kulib turar,
Qanday baxt-a!

Erkalanib
Tebranadi,
Yal-yal yonib
Tovlanadi.

— Rahmat senga,
Aziz dehqon.
Uyding bizdan
Ulkan xirmon.

Mehnatingdan
Oltin bo'ldik,
Chanoqlarga
Lim-lim to'ldik.



Sodiqjon INOYATOV

TURNALAR

Kuz keldi, o'xshagancha
Mayin, dilxush navoga.
Turnalarning "qur-quri"
Taralmoqda havoga.
Ana, ular to'planib
Ketmoq uchun janubga,
Marvarid munchoqlarday
Tizildilar bir ipga.
Qushlar issiq o'lkani
Ko'zlab yo'lga shaylanar.
Ammo dilgir, betoqat,
Davra yasab aylanar.
Men qushlarga tikilib
Ilg'ab oldim bir ma'ni:
Yurt mehri turnalarni
Qo'yvormasdi ketgani.

Habib RAHMAT

KUZNING SO'NGGI KUNLARI

Junjitar sovuq tunlar,
Purg'am, ma'yus dov-daraxt.
Gohida qor uchqunlar,
Bog'-rog'lar sokin, karaxt.
Niliy tumanlar ko'kda
Bulut bilan qorishgan.
Eh, quyoshga yo'l yo'q-da,
U mo'ralar olisdan.





“YOG‘, YOG‘AVER, OPPOQ QOR...”

CHO‘LPON

QOR

Har tomonda qor, qor, qor...
El bilan tushar, chiqar.
Bulutlar elab elak,
Separ oppoq kapalak.
To‘da-to‘da ucharlar,
Aylanishib qocharlar,
Yellarga yo‘l ocharlar.



Mana, har tomon oppoq,
Maydon, ko‘cha, tom, chorvoq.
Yerlar to‘ngan, ko‘k to‘ngan,
Havo charchab bo‘g‘ilgan.
Ko‘kragiga tushgan qor
O‘ziga joy axtarar,
Jimjit uylarni o‘rar...

Rauf TOLIB

QISH YAQIN...

Quyonga dedi Ayiq:
– Buncha shoshasan, qiziq?
– Qish kelar qilich qayrab,
Qandoq o‘tiray qarab?
Qish g‘amini yeyapman.
– To‘xta, nima deyapsan?
Qish degani bir kecha...
– Unday emasdir hecham.



- Bir uxlab tursang, bahor!
 - Bahorgacha ko'p gap bor...
- Qishli qirovli kunda
Ovqat so'rayman kimdan?
– Qanaqa qish, ey, ahmoq? –
Darg'azab bo'lar maymoq.
– Qishdan qo'rqmaysiz, demak...
– Gap qaytarma, tirmizak.



* * *

Eshitmay birov so'zin,
Ko'plar haq sanar o'zin.

Safar BARNOYEV

JUMBOQ

Ayting, qani, bolalar,
Bu jumboqni kim bilar:
Qorbobo bilan qorqiz
Yil bo'yi ne ish qilar?
Bosh qotirar bolalar,
Gulchehra bo'lsa kular:
“Qorbobo bilan qorqiz
Yozimizni qish qilar...”

Kavsar TURDIYEVA

QOR PARCHALAR

Qor parchalar, parchalar,
Oq kiyadi archalar.
Qir, adirlar, qo'ralar
Oq kiyimga o'ralar.





Uyga kirdi oq odam,
 Qarasam, mening dadam.
 Dadamning ustin qoqdim,
 Dadamga kulib boqdim.
 Yoqalarin tuzatdim,
 Issiq to'nni uzatdim.

Do'stjon MATJON

YOG', YOG'AVER, OPPOQ QOR

Yog', yog'aver, oppoq qor,
 Yog'ishingga ko'z tikib
 Oqshom-u tonglar takror
 Ko'kka boqdik entikib.

Yog', yog'aver, oppoq qor,
 Chang'i-chanamiz tayyor.
 So'ng o'ynaymiz qor bo'ron,
 Vaqtimiz ketmas bekor.

Yog', yog'aver, oppoq qor,
 Eshik qoqmoqda bahor.
 Butun borliq yashnasin,
 Yog'aver takror-takror.

Dilshod RAJAB

QOR

Qor bosmoqda atrofni —
 Oqlar bosib gupillab.
 Oqlar... hatto Oftobni
 Ko'kda taslim qildilar.





Qahratonning qahridan
Qo'rqib qotgan yer-falak.
Qo'l ko'tarib asirday,
Qilt etmay turar daraxt.


Faqat kurashar betin
Azamat sherbilaklar.
Kurash uchun yaralgan
Fidoyi ... Qorkuraklar.



Egamnazar SOHIBNAZAROV

MA'QUL BO'LDI QUYOSHGA

Erta tursam, deraza
Muzlabdi zarang.
Muzligidan tashqari
Ko'rinar arang.
Rasm uchun soz ekan,
Kirishdim ishga.
Bir qancha rasm chizib,
Ketdim o'qishga.
Tushda keldim – rasm yo'q,
Tushunmay qoldim.
Oyim aytgach, hammasin
So'ng bilib oldim.
Men ketgach, quyosh bir-bir
Tomosha qilib,
Ma'qul ko'rib hammasin,
Ketibdi olib...





Toshpo'lat XOLMATOV

ONA-TABIAT

Qish der: – Kumush qorim bor,
 Qorbobo yasang!
Bahor der: – Gulim ko'rkam,
 Guldasta yasang!
Yoz der: – Suvim beg'ubor,
 Suz baliq misol!
Kuz der: – Mevam, bolim bor,
 Bari senga, ol!
Demak, ona-tabiat
Bizni der har vaqt.

“KEL, OPPOG'IM, KEL, ERKAM...”

Onalar va bolalar

Alisher NAVOIY

* * *

Boshni fido ayla ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-kuningga aylagil nur posh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Gulchehra NURULLAYEVA

ALLA

Ko'kning oltin hiloli
Mening bag'ringa tushdi, alla.
Umrin bo'ldi jiloli,
Borlig'imni nur quchdi, alla.





O'rab oldim hilolim
Baxt bergan oq yo'rgakka, alla.
Aylandi shu iqbolim
Siynamdagi yurakka, alla.

Qo'shiq bilmas tillarim
Bu kun biyron uni deb, alla.
Soqchidir kun-tunlarim
O'z oromin unutib, alla.

Hilolginam kundan-kun
To'lishib oy bo'lgusi, alla.
Ne ajabki, el uchun
Fonus tutsa kelgusi, alla.



Saida ZUNNUNOVA

* * *

Yer uzra qo'ndi oqshom,
Oy shu'lasini bir mayin.
Kel, oppog'im, kel, erkam,
Men seni allalayin.

Dudog'ing guldani xushbo'y,
Yuzlaring undan xushro'y.
Kel, oppog'im, bag'ringa
Jajji boshginangni qo'y.

Tovuq uxlari qo'noqda,
Shamol tingan butoqda.



O't-o'lanlar jimgina
Orom olar o'tloqda.

Yulduz charaqlayapti,
Oy ham yaraqlayapti.
Qizcha uxladimi, deb
Mendan so'roqlayapti.



Yer uzra qo'ndi oqshom,
Oy shu'lasini bir mayin.
Kel, oppog'im, kel, erkam,
Men seni allalayin.

MIRTEMIR

UYG'ON

Uyg'on, erkam, ko'zing och,
Tong yoydi zarrin qulo'ch.
Bosh ustingda aylanib
Uchib o'tdi qaldirg'och.

Allaqachon botdi oy,
Tur, yotmagil, erkatoy.
Qanot yozib osmonda,
Kuy boshladi bo'zto'rg'ay.

Kutadi o'yinchog'ing,
Kutadi qo'zichog'ing.
Kutadi yer tepinib
Sho'x, o'ynoqi toychog'ing.




Kutadi daftarlaring,
Bo'yoqlaring, zarlaring.
Kutar uchgisi kelib
Bir talay kaptarlaring.

Gullar intizor boqar,
Suvlar mavjlanib oqar.
Sening uchun tong otib,
Quyosh mash'ala yoqar.

Uyg'on, erkam, tur, erkam,
Ko'z sol, olamga — ko'rkam!
Sen uchun bog'cha, bog'lar,
Olamlar bermish o'lkam!

Uyg'on, qo'zim, yuzing yuv,
Tong o'zingday sof, suluv...
Shoshil, erkam, maktabda
Kutadi seni o'quv!



Qambar OTA

ONAJONIM

Bir kun sakrab
O'ynab yurib,
Oyog'imga
Tikan kirib,
Jon-tanimda
Og'riq turdi.
Voy, judayam
Azob berdi.
Holim ko'rib



Qo'shni xola,
Der: – Shungami
Dod-voy, nola.
Akam uyga
Keldi kirib,
Beparvo der:
– Qilma firib.
Bir vaqt paydo
Bo'lib bobom,
Dedi: – Ko'zim
O'tmas, bolam...
Ishonganim,
Sevgan buvim,
Ushlab ko'rib,
Turardi jim.
Xullas, ko'plar
Irg'ashib bosh,
Qilolmadi
Hech bir iloj.
Baxtginamga
Jonajonim –
Kelib qoldi
Onajonim.
Quyosh bo'lib
Mehri-dili,
Yog'day yoqib
Ketdi qo'li.
Nina qilib
Kiprigini,
Oyog'imdan
Oldi uni.



Og'riq birdan
To'xtab qoldi.
Jonim kirib
Uxlab qoldim.

Rauf PARFI

* * *

– Oyi, oyi, aytib bering,
Bormi mening ham o'z yo'lim?
– Hamma yaxshi yo'llar sening,
Eng yaxshisi sening, o'g'lim.

– Oyi, nadir baland uchgan,
Nega mening yetmas qo'lim?
– Yerdan Osmon uzra ko'chgan
Xayolingdir sening, o'g'lim.

– Oyi, urush nima, ayting,
U nimadir, nomi — o'lim?
– Bo'lsa aytar edi otang...
Urush — bu yo'q narsa, o'g'lim...





“XIYOBONDA CHOPGIM KELAR...”

Bolalar dunyosi

* * *

Muhammad YUSUF

Madinaxon turib ketdi
Bitta-bitta.
Yumshoq yerda yurib ketdi
Bitta-bitta.

Yo‘lidagi akajonin
O‘yinchoq tank
To‘plarini surib ketdi
Bitta-bitta.

Sovuq temir ariqchaga
Ag‘anadi.
Yomg‘ir-u do‘l urib ketdi
Bitta-bitta.

Bo‘yoqlari qurib ketdi
Bitta-bitta...
Stvollari chirib ketdi
Bitta-bitta.



ORZU

Belanchakda qachongacha
Yotish mumkin, turib ketdim.
Shu bahorda tilim chiqdi,
Shu bahorda yurib ketdim.



Voy-boʻ, atrof muncha goʻzal,
Hammayoq gul, hammayoq bogʻ.
Xiyobonda chopgim kelar,
Kelar oʻynab yurgim koʻproq.

Onam boʻlsa, ehtiyot boʻl,
Deydi, hozir bola payting.
Men mustaqil yurmoqchiman,
Oʻz holimga qoʻysin, ayting...

Menimcha, shu: hamma ishni
Bolalikdan boshlash kerak.
Katta-katta orzu bilan
Katta qadam tashlash kerak!

Rustam NAZAR

HOSIL BAYRAMI

Tirband edi keng maydon,
Yoʻlini top,
Koʻrib qol!
Chiqib oldim otamning
Yelkasiga men darhol.
Tomoshadan zavqlanib,
Qarsak chaldim, tin olmay.
Otam esa turardi
Hech narsani koʻrolmay!...



Yusuf SHOMANSUR

SHIRMOY NON

Oyim yopar shirmoy non,
Men ham qarab turmayman,
Gul solaman xamirga,
O't yoqaman tandirga.



Mehnat qilgach, albatta,
Sindirib katta-katta –
Eyilganda shirmoy non,
Men ham qarab turmayman.

Jo'ra RAHIM

“YORDAM”

Yerga tushdi olma, nok pishib,
Bog'ga tomon yo'l oldi ona.
Do'mboq qizi unga ergashib,
Atrofida bo'ldi parvona.

– Men ham boray, maylimi, ona?
– Ne qilasan?
– Yordam beraman.
– Qanday qilib?
– E, bilmaysizmi?
Siz uzatsangiz,
Men yeb turaman.



Shuhrat OTABEK

ACHCHIQ CHOY

– Menga ham ish buyuring,
Bobojonim, jon bobo.
– Siz, mayli, choy keltiring,
Achchiq bo'lsin-u... ammo...

Dasturxonga Salimjon
Bir choynak choy keltirdi.
So'ngra o'zi yonma-yon
Bobo bilan o'ltirdi.

Choyning ta'mini tatib,
Bobo so'radi, hayron:
– Choyingiz ko'p g'alati,
Ko'p qiziq-ku, Salimjon?

– So'zingizni bobojon
Qulog'imga olganman,
Choy achchiq bo'lsin uchun
Garmdori solganman.



Tolib YO'LDOSH

MEHMON

Eshigimiz taqillasa,
Deymiz: – Mehmon!
Hozirdanoq mehmonlarga
Biz mehribon.
Dasturxonni yasatamiz:
“Oling-oling!”




Kech kirsak-ku, jildirmaymiz:
– Yotib qoling.
Bizning uydan doim mehmon
Arimaydi.
Bag'ri ochiq kishilar hech
Qarimaydi.

Kavsar TURDIYEVA

QANDAY YAXSHI

Oyimga ham, dadamga ham
Doim kulib boqaman.
Oyimga ham, dadamga ham
Juda-juda yoqaman.
Ko'chamizdan o'tganlarga
Salom beraman kulib.
Qani, hamma shunday qilsa,
Yurmasa qovoq uyub.
Odamlar ham bir-biriga
Faqat kulib qarashsa,
Qanday yaxshi, kimdir-kimga
Shodligini ulashsa.





SODIQ DO'ST

Alishaylik, og'ayni,
Senga beray qayiqni.
Sen-chi, menga berasan,
Huv, o'yinchoq ayiqni.

Og'aynim-chi, norozi,
So'zlaydi-yu, kulmaydi:
“Ayiq — do'stim. Do'stlarni
Almashtirib bo'lmaydi”.

Aziz ABDURAZZOQ

SODDA QO'ZICHOQLAR

Gullar terib, quchoqlab
Kelar edim uzoqdan.
Qo'shiq aytib, o'ynoqlab,
O'tar edim o'tloqdan.

O'ylar edim: “Gullarim
Bir-biriga yarashdi”.
Bundan quvnaib kulardim,
Qo'zichoqlar ergashdi.

Havas bilan gulimga
Mo'ltirashib qarashdi.
Intilishib qo'limga,
O't bergin, deb ma'rashdi.





– Voy, tentaklar, — dedim men. —
Bu — o't emas, guldasta.
Buni atay terdim men,
Yeysizlarmi birpasda?

Qochib ketdim tez, chaqqon,
Qo'zichoqlar jim qoldi.
Mendan kutgan kattakon
Umidlari yo'qoldi.

Zafar DIYOR

KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdak,
Muncha shoshib uhasan,
To'xta, so'zlayin andak.



Uchrataman har kuni
Seni go'zal bog'chamda,
So'rib gullar sharbatin
O'ltirasan olchamda.

Borib ushlay deganda,
Shoshib, darhol uhasan.
Sira tutqich bermasdan,
Guldan-gulga ko'chasan.

Mendan aslo qochmagin,
Do'st bilaman o'zimga.
Pildir-pildir uchishing,
Oh, yoqadi ko'zimga.



Solijon Xudoyorov. Qirqoyoq va qirqpaypoq.



Uch, uchaver, uchaver
Go'zal bog'cham — gulshanda.
Sira ozor bermayman,
Sevgim, fikrim ham senda.

Kapalakjon, kapalak,
Qanotlaring ipakdek.
Do'st bo'laylik ikkimiz,
To'xta, so'zlayin andak.

Miraziz A'ZAM

TURSUN, UNSIN VA TABASSUM

Tursun bilan Tabassum
Doim begona ekan.
Tursun bilan Tabassum
Nega begona ekan?
Tursun badqovoq ekan,
Yig'loqi, chatoq ekan.
Shuning uchun Tabassum
Unga begona ekan.
Unsin bilan Tabassum
Qalin dugona ekan.
Unsin bilan Tabassum
Nega dugona ekan?
Unsin ko'p quvnoq ekan,
Ko'zlari chaqnoq ekan.
Shuning uchun Tabassum
Unga dugona ekan.





Abdullo RAHIMOV

IKKI QO'RQOQ

Anvar Moshvoydan qo'rqib,
Eshikni mahkam yopdi.
Jarangidan Mosh hurkib,
Ortiga qarab chopdi.

Egamnazar SOHIBNAZAROV

BUVIMNI SAYR QILDIRDIM

– Dada, bugun buvimni
Samolyotga mindirdim.
O'zim rulga o'tirib,
Rosa sayr qildirdim.

– Samolyoting soz ekan,
Keltir, men ham bir minay.

– Mayli, rasmingiz bering,
Sayr qildirib kelay...

“CHUCHMOMAJON, CHUVLAB CHIQ, DALA-DASHTDAN DUVLAB CHIQ...”

(Gullar olamida)

OYBEK

BOYCHECHAK

Bugun bolalarning shodligi toshqin,
Yerni turtib chiqmish tongda boychechak.
Tabassumdan moviy osmonda to'lqin,
Olamga yuz ochgan nafis boychechak.





Tuproqqa tirabdi nihol oyog'in,
Bahorning shu go'zal ilk chechagi sha'n.
G'urur-la oftobga tutib yanog'in,
Shivirlar boychechak doston ishqidan.

Sukutda yuramen, ko'nglimda bahor,
Bahorni kuylaydi tansiq boychechak.
Tasviri — haqiqat, sevgiga u yor,
Ko'klamdan nashida uchqun boychechak.

Tandir boshidagi kampirning birdan
Burushiq yuzlari yorishib ketdi.
“Omonlik, somonlik!” — der ixlos bilan,
Suyunar: u tag'in bahorga yetdi.

“Tangrim ko'rsatsin-da yana bahorni”, —
Tandirdan non uzib, shivirlar boyaqish,
Yuramen aylanib sho'x bolalarni,
Chehralar mamnundir, toshadi olqish!

Quddus MUHAMMADIY

TONGDA

Chumchuq, chittak chirqillashib
Tong yuzini ochganda,
Chimyon tog'ning qir uchida
Quyosh nuri o'ynaydi.
Yumshoq shamol keng dalaga
O'ynab-o'ynab oqqanda,
Oq chechaklar chehrasiga
Marvariddan xol qo'ydi.





NILUFAR

Suv ichida gul o'sar,
Go'zalligi gulsafsar.
So'ng oqarar oq lola,
Ochilar ko'sak dona.
Barglari naq shapaloq,
Yashil zontik, yapaloq.
Suv ichib to'ymas ekan,
Quruqni sevmas ekan.
Gul bargi mayin, ukpar,
Nomi – nafis nilufar.

TUGUNCHASI OCHILDI

Yog'ar, yomg'ir yog'aloq,
Yashnaydi yashil chaqmoq.



Yashin – oying bolasi,
Go'zal tomchi dumaloq.

Tomchi-tomchi, hoy, tomchi,
Qo'lida ipak qamchi.

Yer yuzini savalar,
Yerdan unar maysalar.

Maysa tugar gul-g'uncha,
G'uncha emas, tuguncha.

Tugunchasi ochildi,
Har yonga gul sochildi.



Shukur SA'DULLA

LOLA

Quyoshga intilishar
Tog'lardagi lolalar.
Quchoq-quchoq terishar
Quvnab, yayrab bolalar.

Shabada tursa asta,
Salom berar egilib.
Qiz teribdi bir dasta,
Qarab qoldim tikilib.

Bargi yashil va tarang,
Shapaloqday har biri.
Lolaga siz bir qarang,
Gullarning eng dilgiri.
Bahorda chiqing tog'ga,
Lola to'lsin quchoqqa!

CHINNIGUL

Noming o'zingday xushro'y,
Qizil chinni guling bor.
Injiqlikni endi qo'y,
Hovlida o's har bahor!

Kunduz kulib chinnigul,
Gapga quloq soladi.
Kech kirsam, kulmay, nuqul
Yumiladi-qoladi.



Hay, nozik gul — chinnigul,
Kecha-kunduz ochil, kul!

Robiddin IS'HOQOV

G'UNCHA



Hoy, atirgul, atirgul,
Hidi yelga tatir gul.
Mahkam tugib olgansan,
Ayt-chi, nega g'unchangni?
Bir ko'raylik, nima bor,
Ocha qol tugunchangni!

Ravshan FAYZ

CHUCHMOMA

Chuchmomajon, chuvlab chiq,
Dala-dashtdan duvlab chiq.
Men chanqadim, chanqadim,
Lablaringni suvlab chiq.

Chuchmomajon, iyib chiq,
O'jarliging tiyib chiq.
Uzun-uzun ulama
Oq ko'ylaging kiyib chiq.

Chuchmoma chopib chiqdi,
Xushxabar topib chiqdi.
Xabarin aytmasdan,
Yuzlarin yopib chiqdi.



So'ng yuz ochib, suv, dedi.
Dangasaga suf, dedi.
Har kun turib erinmay,
Yuz-qo'lingni yuv, dedi.

“KO'CHAMIZGA TOL EKDIM, KATTA BO'LSIN, O'SSIN DEB...”

Daraxtlar olamida

Rauf TOLIB

NIHOL

Dalada bir tup nihol
Tug'ildi bahor chog'i.
Yaprog'in o'ynar shamol,
Yellar bo'ldi o'rtog'i.
Ko'k sari cho'zdi bo'yin,
Quyosh to'kdi nur-shu'la.
Qizib ketdi yoz to'yi,
Qushlar aytdi ashula.
Yonidan o'sib bir kun
Chiqdi makkajo'xori.
O'rtoq bo'lishdi qalin,
O'sishib tik, yuqori.
Tarvuz unga do'st bo'lib,
O'radi palaklarin.
Chirmadi achom qilib
Niholning bilaklarin.
... Bosar uni tashvish, g'am —
Kelmoqda ayozli kuz.





Uchib ketdi qushlar ham,
U esa qoldi yolg'iz.
Ko'zga ko'rinmas, afsus,
Og'aynilar bu palla.
Na jo'xori, na tarvuz,
Bo'shab qolgan keng dala...

YAPROQ




Shildir-shildir
Kuylaysan, yaproq.
Nimalarni
So'ylaysan, yaproq?
Kimdir o'ylar,
Yotib soyangda,
O'tin qilsam
Deya poyangdan.
Sen-chi, nega
Qilmaysan parvo?
Qo'shiqlaring
Bo'lmaydi ado.
Raqibga ham,
Do'stga ham qiziq:
Nega bir xil
Kuylaysan qo'shiq?

Ergash RAIMOV

CHINOR

Men bilmayman, ilgari
Yetti bobomdan biri

Ekkan ekan qo'sh chinor,
 Nima bo'пти, xo'sh, chinor?
 Oylar o'tib, yil o'tib,
 Qancha dovul, sel o'tib,
 Egsa hamki shamollar,
 Tik o'sibdi nihollar.
 Besh asrni ko'ribdi,
 Ko'p naslni ko'ribdi.
 Yo'lovchi yo'llarida,
 Bahorning sellarida,
 Oftobning qizig'ida,
 Saraton issig'ida
 Kimki kelsa qoshiga,
 Soya tashlab boshiga,
 Ulkan soyabon bo'пти,
 Go'yoki posbon bo'пти.
 Hozir-chi, o'sha chinor,
 Azamat qo'sha chinor
 Yashnab turar yigitday,
 Go'yo bobom tirikday!



Aziz ABDURAZZOQ

TOL


Ko'chamizga tol ekdim,
 Katta bo'lsin,
 O'ssin deb.
 Oftob chiqib,
 Bo'lsa dim,
 Soya qilsin,
 To'ssin deb.



Tolim juda kichkina,
Qo'l tegdirmang, bolalar.
Po'stlog'ini echkiga
Hech yedirmang, bolalar.

Bu tol mening tolimmas,
Sizlarning ham tolingiz.
Suv quyishib basma-bas,
Parvarishlab qolingiz.

Soyasida ko'p odam
Rohat qilsin deganman.
Xuddi shuning uchun ham
Yo'l chetiga ekkanman.



Erkin VOHIDOV

QARAG'AY

Bo'yin cho'zib
Qarag'ay,
Yon-atrofga
Qaragay.
Der u:
– Barcha daraxtdan
Baland akang
Qarag'ay.

ARCHA

Men archaman,
Archaman.






Men xursandman
Barchadan.
Atrofimda
Aylanib,
Hech charchamang,
Charchamang.

TERAK

Men terakman,
Terakman.
Men hammaga
Kerakman.
Osmon mening
Elkamda.
Men olamga
Tirgakman.



Quddus MUHAMMADIY

BAQATERAK

O'zi avval terak ekan,
Hammaga kerak ekan.
Terak bo'lmayman, debdi,
Kerak bo'lmayman, debdi.
Chinor bo'laman, debdi,
Minor bo'laman, debdi.
Tarvaqaylab ketibdi,
O'zini unutibdi.



Na chinor-u, na terak,
Hech kimga bo'lmay kerak,
Bo'p qopti baqaterak,
Yaroqsiz, chaqa terak.

Turob TO'LA

MAJNUNTOL

Bosh yuvay deb majmuntol bir kun,
Chiqqan emish buloq bo'yiga.
O'zin ko'rib buloqda durkun,
Ketolmayin qopti uyiga.
Shundan beri bunda tun-u kun
O'tirarmish yoyib sochini.
O'zi bo'lib o'ziga maftun,
Ololmasmish suvdan boshini...



“TILLAQO'NG'IZ... GUL ICHIDA QOLA QOL...”

Hasharotlar haqida

Aziz ABDURAZZOQ

TILLA QO'NG'IZ

Tillaqo'ng'iz,
Tillaqo'ng'iz,
Gulzoringa kela qol.
Nag'ma chalib,
Qo'shiq bo'lib,
Havoni to'ldira qol.




Gulga qo'nib,
 Gul sharbatin
 Shimib-shimib ola qol.
 Uyqing kelsa,
 Shunda uxla,
 Gul ichida qola qol.

Bog'im ochiq,
 Bog'im ochiq,
 Qo'riqchim yo'q,
 Itim yo'q.
 Seni tutib bog'lamayman,
 Qo'llarim bo'sh,
 Ipim yo'q.

Qambar OTA

SHOXLI QO'NG'IZ

Bor shoxim
 Ham qanotim,
 Kulib boqqan
 Omadim.
 Menday bo'lish
 Hazilmi,
 Ko'tarmayman
 Hazilni!





Anvar OBIDJON

KAPALAK QO'SHIG'I

Qo'y ham bordi yaylovga,
Men ham bordim yaylovga.
Qo'yning ko'zi pechakda,
Mening ko'zim chechakda.
Qanotlarim pirpirak.

Toy ham bordi dalaga,
Men ham bordim dalaga.
Toyning ko'zi dalada,
Mening ko'zim lolada.
Qanotlarim pirpirak.


Shukur SA'DULLA

NINACHI

Bog'da uchar ninachi,
Gulni quchar ninachi.
Biram chiroyli, qarang,
Qanotlari rang-barang.

Shisha kabi ko'zi bor,
Yum-yumaloq yuzi bor.
Bog'ni kezib yuradi,
Guldan sharbat so'radi.

Yozganda ikki qanot,
Xuddi ko'kda samolyot.
Juda beozor o'zi,
Attangki, gung, yo'q so'zi.





Ovunchog'im ninachi,
Sen — quvonchim, ninachi.
Bog'imizda uchib yur,
Gullarimni quchib yur!

Dilshod RAJAB

CHUMOLI


Doim uyga bir nima
Tashigani-tashigan.
Yaxshiyam, mittigina,
Filday emas, yaxshiyam...

Qambar OTA

XIRMON BO'LAR

Yo'l chetidan Chumoli
Bitta don topib oldi.
Orzular ummoniga
Bir zumda bota qoldi:

— Eksam, kelasi yilda
Hovuch to'la don bo'lar.
Ko'z quvnatib hosili
Kattakon xirmon bo'lar.



**Anvar OBIDJON****JANGCHI CHUMOLI**

O'tyurak yosh chumoli
Jangga ketdi.
Minib olib Qo'ng'izga,
Tankda ketdi.

Samolyotdek keldi-yu
Ochko'z Hakka,
Hujum qildi havodan
Qo'qqis tankka.

O'lja bo'ldi Qo'ng'izvoy,
Tugadi jang.
Tanksiz qolgan jangchining
Ahvoli tang.


Xafa bo'lib Chumoli
Qaytdi ortga.
Qiyin ekan bas kelish
Samolyotga.

Solijon XUDOYOROV**QIRQOYOQ VA QIRQ PAYPOQ**

— Qirqoyoqjon, — debdi Fil, —
Oqshom mehmonga kelgil,
To'kib ko'ngilda borin,
Yozaylik dil xumorin.



Qirqoyoq “ma’qul” debdi,
Tez yo‘l g‘amini yebdi.
Yuvibdi qirq oyog‘in,
Kiyibdi qirq paypog‘in.
Shippaklarin artibdi,



Xush ko‘rarkan tartibni.
Vaqt-chi, o‘tibdi chaqqon.
Yo‘lga chiqquncha “mehmon”,
Filboy kutib tolibdi,
Oxir uxlab qolibdi.

“OQ AYIG‘IM, OQ AYIQ...”

Yovvoyi hayvonlar haqida

Asqad MUXTOR

KENGURU

Kenguru bolasining
Manglayi tirtiq ekan:
Tushib qopti —
Onasining
“Cho‘ntagi” yirtiq ekan.





Qutbi NOSIROVA



KENGURU

Lapashang, deb o'ylamang,
Bo'lmasa-da nishoni,
U hakkalab chopishda
Hayvonlar "chempioni!".

OQ AYIQ

Oq ayig'im, oq ayiq,
Qor kabi oppoq ayiq.
Hansiraydi, oftobga –
Tobi yo'q, chanqoq ayiq.
Oq ayig'im, oq ayiq,
Qor kabi oppoq ayiq.
Chanqog'ingni bosib ol,
Mana, muzqaymoq, ayiq.
Qulog'i ding, ayiqvoy
Ochdi birdan ko'zini:
– Qaymog'ini o'zing ye,
Bergin menga muzini!



Meli BOBOQULOV

OLMAXON

Baland daraxt shoxidan
Sakrab tushdi olmaxon.
Uni ko'rib Shohida:
Voy, bu ne, — der, —
Oyijon?



- Bu — Olmaxon.
- Voy, nechun,
Olma bersam, boqmadi?
- Olma emas, yong'oqni
Maza qilib chaqadi.

Asqad MUXTOR

TOSHBAQA


Endi uch yuzga kirdim,
Hali men yoshman.
Shoshmayman, tashvishim yo'q,
Chunki men toshman.



Raim FARHODIY

PARISHONXOTIR TIMSOH

- Ha, yo'l bo'lsin, Timsohvoy?
- Do'konga borgan edim.
Bolalarga marmelad, limonad,
Murabbo olgan edim.
- Qani o'sha narsalar, Timsoh botir?
- Yedim-qo'ydim, shirin ekan-da, axir...





Aziz ABDURAZZOQ

O'RMONDA

Yig'lar maymun bolasi:

— Ushlab oldim tikanni.

Undan so'rar onasi:

— Ko'rsat, u tikan qani?!

— Huv ana, — der bolasi, —

Maysazorga kirdi u.

— Ey, nodon! — der onasi, —

U tikanmas, kirpi-ku!





Jahon bolalar she'riyati

Narimon BOQIZODA
(Tojikiston)

CHUMCHUQLAR QARORI

Chum-chaqa! Chum
Chum-chaqa!
Chum-chaqa!
Chuq!

Don ekdi bobo Chumchuq.
Ota chumchuq tortdi pol,
Onasi qildi shudgor,
Akasi-chi, sepdi don,
Opasi-chi — qo'riqbon.
Chum-chaqa!
Chum-chaqa!
Chum-chaqa!
Chuq!

Ish qilmadi yosh chumchuq
Chum-chaqa!
Chum-chaqa!
Chum-chaqa!
Chuq!

Don ekdi bobo Chumchuq!
Tariq ekdi otasi,
Xirmon qildi onasi.
Bog' bog'ladi akasi,
Qop to'qidi opasi,
Chum-chaqa!
Chum-chaqa!
Chum-chaqa!
Chuq!





Ish qilmadi yosh chumchuq!
Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chuq!

Don ekdi bobo Chumchuq!

Un tortib keldi otasi,

Xamirni qordi onasi.

Akasi qildi zuvala,

Opasi yopdi zog'ora.

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chuq!

Ish qilmadi yosh chumchuq.

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chuq!

Don ekdi bobo Chumchuq!

Otasi yoydi dasturxon,

Onasi qo'ydi kulcha non,

Akasi qo'ydi tariqchoy,

Opasi qo'ydi sariqmoy!

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chuq!

Davruga kirdi yosh chumchuq!

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chum-chaqa!

Chuq!



Aleksandr Sergeyevich PUSHKIN
(Rossiya)

QISH OQSHOMI

Ko'kni qoplab qora bo'ron,
Qor quyunin buraydi;
Goh uvillar misli hayvon,
Goh boladay yig'laydi.
Goh shitirlar somon kabi
Putur yetgan oq tomda,
Goh darchani inson kabi
Tiqirlatar oqshomda...



Nuri BAYRAMOV
(Turkmaniston)

VATAN

Vatan demak — nima
demak?

Sahar esgan mayin yel u,
Endi chiqqan niholdir.
G'unchadir u,
Toza gul — u.
Vatan demak — nima

demak?



Gulchehra SULAYMONOVA
(Tojikiston)

SUV QAYERDA YASHAYDI?

Bog' oshib,
Chorbog' oshib,
Goho qirg'oqdan toshib,
O'tib maktab bog'idan,
Qaygadir borar shoshib
Pildir-pildir jilg'acha,
Chuldir-chuldir jilg'acha.
Kunduzi shod qiqirlab;
Jilolanib ming tusda,
O'tib borar ohista,
Mohnoralar bog'idan,
Sayyoralar bog'idan
Pildir-pildir jilg'acha,
Chuldir-chuldir jilg'acha.
Ko'z ilg'amas qush misol,
Tongda chug'urlar xushhol.
Rahshonalar bog'ida,
Jononalar bog'ida
Qiqirlaydi tinimsiz,
Pildiraydi qo'nimsiz.
– Uying qayda? Ayta qol,
Olis ketmay, qayta qol! –
Desak ki prik qoqmasdan,
Yon-veriga boqmasdan
Chopib ketdi ilgari,
Qayda ekan uylari? –
Deya izlay boshladik,
Ne dovonlar oshmadik.
Bog' oshib,





Chorbog' oshib,
Hatto bir bor adashib,
Bir zum to'xtamay chopdik,
Oxiri tog' ostida,
Baland qoya pastida
Shaffof uyini topdik.

Fozil Husnu DOG'LARJA
(Turkiya)

KO'ZOYNAK

Hamma narsa ayqash-uyqash,
G'alati, xira.
Buvimlarning ko'zoynagin
Taqmayman sira.
Ko'rinmadi biron narsa —
Na tog', na ungir.
Qanday yurar uni taqib
Buvim tushmagur?



Agniya BARTO
(Rossiya)

TOYCHOQ

Toychog'imni sevaman,
Yolin silab har onda.
Taroq-la dumin tarab,
Minib borgum mehmonga.

O'zbek bolalar hikoyalari

Farhod MUSAJONOV

TO'LAB BER

Marhamat opa Salimani yuvib-tarab, yangi kiyimlarini kiygizibdi.

— Bugun seni mehmonga olib boraman, ularning sen tengi Shahlo degan qizi bor, birga o'ynaysizlar, — dedi.

Salima o'zida yo'q xursand bo'lib ketdi. Qutichani ochib, o'zi tikkan kashtani oldi.

— Shahloga beraman, — dedi oyisiga qarab. Ona-bola o'tlanib, yo'lga tushishdi.

Uy egalari mehmonlarni juda yaxshi kutib oldilar. Salima Shahloga sovg'asini berdi. Shundan keyin ikkala qizaloq birpasda inoq bo'lib ketishdi.

Kattalar o'zlari bilan o'zlari ovora edilar. Salima bilan Shahlo hovliga chiqib, oldin quvlash-machoq o'ynashdi. Keyin bir-birlariga yod biladigan she'rlarini aytib berishdi.

— Kel, bog'cha-bog'cha o'ynaymiz, — deb qoldi Shahlo.

— Bo'пти, — dedi Salima. — Qo'g'irchoqni qayerdan olamiz?

Shahlo uydan katta qo'g'irchoq olib chiqdi.

— Men murabbiya bo'laman, — dedi Shahlo.

— A, men doktor bo'laman, — dedi Salima.

Dugonalar qo'g'irchoqni cho'miltirishdi, kiyintirishdi. Ovqatdan keyin yotqizib uxlatishdi. Undan keyin davra qurib, o'yinga tushishdi. Salima qo'g'irchoqni bag'riga bosib aylanayotgan edi, qoqilib, yiqilib tushdi. Tagida





qolgan qo'g'irchoq pachaq-pachaq bo'lib ketdi. Shahlo qo'g'irchoqni ko'rdi-yu, dodlab yig'lab yubordi.

— To'lab ber, hozir to'lab ber, qo'g'irchog'imni, — deb yer depsinib qichqirdi u.

Tizzalari shilinib ketgan Salima og'riqni ham unutib, dovdirab qoldi. Shahlo hamon tinmasdan uvvos ko'tarardi. Salima nima qilishini bilmay, cho'ntaklarini kavlati, o'yinchoq soati bor ekan. Shahloga uzatdi:

— Qo'g'irchoqning o'rniga shuni ola qol.

— Kerak emas. — Shahlo soatni uloqtirib tashladi. — Qo'g'irchog'imni to'lab ber! To'lab ber, deyapman senga! — U shang'illab hovlini boshiga ko'tardi.

Shovqinga onalari yugurib chiqishdi. Voqeani eshitib, Shahloni ovutmoqchi bo'lishdi. Shahlo esa battaroq qildi, yerga dumalab yig'ladi. “Konfet beramiz, bundan yaxshiroq boshqa qo'g'irchoq olib beramiz”, — deyishsa ham, ko'nmadi. Salima boshini ko'tarolmay, yerga tikilganicha qoldi.

Shahlo rosa dodladi. Oxiri oyisi bir amallab tinchitdi.

Shundan keyin Salima bilan oyisi mehmonda yana birpas o'tirishdi.

Salimani qancha zo'rlashsa ham, hech narsa eya olmadi.

“Ketamiz, oyijon”, — deb surkalaverdi.

Keyin Salima va oyisi mezbbonlar bilan xayrlashib, uylariga qaytishdi. Yo'lda ketayotganlarida Salima, ikkala ko'zida jiqqa yosh, oyisiga termilib:

— Oyijon, endi men hech mehmonga bormayman, — dedi.

PAHLAVON VA NIMJON

Akbar — mahallada eng kuchli bola. Endi o'n birga kirgan bo'lishiga qaramay, bo'y-basti yirik. Ko'rganlar u to'qqizinchi yoki o'ninchi sinfda o'qisa kerak, deb o'ylaydi.

Akbar har kuni bolalarni atrofiga yig'ib olib, kuchini ko'z-ko'z qilardi: bitta bilagiga Xidiralini, ikkinchisiga Murodjonni osiltirib, chirpirak qilib aylanti-rardi. Hamma bolalar unga hayratlanib tikilishardi. Jussasi ham juda kelishgan,



havas qilsa arzirli edi. Lekin achinarlisi shunda ediki, futbol o'ynaganlarida u, nimjonsan, deb Xidiralini hech qo'shmasdi.

— Birov bilmasdan turtib yuborsa, yiqilib tushasan, — deb kalaka qilardi Xidiralini. — Menga duch kelib qolsang-ku, mayib qilib qo'yishim ham hech gap emas.

Akbarning bu gapi to'g'ri edi. U himoyachi bo'lib o'ynardi, hujumchilar unga yaqin yo'lagani qo'rqishardi, chunki, o'zi aytganidek, birovni bir turtib uchirib yuborardi.

Shunday qilib, bolalar futbol o'ynayotganlarida Xidirali bir chekkaga chiqib, tomosha qilib turardi.

Mana, bugun ham u tomoshabin edi, o'yin eng qizigan paytida Akbar bir tepib, to'pni yorib qo'ydi.

— Mayli, xafa bo'lmanglar, zerikib qolmaslaring uchun senlarga boshqa o'yin ko'rsataman,— e'lon qildi Akbar. — Faqat tarqab ketmanglar, men hozir chiqaman.

U lapanglab yurib, hovlisiga kirib ketdi. Hademay o'n olti kiloli qayroq tosh ko'tarib chiqdi.

— Qani, davrani kengroq olinglar, tomosha boshlanadi, — dedi. Keyin toshning dastasidan olib, bo'yi barobar otib, o'ynay boshladi.

U har xil mashqlar ko'rsatardi, toshni chap qo'lida chirpirak otib, o'ng qo'lida ilib olar, keyin teskarisiga — o'ng qo'lida otib chapida ilardi. Har tosh otganida bilak, yelka, ko'krak paylari bo'rtib chiqardi.

Kutilmaganda chinqiriq eshitildi. Hamma ovoz kelgan tomonga qaradi: to'rt yoshlardagi kichkina qizaloq qo'li bilan ko'chaning etagiga ishora qilib chinqirardi:

— Kuchuk kelyapti, tishlab oladi, voy!

Bolalar qarashsa, Nusratlarning iti yechilib ketibdi... U bo'ynidagi uzilgan zanjirini sudrab, bolalar tomon shataloq otib kelardi. Zum o'tmay, bolalar g'oyib bo'lishdi. Yaqin bo'lgani uchun Akbarning hovlisiga o'zlarini urib, eshikni yopib olishdi.

Hamon bir chekkada turgan Xidirali yugurib qizaloqning oldiga bordi, yelkasidan quchib, yupatdi:

— Qo'rqma, tishlamaydi. U aqlli it, tegmasang tishlamaydi.



It xuddi quturgandek irrilagancha bostirib keldi. Xidirali bilan qizaloqning atrofida irg‘ishlab, bir-ikki aylandi-da, yana shataloq otgancha, ko‘chaning u boshidan-bu boshiga yugura boshladi. Qizaloq Xidirali mahkam yopishib olgancha dag‘-dag‘ qaltirardi.

— Tegmaydi bizga dedim-ku, — ham o‘ziga, ham qizaloqqa dalda berardi Xidirali.



Nusratlarnikidan oqsoqlanib, shoshilgancha bir odam chiqdi. U itni yoniga chaqirib, zanjiridan ushlab oldi-da, hovliga kirib ketdi.

Xidirali qizaloqdan qayerda turishini so‘radi, keyin qo‘lidan yetaklab, uyi tomon yo‘l boshladi.

Akbarlarning hovlisi yonidan o‘ta turib, eshikni taqillatdi.

— Akbar, toshingni ol, ko‘chada qolib ketdi, — dedi Xidirali.

Ostonada pisib turgan Akbar sekin eshikni ochib, boshini chiqardi. It daf bo‘lganini ko‘rib, ko‘chaga chiqdi. Orqasidan qolganlar ham ergashdi. Akbar ko‘kragini kerib, qizaloqqa ishora qildi:



— Qayerdan paydo bo'ldi bu tirrancha? Kimning qizi ekan? — so'radi do'q aralash.

— Yangi ko'chib kelgan qo'shning qizi, — bolalardan kimdir luqma tashladi.

— Senga baribir emasmi kimning bolasi ekanligi, — dedi Xidirali.

— Baribir-u, lekin juda vahimachi ekan. Chinqirib, odamning o'takasini yorvoray dedi-ya! — o'dag'ayladi Akbar.

— Hali kichkina-da, katta bo'lsa, vahima qilishni tashlab, sendek “dovyu-rak” bo'lib ketar, — kulimsirab javob qildi Xidirali.

Yayra SA'DULLAYEVA

HOZIR, BUVIJON!

Dilbar maktabidan keldi-yu, apil-tapil choyni ichdi. Stol ustini naridan beri yig'ishtirgan bo'lib, ko'chaga yugurdi.

— Qayoqqa, qizim? — so'radi Malika xola nabirasining indamay chiqib ketish odatini bilgani uchun.

— Hozir, buvijon, — dedi, ko'cha eshikka yaqinlasha turib Dilbar.

Buvijonisi orqasidan: “Tezroq kel!” — deb qoldi va chala artilgan stol ustini boshqatdan artdi. Keyin erinibgina yog'ayotgan qordan oqarib qolgan yo'lkani supurib qo'ydi. Krandan suv burab, paqirlarni to'ldirdi, oshxonaga eltdi. “Bolam tushmagur-ey, kap-katta bo'lib qoldi-yu, nima qilarkin, bilib-bilib ish qila qolsa! Hatto, ovqat yegan idishini ham yuvmaydi. “Hozir”, deydi-yu, lip etib g'oyib bo'ladi”, — dedi o'ziga-o'zi.

Malika xola katta naqshinkor darvozadan ko'chaga qaradi. Chuvillashib o'ynayotgan bir to'da bolalar orasida Dilbar ham bor edi.

Malika xola bir-ikki qadam bosib, nabirasini chaqirdi:

— Dilbarxon, hoy, Dilbarxon!

Dilbar bir qaradi-yu: “Hozir, buvijon!” — deb yana o'yinga tutindi.

— Kela qol, yordamlashib yubor, qizim! — dedi Malika xola yalingansimon. Bu so'zlar Dilbarning qulog'iga kirdimi-yo'qmi, har qalay, u buvisining gapini javobsiz qoldirmadi:

— Hozir, buvijon!



Malika xola hovlisiga kirib ketdi. Yerto‘ladan kartoshka, piyoz olib chiqdi. Un eladi. Xamir qordi. Xamirni kelini kelganda qilsa ham bo‘lardi-yu, uni ayadi. Axir, Dilbarning oyisi ishdan charchab keladi-da.

Oradan ancha-muncha vaqt o‘tdi. “Hozir” degan qizchadan hamon darak yo‘q.

Malika xola yana ko‘cha eshigidan mo‘raladi. Tavba, Dilbar qayoqqa ketdikin? Bolalar ham siyraklashib qolishibdi. Malika xola bolalardan so‘radi. “Lolalarnikiga ketdi”, — deyishdi. “Chaqirib bera qol, bolam”, — dedi Malika xola ulardan biriga. Bola yugurib bordi-yu, yugurib keldi:

— “Hozir”, dedilar.

Malika xola chiqib qolar, deb kutib turdi. Chiqmadi. Oradan ancha mahal o‘tgach, qo‘lidagi qo‘g‘irchoqning ro‘molini to‘g‘rilab, bitta-bitta qadam bosib, Dilbar bilan o‘rtog‘i kela boshladi. Oshxona oldidan o‘tib ketayotgan edi, buvisi: “Kela qol, qizim, kartoshka artib yubor”, — dedi xafa bo‘layotganini yashirishga urinib.

— Hozir, buvijon! — shunday dedi-yu, Dilbar o‘rtog‘ini boshlab uya kirib ketdi. O‘rtog‘inikidan olib chiqqan qo‘g‘irchoqni karavotiga yotqizdi, ustiga oq choyshab yopdi. Qulog‘iga yana buvisining ovozi chalindi. Mayingina qilib: “Hozir, buvijon!” — dedi.

Bolalar, Dilbarning xatti-harakatlarini siz qanday baholaysiz? O‘zingizdan kattalar chaqirishganda “labbay”, deb oldilariga borasizmi? Yoki...

Mahmud MURODOV

IKKI XIL YORDAM

Bir xotin sabzavotlar solingan og‘ir to‘rxaltasini ko‘tarib kelayotgandi. Orqadan ketma-ket ikki bola, ularning ketidan bir chol kelmoqda edi. Bir mahal to‘rxaltadan bir kartoshka tushib, dumalab ketdi.

— Xola, kartoshkangiz tushdi, — deb birinchi bola o‘tib ketaverdi. Ikkinchi bola hech narsa demadi-yu, yerdagi kartoshkani olib, to‘rxaltaga soldi. Orqadan yetib kelgan chol bolaga:

— Baraka top, bolam, — dedi.





Shunda birinchi bola to'xtab:

— Bobo, menga hech narsa demadingiz? Axir, men ham xolamga “kartoshkangiz tushdi”, deb aytdim-ku, — dedi.

Bobo unga javob berish o'rniga ikkinchi bolaning elkasiga qoqib:

— Ota-onangga rahmat, bolam, — dedi.

SENING GALING

Fotima bilan Zuhrani taniysizmi? Ikkovi ham juda yaxshi kiyinib, top-toza yuradi. Chunki oyisi Bashira xola ularni har kuni yuvib-taraydi, dadasi keltirgan guldor, chiroyli matolardan bejirim kiyimlar tikib beradi. Qo'ng'iroq sochlariga qi p-qizil lenta bog'laydi.

Bu lentalar xuddi gulga qo'ngan kapalaklarni eslatadi. Lekin...

Nima bo'ldi-yu, tiyg'anoqda Bashira xola zinadan yiqilib tushdi. Voy-voylab oyog'ini ushlaganicha o'tirib oldi. Uni avaylab uyga olib kirishdi. Tez yordam mashinasini chaqirishgan edi, u Bashira xolani kasalxonaga olib ketdi. Ona ancha kundan keyin qaytib keldi, oyog'i gipslangan, doka bilan chirmab bog'langan edi. Uni karavotga yotqizib qo'yishdi. “Gipsni bir oydan keyin olib tashlaymiz”, deyishibdi do'xtirlar.

Bechora Bashira xola o'rnidan zo'rg'a turadi, zo'rg'a o'tiradi, zo'rg'a yotadi. Yotgan joyida Fotima bilan Zuhra ning sochlarini taraydi, lentasini bog'lab bog'chaga qo'g'irchoqdek qilib yasantirib yuboradi.

Bir kuni Bashira xola Fotimaning paypog'ini sitilgan joyini to'qib berayotgan edi, g'altak ipi pastgatushib ketdi.

— Ipni olib beringlar, — dedi Bashira xola qizlariga.

Bu payt Fotima bilan Zuhra kubiklardan alohida-alohida uy qurib o'tirishgan edi.



— Sen olib ber, sening paypog‘ing, — dedi Zuhra.
— Sen olib ber, sening galing, — dedi Fotima. — Hali “suv” deganlarida men quyib berganman.
— Yo‘q, sening galing!
— Yo‘q, sening!
Fotima bir urib Zuhraning uychasini buzib yubordi.
— Sening galing!
Zuhra ham yig‘lab turib, Fotimaning uychasini bir tepdi.
— Bor, bor, sening galing!
Bular janjallashib bo‘lguncha Bashira xola inqillab-sinqillab karavotdan tushdida, g‘altak ipni olib ishini davom ettirdi.

Nosir FOZILOV

QUYONCHA

Dalada ish qizg‘in. Traktorlar yer haydamoqda. Mirtoji aka traktorчилarga yordamchilik qilmoqda. Uning o‘g‘illari Bektosh va Hoshim maktabda o‘qiydi.

Bir kuni onasi o‘g‘illarini bir ish bilan Mirtoji akaning oldiga yubordi.

Bolalar yo‘lga tushdilar... Keng, bepoyon dala... hammayoqda ko‘klam nafasi... Bolalar atrofni tomosha qilishar, zag‘cha galalariga kesak otishar edi. Bektosh otgan bir kesak shudgor chekkasidagi qalin olabutaga borib tushdi. Olabuta ichidan bir kichkina quyoncha hurkib, sakrab chiqdi. Bolalar hayqirishib, quyonchaga otilishdi. Bechora quyon shoshganidan haydalgan yerga qochdi. Bektosh unga yetib oldi. Hoshim ham yetib kelib:

— Vuy, kichkinaligini, — dedi havasi kelib.

Bektosh tutib olgan quyonchasini otasiga ko‘rsatdi. Otasi quyonchani asta qo‘liga oldi. Quyoncha juda yosh, yungi momiqdek, o‘zi oriq edi. Otasi quyonchani asta-asta siladi:

— Voy, bechora-yey, yaqinda tug‘ilgan ekan. Uyasini traktor buzibdi-da, — dedi u. Keyin bolalariga qarab: — Onasi izlab yurgandir...

Bolalar quyonchani avaylab o‘z joyiga eltib qo‘ydilar.



Hamid JALOLOV

KARIM CHUMOLINING TILINI BILARKAN

Bugun bolalar bog'cha opalari bilan dalaga chiqishdi. Bahor emasmi, hammayoq ko'm-ko'k libosga burkangan, kishining bahri-dili ochiladi. Atrofdagi chuchmoma, gunafshalarni aytmaysizmi, darrov bolalarni o'ziga rom qilib oldi. Chug'urlashganlaricha gul terishga tushib ketishdi. Karimning ham quvonchi behad. Chunki u tabiatni juda sevadi. Kim bilsin, balki otasining tabiat o'qituvchisi bo'lgani uchundir. Balki u ham akasi singari tabiat sirlarini o'rganuvchi geolog bo'lmoqchidir.

Ana, u bir to'p lolalar qarshisida turib qoldi. Birdan chehrasidagi quvonch o'rnini hayrat egalladi. Lola tagida g'uj-g'uj chumoli, tinim bilmay yugurishardi. "Ajoyib-a bu chumolilar. Doim shoshilganlari-shoshilgan. Og'izlarida nimalar bo'lmaydi: bug'doy, cho'p, nonushoq..."

Karim chumolilarga uzoq tikilib qoldi. Keyin o'rnidan lip etib turdi-yu, nariroqda lolalardan guldasta qilayotgan Nodirani chaqirdi.

— Nima deysan? — dedi Nodira istar-istamas.

— Bilasanmi, hozir yomg'ir yog'adi, — dedi Karim.

Nodira osmonga qaradi. Oftob ko'zini qamashtirdi.

— Seni qara-yu, vahima qilasan-a! Oftobni qara, havo issiq.

Karim:

— Mana, ko'rasan, yomg'ir yog'adi. Chumolilar o'z ishlarini berkitishyapti, — dedi.

Karim to'g'ri aytgan edi. Sal o'tmay osmonni quyruq bulut qopladi. Keyin rosa jala quydi. Bolalar o'zlarini panaga olishar ekan, Nodira sekin Karimga qarab: "Qiziq, Karim chumolilar tilini bilar ekan-da" deb qo'ydi.



O'tkir HOSHIMOV

AKULA KELMADI

Doniyor suzishni bilmasdi. O'rtoqlari cho'milsa, u kiyimlarga qorovul bo'lib o'tirardi. Hozir ham suzishni bilmagan bo'lardi-yu, Anvar maqtan-choqlik qilgani uchun ataylab o'rganib oldi.

Bir kuni Doniyor tog'asining mehmoniga bordi.

— Yur, cho'milib kelamiz, — dedi tog'asining o'g'li Anvar.

— Men suzishni bilmayman-da, — dedi Doniyor.

— Nima qilibdi, men cho'milaman, sen qarab turasan.

Tog'asi, Doniyor, Anvar — uchovlari qishloq chetidagi anhor oldiga borishdi. Anvar maykasini yechdi-da, bir kalla tashlab, anhorning narigi betidan chiqdi.

— Maza! — dedi tizzasiga shapatilab. — Suv muzdekkina ekan.

Doniyorning juda havasi keldi, o'zi ham Anvarga o'xshab suvga sakragisi keldi-yu, qo'rqdi. Anhor kattagina edi-da.

Shu payt Anvar yana bir kalla tashladi-yu, suvning bu betidan chiqdi. Chopib kelib, Doniyorning oldiga — issiqqina qumga yotib oldi.

— Chuqur ekanmi? — deb so'radi Doniyor.

— Vuy, rosa chuqur!

— Suvning tagida nimalarni ko'rding?

— Suvning tagidami... — Anvar

o'ylanib qoldi. — Suvning eng tagida-chi, akulani ko'rdim!

— Voy, yolg'onchi, akula dengizda bo'ladi-ku!

— Hecham-da! O'zim ko'rdim.

— Nimaga bo'lmasa akula seni yeb qo'ymadi?

— Kichkinaroq akula ekan! — Anvar qo'lini yozib ko'rsatdi. — Mana shunday akula edi!

Doniyor bari bir ishonmadi:

— Yolg'on.

— Rost.





— Yolg'on!
— Rost! O'zing suvga tushishga qo'rqasan-ku, meni yolg'onchi deysan.
Qo'rqoq!

Doniyorga juda alam qildi. Maykasini yechib tashladi-da, tap etib suvga sakradi. Darrov og'ziga suv kirib, nafasi qaytib qoldi. U qo'rqib ketganidan oyoq-qo'lini jonholatda chapillata boshladi. Shu payt allakimning qo'llari uni suvdan tortib oldi. Doniyor qarasa, tog'asi ekan. U tog'asining bo'yniga mahkam osilib oldi. Yig'lamoqchi edi-yu, Anvardan uyaldi.

— Qo'rqma! — dedi tog'asi. — Men seni ko'tarib turaman. Avval qo'lingni, keyin oyog'ingni suvga urib harakat qilasan. Shoshma, qo'ling bilan suvni orqaga surgin. Ana shunday... Yaxshi!

Doniyor tog'asi ushlab turgani uchun, endi hecham qo'rqmadi. Oyoq-qo'lini tipirlatib, suzishni mashq qila boshladi.

— Endi bo'ldi, — dedi tog'asi. — Bugunga yetadi. Suzishni sekin-sekin o'rganish kerak. Keyin-chi, o'rganayotganingda oldingda, albatta, katta odam bo'lishi kerak.

— Qani akula, yo'q ekan-ku! — dedi Doniyor Anvarning yoniga kelib.

— Seni ko'rib qochib ketdi-da. Ertaga yana keladi.

Ular ertasiga yana cho'milishga kelishdi. Tog'asi Doniyorni ushlab turdi. Doniyor oyoq-qo'lini silkitib suzayotganida tog'asi uni sekin qo'yib yubordi. Doniyor yana avvalgidek cho'kib ketaman, deb qo'rqqan edi. Yo'q, bu gal cho'kmadi. Og'ziga suv ham kirib ketmadi.

Uchovlari indiniga ham, undan keyin ham cho'milishga kelishaverdi. Faqat Anvar aytgan akula kelmadi. Shu bahona bilan Doniyor suzishni o'rganib oldi.

Karim RAHIM

XO'ROZQAND

Xolida opa o'g'li Jur'at bilan uning o'rtog'i Salimni uyga qo'yib, o'zi bozorga ketdi. Bolalarga: "To'polon qilmay o'tiringlar, agar yaxshi bola bo'lib o'tirsanglar, ikkalovingga xo'rozqand olib kelaman", — deb tayinlab ketdi.





Avval ikki o'rtoq jimgina o'ynab o'tirishdi. Lekin qo'shnilarining o'g'li Olim chiqdi-yu, ishni buzdi.

Uning qo'lida yong'oqdek yaltiroq zoldir bor edi. Olim: "Zoldirim juda uzoqqa dumalaydi", — deb maqtana boshladi. Buni ko'rib Jur'at bilan Salim ham cho'ntaklaridan zoldirlarini olishdi. Ular kimning zoldiri uzoqqa dumalash o'ynay boshlashdi. Biroq Jur'atning zoldiri uyning yarmiga borib, to'xtab qoldi.

— Va-a, maqtagan zoldiring shumi? — deb masxara qilib kuldi Olim.

Bu Jur'atga juda alam qilib ketdi. U o'ylab-o'ylab, oxiri:

— Zoldirim yerda dumalashga o'rganmagan. Osmonga otsam-chi, uzoq-uzoqqa ham boradi. Mana, ko'rib qo'yinglar, — dedi.

Jur'at zoldirini bor kuchi bilan shipga otmoqchi bo'ldi-yu, qo'lidan chiqib ketib tokchada turgan gulli choynakka tegib, chilchil qilib yubordi. Qo'rqib ketgan Jur'at nima qilishini bilmay turib qoldi. Shunda Olim:

— Tez bo'l, sinig'ini ko'chaga tashlab yuboramiz. Oying ko'rsalar, urishadilar, — dedi.

Bolalar shoshib-pishib choynakning sinig'ini yig'ishtirishayotganda, Xolida opa kelib qoldi.

— Choynakni kim sindirdi? — deb so'radi bolalarga qarab onasi. Jur'at nima deyishini bilmay, dovdirab qoldi.

— Choy-choynakni, oyi, haligi, o'zi sindi... Ha, o'zi sindi. Rost, — dedi.

Jur'at sekin yer ostidan o'rtoqlariga "aytmanglar", deganday ishora qildi. Buni sezib turgan Xolida opa shunday dedi:

— O'zi singan bo'lsa, nima ham derdim. Lekin juda qiziq bo'libdi-da! Choynak ham o'zidan-o'zi sinar ekanmi?

— Ha, o'zidan-o'zi sindi, — dedi Jur'at tetiklanib. Onasi boshqa gap aytmay, qo'lidagi narsalarni qo'ygani qo'shni xonaga o'tib ketdi. Jur'at onasi





urishmaganiga suyunib, chapak chalib yubordi. Shu payt Xolida opa bolalarga xo'rozqand olib chiqdi. Olim bilan Salimdagi xo'rozqandning tojlari butun, Jur'atdagisining esa yarim tojisi yo'q edi.

— Oyi, oyi, nega menga boshi singan xo'rozqand olib keldingiz? — dedi Jur'at.

— Olganimda butun edi, o'zidan-o'zi sinib qolibdi-da.

— O'zidan-o'zi ham sinadimi?

— Axir, tokchada turgan choynak o'zidan-o'zi singandan keyin, bu ham sinadi-da.

Jur'at yerga qaradi va sekingina:

— Choynakni zoldirim sindirgandi, — deb qo'ydi.

Turg'unboy G'OYIPOV

SEHRLI QALAM

*A*lijon dadasi bilan tog'asinikiga mehmon bo'lib boribdi. Tog'asi rasm chizayotgan ekan. U chizgan olmalar xuddi tebranib, uzilib tushay deb turgandek, qushlar bo'lsa xuddi sayrab yuborayotgandek tuyulibdi.

Ularga qarab Alijonning juda zavqi kelibdi. “Iya, bu ajoyib qalam ekan-ku! Bunday qalamni qayerdan topsa bo'larkan?” deb o'ylabdi.

Oxiri Alijon:

— Tog'a, qalamingizni berib turing! Birpas turib keltirib beraman, — debdi.

Rassom: “Qani, jiyanim qalamni nima qilmoqchi ekan?” deb o'ylabdi-da:

— Ha, mayli, ola qol, — debdi.

Alijon qalam bilan qog'oz olib ko'chaga yuguribdi. U bolalarga qalamni ko'rsatib:

— Bolalar, ko'rdingizmi, mana bu sehrlil qalam, — deb maqtanibdi. — Xohlagan narsalaringizni qoyil qilib chizib tashlaydi. Qani, aytinglar, nima-ning rasmini chizib beray?

Bolalar hovliqib:



— Paravozning rasmini chiz... otning chiza qol, o'rdak chizib ber. Tarvuzni chiza qol? — deb chuvillabdi.

Alijon:

— To'xtanglar, hozir sizlarga otning rasmini chizib beraman, — deb chiza boshlabdi. Lekin chizgan rasmi sira otga o'xshamabdi. Alijon qattiq xijolat bo'libdi. “Bu qalamga nima bo'ldi, chiza olmayapti-ku?” — deb hayron bo'libdi. Shu vaqtda bolalar yoniga rassom tog'asi kelibdi. U Alijonga qarab kulibdi.

— Qalamga hech narsa bo'lgani yo'q. U qalamligicha turibdi. Bunday qalamlar hammada ham bor. Biroq yaxshi rasm chizish uchun ko'p mashq qilish, o'qish, o'rganish kerak. Gap qo'lingning chizishga o'rganmaganida, xolos, — debdi.

Hamma bolalar:

— To'g'ri, dunyoda sehrli qalam yo'q, lekin usta qo'llar ko'p. Gap qo'lni o'rgatishda! — deb qichqirishibdi.

Shu kundan boshlab Alijon har kuni qo'lga qog'oz, qalam olib rasm chizadigan bo'libdi. Shunday qilib, hozir Alijon rasm chizishda tog'asidan qolishmas emish.

SHUHRAT

ZAYNABNING MUSHUGI NEGA ARAZLADI?

Zaynab bir kuni qishda ko'chaga chiqsa, eshigi tagida mushuk bolasi turibdi. Zaynabni ko'rishi bilan “Menga rahming kelsin, men sovuqda qoldim, uyingga kirit, isinay!” degandek cho'zib “miyov” debdi. Zaynab bundoq qarasa, chiroylikkina mushukcha, “ortiqcha bo'lsa, birov tashlab ketgandir” dedi-da, uni ko'tarib uyiga olib kirdi...

Zaynab uni yaxshi parvarish qildi, mushuk ham unga tezda o'rganib ketdi... Oila ovqatlanishga o'tirsa, dasturxon yoniga kelib suqatoylik qila bermas, “aqlli” edi... Shu taxlitda uch yil o'tdi. Bu orada Zaynab maktabga boradigan bo'ldi. Ro'zg'orda onasiga yordam beradigan bo'lib qoldi.

Bir kuni onasi maktabga ota-onalar majlisiga keta turib:



— Qizim, stoldagi idish-tovoqlarni yig'ishtirib qo'y, — dedi.


— Xo'p, oyijon! — dedi Zaynab...

Zaynab sevinib idish-tovoqlarni yig'ishtirdi, yuvdi, artdi, lekin joy-joyiga qo'yayotganida qo'lidan bir kosa sirg'anib tushib ketdi va chil-chil sindi. Qanday qilib tushirib yuborganini o'zi ham bilmay qoldi.

Endi onasiga nima deydi? U o'ylanib qoldi... "Mushuk tushirib yubordi" deyman. Saldan keyin onasi keldi. Zaynab kosaning singaniga xuddi shunday vaj ko'rsatdi. Ona biroz xafa bo'lib, mushukni qarq'adi. Hatto musht ko'tarib urmoqchi bo'ldi. Lekin ertasiga qiziq hodisa ro'y berdi. Odatda, Zaynab nonushta qilganda mushukka ham ovqat berardi, bugun ham shunday qildi, ammo mushuk qayrilib ham qaramadi... Maktabdan kelib, ovqat bergan edi, u yana yemadi. Ertasiga yana shunday bo'ldi, hatto Zaynabning yoniga ham kelmaydigan bo'lib qoldi.

— Sendan arazlabdi mushuging! Zaynab, nimadan xafa qilgan eding uni, — dedi onasi.

— Hech narsadan! — dedi-yu, shu zamon mushugiga tuhmat qilib, unga ozor berib qo'rganini sezdi. Bu ishidan xafa bo'lib, bir-ikki kun qiynalib yurdi. Oxiri chidolmadi, hamma gapni onasiga ochib soldi. U rostini gapirib bergani uchun onasi urushmadi, balki yolg'on gapirish odobli bolaning ishi emasligini aytdi. Bu gaplarni eshitib turgan mushuk asta kelib Zaynabning tizzasiga boshini qo'ydi. Kechqurun Zaynab unga ovqat bergan edi, munchoq ko'zlarini mo'ltillatib bemalol ovqatni yedi. U ham Zaynabning gunohini kechirgan edi.





Zohir A'LAM

YAKSHANBA KUNGI SHOKOLAD

Botir uyqudan ko'zini ochdi-yu, onasi yotadigan xonaga yugurdi, qarasa, onasi yo'q. Belanchakdagi ukasi Shavkatjon ham yo'q.

Botirning lab-lunji burilib, hiqillay boshladi. Shoshib ayvon, oshxona, vannaxonalarni ham qarab chiqdi. Onasi u yerda ham yo'q edi. Ana shundan keyin u bor ovozigina yig'lashga tushdi.

Botir o'zi yaxshi bola edi-yu, biroq, shu arrilashda mahallada unga yetadigan topilmasdi. Uning ovozigina opasi Dilfuza ham uyg'ondi.

— Oyim ketib qoptila! — dedi Botir.

Dilfuza ham ukasiga jo'r bo'ldi.

Dilfuza — katta qiz. Kuzda maktabga boradi. Lekin otasining uch kundan beri komandirovkadaligi alam qilib yurgandi. Shuning uchun o'zini tutolmadi.

Opa-uka birpas rosa baqirishdi. Keyin birdan Dilfuzaning ko'zi toshoynaga qistirilgan oq qog'ozga tushdi, qog'ozga bir narsalar yozilgandi. Dilfuza uni hijjalab o'qidi: “Dilfuza! Men magazinga ketdim. Sut olib kelaman. Oying”.

Dilfuza darrov tindi. Chunki unga birinchi marta, xuddi katta kishilardek, xatda murojaat qilishgandi.

— Yig'lama, oyim hozir senga shokolad olib kelarkanlar, — dedi u kattalarga o'xshab.

Opasining birdan o'zgarib qolganligini ko'rib, Botir ham tindi. Dilfuzaning shokolad haqidagi gapi ham juda yoqimli edi.

— Qayerdan bilding? — deb so'radi u opasidan.

— Mana, yozib ketiptilar, magazinga ketdim, deb.

Botir xatga qarab biroz anqayib turdi.

— Qani magazin?

Botirning bu savolidan Dilfuza kulib yubordi.

— Voy, jinnivoy-ey, mana, mana bu magazin degani bo'ladi, — dedi Dilfuza “magazin” so'zini ko'rsatib?

— A, eshigi qani?

Endi Dilfuza qattiqroq kuldi. Shunchalik kulgisi qistadiki, hech o'zini to'xtatolmasdi. Buni ko'rib, Botir ham jilmaya boshladi. Shu payt eshik qulfi sharaqlab ochildi. Bir qo'lida chaqaloq, bir qo'lida sut idish, onalari kirib keldi.



— Voy, aynanaylar-ey! Boshqa kuni bog'chaga oborish uchun uyg'otib bo'lmaydi senlarni. Bugun dam olish-ku, nega azonlab turib oldinglar?

Ona chaqaloqni belanchakka yotqizib, sutni oshxonaga olib chiqdi. Opa-uka uning ketidan yurib, xabar bera boshlashdi:

— Oyi, men yo'qligingizda yig'ladim. Dilfuza ham yig'ladi, — dedi Botir.

— Men darrov ovundim, xatingizni o'qib, Botirni ham ovutdim, “senga shokolad olib keladilar”, — deb.

— Voy, ona qizim, aqlli qizim! Bilgandim-da o'qib olishingni.

— Shokolad qani? — so'radi Botir qovog'ini uyib.

— Hozir beraman, avval yuz-qo'llaringni yuvinglar, — dedi onasi.

Opa-uka yuvinib kelishdi. Ona qizini yolg'onchi qilmaslik uchun, Botirga shokolad berdi, Dilfuzaga ham berdi.

Tamilla QOSIMOVA

YAXMALAK

Yangi yil arafasi edi. Qo'rqmas archasini yasatib, eng uchiga katta yulduzchani ildi. Juda ko'p o'yinchoqlar bilan bezangan archasi yal-yal yonib ketdi. Yarmi qizil, yarmi sariq olmalar, noklar: “Ol, meni ye”, — degandek archa shoxidan mo'ralaydi. Qo'rqmas ularni yeb bo'lmasligini biladi, chunki shishadan yasalgan-da. Bir qo'lida hassa, bir qo'lida sovg'a qopchasini ushlagan qorbobo ham archa tagidan joy olgan. Oppoq po'stin kiygan qorqiz Qo'rqmasga kulib qarab turibdi. Faqat jajji-jajji elektr lampochkalar yetishmayapti, hechqisi yo'q. Bugun oyisi: “Ishdan keyin “Bolalar dunyosi”ga kirib olib kelaman”, — degan. U, hatto, o'rtog'i Ilg'orga: “Archamda elektr chiroqlar bor”, — deb maqtanib qo'ygan. Nega maqtandi-ya? Oyisi olib kelmasa-chi? Yo'q, yo'q, oyisi va'da berdimi, olib keladi. Ungacha Qo'rqmas tashqarida o'ynab turmoqchi bo'ldi, hovliga chiqib, qorbobo yasadi. Keyin yaxmalak uchmoqchi bo'ldi. Qorlar oq po'stindek momiq edi, hecham yaxmalak ucholmadi. Qarasa, yo'lkaning qorlari odamlar qatnovidan silliqqlanib qolgan edi. “Rosa yaxmalakbop bo'пти-da, hozir suv sepib yuborsam, oynadek bo'ladi”, — deb sevindi. Qo'rqmas oshxonaga kirib, choygumda suv olib chiqdi. Yo'lkaga to'rt choygum suv sepgandan keyin yaxmalak tayyor bo'ldi. Shu payt to'rxalta ko'targan bir



kishi yo'lkadan keta turib, qalqib ketdi, Qo'rqmasning qo'lidagi choygumni ko'rib, jahli chiqdi:

— Chetroqda o'ynasang, bo'lmaydimi, o'tgan-ketgan yiqiladi-ku!

Qo'rqmasning o'tgan-ketgan bilan nima ishi bor? Yaxmalakda qorong'i tushguncha mazza qilib uchadi. Shunday qildi ham.

Buvisi uni qidirib ko'chaga chiqqanida, Qo'rqmasning yuz-qo'llari sovuqdan sholg'omdek qizarib ketgan edi. Yaxmalakni ko'rib buvisi ham koyidi:

— Bor, o'choqdan bir xokandoz kul olib chiq. Yaxmalakka sepib, keyin uyga kir, ovqatingni ye!

Buvisi ketgach, Qo'rqmas yaxmalakka kul sepishni xayoliga ham keltirmadi. Qayta-qayta sirpanchiq uchib, keyin uyga kirdi. Ovqatini yeb bo'lgach, buvisi:

“Yaxmalagingga kul sepib qo'ydingmi?” — deb

so'radi. Qo'rqmas: “Ha, buvijon, bir xokandoz emas, ikki xokandoz sepib qo'ydim”, — dedi.

Keyin yasatilgan archasining atrofini aylandi:

“Elektr chiroqlarni yoqsam, archam ajoyib bo'ladi-da. Ilg'or ham ko'rib rosa havasi kelardi” deb o'yladi.

Yaxshisi, oyisini ko'chada kutib turadi. Bahonada yana yaxmalak uchib oladi. Qo'rqmas endigina eshik tomon borgan edi, uyga oyisi kirib keldi. Avvaliga?

“Urree!” — deb qichqirib yuborgan Qo'rqmas oyisining rang-ro'yini, paltosining etaklari ho'l va qor ekanligini ko'rib, taqqa to'xtab qoldi. Buvisi kelib,

oyisining qo'lidan sumkasini oldi.

— Xuddi uyimiz oldiga kelganda sirpanib, yiqilib tushsam bo'ladimi? — dedi oyisi paltosini yechar ekan. Buvisi yalt etib Qo'rqmasga qaradi. Qo'rqmas ko'zlarini olib qochdi. Buvisi ma'nodor qilib boshini chayqadi-da, hovliga chiqib ketdi. Qo'rqmas buvisining oshxonaga kirib, bir xokandoz kul olganini, keyin ko'chaga chiqib ketganini derazadan ko'rib turdi. U oyisidan elektr chiroqlarini so'rashga tili bormay turgan edi, oyisining o'zi sumkasini ochib, chiroqlarni oldi. Ammo ularni ko'rib, Qo'rqmasning ko'zidan yosh chiqib ketdi. Chunki kamalak rangda tovlangan marjon-marjon elektr chiroqlarning hammasi singan edi.



Jahon bolalar hikoyalari

Lev TOLSTOY
(Rossiya)

MUSHUKCHA

Vasya va Katya degan aka-singil bo'lib, ularning bir mushugi bor edi. Bahorda mushuk yo'qolib qoldi. Bolalar hamma joyni qidirishdi, lekin topisholmadi. Bir kuni ular ombor yonida o'ynab turgan edilar, birdan tepada allanimaning ingichka ovoz chiqarib miyovlaganini eshitib qoldilar. Vasya narvon bilan ombor tomining bo'g'otiga chiqdi. Katya bo'lsa pastda turib, nuqul: "Topdingmi? Topdingmi?" — deb so'rardi. Vasya esa javob bermasdi. Eng oxir Vasya:

— Topdim! O'zimizning mushugimiz ekan... Uning ajoyib bolalari ham bor ekan! Tez buyoqqa chiq, — deb qichqirdi.

Katya uyga chopib borib, mushukka sut olib keldi.

Mushuk bolalari beshta edi. Mushukchalar biroz ulg'ayib, o'rmalab yuradigan bo'lishgandi, bolalar o'zlariga oq panjali mushukchani tanlab, uyga olib kelishdi. Bolalarning oyisi, qolgan mushukchalarni har kimlarga berib yubordi, kulrangini esa bolalariga olib qoldi. Bolalar bu mushukka ovqat berishar, u bilan o'ynashar, uxlaganda birga olib yotishardi.

Bir kuni bolalar o'ynagani dalaga chiqishdi, o'zlari bilan mushukchani ham birga olib borishdi.

Shamol yo'ldagi xas-cho'plarni qimirlatar, mushukcha bo'lsa ular bilan o'ynashar, bolalar bunga quvonishar edi. Keyin bolalar yo'lning chekkasida o'sib yotgan





qo‘ziquloq terish bilan ovora bo‘lib, mushukchani eslaridan chiqarib qo‘yishdi.

Ular to‘satdan birovning “Qayt! Qayt!” — deb qattiq qichqirgan ovozini eshitib qolishdi, qarasarlar, bir ovchi ot choptirib kelayotibdi, uning oldidagi ikkita iti bo‘lsa mushukchani ko‘rib qolib, uni tutmoqchi bo‘lib yugurib kelmoqda. Esi yo‘q mushukcha qochish o‘rniga yerda o‘tirib, belini bukchaytirganicha, bezrayib itlarga qarab turibti. Katya itlardan qo‘rqqanidan dodlaganicha qochib ketdi. Vasya bo‘lsa kuchining boricha mushukchaga qarab yugurib, uning oldiga itlar bilan baravar yetib keldi. Itlar mushukchani hap etib tutib olmoqchi bo‘lishganda, Vasya qorni bilan mushukchani ustiga o‘zini tashlab, uni itlardan pana qilib oldi.

Ovchi yetib kelib, itlarni haydab yubordi. Vasya esa mushukchani uyga olib kelib, uni endi dalaga olib chiqmaydigan bo‘ldi.


SIGIR VA ZAG‘CHA

Hovlidagi qora sigir oxuridan pichan yer edi. Uning ustiga zag‘cha kelib qo‘ndi va cho‘qiy boshladi.

Qora sigirning orqasi og‘ridimi? Aslo yo‘q.

Sigir parvo qilmasdan, o‘zining xushbo‘y pichanini yeydi. Zag‘cha esa sigirni bemalol cho‘qiydi.

Zag‘cha nima uchun bunday qiladi? Buning sababi bor: chunki bahor payti edi. Sigir tullay boshlaydi. Tullash vaqtida ularning eski yunglari to‘kiladi va o‘rniga yangi yung o‘sib chiqadi. Zag‘cha esa bahorda in yasaydi. Zag‘chalarga in kerak, ular tuxumlarini issiq saqlash uchun inlariga yung soladilar. Mana, zag‘cha sigirning eski yunglarini yula boshlaydi. Bu sigirga xush yoqadi: tullash vaqtida sigirning terisi qichiydi. Sigir eski yunglarini tezroq to‘kish uchun ataylab devorlarga surkanadi.



Zag‘cha tumshug‘iga yung olib, uchib ketdi. U yungni o‘z iniga tashiyotir.



Tuxumlar yung ustida issiqqina turadi. Zag'cha bolalari tuxumdan chiqishi bilan issiq va yumshoq uyada o'sa boshlaydi.

Vasiliy XOMCHENKO
(Belorussiya)

ASKAR BULOG'I

Bir vaqtlar qishlog'imizda askarlar mashq o'tkazishar edi. Ular otishni, okop qazishni, hujum qilishni mashq qilishar edi.

Kun issiq edi. Askarlardan birining suv ichgisi kelib qoldi. U belkurak bilan maysazorning bir yerini kavlay boshladi. Uch-to'rt kavlagandayoq yerdan suv sizib chiqdi. Askar engashib suvdan qonib ichdi-yu, yo'liga ravona bo'ldi. Boshqa bir askar kelib, haligi chuqurchani yana ham kattaroq qilib kavlaydi. Sizib chiqayotgan suv buloqchaga aylandi. Askar suvdan miriqib ichdi, o'rtoqlariga olib borish uchun flyagasiga ham to'ldirib oldi.

Ertasiga askarlar yog'och olib kelib, buloqning atrofiga qoqishdi va qayin po'stlog'idan cho'mich yasab, buloq yonidagi daraxtga osib qo'yishdi.

Oradan bir hafta o'tgach, askarlar shaharga tushib ketishdi-yu, shu-shu qishloqqa qaytib kelishmadi. Buloq esa qoldi. Mana o'n besh yildirki, askarlar ochgan buloqdan qaynab chiqqan suv taxta devordan oshib, maysazorda jildirab oqib yotadi. Undan butun qishloq suv ichadi. Nega deganingizda, buloq suvi juda toza va shirin.

Bir vaqtlar askarlarning orqasidan chuvillashib yugurib yurgan bolalar hozir ulg'ayishgan. Hozirgi bolalar bir mahallar qishlog'imizga askarlar kelishganini, mana shu oqib yotgan buloqning ko'zini ular ochishganini bilishmaydi-yu, ammo baribir uni askar bulog'i deb atashadi.

— Qani, ketdik askar bulog'iga, — deyishadi bir-biriga.

Ha, askarlar mana shunday esdalik qoldirishgan.



Yayra Sa'dullayeva. Hozir, buvijon!



Qayum TANGRIQULIYEV
(Turkmaniston)

NON

Onasi Maysani chaqirib, hozirgina uzilgan nondan ushatib berdi.

— Oyjon, nonning hidi namuncha yaxshi! — deb maqtadi-da, ko'chaga chiqdi. Birinchi bo'lib o'rtog'i Bayramni ko'rib qoldi. Qo'lidagi nonning yarmini unga ushatib berdi. Bayram nonni olaman deb, yerga tushirib yubordi.

— Darrov ol! — dedi Maysa.

— Yerga tushib ketdi-yu, iflos bo'lib qoldi.

— Ol, deyapman senga! — Maysa Bayramning qo'lini ushladi.

Bola ko'chani boshiga ko'tarib yig'lab yubordi. Shu mahal otasi, haydovchi Ato amaki kelib qoldi. U nima bo'lganini darrov tushundi. Yerdan nonni olib, ko'ziga surtdi. So'ng biroz o'ylab turib:

— Qani, mashinaga chiqinglar-chi! — dedi.

U bolalarni don ekiladigan dalaga olib bordi. Keyin don saqlaydigan joyni ko'rsatdi. O'rim-yig'imdand so'ng kombayn, traktorlar remont qilinadigan usxonaga o'tishdi. Ato amaki bolalarni non zavodiga ham olib bordi. Shundan keyingina bolalar uylariga qaytishdi.

— Don ekilib, dasturxonimizga non bo'lib qo'yilguncha, qanchadan-qancha odamlar mehnat qilishlarini ko'rdingmi? — deb so'radi Ato amaki Bayramdan.

— Maysa nega xafa bo'lganini endi bilgandirsan?

— Ha, meni kechir, Maysa, — dedi Bayram xo'rsinib.

— Rahmat, Ato amaki. Men nonni ehtiyotlash kerakligini bilardim. Endi nonni hurmat qilish kerakligini ham bilib oldim, — dedi Maysa.





Qizcha uyiga chopqillagancha kirib ketdi-da, dam o'tmay, tandirda yopilgan nondan olib chiqdi.

— Oling, amaki, non yeng, sen ham ol, Bayram. Bu nonni oyim bilan birga yopganmiz!





Maktabga tayyorlov davri

6 — 7 yoshgacha





O'zbek xalq og'zaki ijodi

**“SOMSA YOPDIM YALPIZDAN,
OMONLIK-E, OMONLIK!..”**

Mavsum qo'shiqlari

* * *

Laylak qor-a, laylak qor,
Laylak qorga man xushtor.
Kiydirar keng dalamga
Oq ipakdan ko'ylak qor.
Dehqonlarga tilak — qor.
Goho meni quvalab,
Uyga kiritar tentak qor.

* * *

Ana-ana gullola-ye, gullola,
Ochilibdi gullola-ye, gullola,
Keling, tering, gullola-ye, gullola!
Ana-ana gullola-ye, gullola.

* * *

Keldi bahorning yomg'iri
Nag'ma-yu sharru shur qilib.
Shu'lasini yaraqlatib,
Chaqmog'ini chaqirlatib,
Keldi bahorning yomg'iri
Nag'ma-yu sharru shur qilib.





* * *

Ko'klam keldi, har yerlar
Yashnar lola, gul bilan,
Bog'lar, bo'stonlar to'ldi
Qumri-yu bulbul bilan,

Parcha-parcha bulutlar,
Yig'ilsa yog'ar yomg'ir,
Elim xazinasiga
Har bir tomchi — gavhar-dur.





Muzayyana ALAVIYA

NAVRO'Z – BAHOR BAYRAMI

Bahor! Hali yerlarda qor ko'p, qor kunduzlari quyosh nurida eriydi, yerga singiydi, kechalari esa muzlaydi.

Tol kurtaklari yorilib, undan bo'z, momiq g'unchalar chiqadi. Bo'g'otda sap-sariq bo'lib osilib yotgan sumalaklar quyosh shu'lasiga chidayolmay yosh to'kmoqdalar. Tomchilar mart... mart... mart... mart deganday bo'layotirlar.

O'lkamizda bahor... Yilimiz o'z umrini yangidan boshlayapti: jamiki mavjudot o'z umrini shu bahordan boshlaydi. Shuning uchun ham qadimda yilning boshlanishini bahorning yigirma birinchi martidan hisoblaganlar va uni katta bayram qilganlar. Bu bayram Navro'z, ya'ni yangi kun deb atalgan...

Inson, eng avval, mehnat bilan sharaf qozonadi, shuning uchun ham dehqon ahlining qadimiy bayrami – Navro'zni har yili zo'r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning yaxshi odatlaridan biri bo'lib qolgan.

Dehqonlar navro'zda dala ishlariga kirishganlar, ish hayvonlarini, asboblarini olib chiqib, yer hayday boshlaganlar.

Yurt soya-salqin bo'lsin, o'tgan-ketganlar rohatlansin deb, navro'zgacha yo'llarga ko'chat, bolalarga atab hovli va bog'larga meva nihollari ekiladi. Ko'chalar tozalanib, ariqlar qaziladi. Hammayoq supurib-sidiriladi. Uylar ko'tarilib, idish-tovoqlar yuvilib pokizalanadi.

Navro'zga atab yoshlar rang-barang kiyimlar tikadilar. Qariyalarga sarupo tayyorlanadi. Navro'z uchun uzum, qovun, olma kabi yo'z mevalari saqlangan bo'ladi. Shinni-qiyomlardan tashqari, turli qandolatlar, sumalak pishiriladi.

Navro'z kirar kuni qo'g'irmoch qovrilib, turshak qaynatiladi. Moy, qaymoq, jizza, yong'oq solib cho'zma-chalpaku kulcha, patir, lochiralar pishiriladi. Yalpiz, ismaloq kabi ko'katlardan somsalar tayyorlanadi. Navro'zda tug'ilgan o'g'il bolaga Navro'z, Murod kabi ot qo'yilsa, qizlarning nomiga gul qo'shib aytiladi. Masalan, Gulasal, Gulbahor, Gulzamon kabi.

Navro'z kunlari yoshlar keksalar oldiga navro'zlik ko'tarib salomga borishadi. Yalpiz, binafsha kabi xushbo'y narsalarni olib borsalar, qariyalar qo'llariga olib, "Esonlik-omonlik, hech ko'rmaylik, yomonlik, yanagi oylar-yillarga o'ynab-kulib yetaylik", deb tilak bildirishadi.



Olma, uzum, anor, patir, ko'k somsa yoki lochiralar ko'tarib — navro'zlik qilib bemorlarning holini so'rashga boriladi. Xonadonlarda to'kin-sochinlik bilan mehmon kutiladi.

Belgilangan vaqtda hamma dala, qir, bog'-rog'larga chiqib, o'yin-kulgi qilib dam oladilar.

Siz, bolalarning bahorgi ta'tilingiz ham Navro'zga to'g'ri keladi. Shuning uchun tabiat qo'yniga, dala-qirlarga, tog'-u toshlarga sayrga chiqinglar. Tabiat bilan tanishib ham bilim, ham zavq olinglar. Sho'x-sho'x o'ynab-kulinglar. Qo'shiq aytib, raqsga tushinglar.

* * *

Doirani chaling, jon momo,
Doirani chaling, jon momo,
O'yin tushsin qiz bola,
Qiz bolaning sochiga
Yarashibdi chuchmoma.

Somsa yopdim yalpizdan,
Omonlik-e, omonlik,
Yuz navro'zni o'tkazgan
Momolarga beraylik.

Navro'z kuni, qizlarjon,
O'sma bargin teraylik.
Sochga taqib gul-marjon,
Qoshga o'sma qo'yaylik.





* * *

Boychechagim boylandi,
 Qozon to'la ayroni.
 Ayroningdan bermasang,
 Qozonlaring vayroni.
 Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
 Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak!
 Boychechakni tutdilar,
 Tut yog'ochga osdilar.
 Qilich bilan chopdilar,
 Baxmal bilan yopdilar.
 Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
 Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak!
 Og'ritmang-e, og'ritmang,
 Bolalarni javratmang.
 Boychechagim bolasi,
 Qulog'ida donasi.
 Donasini olay desam,
 Chiqib qoldi onasi.
 Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
 Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak!
 Boychechagim boylandi,
 Ko'chama-ko'cha aylandi.
 Boychechagim — ko'k somsa,
 Cho'ntaklarga joylandi.
 Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
 Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak!
 Boychechagim boylandi,
 Qozon to'la ayroni.
 Ayroningdan bermasang,
 Qozonlaring vayroni.



Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
 Yumshoq yerdan yugurib chiqqan boychechak!
 Sen bizlarning to'ng'ich, go'zal qizimiz,
 Bizga qarab jilmaysang-chi, hoy, chechak!

* * *

Laylak kelsa, yoz bo'lur,
 Qanoti qog'oz bo'lur.
 Laylak boradi tog'ga,
 Quloqlarida halqa,
 Halqasi tushib qopti,
 O'rtoqjon, uni top-chi?
 Laylak, nog'orangni chal!
 Qizlar o'yinga tushsin.
 Ukamning so'zlari bor:
 — Laylak balandroq uchsini!

* * *

— Ha, mayli-yo, ha, mayli,
 Bog'da o'sar gulxayri.
 — Bog'da yana nima bor?
 — Shirin-shakar meva bor.
 — Unda nima qilasiz?
 — Kira qoling, bilasiz.
 Ha, mayli-yo, ha, mayli,
 Qilay bog'-u gul sayli.



“RAMAZON AYTIB KELDIM...”

Ramazon qo'shiqlari

* * *

Assalomu alaykum,
Bizlar keldik,
Payg'ambar yo'lini
Izlab keldik.
Mo'ralasak, mo'ringizdan
Tutun chiqar,
Bizga bergan qatlamalar
Butun chiqar.
Butun chiqsa, bu xonadon –
Xayrli eshik,
Bu eshikka buyursin
Tilla beshik.



* * *

Kiraversin davlat,
Chiqaversin falokat,
Ramazon aytib keldim
Eshigingizga-yey,
Qo'chqorday o'g'il bersin
Beshigingizga-yey,
Ramazon aytgan bilan
To'yamanmi-yey,
Burungining qa'dasini
Qo'yamanmi-yey,
Yo, rabbimsan, Alloh,
Mohi ramazon.



* * *

Ramazon aytib keldim
Eshigingizga,
Xudoyim o'g'il bersin
Beshigingizga.
Xudoyim bergan o'g'il
Mullo bo'lsin,
Otining egarlari
Tillo bo'lsin.
Bu uyning tevaragi
Qo'yning izi,
Mashati ro'mol tikkan —
Boyning qizi.
Mashati ro'molingiz belimizga,
Alqiy-alqiy ketamiz
Yo'limizga.

* * *

Oq tanga, ko'k tanga,
Chiqara qoling, jon yanga.
Chiqarmasangiz bo'lmaydi,
Belbog'ingiz to'lmaydi.
Eshigingiz tagida
Oy ko'rdim,
Hammadan sizni
Boy ko'rdim.



“MUSICHA PAT-PAT ETADI...”

Hukmlagichlar

* * *

Musicha pat-pat etadi,
Elakcha tap-tap etadi,
Musicha pat-pat etsa.
Kampir chakich otadi!



Kampir otgan chakichi,
Musichaga tegibdi.
Jon-jonidan o'tibdi,
Patlarini to'kibdi.

* * *

Chumchuq, chumchuq, chumchuq, deng,
Labingda uchuq, uchuq, uchuq, deng,
Chirillab uchsa tomlardan
Burning puchuq, puchuq, deng.
Hay-hay, chumchuq, jajji qush,
Shoxda turmay, pastga tush!

* * *

Uying kuygur chumchuqlar
Jo'xorimni yeb ketdi!
Yana to'ymay u suqlar.
Ertaga kelaman, deb ketdi.
Ho-huv, gala-gala!
Ho-huv, gala!....



* * *

Qirda qirg'iy qiyolar,
Qiyoda qirg'iy uyolar.
Qirg'iy qanoti qiyiq,
Bolalari ko'k miyiq.
Ko'kkina qush bolasi,
Ko'kda bo'lur uyasi.
Soylar to'lib sel kelsa,
Sarg'ayib yig'lar onasi.

“G‘OZ-G‘OZIM BOR, G‘OZ-G‘OZ...”

Qiziqmachoqlar

* * *

Yo'ldan topdim bir qamchi,
Uni berdim bir cholga,
Chol menga ipak berdi,
Ipakni qizga berdim,
Qiz menga ro'mol berdi.
Ro'molni suvga berdim,
Suv menga baliq berdi.
Baliqni boyga berdim,
Boy menga tariq berdi.
Tariqni tovuqqa berdim,
Tovuq menga tuxum berdi.
Tuxumni o'tga ko'mdim,
Paq etdi, shaq etdi,
Yorildi-ketdi.





* * *

G'oz-g'ozim bor, g'oz-g'oz,
Biri chaman, biri bo'z.
Mindim bo'zning beliga,
Tushdim g'or-g'or yo'liga.
G'or-g'or yo'li — oq bozor,
Oq bozordi kim kezar?
Bitta maymuncha kezar.
Maymunchani hurkitdim.
Quloq-burnin turg'izdim.
Mah-mah, — desam kelmadi,
Chigit bersam yemadi.
Chigit qozonda qaynar,
Bulbul qafasda sayrar.
Bulbul uyi qamishdan,
O'ng barmog'i kumushdan...

* * *

Oyi-oyi, barot oyi,
Barot keldi, bildingizmi?
Barot oyi keldi, deb
Idish-tovoq yuvdingizmi?
Yuvgan joyingizda
Duo takbir qildingizmi?
Mundi-mundi, qora mundi,
Qora suvga dumalandi.
Bizni ko'rib qocha berdi,
Qora sochin ocha berdi.



“DAVRAGA KELINGLAR, HO!..”

Choriamaiar

* * *

Tokchaga bug'doy sepuvdim,
Undimikan-e, undimikan?
Mashrabboy uydan chiqmaydi,
Yotdimikan-e, yotdimikan?

* * *

Tovuq tomda yotarmi,
Oyog'ingdan tortarmi?
O'yin yoqmas bolalar
Namozshomda qotarmi?
Kel, ho!



* * *

Oylar oydin bo'libdi, dugona,
O'ynagingiz kelibdi, dugona,
Yoki onangiz qo'ymaydimi, dugona,
Mushtdak qorningiz to'ymaydimi, dugona?

* * *

Do'st, otalar qo'ydi mani,
Do'st, bolalar qo'ydi mani.
O'ynamoqqa, kulmoqqa
Xumor-xumor qildi mani.



“OG‘ZIMGA SOLIQ QULF...”

Guldur-guplar

* * *

Jildirim-juft,
Og‘zimga soliq qulf.
Mendan oldin kim gapirsa,
Og‘ziga bir arava chivin, xip!

* * *

Kumush bolta,
Onabosh-yonbosh,
Guldur-gup.

* * *

Biron-kalon,
Kattuz-o‘ttiz,
Alami-talali,
Shaldir-shuldir,
O‘raga sichqon tushdi,
Guldur-gup!

* * *

Chori chamber,
Biri anbar
Ona qiz qayda?
Ola-bula tog‘da.
Tog‘man, zuvman,
Kumush bolg‘a,
Onaboshi, yonbosh,
Guldur-gup.





“OQ TERAQMI, KO‘K TERAQ?..”

Aytishma o‘yinlar

* * *

– Qamar, Qamar qamchini,
Qovurg‘aning yanchini.
Oq terakmi, ko‘k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
– Kichkina Salim kerak.

* * *

– Biz boyagi hovlida
Bo‘lib taraf-taraf,
Navbat bilan aytishdik,
Taraf-tarafga qarab.
Oq terakmi, ko‘k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
– Bizga kerak maktabda
Eng a‘lochi Alisher.
Oq terakmi, ko‘k terak?
Bizga Alisher kerak!



* * *

– Bululum-bululum, bozi,
– Bizlar kimning qizi?
– Shakarbekning qizi.
– Shakarbekning nesi bor?
– Uchar-uchar qushi bor.
– Birginasin bersang-chi?
– O‘zing tutib ko‘rsang-chi?



Tutganing – seniki,
Qolgani – meniki.

* * *

Bo‘rilar va echkilar

Bo‘rilar: – Bo‘ri, echki inoqdir,
Birga-birga quvnoqdir.
Keling-keling, hammamiz
Birga sayr etamiz.

Echkilar: – Xo‘p aldatib bo‘psiz-da,
Qo‘ng‘izvoyni yebsiz-da.
Burni uzun bo‘rivoy,
Bizni ushlab bo‘psiz-da.

Chopishda kim o‘zadi

Qo‘llarida qizil gul
Yashnab keladi.
Taglarida duldul ot
Kishnab keladi.
Qo‘llarida ketmoni
Chopib keladi.
“Volga”siga oq shoyi
Yopib keladi.
Qo‘ltig‘ida kitobi,
O‘qib keladi,



Qo'lda qalam, qo'shiqlar
 To'qib keladi.
 – Zuv...v! Zuvv!.. havoda chaqmoq,
 Kim kech qolsa — ahmoq!

* * *

Ergash, Ergash, ergashamiz,
 Hoy, o'rtoqjon, hushyor bo'!
 Ergash nima ko'rsatsa, biz
 Takrorlaymiz, qani, bo'!

* * *

Agar hushyor bo'lsangiz,
 Yig'lamasdan kulsangiz,
 Tarqalishib ketdik biz,
 Izlab-izlab toping siz.

* * *

Topil-topil, qayrag'och,
 Topilmasang, o'tga qoch!
 Chopa turib o'tirmoq
 Shukur, ho, Shukur,
 To'pingga yugur,
 Tutolmasang,
 Yugur-da, o'tir.



* * *

Ruxsor tug'ilgan kuni
Biz pishirdik moy kulcha,
Moy kulchaning moyi bor.
Xohlaganing tanlab ol.

Chap berish

Tutma, tutma, tutma,
Sen meni tutma, tutma.
Orqangdan bo'ri kelsa,
Nonni chaynamay yutma.

Qotirmachoq

O'qituvchi keldi,
Jurnalni ochdi.
Bir – yomon,
Ikki – yomon,
Uch – yomon,
To'rt – yaxshi,
Besh – a'lo.
Olti – otaloq,
Yetti – yetaloq,
Sakkiz – chaqaloq,
To'qqiz – to'qaloq,
O'n – haykal,
Qotmaganlar kal!




Zum...m...m

Shoyi ko'ylak kiymayman,
Hilpillatib yurmayman.
Kalish-mahsi kiymayman,
G'archillatib yurmayman.
Botinkamni kiymayman,
Do'qillatib yurmayman.
Oyoq yalang chopaman,
Chopaman, doving beraman.
Zum...m...m!

* * *

Aldab-aldab boplandi,
Boplandi-yu, toblandi.
Bo'ldi, men ko'p o'ynadim,
O'yindan chiqib ketdim.





“TO‘QSON, YUZ... YUZGA KIRGIN OPPOQ QIZ...”

Sanamalar

Bir, ikki, uch, to‘rt,
Besh, olti... o‘n olti.
O‘n olti deb kim aytdi?
Oppoq kuchukcha aytdi.

* * *

Oppa-oppa,
Halima-hoppa.
Tilla-milla,
Tilla-pilla... hoy!
Tilla poezd o‘tdimi?
Halima xolam o‘tdimi?
Halima xolam kelibdi,
Murodiga yetibdi,
Bir, ikki... bir ikki...
Uch... to‘rt... uch, to‘rt...
Yetti... yetdi ...
Yetaklab ketdi.

* * *

O‘n, yigirma,
O‘ttiz, qirq,
Ellik, oltmish,
Etmish, sakson,
To‘qson, yuz,
Yuzga kirgin, oppoq qiz,
Oppoq qiz!





* * *

Ellig-u ellik bo'lar yuz,
Yuzga chiqqin oppoq qiz,
Oshga tashla ozroq tuz,
Tez bo'l, damla, tezroq suz!

* * *

Bir, ikki... o'n olti...
O'n olti deb kim aytdi.
O'n oltini sanaguncha,
Tishim bir tushib chiqdi.
Yoshim sakkizga yetdi,
Endi maktab boraman,
Besh bahoni olaman.
Onamni quvontirib,
Shokoladni olaman.

O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARI

TABIAT HAQIDA

Kelib ketar bir yilda
To'rt og'ayni har xilda.

(To'rt fasl)




Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko'taray desam, og'ir gilam.

(Yer)



Ko'zga ko'rinmas,
Qo'lga tutilmas.

(Havo)



Osmonda suzar,
Qanoti yo'q.

(Bulut)

Yarimta patir,
Olamga tatir.

(Oy)

Oq sandiq ochildi,
Olamga nur sochildi.

(Quyosh)

Tunda ko'rib, cho'g' deysan,
Tongda ko'rib, yo'q deysan.

(Yulduz)



Yorug'i bor, dovrug'i bor,
Izi yo'q, ovozi bor.

(Momaqaldiroq)

Ko'kda o'ynab ko'rsatar o'yin,
Oq gilamga qoplab yer yuzin.

(Qor)

Oqib kelar shildirab,
Oynadayin yaltirab.

(Ani)



Qozonda emas, qaynaydi,
Qishin-yozin tinmaydi.
(Bulog)

JONIVORLAR HAQIDA

Bu jonivor beozor,
Usti nuqul tikanak.
Koptok deysiz bemalol,
Bo'lib olsa g'ujanak.

(Tiprattikan)



O'zi yo'qdek,
Tovushi o'qdek.

(Chigirtka)

Joni bor jondan,
Ko'zlari nurdan.
Terisi tangadan,
Suv ichadi ko'ldan.

(Balig)



Gul ustida olifta ashulachi.

(Bulbul)


Kichkina mitti
Shoxini tirab suv ichdi.

(Art)



Yer tagida qizil xivich.

(Chuvallchang)



Tanasi chipor,
Zahar sochar.


(Ilon)

Qatorma-qator,
Zanjirdek qotar.

(Chumoli)

To'r ustida yashaydi,
Pashshani o'rab tashlaydi.

(O'rgimchak)



Qish bo'lsa, uxlaydi,
Yoz bo'lsa, likillaydi.

(Burga)

OZIQ-OVQAT HAQIDA

Suv emas, suyuq,
Qor emas, oq.

(Sut)

Qozon ichida oppoq qor.

(Shirguruch)

O'zi oppoq, qor emas,
Non bo'lmaydi, un emas.

(Shakar)




O'zi taom bo'lmas,
Usiz ta'm bo'lmas.
(*znl*)

Bir aybi bor,
Turib semirar.
(*Xamir*)

Tugdim, quduqqa tashladim.
(*Chuchvara*)

Kesdim, quduqqa tashladim.
(*Ugra*)



Osh pishirdim, tuzi yo'q.
(*Sumalak*)

Chaynaladi, chaynaladi, yutilmaydi.
(*Saqich*)

ODAM TANASINING A'ZOLARI HAQIDA

Uy ustida sara yoy.
(*Qosh*)

Ikki og'ayni bir-birini ko'rmaydi.
(*z, oy*)

Eshitadi, ko'rmaydi,
Ko'radi, eshitmaydi.
(*Qulog, ko*)




Teg desam, tegmaydi,
Tegma desam, tegadi.

(qoʻl)

Sandiq to'la oq sadaf.

(qish)



Hamma vaqt og'zimizda,
Hech yuta olmaymiz.

(il)

Katta-kichik besh o'rtoq,
Uyushsa, bo'lar to'qmoq.

(Barmoqlar)


Yursam – yuradi,
Tursam – turadi.

(Soya)

TURLI NARSALAR HAQIDA

Tilsiz, aql o'rgatar.

(Kitob)



Buraldi quloq,
Ochildi buloq.

(Vodorovod)

Sira ovqat yemaydi,
Suv ichaman demaydi.

Gapiradi, kuladi,
Qo'shiq kuylay biladi.

(Radio)

Tomosha ko'rsatar kunda,
Hammaning ko'zlari unda.

(Televizor)



Qizdirsang, ishlar,
Kiyim tekislar.


(Dazmol)

Ajib ikki qulog'i bor,
Biri tinglab, biri so'zlar.

(Telefon)

Izi bo'lsa, yuradi,
Bo'lmasa, tik turadi.

(Tramvay)




Qushga o'xshar, qush emas,
Daraxtlarga qo'nolmas.
Odam tashir, yuk ortar,
Yo'lning tanobin tortar.

(Samolyot)

Yo'l ko'rsatar hammaga,
Hamisha uch xil chiroq,
E'tiborsiz bo'lsa kim,
Ko'zlarimga, deydi boq.

(Svetofor)





TEZ AYTISHLAR

Tez aytgin-u tez gapir,
Tez aytganga bir patir.

* * *

Turg'un to'rtta to'rg'ayni to'rga tushirdi.

* * *

Ko'k daftarda ko'p ko'k kaptar.

* * *

Pirpirak pirillaydi,
Chirildoq chirillaydi.

* * *

Olim Olimadan olma oldimi?
Olima Olimdan olma oldimi?

* * *

Qo'ng'iroq qo'g'irchoqniki, qo'zichoqniki?



* * *

Olti juft oq chinni choynakka
To'rt juft ko'k qopqoq yopsa bo'ladimi?

* * *

Chovli simdan, chovgum misdan.

* * *

Jo'ra Javlonga jo'r bo'ldi,
Javlon Jo'raga jo'r bo'ldi.



* * *

Olma shoxida olmaxon,
Olmaxonni olma, Olmaxon!

* * *

Buzoqboqar Boqi botir buzoq boqayotir.

* * *

Qishda kishmish pishmashmish,
Pishsa kishmish, qishmashmish.



* * *

Bir tup tut,
To'rt tup turp.

* * *

Tursun tog'am tovug'ining tuxumini
tarozida tortmoqda.

* * *

Non yasashasizmi, sholi sanashasizmi?

* * *

Sodiq Siddiqqa soat sotdimi?
Siddiq Sodiqqa soat sotdimi?

* * *

Oq ot oq o't yeydi,
Ko'k ot ko'k o't yeydi.



O'ZBEK XALQ MAQOLLARI

VATAN HAQIDA

Vatan tuprog'i qimmat.

* * *

Vatan tuprog'i — g'alaba garovi.

* * *

Vatani borning baxti bor,
Mehnati borning — taxti.





* * *

Vataning tinch — sen tinch.

* * *

Vatan qadrini bilmagan
O'z qadrini bilmas.

OTA-ONALAR HAQIDA

Ota oldida kek urma,
Odobingga chek urma.

* * *

Ota qarg'ishi — o'q,
Ona qarg'ishi — do'q.

* * *

Ota-onang — davlating,
Farzandlaring — savlating.

* * *

Ota rozi — Xudo rozi



* * *

Ota o'g'li bo'lsang, ota nomin baland tut.

ODOB HAQIDA

Odobsiz til
Juda yomon, bil.

* * *

Odobsiz betga chopar.

* * *


Odob va fazilatning boshi — til.

* * *

Odoblilik belgisi — eshilib salom bergani,
Yaqinlikning belgisi — kelib-ketib turgani.

* * *

Kattaga hurmatda bo'l,
Kichikka izzatda bo'l.



NON HAQIDA

Nonga hurmat – elga hurmat.

* * *

Nonni mehnat topgan,
Mehnatni non topgan.



* * *

Nonsiz yashab bo'lmas,
Gapni oshab bo'lmas.

* * *

Non qon bo'lsa, qon — jon.

* * *

Nonga e'tibor —
Elga e'tibor.

* * *

Bir boshq don —
Bir savat non.



DO'STLIK HAQIDA

Do'st — do'stga qalqon.

* * *

Do'st do'stni kulfatda sinar,
Odam odamni — mehnatda.

* * *

Do'st sirini dushmandan
pinhon tut.



* * *

Do'st so'zini tashlama,
Tashlab, boshing qashlama.

* * *

Do'sting bo'lsa, bog'ing chamandir.

* * *

Do'sting ming bo'lsa ham — oz,
Dushmaning bir bo'lsa ham — ko'p.



YOLG'ONCHILIK VA ROSTGO'YLIK HAQIDA

Yolg'onchiga ishonch yo'q.

* * *

Yo'lg'onchining rost so'zi ham yolg'ondur.

* * *

Yolg'onchining yonidan o'tma,
Rostgo'yning yonidan ketma.

* * *

Rostgo'ylik — baxt.

* * *

Yolg'onchilik — badbaxtlik.

* * *

Yolg'onchiga qo'shilma,
Rost so'zingni yashirma.



BILIM HAQIDA

Bilim baxt keltirar.

* * *

Bilim davlatdan ham qimmat.

* * *

Bilimdan ortiq boylik yo'q..

* * *


O'qigan o'qdan o'zar.

* * *

O'qigan o'g'il otadan ulug'.

* * *

Olim bo'lsang, olam — seniki.





AXLOQ-ODOBGA DOIR HADIS NAMUNALARI

* * *

O‘zingga yoqqan narsani boshqalarga ham ravo ko‘r!

* * *

Hamma ishlaringizga to‘g‘ri bo‘ling, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo‘lurlar.

* * *

Odamlarga taom yediringlar va shirin so‘zli bo‘linglar.

* * *

Inson xatoni ko‘proq o‘z tilli bilan sodir qiladi.

* * *

Nonni e‘zozlanglar.

* * *

Avvalo, onangga, yana onangga va yana onangga, so‘ng otangga yaxshilik qil.

* * *

Ekmoq niyatida qo‘lingizda ko‘chat tutgan paytda,



bexosdan qiyomat-qoyim bo‘lib qolishi aniq bo‘lganda ham,
ulgursangiz, uni ekib qo‘ying.

* * *

Qo‘shni bilan yaxshi aloqada bo‘linglar!

* * *

Oralaringizda eng kuchlilaring kimligini aytaymi? U g‘azabi
kelganda o‘zini tutib tura oladiganlaringizdir.

* * *

Bir-birlaringizga xayr-ehsonli, mehr-oqibatli bo‘lib, qo‘l berib
so‘rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g‘ulu-g‘ashlik ketadi.

* * *

Kishining go‘zalligi — uning tilidan bilinur.

* * *

Haqingni xoh mukammal, xoh kami bilan bo‘lsa-da, halol
qilib ol!

* * *

Sizlarning yaxshilaringiz — uzoq umr ko‘rishi bilan birga,
yaxshi ishlarni qiladiganlaringiz.



* * *

Og'irlik va yuvoshlik insonning yutug'idir. Uni tark etishlik esa ziyonkorlikdir.

* * *

Tong uyquasi rizqni qirqadi.

* * *

Yoshlikda olgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir.

* * *

Odamlar bilan xushmuomala bo'linglar. Odamlarga qat-tiqqo'llik qilib, behayo so'zlamanglar!

* * *

Xayrli va savobli ishlar insonni turli halokatlardan saqlaydi.

* * *

Omonatga olib kiygandan ko'ra, qirq yamoqli bo'lsa-da, o'z kiyimida yurgan yaxshi.

* * *

Muloyimlik har bir narsaga ziynat beradi, qaysi nar-sada u bo'lmasa, u narsa buziladi.



* * *

Odamlar bilan murosa-yu madorada bo'lish ham sadaqa hisoblanur.

* * *

Kimki birovning yozayotgan yoki kelgan xatini beruxsat o'qishga intilsa, go'yoki u do'zaxga intilgan bo'ladi.

* * *

Birodarining uzrini qabul etmagan kishining gunohi sudxo'rning gunohi bilan barobardir.

* * *

Kimning xulqi yomon bo'lsa, u o'zini azobga giriftor qiladi.

* * *

Baxillikdan yomon illat yo'q.

* * *

Kimki birovga yomonlik qilsa, shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi.



O'zbek xalq ertaklari

AQL VA BOYLIK

Bir cholning to'rt o'g'li bor ekan. Bir kuni chol:

– O'g'illarim, men qarib-qartayib qoldim, — debdi. — Orangizdan bittangiz oila boshlig'i bo'lishingiz kerak. Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, u menga merosxo'r bo'ladi. Har qaysingiz menga aqlli va davlatli ekanligingizni ko'rsating.

Cholning katta o'g'li zumrad ko'zli oltin uzuk taqqan qo'lini uzatib debdi:

– Mana boyligim, boy odamda aql ham bo'ladi.

Ikkinchi o'g'il zarbof choponini kiyib ko'rsatibdi:

– Shu paytda meni ko'rgan kishi boyligimga va aqlimga qoyil qoladi, — debdi.

Uchinchi o'g'il kumush va javohirlar qadalgan kamarini beliga bog'lab debdi:

– Hech kim umrida bunday kamarni ko'rgan emas.

Chol boshini chayqab, katta o'g'illariga hech nima demabdi. Kenja o'g'liga qarab:

– Nega sen indamaysan? Sen qaysi boyliging bilan maqtanasan? — debdi.

– Menda zumrad ko'zli uzuk ham yo'q, zarbof chopon ham yo'q, qimmatbaho kamar ham. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, — debdi.

Kenja o'g'lining javobi cholga yoqibdi. Bor mol-mulkini unga meros qoldiradigan bo'libdi. Katta o'g'illariga uning so'zidan chiqmaslikni tayinlabdi.

UCH OG'AYNI BOTIRLAR

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir zamonda bir kishi bo'lgan ekan. Boy ham, kambag'al ham emas ekan. Uning uchta o'g'li bor ekan, uchovi ham o'qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o'zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekanlar. To'ng'ichi yigirma bir yoshda, o'rtanchisi o'n sakkiz yoshda, kenjasi o'n olti yoshda ekan.

Otasi bir kuni ularni oldiga chaqirib, har birining peshonasini silab:

– O'g'illarim, men boy emasman, mendan qolgan davlat sizlarning maishatlaringiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsa umid qilib o'tirmanglar, o'zimdandan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb, sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim. Voyaga yetkazdim. Buning ustiga sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim: birinchidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim – quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim – yaroq ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqitmay o'stirdim – qo'rqoq bo'lmay, botir bo'ldingiz. Yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To'g'ri bo'ling – bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo'lmaysiz. Bundan boshqasini o'zingiz biling. Qora toyni, saman toyni, ko'k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo'ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to'lg'izdim. Baxtingiz – yo'lda, topib olmoq uchun dunyoni ko'rgani yo'lga chiqing, dunyo tanimay, dunyo kishisi bo'lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing. Xayr, o'g'illarim, – deb turib ketibdi.

O'g'illari suyunib, safar tadorigini ko'rib, erta-saharda otlanib, yo'lga tushdilar. Uch og'ayni kun bo'yi yo'l yurib, juda uzoqqa ketdilar.

Namozshom vaqtida bir joyga yetdilar. Kechasi yo'l yurmoqni munosib ko'rmay, shu joyda yotmoqni ma'qul topib, otlaridan tushib, istirohat qilib, ovqat yeb, yotish oldidan o'zaro shu maslahatga keldilar: “Bu joy to'qayzor ekan, biz yo'l bosib kelganmiz, charchab, uxlab qolsak, yaxshi bo'lmas; kechani uch bo'lakka bo'lib, har bir bo'lagida birimiz navbat bilan poyloqchi bo'lib, uyg'oq turaylik”.

To'ng'ich akasi birinchi navbatni oldi. Ikkala ukasi uyquga ketdilar. Chiroq lipillab yonib turardi. Katta aka qo'lidagi yarog'ini o'ynab, atrofdagi dov-



daraxtlarni tomosha qilib, bir qancha vaqt o'tirdi. Borliq jim-jit. Hamma narsa uyquda. Kecha oydin. Bir vaqt to'qay ichidan bir narsaning kelayotgan sharpasi eshitildi. Yigit hech qo'rqmadi, yarog'ini chiqarib, tayyor bo'lib turdi.

Bular tushgan to'qayning narigi tomonida bir sherning makoni bor edi. Bulardan boshqa hech kim bu joyga tushmas, hatto boshqa hayvonlar ham bu joyga kelgani qo'rqar edilar. Sher bularning hidini bilib, yemoq uchun asta-asta uyasidan qo'zg'alib, chiqib keldi. To'ng'ich botir sherni o'ldirishiga ishonsa ham: "Ukalarim bezovta bo'lmasinlar", — deb to'qayning bir tomoniga qarab

qochdi. Sher quvdi. To'ng'ich botir panaga yashirinib turib, sherning orqa tomoniga qilich bilan urib, uni yaraladi. Sher botirga o'zini tashlamoqchi bo'ldi. Botir chap berdi. Sher-ning o'ng soniga urdi. Sher botirga qarab, bor kuchini to'plab, o'zini tashladi. Botir yana chap berdi. Botir yana bir qilich urish bilan sherni qulatdi. U, sherning ustiga minib, terisidan bir tasma qirqib oldi. Ichidan beliga mahkam bog'lab olib, hech narsa ko'rmaganday, yana ukalari yoniga kelib o'tirdi.



Poyloqchilik navbati o'rtancha botirga keldi. Hech qanday voqea yuz bermadi. Uchinchi botir turdi, tong otguncha poyloqchilik qildi, hech narsa ko'rmadi. Birinchi kecha shu bilan tugadi.

Erta bilan yana yo'lga tushdilar. Kechgacha yo'l yurdilar, yo'l yursalar ham, mo'l yurdilar. Bir tog'ning bag'riga tushdilar. Tog'ning chap tomoni keng qo'riq yer edi. O'rtada bittagina baqaterak bor edi. Baqaterakning tagida bir buloq, uning oldida supa, tog'ning tagida g'or bo'lib, unda ilonlar podshosi — ajdar sulton yolg'iz turardi.

Botirlar bugun shu yerga tushdilar. Otlarini bog'lab, xashak solib, haligi supaga o'tirib, istirohat qildilar. Ovqatlarini yeb bo'lgach, uxlash vaqtida avvalgiday navbatma-navbat poyloqchilik qilishdi. Birinchi navbat to'ng'ich botirga berildi. Undan keyin o'rtancha botirga gal keldi. Buning navbatida kecha oydin, jimjit edi. Bir vaqt haligi g'ordan vahimali ovoz eshitildi, o'rtancha



botir qo'rqmadi, jim turdi. Faqat akasi bilan ukasining bezovta bo'lishlaridan tashvishlanib, qo'riqning narigi tomoniga qarab qochdi. Odam borini bilib chiqqan ajdar o'rtancha botirga qarab yugurdi. Botir chap berdi va ajdar sultonning dumiga qilich urib, uni yaraladi. Ajdar sultonning boshi aylanib qoldi. Yana poylab turib, botir ustalik bilan unga qilich urdi va ishini tugatdi. Keyin ajdarning terisidan bir tasma olib, beliga bog'labdi. Hech narsa ko'rmaganday bo'lib, supaga borib o'tiribdi.

Uchinchi navbat kenja botirga keldi. Akalari uyquga ketdi. Tong otdi, uyg'ondilar. Yana otlanib, yo'lga tushdilar. Bugun ham yo'l yurdilar. Tog'larni, cho'llarni, dasht-dalalardan o'tib, kun botganda bir tepalikka yetdilar. To'xtab, bu kechani shunda o'tkazmoqchi bo'lib otlardan tushib, tepalikda istirohat qilib o'tirdilar. Ovqat qilib yeb, yotarda yana poylash navbati to'ng'ich botirga, undan so'ng o'rtanchaga, eng keyin kenja botirga yetdi. Botir tepalikda akalarini uxlatib, poylab o'tirib edi, shamol kelib, chiroqni o'chirib qo'ydi. Akalarining qorong'ida uxlashi unga og'ir tuyuldi. Chiroq axtarib, eng tepa bir joyga chiqib, har tomonga ko'z tashladi, uzoqdan, kun botish tomonda g'ira-shira uchqun ko'rinib qoldi. Chiroqni yondirib kelmoq uchun uchqun chiqqan tomonga qarab otini minib ketdi. Ancha yo'l yurib, cho'lning o'rtasidagi bir qo'rg'onga borib yetdi. Otdan tushib, qo'rg'onning tagiga keldi. Yetti paxsa devor bilan o'ralgan yolg'izqo'rg'on bo'lib, bir tomonida eshik o'rni bor edi. Tashqariga otini bog'lab, sekin ichkariga kirdi. Qo'rg'onning ichkarisida bir chekkada o'n bir yog'ochlik qora uy, uyning darchalari berk bo'lib, eshiklari ochiq edi. Oyoq uchi bilan sekin-sekin borib darchaning yorig'idan mo'ralab qaradi... Bu yer talonchi-o'g'rilar to'planadigan joy ekan. Kenja botir ana shu o'g'rilar to'dasini bir o'zi qirib tashladi va hech narsa ko'rmaganday bo'lib, supaga borib o'tirdi...

Bolajonlarim, uch aka-uka navbatchilik paytida ko'rsatgan qahramonliklarini, hatto bir-birlariga ham maqtanib so'zlab berishmabdi.

Uch og'ayni botirlar mardligi, ziyorakligi, yana eng muhimi, o'zaro ahil-inoqligi tufayli xalq orasida obro'-e'tibor qozonishibdi, ajoyib, go'zal qizlarga uylanishibdi, so'ng tug'ilgan qishloqlariga — otalari bag'riga qaytib kelib, baxtli yashab, murod-maqsadlariga yetibdilar.



KENJA O'G'IL

O'tgan zamonda bir donishmand chol yashagan, uning uch o'g'li bo'lgan ekan. O'g'illari voyaga yetgach, chol ularga bunday debdi:

– Bolalarim, men sizni yeyish-ichishdan kamsitmay o'stirdim, har biringiz bir ro'zg'orning egasi bo'lib qoldilaring. Endi otlaninglar, turli shaharlarga borib, qo'rg'on solib kelinglar!

To'ng'ich o'g'li otasi to'plagan oltin-kumushlardan olib, Farg'ona vodiysi-ning hamma shaharlariga borib, u yerlarga bittadan uy solibdi.

O'rtancha o'g'li bo'lsa Buxoro, Samarqand tomonlarga borib, qo'rg'onlar qurdiribdi.

Kenja o'g'ilning xotini oqila, dono ayol ekan. U eriga:

– Dadangiz turli shaharlarga qo'rg'on solinglar, deyishi bilan har bir shahardan do'st, yor-u birodar orttiringlar demoqchi, siz boshqa shaharlarga borib, ovora bo'lib uy solib yurmang! – debdi.

Kenja o'g'il safarga chiqib ketibdi. U qayerga bormasin, surishtirib eng yaxshi, vafodor kishilarni topib, ular bilan do'stlashibdi. U o'z safari davomida o'rtoqlari orasida mashhur bo'lib ketibdi. U akalaridan avval uyiga qaytibdi.

– Qani, kim qaysi shaharga qanday uy qurdi ekan?— debdi chol bir kuni. – Yuringlar, bir aylanib ko'rib kelaylik.

U o'g'illari bilan birga katta o'g'il qurgan qo'rg'onlarga borsa, so'rrayib uy-joyning o'zi, odamsiz turgan emish.


Chol indamabdi, so'ngra o'rtancha o'g'ilning qilgan ishlarini ko'zdan kechiribdi. Uniki ham xuddi akasinikiga o'xshar emish.

– Bu qo'rg'onlarning odamlari qani? — deb so'rabdi chol.

To'ng'ich va o'rtancha o'g'il unga javob bera olmabdi.

Hammalari kenja o'g'ilning yor-birodarlari yashaydigan yerlarga borishgan ekan, ularni izzat-hurmat bilan kutib olibdilar, ketma-ket ziyofatdan bo'shamay qolibdilar. Shunda chol o'g'illariga qarab bunday degan ekan:

– Har bir shahardan orttirilgan do'st u yerga bir qo'rg'on qurish bilan teng! Mening maqsadimni faqat kenja o'g'lim tushunibdi, mening ismim, bilim-tajribam ham endi unga meros bo'lib qolsin!



Rustamxon. O'zbek xalq dostoni.



NIMA EKSANG, SHUNI O'RASAN

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, juda qadim zamonda bir chol yashagan ekan. Uning xotini vafot etibdi. Chol balog'atga yetgan o'g'li bilan yolg'iz qolibdi.

Chol o'g'lini oradan ikki yil o'tib uylantiribdi. Afsuski, kelini nihoyatda ishyoqmas va qo'pol ekan. U har kuni arzimagan narsalardan janjal ko'tarar, cholning ahvolidan xabar olmas ekan.

— Nima, meni otangizga cho'rilikka olganmidingiz? Kiyimlarini yuvsam, hali u qilsam, hali bu qilsam... Mening jonim o'nta emas-ku, axir? — derkan har kuni ming'illab.

Chol bechora shol bo'lib qolgan, erta-yu kech bir joyda qimirlamasdan yotar ekan.

O'g'li oxiri toqati-toq bo'lib, xotiniga:

— Xo'sh, maqsading nima, nima qilishim kerak? — debdi.

— Otangizni bu yerdan yo'qoting. Iloji bo'lsa, gadoy topmas biror joyga tashlab keling! — debdi xotini.

O'g'il shunday qilsam, bu la'natining javrashidan qutulaman, shekilli, deb o'ylab, otasini opichlab, jo'nabdi. Otasi ham, o'g'li ham bir-birlari bilan urishganday jim ketayotganmish. Tevarak-atrof jimjit, faqat chigirtkalarining chirillashi-yu oyoq tagidagi xaslarning chitirlab sinishidan boshqa tovush eshitilmas emish.

O'g'il yo'l yuribdi, yo'l yursa ham, mo'l yuribdi, oxiri, tog' cho'qqisiga yetib boribdi. Tog'ning bir tomoni jarlik ekan. U o'zicha: "Agar shu jarlikka tashlab yuborsam, bu noinsoflik bo'ladi. Yaxshisi, ana shu ko'rinib turgan toshning ustiga o'tirg'izib qo'yay-da, o'zim keta qolay. Keyin nima bo'lsa bo'lar, peshonasida borini ko'rar", — deb o'ylabdi.

— Otajon, — debdi cholni tosh ustiga o'tqazar ekan, siz shu yerda birpas o'tirib dam olib turing, men hozir kelaman. Chol kulib qo'yibdi. Bundan ajablangan o'g'li to'xtab:

— Otajon, nimaga kulyapsiz? — deb so'rabdi.

— Yo'q, o'zim, shunday, ketaver, yo'lingdan qolma,— deb javob beribdi otasi va yana kulib qo'yibdi. O'g'li:





— Yo‘q, aytasiz, — deb oyog‘ini tirab turib olgandan keyin, otasi aytishga majbur bo‘libdi.

— Meni bu yerga olib kelishingdan maqsad — tashlab ketish. Buni bilib turibman. Xotining shunga seni majbur qilganini ham bilaman. Lekin men xafa emasman. Chunki buni men ham o‘z boshimdan kechirganman. Men ham otamni oyingning gapiga kirib, xuddi shu xarsangtosh ustiga tashlab ketgan edim. Qaytar dunyo ekan. Xo‘p endi, o‘g‘lim, xayr, baxtli bo‘l, — deb so‘zini tugatibdi chol.

O‘g‘li otasidan bu gapni eshitib: “Nima eksang, shuni olasan”, — degan maqolni eslabdi. U nogiron otasini xo‘rlatganiga o‘kinib, cholni opichlab, uyiga qaytarib olib kelibdi va o‘zi mehr bilan parvarishlay boshlabdi.

TULKIBOY

Bir kuni Tulkiboy changalzorda ovqat qidirib yurib, bir angishvona topib olibdi. Tulkiboy yurib-yurib bir kampirning uyiga kelib qolibdi. Kampirni ko‘rib:

— Ona, senga shu angishvonani ertagacha qoldirib ketaman, ertalab kelib olaman, — deb chiqib ketibdi. O‘zi eshikning tirqishidan kampirning angishvonani qayerga qo‘yganini ko‘rib olibdi. Tulkiboy kampir uxlagandan keyin sekin uyga kirib angishvonani olib chiqib ketibdi. Ertasi kuni kampir shoshib-pishib qatlama pishirib turganda, Tulkiboy kirib kelibdi.

— Ona, kechagi omonat qoldirib ketgan angishvonani bering, — debdi. Kampir yugurib uyga kirib, angishvonani qo‘ygan joyidan topa olmabdi.

— Tulkiboy, angishvonang qo‘ygan joyimda yo‘q, yo‘qolib qolibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo‘ymayman, — debdi.

Kampir:

— Yo‘qolgan narsani qayerdan topib beraman, o‘rniga qirq qatlama beraman, — debdi.

Tulkiboy “xo‘p” deb, qirqta qatlamani olib tashqariga chiqqanidan keyin:



“Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama”, deb jo'nabdi. Yo'lda ketayotsa, oq echki boqib yurgan kampirni ko'ribdi. Tulkiboy kampirga:

— Ona, shu qirqta qatlamani ertagacha omonat olib qo'ying, ertalab kelib olaman, — debdi.

Kampir qirq qatlamani uyiga olib kirib, ko'rpaning qatiga bekitib qo'yibdi. Tulkiboy yana eshik tirqishidan mo'ralab turib, qatlama qo'yilgan joyni ko'rib olibdi. Kampir kechasi uxlaganda kelib, sekin kampirning uyiga kirib, qirqta qatlamani bitta ham qoldirmay yeb ketibdi. Ertasi ertalab kelib:

— Ona, kechagi omonat qoldirib ketgan qirq qatlamani olib bering, — debdi.

Kampir uyiga kirib, ko'rpasining qatini qarasa, bitta ham qatlama qolmabdi.

Kampir:

— Tulkiboy, qo'ygan joyimdan qatlamalaring yo'qolib qolibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Topib berasiz, topib bermaganingizga qo'ymayman, — debdi. Kampir Tulkiboydan qo'rqib:

— Bisotimda bitta oq echkim bor, shuni ola qol, — debdi.

Tulkiboy oq echkini yetaklab, xursand bo'lib:

“Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki”, — deb jo'nabdi.

Tulkiboy oq echkini yetaklab ketayotsa, nortuya boqib yurgan cholni ko'ribdi. Tulkiboy cholga yaqin kelib:

— Ota, ertagacha mana shu echkini sizga omonat qoldirib ketaman, ertaga kelib qaytarib olaman, — debdi.

Chol “xo'p” deb, echkini hovlisiga olib kirib bog'lab qo'yibdi.

Kechasi chol uxlaganida, Tulkiboy kelib oq echkini yeb, terisini qoldirib ketibdi. Ertalab Tulkiboy cholning oldiga kelib:

— Ota, kecha qoldirib ketgan omonat oq echkini bering, — debdi.

Chol tulkiga:

— Kechasi echkini bo'ri yeb, terisini qoldirib ketibdi, — debdi.

Tulkiboy:

— Echkini topib berasiz, topib bermaganingizga qo'ymayman, — debdi.



Chol:

– Bisotimda birgina nortuyam bor, oq echkining o'rniga beraman, — debdi.

Tulkiboy nortuyani yetaklab: “Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nortuya”, — deb xursand bo'lib jo'nabdi.

Tulkiboy nortuyani yetaklab yurib, qizi bilan ip yigirib o'tirgan kampirga uchrabdi. Tulkiboy:

– Ona, mana shu nortuyani ertagacha sizga omonat qoldirib ketaman, erta bilan kelib olaman, — debdi.

Kampir nortuyani hovlisiga olib kirib bog'lab qo'yibdi. Kechasi kampir uxlaganda, Tulkiboy nortuyani hovlidan olib chiqib, bir changalzorga olib borib qo'yibdi, ertasi kuni kampirning oldiga kelib:

– Ona, kecha qoldirib ketgan omonat nortuyani bering, — debdi. Kampir qarasa, nortuya bog'langan joyida yo'q, axtarib topa olmabdi.

Tulkiboy:

– Topib berasiz, topib bermaganingizga qo'ymayman, — debdi.

Kampir tulkidan qo'rqib:

– Nortuyaning o'rniga hech qanday molim yo'q. Birgina oydin qizim bor, ona-bola ip yigirib kun kechiramiz, — debdi.

Tulkiboy:

– Nortuyaning o'rniga oydin qizingizni bering. Bermasangiz, ona-bola ikkovingizni ham yeb ketaman, — debdi.

Kampir nochor, noiloj yolg'izgina qizini Tulkiboyga beribdi.

Tulkiboy xursand bo'lib kampirga qarab: “Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nortuya, nortuyaga oydin qiz”, deb oydin qizni qopga solib, qopning og'zini bo'g'ib, ko'tarib jo'nabdi. Bir to'qaydan o'tib ketayotsa, uzoqdan itini yetaklab kelayotgan bir ovchi ko'rinibdi. Tulkiboy orqasidagi qopni yerga qo'yib, o'zi bekinibdi. Ovchi kelib qopni ochib qarasa, ichida bir qiz o'tirgan ekan. Ovchi qopdan qizni chiqarib olib, qiz o'rniga itini qopga solib, og'zini bo'g'ib bog'lab qo'yibdi. Ovchi ketganidan keyin Tulkiboy kelib, “ovchidan qutulib qoldim”, deb suyunib, qopni orqalab jo'nabdi. “Yig'lama, oydin qiz, yig'lama, hozir uyga yetamiz”, —



deb qadamini ildam tashlab uyga etib kelibdi. Tulkiboy: “Oydin qiz, qopning ichida zerikkanga o‘xshaysan. Bir angishvona, bir angishvonaga qirq qatlama, qirq qatlamaga oq echki, oq echkiga nortuya, nortuyaga oydin qiz, chiq!” — deb qopning og‘zini ochibdi. Qopning ichidan quloqlarini shalpaytirib ovchining iti chiqibdi. Oydin qiz chiqishini kutgan Tulkiboy ovchi itning haybatini ko‘rib qochib ketibdi. It tulkining ketidan quvlab ketibdi. Tulki o‘zini shudgor tomonga olibdi. Tulki yugurib ketayotib “shaq” etib qopqonga tushib qolibdi. It ovchining yoniga qaytib ketibdi.

SHUM TULKI

Tovuqlar tulkining ustidan arz qilgani ayiqning oldiga borishibdi.

— Ayiq polvon, — debdi ular, — tulkining dastidan bizga kun yo‘q. Har kuni kechasi tovuqlarni qiyratgani-qiyratgan. Hech kimdan hayiqmaydi.

— Tulki-ya... Obbo muttaham-ey... Men uning jazosini beraman, — debdi ayiq.

U tulkini chaqirtiribdi. Tulki kelib dumini silkitib, ayyorlik bilan shunday debdi:

— Ayiq hazratlari... Men sizning aziz biqiningiz toshga botmasin deb, yostiq keltirdim, — u ayiqqa yumshoq par yostiq beribdi. — Bular bo‘lsa sizning g‘amingizda yurganimni bilishmaydi.

Ayiq yostiqqa suyanib rohat qilibdi va:

— Ahmoqlar, boringlar, ikkinchi bunaqa bema‘ni gaplar bilan arzga kelmanglar, — deb tovuqlarni quvib yuboribdi.

Shu kech yana ikkita tovuqning sho‘ri quribdi.

Tovuqlar endi bo‘riga arzga boribdilar.

Bo‘ri tulkini tirqiratib haydab keltiribdi.

— Bo‘ri janoblari, — debdi tulki dumini likillatib, — men aziz biqiningiz yerga botmasin deb, yostiq keltirdim.

U bo‘rining yonboshiga yumshoq yostiq qo‘yibdi.

— Bu ahmoqlar sizning g‘amingizda yurganimni bilishmaydi, — debdi tulki.



Bo'ri par yostiqa suyanib rohat qilibdi va tovuqlarga do'q urib:
– Ko'zimdan yo'qolinglar, badbaxtlar. Tulki ishini bilib qiladi. Bundan keyin xayrli ish qilganlar ustidan arz qilib kelmanglar, —deb baqiribdi.
Tovuqlar jonlarini hovuchlab, uylariga qaytishibdi. Shu kechasi yana uch tovuq tulkiga yem bo'libdi.



Ertasiga tovuqlar Mo'ynoq degan katta itning yoniga arzga borishibdi. Tulki Mo'ynoqqa ham yostiqa berib:
– Sizing g'amingizni yeb yurgan edim, — debdi.
Mo'ynoq yostiqa qaramabdi.
– Bu ayyor tulkini yaxshilab kaltaklanglar! — deb buyuribdi Mo'ynoq itlarga.
Itlar tulkini o'rtaga olib, rosa ta'zirini berishibdi.
– Endi cho'lga haydab yuboringlar uni, — debdi Mo'ynoq. — Bo'lmasa, tovuqlarning go'shtini yeb, pati bilan yana ko'plarni aldaydi bu ayyor.
Shum tulkini cho'lga quvib yuborishibdi.



DUSHMANNING KATTA-KICHIGI BO'LMAYDI

O'tgan zamonda Yasar mamlakati podshosiga qarashli cho'llarda bir karvon o'tib ketayotgan ekan. Jaziramada holdan toygan kishilar kechki salqinda biroz dam olmoqchi bo'lib to'xtashibdi. Cho'lda sichqonlar yashar ekan. Shu kuni sichqonlarning malikasi o'rtoqlari bilan karvonga ortilgan mollarni ko'rib, qiziqib qolishibdi. Sichqonlar malikasi ancha o'jar ekan, u savatlar orasiga kirib, nimalar borligini o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi bo'libdi. U dugonalari-ning: "Ehtiyot bo'ling, savatga chiqmang", — deganlariga quloq solmabdi va savatga qamalib qolibdi.

Ertalab karvon sichqon-malikani ham olib yo'lida ketaveribdi.

Voqeadan xabar topgan sichqonlar qayg'urib, bir yerga yig'ilishibdi va maslahat qilib, Yasar mamlakatining podshosiga noma yuboribdilar. Unda: "Ey, ulug' shoh, sizning shahringizga kelgan karvonda bizning malikamiz ham bor. Shuni topib ozod etsangiz", — deyilgan ekan.

Yasar podshosi bu nomani o'qib g'azablanibdi.

— Bor, podshohingga ayt, karvon orasida sichqon qidirib yurish mendek podshoga yarashmaydi. Qo'lidan kelganini qilsin!

Sichqon vakillar xafa bo'lib qaytishibdi. Ularning podshosi sichqonlarni yig'ib:

— Yasar mamlakati podshosining xazinasidagi hamma oltin-kumush, la'l-javohirlarni tashib, xazinamizga keltiringlar! — deb farmon beribdi. Butun sichqonlar yer tagidan lahimcha kovlab, Yasar podshosi boyliklarining hammasini o'z xazinalariga to'plabdilar. Undan keyin sichqonlar podshosi:

— Yasar podshosi omborlaridagi g'allalarni ham quritinglar! — debdi. Podsho omboridagi g'allalarni ham sichqonlar tashib bitirishibdi.

Sichqonlar podshosi yo'l chetiga chiqib tursa, bir o'tinchi yigit o'tib keta-yotgan ekan. Sichqon yigitni to'xtatibdi:

— Ey, yigit, Yasar podshosi bilan jang qilmoqchimiz, o'n ming askar yig'. O'zing ularga lashkarboshi bo'lgin. Xazinamizdan istaganingcha tilla, ku-mush olib xarajat qilaver! — debdi.

O'tinchi yigit ancha aqlli, dono ekan. U "aqlim bor-u, pulim yo'q", deb yurganlardan biri ekan. U sichqonning taklifiga rozi bo'lib, shaharlardan



kambag'allarni yig'ibdi. Pulni ayamay xarajat qilib, o'n ming lashkar tuzibdi. Ularni ot, kiyim, qurol-aslahalar bilan ta'minlabdi. Sichqonlar askarlarni ko'rib, xursandliklaridan o'yinga tushib ketishibdi. Podshosi esa ularga:

– To'xtanglar, to'ydan ilgari nog'ora chalmanglar! Hali urishda kim yengib chiqadi, noma'lum. Jangga yaxshi tayyorlanish kerak, hushyorlikni qo'ldan bermanglar! – deb sichqonlarni ogohlantiribdi. Shundan so'ng sichqonlar podshosi Yasar podshosiga noma yuborib, urish e'lon qilibdi. Yasar podshosi nomani o'qib, qah-qah urib kulibdi. Keyin bu noma ta'sir qilib:

– Endi kunimiz sichqonlar bilan jang qilishga qoldimi? – debdi. Qancha podsholarni yengib qoyil qildik. Sichqonlar bilan urishish bizga nomus emasmi? Sichqonlar kim-u, biz kim? – deb podsho mo'ylabini burab xayol suribdi.



Podsho yana o'ziga-o'zi: “Balki sichqonlarning ajali yetib, qirilib, yer yuzidan yo'qolib ketish vaqti yetgandir, bu vazifani biz bajarishimiz kerakdir” debdi. Keyin vazirga:

– Qani, urishga hozirlaninglar! – deb farmon beribdi.

Jangga tayyorlanish uchun pul zarur, xazinachini chaqirishsa, u dod solib kelibdi.

– Ha, nima bo'ldi? – deb so'rabdi podsho.

– Podshohi olam, bir qoshiq qonimdan keching, – deb xazinachi yig'labdi. Podsho:

– Gapir, nima bo'ldi? – desa, xazinachi:

– Xazinada bir tanga ham qolmabdi! – debdi.

Podsho g'azablanib, vazirlari bilan yugurganicha xazinaga kirsam, haqiqatan ham, hech vaqo yo'qmish.

Podsho:

– G'alladan sotib, urish anjomlarini taxt qilinglar! – deb farmon beribdi.

Omborchilar ham yig'lab kelishibdi. Omborda ham bir qadoq g'alla qolmagan ekan.



Yasar podshosi bu ahvolni ko'rib, xazinachi va omborchilarni jazolabdi. Lashkarlarini esa jang maydoniga borishga buyuribdi. Biroq kechqurun lashkarlar uxlab yotganida, sichqonlar ularning otlarini egar-jabduqlari va boshqa narsalarini qiyib, yirtib, teshib, tilka-pora qilib tashlagan ekan.

Yasar lashkarlari ertalab jangga kirmoqchi bo'lib, shoshilib otlarini egarlamoqchi bo'lishibdi, lekin qo'llaridan hech narsa kelmabdi.

Bu fursatdan foydalangan sichqonlar tomonidagi lashkarlar hujum boshlab, Yasar podshosi askarlarini yengibdi.

Dushman taslim bo'libdi. Yasar mamlakatiga o'tinchi yigit podsho bo'libdi. Shundan beri el orasida: "Dushmanning katta-kichigi bo'lmas", degan naql yurar ekan.

SHIRIN UYQU

Bir odamning uchta o'g'li bor ekan. Shu odam o'layotganida bolalariga: "Uyquni shirin qilib uxlang, ovqatni shirin qilib yeng", — deb vasiyat qilibdi. Bu gapni ikkita katta o'g'li bir xil tushunibdi, kichik o'g'li esa boshqacha tushunibdi. Ikkita katta akasi yerlarga suv sepib, chorpoyani qurib, katta ko'rpani to'shab, kayf qilib, "uyquni shirin qilish" shunday bo'ladi-da, deb yotaveribdi. Keyin ust-ustiga har xil shirin taomlarni yeb, "ovqatni shirin qilib eyish" mana bunaqa bo'ladi deb yuraveribdi. U yoqqa ag'anab, bu yoqqa ag'anab yota-yota ovqatlari ham singmay, yegan ovqatining ham, uxlagan uyqusining ham mazasini bilmabdi. Axiri, yeyishga ovqatlari qolmay, kambag'al bo'lib qolishibdi.

Kichkinasi ishlab-ishlab kelib, quruq yegan noni ham shirin, ichgan choyi undan shirin, uxlasa uyqusi ham shirin bo'lar emish. Shunday qilib, uning borgan sari davlati ziyoda bo'lib, uyqusi shirin, ovqati mazali bo'lib bora bergan ekan.

Qani, ayting-chi, ota vasiyatini qaysi o'g'il to'g'ri tushuna olgan ekan?





XURMACHA POLVON

Bor ekan, yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, bir chol-u kampir bor ekan. Bularning echkisi ko'p ekan-u, bolalari yo'q ekan. Kunlardan bir kun kampir sut pishirib o'tirib: "Mening bolam bo'lsa edi, sut desa, sut bersam, qaymoq desa, qaymoq bersam, qatiq desa, qatiq bersam", debdi. O'shandan keyin kunlardan bir kuni kampir boshi ham yo'q, oyog'i ham yo'q, qo'li ham yo'q bir Xurmacha o'g'il ko'ribdi. Kampir Xurmachani tandir ustiga tashlab qo'yaveribdi. Chol kampirga:

— Kampir, farzandim yo'q deding, bir xurmacha tug'ding, tandir ustida yotibdi. Shu xurmachani ko'rmaylik ham, kuymaylik ham, sindirib tashlaylik, — debdi. Shunda tandir ustidan Xurmacha turib:

— Ey, ota, sizga nima zararim tegdi, o'tinga buyurdingiz-u, qilib kelmadimmi yo o'roqqa aytdingiz-u, bormadimmi? — debdi.

Chol:

— Mana, falonchi boyning o'rog'i o'rilmagan, shunga o'roqqa chiqsang bo'lmaydimi? — debdi.

Xurmacha o'roqni olib asta-sekin boyning oldiga boribdi.

Boy:

— O'rganingga qancha haq olasan? — debdi.

Xurmacha polvon:

— Shu xurmachani to'ldirib bersangiz bo'ladi, — debdi. Boy: "Ozgina haq berar ekanman", deb suyunibdi. Xurmacha polvon boyning o'rog'ini o'ribdi, bog'labdi, yanchibdi, shopiribdi. Boy kelibdi-da, yengini shimarib bug'doyni qoplamoqchi bo'libdi. Xurmacha polvon boyga:

— To'xtang, avval mening haqimni bering, keyin qoplarsiz, — debdi.

Boy:

— Men qoplab ketaveray, haqingni keyin beraman, — debdi.

Xurmacha polvon:

— Yo'q, oldin haqimni bering, — debdi.

Boy:

— Hay, ke, sendan qutulay, oldin sening haqingni bera qolay, o'zim keyin qoplab olarman, — deb bug'doyni g'alvirlab xurmachaga solaveribdi. Xirmonda



bug'doyning yarmi qolibdi, xurmacha to'lmabdi, bug'doyning hammasini solibdi, xurmacha to'lmabdi. Xurmacha polvon:

– Xurmacha to'lmadi, to'ldirib bering, — debdi.

Boy:

– Bug'doyning barini soldim, to'lmadi. Bu xurmacha emas, bir balo ekan. Shuncha dehqonchiligim ketdi, shunda ham to'lmadi, — deb xafa bo'libdi.

Xurmacha polvon:

– To'lmasa, to'lmas, — deb uyiga ketibdi. — Ona! Otamga ayting, tomga chiqib, tom tepasini teshsin, — debdi.

Onasi:

– Nima olib kelding? — debdi.

Xurmacha polvon:

– Bug'doy olib keldim — debdi.

Onasi:

– Olib kelgan bug'doyingni tovoqqa solib qo'yaver, qancha ketar edi bu xurmachaga, — debdi. Xurmacha polvon:

– Tovoqqa sig'maydi, tomni teshinglar, uyni to'ldiraman, — debdi. Otasi tomga chiqib, tomni teshibdi. Xurmacha tomga chiqib, tom teshigidan bug'doyni to'ka boshlabdi, uy to'lib ketibdi. Shunday qilib, chol-u kampir Xurmacha polvondan xursand bo'lishibdi. Tinch yashab, murodlariga yetishibdi.





O'zbek xalq dostonlari

RUSTAMXON

(Parcha)

...Rustam shaharga ketayotganida yo'lda ko'rdi: ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilgudek, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib, otdan yiqilib qolguday. Ikki qo'li orqasiga boylangan, sochidan uyning keragasiga boylovli turibdi. Rustam ko'rib hayron qolib, bir so'z aytib turgan ekan:

... Menga bayon ayla o'sgan elingdan,
Xabar olmay hech kim sening holingdan,
Bu yerlarga qanday nomard boyladi?
Qanday odam qildi qayg'u-zulmni?
Xafa qipti senday tozagulimni,
Otdan tushib yechayinmi qo'lingni?...

Qiz bu so'zini eshitib, Rustamga javob berib, boylog'liq turgan yeridan bir so'z aytib turgan ekan:


Bizning shahrimizni ajdahar olgan,
Uy boshiga bir qizdan soliq solgan.
Men boylandim – bugun navbatim kelgan,
Ko'p turmagin, ketgin bundan, begijon.
Hayolingni bunda turib bo'lmagin,
Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin...

...Rustam o'z boshini qutqarib, qizni tashlab ketgani ko'zi qiymay, ajdaharga bir begunohni bergisi kelmay, qizga qarab bir so'z aytib turgan ekan:



Ushbu damdir, o‘zga damni dam dema,
Ajdahardan sira meni kam dema...

Qiz ilgari ajdaharni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgani yo‘q, xalqning qilgan ta’rifiga, elning mahobatiga, Rustamning qaddi-jasadiga, ajdaharning siyosatiga qarab: “Yaxshi yigit ekan, o‘lmasin”, — deb yana ham ko‘p qaytardi. Shunda Rustam: “Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmaydi”, degan gap bor, ajdahar domiga tortadi, meni yutadi, deb vahm qilmayman, qayishmay ajdaharning yo‘lini aytgin”, — dedi.





Unda qiz aytdi: “Harchand zo‘r urdim, bo‘lmadi, sening ham ajaling yetgan ekan, kuning bitgan ekan...” – deb bir beldos qirni ko‘rsatdi: “Ajdahar shu tarafdin keladi”, – dedi.

Shunda Rustam qizning gapi bilan otiga qamchi urib, boyagi ko‘ndalang qirning ustiga chiqdi. Qarasa, ajdahar ko‘zi olovday yonib, pishqirib, har tarafga o‘t sohib, tog‘ning tangisidan Charxinko‘l degan ko‘lga – suvga tushib kelyapti ekan.

Haybat bilan kelayotir ajdahar,
Yaqinladi Rustambekday zo‘rabor.
Ajdahar chopinib, damga tortganda,
Langar to‘sib, Rustam o‘zin to‘xtatar.
Har narsani pisand qilmas ajdahar,
Chiday olmas endi Rustam zo‘rabor,
Bir-biriga endi yaqinlab qolar.
Na‘ra tortib bunda Rustamday qaysar,
Quvvatiman Rustam na‘ra urganda,
Rustamning tovushi ajdarga yetdi,
Bu tovushdan uning qulog‘i bitdi.
Ko‘targan boshini yerga tashladi,
Jiyirib quyrug‘in o‘ziga tortdi.
Ajdahar behushdi, Rustambek bildi,
Qilichin chiqarib qo‘liga oldi,
Haybatli ilonning qoshiga bordi,
Ilonning boshiga qilichin soldi,
Haybatidan qo‘rqmay, Rustam ish qildi,
Ajdaharni qaysar Rustam o‘ldirdi.
Dushmani o‘ldirib, ko‘nglin xushladi,
Qirq bir g‘o‘la qilib, kesib tashladi.
Bir g‘o‘ladan oldi uzun bir tasma,
“Ajdahar belgisi” – dedi, jo‘nadi...



O'zbek xalq afsona va rivoyatlari

NAVOIYNING DO'STI

Ulug' shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirdi ham do'sti bor ekan. Shoir uni juda yaxshi ko'rar, o'ziga qarddon, sirdosh do'st deb bilar ekan. Kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad kichik bir gunohi tufayli Sulton Husaynning qattiq g'azabiga uchrabdi. Voqea bunday bo'libdi: Sulton Husayn g'azab otiga minib turgan bir paytda, Pahlavonning gunoh ish qilib qo'yganini yetkazishibdi. Husayn Boyqaro:

— Pahlavonning soqol-mo'ylabini qirib tashlanglar, so'ng kaltadum libos kiydirib, ko'cha-ko'yda sazoyi qilinglar, — deb buyruq beribdi. Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo'lganini Navoiyga aytishibdi. Navoiy agar bu jazo amalga oshirilsa, Muhammad Pahlavonning izzat-nafsi kamsitilib, u bunga chidolmay o'lib qolishini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqazish harakatiga tushibdi. Tezlikda Husayn Boyqaro huzuriga yetib boribdi:

— Sultoni Boyqarom, ma'lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo'ylov qo'yib, do'st-birodar bo'lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o'rtadagi ahillik buzilib, gapimiz tuzsiz, o'zimiz subutsiz bo'lib qolamiz. Buyursangiz, mening ham soqol-mo'ylovlarimni qirsinlar, menga ham xuddi Pahlavon Muhammadga berilgandek kalta libos kiygizilib, do'stim bilan birga ko'cha aylantirsinlar, — debdi.


Navoiyning shogirdi hamda do'stiga bo'lgan sadoqatini, mehr-oqibatini ko'rgan Husayn Boyqaro g'azab otidan tushib, karam daryosi mavj olganini o'zi ham bilmay qolibdi-da:

— Pahlavonning gunohidan o'tdim, jazo qoldirilsin, — deb buyuribdi.

BOG'I BOBURIY

Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni bo'libdi. Hindiston bog'-rog'i ko'p, meva-chevaga boy yurt ekan. Boburshoh mendan yodgor qolsin deb, Hindistonning ko'rkam joyiga bir bog' barpo ettiribdi. Dunyodagi bu eng katta bog'ga turli yurtlardan nihollar: olma-yu olcha, anor-u anjir, jiyda-yu yong'oq, pista-yu bodom, nok-u nashvati, uzum-u o'rik, behi-yu xurmo, gilos-u ko'ksulton, olxo'ri, tok, xilma-xil gullar, xullas, olamda mevali daraxt va gullar borki, hammasidan olib kelib ko'kartiribdi. Xalq dunyoga dong'i ketgan bu bog'ga "Bog'i Boburiy" deb nom qo'yibdi. Bog'dagi daraxtlar chunonam hosilga kirib meva beribdiki, ularni hech yerga sig'dirib bo'lmabdi. "Bog'i Boburiy"ning bir

chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, tarra, bodring, tarvuz bitibdi. Boburshoh qovunni yaxshi ko'rar ekan, ammo bog'ida handalak bilan qovun bo'lmabdi. Boburshoh bir yil qovun ektiribdi — bitmabdi, ikkinchi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.



Birinchi yili gulidayoq tashlab yuboribdi. Ikkinchi yili palagi o'lib qolibdi, uchinchi yili pishib yetmay turib, hammasi birdan band beribdi. Boburshoh bo'lsa qovun topishni talab qilaveribdi. "Uch, undan keyin puch", — degan ekan mashoyixlar. To'rtinchi yili Boburshoh:

— Bu yil qovun hosil qilmasa, hammangning jazoini beraman, — deb qahr-g'azab qilibdi. Nima qilishni bilmay bog'bonlarning boshi tozayam qotibdi. Oxiri o'ylab-o'ylab, Boburshohga bildirmay, uzoq Farg'onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Boburshoh bir necha kunga ovga ketibdi. Shu payt bog'bonlarning boshlig'i ham o'n bir kishini yoniga olib, "Farg'ona, qayerdasan?" deb yo'lga chiqibdi. Karvon yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, o'n kun deganda Farg'ona



viloyatining Namangan shahriga yetib boribdi. Karvon ot-aravalarga qovun ortib, tez iziga qaytib, o'n kun deganda yana Hindistonga yetib kelibdi. Shu orada ovdan qaytgan Boburshoh bog'bonlarning Farg'onaga borib kelganini bilmay qolibdi. Boburshoh bog'bondan qovun yo'qlatibdi. Qovunni olib borishibdi. Boburshoh qovunni hidlab ko'ribdi: "Qayerda bitgan?" — deb so'rabdi. Bog'bon: "Bog'i Boburiy"da bitgan", — deb javob beribdi. "Yo'q, hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi, faqat bir o'lkada yetishadi, xolos. Sen meni aldayapsan", — debdi Boburshoh. "Aldagan bo'lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun "Bog'i Boburiy"da bitgan", — so'zidan qaytmabdi bog'bon. Boburshoh qovunni hidlay-hidlay, bo'yiga mast bo'lib, uni tilimlamoqchi bo'libdi. Qovun pichoq tegar-tegmasdan yorilib ketibdi.

Boburshoh bog'bonga qarab:

— Yolg'on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq-oydin ayta-san. Pichoq tegar-tegmas yorilib ketadigan qovun faqat men biladigan o'lka-dagina bitadi. Sen mening savolimga to'g'ri javob bermading. Qahrim qattiqligidan qo'rqmaysanmi? — debdi.

— Oliy hazrat, aldasam, boshimni tanamdan judo qiling, mayli, men roziman. Siz ko'rib turgan qovun "Bog'i Boburiy"da bitgan, — debdi bog'bon yana bilmagan bo'lib. Tilida shunday debdi-yu, ichida: "Boburshoh, qani polizni ko'rsat, deb qolsa holim ne kecharkin?" deb o'ylab vahimaga tushibdi. Buni Boburshoh sezibdi-yu, o'zini bilmaganga olibdi. Qovun shirinligidan tilni yorar emish. Boburshoh qovunning tilimini yeb bo'lib bog'bonga qarabdi: "Yo'q, sen meni aldayapsan. Bunaqa shirin, tilyorar qovun bu yerlarda bitmaydi. Boshqa joydan keltirgansan. To'g'risini aytsang, gunohingdan kechaman, bordi-yu, meni aldab, yana yolg'on gapiradigan bo'lsang, boshingni tanangdan judo etaman", — debdi.

Shoir va fozil Boburshohni aldab bo'lmasligini bilgan bog'bon rostini aytishga majbur bo'libdi.

— Farg'ona viloyatining Namangan shahridan keltirdik, — debdi bog'bon ko'ziga jiqqa yosh olib. — Rost aytdingiz, shohim, bunaqa qovun, siz aytganingizdek, faqat o'sha yoqlarda bitadi. Namangan shakarpalagi degani — shu...

Bog'bonning gapidan Boburshohning ko'ngli buzilib, yig'lab yuborishiga





ozgina qolibdi. Bog‘bon: “Shohim, qovunni qayerdan olib kelganimni so‘rab bilib oldingiz. Endi nima qilsangiz, ixtiyor o‘zingizda. Ammo o‘limim oldidan men ham sizdan bir so‘rovimga javob berishingizni tilayman”, — debdi. Boburshoh: “So‘ra so‘rovingni”, — degan ekan, bog‘bon: “Qovun bu yerdan emasligini qanday bildingiz?” — debdi. “Hidi, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona-yurtim qovuni ekanligini angladim. Rahmatli ota-onam bog‘idagi polizda shunaqa shakarpalak ko‘p bo‘lardi. Uzoq Hindu yurtida turib, Namangan shakarpalagi bilan siylaganing uchun gunohkor bo‘lmay, in‘om-ehsonlarga loyiqsan”, — deb Boburshoh bog‘bonga rahmatlar aytib, bir sidra sarpo beribdi-da, ushbu ruboiyni o‘qibdi:

Tole yo‘qligi jonimga balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo, Rab, netayin, bu ne yuz qarolig‘ bo‘ldi!

BERUNIYNING DAM OLISH KUNLARI

Beruniy yiliga ikki martagina dam olarkan. Birinchisi Navro‘z bayrami boshlangan kuni, ikkinchisi bug‘doyga birinchi o‘roq tushganda.

Dillarni xushnud etib Navro‘zi olam yetib kelgan kuni erta tongdanoq o‘rinlaridan turib, yuvinib-taranib, yaxshi liboslarini kiyib, qarindosh-urug‘larni, keyin yor-u birodarlarni ziyorat qilib, holidan xabar olar ekanlar. Ular bilan birga bo‘lib suhbatlashar, hazil-mutoyiba qilar, askiyalar aytishar ekanlar. Keyin to qosh qorayguncha qo‘sh qo‘shishar, yerga birinchi omoch solishda qatnashar, nihol ekisharkan...

Hol-ahvol so‘raganlarga:

— Dam olib, hayot lazzatini totib ko‘rmoqdaman, — deb javob berar ekanlar.

Boshhoqqa birinchi o‘roq tushgan kuni ham dehqoncha libos kiyib olib,



qo'llariga o'roq tutib azondan-to kechgacha bug'doy o'rar ekanlar. O'tgan-ketganlar: "Hormang", — deganda: "Bor bo'ling", — deb javob berar ekanlar. Qarang-a, ulug' alloma mutolaa, kitob yozish, tajriba o'tkazishdan yiliga ikki kun vaqt ajratib, azondan to kechgacha qo'sh qo'shib, shudgor qilishni, o'roq o'rishni o'zlari uchun dam olish deb bilar ekanlar.

Ha, Beruniy: "Bir daqiqa vaqtni behuda o'tkazganim — halok bo'lganim", — der ekanlar.

LUQMONI HAKIM

*L*uqmoni Hakim dunyoga dong'i ketgan tabib ekan. U odamlarning dil-dilini, gilyohlarning, jamiki hayvon, jonli-jonsiz mavjudotlarning tilini ham bilar ekan. Ular xastalansa, dardga chalinsa, davolar ekan.

Kunlardan bir kuni bir kishining ko'zi qattiq og'rib qolibdi. U ko'zini juda ko'p tabiblarga ko'rsatibdi, davo topa olmabdi, olim-u ulamolarga boqtiribdi, shifolanmabdi. Oxiri izlab-izlab, uzoq bir o'lkada yashovchi Luqmoni Hakim haqida darak topib, uning oldiga boribdi. Luqmoni Hakim ko'zi og'rgan kishining u yoq-bu yog'ini ko'rgan bo'libdi-da, oyog'iga xina qo'yishni maslahat beribdi. Shunda bemor tabibga qarab,

— Ey, ulug' hakim, bu nima deganing, yo men bilan hazillashayapsanmi? Axir, mening oyog'im og'rigani yo'q-ku, unga xina qo'ysam. Ko'zim og'ri-yapti, ko'z qayoqda-yu, oyoq qayoqda? — deb xafa bo'libdi. Shunda Luqmoni Hakim bemorga shunday debdi:

— To'g'ri aytasan, men ham sening qayering kasalligini ko'rib-bilib turibman: sening ko'zing og'rgan, bizning fahm-u farosatimizga ko'ra, ko'zning bir tomiri oyoqning ostida joylashgan. Sening o'sha joying, ya'ni ko'zingning oyog'ing ostiga ulangan tomiri shamollagan. Shunga xina qo'ysang, zora ko'zing tuzalib, asl holiga qaytsa.

Ko'zi og'rgan kishi Luqmoni Hakim aytganday qilib, oyog'ining tagiga xina qo'ygan ekan, ikki-uch kun o'tmasdan tuzalib, hech narsa ko'rmaganday bo'lib ketibdi.



SUMALAK – KO'KLAM MO'JIZASI

Aytishlaricha, qadim zamonlarda bir kambag'al ayol yashagan ekan. Uning Hasan-Husan degan o'g'illari ham bo'lib, ular hali juda yosh ekanlar. Ayolning topgan-tutgani qishligiga zo'rg'a yetib, bir amallab ko'klamga chiqib olibdilar. Uylarida yegulik hech vaqolari qolmabdi. O'zi-ku, mayliku-ya, lekin ikki norasidasining qorinlari ochib, non so'rab, zor-zor yig'lashlarini ko'rib, onaizor chidab turolmabdi. Ularni o'yin-kulgu bilan ovutmoqchi bo'lgan ekan, bari bir egizaklar xarxasha qilaveribdilar. Shunda ona bechora nima qilarini bilmay, o'choq boshiga boribdi-da:

– Bolalarim, birpasgina o'ynab o'tiringlar, men hozir sizlarga ovqat pishirib beraman, — deb qozonga suv solib, tagiga o't qalabdi. So'ngra dalaga chiqib, o'tgan yilgi bug'doypoyadan bug'doy tomirlarini, endigina nish ura boshlagan har xil o't-o'lanlardan terib kelib, yaxshilab yuvibdi-da, qozonga solibdi. Un xaltasini, suprasini qoqishtirgan ekan, bir-ikki kappa un-urvoq chiqibdi, uniyam qozonga tashlab, qaynataveribdi. Kavlayotganda ovozi chiqib, bilinib tursin uchun besh-oltita toshchalarniyam yuvib qozonga tashlabdi-da, cho'mich bilan aylantiraveribdi. Har aylantirganda toshlar sharaqlab ovoz chiqarar, buni eshitgan Hasan bilan Husan: “Onamiz bizga ovqat pishiryaptilar”, — deb suyunishib, o'ynay boshlashibdi. Tun yarmidan og'ganda bolalar o'ynay-o'ynay charchab, oxiri uxlab qolibdilar. Ona bo'lsa qozonni kavlashdan to'xtamay, go'daklari och-nahor uxlab qolganliklariga ichi achishib, ko'z yoshi shoshqator bo'lib, Tangriga iltijo qilibdi: “Ey, Xudo, shu pishirayotgan ovqatimga nazar tashla. Ikki norasidaning rizqini o'zing yetkaz, shirinligingni ato qilgin. Biz g'ariblardan marhamatingni darig' tutma”.

Tongga yaqin ona ham kavlashdan charchab, qozonning qopqog'ini yaxshilab yopib, damlabdi-da, bolalarining yoniga yonboshlab uyquga ketibdi. Ertalab bolalarining shovqinidan uyg'onib ketibdi. Qarasa, Hasan-Husanlar qozonga qo'lchalarini tiqib, nimanidir yalashayotganmish. Mo'jiza ro'y berganidan onaizorning o'zi ham hayratlanibdi. So'ngra jimjilog'i bilan qozondagi taomdan yalab ko'rsa, shirin narsa ekan. Shunda bolalari:

– Ona, bu ovqatingizning nomi nima? — deb so'rashgan ekan, ona qozon



to‘la qizg‘ish shirinlikni bolalar tez-tez barmoqlari bilan yalayotganliklariga qarab turib:

— Bolalarim, bu maloyikalarning karomati bilan pishdi. Uning oti sermalak, — debdi.

Bu so‘z keyinchalik “sumalak” bo‘lib o‘zgarib ketgan ekan. Hatto hozir ham keksa onaxonlarimiz-u, pir-u badavlat otaxonlar sumalakni tatib ko‘rishdan avval: “Qani, Hasan-Husanlarning taomidan yalaylik”, — deb, avval jimjilog‘lari bilan yalashadi. Sumalak pishirish udumi ana shundan kelib chiqqan ekan.





Jahon xalqlari ertaklari

NIMA UCHUN INSON DUNYODA HAMMADAN KUCHLI?

(Qirg'iz xalq ertagi)

Kunlardan bir kun qirg'ovul soy bo'yiga suv ichishga kelibdi. Suv muzlab qolgan ekan, uni tumshug'i bilan teshib, ko'pmi, ozmi suv ichibdi. Biroq qanoti muzga yopishib qolibdi.

— Sen muz, juda kuchli ekansan-ku! — xitob qilibdi qirg'ovul.

— Yo'q, qirg'ovul, — javob qilibdi muz. — Mendan yomg'ir kuchli. Yomg'ir yog'ganda men eriyman.

Yomg'ir bo'lsa:

— Nahotki, men kuchli bo'lsam? Yer ancha kuchli. U meni o'ziga shimib oladi, — debdi.

Shunda yer gapga kirib:

— O'rmon mendan kuchli. U mening ustimda turadi, barglari bilan shitirlab, bor kuchimni so'rib oladi, — debdi.

— Yo'q, mening kuchim unchalik emas, — debdi o'rmon. — Olov mendan kuchli. Alanga olsa bormi, ho'l-quruq baravar yonadi.

Bu so'zlarni eshitgan olov, shunday debdi:

— Men shamoldan qo'rqaman. U meni o'chirishi mumkin.

— Men darxtni ildizi bilan qo'porishga, alangani o'chirishga qurbim yetadi, — debdi shamol. — Bu to'g'ri. Lekin kichik bir oddiy maysadan kuchsizman. Qanday shamol esmasin, u tiklanib olaveradi. Maysa hammadan kuchli!

Bunga maysa e'tiroz bildiribdi:

— Menda hech qanday kuch yo'q. Qo'y meni yeb qo'yadi. Menimcha, qo'y hammadan kuchli bo'lsa kerak.

Buni eshitgan qo'y, bosh chayqab:



— Menda qanday kuch bo‘lsin? Bo‘ri kelib qolsa bormi, dumbamdan ayrildim deyavering! Yaxshilab o‘ylab ko‘ring! Hammadan kuchli o‘sha emasmikan? — debdi.

Birdaniga bo‘ri paydo bo‘lib qolibdi.

— Sizlar hech narsani bilmaysizlar, — debdi u. — Dunyoda inson hammadan kuchli! U qirg‘ovullarni tutadi, muzni eritadi, yomg‘irga ham bo‘sh kelmaydi, yerni chopadi, o‘rmonni kesadi, olovni o‘chiradi, shamolni o‘ziga bo‘ysundiradi, maysa-o‘tlarni o‘radi, qo‘yni so‘yadi, biz bo‘rilarni ham o‘ldiradi.

Shundan keyingina dunyoda hammadan kuchli inson ekani barchaga ayon bo‘libdi.

O‘ZBOSHIMCHA OPA-SINGILLAR

(Qirg‘iz xalq ertagi)

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda bir cholning uch qizi bo‘lgan ekan. Qizlar tantiq, o‘zboshimcha bo‘lib o‘shishibdi, ota-onalariga ko‘p azob berishibdi. Onalarining o‘limidan so‘ng ular yana ham qaysar bo‘lishibdi. Otalari shovqin qilmasliklarini buyursa, qizlar jo‘rttaga to‘s-to‘polon o‘yinlarini boshlasharkan. Otalari ularga qandaydir ish topshirsa, qizlar o‘zlarini kasallikka solisharkan. Otalari ro‘zg‘or ishiga ko‘maklashishlarini iltimos etsa, mingta sabab topishib, rad etisharkan.

Bir kun qizlar o‘rmonga meva terishga borishmoqchi bo‘lishibdi. Otalari ularga yolg‘iz bormanglar, — debdi, lekin qizlari o‘jarlik qilishibdi.

— Adashib qolishlaring mumkin, — deb ogohlantiribdi ularni otasi, qizlar quloq solishmabdi. Shunda otasi sandiqdan bir taroq olib katta qiziga, o‘rtanchisiga nina, kichigiga bo‘lsa oyna beribdi.

— Bu narsalarni yo‘qotmanglar, — tayinlabdi otasi. — Ularda sehrli kuch bor. Agar baxtsiz hodisaga duch kelsangiz, bular sizga yordam beradi, — debdi.



Katta qizi taroqni, o'rtanchasi ninani, kichigi esa oynani olishib, o'rmon tomon ketishibdi. Qizlar o'rmon oralab ko'p yurishibdi, savatlarini to'ldirib har xil mevalar terishibdi. Qorong'i tushibdi. Opa-singillar tezroq uyga qaytishga qaror qilishibdi, yurishibdi-yurishibdi, lekin o'rmonning cheti ko'rinmash. Vahimaga tusha boshlashibdi. Yig'lashibdi.

Shunday qilib, tuni bilan o'rmonda o'tirib chiqishibdi. Ertalab yana yo'l axtarishib, nihoyat, kechga yaqin o'rmondan chiqishibdi. Biroq ular boshqa tomondan, notanish yerdan chiqib qolishibdi. Yana yo'l yurishibdi, juda charchashibdi. Birdaniga yakka turgan o'tovga ko'zlari tushibdi. Opa-singillar o'tovga kirishibdi. U yerda jajjigina qizcha bor ekan.



– Bu yerda kim turadi? – so'rashibdi opa-singillar.

– Bu yerda yovuz yalmog'iz kampir turadi,
– javob beribdi jajji qizcha.

– Sen bu yerga qanday qilib kelib qolding? – qiziqsinib so'rashibdi ular.

– Meni yalmog'iz kampir o'g'ir-lab, bu yerga olib kelgan. U har kuni kechasi ovga chiqadi.

Opa-singillar juda qo'rqib ketishibdi, lekin nima bo'lsa ham, kechasi

sahrodan o'tishga xavfsirashib, shu yerda tunab qolishibdi, ertalab, yalmog'iz kelguncha yo'lga otlanishga ahd qilishibdi.

Shunday qilib, erta-azon payti opa-singillar uyg'onishib, kichkina qizchani o'zlari bilan olishib, yo'lga chiqishibdi.

Yalmog'iz charchab, g'azablanib, och qaytibdi, qarasa, qizcha yo'qmish.

“Uzoqqa ketolmagan bo'lsa kerak”, — deb o'ylabdi. Yalmog'iz qizchani ketidan quvlashga tushibdi. Tez orada opa-singillar tapir-tupur oyoq tovushini eshitishibdi, xuddi bir to'da otlar poyga qilib ularning orqasidan yetib kelayotganga o'xsharmish. Orqalariga qarashsa, yalmog'iz kampirning ularga yetib olishiga ozgina qolibdi.



Uzoq o‘ylab o‘tirmasdan katta opalari yalmog‘izning oyoqlari tagiga taroqni tashlabdi. Shu zahotiyuq u yerda o‘tib bo‘lmaydigan qalin o‘rmon ko‘tarilibdi.

Yalmog‘iz o‘zining ikki tishini sug‘urib olibdi. Biridan bolta, ikkinchisidan arra yasabdi. Arra bilan bir tortsa, bolta bilan bir ura, bitta daraxt qularmish. Shunday qilib, yalmog‘iz o‘rmondan chiqib olibdi.

Yalmog‘iz yana qizlarga yetib olay deb qolganida, o‘rtancha opalari yo‘lga ninani tashlabdi va shu zahoti u yerda baland tog‘ qad ko‘taribdi. Bulutlardan balandmish.

Yovuz yalmog‘iz tog‘dan bir amallab o‘tibdi, endi qizlarga yetib olay deganda, kichik singillari oyoq ostiga oynani tashlabdi. Shu zahoti chuqur bir ko‘l paydo bo‘libdi.

Yalmog‘iz bir qirg‘oqda, opa-singillar bilan jajji qizcha boshqa qirg‘oqda turisharmish.

Kampir nima qilishini bilmasmish.

— Qanday qilib narigi qirg‘oqqa o‘tdinglar? — deb muloyim ovoz bilan so‘rabdi yalmog‘iz.

— Biz bo‘ynimizga og‘ir toshni boylab suzib o‘tdik, — deb javob beribdi hammasining o‘rniga jajji qizcha.

Yalmog‘iz kampir kichkina qizchaning so‘ziga ishonib, bo‘yniga katta toshni boylab, suvga o‘zini tashlagan ekan, cho‘kib ketibdi.

Shundan keyin, opa-singillarning eson-omon o‘z uylariga yetib olishlariga hech nima to‘sqinlik qilmabdi. Ular hech qachon o‘z otalaridan ajralmaydigan, gapiga quloq soladigan qizlar bo‘lishibdi. Jajji qizcha ham ular bilan birga yashab qolibdi.

DUB DARAXTI BILAN QO‘ZIQORIN

(Litva xalq ertagi)

Yosh dub daraxtining yonginasidan qo‘ziqorin o‘sib chiqibdi, o‘zi se-miz, qalpog‘i bir yoqqa qiyshaygan emish.

— Amaki, necha yoshga kirdingiz? — deb so‘rabdi u dub daraxtidan.





– Beshga qadam qo'ydim, — debdi dub.

– Men endigina dunyoga keldim. Shunday bo'lsa ham, sizga yetay deb qolibman-a. Shu o'sishda ketaversam, keyin nima bo'ladi? Amaki chetroqqa chiqib tursangiz-chi, menga joy torlik qilib qoladiganga o'xshaydi, — debdi qo'ziqorin.



– Hovliqma! Uch-to'rt kun sabr qil-chi, u yog'i nima bo'lishini keyin ko'ramiz, — debdi dub daraxti.

Bir kun o'tibdi, ikkinchi kun ham o'tibdi. Qo'ziqorin kunlab emas, soatlab o'saveribdi. Dub daraxti uning bu o'sishidan tashvishga tushib qolibdi. Lekin qo'ziqorin uchinchi kuniga o'tganda bir yonga qarab egilib ketaveribdi.

– Dub amaki, siz hali ham tik turibsizmi? — debdi qo'ziqorin.

– Ha, turibman, — debdi dub.

– Men yonboshimga qiyshayib ketyapman, boshimga ham bir balo

bo'lganga o'xshaydi, — debdi qo'ziqorin.

Ko'p o'tmay qo'ziqorin yiqilib tushibdi. Dub daraxti bo'lsa hali ham turganmish.

QUYONNING LABI NEGA TIRTIQ?

(Eston xalq ertagi)

Bir kun quyonlar baland bir qarag'ay tagiga to'planib o'zlaricha maslahat qilishibdi. Ular kuyib-pishib, har qaysisi o'z taqdiridan nolibdi.

Eng kekxa quyon esa shunday debdi:

– Qadrli og'aynilarim! Quyonlarning ko'rgan kuni qursin. Buta shitirlab qolsa ham, quyonni vahima bosadi, daraxtning bargi uzilib tushsa ham, quyonning yuragi shig'illaydi. Bizni kim ko'rsa: “Ana quyon! Ushla uni!” —



deb qichqiradi. Biz hammadan qo‘rqamiz, bizdan esa chivin ham qo‘rqmaydi. Yuringlar, yaxshisi, bu alamni tortavergandan ko‘ra, borib o‘zimizni dengizga tashlaymiz. Baribir, axir, bir kun o‘lamiz.

Keksa quyonning gapi hammaga ma‘qul tushibdi. Ular o‘zimizni g‘arq qilamiz, deb dengizga tomon yugurishibdi.

Dengiz yoqasidagi yaylovda katta qo‘y podasi o‘tlab yurgan ekan. Podadagi bir qo‘y, chopib kelayotgan quyonlar galasini ko‘rib, hurkib ketibdi va ma‘raganicha qochib qolibdi. Uning ketidan esa butun poda ura qochibdi. Qo‘ylar qayoqqa qochayotganini o‘zlari ham anglashmabdilar. Quyuqlari qaltirab, tuyoqlari taqirlarmish.



Qo‘ylar ketidan hurganicha itlar ham yugurib ketishibdi. Cho‘ponlar baqirib-chaqirib tayoqlarini siltabdilar. Qiy-chuv, to‘polon boshlanibdi.

Bu hol quyonlarga juda qiziq ko‘rinibdi. Ular o‘tirib olib, rosa xoholab kulishibdi. Kulaverishganidan ularning lablari yirtilib ketibdi.

— Yo‘q, bizning ham ishimiz yomon emas ekan! Birlashsak, biz ham kuchli bo‘lar ekanmiz! — deyishibdi.

Shundan so‘ng quyonlar o‘zlarini dengizga tashlash fikridan voz kechishibdi, ammo lablari tirtiqligicha qolibdi.



MASHA BILAN AYIQ

(Rus xalq ertagi)

Bir chol bilan kampir bo'lgan ekan. Ularning Mashenka degan nabiralari bor ekan. Bir kuni qizchanning dugonalari o'rmonga borib, qo'ziqorin va mevalar terib kelish uchun to'planishibdi.

— Bobojon, buvijon, — debdi Mashenka. — Men ham o'rtoqlarim bilan o'rmonga borib mevalardan terib kelsam maylimi?

Bobosi bilan buvisi:

— Mayli, bora qol, lekin ehtiyot bo'l, o'rtoqlaringdan ajralma, agar ular-dan qolib ketsang, adashib qolasan, — debdilar.

Qizlar o'rmonga borib, qo'ziqorin va har xil mevalar tera boshlabdilar.

Mashenka u daraxtdan bu daraxtning, u butadan bu butaning tagiga o'tib yurib, o'rtoqlaridan ancha olisga ketib qolibdi. Shunday keyin ovozi boricha qichqirib, o'rtoqlarini chaqira boshlabdi. Lekin o'rtoqlari uni eshitmabdilar, shuning uchun ovoz berishmabdi.

Mashenka esa o'rmonda yuraverib, oxiri butunlay adashib ketibdi.

U o'rmonning eng xilvat, chakalakzor yerlariga borib qolibdi. Bir mahal uning ko'zi kichkina bir uychaga tushibdi. Mashenka eshikni taqillatgan ekan, hech kim ochmabdi. Shundan keyin eshikni bir itargan ekan, eshik ochilib ketibdi.

Mashenka uyga kiribdi va deraza yonidagi kursiga o'tiribdi. “Bu yerda kim turarkin? Nega hech kim ko'rinmaydi?” — deb o'ylabdi.

Bu uyda kattakon bir ayiq yasharkan. Qiz kelgan vaqtda ayiq o'rmonga ketgan ekan. Kechqurun uyiga qaytib kelibdi, qarasa, Mashenka o'tirganmish. Qizchani ko'rib ayiq xursand bo'lib ketibdi.

— A-ha, endi seni qo'yib yubormayman. Menikida yashaysan. Pechkaga o't yoqasan, ovqat pishirasan, meni parvarish qilasan.

Mashenka xafa bo'libdi, qayg'uribdi, lekin hech iloj qilolmabdi. U ayiqning uyida yashayveribdi.

Ayiq Mashenkaga: Mendan ruxsatsiz bir qadam ham nari ketmaysan”, — deb o'zi kuni bilan o'rmonda yurar ekan.



— Agar qochib ketsang, qo‘limga tushgan kuning g‘ajib tashlayman, —
derkan.

Mashenka qanday qilib ayiqning qo‘lidan qutilish yo‘lini o‘ylay boshlabdi.
Hammayoq o‘rmon, qaysi tomonga borishini, kimdan, so‘rashini bilmabdi...
O‘ylay-o‘ylay oxiri qutilish chorasini topibdi.

Bir kuni ayiq o‘rmondan qaytib kelganida, Mashenka unga:

— Ayiqjon, ayiqjon, menga bir kunga qishlog‘imga borib, buvam bilan
buvimga sovg‘alarimni tashlab kelishimga
ruxsat ber, — debdi.

— Yo‘q, — debdi ayiq. — Sen o‘rmon-
da adashib qolasan. Sovg‘alaringni ber,
o‘zim olib boraman.

Mashenka ham xuddi shu javobni ku-
tib turgan ekan. U somsa yopibdi-da sa-
vatga solib ayiqqa:

— Mana ko‘r: men savatga somsa sola-
man, sen buni buvam bilan buvimga olib
borib berasan. Lekin shuni esingda tutki,
yo‘lda savatni ochib, somsadan zinhor
ola ko‘rma. Men to‘nka ustiga chiqib
orqangdan qarab turaman.

— Xo‘p, savatni ber, — debdi ayiq.

Mashenka unga yana shunday debdi:

— Eshikka chiqib qara-chi, yomg‘ir yog‘mayotganmikin?

Ayiq eshikka chiqishi bilanoq, Masha savatga tushib, somsa solingan idishni
boshiga qo‘yib olibdi. Ayiq qaytib kirib qarasa, savat tayyormish. Savatni orqalab
qishloqqa qarab ketibdi.

Ayiq archa va qayinzorlar oralab, soy kechib, qir oshib ketaveribdi. Yo‘l
yuribdi, yo‘l yursa ham, mo‘l yuribdi, oxiri charchab bunday debdi:

To‘nkaga o‘tiranman,
Somsani tushiraman.





Mashenka bo'lsa, savatdan turib debdi:

Ko'rib turibman seni,
To'nkaga o'tirma hech!
Somsaning bahridan kech!
Olib borgin buvamga!
Eltib bergin buvimga!

– Obbo, qurmagur-ey, ko'zlari juda o'tkir ekan-ku, hamma narsani ko'rib turibdi-ya, — debdi ayiq.

U savatni ko'tarib yana yo'lga tushibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham, mo'l yuribdi, oxiri bir yerga borib o'tiribdi-da, shunday debdi:

To'nkaga o'tiraman,
Somsani tushiraman.

Masha bo'lsa, yana savatdan turib debdi:

Ko'rib turibman seni
To'nkaga o'tirma hech!
Somsaning bahridan kech!
Olib borgin buvamga!
Eltib bergin buvimga!

Ayiq yana hayron bo'libdi:

– Obbo, ko'zi o'tkir-ey, balandda o'tirib olib, uzoqni ko'ryapti-ya!

Ayiq yana o'rnidan turib, tez-tez yura boshlabdi, qishloqqa yetib kelibdi. Chol bilan kampir yashaydigan uyni topibdi. Eshikni taqillatibdi.

– Taq-taq-taq! Oching! Oching! — debdi. — Men sizlarga Mashenkadan sovg'a olib keltirdim.

Kuchuklar ayiqni ko'rib, unga tashlanibdilar. Qo'shni hovlilardagi itlar ham vovullab kelaveribdilar.



Ayiq qo‘rqib ketganidan savatni eshik oldiga qo‘yib, o‘zi orqasiga qaramay, o‘rmonga qochib ketibdi.

— Bundagi nima ekan? — debdi kampir.

Chol savatni ochib qarabdi-da, o‘z ko‘ziga ishonmay qolibdi: savatning ichida soppa-sog‘ Mashenka o‘tirganmish.

Chol bilan kampir o‘zlarida yo‘q sevinib ketishibdi. Mashenkani o‘pib, quchoqlab, aqlli qizim, — deb atay boshlabdilar.

O‘N IKKI OY

(Slovak xalq ertagi)

Bir ayolning ikki qizi bo‘lgan ekan. Qizlarning birini ayol o‘zi tuqqan bo‘lib, ikkinchisi o‘gay ekan. Ayol o‘z qizini jonidan yaxshi ko‘rar, ammo o‘gay qizini ko‘rishga toqati yo‘q ekan. Bunga sabab o‘gay qiz Marushka Olenadan chiroyliroq ekan. Ammo Marushka o‘zining husn-malohatidan bebahra ekan, husn haqida o‘ylamas ham ekan. O‘gay ona uni ko‘rishi bilan qovoqlarini uyib olishidan boyaqish qiz o‘gay onamga nimadir yoqmadi, shekilli, deb o‘ylar ekan.

Olena yasan-tusan bilan o‘ziga oro berar, ko‘cha-ko‘ydami, hovlidami, sayr etib, hordiq chiqararkan. Marushka bo‘lsa bu paytda uy-joylarni supurib-sidirish bilan mashg‘ul bo‘larkan. U ovqat pishirar, kir yuvar, bichib-tikar, ip yigirar, xullas, to‘r to‘qishdan tortib mol-hollarga qarashgacha uning zimmasida ekan. O‘gay ona Marushkani erta-yu kech koyir, tinimsiz qarq‘ar ekan. Qizning itoatkorligi, andishaliligi ham ayolning dilini yumshatmas, aksincha, battar xo‘rlagani-xo‘rlagan ekan. Bunga sabab Marushka kun sayin chiroy ochib borar, Olena bo‘lsa tasqaralashib borarkan.

Bir kuni ayolning xayoliga shunday o‘y kelibdi: “Go‘zal qizni nega uyimda saqlayapman o‘zi? Yigitchalar uyimga kirishganda Marushkaga oshiq bo‘lib, Olenani pisand qilmasliklari mumkin”.



Olena bilan onasi maslahatlashibdi-da, hech kimning yetti uxlab tushiga kirmagan shumlikni o'ylab topishibdi...

— Bor, Marushka, o'rmondan menga qirmizi olma terib kel, — deb buyuribdi.

— Voy o'lmasam, opajon, bu nima deganingiz? Qish payti o'rmonda olma qayoqdan bo'lsin!

— O'chir ovozingni, isqirt! Gapimni ikki qilishga qanday tiling bordi? Hoziroq o'rmonga g'izilla, qirmizi olma terib kel, yo'qsa, naq boshingni uzib tashlayman! — deb do'q uribdi Olena.

Shundan so'ng o'gay ona Marushkani tashqariga haydab, eshikni qarsillatib yopibdi-da, katta qulf uribdi.

Qiz zor-zor yig'lab o'rmon tomon yo'l olibdi. O'rmonni qalin qor qoplagan, odam izi ko'rinmaskan. Marushka daraxtlar orasida uzoq tentirab yuribdi. Ochlikdan qiynalibdi, sovuq badan-badanidan o'tib ketibdi. Uzoqdan yiltillab turgan olovni ko'rib, Marushka o'sha yoqqa yuribdi. Gulxan yonidan chiqibdi. Gulxan tevaragida o'n ikki odam — o'n ikki oy davra qurib o'tirarkan, ulardan eng balandda soch-soqoli oppoq chol — Yanvar hassa ushlab o'tirarkan.

— Hoy, yaxshilar, isinib olsam maylimi? Sovuq suyak-suyagimdan o'tib ketdi, — deb iltimos qilibdi Marushka.

Yanvar, mayli, deganday bosh silkib so'rabdi:

— Nega kelding, oyimqiz?

— Qirmizi olma terгани keldim, — deb javob qaytaribdi Marushka.

— Hozir qish. Qahraton sovuqdayam qirmizi olma bo'larkanmi? — taajjulanibdi Yanvar.

— O'zim ham bilaman buni, — ma'yus javob qaytaribdi Marushka. — Lekin o'gay onam bilan Olena, agar o'rmondan qirmizi olma terib kelmasang, naq boshingni uzib tashlaymiz, deyishdi. Jon amakilar, meni qo'llab yuboringlar.

Yanvar o'tirgan o'rnidan pastga tushib, yoshi ulg'aygan oylardan biri yoniga borarkan, hassani unga berib shunday debdi:

— Birodarim Sentyabr, o'rnimga sen o'tir.

Sentyabr eng baland xarsangga chiqib o'tirib hassani silkitibdi. Gulxan ko'tarilib qorlar eribdi. Ammo daraxtlar yaproq chiqarmabdi, balki sarg'ish



barglar bitta-bitta to‘kila boshlabdi. Borliqni kuz fasli egallabdi. Bu safar odatdagidek avval gullar ko‘rinmabdi. Aksincha, u olma daraxtini ko‘ribdi, daraxt uchlarida qirmizi olmalar ko‘zni o‘ynatib turarkan.

– Qoq, Marushka, qoqsang-chi? – debdi Sentyabr.

Qiz daraxtni silkitgan ekan, avval bitta, so‘ng yana bitta olma to‘kilibdi.

– Marushka, tez olmalarni olib, uyga g‘izilla! – deb qichqiribdi Sentyabr.

Qiz ikkitagina olma olib uyga shoshilibdi.

Marushkani ko‘rgan o‘gay ona bilan Olena hang-mang bo‘lib qolibdi, qiz qo‘lidagi ikkala olmani ularga uzatibdi.

– Qaysi go‘rdan ola qolding bularni? – so‘rabdi Olena.

– Tog‘ tepasidan topdim. Hali anchagina olma bor, — javob qaytaribdi Marushka.

Qiz shunday deyar-demas, Olena unga o‘shqira ketibdi:

– Voy, yaramas isqirt! Nega unda ko‘proq terib kelmading? Hoynahoy, yo‘lda yeb qo‘ygan bo‘lsang kerak-da?

– Opajon, sirayam yeganim yo‘q. Daraxtni bir silkitgandim, bitta olma tushdi, keyingi silkitganimda, ikkinchisi tushdi. Boshqa silkitishga imkon bo‘lma-
di. Tezroq uyga bor deyishdi, — deb javob qaytaribdi Marushka.

– Ha, og‘zingdan qoning kelsin! – deya qarq‘abdi Olena va qizni kaltaklashga tushibdi.

O‘gay ona ham bo‘sh kelmay to‘qmoqqa yopishibdi. Ammo Marushka jon talvasasida ularning qo‘lidan otilib chiqibdi-da, oshxonadagi pech ortiga yashirinibdi. So‘ng Olena tura solib olmalarga yopishibdi. Bitta olmani onasiga beribdi. Ular umrlarida bunday shirin-shakar olmani ko‘rishmagan ham, yeyishmagan ham ekanlar.

– Oyi, savat qani? O‘zim o‘rmonga borib kela qolay. Manavi nafsi buzuqni yuborsak, tag‘in ko‘pini yo‘lda yeb qo‘yadi. Men qo‘rqmayman, hamma olmalarni o‘zim qoqib olib kelaman.

Ona zo‘r berib yo‘ldan qaytarsa ham, Olena ko‘nmay, qalin kiyimlarini kiyibdi-da, o‘rmon tomon yo‘l olibdi. Ona javrana-javrana uyda qolaveribdi.

Olena o‘rmonga yetib boribdi. Hammayoqni qalin qor qoplagan, odam izi ko‘rinmasmish. Suq qiz ancha vaqt daraxtlar orasida uloqib yuribdi, hakalak



otgan nafsiga unga tinchlik bermabdi. Banogoh olisdan milt-milt olov ko'rinibdi. Olena o'sha yoqqa yurib, gulxan ustidan chiqibdi. Gulxan tevaragida o'n ikki odam — o'n ikki oy davra qurib o'tirganmish. Ammo ochko'z qiz ularga salom bermabdi, gulxanda isinib olish uchun ruxsat ham so'ramabdi, go'yo gulxan uning uchun yoqilganday, pisandsizlik bilan qo'llarini olov tomon uzatibdi.

— Nega kelding bu yerga? Nima kerak o'zi? — g'ashi kelibdi Yanvarning.

— Nega tergayapsan meni, sassiq chol? Aralashma, nima qilsam, o'zimning ishim! — Shartta uning gapini qaytarib tashlabdi Olena va go'yo olmalar unga intizorday tog' tomonga yo'llanibdi.



Jahldan Yanvarning qovog'i uyulibdi, hassani boshi uzra silkitibdi. Shu zahoti osmonni qora bulut qoplabdi-yu, gulxan so'nib, gupillatib qor yog'a boshlabdi, izg'irin shamol kuchayibdi. Olena bir qadam naridagi narsani ham ko'rolmay, oyoqlari qalin qorga botib, yurolmay qolibdi.

Nihoyat, qo'l-oyoqlarini sovuq olib, tizzalari bukilib-bukilib keta boshlabdi, ko'p o'tmayoq u majolsiz qor ustiga yuztuban ag'darilibdi...

Uyda esa onasi qizidan xavotir olib derazadan termilar, dam-badam tashqariga chiqib yo'l qarar ekan. Oradan bir soat, ikki soat, uch soat o'tibdi, lekin Olenadan darak bo'lmabdi. "Nega bunday hayallab qoldi, to'ymadimikin olmaga, o'zim borib xabar olay-chi", deb ona savat olibdi-da, jun ro'molga o'ranib-chirmanib qizini axtarib ketibdi.

Qor kuchaygandan, kuchayib izg'irinli shamol avj olibdi, chor-atrof butunlay qor ostida qolibdi. Ona zo'r-bazo'r odimlab, qizini chaqirar, lekin hech kim javob qaytarmabdi. Oxiri onaning o'zi ham yo'ldan adashib, qayoqqa yurishini bilmay qolibdi va qizi Olenani qarg'ay boshlabdi. Ko'p o'tmay sovuq suyak-suyagidan o'tib hushidan ketibdi va yuztuban qorga ag'darilibdi...

Marushka bo'lsa uyda tushlikni tayyorlab, ichkarini supurib-sidiribdi, sigir sog'ibdi. Ammo o'gay ona bilan Olenadan hamon darak yo'q emish.



– Nega buncha xayollashdiykin? – deya xavotirlana boshlabdi Marushka kechga tomon ip yigirishga o‘tira turib. Shu alpozda Marushka yarim tungacha o‘tiribdi, ona bilan qizdan darak bo‘lmabdi. Marushkaning yuragi g‘amga to‘lib, derazadan sira nari ketmay qo‘yibdi.

Tashqarida odam zoti ko‘rinmasmish, bo‘ron ham to‘xtab havo ochilib, yulduzlar charaqlabdi, qor uzra oyning kumush nurlari to‘kilibdi, Marushka ma‘yuslanib pardani tushiribdi. Ertasiga u nonushtada, tushlik paytida, oqshom chog‘i tag‘in ona bilan Olenaning yo‘liga ko‘z tutibdi.

Ammo ularning ikkalasi ham sovuqdan tosh qotib qolganini qayoqdan bilsin.

Marushkaga uy, sigir, poliz, yaylov meros qolibdi. Ko‘klam kelib bu xonadonga bir erkak egalik qila boshlabdi. Gap shundaki, xushro‘y, oqko‘ngil bir yigit Marushkaga uylanibdi. Ular umrlarining oxirigacha tinch-totuv hayot kechirishibdi. Tinch-totuvlik esa hamisha odamlar umrining bezagi bo‘ladi.

MUCHALNING KELIB CHIQISHI

(Xitoy xalq ertagi)

*A*ytishlaricha, qadimda muchal nimaligini bilishmas ekan. Buni odamlarga Yuy-dining o‘zi o‘rgatibdi. U bir kuni o‘z saroyiga jamiki parranda-yu darrandalarni chaqirtiribdi. O‘sha kezlari mushuk bilan sichqon xuddi opa singillarday juda inoq bo‘lishgan ekan. Ular Yuy-dining falakdagi saroyiga taklif qilinganlaridan xursand bo‘lib, u yerga birga borishga qaror qilishibdi.

Mushukning dam-badam mudrashi hammaga ma‘lum, bunday kamchiligi borligini mushukning o‘zi ham tan olar ekan, shuning uchun ham bir kun ilgari sichqonga muloyimlik bilan shunday debdi:

– Singlim sichqonjon, uyquni yaxshi ko‘rishimni bilasan-ku. Iltimos, ertaga saroyga borishdan oldin meni uyg‘ot.

Sichqon oldingi oyog‘i bilan ko‘ksiga urib:

– Men seni, albatta, uyg'otaman! Xotirjam uxlayver! – deb va'da beribdi.
 – Rahmat senga! – debdi mushuk mo'ylabini yalab, keyin xotirjam uyquga ketibdi.

Ertasiga sichqon tong yorishishi bilan uyqudan turibdi. U mushukni uyg'otishni xayoliga ham keltirmabdi. Nonushta qilib, bir o'zi falak saroyiga yo'l olibdi.

Endi ertagimizni dengiz qa'rida yashovchi ajdaho haqidagi hikoya bilan davom ettiramiz. U ham saroyga taklif etilgan ekan.

“Boshqalarni bilmayman-u, ammo meni, albatta, sezishadi”, – deb o'zicha



o'ylabdi ajdaho. Darhaqiqat, shunday ham ekan. Uning ko'rinishi nihoyatda vajohatli ekan: badanini qoplagan zirhi yalt-yult qilar, tumshug'i tagida mo'ylabi dikkayib turarkan. Uning birgina kamchiligi bor ekan, boshida hech narsa yo'q ekan. “Qani endi mening muguzim bo'lsaydi, ana o'shanda hech kim menga go'zallikda teng kela olmasdi!” – deb xayol suribdi ajdaho va birortadan bir haftaga shox qarz olishga qaror qilibdi.



U boshini suvdan chiqarib qaragan ekan, qirg‘oqda yurgan xo‘rozni ko‘ribdi. Xo‘roz ko‘kragini kerganicha u yoqdan-bu yoqqa qadam tashlarmish. O‘sha vaqtlarda xo‘rozlarning katta shoxlari bo‘lgan ekan-da. Ajdaho, suyunib ketib, asta suvdan suzib chiqibdi va xo‘rozga qarab:

— Xo‘roz amaki, hoy, xo‘roz amaki, shoxingizni menga berib turing, men ertaga falak saroyiga boraman, — debdi.

— Ho, ajdaho aka-yey! Meni kechirgin-u, ertaga men ham falak saroyiga boraman-da, — deb javob qilibdi xo‘roz.

— Senga bunday katta shox hecham yarashmaydi, kallang haddan tashqari kichkina, yaxshisi, ularni menga ber. Menga ular juda yarashsa kerak! — debdi ajdaho yalinganday.

Toshlar orasidan sudralib chiqqan mingoyoq ularning suhbatiga qo‘shilibdi. Mingoyoqlar har doim birovlarning ishiga aralashishni yaxshi ko‘rar ekanlar. U ajdahoning gaplarini eshitib:

— Xo‘roz amaki, hoy, xo‘roz amaki! Ajdaho akamizga bir marta shoxingni qarz berib tura qol. Agar xohlasang uning uchun men kafil bo‘laman, u shoxingni, albatta, qaytarib beradi. Xo‘sh, berib turasanmi? — deb so‘rabdi mingoyoq xo‘rozdan.

Xo‘roz rozi bo‘libdi. Shoxlarsiz ham xo‘roz juda ko‘rkam ko‘rinarkan.

Ertasi kuni barcha parranda-darrandalar falak saroyiga tashrif buyurishibdi. Ularning soni beadoq ekan. Yig‘ilganlar huzuriga Yuy-di chiqib:

— Shu bugundan boshlab yillar hisobini parranda-yu darrandalar nomi bilan ataymiz. Qaysi yilga kimning nomi qo‘yilishini o‘zlaringiz hal qilinglar, — debdi.

— Hayvonlar ho‘kiz, ot, qo‘y, it, to‘ng‘iz, quyon, yo‘lbars ajdaho, ilon, maymun, xo‘roz nomlarini aytishibdi.

Nega endi hayvonlar aynan shularni tanlashganini hech kim bilmasmish. Qiziq, nega endi o‘rdak emas, xo‘rozni tanlashgan? Sherni emas, yo‘lbarsni tanlashgan?

Shunday qilib, o‘n ikki hayvon tanlanibdi. Ularni tanlashga tanlashibdi-yu, tartibga kelganda o‘ylanib qolishibdi. O‘rtada bahs va munozaralar qizib ketibdi.

— Ichingizda eng kattasi ho‘kiz ekan, o‘sha birinchi bo‘la qolsin, — debdi Yuy-di.



Hamma rozi bo'libdi, hatto bu taklif yo'lbarsga ham ma'qul kelibdi. Ammo birdan mitti sichqonvoy qo'lini ko'tarib:

– Men ho'kizdan kichkina bo'ldimmi hali? Unda nega meni ko'rganlar: “Eha, qanday katta sichqon-a! — deb baqiradi. Hech kim: “Eha! qanday katta ho'kiz!” — demaydi-ku. Demak, odamlar meni ho'kizdan katta deb hisoblashadi, — deb qolibdi.

Yuy-di hayron bo'lib:

– Rostdanmi? Negadir ishongim kelmayapti! — debdi. Shu vaqt maymun bilan ot baravariga; “Sichqon aldayapti!” — deb shovqin sola boshlabdi.

Biroq sichqon so'z bermay:

– Ishonmaysizlarmi? Kelinglar, tekshirib ko'ramiz! — deb turib olibdi.

Xo'roz, qo'y, it va quyon rozi bo'lishibdi.

– Kelinglar, tekshirib ko'ramiz, — debdi Yuy-di.

Hayvonlar odamlar orasiga qaytib tushishibdi. Xoh ishonung, xoh ishonmang, hamma narsa sichqon aytganday bo'lib chiqibdi!

Ho'kiz odamlar yonidan o'tib borayotganida hamma bir-biriga gap bermay: “Qanday yaxshi, qanday semiz ho'kiz ekan!” — deb uni maqtashibdi. Lekin hech kim “Juda katta ekan” demabdi. Shunda hiylakor sichqon ho'kizning ustiga chiqib olib, orqa oyoqlarida tik turib olibdi. Buni ko'rgan odamlar:

– Eha! Juda bahaybat sichqon ekanmi? — deb qichqirishibdi.

Buni o'z qulog'i bilan eshitgan Yuy-di qoshlarini chimirib:

– Hay, mayli! Modomiki, odamlar sichqonni ho'kizdan katta hisoblasharkan, unda ho'kiz o'z o'rnini sichqonga bera qolsin. U ikkinchi bo'la qolsin, — debdi.

Hamma shunga rozi bo'libdi. Shunday qilib, yil hisobi sichqondan boshlanib, undan keyin ho'kiz keladigan bo'libdi.

* * *

Sichqon hayvonlarning ichida birinchi bo'lganidan quvona-quvona uyiga gerdayib qaytib kelibdi. Mushuk uyqudan ko'zlarini ochib qarasa, ro'parasida sichqon turganmish. U sichqonga qarab:

– Singiljon, nimaga indamaysan? Axir, bugun saroyga borishimiz esingdan chiqdimi? — deb so'rabdi.



– Sen haliyam uxlayapsanmi? Men allaqachon saroydan qaytib keldim. Yillar hisobini olib borish uchun o‘n ikki hayvonni tanlashdi; men ularning ichida birinchisi bo‘ldim! – debdi sichqon g‘ururlanib.

Mushuk ko‘zini katta-katta ochib, hayron bo‘lib so‘rabdi:

– Nega meni uyg‘otmading?

– Esimdan chiqib qolibdi! — hech pinagini buzmay javob qilibdi sichqon.

Mushukning chapaqay jahli chiqib, mo‘ylabi dikkayibdi.

– Yaramas! Men senga ishonib, bemalol uxlabman! Axir, uyg‘otaman, deb va‘da qilgan o‘zing emasmiding? Bildim, sen meni dog‘da qoldirmoqchi bo‘lgansan! Shoshmay tur! Hali sen bilan bir hisoblashib qo‘yayki! — deb do‘q uribdi mushuk.

Sichqon aslo sir boy bermay:

– Nega baqirasan? Uyg‘otsam-uyg‘otmasam, bu — mening ishim. Nima, men sening malayingmanmi? — debdi.

Mushukning undan jahli chiqibdi: joni halqumiga tiqilibdi, tishlarini irjaytirib sichqonga tashlanibdi-yu, shartta bo‘ynini uzib tashlabdi. Sichqon jon talvasasida bir chiyillab qo‘yibdi-da, orqa oyoqlarini qoqib jon beribdi.

Shundan beri mushuk bilan sichqon bir-biriga qon dushman bo‘lib qolibdi.

Endi gapni xo‘rozdan eshitsak. U uyga g‘am-qayg‘uga botgan holda qaytib kelibdi. “Yuy-di ajdahoni mendan oldin qo‘yganiga sabab uning boshida mening shoxlarim borligi bo‘ldi”, — deb o‘ylabdi u. Xo‘roz ajdahodan shoxlarini qaytib olishga qaror qilibdi.

U dengiz qa‘riga qarasa, ajdaho suv tagida u yoqdan-bu yoqqa xursand suzib yurganmish. Xo‘roz juda xushmuomalalik bilan unga:

– Ajdaho aka! Iltimos, mening shoxlarimni qaytarib bering! — debdi. Ajdaho hayron bo‘libdi, ammo qizishmasdan vazminlik bilan:

– Ha, bu senmisan, xo‘roz amaki! Senga shoxlarning nima keragi bor asti? To‘g‘risini aytsam, sen ularsiz ham xo‘p kelishgansan. Menga esa sening shoxlaring juda yarashadi.

– Ular sizga yarashadimi, yarashmaydimi, bu yog‘i bilan mening ishim yo‘q. Oldingizmi, qaytarib bering, — debdi xo‘roz qovog‘ini uyib.

Ajdaho uning gapiga javob bermabdi. U biroz o‘ylanib turib, keyin birdan hurmat bilan xo‘rozga ta‘zim qilibdi:



– Sen mendan xafa bo‘lma, xo‘rozjon! Kech kirib qoldi, dam olish kerak. Bu haqda biz sen bilan boshqa vaqt gaplashamiz, — debdi.

Xo‘roz endi og‘zini ochib bir narsa demoqchi bo‘lgan ekan, ajdaho suv ostiga sho‘ng‘ib ketibdi. Xo‘roz alamidan qanotlarini qoqibdi va ovozing boricha:

– Ajdaho aka, mening shoxlarimni qaytarib bering! Ajdaho aka, mening shoxlarimni qaytarib bering! — deb qichqiribdi.

Ammo ajdaho bu vaqtda dengiz qa‘rida hech narsa eshitmay, qattiq uyquga ketgan ekan.

Xo‘roz anchagacha baqiribdi, baqiraverib ovozi bo‘g‘ilib qolibdi, o‘zi ham rosa holdan toyibdi. Hech narsa qila olmaganidan so‘ng mingoyoqni qidirib topishga qaror qilibdi. Axir, ajdahoga o‘sha kafil bo‘lgan edi-da!

Xo‘roz mingoyoqni tosh uyumi orasidan topib, unga bo‘lgan gapni oqizmay-tomizmay so‘zlab beribdi-da, gapining oxirida:

– Hurmatli mingoyoq, siz ajdahoga kafil bo‘lgan edingiz, bu ishni shundayligicha qoldirib bo‘lmaydi, — debdi.

Mingoyoq bir oz sukut saqlab turibdi-da, keyin boshini ko‘tarib asta shunday debdi:

– Senga ajdaho akamiz shoxlaringni qaytarib beradi. Qaytarib bermasa, ilojing qancha? O‘zing o‘ylab ko‘r! Men uni dengiz tagidan qidirib topa olmayman-ku!

Xo‘roz jahldan qip-qizarib ketibdi.

– O‘rguldim sendaqa kafil bo‘lgandan! Unda birovlarini ishiga aralashib nima qilasan? Birov o‘laman desa, sen dard deb turasan-a!

– Xo‘roz amaki, meni aybga qo‘ymang, — deb o‘zini oqlamoqchi bo‘libdi mingoyoq. Ajdahoga shoxlarni bergan sizmi yo menmi? Men shunchaki kafil bo‘ldim, xolos. Ajdahoni aldaydi, deb kim o‘ylabdi? Bunaqaligini oldinroq bilganimda, men uning uchun kafil-mafil bo‘lmasdim.

– Xo‘sh, ayt-chi, endi nima qilishim kerak? — so‘rabdi xo‘roz o‘zini sal bosib.

– Nima qilardingiz, hozir aytdim-ku. Agar ajdaho shoxlaringizni qaytib bermasa, unda taqdirga tan berish kerak. O‘zingiz aybdorsiz, shoxlaringizni berishdan oldin yaxshilab o‘ylab ko‘rishingiz kerak edi, — debdi u.



— Seningcha, mening bir o‘zim aybdormanmi? — xo‘roz ko‘zlarini olaytirib, ko‘kragini g‘o‘daytirib, mingoyoq tomon bir-ikki qadam tashlabdi.

— O‘zingiz aybdorsiz, yakka o‘zingiz aybdorsiz, yaxshilab o‘ylab ko‘ri- shingiz kerak edi, — deb takrorlabdi mingoyoq.

Xo‘roz endi butunlay olov olib ketibdi, bo‘ynini cho‘zib mingoyoqning boshini bir cho‘qibdi-da, boshini silkitib-silkitib, butunlay yutib qo‘ya qolibdi.

Shu-shu, xo‘rozlar har yili yozda hovlida mingoyoq terib yeydigan bo‘li- shibdi. Ular tong otar oldidan ovozlarning boricha:

— Ajdaho aka, mening shoxlarimni qaytarib bering! — deb baqirishni o‘zlariga odat qilib olibdilar.

TADBIRKOR XO‘ROZ

(Xaus xalq ertagi)

Bir kuni xo‘roz qarindosh-urug‘inikiga ma‘rakaga ketayotgan ekan, yo‘lda unga mushuk uchrabdi.

Ayyor mushuk o‘zicha: “Men hozir xo‘roz go‘shini tatib ko‘raman!” — deb o‘ylabdi. U xo‘rozdan:

— Xo‘rozvoy, qayoqqa ketyapsan? — deb so‘rabdi.

— O‘lgan amakimning ma‘rakasiga, — deb javob qilibdi xo‘roz.

— Unda, birga boraylik, harholda, ikki kishi bo‘lsa, yo‘l bilinmaydi, — deb taklif etibdi mushuk.


Xo‘roz mushukning niyati yomonligini pay- qab:

— Yo‘q, agarda sen men bilan birga borsang, unda biz uchovlon bo‘lamiz. It ham ma‘rakaga bormoqchi edi.

Mushuk qo‘rqib ketibdi. U xo‘roz bilan biroz yurib, birdan to‘xtab:

— Mening vaqtim yo‘q! Ishim ko‘p! Men, axir, shunchaki, hazillashgandim, — debdi.

Shunday qilib, ziyrak xo‘roz mushukdan qutulib qolgan ekan.





Mumtoz adabiyotdan namunalari

“ULUG‘LIK SARI ELTUVCHI YO‘L...”

KAYKOVUS

OTA-ONANI HURMATLASH HAQIDA

(“Qobusnoma”dan parcha)

Ey, farzand... aql yuzasidan bilgilki, ota-onaning izzat va hurmatini bo‘yinga olish lozimdir, chunki farzandning asli ota-onadir. Nima uchun ota-onamni hurmat qilaman, deb ko‘nglingga keltirma.

Bilgil, ular sen uchun o‘limga ham tayyor turadilar...

Agar farzand aqlli va dono bo‘lsa, ota-onaga mehr-muhabbat ko‘rsatishdan bosh tortmaydi. Ota-onaning ishi seni parvarish qilish va senga yaxshilik o‘rgatishdir.

Ey, farzand, ota-onaning ko‘nglini ranjitma, ularning qalbini azoblama.

Sen ota-onaning haqiga din nuqtayi nazaridan rioya qilmasang ham, aql va muruvvat nuqtayi nazaridan rioya qil, ko‘rgil, ota-ona seni jon-dil bilan parvarish qilmishlar, agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan, chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi. O‘z farzandning seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki sen ota-onang haqiga nima ish qilsang, farzandning ham senga shunday ish qiladi...



Yusuf Xos HOJIB

QUTADG‘U BILIG

(Parchalar)

Salomlashish qoidasida ulug‘lar kichikka salom berishsa, yetuk ish bo‘ladi. Kichiklar kamtarlik yo‘lini tutib, ulug‘lar so‘zini olsa, o‘zin ulug‘lik sari eltadi.

Omon berdi elga salom qiluvchi,
Salomatlik topdi alik oluvchi.
Salom bo‘ldi odam tinchiga garov,
Sog‘liq olar salom bilan qoluvchi.

* * *

Ko‘ngil kamtar bo‘lsa, kishini sevintiradi. Kishini sevintirganlar xesh-og‘aynilarning ko‘nglini ovuntiradi. (Odam) ochiq dil, ko‘nglida kir saqlamaydigan bo‘lmog‘i kerak. Ochiq dilli kishining so‘zlariga boq:

Suyukli bo‘ladi ochiq dil kishi,
Dili toshning qarg‘ish qozonmoq – ishi.
Ulug‘lik oladi kishi kamtari,
Ulug‘likka yetmas dag‘al aksari.

* * *

So‘zlar misoli yerga sochilgan urug‘ doni. Agar og‘izdan chiqqudek bo‘lsa, ularni bittalab terib olish mumkin emas. El-yurt eshitganidan keyin bu so‘zlarni pardalab bo‘lmaydi.

Og‘izdan goho o‘t, goho suv chiqar,
Yashnatar birisi, birisi yiqar.
Yonar o‘t misoli keraksiz so‘zing
Og‘izdan chiqarma, kuyarsan o‘zing.





Shirin soʻzga hamma: katta ham, kichik ham eriydi. Shirin va ezgu soʻzlar oqib turgan zilol suvga oʻxshaydi. Zilol suv qayerga oqib borsa, u yerdan anvoyi chechaklar unib chiqadi...

Saʼdiy SHEROZIY

HOTAM TOʻGʻRISIDA HIKOYAT

(*“Boʻston” asaridan*)

Hotamning tim qora, uchqur oti bor ekan. Otning uchqurligi oldida hatto shamol ham xuddi chang kabi ortda qolar ekan. Kishnashi esa momaguldarakka oʻxsharmish.

Ana shu otning dongʻi Rum podshohining qulogʻiga yetibdi va otga havasi ketib: “Uni Hotamdan soʻrasam, menga berarmikan?” — deb vazirlariga maslahat solibdi. Dono vazir: “Hotam saxiydir, u muruvvatli, sizga otini bersa kerak, agar bermasa, uning shuhrati puch, yolgʻon boʻlib chiqadi”, — debdi.

Podshoh bilimli, oqil bir odamga oʻn kishini qoʻshib, Hotamning uyiga yuboribdi. Ular Hotamning uyiga zoʻrgʻa yetib kelishibdi, chunki bu payt qattiq boʻron boshlangan ekan.

Hotam mehmonlarni ochiq chehra bilan kutib olib, ot soʻyib, dasturxonga bor noz-neʼmatlarini qoʻyib, ularning dilini xushnud etibdi. Rum elidan kelgan mehmonlar ertasi kuni ertalab Hotamga podshoh uning otini soʻrattirib yuborganini aytishibdi.

Hotam parishon boʻlib qolibdi va barmogʻini afsus bilan tishlab: “Ne uchun burunroq menga bu haqda aytmadingiz? Kecha kuchli boʻron tufayli qoʻraga borib qoʻy yoki ot olib kelishning iloji boʻlmadi, shuning uchun men ana shu uchqur otimni soʻygan edim.

Menimcha, muruvvat emasdi shu on:

Qarab tursam-u, yotsa och mehmon”, — debdi.

Mehmonlar ketar paytida Hotam ularga turli sovgʻa-salomlar berib, xayrxoʻshlashibdi. Ular oʻz Vataniga yetib borib, boʻlgan voqeani shohga aytib berishibdi. Shunda shoh: “Yasha, ofarin, zafar top”, — deb Hotamning saxiyligiga qoyil qolibdi.





Buyuk siymolar haqida

AMIR TEMUR

*A*mir Temur bobomiz dovyurak lashkarboshi, yirik davlat arbobi bo'lgan, hozirgi Qashqadaryo viloyatining Xo'ja Ilg'or nomli qishlog'ida tug'ilgan. Otasining ismi Amir Tarag'ay Bahodir, onasining ismi esa Tegin Begim edi.

Temur juda zehni, mulohazali bola bo'lgan. U kattalar gapini diqqat bilan tinglagan. Kerak bo'lganida, o'z fikrlarini odob bilan aytgan. Temur qo'rqmas, kuchli, to'g'ri so'z bola bo'lgani uchun o'rtoqlari uni nihoyatda hurmat qilishgan. Bolalar birgalikda turli o'yinlar o'ynaganlarida, Temur doim ularga boshchilik qilgan...

Rivoyat qilishlaricha, ular yashaydigan qo'rg'onda bir quduq bor ekan. Bu quduqdan suv tortib chiqarish nihoyatda qiyin bo'lib, qirqta xizmatkor birgalikda harakat qilar va quduqdan arang suv chiqarishar ekan. Buning uchun ular zanjirga bog'langan katta qovg'a (charm idish)ni quduqqa tashlar va unga suv to'lgach, tortib chiqarishar ekan. Bir kuni Mirzo Sayfiddin degan odam: "Shunday kishi bo'lsaki, bir o'zi suvni tortib chiqarsa", — debdi. Bu gapni eshitgan Temur: "Shunday odam bor!" — debdi. Mirzo Sayfiddin kulib, uning gapiga ishonmabdi. Temurning g'ayrati kelib, qirqta xizmatkorni chetga surib, yengini shimaribdi-da, bir o'zi zanjirni ushlab qovg'adagi suvni torta boshlabdi. Birpasda tevarak-atrofini bolalar va kattalar o'rab olishibdi. Temur hech kimga e'tibor bermay, yolg'iz o'zi suvni tortib chiqaribdi. Odamlar orasidagi kekxa bir kishi: "Bu bola hali dunyoni oluvchi — jahongir bo'ladi", — deb Temurning peshonasidan o'pib qo'yibdi.

Haqiqatan ham, Temur katta bo'lgach, buyuk lashkarboshi sifatida butun dunyoga tanilibdi. U o'z ona-Vatanini dushmanlardan himoya qilibdi, unda tinchlik o'rnatibdi. Juda katta davlat tuzib, unga podsho bo'libdi. Bu katta davlatda



podsho Temur rahbarligida ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq, hunarmandchilik va dehqonchilik nihoyatda rivojlanibdi.

Amir Temur o‘z yurti Turkistonda, ayniqsa, uning poytaxti Samarqand shahrida, Shahrisabz va Buxoroda go‘zal va mustahkam qasrlar, masjid, madrasalar qurdiribdi, bog‘lar bunyod etibdi.

Amir Temur sotqinlik qilishni, yolg‘on gapirishni juda yomon ko‘rardi. Bunday odamlarni u kechirmagan. Uning o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Bu tamg‘aga: “Kuch — adolatda”, — degan so‘zlar yozilgan. Amir Temurning ko‘p umri kurashlarda, janglarda o‘tdi...

Bolajonlarim, urish-janjallar shunday yomonki, ular, albatta, odamlar boshiga g‘am-kulfat olib keladi. Qon to‘kiladi, begunoh odamlar o‘ladi, go‘daklar yetim qoladi, ochlik, qashshoqlik boshlanadi. Bu juda-juda dahshatli.

Buyuk bobomiz Amir Temur ham bunday dahshatlarning bo‘lishini istamagan. Lekin Temur bobomiz yashagan XIV—XV asrlarda, ya‘ni bundan 500 – 600 yillar avval zamon boshqacha bo‘lgan. Podsholar boylik orttirish, nom chiqarish uchun bir-birlari bilan tez-tez urishlar qilib turishgan. Yenggan podsho yengilgan podshoni, uning askarlarini, ko‘p begunoh kishilarini o‘ldirgan, qolganlarini o‘z qullariga aylantirib, ishlatgan. Yengilgan mamlakatning boyliklarini talon-taroj qilib, otlarga, tuyalarga ortib, o‘z mamlakatiga olib ketgan. Shuning uchun podsholar janglarda faqat g‘alaba qilish uchun harakat etishgan. Bizning kuchli, irodali, qo‘rqmas, jasur qahramon, tadbirkor Temur bobomiz donishmandligi, aqlliligi uchun dushmanlarni yengish yo‘llarini o‘ylab topgan va deyarli hamma urishlarda g‘alaba qozongan.

Bolajonlarim, Temur bobomiz haqida juda ko‘p kitoblar yozilgan. Sizlar maktabga borib, o‘qishni, yozishni yaxshilab o‘rganib olganlaringizdan keyin bu kitoblarni, albatta, o‘qib chiqasizlar. Temur bobomiz haqidagi kinolarni, teatr tomoshalarini ko‘rasizlar. Shunda siz ulug‘ bobomiz Amir Temurning qanday odam bo‘lganini, nima ishlar qilganligini mukammal bilib olasizlar.



Ibn ARABSHOH

AMIR TEMURNING JAYXUNDAN SHOSHILINCH O'TISHI

(“Amir Temur tarixi”dan)

Ilgarigi zamonlarda Amudaryoni Jayxun deb atashgan. Kunlardan bir kuni Temurning o‘z askarlari bilan ana shu daryodan o‘tishiga to‘g‘ri kelibdi. Daryo to‘lib-toshib, pishqirib, hayqirib oqayotgan ekan. Sekin-imillab harakat qilishga fursat yo‘q. Chunki orqadan dushman quvlab kelayotgan ekan. Yigitlar daryo qirg‘og‘ida nima qilishlarini bilmay, hayron bo‘lib, to‘xtab qolishibdi. Shunda Temur ularga qarab:

— Qutulishning bitta yo‘li bor. Hammangiz o‘z otingizning yuganini tutib, yoliga osiling-da, suvga tushing! — deb buyruq beribdi.

Hamma daryoning narigi qirg‘og‘ida ko‘rinib turgan ulkan daraxt yonida to‘planishga va‘dalashibdi. Otining yolini mahkam ushlab olgan Temur:

— Imillamanglar! — debdi-yu, hayqirib-pishqirib, to‘lib-toshib, shiddat bilan oqayotgan daryoga birinchi bo‘lib tushibdi. Uning orqasidan askarlari ham daryoga hech bir ikkilanmasdan otlari yolidan ushlab tushishibdi. Shiddatli suv otlarni uzoq-uzoqlarga oqizib ketibdi. Askarlar bir-birlarining holidan xabar ololmay qolishibdi. Lekin ularning hammasi daryoning u qirg‘og‘iga eson-omon o‘tishibdi. Kelishilganday, qirg‘oqdagi azim daraxt yoniga asta-sekin to‘planishibdi. Askarlar o‘z sarkardalarining aqliga, tadbirkorligiga qoyil qolishibdi, dushmanning qo‘lida o‘lishdan, asir tushishdan qutulganliklari uchun quvonishibdi. Temur esa yigitlarining qo‘rqmas, sabotli, irodali ekanliklaridan ko‘p mamnun bo‘libdi.

Abdusodiq IRISOV

IMOM AL-BUXORIY

Bolajonlar, “hadis” arab tilida “so‘z” degan ma‘noni bildiradi. Payg‘ambarga nisbatan ishlatilsa, u kishining aytgan so‘zi ma‘nosida keladi. Ko‘plar Payg‘ambarimizning iboralari, hikmatlarini hadis sifatida to‘plashgan. Bunday



hadischilar orasida vatandoshimiz buyuk alloma Imom al-Buxoriy ham borlar. Bu ulug' zotning to'la nomi Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Mug'ira al-Buxoriydir. Imom al-Buxoriy hijriy 194-yil, milodiy 810-yilda Buxoroda tug'ilgan. U juda zukko, bilimga tashna odam bo'lgan. O'n yoshidan boshlab payg'ambarimiz hadislarini eshitib, ularni yodlashga kirishgan. O'n olti yoshida esa to'plangan hadislarining barchasini yodlab olgan. So'ngra onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga otlangan. Hajni bajo keltirgach, Makkada qolib, Payg'ambar hadislarini to'plashga kirishgan.

Al-Buxoriy ozg'indan kelgan, o'rta bo'yli, tabiatan o'ta muloyim, xotirasi juda ham kuchli bo'lgan.

Hikoya qilishlaricha, Bog'dodda barcha hadischilar yig'ilib, Al-Buxoriyning hadis ilmidan qanchalik xabardorligini sinab ko'rmoqchi bo'lishibdi. Hadislardan yuztasini tanlab olib, so'zlarini chalkashtirib-chalkashtirib o'nta odamga bo'lib berishibdi. Majlis boshlanibdi. Birinchi kishi savol bera boshlabdi. Al-Buxoriy bunday hadisni bilmayman, deb javob beribdi. Ikkinchi kishi ham o'nta chalkashtirilgan hadisni o'qibdi. Unga ham Imom Buxoriy shunday javob beribdi. Qolgan sakkiz kishi ham shunday javob olibdi. To'planganlar Imom Buxoriyni hadis ilmidan butunlay bexabar, deb kula boshlashibdi. Shundan so'ng Imom Buxoriy savollarni to'g'rilab, javoblarini o'shanga moslab aytibdi.

Qolgan to'qqiz kishining to'qsonta savoliga ham shu tarzda javob qaytaribdi va majlisda hozir bo'lganlarni hayratda qoldiribdi. Ana shundagina yig'ilganlar Imom Buxoriyga qulluq qilib, hadis ilmida uning oldiga tushadigan birorta ham odam yo'qligiga iqror bo'lishibdi. Unga barcha hadischilarning peshvosi degan unvon berilibdi.

Al-Buxoriy o'z yurtiga qaytgach, Buxoro amiri uni saroyga kelib, bolalariga dars berishini buyuradi. Alloma buyruqni bajarmabdi. "Agar amirga ilm kerak bo'lsa, bolalarini uyimga yoki masjidimga yuborsin", — deb javob qiladi. Ori kelgan amir uni Buxorodan jo'nab ketishi haqida farmon beradi.

Bu voqeadan xabar topgan Samarqand olimlari Al-Buxoriyni o'z yurtlariga taklif etadilar. Al-Buxoriy bu taklifni qabul qiladi. Samarqandga ketayotib, Xartang degan qishloqqa yetganda betob bo'lib qoladi. Shu yerda o'ttizinchi ramazon kuni, hijriy 256-yil, milodiy 869-yilning 31-avgustida vafot etadi. Ertasi Hayit kuni shu qishloqda dafn etiladi.



* * *

Imom al-Buxoriy to‘plagan hadislaridan namunalar

MA’QUL ISH

— Odamlar bir-biri bilan aytishib, san-manga borib qolsa, nima bo‘ladi? — deb so‘rashibdi.

— Musulmonlar bir-birlari bilan uch kundan ortiq arazlab, gina saqlab gaplashmay yurishi mumkin emas. Shunda ularning qaysi biri avval salomlashgan bo‘lsa, o‘shaning ishi ma’qulroq sanaladi, — debdilar Payg‘ambar (s .a. v.).

TILINI TIYIB YURSIN

Payg‘ambar (s. a. v.) dedilar:

— Kimki Alloh va oxirat borligiga ishonsa, qo‘shnisiga aslo ozor bermasin, mehmonni hurmatlasin, hayotida faqat yaxshi so‘zlardan gapirsin. Bordi-yu, yaxshi so‘zlarga tili aylanmasa, u holda, jimgina tilini tiyib yursin.





O'zbek bolalar adabiy erlaktari

Yayra SA'DULLAYEVA

YONG'OQJON

Bor ekan-da, yo'q ekan, qishloqning bir chekkasida bir nihol o'sgan ekan, unga odamlar erkalab "Yong'oqjon", deb nom qo'yishgan ekan. Odamlar yaxshi ko'rishganidanmi yo o'zining bag'ri kengligidanmi, Yong'oqjon barvasta, qaddi-qomatli bo'lib yetishibdi. Uning inoyati odamlarga faqat yaxshilik qilish ekan. Vaqti kelib, marjon-marjon tugunchalar tugibdi. Uni ko'rgan bolalarning havaslari kelibdi. Darrov qir uchigacha tirmashib chiqa boshlashibdi. Ularning hammasini birdaniga ko'tarolmagan Yong'oqjonning tanasi zirqirab ketibdi.

— Tusha qolinglar, yana yiqilib ketmanglar, — desa, bolalar quloq solishmabdi. Bitta sho'xrog'i shox uchidagi ko'k tugunchani olaman degan ekan, oyog'i toyib ketibdi-yu... hayriyat, boshqa shoxga ilinib qolibdi.

Yong'oqjonning zorlanishiga qaramay, ular tugunchalardan uzib tushishibdi. "Bir maza qilib yeylik", — deyishibdi, o'rtaga uyib.

— Hali yeyolmaysizlar, achchiqman.

— He-he, bizni aldayolmaysan, o'rikni pishmasdan yeb, maza qilganmiz.

— U boshqa-yu, men boshqa. Pishay, jiqqa moy bo'lay, — desa ham bolalar Yong'oqjonning gapini quloqqa olishmabdi. Tugunchalarni kappalab og'izlariga solishibdi. Solishibdi-yu, achchiqligidan dodlab yuborishibdi. Oralaridagi sho'x bola alam qilganidan daraxtni kesakbo'ron qila boshlabdi. Yong'oqjonning badani yana og'rib ketibdi.

— Yeyolmaysizlar, dedim-ku, — debdi titrab. — Endi, pishganimda kelinglar.

— Pishganingda ham achchiq bo'lasan, bizni yomon ko'rarkansan.

— Men aqlli, gapga quloq soladigan bolalarni yaxshi ko'raman, — debdi Yong'oqjon o'zini bosib.



Bolalar undan norozi bo'lib, uylariga qaytishibdi.

Yoz bo'yi Yong'ojon quyoshdan nur simiribdi. To'nini o'zgartiribdi. Mag'zi yog'ga to'lib, yetilibdi. Ammo bolalar uning oldiga hadeganda kelishavermabdi. Yong'ojon ularni kutaverib charchabdi. Oxiri kenjatoyi — Soqqani yerga do'p sakratibdi-yu, bolalar oldiga dumalatib yuboribdi.

Chillak o'ynayotgan bolalar qarashsa, antiqa bir narsa dumalab-dumalab kelayotganmish. Hayron bo'lib turishsa, Soqqa ularning yoniga kelib, bidir-bidir gapira ketibdi.

— Men, akajonlar, sizlarga keldim. Biz Fotima-Zuhra, Hasan-Husan...

— To'xta, o'zing kimsan? — so'rashibdi bolalar.

— Biz Fotima-Zuhra, Hasan-Husan, aka-uka Yong'ojonlar g'arq pishib, yog'ga to'lib, o'z manzilimizda sizlarni kutib turibmiz. Tashrif buyurishlaringizni so'raymiz, — shunday deb Soqqa orqasiga qaytayotgan ekan, uni zo'rg'a to'xtatib qolishibdi.

— Bormaymiz ham, yemaymiz ham, ach-chiqsizlar...

— Yeysizlar, o'ynaysizlar...

Ushoqtoy degan bola Soqqavoyga suyunib debdi:

— Men boraman, buvijonimga keraksizlar. Ularning boshlari aylanib, yotib qolganlar.

Bolalar Soqqaning gapini pisand qilmay, chillak o'ynashayotgan ekan, Soqqavoy bittasining qo'lga lip etib chiqib olibdi-da, chillakni uchirib yuboribdi, o'zi pastga kalla tashlabdi. So'ngra dumalab-dumalab ketaveribdi. Yana yo'l-yo'lakay ashula xirgoyi qilib boraveribdi.



Men yong'ojman, yong'ojman,
Ko'ngli juda oppoqman...



Ushoqtoy va uning bir-ikkita o'rtog'i Soqqavoyga ergashibdi. Yong'oqjon ularni ko'rib, suyunganidan qah-qah urib kulgan ekan, mevalari duvillab yerga tushibdi. Bolalar shosha-pisha ularni terib, cho'ntaklarini, qo'yni-qo'njilarini to'ldirishibdi va uy-uylariga jo'nashibdi.

Ushoqtoyning buvijonisi Yong'oqjonning aka-ukalarini ko'rib, suyunib ketibdi. Ulardan totib ko'rishi bilan kuchga kirib, oyoqqa turibdi. Chunki moyi unga tabib dorisidan ham ortiq davo bo'libdi. Ushoqtoy ham yeb ko'rgan ekan, shunaqangi yaxshi emishki, mazasi og'zida qolibdi. Bugina emas, birdan aqliga aql qo'shilib, ko'paytirish jadvalini birpasda yodlab olibdi. Keyin buvijonisi bolalarni boshlab, Yong'oqjonning oldiga boribdi.

– Umringdan baraka top, Yong'oqjon. Sen kuchsizlarga kuch berasan. Ushoqtoylarning aqliga aql qo'shasan. Ming yil umr ko'r, — deb duo qilibdi.

Yong'oqjon odamlar sog'ligiga foyda keltirganidan mamnun bo'lib, uzoq yillar yashar ekan.

Farhod MUSAJONOV

ENDI HECH KIM ZERIKMAYDI

Marhamatning o'yinchoqlari juda ko'p: Tulkivoy bilan Bo'rivoy, Xo'rozcha va Quyuncha, Bo'taloq bilan Toychoq, Arslon va Ayiqpolvon.

Marhamat o'yinchoqlarini bir uy qilib yasatib qo'ygan.

Shanbada Marhamatning tug'ilgan kuni bo'ldi. Uyiga bog'chasidan, mahal-lasidan o'rtoqlari kelishdi. Katta mehmonxona bolalarga liq to'ldi.

Rosa maza bo'ldi. Marhamatning onasi har xil shirinliklar pishirgan ekan, hammani mehmon qildi.

Innaykeyin o'yin-kulgi boshlandi. Marhamatning bog'cha o'rtog'i Sayyora qo'shiqqa juda usta edi, tortinchoqlik qilib o'tirmasdan rosa ashulani oldi. Bolalar unga qo'shilishib aytishdi. O'yinni, ayniqsa, Po'latjon bopladi.

Shundan keyin Marhamat o'rtoqlarini o'z xonasiga olib kirdi. Bolalar o'yinchoqlarni ko'rib, qarsak chalib yuborishdi.

– Vuy, o'yinchoqlarning ko'pligini, — dedi Sayyora.



— Mana shu Toychoqning chiroyliligini, xuddi hozir yugurib ketadiganday gijinglab turibdi! — dedi Po'latjon.

U Toychoqni yolidan silamoqchi bo'lib qo'lini cho'zdi.

— Yo'q, tegish mumkin emas, — terlash ohangida gapirdi Marhamat. — Sindirib qo'lasan.

— Sindirmayman, yolidan silab qo'ymoqchiman, — dedi Po'latjon. — Xo'p deya qol.

— Tegma dedim-ku! — yer depsindi Marhamat.

— Quyunchani o'ynashga berib tur, — dedi Gulmira.

— Yo'q, men bularni ataydan yasatib qo'yganman, qancha ko'rsanglar, ko'raveringlar, tegmasanglar bo'ldi, — dedi Marhamat.

Bolalar birpas o'yinchoqlarni tomosha qilib turishdi, keyin yana mehmonxonaga qaytishdi.

Biroz o'tirib mehmonlar uy-uylariga tarqalishdi. Marhamat ancha charchagan ekan, uxlagani yotdi. Hademay shirin uyquga ketdi.

Eng qizig'i keyin bo'ldi. Yarim kecha edi. Hamma o'yinchoqlar hamon o'z joylarida ko'rgazmaga qo'yilgandek qotib turishardi. To'satdan Ayiqpolvon bir kerishdi-da, yo'g'on ovozda do'rillab gapirdi.

— E, zerikib ketdim, hech kim biz bilan o'ynamaydi.

— Men ham zerikib ketdim! — qichqirdi Xo'roz bo'ynini cho'zib.

— Qachon qarasa, bitta joyda turganimiz-turgan, — kishnab yubordi Toychoq. — Biz zerikmay, kim zeriksin?!

— Mening ham bolalar bilan o'ynagim kelyapti, — dedi quyuncha yig'lam-sirab.

— Og'aynilar, menda bitta taklif bor, — dedi ayyor Tulkivoy. — Kelinglar, yana o'yinchoq magaziniga qochib ketamiz. U yerda bizni boshqa bolalar sotib olib, uyiga olib ketadi. Keyin maza qilib o'ynaymiz...

Bu taklif hammaga ma'qul tushdi. Ayiqpolvon lapanglab yo'l boshladi, qolgan o'yinchoqlar uning ketidan ergashdi.






Marhamat ertalab uyg'onib ko'zini ochsa xonasi bo'm-bo'sh. Xo'rligi kelib yig'lab yubordi. Shunda bir burchakda o'tirgan Bo'taloq (uni Marhamat yaqinda olib kelgan, shuning uchun Bo'taloq hali zerikib ulgurmagan edi) Marhamatni ovutdi.

— Yig'lama, Marhamat. Men o'yinchoqlarni qayoqqa qochib ketganini bilaman, yur, oboray, — dedi.

— Koshkiydi, oborsang, — sevinib ketdi Marhamat.

Bo'taloq Marhamatni magazinga boshlab bordi. Marhamat qarasa, hamma o'yinchoqlari o'sha yerda ekan.



— Yuringlar uyga, — dedi Bo'taloq. — Marhamat endi sizlarni zeriktirib qo'ymas ekan.

— To'g'ri, zeriktirib qo'ymayman, — dedi Marhamat. — Kim so'rasa, beraman. Bolalar bilan to'yguncha o'ynaysiz.

O'yinchoqlar Marhamatning chin yurakdan gapirayotganini ko'rib rozi bo'lishdi. Hammalari yo'lga tushishdi. Ko'chada — Marhamatlarning uyi oldida ularni Sayyora, Gulmira, Po'latjon va boshqa bolalar kutib olishdi.

— Endi doim hammamiz birga o'ynaymiz, — dedi Marhamat. — Shunda, hech kim zerikmaydi.

Bu gapni eshitib bolalar ham, o'yinchoqlar ham sevinchlaridan qarsak chalib yuborishdi.



Mahmud MURODOV

ENG QIMMATLI NARSA

Qadim zamonda, allaqaysi tomonda Ahmad bilan Toshmat degan bola yashagan ekan. Ahmad saranjom, o'ylab ish qiladigan bola ekan. Agar biror yerda don yoki ushoqni ko'rib qolsa, darrov olib, tovuqqa yoki qushlarga berar ekan. Toshmat esa teskarisini qilar ekan. Non yeb turganida qorni to'yib qolsa, bir tishlammi yoki bir burdami — qolgan nonni to'g'ri kelgan yerga tashlab ketar ekan.

Bir kuni Ahmad Toshmatga:

— Bunday qilishing yaxshi emas, non — eng qimmatli, aziz narsa, — debdi.

— Ho, — debdi Toshmat. — Eng qimmatli narsa brilliant.

— Yo'q, non!

— Yo'q, brilliant!

— Bo'lmasa, yur, hammayoqni aylanamiz, nima qimmatliligini surishtiramiz, o'z ko'zimiz bilan ko'rib kelamiz, — debdi Ahmad.

Toshmat rozi bo'libdi. Har ikkovi belidagi belbog'iga to'rttadan patir tugib, yo'lga tushishibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yursa ham, mo'l yurishibdi. Dalalardan, tog'-u toshlardan, cho'l-u biyobonlardan o'tishibdi. Nihoyat, qorinlari ochib, holdan toyib, bir chashma yonida to'xtashibdi. Belbog'ni yechib, har kim o'z nonini burdalabdi. Shunda yana eng qimmatli narsa ustida bahs ketibdi.

— Nonning lazzatligini qara-ya. Shuning uchun ham u qimmatli va aziz hisoblanadi, — debdi Ahmad, non tishlab.

— Brilliant qimmatliroq! — debdi Toshmat. — Qani endi, hamma narsa brilliant bo'lib qolsa!

Shu payt tepada bir laylak uchib yurgan ekan. U sehrGAR ekan:

— Mayli, sening aytganing bo'lsin. Noning brilliant bo'lib qolsin! — debdi Laylak.

Shu ondayoq Toshmatning ozg'idagi non sharaq-shuruq qilib qolibdi. Tishini sindiray debdi. Toshmat boshqa patirni sindiraman desa, sindirolmabdi. Ular ham brilliant bo'lib qolganmish. Yalt-yalt qilarmish, tovlanib nur sochib, ko'zni qamashtirarmish.

Ahmad esa nonini yeyaveribdi.



— Ol, mening nonimdan yeya qol, — debdi u Toshmatga.
Toshmat uning nonidan og'ziga solgan ekan, u ham brilliant bo'lib qolibdi.
Toshmatning qorni ochib yig'lab yuboribdi. Yurishga ham holi qolmabdi.
— Xo'sh, — debdi Ahmad. — Eng qimmatli narsa nima ekan?
— Endi bildim. Eng qimmatli, aziz narsa non ekan.
Shu vaqt sehrigar Laylak:
— Patirlaring o'z holiga qaytsin, — debdi.
Toshmatning og'zidagi brilliant yana nonga aylanibdi. Toshmat juda xursand bo'lib ketibdi. Ikki o'rtoq orasidagi bahs yechilibdi. Ular eson-omon uyga qaytishibdi. Shu-shu, Toshmat nonni ushug'igacha hurmat qiladigan bo'libdi.

Zamira IBROHIMOVA

UYQU XAFA BO'LDI

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, qadim zamonda emas, bizning zamonimizda Bunyodjon ismli bir bola yashar ekan.

Bunyodjon juda qiziq bola ekan. Qancha o'ynasa ham, hech o'yinga to'ymas, zerikmas, charchamas ekan. Hatto u: "Oh, qani endi, kechalari ham uxlamasdan, maza qilib o'ynasam", — deb orzu qilar ekan.

Ana shu bolaning hayotida g'alati bir voqea sodir bo'libdi.

Bir kuni kechqurun uydagilarning hammasi — onasi, dadasi, ukasi uxlab qolishibdi. Lekin Bunyodjonning sira uxlagisi kelmabdi. "Turib, chiroqni yoqib, o'yinchoqlarim bilan o'ynasammikin?" deb o'ylab turgan ekan, birdan yostig'ining tagidan mayin, ingichka ovoz eshilibdi: — Uxlasang-chi, men ham rosa charchab ketdim-ku, axir!

Bunyodjon cho'chib ketibdi. "Sen kimsa-a-n?" — debdi titroq tovush bilan.

— Men sening uyqung bo'laman...

— Voy, uyqu ham gapirishni biladimi? — deb hayron bo'libdi Bunyodjon.

— Men gapirishni sendan o'rganganman.

— Qayerdasan, seni ko'rmayapman-ku? — Bunyodjon karavotiga o'tirib olibdi.

— Mana, oldingda turibman-ku, — debdi uyqu.

Bunyodjon yostiqa qarasa, g'ira-shira yorug'likda kichkinagina, xuddi jimjiloqday bir bolacha ko'rinibdi.



– Uyququm senmisan? – debdi Bunyodjon va uni qo'liga olibdi. U xuddi momiq paxtadek yumshoq, yengil ekan. Kichkina choponchasi ham bor ekan.

Bunyodjonning kaftida turib olib, yana mayin tovushda so'zlay boshlabdi.

– Shu, sen o'zing yaxshi bolasan-ku, lekin hech uxlaging kelmaydi-da.

– Qo'y, uyquni gapirma, uyquning nimasi yaxshi? Kel, yaxshisi, maza qilib o'ynaymiz.

– Iya, sen qiziq bola ekansan-ku! Bilasanmi, uxlamasang nima bo'ladi?

– Hech narsa bo'lmaydi.

– Yo'q, yo'q, shunday desang, xato qilasan. Agar uxlamasang, kuching ketadi, boshing og'rib, ko'zlaring tinadi. Hamma o'rtoqlaring polvon bo'lishadi. Sen bo'lsang, kasal bo'lib qolasan.

– Voy-bo'y, gaplaring bir qiziq. Sen-chi, meni bilmas ekansan. Men uxlamasam ham, maza qilib o'ynayveraman, hammadan polvoni o'zimman. Bolalar mendan rosa qo'rqishadi. Hech kasal bo'lmayman, — kerilibdi Bunyod.

Uyqu undan astoydil xafa bo'lib, jajji lablarini cho'chchaytirib, tariqday ko'zlariga yosh to'libdi-da:

– Unday bo'lsa, men sendan ketaman! — debdi.

– Ketaver, senga yalinamanmi! — debdi hech o'ylamay Bunyod.

– Sog'insang ham, kelmayman!

– Sog'inmayman, xayr!

Uyqu bo'ynini qisib, Bunyodning kaftidan tushibdi-da, sekin-sekin yurib, eshikni ochib, chiqib ketibdi.

Bunyod rosa xursand bo'libdi. “Endi men uxlamas bola bo'ldim. Kunduzi ham o'ynayman, kechasi ham o'ynayman. Hamma bolalar tush paytida, kechasi uxlashadi, o'yindan qolib ketadi. Menga rosa maza!..”

Bunyodjon shu xayollar bilan biroz yotgach, karavotidan tushib, yotoqxonadan chiqibdi. Chiroqni yoqibdi. Endi o'yinni boshlab, ayiqpolvonga gapirgan ekan, o'z ovozi o'zi qo'rqib ketibdi. “Gapirmasdan o'ynayman” deb o'ylabdi. Biroq tezda zerikib, yana yotoqqa kiribdi. Hamma uyquda. U ham joyiga borib yotibdi. Lekin ko'ziga uyqu kelmabdi. Nima qilishini bilmay yotgan ekan, xayoliga ertaklardagi qo'rqinchli devlar, ajinalar, bahaybat odamlar kela



boshlabdi. Shunda Bunyodjon qo'rqib ko'rpasiga boshini burkab olibdi. Bir daqiqada dimiqib, yana boshini chiqarib olibdi...

Uxlasang ham, uxlamasang ham, tong otar ekan. Ammo uyquga to'yib, tongni qarshi olishning gashti boshqacha bo'lar ekan.

Xona yorisha boshlaganida Bunyodjon juda sevinib ketibdi. Xonadagi hamma narsa dahshatli qiyofasidan qaytib, shkaf, oyna, ko'rpalar taxlangan sandiq bo'lib qolibdi. Bunyodjonning qo'rquvlari tarqab, ruhi ancha ko'tarilib, o'rnidan turibdi. Lekin uyqusizlik unga anchagina ta'sir qilibdi. Ishtahasizlik bilan choy ichib, ko'chaga chiqibdi. Bolalar qiy-chuv qilib o'ynashayotgan ekan. U ham bolalarga qo'shilib, o'yinga berilib ketibdi.

Shunday qilib, kunni yana kech qilibdi. Ammo uyqu payti yaqinlashgan sari o'tgan kecha voqealari esiga tushib, uni qo'rquv bosibdi. Qancha qo'rqmasin,



uyqusini haydab yuborganini onasiga aytishga jur'at etmabdi. Axir, u katta bola, sentyabr kelsa, 1 sinfga boradi. Shularni eslab ko'ngli biroz taskin topib, joyiga yotibdi. Boshini yostiqqa qo'yganidan keyingina qattiq charchaganini his qilibdi. "Oh, agar uyqum qaytib kelsa, ertaga ham kuni bilan maza qilib uxlardim-a, uni bekorga xafa qilib qo'ydim" deb o'ylabdi-

yu, o'pkasi to'lib, yuzini yostiqqa bosib piq-piq yig'labdi.

Bunyodjon bu kechani ham uyqusiz, qo'rqinch ichida o'tkazibdi. Zor-zor yalinib uyqusini chaqiribdi. Biroq uyqu uzoqqa ketib qolgan ekan. Bunyodjonning yig'laganini ko'rmabdi, ovozini eshitmabdi.

Yana tong otibdi. Nonushta paytida Bunyodning hech narsa yegisi kelmabdi. Shalpayganicha ko'chaga chiqibdi. Bolalar maza qilib o'ynashyapti. Uning ko'ngliga o'yin sig'mabdi. Ko'zlarini ishqalab-ishqalab bir chekkadagi o'rindiqqa borib o'tiribdi. Bunyodjonning Ziyodjon degan jonajon do'sti bor ekan. Ziyod



qarasa, Bunyod xomush. O'yindan chiqib, chopqillab uning oldiga kelib: "Nima bo'ldi?" — deb so'rabdi. Bunyodjonning biroz jahli chiqibdi-yu, ammo Ziyodni yaxshi ko'rgani uchun unga voqeani aytib beribdi. Ziyod ancha mulohazali bola ekan. Bunyodning gaplarini eshitib, uzoq o'ylab qolibdi. Keyin bir qarorga kelganday, dast o'rnidan turibdi-da:

- Qani, ketdik, — debdi.
- Qayoqqa? — hayron bo'libdi Bunyod.
- Uyqungni qidiramiz!

Ular yo'lga tushishibdi. Rosa yurishibdi, charchashibdi, qorinlari ham ochibdi. Ziyodning cho'ntagida bitta konfet bor ekan. Ikkiga bo'lib yeyishibdi. Biroz dam olishgach, yana yo'lga tushishibdi. Lekin uyqu hech yerda yo'q ekan. "Endi qaytsakmikan", — deb o'ylab turishgan ekan, birdan Bunyod yon tarafdagi o'tzordan kimningdir bir tekisda nafas olayotganini payqab qolibdi. Ziyodning qo'lidan ushlab, o'sha tomonga boshlabdi. Qarashsa, ariq bo'yidagi katta bir o'tning tagida Bunyodjonning uyqusi choponiga o'ralib olib, uxlab yotganmish. Uni ko'rgan Bunyod sevinganidan chapak chalib, qiyqirib yuboribdi. Uyqu cho'chib uyg'onib ketibdi.

Bunyodjon chopqillab uyqusining oldiga borib, uni mahkam quchoqlab, yuzlaridan o'pmoqchi bo'libdi-yu, ammo xafa qilganini eslab, to'xtab qolibdi. Hech narsa demay, boshini quyi solib turibdi. Shunda uyqu:

— Ha, Bunyodjon, maza qilib o'ynab yuribsanmi? — debdi ingichka, mayin ovozda.

Hamma narsaga tushungan Ziyod:

- Bunyodni kechir, uyqujon, — debdi yalinib.
- Meni kechir, — debdi Bunyod ham eshitar-eshitilmas ovozda.

Uyqu uni kechirmoqchi emas ekan-u, ammo uyqusizlikdan sarg'ayib ketgan yuziga, qizargan ko'ziga, salqigan qovoqlariga qarabdi-yu, ich-ichidan bolaga rahmi kelibdi...

Bunyod uyga kiringach, uyqu sekingina unga:

— Men joyimga ketdim, sen ham ovqatingni yeb, borgin — debdi-da, yotoqxonaning ochiq turgan eshigidan lip etib kiribdi-yu, Bunyodjonning karavotiga chiqib yotib olibdi.



Bunyodjon onasi oldiga qo'ygan ovqatni yeb:
— Men endi uxlayman, oyijon, xayrli tun, — deb yotoqxonaga kirib ketibdi.

Onasi birozdan keyin yotoqqa kirib qarasa, Bunyodjon maza qilib uxlab yotgan emish.

MAYNA BO'LGAN QUSH

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo xushovoz bulbul hali yo'q ekan. U paytlarda egnidagi qora baxmal ko'ylagini hech yechmaydigan, ko'zlarining atrofi sap-sariq, tumshuqchasi oltin rangli bir qushning dovrug'i olamga ketgan ekan. Uning yoqimli, mayin ovoziga hamma maftun ekan. U sayrab aytgan qo'shiqlarni atrofdagi hamma qushlar miriqib tinglar va olamda faqat yaxshi, go'zal narsalarning bo'lishini orzu qilishar ekan. Kuy tugagach, qushlar bir-birlariga qarab:

— Qanday mayin, qanday yoqimli va sehrigar kuy-a?! — deyishar ekan.



Qushlar uni yaxshi ko'rib, ovoziga mos Mayina, deb ism qo'yishibdi. Kunlardan bir kuni Zag'izg'on, Chittak, Qaldirg'och va yana bir qancha qushlar maslahatlashib, Mayinaning uyiga mehmonga borishmoqchi bo'lishibdi. Tush paytida hammalari sovg'a — biri ninachi, ikkinchisi chigirtka, uchinchi kapalak, boshqasi semiz qurt, xullas, har kim topganini olib yo'lga ravona bo'lishibdi. Mayinaning uyiga yetib kelishibdi. Eshigini uzoq taqillatishibdi. Nihoyat, Mayina eshikni

ochibdi. Uning ko'zlari uyqudan qizarib ketgan ekan. Mehmonlarni ko'rib, biroz xijolat bo'libdi. Ularni ichkariga taklif qilibdi. Uychaga kirgan qushlar hayron bo'lib qolishibdi. Chunki xona nihoyatda iflos ekan. Mayina anchadan beri o'z husniga, ovoziga mahliyo bo'lib, uyini yig'ishtirmagan, hatto axlat-



larni ham chiqarib tashlamagan ekan. Mayinaning bunday yashashi mehmonlarning g'ashini keltiribdi. Chunki ular ozodalikka o'rganishgan, uylarini har doim supurib-sidirib qo'yishar ekan-da.

— Voybo'y, Mayinaxon, uyingizni yig'ishtirib olsangiz bo'lmaydimi? — debdi aftini bujmaytirib Zarg'aldoq.

— Idishlaringiz buncha iflos, yuvib bera qolaylik. Kirligim bilinmasin, hech kim mendan kulmasin, deb qora baxmaldan ko'ylak tiktirib olgan ekansiz-da?! — debdi vijillab Qaldirg'och.

Qisqasi, mehmon qushlar uni mazax qilishibdi, ustidan rosa kulishibdi. Mayina qattiq xijolat bo'libdi. Shunda kichkinagina Chittak o'rtaga chiqib:

— Biz sizni ko'rib, ovozingizga maftun bo'lib, erkalab, "Mayinaxon" deb aytardik. Siz Mayina emas, hammaga mayna bo'ladigan qush ekansiz-ku, — debdi. Shunda hamma qushlar, "mayna", "mayna", deb chug'urlashib ketishibdi. Zag'izg'on:

— Yuringlar, ketdik. Maynaning uyida nima qilamiz, — debdi-yu, pir etib uchib chiqib ketibdi. Boshqa qushlar ham uning orqasidan uchib ketishibdi.

Mayina yolg'iz qolgach, uzoq o'ylabdi. U mayna bo'lishni xohlamabdi. "Qushlar uyimning faqat iflosligini ko'rishdi, beqiyos go'zal husnim, asalday shirali ovozim borligini unutishdi. Hozir chiqib bir sayrayki, hammasining og'zi ochilib, o'zlari mayna bo'lib qolishsin", — debdi Mayina o'ziga-o'zi. U bog'ga chiqib, qizil gulning eng baland shoxiga qo'nib, butun qobiliyatini ishga solib chunonam sayrabdiki, nazarida hech qachon bunchalar jo'shib, jonjahdi bilan sayramagan ekan.

Sayrab bo'lgach, atrofiga qarasa, hech kim yo'q. Qushlar inlaridan boshlarini chiqarib, baravariga "Mayna, Mayna, iflos qush — May-na", — deb chug'urlashibdi.

Shunday qilib, bu qushning "Mayina" nomi asta-sekin unutilib, "Mayna" bo'lib qolibdi.

Mayna isnodga chidolmay qushlarning oldidan ketib qolibdi. Endi u odamlarga o'zini yaqin tutadigan, ularning bog'laridagi, polizlaridagi qurt-qumursqalarni yeb, kun kechiradigan bo'lib qolibdi. Sayragisi kelsa, yana jo'shib-jo'shib sayrar ekan. Ammo diqqat bilan tinglagan kishi uning qo'shig'ida qandaydir mung, armon borligini his qilar ekan.



To'liqin ILHOMOV

ADIB BETARTIB

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, Adib ismli bola bo'lgan ekan. U odobli bo'lsayam, ishlari juda betartib ekan. Do'ppisini ham, ko'yilagini ham duch kelgan yerga tashlab ketaverar ekan, keyin kerak bo'lganda qidirishga tushar ekan. Ba'zan qayerga qo'yganini eslay olmay, xunobi osharkan. Shuning uchun ham dadasi unga:

– Bolam, pala-partishligingni tashlamasang, katta bo'lganingda qiynalib qolasan, — der ekan.

Adib dadasining nasihatlarini jimgina eshitar ekan-u, lekin eshitganlari uning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketar ekan.

Adib o'spirin yigitcha bo'lganda dadasi unga duradgorlik kasbini o'rgatibdi. Chunki o'zi qo'li gul usta ekan-da. Kunlar ketidan kunlar o'tibdi. Adib bu hunarni yaxshilab o'rganib olibdi. Bir kuni bir bog'bon uning otasidan rom, eshik tayyorlab berishni so'rabdi. Dadasi o'zi betob bo'lib qolgani uchun, vaqtincha o'g'lini yuboribdi.

Adib ishga kirishibdi. Bog'bon esa o'z yumushiga unnabdi. U tok qaychini endi qo'liga olgan ekan, Adibning ovozi eshilibdi:

– Otaxon, iskanani ko'rmadingizmi?

Bog'bon ichida “Iye, bu qandoq bo'ldi, asbobini qayga qo'yganini bilmasa. Mayli, ish bilan unutgandir”, — deb rosa qidirib, oxiri payraxalar orasidan iskanani topib beribdi.

Keyin xomtok qilish uchun endi narvonga ko'tarilganida yana Adibning ovozi eshilibdi:

– Otaxon, buni qarang, arramni qayga qo'yibman-a?!

Endi bog'bonning qoshlari chimirilibdi. Ammo bu gal ham indamay, arrani qidirishga tushibdi. Uni topish ancha mushkul bo'libdi. U taxtalarning ostidan chiqibdi.

– Ha, hali taxta olayotganimda ostida qolgan ekan-da.

Bog'bon yana o'z ishiga ketibdi.

U hali bitta tok zangini qo'ldan chiqarmasdan yana Adib:



– Otaxon, randam hozirgina shu yerda turgan edi, qayoqqa yo‘qolibdiykin? – deb chaqiribdi.

Endi bog‘bon tutaqib ketibdi-da, Adibning oldiga kelib, debdi:

– Isming Adibmi yo Betartibmi? O‘z asbotingni tayinli biror joyga qo‘ymay, na o‘zing ishlayapsan, na meni ishlagani qo‘yayapsan. Qani, jo‘nab qol-chi, otang tuzalganida o‘zi kelib ishlaydi!

Shunda Adibning xayoliga otasining: “Betartib bo‘lsang, keyin qiynalasan”, — degan gaplari kelibdi. U bir xo‘rsinibdi-da, bog‘bonning uyidan boshini egib chiqib ketibdi.

To‘lqin ESHBEK

USTA

Qadim zamonda Teshaboy degan usta o‘tgan ekan. Uning daraxtlari juda ko‘p ekan. Teshaboy kun bo‘yi turli-tuman yog‘ochlardan chiroyli buyumlar yasay, hatto cho‘pkari imoratlar qurar ekan, biroq daraxtlari sira kamaymas ekan. Daraxtlar borgan sari ko‘payishining boisi usta Teshaboy bitta daraxt yiqitsa, o‘rniga ikkita ko‘chat ekadi, deb o‘ylasharkan odamlar. Bu gap to‘g‘ri ekan-u, ammo boshqa muhimroq siri ham bor ekan. Bu sirni usta o‘z o‘g‘illariga aytishni niyat qilib yurarkan.

Teshaboyni uch o‘g‘li birin-ketin voyaga yetibdi. O‘g‘illari ulg‘aygan sayin usta qarib, madordan qola boshlabdi. Bir kuni u o‘g‘illarini qoshiga chorlab, shunday debdi:

– Har biringiz o‘rmonga borib, birorta buyum yasashga arzimaydigan yog‘och topib kelingiz.

Birinchi bo‘lib katta o‘g‘il o‘rmonga yo‘l olibdi. Qing‘ir-qiyshiq yog‘ochni tezgina topibdi. Yog‘ochning g‘o‘la qismi bug‘uning tumshug‘iga, tarvaqaylagan ikki ulkan shoxchasi ham o‘sha jonivorning shoxlariga juda o‘xsharkan. Bundan na imorat, na eshik-rom, na xontaxta yasashda foydalanish mumkin, deb o‘ylabdi u o‘zicha.



— Mana, — debdi u o'sha yog'ochni bazo'r sudrab kelarkan. — Hech vaqoga yaramaydiganini topdim. O'rmonda munaqa shox-shabbalar qalashib yotibdi...

Usta Teshaboy yog'ochni ko'rib negadir quvonib ketibdi.

— Sen eng noyob buyum bo'ladigan yog'ochni keltiribsan-ku, — deb istehzoli kulibdi to'ng'ich o'g'liga. — Axir, bundan zo'r omoch yasash mumkin!

Teshaboy qo'liga teshasini olib ishga kirishibdi. Tarvaqaylagan shoxlarini tartibga keltiribdi, ular chiroyli dasta bo'libdi. Bug'uning tumshug'iga o'xshash qismini yo'nib, silliqlabdi-da, uchiga kuraksimon temir qoqibdi. O'g'illarining ko'z oldida juda alomat omoch paydo bo'libdi Chol o'g'illariga tushuntiribdi:

— Yodlaringda bo'lsin, yog'ochlarni bir-biriga ulab yasalgan omoch chidamsiz bo'ladi. Yer haydashga kirishgandayoq ulangan joylari ayrilib ketaveradi. Ona-tabi'at ehson qilgan manavi yog'ochdan yasalgan omoch esa, bir umr yer haydasangiz ham yetadi! Har qanaqa zarang yerni shudgor qilishgayam qodir bu omoch!...

Navbat o'rtanCHA o'g'ilga yetibdi. U ham bo'lmag'ur yog'och izlab o'rmon oralabdi. Har xil tarvaqaylab o'sgan daraxt-u shox-shabbalar orasidan buyum bo'lishga yaramaydigan eng bo'lmag'urini izlay boshlabdi. Ko'p o'tmay o'rmonning qalin joyidan bitta yog'ochni tanlabdi. Semizligi bilakdek bu yog'och shunaqa buralib-buralib o'sgan ekanki, undan biror narsa yasash mumkinligiga o'rtanCHA o'g'ilning ko'zi yetmabdi. O'sha yog'ochni uyiga sudrab kelibdi. Uni ko'rib otasining chehrasi yorishibdi:

— Men ko'pdan buyon axtarib, topolmay yurgan yog'ochni keltiribsan-ku, — deb o'rtanCHA o'g'ilni hatto maqtagan bo'libdi. — Sen ham akangga o'xshab dehqonchilikni xush ko'rasan, shekilli. Akang omochbop yog'och keltirgandi, sen bo'lsang ho'kizning bo'yniga bo'yinturuq bo'ladigan yog'och topibsan!...

Chol tag'in ishga kirishibdi. Hash-pash deguncha, juda mustahkam bo'yinturuq yasabdi-da:

— Bu narsani tabiiy shakllanib o'sgan daraxtdan yasagan ma'qulroq, — deb qo'shib qo'yibdi.

Buyum bo'lishga arzimaydigan yog'och topib kelish gali kenja o'g'liga yetibdi. U ham akalari singari o'rmonga yo'l olibdi. Ha, deganda qaytavermabdi. Shu



Zumrad va Qimmat. O'zbek xalq ertagi.



ketganicha uch kecha-yu uch kunduz daragi bo'lmabdi. Axiri uyiga horib-charchab qaytibdi.

— Xo'sh, sen qanaqa yog'och keltirding? — savolga tutibdi otasi.

Kenja o'g'il vazmin bosh chayqab javob beribdi:

— Butun o'rmonni kezdim. Turli-tuman yog'ochlar juda serob ekan. Biroq ular orasida buyum bo'lishga arzimaydiganini topa olmadim...

— Barakalla, — debdi chol kenja o'g'lining elkasiga qoqib. — Sendan haqiqiy usta chiqishiga ishonsam bo'larkan. Chindan ham yog'ochlarning buyum bo'lmaydigani yo'q. Bu ustaning mahoratiga bog'liq! Daraxtlarimiz yil sayin gurkirab o'sishining sirini ham anglagan bo'lsang kerak. Ya'ni men hech vaqt biror buyum yasash uchun duch kelgan daraxtni kesmayman. Hatto oddiy cho'pniyam huda-behudaga yo'nib tashlamayman, isrof qilmayman! Avvalo, yasaydigan buyumimga yarasha yog'och axtaraman, eng maqbulini tanlab, so'ng ishga kirishaman. Qarabsanki, yog'och ham zoye ketmaydi, yasagan buyumim ham o'ta sifatli bo'ladi...

Usta Teshaboy kenja o'g'liga yana bir qancha nasihatlar qilib, dastgohi va ustalik anjomlarini unga meros qoldiribdi.

Turg'unboy G'OYIBOV

ALDOQCHI HAKKA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonlarda g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan. Qaldirg'och to'quvchi, tovus tikuvchi ekan. Tikuvchi bo'lganda ham shunday chevar ekanki, tikkan ko'ylaklari o'zi kiygan kiyimidan ham go'zal va nafis chiqarkan. Qo'shnilar u tikkan ko'ylaklarni kiyib, gul-gul ochilib, og'izlaridan dur sochilib, tovusxonimga minnatdorchilik bildirsalar, xonim kamtarlik bilan:

— Qo'limdan kelgani shu bo'ldi-da, o'rgilaylar. Ishim sizlarga yoqqanidan baxtiyorman. Yana kelib turinglar! — deya mijozlarini muloyimlik bilan kuzatar ekan. Mijozlarining gaplaridan ruhlanib, yanada zavq-shavq bilan tikuv mashinasiga o'tirar ekan. Tovusxonimdan nariroqda ishxona ochgan Hakka esa



xonimning aksi, tezroq boyish maqsadida ishni chala-chulpa bitirar, tikkan kiyimlarining qiyshiq qopday xunuk chiqishiga e'tibor qilmas ekan. Aybini tuzatish o'rniga, buyurtmachilar bilan janjallashar ekan. Tovusdan o'rganish qayoqda deysiz, uni ko'rgani ko'zi yo'q, g'iybatchi yapaloq qushlarni unga qarshi qo'yarkan. Yapaloq qushlar yo'l chetiga o'tirib olib, o'tgan ketganlarga: "Hoy, bilasizmi, Hakkaxon shunday zo'r tikuvchi bo'libdiki, unaqasi olamda yo'q. Tovus ham o'z nazarida "tikuvchiman" deb yuribdi-da, kiyimingizni buzib beradi! Ko'ylagingiz bo'lsa Hakkaxonga olib boring!" — deb tashviqot qilishsa ham, qushlar aldoqqa uchishmas, Tovusxonlaridan aynishmas ekan! Hakkaga alam qilganidan, kuyib ozib-to'zib ketibdi. Oxiri boshqa tomonga



ko'chib ketishga majbur bo'libdi. Lekin borgan joyida ham Tovusning maqtovi emish! G'azabdan o'zini qayerga qo'yishni bilmay, so'rab-surishtirsa, bu yerdagilar Tovusning o'zini ko'rishmagan, faqat ta'rifinigina eshitishgan ekan. Tovusdan ko'ylak tiktirib kiyishga juda orzumand ekanlar! Hakka o'zicha: "Mening egnimdagi kiyimim ham

Tovusning kiyimiday rangdor, o'zimni Tovusman, deb tanitsam bo'lmaydimi? Bu soddalardan pul o'marganim g'animat!" — deb o'ylabdi-da, katta taxta topib, unga yirik harflar bilan: "Ko'ylak tikishning tengsiz ustasi Tovusxonim Dovudshoh qizi ishxona ochdi. Eng go'zal ko'ylaklar tikish hunarimni namoyish etmoqchiman. Buyurtmachilar, marhamat qilinglar!" — deb yozib, uyi tepasiga o'rnatib qo'yibdi. Buni ko'rgan qushlar hovliqib-shoshilib, matolarini qo'ltiqlab uchib kela boshlashibdi. Lekin uning qing'ir-qiyshiq tikkan kiyimlarini ko'rib hayratdan yoqa ushlabdi: "Voy, tavba. Tovusxonim, deganlari, nahotki, shu noshud, olazarak yulg'ich bo'lsa!" — deb jig'ibiyron bo'lishibdi. Janjal ko'tarishibdi. Tepadan uchib o'tayotgan ikki sayohatchi o'rdak bu gaplarni eshitib, baland ovoz bilan:

— Kir-rak, kir-rak... iya, shu aldoqchining tuzog'iga ilinibsiz-da, bu, axir, Tovus emas, pana joylarda pusib yuruvchi fitnachi Hakka-ku! — deya qichqirishibdi.



Qushlar aldanganliklarini bilgan hamono Hakkani cho'qib, patlarini to'zitib, o'rmonlaridan haydab yuborishibdi. Hunarni puxta o'rganib, g'ayrat, vijdon bilan mehnat qiluvchi kamtarin Tovusxonim esa hamon hurmat va izzatda emish.

Rauf TOLIB

BULBULCHA

Bulbulcha bir kun inidan asta uchib chiqibdi-da, pastak shoxga qo'nibdi. Atrofga boqib, angrayib qolibdi. Oq, sariq, qizil gullar chamandek ochilib yotganmish, qarasang, ko'zni olarmish... Voybo'y, daraxtlarning ko'pligini... Bulbulcha shodlanib, yana bir qanot qoqibdi-da, yerga tushibdi...

— Vuy, — debdi o'zicha. — Olam naqadar keng, chiroyli ekan-a? Bulbulcha sevinganidan o'zicha xirgoyi qilibdi:

Men bulbulcha, bulbulcha,
Sevganim gul-u g'uncha.
Uyg'onib har nahorda,
Yayrayman keng gulzorda.

Bulbulcha birdan to'xtab qolibdi. Qarasa, oldinda bir narsa kamalakday tovlanib turganmish, quyosh nurlarida jilolanib yalt-yult etarmish. Bulbulcha, bu chiroyli narsa nima ekan, deb yaqinroq borib tomosha qila boshlabdi.

— Ha, mitti qushcha, namuncha angrayasan? — debdi chiroyli narsa tilga kirib.

— Menmi? — debdi tamom o'zini yo'qotib qo'ygan Bulbulcha. — Men Bulbulcha bo'laman. O'zingiz kimsiz?

— Voy, hali meni tanimaysanmi? Ey, yashavor-ey! Men barcha qushlarning eng go'zali Tovusxonman-ku!

— E, bo'ldi, bo'ldi, oyim siz haqingizda gapirib bergandilar, — debdi Bulbulcha.



Tovus maqtanishga tushibdi.

– Meni hamma biladi. Husnimni ko'rganda butun olam mahliyo bo'lib qoladi. Hatto patimning o'zi ham barcha qushlarnikidan go'zal.

Tovusxon shunday debdi-da, kamalakrang patini yelpig'ich qilib ko'rsatibdi.

– Vuy, buncha chiroyli? – Bulbulcha Tovusxonga tikilib qolibdi.

– Menda olamdagi yetti rang jamuljam.

– Qani endi, mening ham siznikiday patim bo'lsaydi, — debdi Bulbulcha havasi kelib.

– Menga qara, — yana gap boshlabdi Tovusxon, — sen buncha ham dardi bedavo, tasqara bo'lmasang.



Tovusxonning bu gaplari Bulbulchaning u yoq-bu yog'idan o'tib ketibdi. Ko'zlariga yosh olibdi. “Nega men bunalchalik xunuk ekanman?” — deb rosa xafa bo'libdi. Uchib oyisining oldiga chiqibdi.

– Voy, o'lmasam, qayoqlarda qolib ketding, qidirmagan joyim qolmadi, — debdi Bulbul xola tashvishlanib.

Bulbulcha oyisining so'zlariga parvo qilmay:

– Oyi, men nega xunukman? — debdi yig'lamsirab.

– Bulbultoyim, nega endi sen xunuk bo'lar ekansan? — ajablanibdi Bulbul xola.

– Men xunukman, xunukman, — debdi yer tepinib Bulbulcha. — Tovus opamnikiday go'zal qanotlarim yo'q. Menga ham chiroyli pat olib berasiz, — deb xarxasha qila boshlabdi.

Bulbul xola bo'lgan voqeani anglabdi-da, bolasini yupatishga tushibdi.

– Sen sirayam o'ksinma, erkatoyim. Axir, quruq husn senga nimaga kerak? Biz bulbullarning chiroyimiz bo'lmasa ham, yoqimli ovoqimiz bor. Ko'rinishimizga emas, hamma ovoqimizga mahliyo.

– Ura! — xursand bo'lib ketibdi Bulbulcha.



– Shunaqa. Har bir qushning o'ziga yarasha hislati bor, bolam. Odamlar biz – bulbullarni ovozimiz uchun sevishadi. Bizning husnimiz – ovozimizdadir. Bulbulcha yana tumshayib olibdi.

– Yana nega xafa bo'lib qolding? – so'rabdi Bulbul xola.

– Axir, men kuylashni bilmayman-ku?

– Hali yohsan-da, bolam.

– Oyi, kattaroq bo'lganimda meni ham kuylashga o'rgatasiz-a?

– Albatta, o'rgataman, bolam sen hali shunday qo'shiqlar kuylaysanki, hamma qoyil qoladi. Shuni yaxshi bilki, el sening chiroyingga emas, qilgan ishingga qarab baho beradi.

Shu payt Bulbul xola sayray boshlabdi. Uning ovozini eshitib, butun bog' jimib qolibdi. U kuylagan sari olam yana ham go'zallashib ketganday bo'libdi. Ariqdagi suvlar ham bir zum oqishdan to'xtab, kuyga quloq solibdi. Gullar esa mast bo'lib, kuy ohangida ohista tebranishibdi. Bulbul shunday yoqimli kuylabdiki, hatto Tovusxon ham boshqa ishlarini yig'ishtirib qo'yib, kuyga quloq solibdi.

Olloyor BEGALI

RAHMDILNING DARAXTI

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, osmon bulutli ekan, yer saxiy, qutli ekan. Omon-omon zamonda, nomi yo'q bir tomonda onabola yashagan ekan. Topganlari kunlariga goh yetib, goh yetmay bir navi kun ko'rishar ekan. Onaning erkatoy shu bolasi oydan-oy, yildan-yil o'tib katta yigit bo'lib qolibdi.

– Voy, bolam, — debdi bir kuni unga onasi, — endi bolaliging qolmadi. Katta yigit bo'lding. Ko'chani changitib, yalangoyoq yurishlar — endi senga uyat. Ma, manavi zebigardonimni ol-da, bozorga olib borib sot. Puliga bir etik, qolganiga biror yegulik sotib ol.

Yalangoyoq yigitcha zebigardonni beliga o'rab, qo'ltiqqa qisganicha, onasining gaplarini qulog'ida tutib, bozorga ravona bo'libdi. Yigit oqko'ngil ekan. Bu



dunyoning tashvishi-tirikchiligi uning yoshlik zavqi in qurgan qalbiga hali soya solmagan ekan. ...Zebigardonni sotib, qo'liga tushgan to'rt-besh oq tangani o'ynagancha, etik rastasiga o'tayotib, bir chetda qo'liga terak ko'chatni ushlab turgan kampirga ko'zi tushib qolibdi. Kampir uning onasiga o'xshab ketganligidan befarq o'tib ketolmabdi. Kampir esa oldidan u yoq-bu yoqqa o'tayotgan kimsalarga terak ko'chatini pesh qilib: "Yaxshilar, ko'chatimni ola qolinglar, evaziga ko'p pul so'ramayman", — deb yolvorarmish. Ko'plar: "Jinnimisan, kimga zaril sening ko'chating. Ana, hamma yoqda terak o'sib yotibdi" — deb uni jerki berisharkan. Bechora kampir bundan xafa bo'lmay, yana yangi-yangi o'tkinchilarga ko'chatini tutarkan.



Yigitcha kampirning bu holatini biroz kuzatib, rahmi kelib, unga yaqinlashibdi.

— Hoy, bolaginam, shu ko'chatni olgin, — debdi kampir bechora. — Ochlikdan boshim aylanib, sillam qurib boryapti.

Yigitcha savdolashib o'tirmay, qo'lidagi bor pulini kampirga tutib, ko'chatni sotib olibdi. Buni ko'rgan odamlar rahmdil va aqlsiz yigitning ustidan rosa kulishibdi.

Endi gapni yigitning onasidan eshiting. U o'g'lini bozorga jo'natgach, tushlikka biror narsa pishirish uchun yeng shimaribdi. Biroq hamma idishlar bo'sh ekan. Unxaltada un yo'q, donxaltada don... Toza bo'lganimizcha, bo'libmiz, bor umidini o'g'lining bozorligiga bog'labdi. Ko'chaga chiqib, iloyo, o'g'lim kissavurlarga duch kelmagan bo'lsin-da, deb intiqlik bilan yo'l poylabdi. Kun choshgohga kelganda o'g'il yo'l boshida ko'rinipti. Iye! Uning oyog'ida etigi yo'qmish. Qo'lida esa yegulik emas, qandaydir kaltak. Shoshib qolgan ona bo'lsa-bo'lmasa o'g'lim o'g'rilar to'dasiga uchrab, bor narsasini oldirgan-u, ularni savalash uchun biror daraxt novdasini sindirib olgan ko'rinadi, deb uvvos solib uni qarshilabdi.

Yo'q, o'g'li hech qanaqa o'g'rilar uchun duch kelmagan ekan. U bor puliga shu "kaltak"ni — terak ko'chatini sotib olibdi.



— Voy, aqlsiz! — ona endi yig'iga zo'r beribdi. — Oyog'ingga etik, yeyishga un, don olsang bo'lmasmidi?

— Ha, mayli, — debdi yig'lab-yig'lab o'zini bosib olgan ona, — ko'chatingni yaxshilab o'tqazaylik. Hech bo'lmasa shuni ko'kartirib olaylik. Puli kuygan qalampir yegan ekan-ku, axir!

Shundan keyin ona-bola terakni hovlining o'rtasiga ekib, tagiga suv quyib, och holda uyquga ketibdilar.

Tongda yigit hovliga chiqib, hayratdan turgan joyida qotib qolibdi. Hovli o'rtasiga kechagina o'tqazilgan nihollari allaqachon barg yozib, odam bo'yidan ham balandlab ketibdi. Eng hayratlanarlisi, shoxlarida bir juft qimmatbaho etik, nimalardir solingan xaltalar osiqliq emish. Yigitcha nima qilarini bilmay qotib turganida, onasi uydan chiqib, yo'lidagi obdastani olgancha yuzini yuvгани terak poyiga boribdi. Hali uyqusi arimaganligidan, u terak niholidagi bu o'zgarishlardan bexabar, yuz yuva boshlabdi. Shu payt terak shoxlarida osilib turgan "mevalar" to'p-to'p qilib kampirning boshiga tushibdi. Kampir boshini ushlagancha bir tomonga, obdasta boshqa tomonga qulabdi.

Shundagina anqayib qolgan yigitcha o'ziga kelib, onasining qoshiga yugurib boribdi-da, uni o'rnidan turg'azibdi.

— Voy, bolam-ey, kap-katta yigit bo'lsang ham, bolalik sho'xliklaring qolmabdi! — debdi onaizor. — Shuncha narsani sotib olib, yashirib qo'yganing nimasi!

— Mayli, bu narsalarni men yashirib qo'ygan bo'lay. Ammo kechagina ekan ko'chatimiz bir kechada shunday daraxt bo'lganiga nima deysiz? Qarang, atrofdagi daraxtlar endi kurtak yozyapti!

— Ha-ya?! — ajablanibdi kampir ham.

Siz ham bunga ajablanayapsiz-a? Men ham bu haqda birinchi marta eshitganimda juda ajablangan edim. Hatto rahmdil yigitchaning o'sha daraxtini izlab topmoqchi ham bo'lganman. Axir, mening o'sha terakdan so'raydigan narsam ko'p: qiziq-qiziq kitoblar, g'aroyib o'yinchoqlar, uy-joy, hatto, kechirasiz, chiroyli va pishiq boshmoqlar ham...

Biroq, yuqorida aytilganidek, bu voqealar omon-omon zamonlarda, nomi yo'q bir tomonlarda sodir bo'lgan. Menimcha, rahmdilning daraxtini topish uchun avval omon-omon zamoni topishimizga to'g'ri keladi. Shunda nomi yo'q tomoni topish uncha qiyin bo'lmaydi.



O'RIK GULLARI

Bu xonaning ichi — xuddi asalari uyasining o'zi. Ustma-ust qo'yilgan karavotlarda bolalar — nimpushti ko'ylakli qizaloqlar, yashil qalpoqli o'g'il bolalar pishillab uxlab yotishibdi. Xona havosi mo'tadil. Mittigina derazachalardan tashqarida hali qish ekanligi bilinib turibdi. Bolalarning onasi — O'rik xola xonaning changini artib yurarkan, o'ziga-o'zi mamnunlik bilan ta'kidlardi: qish qancha sovuq bo'lsa, bolalarim shuncha orom olib uxlashadi. U uxlab yotgan bolalarining har biridan xabar olar, ustlari ochilib qolganlarining ko'rparasini to'g'rilab qo'yardi.

— Oyi, hali bahor kelmadimi? — nogoh ulardan biri uyqusirab so'rab qoldi.

— Do'mbog'im, bahor kelsa, eng avval o'zim seni uyg'otaman! — dedi unga javoban onaizor.

Bolalarning otasi O'rik amaki esa bu mahal yonboshlab olib “Do'zax” degan papirosni tutatganicha “Ildizlar va yaproqlar” degan gazetasini o'qirdi.

— Onasi! Ho, onasi! — deya baqira boshladi ota. U O'rik xoladan: “Astaroq, bolalarni uyg'otasiz!” — degan tanbehni eshitgach, ovozini pasaytirib so'zida davom etdi: — Mana bu yerda yozishlaricha,


maskanimizga qora quzg'unlar hujum uyushtirayotganimish. Ular yigirma besh ildizni ishdan chiqarish uchun yetarli qo'shin to'plashibdi.

— Yana urushmi?! — O'rik xola uf tortdi. — Xudo saqlasin. O'tgan yili narigi qo'shnimiz naq yozning o'rtasida qurib qolgan edi-ya!

— Gapning davomini eshit! Qoraqo'ng'izlarning ashaddiy dushmani bo'lgan bo'g'imoyoqlilarning bir turi allaqachon biz bilan birga bo'lish uchun bitim tuzishibdi.

— Evaziga nima so'rashibdi? — deya so'radi siyosatga qiziqishini yashirolmay O'rik xola.

— Deyarli hech narsa! — javob berdi bolalarning otasi. — Ular o'z yordamlari evaziga po'stlog'imiz ichiga kirib, tuxum qo'yishni so'rashyapti, xolos.





Shu vaqt tashqarida nimadir chaqnagandek bo'ldi. Xona yorishib ketdi. Ota-ona o'riklar yugurib borib derazachalardan tashqariga qarashdi. Chaqmoq! Osmon bobo Bahoroy qiziga tillaqosh yasayapti, shekilli.

— Oyi! Dada! Bahor keldimi? Turaylikmi? — o'nlab bosh yostiqlaridan ko'tarilib, derazachalar tomonga javdiradi.

— Hali kelgani yo'q. Osmon bobo ishlayaptilar. Yotgilaring kelmayotgan bo'lsa, o'rinlaringdan turib, jimgina, shovqin qilmay o'tiringlar. Boshqalarning uyqusini buzmaglar.

Pushti ko'ylakli qizaloqlardan bir nechasi o'rinlaridan turishib, derazachalar oldiga kelishdi. Lekin ular chaqmoqni ko'rmadilar.

— Oyi! Oyi! Chaqmoq qani!

— Chaqmoqmi? U o'tib ketdi. Erta-indin quyosh chiqib qoladi... — deb javob berdi ularning onasi. — Yana biror oylardan keyin sizlar uni kun bo'yi ko'radigan bo'lasizlar!

— Voybo', bir oy?! — norozi bo'lishdi o'rik gullari.

— O'ho'o'... — yo'tal tutdi ularning otasini. — Yaxshisi, yotib uxlanglar, shunda bir oy qanday o'tib ketganini bilmay qolasizlar. Kerak paytda o'zimiz uyg'otamiz.

Qizaloqlarning uxlagisi yo'q edi. Ular bir-biri bilan "xola-xola" o'ynashga tushib ketishdi.

Oradan o'n kuncha vaqt o'tdi. Har kuni quyosh derazachalardan bir marta mo'ralab o'tar, uning mo'jizadek shu'lalari qizaloqlarni tashqariga imlardi. Ular tashqariga chiqamiz, deb xarxasha qilishni, qavat-qavat yotoq joylari oralab "bekinmachoq" o'ynashni odat qilib olishdi. Bechora O'rik xola ularni zo'rg'a tartibga keltirar, sochilgan narsalarni arang yig'ib olardi. Qizaloqlar shovqiniga boshqa bolalar ham uyg'onib ketishardi. Ulardan ba'zilari uyquni afzal bilib, yana yostiqqa bosh qo'ysalar, boshqalari ustlaridagi ko'rpani otib tashlab, o'yinga qo'shilib ketardi.

— Qani, chiq baring tashqariga! — deya baqirib berdi bir kuni O'rik amaki. U O'rik xoladay bolalarini tartibga chaqirish uchun yalinib-yolvorib o'tirmasdi.

Bolalarga esa xuddi mana shu kerak edi. Quvonchi tanasiga sig'magan to'rt-besh qizaloq qiy-chuv ko'tarib tashqariga chiqib ketishdi. Ular novdalarning chalkash yo'laklari bo'ylab kim o'zarga chopganlaricha tezroq quyoshni ko'rishga, tevarakni kuzatishu o'zlarini ham ko'z-ko'z qilish uchun oshiqdilar. Ular



baland-past novdalarning kurtaklariga joylashib olishdi. Qizaloqlarning pushti ko'ylaklarini yengilgina Shabadaxon dazmollab berdi. Qizaloqlar bir-birlariga suq bilan tikilishib, oshiqlari – asalarilarni pinhona kuta boshladi. Asalarilar to'g'risida onalaridan eshitishgandi. Bir payt g'o'ng'illagan ovoz eshitila boshladi. Uchib kelgan yakka-yu yagona asalari eng katta gul atrofida parvona bo'ldi. Boshqalarning unga havasi keldi. Ular asalaridan o'rtoqlari qachon kelishini so'roqlay boshladi. Asalari esa g'o'ng'illay-g'o'ng'illay javob qaytardi: “Chamamda sizlar biroz shoshilibsiz! Tabiat momoning havoning sovushi haqida aytganlarini eshitmadinglarmi? Bizning oila hali tashqariga chiqmadi. Men esa bemorman. Toza havo olish, chiniqish uchun tez-tez tashqariga uchib chiqaman. Meni onamizning o'zlari kuzatib qo'yib, o'zlari kutib oladilar. Sizlar hali ham bo'lsa, uylaringizga qaytinglar”.

Bu sovuq xabardan shoshqaloq o'rik gullari junjika boshladi. Birozdan so'ng quyosh ham bulutlar ortiga bekindi. Havo sovidi. Gullar ko'ylaklariga o'ranib olishdi. Tongda sovuq yomg'ir ularni beayov savaladi. Ular otasi va onasini, issiq o'rinlarida uxlayotgan uka va singillarini eslashdi. Afsus chekishdi. Sho'rliklar ortga qaytolmasliklarini sezishib, sarosimaga tushishdi. Kechga yaqin laylak qor yog'a boshladi.

Derazachadan qor yog'ayotganini kuzatib turgan O'rik xola choliga ta'nali boqdi:

– Siz ularni eshikka haydadingiz. Tashqarida esa qor yog'yapti. Bechoralarning holi ne kechdiykin? Mundoq o'ylasangiz bo'larmidi o'shanda.

– Bas, diydoyong bilan yaramga tuz sepma. O'z yog'imga o'zim qovrilib o'tirganim ham yetib turibdi. Men ularga ishonib yanglishibman.

Qolganlaridan ehtiyot bo'laylik, — dedi tundlik bilan O'rik amaki.

O'rik xola qizaloqlarining o'yinqaroqligi-yu kattalarning gapiga kirmay, yengiltaklik qilishganini o'ylab, qattiq o'kindi. Cholining ko'ngli qattiqligi va o'zining ko'ngli bo'shligini o'ylab, iztirobga tushdi.

Tashqarida, qorda qolgan qizaloqlari ko'ziga ko'ringan lahzalarda o'zini qayerga qo'yishni bilmasdi bechora. Bola, u shoshqaloqmi, o'yinqaroqmi, ona uchun baribir bola-da.

O'rik xola boshqa bolalarining tashvishlari bilan bo'lib, g'am-g'ussani biroz unutdi. Cholining ham ko'nglini ovlab, yupatib, bahor ishlariga tayyorgarlikni birgalikda boshlab yuborishdi. Erta-indin kunlar isib, ular tonglarni, yorug' kunlarni tashqarida qarshilash uchun o'tlanadilar.



Jahon bolalar adabiy ertaklari

Nozim **HIKMAT**
(Turkiya)

YO‘LBARS BILAN MUSHUK

Bilmayman, sizlar eshitganmisizlar yoki yo‘qmi, yo‘lbars bilan mushuk qarindosh ekanlar. Mushuk yo‘lbarsga tog‘a emish.

Ajoyib kunlarning birida, aytaylik, seshanba kuni... Nima uchun faqat seshanba kuni bo‘larkan, deb so‘rashingiz mumkin. Bo‘lmasa, chorshanba kuni deylik... Nima uchun chorshanba kuni? Mayli, ana, payshanba bo‘la qolsin... Nega? Yaxshi, boshida qanday boshlagan bo‘lsak, ya‘ni “ajoyib kunlarning birida” deb boshlayveraylik. Shunday qilsak, maqsadga muvofiq ish qilgan bo‘lamiz.

Shunday qilib, kunlardan bir kuni yo‘lbars qarindoshi — tog‘asi mushuk bilan uchrashib qolibdi.

— Voy, bechora tog‘aginam, — debdi mushukka yo‘lbars, — nima uchun bunchalik kichkinasan?

— Sen ham menga o‘xshab Odam Atoning o‘g‘illari — odamlarning qo‘liga tushganingda edi, nega bunchalik kichkina bo‘lib qolganimni tushunib olarding.

— Buni qara-ya, tog‘ajon. Sen menga o‘sha Odam Atoning birorta o‘g‘lini ko‘rsatmaysanmi?

— Ko‘rsataman. Yur...

Tog‘a-jiyan birgalikda yo‘lga otlanishibdi. Yo‘lda qo‘tos podasini uchratishibdi. Ular poda bilan tenglashganlarida, yo‘lbars so‘rabdi:

— Odam Atoning o‘g‘illari shularmi?

Mushuk kulibdi va:

— Sen avval ularga yaxshilab qara! Odam Ato o‘g‘illarining bittagina bolasi bunaqa qo‘toslarning yuztasini xohlagan tomoniga haydab borishi mumkin, — debdi.



Tog'a jiyani bilan yo'lda davom etibdi. Ular yilqi uyuriga duch kelibdilar. Ularga tenglashganlarida yo'lbars so'rabdi:

– Odam Atoning o'g'illari mana shularmi?

Mushuk kulib yuboribdi.

– Voy, Xudoyim-ey! – debdi mushuk. – Axir, Odam Atoning o'g'illari bularga minib, butun dunyoni aylanishadi-ku!

Tog'a-jiyan yana yo'lga tushibdilar. Bu safar ular tuya karvoniga duch kelibdilar. Bular Odam Atoning o'g'illari ekanligiga aniq ishongan yo'lbars qichqiribdi:

– Aha, mana ular, Odam Atoning o'g'illari!

Mushuk xaxolab kulib yuboribdi:



– Yana topolmading, jiyancha! Odam Atoning bolasi bu ulkan va bukri hayvonlarni bir-biriga bog'lab, o'zlari esa eshakka o'tirib olib, xohlagan tomonlariga haydab ketadilar.

Tog'a-jiyan yana yo'lga tushishibdi. Ozmi-ko'pmi yo'l yurib, yo'l yursalar ham, mo'l yurib, oxiri bir tog'ning tepasiga ko'tarilibdi. Tog'ning tepasi daraxtzor ekan.

O'rmonda bir o'tinchi katta daraxtni arralayotgan ekan. U faqat ko'ylakda, englari shimarilgan, keng peshonasi esa terlab ketgan ekan.

– Mana u – Odam Atoning o'g'li, – debdi Mushuk.

Yo'lbars Odam Ato o'g'lining ko'rimsizligiga juda ham hayron bo'lib qolibdi. Mushuk yo'lbarsni o'tinchi bilan tanishtiribdi va unga yo'lbars hech bo'lmasa Odam Ato o'g'illaridan birortasini ko'rish ishtiyoqida ekanligini aytib beribdi.

– Xush kelibsan, marhamat, yo'lbars og'ayni, – debdi o'tinchi. – Bu yerga kelibsanmi, endi menga ozgina yordam bersang bo'lardi, – deb qo'shib qo'yibdi.

Odam Atoning o'g'li undan yordam so'rganiga yo'lbars erib ketibdi. Yo'lbars tog'asi mushukka: “Qara, Odam Atoning o'g'li mendan yordam so'rayapti”, – degan ma'noda ko'zini qisib qo'yibdi va o'tinchiga javob beribdi:



– Mayli, juda yaxshi. Ayt-chi, senga qanday yordam beray?

– Agar senga malol kelmasa, panjalarining bilan mana shu yog‘ochdagi yoriqni kengaytirib ber, mening ham ishim osonlashadi. Uni kengaytirish uchun kuchim yetmayapti.

Yo‘lbars yana tog‘asi, ya‘ni mushukka ko‘zini qisib qo‘yibdi. Keyin esa, o‘zining kuchini ko‘z-ko‘z qilish uchun o‘tinchi arralayotgan daraxt yorig‘iga panjalarini suqibdi. O‘tinchi shu ondayoq yoriqdagi ponani urib tushiribdi va yo‘lbarsning pajalari siqilib qolibdi. O‘tinchi nima bo‘lganiga tushunmay, hayron bo‘lib turgan yo‘lbarsning ro‘parasiga cho‘kkalabdi-da, tamaki tutata boshlabdi. Qopqonga tushib qolgan yo‘lbarsning og‘riqdan baqirgisi kelsa ham, uyalganidan o‘zini tutibdi. Yo‘lbarsning tog‘asi – mushuk bo‘lsa qarag‘ay daraxtining tepasiga chiqib olib, u yerdan jiyaniga qarar, qiqirlab, mo‘ylovlarini burar ekan. Nihoyat, yo‘lbarsning sabri tugabdi va boshini ko‘tarib, mushukdan so‘rabdi:

– Voy, Xudoyim-ey, tog‘ajon, sen nima deysan? Endi Odam Atoning o‘g‘li bu yerdan meni xuddi sendek kichkina bo‘lib qolmagunimcha qo‘yib yubormasa-ya?!

– Buni Xudo biladi, miyov, — deb javob beribdi mushuk...

Aytishlaricha, yo‘lbarsning tog‘asi mushuk xuddi shu voqeadan keyin “miyov”lay boshlagan emish.

LEV TOLSTOY
(Rossiya)

UCH AYIQ

Bir qizcha uyidan chiqib o‘rmonga qarab ketdi. U o‘rmonda adashib qoldi va uyiga qaytmoq uchun yo‘l izladi, lekin yo‘lni topolmadi, yurib-yurib, shu o‘rmondagi bir uychaga kelib qoldi.

Uy eshigi ochiq edi. Qizcha eshikdan qarasa, uyda hech kim yo‘q, u ichkari kirdi.

Bu yerda uchta ayiq yashar edi. Bularning biri ota ayiq bo‘lib, nomi Mixail Ivanovich edi. U kattakon, yunglari hurpaygan edi. Ikkinchisi bo‘lsa ona ayiq edi. U kichikroq bo‘lib, uni Nastasya Petrovna deb atar edilar. Uchinchisi esa



kichkina ayiqcha bo'lib, oti Mishutka edi. Ayiqlar uyda yo'q, o'rmonni tomosha qilgani ketishgan edi.

Bu uyda ikki xona bor edi, biri oshxona, ikkinchisi yotoqxona. Qizcha oshxonaga kirdi va stol ustida uch kosa ovqat ko'rdi. Birinchi kosa judayam katta bo'lib, bu Mixail Ivanovichning kosasi edi. Ikkinchisi o'rtacha bo'lib, Nastasya Petrovnaniki edi. Uchinchisi kichkinagina ko'k kosa bo'lib, bu Mishutkaniki edi. Katta kosa yonida katta, o'rtacha kosa yonida o'rtacha, kichkina kosa yonida kichkina qoshiq turar edi.



Qizcha eng katta qoshiqni oldi-da, eng katta kosadan ichib ko'rdi, keyin o'rtacha qoshiqni olib, o'rtacha kosadan ichib ko'rdi, keyin kichkina qoshiqni olib, ko'k kosachadan ichib ko'rdi. Mishutkaning ovqati unga hammanikidan mazali tuyuldi.

Qizchanning o'tirgisi keldi, u stol atrofida uchta stulni ko'rdi: stulning kattakoni — Mixail Ivanovichniki, undan kichikrog'i — Nastasya Petrovnaniki, ustida ko'k yostiqli bori kichkinasi Mishutkaniki edi. Qizcha eng katta stulga chiqib o'tirgan edi, yiqilib tushdi; keyin o'rtachasiga o'tirib ko'rdi, bu stul ham unga yoqmad, keyin kichkina stul-

chaga o'tirdi, buning juda bop ekanidan kulib ham yubordi. U ko'k kosachani tizzasiga qo'yib, oshni icha boshladi. Hamma ovqatni ichib bo'lib, stulchada o'zini tebrata boshladi.

Stulcha sinib ketdi, qizcha polga yiqilib tushdi. O'rnidan turdi-yu, stulchani turg'azib qo'yib, narigi xonaga kirib ketdi. Bu xonada uchta karavot turar edi: biri kattakon, bu — Mixail Ivanovichniki, ikkinchisi — o'rtacha bo'lib, Nastasya Petrovnaniki, uchinchisi esa kichkina karavotcha bo'lib, bu Mishutkaniki edi. Qizcha katta karavotga yotib ko'rdi, judayam kenglik qildi; o'rtanchasiga yotib ko'rdi, karavot juda balandlik qildi; shundan keyin eng kichkinasiga yotib ko'rdi, bu karavotcha qizchaga juda loyiq bo'lganidan qizcha unga yotdi-yu, uxlab qoldi.



Ayiqqlar bo'lsa, uyga ochiqib qaytdilar va ovqatlanmoqchi bo'ldilar.

Katta ayiq kosasini olib ko'rib, dag'dag'ali ovoz bilan baqirib yubordi:

– Mening ovqatimni kim ichdi?

O'rtancha ayiq sal pastroq ovozda qichqirib:

– Mening ovqatimni kim ichdi?

Mishutka esa, bo'shab qolgan kosasini ko'rib, ingichka ovoz bilan chinqirdi:

– Mening ovqatimga kim tegdi?! Hammasini ichib qo'yibdi.

Mixail Ivanovich o'zining stulini ko'rib, dahshat solib hayqirdi:

– Kim mening stulimga o'tirdi, uni joyidan siljitib yuboribdi!

Nastasya Petrovna ham stulini ko'rib, undan sal pastroq ovoz bilan qichqirib qo'ydi:

– Kim mening stulimga o'tirdi? Uni joyidan qo'zg'otib yuboribdi!

Mishutka esa, singan stulchasiga ko'zi tushib qolib, yig'lab yubordi:

– Mening stulimga kim o'tirdi, uni sindirib qo'yibdi!

Ayiqqlar ikkinchi xonaga kirdilar.

– Mening joyimga kim yotdi, uni g'ijimlab tashlabdi! – deb Mixail Ivanovich dahshat solib baqirdi.

– Mening joyimga kim yotdi? Uni g'ijimlab tashlabdi! – dedi Nastasya Petrovna undan pastroq ovoz bilan.

Mishutka bo'lsa oyog'i tagiga skameykachani qo'yib karavotiga chiqib qaradi va chiyillab:

– Mening joyimga kim yotdi?! – dedi.

Shu choq to'satdan qizchani ko'rib qoldi va xuddi birov uni urushayotgan-dek chiyillab yubordi:

– Ana u! Ushla, ushla! Ana u! Ana u! Voydod! Ushlanglar!

U qizchani tishlab olmoqchi bo'ldi. Qizcha ko'zlarini yalt etib ochdi va ayiqlarni ko'rgan zamoniyoq derazaga yugurdi. Deraza ochiq edi, derazadan sakrab tushdi-da, qochib ketdi. Ayiqlar uni quvlab yetolmadilar.




Aka-uka GRIMMLAR
(Olmoniya)

O'RMONDAGI AVLIYO YOZEF

Qadim zamonda bir ayol bo'lib, uning uchta qizi bor ekan. Ularning to'ng'ichi qo'rs va badjahl, o'rtanchasi birmuncha yaxshi-yu, lekin kamchiligi bor, kenjasi esa yuvosh va odobli ekan.

Ajablanarlisi, ona to'ng'ich qizlarini juda suyib, kenjasini yomon ko'rar ekan. Shu sababli bechora qizdan qutilish uchun uni tez-tez o'rmonga jo'natar ekan. Negaki u qizini adashib ketadi va uyga boshqa qaytib kelmaydi, deb o'ylar ekan-da!



Lekin barcha odobli bolalarda bo'ladigan farishta qizni yolg'izlatib qo'yimabdi va doimo to'g'ri yo'lga olib chiqaveribdi. Bir safar farishtasi yonida bo'lmagani uchun, u o'rmonda adashib qolibdi. Yurib-yurib, kech kirganida uzoqdan miltillab turgan shu'laga ko'zi tushibdi. Qizcha o'sha yoqqa qarab yuguribdi va kichkina kulbaning ro'parasidan chiqib qolibdi. U eshikni taqillatgan ekan, ochilib, ikkinchi eshikka duch kelibdi va uni ham taqillatibdi. Ichkaridan oppoq soqolli nuroniy chol chiqibdi, bu avliyo Yozef ekan. U qizchaga mehribonlik bilan:

– Kela qol, bolam. Olov yonidagi mening stulchamga o'tirib isinib ol-chi. Agar chanqagan

bo'lsang suv keltirib beraman. Lekin tamaddi qilishing uchun o'rmonda ildiz mevalaridan boshqa narsam yo'q. Ularni ham oldin tozalab, keyin pishirishing kerak. – debdi.

So'ngra avliyo Yozef qizchaga ildiz mevalarini uzatibdi. Qizcha ularni yaxshilab tozalab, onasi bergan bir bo'lak quymoq bilan nonni olibdi-da, hammasini olovda turgan qozonchaga solib aralashtirib, bo'tqa pishiribdi.

Ovqat tayyor bo'lganida avliyo Yozef:

– Men juda ham ochman. Ovqatingdan menga ham bergin, — debdi.



Shunda qizcha unga bajonidil o'ziga solganidan ham ko'proq ovqat beribdi, lekin Xudoning marhamatini qarang-ki, baribir qorni to'yibdi.

Ovqatlanib bo'lganlaridan so'ng:

— Endi uxlaymiz, — debdi avliyo Yozef. — Mening bor-yo'g'i bitta karavotim bor, mayli, sen unda yot, men esa yerda — poxol ustida ham yotaveraman.

— Yo'q, Yo'q, — javob beribdi qizcha. — Siz o'zingizning karavotingizda yotavering, menga poxol ham bo'laveradi.

Lekin nuroniy chol uni qo'lida ko'tarib, karavotiga olib borib yotqizibdi va qizcha tezda uxlab qolibdi. Qizcha ertasi uyg'onib, cholga salom bermoqchi bo'lib qarasa, u joyida yo'q emish. Shunda qizcha o'rnidan turib uni qidiribdi, lekin u hech joyda yo'q emish. Nihoyat, eshik ortida turgan bir xalta pulga ko'zi tushibdi. Xalta shunaqangi og'ir ekanki, qizcha uni zo'rg'a ko'taribdi. Xaltada: “Bu — kechasi shu yerda tunab qolgan qizchaga tegishli”, — degan yozuv bor ekan. Qizcha xaltani ko'tarib uyiga jo'nabdi va eson-omon onasining oldiga kelibdi. U hamma pulni onasiga beribdi. Onasi undan xursand bo'libdi.

Ertasi kuni o'rtancha qizning ham o'rmonga borgisi kelibdi. Onasi unga kattaroq bo'lak quymoq va non beribdi. Singlisi bilan bo'lgan voqeani u ham boshidan o'tkazibdi. Kechqurun avliyo Yozefning kulbasiga kelibdi. U qizchaga ovqat pishirish uchun ildiz-mevalarni beribdi. Ovqat tayyor bo'lganida avliyo Yozef:

— Men juda ochman, ovqatingdan ozroq bergin, — debdi.

— Birga yeng, — javob beribdi qizcha.

Shundan so'ng avliyo Yozef unga karavotini taklif qilib, o'zi poxol ustida yotmoqchiligini aytibdi.

— Yo'q, — deb javob beribdi u. — Karavotda ikkalamizga ham joy yetarli, birga yotavering.

Avliyo Yozef uni qo'lida ko'tarib, karavotiga yotqizibdi, o'zi esa poxol ustida uxlabdi. Ertalab qizcha uyg'onib avliyo Yozefni qidiribdi, lekin u g'oyib bo'lgan ekan. U eshik orqasidan kichkinagina xaltachada pul topib olibdi. “Bu — kechasi shu yerda yotib qolgan qizchaga tegishli” degan yozuv bor ekan. Qizcha xaltani olib, uyiga yuguribdi va uni onasiga keltirib beribdi. Shunda ham onasidan yashirincha puldan ozroq olib qolibdi.

Xullas, to'ng'ich qizning ham qiziqishi ortib, ertasiga ertalab o'rmonga



bormoqchi bo‘libdi. Onasi unga istaganicha quymoq, non, hatto pishloq ham qo‘shib beribdi. U ham xuddi ikkala singlisi kabi avliyo Yozefni kechqurun kulbasida uchratibdi. Bo‘tqa tayyor bo‘lganida:

– Men juda ochman, ovqatingdan ozroq ber, — debdi chol.

– Sabr qil! Oldin o‘zinning qornimni to‘yg‘azib olay, qolsa, senga beraman, — deb javob qilibdi qizcha.

Lekin qiz ovqatning hammasini yeb qo‘yibdi, avliyo Yozef esa qozonchani yalab qolaveribdi. Mehribon chol unga karavotini taklif qilib, o‘zi poxol ustida yotmoqchi bo‘lganida, qiz e‘tiroz bildirmabdi. O‘zi karavotda yotib, cholni poxol ustida qoldiraveribdi.

Qizcha ertalab o‘rnidan turganida avliyo Yozefni topa olmabdi, lekin buning uchun qayg‘urmabdi ham. U eshik orqasidan pulxalta qidirishga tushibdi. Qizchaga yerda nimadir yotgandek tuyulibdi, lekin nimaligining farqiga bormay, engashib unga burnini tekkizibdi. To‘satdan u narsa burniga yopishib qolibdi. Qiz qaddini rostlaganida burniga mahkam osilib qolgan ikkinchi burunni ko‘rib dahshatga tushibdi. Shunda qizcha shovqin ko‘tarib dodlay boshlabdi, biroq foydasi bo‘lmabdi. Faqat osilib turgan katta burunga ko‘zi tushaveribdi. Shunda u o‘ki-rib, avliyo Yozefni uchratmagunicha sandiraqlab yugura boshlabdi. Nuroniy cholni uchratganida esa, uning oyog‘iga o‘zini tashlab, to‘rahm qilib burnini qaytib olmaguncha yolvoribdi. Avliyo Yozef unga ikki tanga in‘om ham qilibdi. Qiz uyiga kelganida eshik oldida turgan onasi:

– Sovg‘aga nima olding? — deb so‘rabdi.

Qizi bo‘lsa yolg‘on gapirib:

– Katta qop to‘la pul, — deb javob beribdi. — Lekin yo‘lda men uni yo‘qotib qo‘ydim.

– Yo‘qotdim, deysanmi, — qichqiribdi onasi. — Biz uni darhol topishimiz kerak.

U qizining qo‘lidan yetaklab birga izlamoqchi bo‘libdi. Dastlab qizi borishni istamay yig‘lashga tushibdi, lekin oxiri birga jo‘nabdi. Yo‘lda juda ko‘p kaltake-saklar va ilonlar ularga hujum qilibdi, ona-bola qutila olmay qolibdi. Ular battol qizni chaqib o‘ldiribdilar va uni yaxshiroq tarbiyalamagani uchun onasining oyog‘iga nish sanchibdilar.



Xans Kristian ANDERSEN
(Daniya)

JIRKANCH O‘RDAK BOLASI

Shahar atrofi nihoyatda go‘zal edi. Avji yoz fasli, javdar bug‘doy oltin-day tovlanar, suli boshi sutga to‘lgan, pichanlar g‘aram qilingan edi. Yam-yashil o‘tloqda uzunoyoq laylak misrliklar tilida g‘udranardi. Arabchani u onasidan o‘rgangan edi. Dalalar va o‘tloqlar qalin o‘rmonlarga tutashib ketgan, ularning ichkarisidagi zangori ko‘llarning suvi g‘ir-g‘ir esgan shabada bilan mavjlanar edi. Ha, shahar atrofi nihoyatda go‘zal edi!

Shahar chekkasidagi ko‘hna qo‘rg‘on tevaragi suv to‘la chuqur ariqlar bilan o‘ralgan, qo‘rg‘onning devori tagidan to suvgacha otquloq qalin o‘sgan edi. Otquloq shunchalik g‘ovlab ketgan ediki, bolakaylar uning eng yirik barglari ostiga yashirinib o‘ynashardi. O‘rmonday qalin o‘sgan otquloqlarning ichkarisida yoshgina ona o‘rdak tuxum bosib o‘tirardi. Uzoq o‘tiraverish joniga tekkan. Buning ustiga, yoniga sheriklari kelmas, yolg‘iz o‘tiraverish zerikarli edi. Boshqa o‘rdaklar ko‘katlar orasida u bilan birga g‘ag‘alashdan ko‘ra ariqda suzib rohatlanishni afzal ko‘rishardi.

Nihoyat, tuxumlarning po‘stlari qirsillab yorila boshladi.

– Chiy! Chiy! – degan ovozlar eshitildi ichkaridan.

Tuxum sariqlariga jon kirdi va boshlarini tashqariga chiqarib olishdi.

– G‘aq! g‘aq! – dedi ona o‘rdak.

O‘rdakchalar bir amallab tuxumning ichidan chiqib olishdi va tevarakatrofga qarab, otquloqning yam-yashil barglarini tomosha qila boshlashdi. Onasi ularga xalal bermadi, mayli, qarashsin, yashil rang ko‘zga juda foydali.

– Eh, olam naqadar keng ekan! – deyishdi o‘rdakchalar. Bo‘lmasam-chi! Tuxum po‘stlog‘ining ichidan ko‘ra, albatta, keng-da.

– Butun olam faqat shu joy ekan, deb o‘ylamanglar tag‘in! – dedi ona o‘rdak. – Sirayam undaymas! Olam uzoq-uzoqlargacha, bog‘dan ham nariga, dalalar tomonga cho‘zilib ketgan, lekin men hali u yoqlarga bormaganman... Xo‘p, qani, hammalaring chiqib oldilaringmi? Ah, yo‘q, hali hamma tayyor emas ekan. Eng yirik tuxum hali butun turibdi!

Shunday deb, ona o‘rdak yana yirik tuxum ustiga o‘tirdi.



– Ishlar qalay? – deb so‘radi uning holidan xabar olgani kelgan keksa o‘rdak.

– Ko‘rmaysizmi, qurmag‘ur mana shu bitta tuxum meni juda ovora qildi, — dedi yosh ona o‘rdak. — Sira yorilay demaydi. Mana bu jajji o‘rdakchalarga qarang, juda chiroyli, to‘g‘rimi? Hammasi bir tusda, quyib qo‘yganday, otalarining o‘zginasi.

– Qani, yorilmayotgan tuxumingni men bir ko‘ray-chi? — dedi qari o‘rdak ona o‘rdakka. — Gapimga ishonaver, bu tuxum — kurkaniki, g‘ulg‘ul tovuqniki. Meniyam bir kuni shunaqa laqillatishgan. Keyin qurmagur g‘ulg‘ulchalar boshimga chunonam tashvish orttirishdiki! Ularni suvga yaqin keltirolmay rosa ovora bo‘lganman. Tavallo qilib, g‘aqillayman, baribir kelishmaydi! Qani, yana bir ko‘ray-chi. To‘g‘ri, g‘ulg‘ulining xuddi o‘zi. Boshinga urasanmi buni, yaxshisi, tashlab yubor-u, o‘z bolalaringni suzishga o‘rgat.

– Yo‘q, yaxshisi, biroz sabr qilaman, — dedi yosh o‘rdak. — Qirqiga chidadim qirq birigayam chiday.

– Bilganingni qil-e, — dedi qari o‘rdak va nari ketdi.

Nihoyat, yirik tuxum ham yorildi.

– Chiy! Chiy! — deya chiyillab bir palapon yorug‘ olamga chiqdi.

Lekin yangi mehmon biram katta, biram jirkanch ediki! Ona o‘rdak unga hayron bo‘lib, tikilib qoldi.

– Shunaqayam yo‘g‘on bo‘ladimi? — deb g‘o‘ldiradi u. — Boshqa bolalarimga sirayam o‘xshamaydi. Rostdan ham g‘ulg‘uli bo‘lsa-ya? Bo‘lganicha bo‘ldi. Lekin men uni suvga pishmasdan qo‘ymayman. Qani, tixirlik qilib ko‘rsin-chi!

Ertasiga quyosh charaqlab chiqdi, yam-yashil otquloqzor nurga chulg‘andi. Ona o‘rdak kichkintoylarni ariq tomonga boshlab ketdi. Shalop etib birinchi bo‘lib u o‘zini suvga tashladi.

– G‘aq! G‘aq! — chaqirdi u bolalarini. O‘rdakchalar ham yugurib kelib, o‘zlarini suvga otishdi. “Shalop! Shalop!”

Avvaliga suvga boshlari bilan sho‘ng‘ib ketishdi, keyin darrov suv yuziga chiqishdi va qoyil qilib suzib ketishdi. Oyoq pardalari rosa ish berdi. Hatto jirkanch kulrang o‘rdakcha ham boshqalardan qolishmay suzardi.

– Sira g‘ulg‘uliga o‘xshamaydi! — dedi ona o‘rdak. — Oyoqlarini eshkakday ishlatishiga qarang. Qaddini rost tutishi-chi! Yo‘q, u begona emas, o‘zimning



o'g'ilginam. Yaxshilab qaraganda, xunukligi bilinmaydi. Qani, ortimdan chaqqon-chaqqon suzinglar-chi? Sizlarni hozir qatorga qo'shaman — qushlar makoniga olib kiraman. Faqat mendan uzoqlashib ketmanglar, bitta-yarimtasi bosib olmasin tag'in, mushukdan ham ehtiyot bo'linglar!

Ko'p o'tmay qushlar makoniga yetib kelishdi. Ehhe! Shovqin-suronni qarang, qiyomat-qoyim bo'lyaptimi?! Ikki oila o'rdak bir dona itbaliqni talashib, to's-to'polon ko'tarishayotgandi. Oxiri itbaliq mushukka nasib etdi.

— Bu yorug' olamda doimo shunaqa bo'ladi, — dedi ona o'rdak va tili bilan tumshug'ini yalab qo'ydi, uning o'zi ham itbaliqni tatib ko'rishni xohlardi.

— Qani, chaqqonroq, ildamroq harakat qilinglar, — dedi u o'rdakchalarga qarab. — Qani, bir yaxshilab g'aqillab, anovi xolanglarga ta'zim qilinglar-chi! U hammamizdan mo'tabarroq. Ispan zotidan bo'lgani uchun biqqigina. Ko'rdingizmi, uning oyog'iga qizil quroq bog'langan. Juda chiroyli-a! O'rdakka nasib qiladigan eng oliy hurmat bu. Ya'ni egalari uning yo'qolib qolishidan qo'rqib, qizil latta bog'lab qo'yishgan. Odamlar-u hayvonlar uni o'sha qizil lattasidan tanishadi. Qani, chaqqonroq ishlanglar! Ikki oyog'ingiz bir joyda turmasin. Tarbiya ko'rgan o'rdakcha ota-onasiga o'xshab, oyoqlarini yoyib suzadi. Ha, shunday bo'lsin! Yaxshi. Endi boshlaringizni egib, "G'aq!" — denglar-chi!

O'rdakchalar onalarining aytganlarini qilishdi. Lekin begona o'rdaklar ularga balanddimog'lik bilan qarab, hammaga eshittirib g'udranishdi:

— Ana, yana bir to'da kelib qoldi. Bizga shular yetmay turuvdi! Anovi bittasining basharasiga qarab bo'lmaydi-ya. Uni ko'rishga sira toqat qilolmayman!

Shu zahoti bir o'rdak uchib kelib, katta o'rdakchanning bo'ynidan bir cho'qidi.

— Qo'ysalaring-chi, — dedi ona o'rdak. — Axir, u sizlarga sira ham yomonlik qilmagan-ku.

— To'g'ri-kuya, — dedi boshqa urushqoq o'rdak. — Lekin u juda katta va g'alati-ku! Bundaylarning boplab ta'zirini berish kerak.

— Go'daklaring chiroyligina ekan! — dedi oyog'iga qizil quroq bog'lagan qari o'rdak. — Hammasi chiroyli, anavi bittasini hisobga olmaganda... Shunisi chatoqroq ekan! Uni boshqatdan qiyib-bichish kerak edi.

— Buning sira iloji yo'q, janobi oliylari, — javob berdi ona o'rdak. —



To'g'ri, unchalik chiroyli emas, biroq ko'ngli oq. Suzishda boshqalardan qolishmaydi, ruxsatingiz bilan aytsam, boshqalardan yaxshiroq suzadi. Chamamda, vaqti kelib, u boshqalarga o'xshab ancha kichrayib qoladi. U tuxum ichida ko'proq qolib ketdi, shundan xunukroq chiqib qolganga o'xshaydi, — deya ona o'rdak katta bolasining yelkalarini qashib, patlarini silab qo'ydi. — Buning ustiga, bu nar o'rdak, nar o'rdak chiroyli bo'lishi shart emas. Chamamda, u kuchli o'rdak bo'lib o'sadi, o'ziga yo'l ochib oladi.

— Boshqa o'rdaklaringiz ancha chiroyli, — dedi qari o'rdak. — Bo'pti o'zingizning uyingizda yurganday, bemalol o'ynab yuraveringlar. Mabodo, chuvalchang topib olsalaring, menga keltirib bersangizlar ham mayli, xafa bo'lmayman.

Shunday qilib, o'rdakchalar xuddi o'zlarining uylarida yurganday g'ala-g'ovur ko'tara boshlashdi. Faqat hammadan keyin tuxumdan chiqqan bechora o'rdakcha xunukligi tufayli hammadan dakki yer edi. Uni o'rdaklargina emas, hatto tovuqlar ham turtib, cho'qib, masxara qilar edilar.

— Judayam katta! — deyishardi ular.

Oyog'ida pixi bilan tug'ilgani uchun o'zini imperator chog'laydigan hind xo'rozi hurpayib, xuddi yelkanli kemaday qanotlarini yozganicha bir uchib, irkit o'rdakchanning oldiga tushdi, unga g'azab bilan tikilib turib oldi: tojiga qon quyilib, dahshatli tus oldi.

Boyaqish o'rdakcha nima qilishini, qayoqqa qochishini bilmadi. Qayoqdan ham shunaqa tasqara bo'lib tug'ildim ekan, qushlar makonida meni masxara qilmagan hech kim qolmadi-ya, deya o'kinardi.

* * *

Birinchi kun shunday o'tdi. Keyin beshbattar bo'ldi. Bechora o'rdakchani hamma turtib-surtib, har yerdan quvishar, hatto akalari bilan opalari ham: “Basharang qursin, tezroq mushuk-pushuk yeb keta qolsayam bo'lardi!” — deya haqoratlay boshladilar. Ustiga-ustak, onasi ham: “Ko'zimga ko'rinma, irkit!” — deb qarg'ar edi. O'rdaklar uni chimchilashar, tovuqlar cho'qilashar, qushlarga don sepuvchi qizaloq ham uni tepib, nariroqqa surar edi.



Nihoyat, o‘rdakcha jonidan to‘ydi. “Tavakkal” deb hovlining o‘rtasidan chopib o‘tib, bir sakrab shohdevordan uchib, tashqariga tushdi. Butalar orasidagi mitti qushchalar cho‘chib, uchib ketishdi.

“Shunday xunuk ekanmanki, mitti qushchalar ham qo‘rqqanidan qochib qolishdi”, — deb o‘kindi o‘rdakcha va boshi oqqan tomonga chopqillab ketdi. Oxiri yovvoyi o‘rdaklar istiqomat qiladigan bir botqoqqa borib qoldi. Shu yerda u sovuqdan qaltirab tunni o‘tkazdi. O‘rdakcha juda charchab, tinkamadori qurigan, buning ustiga, ko‘ngli vayron edi.

Ertalab yovvoyi o‘rdaklar uyalaridan uchib chiqib, yangi o‘rtoq kelganini ko‘rishdi.

— Bu qanday qush bo‘ldi? — ajablanishdi ular.

O‘rdakcha gir aylanib, har tomonga egilib, bilganicha ta‘zim qila boshladi.

— Shunaqayam jirkanch bo‘lasanmi? — deyishdi yovvoyi o‘rdaklar. Darvoqe, buning bizga aloqasi yo‘q: faqat biz bilan yaqinlashishni xayolingga keltirma tag‘in.

Bechora o‘rdakchaga yo‘l bo‘lsin ular bilan do‘st tutunishga. Faqat unga qamish orasida o‘tirishga va botqoq suvidan totinishga ruxsat bersalar bo‘ldi.

O‘rdakcha shu alpozda ikki kun o‘tirdi. Uchinchi kuni ikki yovvoyi o‘rdak bola uchib kelib, uning oldiga qo‘nishdi. Ular endigina tuxumdan chiqishgan va shuning uchun o‘zlariga juda bino qo‘yishgan edi.

— Bilib qo‘y, og‘ayni, — deyishdi ular, — sening basharang shu qadar tasqaraki, to‘g‘risini aytganda, bizga yoqib qolding! Biz bilan birga dunyo kezib, erkin qush bo‘lib yurishni xohlaysanmi?

Ammo shu payt botqoq uzra “pif!”, “paf!”, “qars!”, “qurs!” degan tovushlar eshitildi va ikkala yovvoyi o‘rdakchani o‘lik tanalari qamishzor ichiga shaloplab tushdi. Ustma-ust yana “qars! qurs!” tovushlari eshilib, qamishzordan bir gala yovvoyi o‘rdaklar uchib chiqishdi. Otishma kuchaydi. O‘rdakcha tag‘in qamishlar orasiga berkinib oldi. Ahyon-ahyonda boshi uzra sochma o‘qlar vizilashi eshitalardi.

Otishma oqshomdan keyingina tindi, lekin o‘rdakcha qo‘rqqanidan yana ancha vaqtgacha qimirlamay o‘tiraverdi...



* * *

Oradan ancha vaqt o'tib qattiq-qirovli qahraton qish keldi. O'rdakcha endi atrofidagi suv muzlab qolmasligi uchun tinmay suzishi kerak edi. Lekin kun sayin u suzayotgan joydagi suvning atrofi muzlab borardi. Sovuq qattiqligidan muz ham tars-tars yorilar edi. O'rdakcha oyoqlarini tinimsiz ishga solib harakat qilardi. Oxiri u holdan toydi, shilqillab yiqilib, tanasi muzga yopishib qoldi.

Azonda shu yerdan bir dehqon o'tib ketayotib muzga yopishib qotib yotgan qushni ko'rib qoldi. U yog'och kovushi bilan muzni yordi va chalajon qushni uyiga olib borib, xotiniga berdi. O'rdakchanning tanasiga iliqlik yugurdi.

Bolalar qush bilan o'ynashmoqchi edi, u xafa qilishmoqchi deb o'ylab, qo'rqqanidan ularning qo'lidan otilib ketdi. Uy bekasi qichqirib, qo'l silkingan edi, o'rdakcha xonada u yoqdan-bu yoqqa qochib, yog' solingan xumtovoqqa tushib ketdi, u yerdan uchib, un solingan yog'och xumga tushdi. O'zini esa tanib bo'lmay qoldi.

Ayol qo'lga otashkurak olib uni quvlar, ortidan bolalar bir-birini turtib, yiqitib, yugurishar, xo-xolab, qiyqirishar edi. Yaxshiki, eshik ochiq qolgan ekan, o'rdakcha pirr etib u yerdan uchib chiqdi va butalar ustidagi yangi yog'gan qorga tushdi. O'sha yerda xushsizlanib uzoq yotib qoldi.

Mana shu qahraton qishda bechora o'rdakcha boshidan kechirgan barcha kulfat, mashaqqatlarni gapirib berish juda qayg'uli bo'lar edi.

Quyosh o'zining qaynoq nurlari bilan yerni yana ilita boshladi. To'rg'aylar sayradi. Bahor keldi!

Qish ichi botqoqda, qamish-qiyloqlar orasida yotgan o'rdakcha ham jonlanib, qanotlarini silkitib parvoz qildi. Endi qanotlari avvalgidan ancha kuchli bo'lib, baland-balandlarga ucha olar edi. O'rdakcha tez uchganidan bir zumda kattakon bir bog'ga kelib qoldi. Olmalar chaman-chaman gullagan, muattar nastarin daraxtining uzun, yam-yashil novdalari bo'tana bo'lib oqayotgan anhor suviga tushib turardi. O, bu yer naqadar go'zal, maftunkor, bahor butun atrofga atir-ifor sochardi!



Shu payt birdan yaqindagi qamishzor ichidan uchta chiroyli oppoq oqqush uchib chiqdi. Ular suvda go‘yo sirpanayotganday ravon, mag‘rur suzishardi. O‘rdakcha bu qushlarni tanidi va yana vujudini qandaydir ma‘yus hayajon chulg‘ab oldi.

“Tavakkal qilib, shu ulug‘vor qushlar yoniga boraman. Menday badbashara bir qush ularga yaqinlashishga jur‘at qilganim uchun o‘ldirguday cho‘qib tashlashsa ham mayli! O‘lsam o‘la qolay! O‘rdaklar va tovuqlarning chimchilab burashlariga, parrandaboqar qizning turtkilariga, qahraton qishning izg‘irini va ochlik–yalang‘ochligiga chidab yurishdan ko‘ra shu chiroyli qushlarning qo‘lida o‘lganim yaxshi!”

Shunday deb, o‘rdakcha anhor suviga tushdi va go‘zal oqqushlar oldiga suzib bordi. Buni ko‘rgan oqqushlar ham qanotlarini silkitib o‘rdakchaga yaqin kela boshlashdi.

– Meni o‘ldiringlar! – dedi bechora o‘rdakcha va boshini quyi soldi. Shu zahoti u ko‘zguna tinish suvda o‘zining aksini ko‘rib qoldi. Lekin endi u qoramtir, kulrang, jirkanch o‘rdakcha emas, oppoq oqqush bo‘lib ko‘rindi!

O‘rdakcha avvallari benihoya kulfat, mashaqqatlar tortganiga xursand edi, chunki xuddi shu kulfat, mashaqqatlar tufayli u hozirgi baxtini, atrofidagi go‘zallikni qadrlay oldi. Katta oqqushlar esa atrofida parvona bo‘lib, unga tumshuqlari bilan suykanishardi.

Shu payt bog‘ga kichkintoy bolalar yugurib kirishdi. Ular oqqushlarga non ushoqlari va don–dun sepa boshlashdi. Bolalardan eng kichigi birdan “o‘rdakcha”ni ko‘rib qoldi va:

– Yangi oqqush kelibdi! Yangi oqqush kelibdi! – deb qichqirdi. Boshqa bolalar ham:

– Yangi oqqush! Yangi oqqush! – deb quvonib qiyqirishdi.

Bolalar sevinganlaridan chapak chalib, o‘yinga tusha boshladilar. Keyin ular ota-onalariga xushxabarni aytishga chopqillab ketishdi. Ko‘p o‘tmay, hammalari suv bo‘yiga kelib, qushlarga yana non uvoqlari va shirinliklar tashlay boshlashdi. Bolalar ham, kattalar ham:


– Yangi oqqush hammasidan yaxshi! U juda chiroyli va juda yosh! – degan gaplarni aytishardi.



Qari oqqushlar esa unga bosh egib ta'zim qilishardi.

Yosh oqqush esa xijolat bo'lib, nima uchunligini o'ziyam tushunmagan holda boshini qanotlari ortiga yashirishga urinardi. U shu lahzalarda hammadan ta'na eshitib, dakki yeb, urilib, surilib, quvg'indi bo'lib yurgan vaqtlarini esladi. Endi bo'lsa hamma uni go'zal oqqushlar ichida eng go'zali deb maqtardi. Nastarin muattar shoxlari bilan suvga egilib, uni olqishlardi. Quyosh uni ilitib ardoqlar va mayin nurini sochardi... Shu payt birdan u qanotlarini beixtiyor yoyib, chiroyli qaddini rosladi va uning ko'ksidan quyidagi so'zlar beixtiyor otilib chiqdi:

– Yo'q, men jirkanch o'rdakcha bo'lib yurganimda bunday baxtni orzu ham qilmagan edim!..



O'zbek bolalar she'riyati

O'ZBEKISTON — MENING VATANIM!


Po'lat MO'MIN

VATAN — BU...

Vatan, deganim — bu
Yurak, deganim.
Yurakka Vatanim
Kerak, deganim.

Vatan, deganim — bu
O'zim, deganim.
Birinchi ko'rganim,
Ko'zim deganim.
Vatanim bir umr
Ko'zim o'ngida,
Ota-onam mangu
Vatan qo'ynida.

Aslida, Vatan — bu
Tug'ilgan joyim.
Birinchi qadamim
Etganim poyim.





Birga yashaganim –
Millatim, xalqim.
Ajralmasin aslo
Vatandin hech kim.

Vatan, deganim – bu
Yurak, deganim.
Birov-biroviga
Kerak, deganim.

Xurshid DAVRON

YAGONADIR VATANING SENING


Vatan nima o'zi? Donishmandlarning biri: “Vatan — bu sening kindik qoning tomgan tuproq”, — desa, ikkinchisi: “Sen suygan odamlar manzili!” — deydi. Boshqasi: “Vatan — millat xotirasidir”, — deb zavqlanadi. Biz Vatan kalimasiga ne-ne so'zlarni qo'shib, aziz qadriyatlarga nom topamiz: Vatan tuprog'i, Vatan tuyg'usi, Vatan tarixi, Vatan kelajagi...

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo'lsa, Vatan ham shunchalik mo'tabardir. Vatan ona-tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat shu tuproqqa — ona qishloq dalalariga, ko'klam chog'ida lolazorga aylangan qir-adirlarga, olislarda yuksalgan moviy tog'larga, hatto yantog'-u saksovuldan boshqa giyoh unmagan dasht-u sahrolarga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi. Qadimda dushmanlar Turk davlatining hoqoni O'g'iz-xondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan bir parcha Yerni talab qilishadi. Bobomiz shunda: “Vatan yolg'iz bizning mulkimiz emas. Mozorda yotgan otalarimiz va qiyomatga qadar tug'ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproq ustida haqlari bor. Vatandan ozgina bo'lsa ham, bir qarich bo'lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning salohiyati yo'qdir”, — deb javob beradilar. Biz Vatanni sevmog'ni dono bobolarimizdan o'rganmog'imiz kerak.



Yodingizda bo'lsin, Vatan muhabbati ota-onaga, aka-ukaga, opa-singilga, do'st-birodarga bo'lgan mehr bilan qo'shilib ketadi. Nafaqat inson, hatto qushlar ham o'z yurtlarini sog'inadilar. Dov-daraxtlar o'z yurtlarini qo'msaydilar. Aytishlaricha, Amerikada ming yilcha umr ko'radigan daraxt bo'lar ekan. Fransuzlar uni havas bilan o'z yurtlariga olib kelib ekishibdi. Nihollar o'sib, ko'kka bo'y cho'zibdi... Yillar o'tib, bog' o'rmonga aylanibdi. Ammo oradan o'ttiz-qirq yil o'tgach, kutilmagan voqea yuz beribdi: suv ichib yashnab turgan daraxtlar o'z-o'zidan qurib qolibdi. Olimlar falokat sabablarini izlay boshlashibdi. Uni aniqlashgach, hayratdan yoqalarini ushlabdi. Bu daraxtlar qurigan pallada Amerika qit'asida qattiq qurg'oqchilik bo'lgan ekan. U yerdagi shu navli daraxtlar ham qurib qolishgan ekan. Shunda olimlar, bir-birlaridan ancha olisda bo'lgan daraxtlarni birlashtiruvchi qandaydir kuch, qandaydir sir bor ekan, degan xulosaga kelishibdi. Ko'rdingizmi, aqlimiz anglashga ojiz bu sirli aloqa Vatan tuyg'usi bilangina izohlanishi mumkin. Daraxt-ku, daraxt. Alloh Taolo til-u zabon, ong-u tafakkur bergan inson uchun Vatandan ortiq mehriyo bormi?! Yo'q, albatta!

Vatan ona kabi yagonadir. Yagonaligi bilan muqaddas va mukarram, yagonaligi bilan bebaho va beqiyosdir!





Normurod NARZULLAYEV

O'LKAM

O'lka ko'pdir dunyoda,
 Bir-biridan ziyoda.
 O'rtoqjonlar, do'stlarim!
 Tinglang, yurak so'zlarim!
 Bordir shunday bir diyor,
 Bag'ri gulzor, hur diyor!
 Undan olur kun otash,
 Mehri mehrimga tutash.
 Bir guliston, deydilar,
 O'zbekiston, deydilar.
 Toshkent — uning poytaxti,
 Do'stlikdan kulgan baxti.
 Erklik, birlik shahrida
 Tinchlik, do'stlik shahrida
 Yozib sizga dasturxon,
 Etgum do'stlarni mehmon.

Barot ISROIL

SHUNDAY O'LKAM BOR...

O'lkamning dalalari
 Quhog'iga tortadi,
 Bag'rini kezgan sari
 Unga mehrim ortadi.

Vatanimning bog'lari,
 Oyna — bulog'i go'zal,
 "Oq oltin"dan tog'lari,
 Uning haryog'i go'zal.





Yayrayman quchog'ida,
Shodlikdan ko'kda boshim.
Gul unar tuprog'ida,
Bosh uzra yoz quyoshi...

O'rinboy QO'LDOSHEV

OLTIN SHU'LA

Vatanim osmonidan
Quyosh kulib boqadi.
Uning oltin shu'lasini
Bog'larga gul taqadi.

Men ham nihol qadadim,
Parvarishlab qaradim.
Gulbog'imni bezashga
Bu — birinchi qadamim.

Muhammadali QO'SHMOQBOY

O'ZBEK XALQI

Jahon aro,
Ozod, teng,
Ko'zi qaro,
Fe'li keng.
Toshgan daryo,
Nur daryo,





Tilsim dunyo —
Zo'r daryo.
Niyati qut —
Unga xesh.
Iymoni but,
Aqli pesh.
Mingan oti —
G'ir tulpor,
Zurriyoti —
Xudoyor.
Ko'zi qaro,
Fe'li keng.
Jahon aro
Ozod, teng.



Tursunboy ADASHBOYEV

ONA TILIM

Alla bo'lib jaranglagan
Ona-tilim — jon-u dilim.
Unga, axir, payvastadir
Qadr-u qimmat, mehr, bilim.
Buyuk Temur jahon bo'ylab
Dovrug'ini solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan
Meros bo'lib qolgan tilim.
Bobur Mirzo she'rlaridan
Rang va ohang olgan tilim...
Ona-tilim — jon-u dilim.



O'zbek xalq bolalar qo'shiqlari.



QIYOSI YO‘Q

Sen tug‘ilgan
Qutlug‘ xona —
Aziz diyor,
Pok ostona.
So‘lim o‘lka
Kesh, Farg‘ona,
Qadim Urganch.
Shu durdona —
Ko‘rkam Toshkent,
Asal-qandim —
O‘sh, Buxoro,
Samarqandim.
Qiyosi yo‘q,
Bu — yagona
Sen-u menga
Vatan — Ona.
Shunday go‘zal
Ulug‘ yurtkim,
Tuproq‘ini
Ko‘zga surtgin.



Erkin MALIKOV

BAYROQ, GERB VA MADHIYA HAQIDA JAJJIGINA ERTAK

Siz bog'cha bolasisiz yoki maktab o'quvchisisiz. Sizdan “Davlatimiz madhiyasini bilasizmi?” — deb so'rab qolishadi. Shunda yod olgan bo'lsangiz, chiroyli qilib aytib berasiz. Bilag'onligingizdan o'zingiz ham suyunib ketasiz. Tinglovchi ham: “E, barakalla, yasha, azamat”, — deb yuboradi. Endi u ikkinchi savolni beradi: “Bayrog'imiz haqida ham bilasizmi?” Kutilmaganda yuzingizga duv etib qizillik yuguradi. Axir, Bayroq she'r emas-da, yod olib aytib beradigan. U ranglardan, turli-tuman belgilardan iborat. Lekin siz hayajonlanmang. Buni ham bilasiz. Bayrog'imiz bilan xuddi sirlashayotgandek bo'ling. Ranglarni tabiatdan izlang, shunda Bayroqdagi ranglar, belgilar o'zlari haqida so'zlay boshlashadi. Qanday qilib, deysizmi?

Mana bunday qilib:

— Men moviy rang bo'laman — musaffo osmonning bir parchasi. Bu yurtim osmoni tinch bo'lsin, deganim bo'ladi. Yanamen tip-tiniq suvniyam eslataman. Bu — hayot — oqin daryo, loyqalanmasin, tiniq oqsin, degani bo'ladi...

— Men qizil rangman. Shunchaki rang emas, tomirlarda oqqan toza qonman. Katta-yu kichikni Vatan Bayrog'i ostida yashashga, mehnat qilishga, kurashishga chaqiraman.

— Men oq rang bo'laman. O'zim ham oq, ko'nglim ham oq, ishim ham pok. Shungami, maqtovim ko'proq. Xalqning yurgan yo'li oppoq bo'lsin, pokiza bo'lsin, ravon bo'lsin, deb Bayroqdan munosib joy oldim.

— Yashillik nima degani? Yashillik — yasha-





rish, yashnatish, ertangi kunga ishonch degani. Non-u nasiba, sof havo, sog'lik-salomatlik, degani. Men yurtim kishilariga doimo ana shunday ezgulik tilayman. Yurt hamisha yashnab tursin, deyman.

Shunday qilib, Bayrog'imizdagi ranglar o'z ramziy sifatlarini aytib bo'lishadi. Ulardan keyin Oymoma bilan Yulduzlar tilga kiradi:

— Oymomaman, oymoma, ertaklarga boy momo. Ko'rinishim uch yoki to'rt kunlikdir. Niyatlarim odamlarga to'kinlikdir. O'y sursalar, o'ylarga sir-doshdurman. Yo'l yursalar, yonlarida yo'ldoshdurman. Tinch tunlarni tinch kunlarga ulayman. O'zbekiston sharafini yurtlar aro so'zlayman.


— Bizlar 12 yulduz — 12 oymiz. Jamlasangiz, bir yilga joymiz. Kim qandog yashadi, yaxshimi-yomonmi? Ikkilanmay baholaymiz. Yana biz o'n ikki yulduz — o'n ikki burjmiz. Oy, quyosh bilan birga doimo harakatdamiz. Fasllar o'zgaradi. Yangi kun, yangi odamlar tug'iladi. Barida ishtirokimiz bor. Biz qo'ngan yurt Bayrog'i ham, o'zi ham dunyo turguncha tursin, deymiz.

Ana, Bayroq haqida ham bilib oldingiz. Undagi ranglar, belgilar nima haqida hikoya qilishini qulog'ingizga quyib oldingiz...

Narimon ORIFJONOV

O'ZBEKISTON BAYROG'I

Havorang, oq va yashil,
Bordir qizil belbog'i.
Shuning uchun chiroyli
O'zbekiston bayrog'i.



O'n ikki baxt yulduzi
O'ziga xo'p yarashar.
Unga dunyo xalqlari
Havas bilan qarashar.

Mustaqil yurt, deb atar
Yer yuzining har yog'i.
Bizga juda mo'tabar
O'zbekiston bayrog'i.

Erkin MALIKOV

...JAJJIGINA ERTAKNING DAVOMI

... **E**ndi, aziz bolajonlar, qo'lingizga Vatanimiz Gerbini — Tug'roni oling.
— Iya, Gerbimizdagi qush jonlanib ketdimi?
— Assalom, ey, chiroyli qush, qanotlari kumush...
— Vaalaykum assalom, ey, mustaqil yurt bolasi.
— Isming nima, ey, qush, qanotlari kumush?
— Men Baxt qushi — Humoman.
— E, ha... Tanidim, sening haqingda ertaklarda o'qiganman. O'qib o'yga tolganman.
— Rost aytasanmi?
— Ha. Qadimda bir yurt bo'lgan ekan. Uning zo'ravon podshosi boshqa yurtni bosib olib, boyligini talabdi. Odamlarini zindonband, olimlarini gumdon qilibdi. Oxiri o'zining ham paymonasi to'libdi... Yurt podshosiz qolibdi. O'shanda odamlar endi kimni podsho qilamiz, deb turishganida yurt osmonida humo qushi paydo bo'libdi. Donolar kengashib: "Shu qush kimning boshiga qo'nsa, o'sha podsho bo'ladi", — deyishibdi. Jarchilar jar solibdi:



— Odamlar-u odamlar, eshitmadim demanglar, eshitganlar turinglar, maydon sari yuringlar. Osmonda Baxt qushi charx uradi. Shu qush kimning boshiga qo'nsa, o'sha podsho bo'ladi...

Buni eshitganlar shoshib qolishibdi. Qanchadan-qancha puldor-u amaldorlar taxt uchun tishini qayrabdi. Baxt qushini ovlabdi. Ammo qush eng kambag'al, eng saxiy va odil, to'g'riso'z va dono yigitning boshiga qo'nibdi. Mamlakatda adolat hukmron bo'libdi.

— Sen o'sha qushsan-a, Humojon!

— Yanglishmading, ey, mustaqil yurt bolasi. Ko'p yurtlarni kezdim. Yolg'iz sening Vatanning ertaklardagi mamlakatga o'xsharkan. Shu bois u sari talpinib uchdim.

— Rahmat, Humojon!

— Humo qushining aytganlari to'g'ri, bu yurtning odamlari qadoq qo'lli, bag'ri cho'g'li, — deya bug'doy boshoqlari chayqalib ketibdi.

— Biz Gerbda non-nasiba, qut-baraka timsolimiz, — deyishibdi yana ular.

— Bizlar Vatanning ishonch yorlig'imiz, — deyishibdi chanoqlardagi paxtalar.

Oftob esa lov-lov yonib, zarrinli so'zlarni tizibdi:

— Bu yurt — quyoshii yurt. Baxti ham, taxti ham to'kis va but. Gerbimiz uzra ikki daryo — Amu bilan Sir bo'y ko'rsatibdi.

Gerbimiz uzra oy boqadi osoyish deb osmoningiz, Zuhro yulduz parpiraydi adashmas deb karvoningiz.

Shunday qilib, olam aro O'zbekiston, degan buyuk davlat tug'ildi. Bayrog'i, Gerbi, Madhiyasi shirin orzularga cho'mildi. Ular — uch og'ayni botirlar dunyo bo'ylab kezishardi, o'zlarini Humo yanglig' sezishardi.



Valijon AHMADJON

O'ZBEKISTON GERBI

O'zbekiston gerbida
 Qanot yozgan Humo qush.
 Chanoqlarda oq paxta —
 Olam elin etar xush.
 Quyosh bobo nurida
 Oltin boshqoq tovlanar.
 Tengsiz, saxiy ona-yer
 Bir maromda aylanar.
 Ramzi porloq — hur bayroq
 Birdamlikka chorlaydi,
 Peshtoqida oy, yulduz
 Kecha-kunduz porlaydi.

Mamajon XOLIQOV

TEMUR BOBOM

Temur bobom —
 Buyuk bobom,
 Ellar aro
 Suyuk bobom.

Dono, a'lo,
 Odil bobom.
 Adolatli,
 Oqil bobom.

Yovga dahshat
Solib bobom,
Bo'lgan doim
G'olib bobom.

Temur bobom,
Buyuk bobom —
Ellar aro
Suyuk bobom.




Temur UBAYDULLO

INSON BESHIGI

Bulbul beshigi — bog'da,
Burgut beshigi — tog'da.
Inson beshigi esa
Shu muqaddas tuproqda.

Bulbul bog'ni o'ylaydi,
Bulbul bog'dan so'ylaydi.
Latif ovozi ila
Ishq rozini kuylaydi.





Burgutga tog' maskandir,
 Burgut tog' da o'sgandir.
 Bag'ri tosh kabi qattiq,
 Zabti ko'kni to'sgandir.

Inson ham bog'ni kuylar,
 Inson ham tog'ni kuylar.
 Bir gul kabi ardoqlab,
 Ona-tuproqni kuylar...

Miraziz A'ZAM

YER AYLANADI

Asta-asta shamol esadi,
 Asta-asta yer aylanadi.
 Asta-asta odam o'sadi,
 Asta-asta yer aylanadi.
 Asta-asta ulg'ayar aql,
 Asta-asta yer aylanadi.
 Asta-asta yetilar naql,
 Asta-asta yer aylanadi.
 Birov "men!" deb yelday yeladi,
 Asta-asta yer aylanadi.
 Har kimga ham navbat keladi,
 Asta-asta yer aylanadi.
 Meva pishar bir kun nogahon.
 Asta-asta yer aylanadi.
 O'zligini tanir har inson,
 Asta-asta yer aylanadi.



“QADDRONIM BAHOR, SOG‘INGANIM SEN!..”

Habib RAHMAT

QADDRONIM BAHOR

Quyoshning taftida
Bahor nafasi.
Zaminning bag‘rida
Ajab ilqlik.
Bog‘larda qushlarning
Shodumon sasi.
Zangori bo‘shliqda
Shaffof tiniqlik.
Qaddronim bahor,
Sog‘inganim sen!

Qirlarda lovullar
Lola gulxani.
Binafsha atrini
Ufurar shamol.
Bahoroy sepmoqda
Guldor shu‘lani.
Nurafshon diyorum
Ko‘rsatar jamol.
Qaddronim bahor,
Sog‘inganim sen!



Adirlar to'shida
Yam-yashil gilam.
Suruvlar suzadi
Bulutlar monand.
Munchalar sehri
Ekansan, ko'klam.
Gashtingga, husningga
To'ymayman harchand.
Qadrdonim bahor,
Sog'inganim sen!



O'tloqlar bag'rida
Yuguraman shod.
Chuchmoma chakkamda
Turadi kulib.
Naqadar shirindir
Bolalik, hayot,
Doim tursa deyman
Shundayin bo'lib.
Qadrdonim bahor,
Sog'inganim sen!..



Mayram RO'ZIYEVA

BAHOR

Havo ko'm-ko'k hamda g'uborsiz,
Quyosh ko'kda tillarang sochar.
Bolajonlar quvonchi cheksiz,
Biri quvlar, boshqasi qochar.

Ufuradi bahor nafasi,
Borliq cho'mgan oppoq yog'duga.
Ko'zlarimning kelar havasi,
Bahor tursin deyman manguga.

Nasrullo XOLMURODOV


BAHOR

Gullayotgan o'rik qoshida
Sabza maysalarga talpindim.
Maysalarda aksingni ko'rib,
Bahor, seni juda sog'indim.

Qishning ayozlaridan bezib,
Nimyalang'och bog'larni kezib,
Qalbmida bir iliqlik sezib,
Bahor, seni juda sog'indim.

Xayollarim uchib, qush bo'ldi,
Bu yil juda qattiq qish bo'ldi,
Laylakqordan ko'nglim g'ash bo'ldi,
Bahor, seni juda sog'indim.

Olislarga termulib turib,
Quyosh bilan suhbatlar qurib,






Qor tagida boychechak ko'rib,
Bahor, seni juda sog'indim.

Gullayotgan o'rik qoshida
Sabza maysalarga talpindim.
Maysalarda aksingni ko'rib,
Bahor, seni juda sog'indim.

Inobat BOBOQULOVA

KO'K SOMSA

Kelganda Navro'z,
Ismaloq, yalpiz
Terib biz — uch qiz,
Keltirdik uyga.



Suyub o'pdilar,
Oyim chopdilar,
Somsa yopdilar.
To'ydik xushbo'yga.

Qilib biz maza,
Yedik ko'k somsa,
Der ukam Hamza:
— Uy o'xshar to'yga.

Vahobjon TOJIMATOV

SUMALAK

Buvim chaydi sumalak,
Pishirolmay biz halak.
Suyulib ketgan ekan,
Un tashladik bir elak.



Buvim chaydi sumalak,
Pishirolmay biz halak.
Quyulib ketgan ekan,
Suv ham quydik bir chelak.

To'nka yoqdik chunonam,
Quvonchimiz bir olam.
Sumalak quyib buvim:
— Ye, — dedilar, — ol, bolam.

Mehnat zoye ketmabdi,
Shirin bo'pti sumalak.
Endi biz qo'shnilarga
Sumalak tashib halak.

Nurulla OSTON

BAHOR RAQSI

Sitora tom boshida,
Nog'ora yonboshida.
Chakkasida qizg'aldoq,
Qulog'ida oybaldoq.
Tezroq keling, qizchalar,
Ra'no chanqovuz chalar.
Buncha yoqimli ohang,
Nog'oraga hamohang.
Bjov-bjing, chakira-chak,
Bjov-bjing, takira-tak!



Hamidulla MURODOV

YURING, BOLALAR

Qish qorini supurib,
Kuldi dalalar.
Gul tergali huv tog'ga
Yuring, bolalar.
Yo'limizga poyonoz
Yozgan bahorjon.
Xuddi ko'nglimiz kabi
Charaqlar osmon.

“BOL YIG‘MOQDA MEVALAR...”

Anvar OBIDJON

YOZ

“O'tin tashlab” quyoshga, o'tni baland yoqdi yoz,
Gurzailon qishdagi po'stinidan kechdi voz.

Siyraklatib yungini, tullay boshlar Tulkilar,
Ortiqcharoq patlarin cho'qib-cho'qib yuldi G'oz.

Kaklik bashang kiyindi, yechib eski libosin.
Uning chipor nimchasi tog' rangiga tushdi mos...

Xachir yotar soyada, dumi haydar chivinni,
Quyosh nurin yalamoq Mushuk uchun buncha soz?

Shod kavshanib Semizqurt, Chumakari baxtiyor,
To'rtko'z ko'cha changitib tinmay chopar Itga xos.





G'uncha iliq, gul iliq, borliq iliq, dil iliq,
Bu faslni, Bulbulvoy, qancha sevsang, shuncha oz.

Habib RAHMAT

SARATON

Jivirlaydi olislar,
Ko'kda nurlar raqsiday.
Borliq shunday beg'ubor,
Naqsh olmaning aksiday.

Kundan-kunga bo'y cho'zar
Xil-xil poliz ekini.
Shira to'plar, bol to'plar
Egatlarga berkinib.

Qilt etmaydi bir daraxt,
Hammasi ham ishda band.
Ular deydi: "Qanday baxt —
Sizni qilsak biz xursand".

Bol yig'moqda mevalar,
Yer va quyosh ishlar teng.
Saratoning mevasin
Saratonda kelib yeng.



Sodiqjon INOYATOV

YOZ YOMG'IRI

Sho'x boladay tomlarni
Daranglatib chaldi u.






To'q emaskan iligi,
Darrov charchab qoldi u.

Ko'rk berdi tabiatga
Yomg'irvoyning sho'xligi,
Chor-atrofga qarasang,
Olam biram ko'hlikki!

Daraxtlarning egnida
Sanoqsiz tomchi — billur.
Cho'milishgan maysalar
Shivirlashdi: "Tashakkur!"



Kavsar TURDIYEVA

QUYOSH KO'CHASI

Har kun bizlar tomonga
Quyosh tushar mehmonga.
Uning yorqin nurlari,
Uning uzun qo'llari
Har giyohga yetadi,
Silab, siypab ketadi.
Qishda olib nurini,
Tashlab ketar qo'rini
Ko'rpalarning qatiga,
Pechkalarning ortiga,
Kulib turgan yuzlarga,
Qalbga, iliq so'zlarga...

“BOG‘LARNING YETILIB TO‘LISHGAN CHOG‘I...”

Quddus MUHAMMADIY

BIZNING KUZ

Kuzimizning go‘zalligin,
Og‘aynilar, ko‘rganmisiz?
Tokdan husayni, yerdan qirqma,
Shoxdan behi uzganmisiz?
Uzum uzib, sharbat suzib,
Shinniga o‘t yoqqanmisiz?
Gala-gala do‘stlar bilan
Duv-duv yong‘oq qoqqanmisiz?
Bularni ham qo‘yavering,
Dalamizga chiqqanmisiz?
Paxtazordan uyum-uyum
Oq oltinni yig‘ganmisiz?
Har barg tilla tusin olib,
Shildirashib to‘kiladi.
Olma shoxi olmasini
Ko‘tarolmay bukiladi.
Har muyushda to‘p-to‘p xirmon,
Tog‘-tog‘ bo‘lib uyuladi.
Kuz hosili omborlarga
Mashinalab quyiladi.
“Qo‘zivoy”lar pushtasiga
Sig‘may sekin yumalaydi.
Ko‘kdan yog‘ib hayot suvi,
Mayin-mayin shivalaydi.





Habib RAHMAT

KUZ KO'RINISHLARI

Saratonning tafti yo'q,
Quyosh boqar olisdan.
Ajib bir is taralar
Hov, qirdagi polizdan.
Daraxt bargi tillarang,
Mevalardan tomar bol.
Dalalarga bir qarang,
Oq gullardan chamanzor.
Sunbulaning suvlari
Shishadan ham tiniqroq.
Uchib borar turnalar,
Ko'kda solib arg'imchoq.
Yig'im-terim avjida,
Bir dam qolmas to'xtalib.
Hademay qish yo'rg'alar
Oq ko'rpasin ko'tarib.



Muhammad YUSUF

KUZ

Suvo'tlari to'la irmoqni
Muzdek qilib qo'ydi sunbula.
Yel tortqilab barqut yaproqning
Yuragiga soldi g'ulg'ula.

Ko'kda yana oppoq turnalar
Arg'imchoqlar solib uchishdi.
Biz maktabga chopdik, tillarang
Terakzorlar yig'lashga tushdi...





Nurullo OSTON

XITOB

Kuz quyoshi yoqimli,
Ko'kda turna oqimi.
Soy suvlari tiniqar,
Chollar kunda miriqar.
Ish qaynagan dalalar,
Keksa-yu yosh bolalar
O'qir quyosh — kitobni,
Kuz yo'llagan xitobni!



Yo'ldosh SULAYMON

YODGOR BOG'IM

Kulib keldi,
To'lib keldi
Bog'imizga oltin kuz.
Behi, olma:
— Mendan qolma, —
Deydi asta suzib ko'z.
Tovlanishib,
Sizga shoshib
Bo'ynin cho'zar husayni.
Yo bir lagan



Karsillagan
 Husaynidan uzaymi?
 Har xil noklar
 O'zin chog'lar
 Bir-biridan o'zarga.
 Uyalganday,
 Qarang, qanday
 Nonjiydalar qizargan?!
 Istagancha
 Yana qancha
 Mevalarning turi bor.
 Kirsang, huzur,
 Ta'rifi zo'r,
 Bobomning ko'z nuri bor.



“QORLAR O‘YNAB YOG‘MOQDA...”

Qambar OTA

YANGI YIL SALOMI

Yangi orzu, yangi shon,
 Tilaklari bir jahon.
 Dunyo bo'lsin deb omon,
 Kulib kelgan yangi yil,
 Dil to'ridan bir olam
 Salom senga,



Assalom!
Bag'ri to'la quvonch, baxt,
Mangu tinchlik qilib ahd,
Yigitday g'ayrati shaxd
To'lib kelgan yangi yil,
Qalb to'ridan bir olam
Salom senga,
Assalom!

Abdulhay NOSIROV

QOR YOG'MOQDA

Qor yog'moqda gupillab,
Zo'r yog'moqda gupillab.
Oppoq bo'ldi dalalar,
Keling, keling, bolalar!

Bog'chalar yasanadi,
Qorbobo yasaladi.
Tezroq bo'ling, bo'ling tez,
Ayni o'ynab-kular kez.

Toping konki, chang'ini,
Xoh eski, xoh yangini.
Qorlar o'ynab yog'moqda,
Osmon qaynab yog'moqda.

O'yinimiz qizisin,
Sovuq yuzni qizdysin.
Qor yog'moqda gupillab,
Zo'r yog'moqda gupillab.






Nurbek TURMUHAMEDOV

QISHNING ISHI

Qoyilman qish ishiga,
Zavq beradi kishiga.
Anhorni muzga qoplab,
Yaxmalak qildi boplab.
Faqat shuni bilmadim,
O'ylab, o'yga yetmadim.
Olamga oq libosni
Qanday qilib yopdiykin?
Buncha oq rang, oq nurni
Qanday qilib topdiykin?



Umarali QURBONOV

ZAG'CHALAR

Novdalar oq,
Qor hammayoq,
O'rikzorda zag'chalar
Yayrab, jo'shib,
"Chag'-chag'"lashib,
Bazm qurib, kuy chalar.
Nega ular
Sovqotishmas?
O'ylab topdim ta'rifin:
Saqlar omon
Sovuq qishdan
Barqut palto, sharfi...



Dilshod RAJAB

QISH LAVHALARI

Kechki osmon ohista
Qorni elay boshlaydi.
Tunning qaro sochiga
Oq oralay boshlaydi.

* * *

Turar qator daraxtlar,
Holi nochor daraxtlar
Boshga tushgan qor — g'amdan
Sochi oppoq oqargan.

* * *

Kuylar shodon yallalar
Boqibeg'am qarg'alar.

* * *

Tashvishlari zo'ridan
Tutun puflar mo'rilar.

* * *

Har teshikka bosh suqib
Qarab yurar izg'irin.
Muzqaymoqday qorlarni
Yalab yurar izg'irin.





Yo'ldosh SULAYMON

YOG'YAPTI

Yer to'ysin deb bir yo'la,
Qor bo'ralab yog'yapti.
Go'yo osmon un elar,
Havosi ham yoqyapti.
Yurganimda iz qolsa,
Qor uni tez yopyapti,
Kuchugim ham oqarib,
Atrofimda chopyapti.
Momojonim oynadan
Juda xursand boqyapti.
Xayolinga yoz kelib,
Suv sharqirab oqyapti!



Nurullo OSTON

QORXAT

Qor sepalab yog'ardi,
Qir tepalar oqardi.
Gullab ketdi archalar,
Kuylab keldi qarg'alar.
Ko'p soz bo'ldi dalalar,
Qorxat yozdi bolalar.
Qorxat sharti – so'z aytmoq,
Ko'proq bo'lsin muzqaymoq!



Narimon ORIFJONOV

OPPOQ QOR

Olam beti oppoq qor,
Qor yog'adi izma-iz.
Qani, chiqing, bolalar,
Biz qorbobo yasaymiz!

Kimki bo'lsa dovyurak,
Qo'l ko'tarsin, so'rasin.
Tutqazamiz belkurak,
Yo'lkalarni kurasin.

Xazinangni och, osmon,
Yerga momiq ko'rpa yop!
Avjga minsin qorbo'ron,
Oq kiyinsin chor-atrof!

Qor hikmatin bilamiz,
Yog'aversin oppoq qor.
Qancha yog'sa, dalamiz
Shuncha bo'lar hosildor!

“...ONA ERUR QIBLAI OLAM...”

Abdulla ORIPOV

ONA

Kimdir savol berdi: — Aytgil, Muhammad,
Yolg'iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko'p yaxshilik aylay, o'zing ayt,
Ota-onamgami? Yoxud bolamga?





Rasul javob qildi: — Tingla, birodar,
Gapimni uch bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar,
Eng avval onangga yaxshilik qilgil.

Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq
Rostdan, ona erur qiblai olam.
Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq
Onadan tug'ilgan Payg'ambarlar ham.

Hanifa SOLIHOVA

ALLA



Hammayoq jim, haryoq uyquda,
Dalalar ham, bog'lar ham jimjit.
Oy shu'lasin to'kar osuda,
Yulduzlar ham jivirlar milt-milt.

Allalayman o'g'limni tanho,
Toychog'imga orom tilayman.
Belanchagi ustida goho
Kechalarni tongga ulayman.

Shunday bedor tunlar bag'rida
Yuragimdan bir nido chiqar:
Keng jahonning hammayog'ida
Alla, alla bilan har safar

Yirtilsa-yu sukut pardasi,
Unutilsa urush sharpasi...



Valijon AHMADJON

ONAJONIM QO'LLARI

Tandir to'la nonlarning
Pishmoq sirin o'ylayman.
Non yopilgan tandirga
Shoshilmasdan bo'ylayman.

Biram issiq — gumbaz cho'g'
Kuydirgudek yuzimni.
Darrov ortga qaytaman,
To'sgancha qosh-ko'zimni.
Onajonim qo'llari
Nonni uzar saralab,
So'ngra yupqa suv separ
Savat uzra sevalab...



Tolib YO'LDOSH

OTA-ONA

Ota-ona — ikki so'z,
Biri qosh-u biri ko'z.
Bir-biridan qimmatli,
Mehri daryo himmatli.
Ular o'zin o'ylamas,
Farzandi sog' bo'lsa, bas.
Goh yiqilib, tursa ham,
Gohi yig'lab, kulsa ham,
Hammasiga chidarlar,
Bular — qo'sha chinorlar.



Miraziz A'ZAM

ONAM ISHDAN KELADI...

Onam ishdan keladi,
Yana ovqat qiladi.
Kirimizni yuvadi,
Uydan changni quvadi.
Men bir chetda turaymi?
Yo'lni chapga buraymi?
Onam oshga urinsa,
Sabzi to'g'rab turaman.
Yuvgan kiri qurisa,
Darrov dazmol uraman.
Onam ishga ketganda,
Polimizni artaman.
Onamni shod qilaman
Kunda necha marta man.

Rauf TOLIB

NEGA XURSANDMAS OYIM?

— Yo'q, demay ishni
Qilaman doim.
Ne uchun xursand
Bo'lmaysiz, oyi?



Oq ko'ylagimni
Yuvdim-ku o'zim?
— Yaxshi chaymabsan —
Dog'-dug'-ku, qizim?



— Xo'sh, kartoshkani
Artibman qandoq?
— Voy, kartoshkangning
Yarmisi po'choq.

— Idish-tovoqni
Yuvdim xo'p rosa.
— Ko'rdim, sinibdi
Ikkita kosa.

Mehnatsevarsan,
Buni bilaman.
O'xshatsang ishni,
Xursand bo'laman.

Kavsar TURDIYEVA

OYIM BILAN ARAZLASHDIM...

Men haddimdan biroz oshdim,
Oyim bilan arazlashdim.
Hech kim meni ovutmadi,
Choyimni ham sovutmadi.
Mana endi tilim kuydi,
Dadam asta kulib qo'ydi.
O'ynagim ham kelmayapti,
So'ylagim ham kelmayapti.
Nahot, endi menga oyim
Gapirmasdan yurar doim?
Birdan o'pkam to'lib ketdi,
Ko'zlarim nam bo'lib ketdi.
Oyim tomon uchib bordim,
Uni mahkam quchib oldim:





—Yarashaylik, oyi, keling,
Meni tezroq yaxshi ko'ring!

Asom ZIYOMAT

KEKSALAR

So'rida otaxonlar
Suhbat qurar kulishib,
Bosib o'tgan yo'llarin
Eslab, zavqqa to'lishib.

To'rt bobo — to'rtta kitob
To'la ertak-hikmatga.
Ona-diyor qo'ynida
Loyiq izzat-hurmatga.

Aziz ABDURAZZOQ

BUVALAR

Kimning bo'lsa buvasi,
Kelar mening havasim.

Chunki mening yo'q buvam,
Ba'zan ko'p ezar bu g'am.

Buvasi bor bolalar —
Ko'ngli gulzor bolalar!

Buvani izzat qilib,
Yashanglar xizmat qilib.





Kattakon baxt — buvangiz,
Buvam bor, deb quvngangiz.

“HOZIR YOSHIM OLTIDA...”

Bolalar olami

ZULFIYA

GULLARIM

“Nega deysiz gullarim?” —
Deb berdingiz siz so‘roq.
Qayga tushsa ko‘zlarim,
Sizlar o‘ynab yurgan bog‘.

Nurni yaxshi ko‘rasiz,
Suvda urasiz javlon.
Parvarishda o‘sasiz,
Gul bilan siz ikkovlon.

Gullar o‘qiy olmas ham,
Qo‘shiq kuylolmas sizday.
Bosolmas olg‘a qadam,
Charaqlashib yulduzday.

Siz — hayoti o‘lkamning,
Siz — kelajak gullari.
Yashnang, ochiling, o‘sing,
Ko‘z, dilimiz nurlari.



G'afur G'ULOM

O'YLASHNI O'RGANAMIZ

Muxtorjon olti yoshlik

Singlisidan so'radi:

— Munisxon,

Rostini ayt,

O'ylashni bilasanmi?

Munisxon akasiga

Ajablanib qaradi:

— Aka-a, o'zing ayta qol,

O'ylash degani nima?

Muxtorjon jiddiy turib,

Qoshini birga yig'ib,

Singlisiga ko'rsatdi:

— Mana, men o'ylayapman...

— Nimani o'ylayapsan?

— Juda ko'p o'ylayapman:

Morojniydan tog' bo'lsa,

Nuqul gilos bog' bo'lsa.

Bir qozon qaymoq bo'lsa,

Tuyaday pishloq bo'lsa...

Og'zining suvi kelib,

— Viy-y, — devordi Munisxon, —

To'xtab turgin, akajon,

Menam o'ylab boqaman.

— Tez o'yla, — dedi Muxtor,

— Tura tur, o'ylab olay:


Hiy... bitta qo'g'irchoq bo'lsa,

Kaliti buzilmasa.

Ko'zini yumganida

Meni ham ko'rib tursa...






Xans Kristian Andersen. Jirkanch o'rdak bolasi.



— Shu ham o'ylash bo'ldimi?
O'ylashni o'rganib ol!
Sen oyi bo'lasanmi?
Ko'zin pir-pir uchirib:
— Sen-chi, — dedi Munisxon.
Muxtorning jahli chiqib:
— Men qiz bola emasman.
Qizlar oyi bo'ladi.
Men katta bo'lganimda,
Besh yuzga kirganimda
Katta dada bo'laman.
— Qizing ham bo'ladimi?
Oti nima bo'ladi?
— Yuzta qizim bo'ladi,
Oti Punis bo'ladi.
— Viy-y, — devordi Munisxon, —
Men-chi, oyi bo'laman...
Mingta o'g'lim bo'ladi,
Oti Puxtor bo'ladi.
Hi-i,— tilin likillatib
Gij-gijlatdi akasin.
Shunday qilib, do'stlarim,
So'lim, shinam bog'dagi
Suv krani tagida
O'ynab yurgan ikki yosh
O'ylashga boshladilar.



Erkin VOHIDOV

OYGA UCHSAK...

— Oyga uchsak, Xoljonni ham
Olamizmi?





— Hamma uchsa, axir, oshnam,
Qolamizmi?

— Arg'imchoqdan qo'rqding,
Xoljon,
Ko'rmayсанmi!?
Uchar bo'lsak Marsga tomon,
Qo'rqmayсанmi?

— Do'stlar, sizni hech uyatga
Qo'yarmidim?!
Anvar o'zi qo'rqitmasa,
Qo'rqarmidim?!



Kavsar TURDIYEVA

MULOYIM KO'CHASI

Sehrgar tushib pastga,
Nimadir dedi asta.
O'shandan buyon doim
Mening nomim muloyim.

Bizda tuzilgan lug'at
Eng yaxshi so'zdan faqat.
Salom, hormang, marhamat,
Salomat bo'ling, rahmat.

Uzr, qulluq, tasanno,
Kechirasiz, marhabo.
Bizda yomon so'zlashmas,
Hatto yomon o'ylashmas.



Odamlarning yuzidan
Tabassum hech arimas.
Qarilar ming yil yashar,
Yoshlar esa qarimas.

Yo'ldosh SULAYMON

HOZIR YOSHIM OLTIDA

Hozir yoshim oltida,
Katta-kichik oldida
Yurishlarim bo'lakcha,
Turishlarim bo'lakcha.

Chunki aqlim kirgan-da,
Uyga mehmon kelganda,
Ko'zni qilib shang'alat
Olmasman hech shokolad.

Tanish-bilish odamlar,
Akam, ayam, dadamlar
Deyishar:

— Erkatoyim,
Ana shunday bo'l doim
Katta-kichik oldida,
Axir, yoshing oltida!



BO'Y VA ES

Kechki taom tayyorlab
Oshxonada band aya.
Etagiga yopishib
Gulsara der:
— Qand, aya!
“O‘zing ol”ga unamas,
Yo ko‘nmas “shoshmay tur”ga.
Ayasiga dastyor der
Uning bo‘yini ko‘rgan.
— Qizim qara, qozonga
Yog‘ tashladim, dog‘ yesin,
...Yana qilar tixirlik,
Kirmabdi hali esi!

Muhammad YUSUF

QUSHLAR HAM YIG‘LAR

Terlar oqdi suv bo‘lib bizdan
Va gursillab yiqildi terak...
Aka, bizning qilmishimizdan
Tunda qushlar yig‘lasa kerak.





Ona chumchuq aylanib ketmas,
Ko'ngliga qil sig'masa kerak.
Eski indan tashib borib xas,
Yangi inda yig'lasa kerak.

Baland bo'lar uyimiz tog'dek,
Ayvonda ustun ul terak.
Biz yasharmiz ko'nglimiz chog'dek,
Shunda qushlar yig'lasa kerak...

Hayriddin SALOH

OLMA

Ariqchanning bo'yida
O'tirar edi Lola.
Minib to'lqin bo'yniga,
Oqib keldi bir olma.

Tutmoq bo'ldi qiz uni.
Olma-chi, cho'chib ketdi.
Goh cho'kib, goh ko'rinib,
Uzoqqa qochib ketdi.

Lola dedi: — Nega sen
Mendan qochasan, olma?
Yeb qo'yadi, deb tag'in
Sira xavotir bo'lma.

— Bo'lmasa, quvding nega
Ketimdan shuncha uzoq?
— Bandingdan bog'lab ipga
Qilmoqchiman oqizoq.






Habib RAHMAT

SHOSHQALOQ

Bir bola bor alomat,
Lekin dangasa emas.
Ish buyursa onasi,
Sira-sira yo'q demas.

Bir aybi bor: betoqat,
Juda-juda shoshqaloq.
Diqqat bilan gappingga,
Rosti, solmaydi quloq.



Ona der: — Shoshma, bolam,
Oldin gapga quloq sol.
— Bo'ldi, tushundim, — der-u,
Yugurib ketar darhol.

Zumda qaytar halloslab,
Hayron qilib onani.
— Oyi, nima devdingiz?
Olib kelay nimani?

ESONMISIZ-OMONMISIZ?

- Tiq, tiq, tiq, tiq,
kim bor-ey.
- Eshik ochiq,
men bor-ey.
- Keling, keling,
o'rtoqjon.


- Keldik, keldik
o'rtoqjon.
- Omonmisiz,
aylanay?
- Esonmisiz,
o'rgilay?
- Qaysi shamol
uchirdi?
- Sizning shamol
uchirdi.
- Bir yo'qlayin
debsiz-da.
Juda yaxshi
kebsiz-da.
- Bormasangiz
ham, keldik.
- Ko'p xursandman,
xush ko'rdik.

Hamza IMONBERDIYEV

OLAMOSHIM

Tokchadagi qaymoqdan
Ko'tarmay sira boshin.
Ichayapti, qarasam,
Uyalmay Olamoshim.

Avvaliga “pisht” deb bir
Quvmoq bo'ldim-u, biroq
Rahmim kelib, negadir,
Tikilib qoldim uzoq.





Quloqlarin chimirib,
Ichar edi bir mayin.
Beparvoligim sabab
Qorni ochgani tayin.


Oyoq uchida asta
Chiqib ketdim hovliga —
Bir gal qaymoq yemasam
Yemabmand-da, mayliga.

Ma'mur QAHHOR

KUCHUGIMIZ BOLALADI

Bilasizmi,
Bilasizmi,
Kuchugimiz bolaladi.
Siz tasavvur qilasizmi,
Qanday shirin bolalari?

Akam Tolib:
— Qopga solib,
Cho'ktiraman soyga, — dedi.—





Nega kerak shuncha kuchuk,
Katalakdek joyga, — dedi.
Biz qo'ymadik,
Biz yig'ladik,
Aytib berdik buvimizga.
“Qopni qayga bekitding?!” — deb
O'qrayadi Tolib bizga.

Biz aytamiz:
Bitta-bitta
Olib ketsin do'stlar bari,
Cho'ktirmoq-chun tug'ilmagan,
Axir, kuchuk bolalari.

Tursunboy ADASHBOYEV

JOYIGA OSAYAPMAN...

Nazmi xola ko'rpa qavib
O'tirardi supada.
Nabirasi xom olmani
Uzib solar lippaga.

— Shoxda nima qilyapsan?
Pastga tush, Hosiyatxon!
— To'kilgan olmalarni
Joyiga osayapman...



Murod IBROHIMOV

KO'P QIZIQAMAN

Bir kun maktabdan
Keliboq Salim,
Olmasdan damin,



Dilbar singlisin
Savolga tutdi:
— Ko'p qiziqaman
Hisob darsiga.
Bir savolim bor,
Ey, Dilbar, senga,
Aytgin-chi, qani,
Bo'ladi qancha —
To'qqiz olmani
Bo'lganda uchga?
— Hali maktabga,
Axir, bormayman,
Hisoblamoqni
Yaxshi bilmayman.
To'xtang, shundayam
Bir o'ylab olay.
Barmog'im bilan
Hisoblab ko'ray.

Po'lat MO'MIN

BEKORJON

Ko'cha bo'ylab sanqirdi
Bekorjon o'zi,
Angrayadi atrofga
Javdirab ko'zi.
Yo'l chetida qurardi
Ustalar bino,
Bekorjon qarab qoldi
Ko'rganday kino.
Tayyor uylar devorin



Ko'tarar kran,
 O'tgan-ketgan tikilar
 Taajjub bilan.
 Ikki soat aylanib
 Kelsa Bekorjon,
 Bir xona uy bitibdi,
 Bo'ldi u hayron.
 "Quruvchilar o'z vaqtin
 Tejab astoydil,
 Shunday ishlar qilarkan!" —
 Deb bo'ldi qoyil.
 Ammo o'zin ko'p vaqti
 O'tgandan bekor
 Xabari bormikan hech?
 O'ylasin bir bor!

Abdusaid KO'CHIMOV

TUSH KO'RDIM

— Aka, aka, bugun men
 Juda qiziq tush ko'rdim.
 — Qani, ayt-chi, tushingni?
 Kulib singlimdan so'rdim.

 — Tushimda-chi, men bilan
 Nasiba ham bor edi.
 Yuzim yuvib kelguncha,
 Aytib bersin u, — dedi...



Fayzi SHOHISMOIL

KUZATISH

— Uyga kirgin, Baxtiyor,
Kech bo'ldi-ku, jon bolam.
— Hozir, aya, yonimda
O'ynayapti Hikmat ham.
Kuzatmasam bo'lmaydi,
Qo'rqar uyga borgani.
— Sen-chi, sen qo'rqmaysanmi
Yolg'iz o'zing yurgani?
Bo'sh kelmaydi Baxtiyor,
Ayasiga aytadi:
— Nega qo'rqay, kelishda
U kuzatib qaytadi.

Safar BARNOYEV

FERUZA AYTGAN QO'SHIQ



Darsdan “besh” olgan paytlar
Feruza qo'shiq aytar:
“Quyosh bo'lsin, oy bo'lsin,
Dadam, oyim boy bo'lsin.
Menga atlas, ukamga
Gijinglagan toy bo'lsin.
Ukalarim ko'p bo'lsin,
Tashvishimiz yo'q bo'lsin.
Himoyachim ko'p, deya,
Mening ko'nglim to'q bo'lsin.
Dadam yuzga kirsinlar,
Oyim yuzga kirsinlar.
Bizlar yuzga kirganda,
Yonimizda tursinlar”.



Darsdan “besh” olgan paytlar
Feruza qo‘shiq aytar!
Quvonchin yashirolmay,
Qo‘shiqqa qo‘shib aytar.

“DILDA HAVAS UYG‘ONSIN...”

Kasb-hunar haqida

Sulton QO‘QONBEKOV

EY, HUNARJON, HUNARJON

Kim hunar bilsa a‘lo,
Baxti chopar doimo,
Yo‘liga, ey, hunarjon,
Sen sohasan nur-ziyo!

Ey, hunarjon, hunarjon,
Borlig‘ing jonga darmon.
Kuylay seni qo‘shiqda,
Qolmasin dilda armon.

Sen o‘xshaysan quyoshga,
Gul o‘tqazasan toshga.
Sen bilan kim toblansa,
Qordan o‘t qalar oshga.

Bor mo‘jiza sendadir,
Kimda topsang sen qadr,
Murodiga yetgay u,
Etgay uni el qadr!






Qudrat HIKMAT

NAY

Sambit toldan
Kesib
Erinmay,
Yasab oldim men
Shaxmatnusxa nay.
Unda tinglab ko'r
"Cho'li iroq"ni,
Kuyim yangratar
Yaqin-yiroqni...



Bu ham bir kasb,
Zoye ketmas ish.
Naychi uchun baxt —
Elga zavq berish.

To'xtaxon RAHIMOVA

NON SAVATIM

Oq tolim-u ko'k tolim,
Chiviqlari tolim-tolim.
Non savatim, sevib seni
To'qigandir akang Olim.
Non savatim, jon savatim,
Nonga to'lib tur, savatim!

**Hamidulla YOQUBOV****USTA TOLIB**

Kichkintoy usta Tolib
Yasadi jajji qolip.
Ushlashiga bor dastak,
Loy solishga qo'sh katak.

G'isht quymoqchi yuztalab,
G'ishtlarin qalab-qalab.
Qurmoqchi baland tomcha —
Terimchiga shiyponcha.

Odil ABDURAHMON**USTA**

Men kichik
Ustaman.
O'z ishimga
Puxtaman.
Dadam bilan
Ertalab
Yog'och, taxta
Randalab,
Uycha qurdim
Tovuqqa,
Qolmasin deb
Sovuqqa.



To'lqin ILHOMOV

VARRAGIM

Shamoljon-u, sho'x shamol,
Esa qol-e, esa qol.
Terak uchi qimirlar,
Soyning beti jimirlar,
Yashil barglar shivirlar.
Sevinch to'la yuragim,
Qarang, uchar varragim.



Varragim minib olsam,
Qani, oyga yo'l solsam,
Do'stlar qo'l silkib qolsa.
Yuragimda bir tilak:
Yasayman po'lat varrak.
Bulutlarni quchaman,
Oymomoga uchaman,
Yulduzlarga ko'chaman.
Varragim uchar, qalqir,
Go'yo oftobday balqir.

“NAFIS CHAYQALADI BIR TUP NA'MATAK...”

Gullar olamida

OYBEK

NA'MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagida.
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...



Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
 Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
 So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,
 Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun,
 Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...
 Nafis chayqaladi bir tup na'matak.
 Shamol injularni separ chashmadak,
 Boshida bir savat oq yulduz — chechak,
 Nozik salomlari naqadar ma'sum!

Tog'lar havosining feruzasidan
 Mayin tovlanadi butun niholi.
 Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
 Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,
 Quyoshga bir savat gul tutib xursand!



Ilyos MUSLIM

BOYCHECHAK

Hali erimasdan qor,
 Dala, qirda gulbahor.
 Chiqdi mitti gul-chechak.
 May elchisi — boychechak.
 Askar kabi turar tik,
 Barglari yashil, tetik.
 Uning rangi sariq, oq,
 Boshida kumush qalpoq.





Raim FARHODIY

KAKTUS

Kiygan tikanak chopon,
Kaktus g'alati ekan.
Silay desam, nogahon
Qo'limga sanchdi tikan.

Shukur SA'DULLA

LOLAQIZG'ALDOQ

Qizil durra boshlarda yashnab,
Sayr qilishar ming-ming qizaloq.
Yaqin borib tursam ko'z tashlab,
Imlar meni lolaqizg'aldoq.

Poyasida g'unchalari ko'p,
Bahor qizi gul ochar tinmay.
Qora qoshli loladan bir to'p
Dasta terdim qirdan erinmay.

Bahor qizi – lolaqizg'aldoq,
Qulog'imga bo'lsang-chi baldoq!





Po'latbek ERMAT

MOYCHECHAKNING QALPOG'I

Erta bahor moychechak
Qalpoq kiydi quyoshrang.
Hayrat ichra do'stlari
Bo'lishdilar hang-u mang.

Kibr-u havo band etdi
Moychechakning o'yini.
Ko'z-ko'z qildi qalpoq-la
Mittigina bo'yini.

Uning maqtanchoqligi
Zinhor yoqmadi chog'i.
Moychechakdan arazlab
Uch-i-ib ketdi qalpog'i.



“DALADA KO'P DO'STIM BOR...”

Meva va sabzavotlar haqida

Quddus MUHAMMADIY

OLMA

Oqizoq o'ynar edim,
Bir olma oqib keldi.
Suvning betida qalqib,
To'lqinda balqib keldi.
Olgim keldi olmani,
Tutqich bermas likillab.



Qo'l uzatsam, yetmadi,
 Qochib ketdi dikillab.
 Quvlay-quvlay tutdim-ku,
 Jonoqi olma ekan.
 Bir yuzi nim pushti, oq,
 Bir yuzi lola ekan.

Anvar OBIDJON

LOVIYA




Hasad qilar
 Menga mosh.
 Mevalarim
 Qalamqosh.
 Bir tupimda
 Yuz uya,
 Uya to'la
 Loviya.
 Loviyalar
 Qorako'z.
 Silkitmasdan,
 Asta uz.
 Yo'qsa,
 Uyni ochishar,
 Tirqirashib
 Qochishar.



BAQLAJON

Bilib qo'ygin,
Ukajon,
Mana, biz-da
Baqlajon.
Meni qishga
Tuzlashib,
Yeyishadi
“Siz”lashib.
Bodring bilan
Oshqovoq
Tunda suhbat
Qilgan choq,
Qo'shilaman
Gurungga,
Uxshab
Katta burunga.



Tursunboy ADASHBOYEV

SHAFTOLI

Kun nuridan taft olib,
Xil-xil pishdi shaftoli.
Xolboy ko'rib to'satdan,
Tosh irg'itib o'shatdan.
Soldi qo'yin-qo'njiga,
Bir donasi — lunjida.
Bo'lmas edi shoshmasdan,
Lekin devor oshmasdan,
Ko'ylagin tashlab qochdi,
Qornini qashlab qochdi.



Ne'mat ORIF

MOSH

Loviyaga qondoshman,
Mushukvoyga
Otdoshman.
Ko'zlarim
Bor
Kichkina.
Moshxo'rdamdan
Ichgin-a!



Anvar OBIDJON

SABZI

Yupqagina
Po'stim bor,
Dalada
Ko'p do'stim bor.
Maqolda ham
Yoziqman.
O'sha
"Oltin qoziq"man.
Yotsam
Yerga qapishib,
Dumginamdan
Tortishib,
Tashladilar
O'raga...
Salom
Palovto'raga!



Ne'mat ORIF

MAKKAJO'XORI

Meni yaxshi
Bilishar,
Goh zog'ora
Qilishar.
Ba'zan
Dumbulligimda
Pishirishib
Yeyishar.
Poyam —
Chorva madori,
Akang —
Makkajo'xori.



Nazirjon BARAKAYEV

ZIRA

Nozikkina ziraman,
G'ovlamayman sira man.
Oshpazlarning tushiga
Har kun kirib turaman.

Joyim — tog'lar orasi,
Baxmal ungur sarasi.
Sayr etganda bir eslang
Anzur, zirkning jo'rasin.
Xushbo'ylikda nafisman,
Gulim go'yo nargisman.
Insonga sadoqatli
Shifokorman — parhezman.



Uvoqqina ziraman,
G'ovlamayman sira man.
Uzishga ko'p shoshilmang,
Hozir andak g'o'raman...

Miraziz A'ZAM

QOYIL QOLING

Bahorda, yozda, kuzda,
Mevalar pishsa sizda,
Qahraton sovuqda ham
Topilib turar bizda:

Bodring,
Karam,
Pomidori,
Baqlajon-u
Garmdori,
Qoyil qoling.

Biz yigirma bolamiz,
Yer tagida dalamiz.
Parvarishlab undirdik,
Boshliq To'ti xolamiz.

Bodring,
Karam,
Pomidori,
Baqlajon-u
Garmdori,
Qoyil qoling.



Dalamizning tomi bor,
Oynabandlik romi bor.
Elektr quyoshidan
Nur emishdi beg'ubor

Bodring,
Karam,
Pomidori,
Baqlajon-u
Garmdori,
Qoyil qoling.

Qanchalik ko'p ishlasak,
Shunda ham tez pishmasa,
Ukol olar shprisdan —
Mevasi yetilmasa

Bodring,
Karam,
Pomidori,
Baqlajon-u
Garmdori,
Qoyil qoling.

Shunda biri qaqqayib,
Boshqa biri yalpayib,
Semirib ketishadi
Qorin qo'yib dikkayib:

Bodring,
Karam,
Pomidori,
Baqlajon-u



Garmdori,
Qoyil qoling!

Qor yog'ar uchqun-uchqun,
Shakarob yeymiz nuqul.
Qozonda esa tinmay
Sayrashar vaqir-vuqur

Bodring,
Karam,
Pomidori,
Baqlajon-u
Garmdori,
Qoyil qoling!



Jahon bolalar she'riyati

Gabriela MISTRAL
(Chili)

YER VA AYOL

Butun yer uzra kunduz,
O'g'ilcham ko'z yummaydi.
Boshida nur tinimsiz
Sho'xlik qilib o'ynaydi.

O'ynar bog'da har novda,
Ninachi tushar raqsga.
Uloqchaday havodan
Bulut sakraydi pastga.

Shov-shuvga to'lib choshgoh
Qoshida chug'urdaydi.
Yo'rgagin yechib nogoh
Yel sevib erkalaydi.

Tun cho'kadi... chirildoq
Qochar eshigim qoqib.
Yulduz ko'z qisib quvnoq,
O'ynar go'dagim topib.

O'zga onaga deyman:
"Yo'ling ko'p, yo'ling uzoq.
Sen bolangni tebratsang,
Meniki uxlar tezroq".





U – borlig‘i matonat
Cheksiz chuvalgan yo‘lda.
Deydi: “O‘z bolang tebrat,
Meniki uxlar shunda”.

Durdi QILICH
(Turkmaniston)

UXLA, QO‘ZIM!

Sevikligim, ey, o‘g‘lim,
Chiroyli anor gulim,
Ilk bahor navniholim,
Uxla, qo‘zim, oppog‘im!

Sen shirin hayotimsan,
Kuyimsan — qanotimsan,
Quvonchimsan, zotimsan,
Uxla, qo‘zim, oppog‘im!

So‘zimni ich bolsimon,
Chinor kabi o‘s, polvon,
Lola kabi bo‘l xandon,
Uxla, qo‘zim, oppog‘im...

Mekemboy OMAROV
(Qozog‘iston)

ONA TILIM

Ona tilim — tanamda
Oqib turgan bulog‘im.
Ona tilim — qalbimda
Yonib turgan chirog‘im.
Ona tilim to‘lg‘onsa,






Qaysi dengiz chayqalmas.
Ona tilim bo'lmasa,
Elligim ham payqalmas.

Agniya BARTO
(Rossiya)

MEN ORTIQCHA

Olcha tagin chopishar...
Sergey der: — Men ortiqcha.
Beshtangizga besh daraxt,
Menga ish yo'q tariqcha.

Mevalar g'arq pishgan chog'
Sergey bog'ga kirgandi.
Bolalar unga dedi:
— Ortiqchasan sen endi.





GUL TERGALI QISHKI O‘RMONGA...

Aslo ishonging kelmas,
O‘xshab ketar ertakka.
Qizcha qishda o‘rmonga
Boribdi gul termoqqa.

Issiq yozdagi misol
Yashil emasdir o‘rmon,
Faqat qorga qoplangan,
Oppoqdir yer-u osmon.

Qizcha asta jilmayar:
— Ishonmasangiz agar,
Qarang, zavqingiz ortar:
Archagul — yashil gilam.
Qorga to‘shalib yotar.

Oddiygina bir ko‘kat,
Yozda qadri yo‘q faqat.

Qanchalar zavq bag‘ishlar
Ko‘rib qolsang gohida,
Yashnagan archagulni
Qor yog‘gan qish chog‘ida.

Vardeges BABAYAN
(Armaniston)

TEGIRMON HAQI

Qopdan sakrab chiqdi sichqon,
Quloq, burni un bo‘lib,
Mushuk uning ahvoliga
Achingan bo‘ldi kulib.





— Ha, Sichqonboy, yo'l bo'lsin?
 — Yo'l bo'lgay tegirmondan.
 — Tirikchilik — bug'doy tortdik,
 Qo'ymasin halol nondan.

— Teshgan qoping hasrat qildi:
 Sen haqda shikoyat — so'z.
 Endi meni laqillatmay,
 Tegirmonning haqin cho'z...

Yunes MARSINKYAVICHYUS
 (Litva)

JANG TUGADI

Jang tugadi.
 Urishqoqlar
 Juda ham holdan toydi,
 Dakan xo'roz ikkoviga
 Tanbeh berdi, koyidi.
 To'kilgan pat
 Terildi-yu,
 Darhol imzo chekildi.
 To's-to'polon,
 Urishlarning
 Yo'li taqqa bekildi...





O'zbek bolalar qissalari

OYBEK

ALISHERNING YOSHLIGI

(Shu nomli qissadan parcha)

...**Sh**u asnoda barchaning birdan eshikka yo'nalgan ko'zlarida oniy tabassum jilvalandi. Sho'x Alisher to'nining etaklarini hilpiratib yugurib kirdi. U bir lahzagina ostonada to'xtadi-da, qizarib: "Assalomu alaykum!" — dedi nazokat bilan qo'llarini ko'ksiga qo'ygan holda va mehmonlarga qop-qora iliq ko'zlari-la javdirab, bir qarab chiqdi, otasini ko'rgan hamon yana ham sevinib ketdi, chopib bordi-da, yonboshiga biqinganicha erkalandi.

G'iyosiddin Kichkina bir kesim pista holva bilan o'g'ilchasini mehmon qildi.

To'rt yoshlar chamasidagi Alisher kelishgan, xipchagavdali, tuyg'un ko'zlarida teran aql ko'rinar edi. Uning boshida taqya, ustida adras to'n, oyoqlarida xiyol etik, holvani yeya turib, majlisni odob ila kuzatar edi.

— Otni yaxshi ko'rurmisen, Alisherbek? — deyaso'radi kulimsirab si pohlardan biri.

— Ko'p yaxshi ko'rurmen, lekin... — dedi otasiga termila turib Alisher. — Ot choptirishdan fikr yuritish yaxshiroqdir, chamamda.

Hamma hayratda qotib qolgan edi.

— Ofarin, — dedi keksa barlos ham. — O'qiting o'g'lonni, mulla qiling, ilmning cho'qqisiga arziydi o'g'lingiz.

G'iyosiddin Kichkinaning yuzi quvonchdan yorug'lanib ketgan edi, ko'zlarida tabassum-la javob berdi u:

— Niyatimiz xuddi shunday, o'qitmoqni orzu qilurimiz. Ziyrak bola, picha sho'xligi bor.

— Bolaning sho'xi yaxshi, zeroki, fikri ham yugurik bo'lur; fikrning chaqmog'i — ilmning chaqmog'i, — dedi domla Murod.



Savdo aholidan baqaloqqina bir kishi domla Murodga e'tiroz bilan g'ulduradi:
— Ahli savdo safiga kirmoq — ulug' ish, savdoning xislati ko'p; zeroki, har narsaning davosi — oltin, deyдилar. O'qiting o'g'ilni, bek, ammo zar qadrini ham o'rgating.

Sipohlardan biri gurillab dedi:

— E-e, bahodirlikka ne yetsun, jangchi bahodir bo'lg'ay o'g'lon! Kuchi bo'lgan er yigit har narsaga yetgusidir. Egar-jabduq, o'q-yoy bilimidan saboq bering, janob bek!

— Qani, jiyan, bir g'azal o'qib yubor, bilasan-ku, — dedi tog'asi shoir Mirsaid Alisherning yelkasidan quchib.

Alisher otasiga yalt etib qaragan edi.

— O'qi, o'g'lim, o'qi, ixlos bilan o'qi! — dedi G'iyosiddin uning elkasiga qoqib.

Alisher oyoqlarini yig'ib, darrov cho'kka tushdi va sof tiniq tovush bilan muloyim ohangda she'r o'qib ketdi:

Ko'kardi chaman, guluzorim qani?
Zihi sarvi bo'yluq nigorim qani?
Topibdur bu kun vasli gul andalib,
Darig'o, mening navbahorim qani?

Majlis ahli maroq bilan jim quloq solurdi. Qizarib ketgan Alisher bir ongina sukut qilgach, dedi:

— Mavlono Lutfiy hazratlari aytmişlar bu she'rni, men juda yoqtiramən, ota, siz ne deysiz? — deya so'radi ixlos bilan otasiga termilib.

Otasi sevingandan ixtiyorsiz ravishda qah-qahlab kulib yubordi.

— Juda yaxshi, o'g'lim, menga ham ifrot ma'qul. Mavlono Lutfiy nihoyat hassos, nozik tafakkurli, har nechuk, madhga yarashuq bir shoirdurlar.

Majlis ahli zavq, maroq to'lqinida, ajoyib hayratda edi.

— Yo, Rabbim! — dedi keksa barlos yoqasini ushlab. — Ko'ngullarimizni nurga to'ldirgan bu jujuqdan qanday burgut yetishur? Parvardigorim hamisha panoh bo'lg'ay senga, omin! — deya qo'llarini yuziga surkadi u.



Mehmonlar boshlarini qimirlatib, tasdiq qildilar va barlosga ergashib, Alisherni ixlos bilan duo qildilar...

* * *

Alisher yangi taxtachani qo'ltig'iga mahkam qistirgan, shod va mag'rur, uch qadamcha ilgarilagan holda otasining oldida borur edi. Onasi ixlos bilan cho'miltirib, pokiza kiyintirgan. Oppoq salla, mullayoqa ko'ylak ustidan yengil adras to'n kiygan, oyoqlarida etik. G'iyosiddin bek ham soddagina, kamtar kiyingan. Ustida uzun yaxtak, katta salla, oyog'ida mahsi-kavush, katta dasturxonga tugilgan bir talay non va qatlamani ko'tarib borar edi. U ham shod, ruhi ko'tarinki. Bolaning salohiyatiga shubhasi yo'q, imoni komil.

Ular guzardan o'tib, o'ngga burilganlarida, quyruq daraxtlar orasidan maktab ko'rindi. Alisherning hayajoni tobora oshardi.

— Domulla — mo'tabar odam, — dedi G'iyosiddin o'g'lining elkasini quchib. — Hurmat ila salom berib, qo'lini o'p!

— Jonim bilan, aytganingizni bajo keltirurmen, — deb javob berdi Alisher.

G'iyosiddin o'g'lini yetaklab maktab xonasiga kirar ekan, o'qish shovqini shartta to'xtadi, bolalar duv etib o'rinlaridan turdilar va "Assalomu alaykum!" — deya ta'zim qilgach, qayta o'rinlariga cho'kdilar. G'iyosiddin Alisherning qo'lidan ushlagan holda domulla oldiga borib, ehtirom ila salom berib ko'rishdi.

— Assalomu alaykum, taqsirim! — deya Alisher egildi-da, qizarib domullaning qo'lini o'pdi.

— Borakalloh, o'qishga keldingizmi? Balli, o'g'lon, — deya turib yangi shogirdning otasiga joy ko'rsatdi domulla.

Sersoqol, gavdali keksa domulla boshida katta salla, ulug'vor, savlat to'kib o'ltirar edi.

— Taqsir, panohingizga keldik, — deya javob qildi Alisher, hayajondan titrab.

— Balli. Taxta keltirdingizmi, bo'tam? Ko'p yaxshi. Alifboning avval harfi Alloh Taoloning muborak ismidan boshlanur. Buni aslo unutmagaysiz, — dedi-da, domulla G'iyosiddinga qaradi. — Alisherbek tuyg'un va zakki ko'rindur.



G'iyosiddin qulluq qildi:

— Tashakkur. Ixtiyoringizga topshirdim, taqsir! — U tugunni domulla oldiga surdi va kissasidan bir tillo chiqarib ta'zim ila domullaga tutdi. — Taqsir, eti — sizniki, suyagi — bizniki. Endi kaminaga javob bersinlar, deya qo'llarini ko'ksiga qo'ydi.

— Alisher mullo bo'lg'ay! — deya jiddiy va ulug'vor ohangda domulla duo qilib, qo'llarini yuziga surdi.

G'iyosiddin ham unga ergashib ixlos ila duo qildi-da, xayrlashdi...

Domulla archa hidi burqiragan yangi taxtaga savag'ich qalamda xushxat ila yirik qilib yoza boshladi.

— Hali aytganim, bu — Allohning oti, uqdingmi?

— Alif! — deb o'qidi Alisher ixlos bilan.

— Be! — dedi domulla qamish qalamni tortib.

— Be-e!.. — dedi Alisher qoidasi bilan, cho'ziq ohangda.

Domulla qirt-qirt qilib qalam tortib yoza boshladi. U o'qtin-o'qtin to'xtab, uzun soqollarini bir silab qo'yar va tag'in yozishda davom etar edi.



Shogirdlar o'qish orasida bir-birlarini turtib, zimdan xilma-xil o'yinlar, sho'x hunarlarini ham davom ettirur edilar. Domulla taxtani uzatur ekan, Alisher suyunib, ikki qo'llab oldi. Taxta yuzi harflarga to'lgan edi.

— Alifbe... o'qi, bo'tam, — deya kichkinalar qatoridan joy ko'rsatdi domulla. — O'tib o'ltur, ertaga yangi saboq berurmen.

Alisher quvonch bilan domullaga qulluq qilib, ko'rsatilgan joyga o'ltirgach, tiniq, baland ovozda “alif, be”ni qayta-qayta takrorlashga kirishdi.



Peshin vaqti bo'lganda kichkinalar ozod qilinib, kattalarga tanaffus berildi. Shogirdlar shovqin-suron ila ko'chaga otildilar.

Alifbeni takrorlashdan tomoqlari qirilgan Alisher bir to'da bolalar bilan birga o'z mahallasiga jo'nadi.

— Oyi, qornim och, taom bering! — deya onasining qo'liga taxtani tutqazdi darvozadan yugurib kirgan Alisher va darhol qo'llarini yuvishga kirishdi.

— Sahardan to shomga qadar ko'cha-ko'chada kezar eding, mana endi yaxshi bo'ldi, Aliginam, peshindan so'nggi o'yin ham yetadi.

Oppoq sochiq ila yuz-qo'llarini nari-beri artar ekan Alisher:

— Mayli, maktab — ulug' dargoh, onajon, ko'p hikmatlarga oshna bo'lurmen, — dedi kattalardek.

Onasi Alisherning oldiga ovqat qo'yib, mamnun holda qarshisiga o'ltirdi va birinchi saboq haqida, domulla haqida surishtira boshladi...

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

“ODOBLI BOLA” O‘YINI

(*“Jannati odamlar”dan parcha*)

Qor yog'averdi-yog'averdi, axiri, qo'rg'onchamizdagi jamiki uylar-u bog'lardagi daraxtlar, biz o'ynaydigan maydonchalargacha — hamma-hammasi oppoq qor ostida qoldi. Enajonim deraza oldiga o'tirib olib g'ing'illab ashula aytib, chok tikkani-tikkan. Bobojonim bo'lsa o'zining oyog'ini o'zi uqalab, nuqul uh tortadi. O'yinchoqlarimni bir marta o'ynadim, keyin zerikib, hammasini tepib tashladim.

— Enajon, zerikib ketyapman, — dedim yig'lamsirab.

— Yoninga o'tir, ertak aytib beraman, — yupatmoqchi bo'ldi enam.

— Ertak eshitgim kelmayapti.

— Bor bo'lmasa, ko'chaga chiqib o'rtoqlaring bilan birpas o'ynab kel.

— O'rtoqlaringa chiqmayman. Murodjonning buvisi labini mana bunaqa qilib burib, ha, azamat, sandallaringning o'ti o'chib qolibdi-da, isingani chiqibsan-da, deydi.



— Bo'lmasa, Hayitvoylarnikiga kir.

— Hecham-da, ularnikida bola ko'p, sandallarida joy yetishmaydi-da, keyin surib-surib meni chekkaga chiqarib qo'yishadi.

— Menga qara, onasi, — deb gap qo'shib qoldi bobojonim. — Rahmonberdi o'g'limni zeriktirib qo'ymaylik, o'rtoqlarini chaqirib kelsin, bironta o'yin o'ylab toparmiz.

— Rost aytyapsizmi, bobojon? — dedim sakrab o'rnimdan turib.

— Rost aytyapman.

— O'zingiz ham o'ynaysizmi?

— O'ynayman.

— Enam-chi?

— Uyam o'ynaydi.

— “Odobli bola” o'ynaymizmi?

— Bo'пти.

— Yong'oqdan ko'p berasiz-a?

— Ko'p beraman.

Oh, qanday yaxshi bo'ldi-ya! Maza qilamiz endi. Bobojonim o'zi yaxshida, enam ham, men ham yaxshiman, hammamiz yaxshimiz. “Odobli bola” o'yini — zo'r o'yin. Kim odobli bo'lsa, o'sha yong'oqni ko'p yutadi. O'rik ham, mayiz ham yutuqli. Ho'l qor yog'ib, shamol esayotgan kuni Ahmadqul bobomnikida o'ynagan edik, men hammasidan zo'r chiqqanman, bir xalta yong'oq yutganman, cho'ntagim mayizga to'lib ketgan. Faqat yong'oqni ko'p yemaslik kerak. Enajonim, qo'y, bas qil endi, desayam, ishingizni qiling, o'zimning yong'og'im, deb chaqib yeyaverdim, oxiri tomog'im og'rib qoldi. Ertalab turib, ena, desam, indamaydi. Keyin bilsam, ovozim chiqmay qolgan ekan. Endi yutsam, ko'p yemayman, ikkita-ikkitan nonga qo'shib yeyman... Ey, qanday yaxshi bo'ldi-ya! Enajonimning tikib turgan chokini otib tashlab, bo'yniga osilib oldim. Birga chiqib aytamiz, bolalar menga ishonmaydi, enalari issiq sandalda jimgina yotsang-chi, deb urushib beradi, birga chiqasiz, deb hovliga sudray boshladim.

— Voy, enaginang o'rgilsin-ey, — deb qo'ydi oxiri enajonim.

Hammasini aytdik, ko'cha boshidagi G'ulom bobonikiga bordik. Uyimiz



bolaga to'lib ketay dedi. Bilasiz-ku, chorhari uyimiz judayam katta. Enajonim hammasining tagiga mening to'yimga atab tikkan yakandozlaridan to'shab:

— Xush kelibsizlar, mehmonlar! — dedi.

Hayitvoy o'yin boshlanib qolsa, tag'in kech qolmayin, deb, qo'rqib, etigini kiyishga chidamay, bobosining mahsisini ustidan kiyadigan katta kalishini kiyib chiqqan ekan, ichi qorga to'lib qolibdi. Sanambuvining uch yoshli Rohila degan qo'g'irchoqqa o'xshagan singilchasi bor edi-ku, o'shaniyam ergashtirib chiqibdi. Dilijon otasining quloqli telpagini kiyib chiqqan ekan, beti ko'rinmay, hech kimga o'xshamay o'tiribdi.



Bobojonim, har biriga alohida-alohida tikilib, bu kimning bolasi? Bu kimning nabirasi? — deb so'rab chiqdi. Enajonim g'alvirni to'ldirib yong'oq, mirsanjali o'rigimizdan olib chiqib, bobomning oldiga qo'ydi-da:

— Hoy, otasi, boshlamaysizmi? — deb qistadi.

— Xo'sh, o'g'il-qizlarim, jajji mehmonchalarim, — dedi bobojonim. — “Odobli bola” o'yinini bilasizlarmi o'zi?

— Bilamiz, hammamiz bilamiz, — dedik chuvillashib.

— Kimdan boshlaymiz, bo'lmasa?

— Mendan, — sakrab o'rnidan turdi Abduxalil.

— Sen kimning nabirasi bo'lasan?

— Rais qori boboning.

— Bobong ko'rinmaydi, tinchlikmi?

— Qo'qonga mayiz sotgani ketgan, enam: “Ko'targaniga sotib, darrov qaytib keling, savdolashib vaqtini o'tkazmang”, — degandi, bobom: “Ishingni qil, o'zim bilaman”, — deb ketgan.

— Lekin bobong mayizni yaxshi quritadi-da... Xo'sh, qani, ayt-chi, o'g'lim, odobli bola qanaqa bo'ladi?

— Odobli bola... esli bo'ladi, — shoshilib qoldi Abduxalil.



- Yana?
- Yiqilib tushganda yig'lab o'tirmaydi, darrov o'rnidan turib ketaveradi.
- Yaxshi, yana qanaqa bo'ladi?
- Yana, ukasi yiqilganda o'rnidan turg'izib, “yig'lama, ukajonim, yig'lama”, deb yelkasini silab qo'yadi.
- Xo'sh, yana qanaqa bo'ladi?
- Akasini sizlab gapiradi, yana kattalar ish buyurganda “xo'p bo'ladi”, deb, qo'lini mana bunday qilib ko'kragiga qo'yib turadi.
- Barakalla, o'g'lim, yana qanaqa bo'ladi?
- Yana, ota-onasiga gap qaytarmaydi, mollarga ozor bermaydi. Bir marta ona echkimizni minmoqchi bo'lganimda, buvim odobli bola unday qilmaydi, degan.
- Barakalla, xo'p, yana qanaqa bo'ladi?
- Qushlarni o'ldirmaydi... Bir marta tutning kavagidan chumchuqning bolasini olayotganimda, enam: “Odotsiz, nima qilyapsan, tush darrov”, — degan.
- Barakalla, o'g'lim, qanoat hosil qildim, sen ko'p odobli ekansan.
- Biz hammamiz o'rnimizdan turib, gurillatib qarsak chalib yubordik. Abduxalilning o'zi hammamizdan ko'proq chaldi. Enam unga to'rtta yong'oq, to'rtta o'rik uzatdi. O'rtog'im juda ko'p yutaman, deb o'ylab uylaridan ataylab bo'z xalta ko'tarib kepti. Yong'oq bilan o'rikni o'shanga solib yonida o'tirgan sherigiga lablarini chapillatib maqtanib ham qo'ydi.
- Xo'p, endi navbat kimniki? — so'radi bobojonim.
- Halidan buyon men tikka turibman-ku, — dedi arazlaganday qilib Dilijon.
- Eha, e'tibor bermabman, Yunusvoyning nabirasimiding?
- Voy, hozir so'radigiz-ku?!
- Ha, aytganding-a... qani, boshla, bo'lmasa, o'g'lim.
- Ko'p aytsam, ko'p berasizmi?
- Ko'p beraman.
- Odobli bola... Odobli bola bobosi ishlayotganda oldiga “Assalomu alaykum”, deb boradi, — Dilijon ko'ksiga qo'lini qo'yib, qanaqa salom berishni ham ko'rsatdi.



- Yaxshi, — deb qo‘ydi bobojonim.
 - Undan keyin bobosi ishlayotganda, oldiga borib, “Ketmonni menga bering, men chopishib yuboraman”, deydi.
 - Bu gaping ham yaxshi, davom etaver.
 - Bobosi qo‘l yuvayotganda, obdastani olib, “Keling, bobojon, men quyib yuboraman”, deydi. Keyin kechqurun, “Oyog‘ingizni uqalab qo‘yaymi?”, deydi... Keyin, bobosi hovuzdan suv olib kelayotganda, “Menga bering charchab qolasiz”, — deydi.
 - Barakalla, o‘g‘lim, ko‘p odobli ekansan, — deb maqtadi bobojonim.
 - Odobni faqat bobongdan o‘rganibsan-da, ota-onang o‘rgatmabdi-da?
 - Voy, ular qishloqqa ko‘chib ketishgan-ku, — shoshilib dedi Dilijon.
 - Ha, aytganday, sen Yunusvoy bilan qolgansan-a? Barakalla, esimdan chiqay debdi.
 - Endi yong‘oqni bering, — ikkala qo‘lini baravar uzatib dedi Dilijon. — Bersangiz, enam o‘rgatgan odobni ham aytib beraman, enam sen hammadan odoblisan, degan.
 - Xo‘p, qani, eshitaylik-chi, enang nimalarni o‘rgatgan ekan.
 - Odobli bola yotganida o‘ng tomonini bosib yotadi... Keyin yana turayotganida ham o‘ng tomoni bilan turadi... Keyin yana uyga kirayotganda o‘ng oyog‘ini mana bunday qilib bosib kiradi... Keyin yana uydan chiqayotganida o‘ng oyog‘ini bosib chiqadi.
- Hammamiz tasir-tusuriga olib qarsak chalib yubordik. Dilijon ko‘p aytib yong‘oqni ko‘p olib qo‘ymasin deb, qarsak chaldik. Enajonim bo‘lsa: “Hoy, to‘xtanglar, bu o‘g‘limda hali gap ko‘pga o‘xshaydi”, — degandi, yana qarsak chaldik. To‘g‘ri-da, hamma yong‘oqni u olar ekan-u, o‘rikni yeb o‘tiraverar ekan-u, biz qarab turarkanmiz-da? Hecham-da, enajonim, bo‘lmasa, mayli, endi mehmon qizlarimga ham navbat beringlar, zerikib qolishmasin, deganda, Sanambuvi opasining tizzasida o‘tirgan Rohila o‘rnidan turib:
- Enam menga kamzul tikib bergan, — deb egnidagi kamzulchasini ko‘z-ko‘z qila boshladi.
 - Voy, biram chiroyli ekanki, — maqtab qo‘ydi enam.
 - Mana, tugmalari ham bor, — yana maqtandi Rohila.



— O'hho', bunisi ham zo'r ekan, yiltirab turibdi-ya, bobosi, qarang, qizimizning qo'lida munchoqlari ham bor ekan.

Enajonim Rohilani tortib, tizzasiga o'tkazdi-da, peshonasidan o'pib, asal qizim, qaymoq qizim, deb erkaladi.

— Qani, oppog'im, ayt-chi, odobli qiz qanaqa bo'ladi? — deb so'radi.

— Bilmayman, — dedi Rohila boshini sarak-sarak qilib.

— Voy, Mastonbuvi enang hech narsa o'rgatmaganmi? Voy, sho'rim qur-sin.

— O'rgatgan.

— O'rgatgan bo'lsa, qani, ayt-chi, qizim.

— Aytsam, Sanambuvi opam biqinimni chimdib oladi.

— Chimdamaydi, Sanamxon — esli qiz, odobli qiz.

Rohila enamning tizzasidan turib, qo'llarini yonbosh tushirib:

Sanam qizim oppoqqina,
Qo'llari ham do'mboqqina.
Bet-qo'lini yuvmabdi,
Sochlari ham paxmoqqina, —

deb chayqalib she'r o'qib yubordi.

O'qidi-yu, hovliga qarab pildirab qochib chiqib keta boshladi. Sanambuvi opam urishadi, deb qo'rqan bo'lsa kerak-da. Enajonim ushlab, qo'liga ko'tarib oldi, kamzulining cho'ntagiga mayiz, yong'oq solayotganda, biz "Bu — Maston xolam to'qigan she'r, o'tgan safar ham o'qigan, odobli bola o'yinini bilmas ekan, uyat, uyat", — deb kigizni tapillatib, tepib, uyni changitib, qarsak chalib yubordik. Rohila qiz to'xtab, orqasiga o'girilib:

— Odobli qiz ovqat ichayotganida qoshiqni yalamaydi, keyin labini ham chapillatmaydi, bilaman, hammasini bilaman. Keyin mishig'i oqqanda, yengiga artmaydi, — dedi-yu, boshini enamning ko'ksiga berkitib oldi. Uyalib ketdi, shekilli. Uyalmasa ham bo'lardi, to'g'rimi? Odobli bola mishig'ini rostdan ham yengiga artmaydi. Undan ko'ra cho'ntagidagi ro'molchasini olib, o'shanga artadi... Bobojonim Rohila qizni erkalab, oltita yong'oq berdi. Biz havasimiz kelib, o'hho', deb yubordik.



— Xo'sh, mehmonlarim, endi kimga navbat beramiz? — so'radi bobojonim...

— Endi navbatni Sanamxon qizimga beraylik, — dedi enam.

Sanambuvi zo'r, judayam zo'r, hammadan ko'p biladi. Ahmadqul bobomnikida o'ynaganimizda, aytaverdi, aytaverdi, yong'oqlarni olaverdi, olverdi, oxiri Ahmadqul bobom: "Ey, barakalla, qizim-ey, yana birpas o'ynasak, omborni qoqlab qo'yasan, shekilli", — dedi. Keyin-chi, Sanambuvi gapirayotganda bir yerga, uyning shiptiga qaraydi, o'shanda adashib ketmasa kerak-da, yong'oq turgan g'alvirga hech qaramaydi.

— Odobli qiz o'rnidan turganida eng avval joyini yig'adi, — deb gap boshladi Sanambuvi. — Undan keyin yuz-qo'lini yuvadi, undan keyin hovli supuradi...

— Barakalla, qizim, ko'p odobli ekansan.

— Keyin tovuqlarni katakdan chiqarib yuboradi, nonushtaga o'tirishganda kattalardan oldin qo'l uzatmaydi.

— Barakalla, qizim, ofarin!

— Taom eyishdan oldin "Bismillahir rahmonir rahim", deydi, qorni to'yganda "Alhamdulillah, Xudoga shukur", deydi.

— Yaxshi, davom etaver, qizim, ko'p odobli ekansan.

— Nonushta tugaganda, dasturxonni qoqib, "Savobini umidvor arvohlarga bag'ishladim", deydi... aksirganda kafti bilan og'zini berkitib, "La ilaha illolloh", deb turadi. Bo'lmasa, og'ziga shayton kirib qoladi.

— Barakalla, qizim, barakalla.

— Undan keyin... yana aytaveraymi, bobojon? Yana aytaversam, odobli qiz kiyimlarini hamisha ozoda tutadi... Aka-ukalarini sizlab chaqiradi.

— Barakalla, qizim, bilganlaringni hammasini ayt... Eng katta mukofotni senga beraman, shekilli.

— Undan keyin mehmonlar kelganda, "Xush kelibsizlar", deydi. Ketishayotganida, "Voy, muncha shoshilyapsizlar, yana kelinglar bo'lmasa, tez-tez kelib turinglar", deydi.


Odobli qiz o'yini shu yerga yetganda Matmusa bobomning kichkina qizi o'rnidan turib: "Voy, xolajon, Sanamxon mening odobimni aytib qo'yayapti-ku, bularni menga buvim o'rgatgan", — deb sal bo'lmasa yig'lab yuborayozdi.



— Hecham-da, — dedi Sanambuvi. — Men o'zimning enamdan o'rganman.

— Enang bizdan o'g'irlab olibdi, bo'lmasa, o'g'ri ekan, uyat, — deb Dilbarxon Sanambuvi tomonga asta-sekin kela boshladi.

Ikkovlari bir-birlariga tikilishib urushay-urushay deb qolishdi. E, urushmasa bo'lardi-da, o'yinimiz endi rasvo bo'ladi. Qarsak chalib yuboruvdik, unga ham parvo qilishmadi. Endi bir-birlariga juda yaqinlashib qolishdi. Mening enam o'zi yaxshi-da, judayam aqli. Ikkovlarini ikki qo'ltig'iga olib peshonalaridan cho'pillatib o'pib, yarashtirib qo'ydi. “Onajonlarim, asal qizlarim”, — dedi keyin. Osmon hammaniki bo'lgani kabi, quyosh hammaniki bo'lgani kabi odob so'zlari ham hammaniki bo'ladi. Sizlar, asal qizlarim, osmonga qaraganlaring bilan osmon ado bo'lib qolmaydi, to'g'rimi? Har birlaring o'z uylaringda turib odob so'zlarini aytganlaring bilan odob ham ado bo'lib qolmaydi... Odob ham, oftob ham hammaniki!!..





O'zbek bolalar hikoyatari

Abdulla AVLONIY

TO'G'RILIK

Bir kampirning uyida bir tup balx tuti bor edi. Nihoyatda to'g'ri o'sgan edi. Bechora kampirning shul tutdan boshqa hech narsasi yo'q edi. Pishgan vaqtda qurutub olub, bordonga solub, boylarga tortuq qilub, pul olub, butun avqotini tut sotub o'tkazur edi. Bir kun ul shaharning podshohi bir ayvon solmoqchi bo'lub, ustun oxtarganda kampirning tuti to'g'ri keldi. Podshoh tutni ming oltunga sotub oldi. Bechora kampir boy xotun bo'lub qoldi. Bir kun tutniko'rgali bordi. Ko'rdiki, tuti jannat kabi bir ayvon o'rtasinda turubdur. Kampir tutiga qarab dediki:

Ey, tutim, to'g'riliging qildi bizi davlatga yor,
Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor.
To'g'rilar jannatning ayvonindadur,
O'g'rilar ranj-u alam konindadur.

Yayra SA'DULLAYEVA

YETIB OLDIMMI?

Sojida dugonasi Zulfini har kuni ko'rmasa turolmaydi. Hozir ham Zulfi-larnikiga o'ynagani chiquvdi, "Oyim kasallar, hovlini supurishim kerak", — dedi.

- Qarashib yuboraymi? — so'radi Sojida.
- Yo'g'-e, o'zim birpasda supurib bo'laman.
- Mayli bo'lmasa, — deb Sojida chiqib ketayotgan edi, o'rtog'i to'xtatdi.
- Hozir bo'laman, keyin o'ynaymiz. Kecha dadam... — Zulfi gapini



tugatmayoq, qog'oz quticha olib chiqdi. Qopqog'ini ochishgandi, mittigina idish-tovoq, choynak-piyola ko'rindi. Sojidaning ko'zlari chaqna ketdi.

— Sen o'ynab tur, — dedi-yu, Zulfi hovli supurishga tutindi. Sojida piyolani piyolaga, taqsimchani taqsimchaga ajratguncha, Zulfi hovli-yu yo'lakni yog' tushsa yalagudek qilib supurib bo'ldi. Keyin qo'lini sovunlab yuvib, Sojidaning yoniga kelib o'tirdi.

Shu payt Sojidaning oyisi Ma'suda opa qo'shnisidan xabar olgani chiqib qoldi. Atrofga qarab:

— Ovsin, ishingiz bo'lsa, qarashay devdim, — dedi Salima opa yotgan karavot yonidagi stulga o'tirarkan.

— Rahmat, hamma ishni Zulfi tinchityapti. Qizimning shunchalik chaqqonligini o'zim ham bilmagan ekanman.

— Ha, baraka topsin, o'zi ham tiyrak qiz-da.

Bu maqtovlar qulog'iga chalinib turgan Zulfi negadir xijolat bo'lardi. Sojida esa... Sojidaning esa bu olqishlarga shunchalik havasi kelgandiki, uyiga chiqa solib: "Oyi, men ham ish qilaman", — dedi hovliqib.

— Mayli, qizim, mayli, — dedi oyisi jilmayib.

— Ish bering.

— Voy, ishni o'zing topib qil-da.

— Bo'пти!

Bunday o'ylab qarasa, o'rtog'ini hovli supur-gani uchun maqtashdi. Demak, u ham supursa, Zulfidan orqada qolmaydi. Endi supura boshlagan-di, oyisi:

— Hovli toza-ku, qizim, — dedi.

— Yo'q, supuraveray!

Oyisi yana jilmayib qo'ydi. Shashtini qaytargisi kelmadi. Sojida uncha qirtish-lamasa ham, har qalay, yomon supurmadi. Hatto chiqindini hovlining bir chekkasiga olib borib to'plab qo'ydi. Qo'lini sovunlab yuvdi. So'ng sevinch bilan ovqat pishirayotgan oyisi oldiga bordi.

— Oyijon, Zulfiga yetib oldim-a? — dedi quvonib. Ma'suda opa qizi ishni chala qilganiga razm solib turgan ekanmi, sekin boshini chayqatib:





- Hali yeta olmading, — dedi.
- Nega? — so‘radi Sojida shoshib.

Sojidaning savoliga siz javob bera olasizmi?

O‘tkir HOSHIMOV

YALPIZ SOMSA

Feruzalar shaharda, to‘qqiz qavatli uyda turishadi. Shuning uchun u dalaga borishni juda yaxshi ko‘radi.

Bir kuni dadasi Feruzaga:

– Ertaga Karim amakingnikiga boramiz, — deb qoldi. Karim amaki shundoq tog‘ning yonida — Parkent degan qishloqda turishadi. U kishi — Feruzaning dadasi bilan o‘rtoq. Karim akaning ikkita qizi bor. Ikkalasi ham Feruza bilan baravar: Fotima-Zuhra.

– Tog‘ga ham chiqamizmi? — dedi Feruza quvonchidan qichqirib. — Har xil gullar teramiz-a?

– Albatta! — dedi dadasi. — Sen Fotima-Zuhraga nima sovg‘a qilasan?

Feruza o‘ylab-o‘ylab, oxiri o‘zi rasm chizgan albomini sovg‘a qiladigan bo‘ldi.

Ertasiga ertalab Feruza, dadasi, oyisi — uchovlari avval tramvayga, undan keyin avtobusga o‘tirib yo‘lga tushishdi. Ancha yurganlaridan keyin, avtobus manzilga yetib keldi. Atrofda baland-baland tog‘lar shundoq ko‘rinib turar, ko‘m-ko‘k daraxtlar shamolda silkinardi. Suv shovullab oqib yotgan kattakon soy bo‘yidan borib, Fotima-Zuhralarning hovlisiga kirishdi. Hovlida ikkita qo‘zichoq, uchta echkicha chopqillab o‘ynab yurardi.

Uyga kirib dasturxon atrofida o‘tirishdi. Feruza tezroq gul terгани borgisi kelardi.

Nihoyat, u chidab turolmadi.



- Yuringlar, gul tergani boramiz, — dedi Zuhraga.
- Ketdik, — dedi Zuhra Feruzaning qo'ldan ushlab yo'l boshlagan edi, oyisi tayinladi.
- Yalpiz ham terib kelinglar.
- Feruzal yalpizni hech ko'rmagan edi.
- Nima, yalpiz ham gulmi? — deb so'radi Fotimadan.
- Voy, yalpizni bilmaysanmi? — Fotima hayron bo'ldi. — Yalpiz o't-da.
- Nima qiladi uni?
- Nima qilardi, yeydi-da! — Bu gal Zuhra tushuntirdi. — Somsa qilib yesa ham bo'ladi. Ovqatga qo'shsa ham bo'ladi.

Qizaloqlar bir zumda soy yaqinidagi o'tloqqa borib qolishdi. Feruzal shaharda fontan yonidagi gulzorni ko'p ko'rsa ham, bunaqa gullarni hech ko'rgan emasdi.

– Bu — qoqigul, — deb tushuntirdi Fotima. — Qara, xuddi tugmachaga o'xshaydi, dumaloq, sap-sariq.

– Bunisi — boychechak, — dedi Zuhra nayzaga o'xshagan uch burchak gulni ko'rsatib. — Boychechak-chi, qordan ham, sovuqdan ham qo'rqmaydi.

– Yalpiz-chi, yalpiz qaysi?

– Mana, mana shular yalpiz-da! — Fotima bilan Zuhra chaqqonlik bilan yalpiz uzishga tushib ketishdi.



Feruzal ham yalpizlardan terib etagiga solaverdi. Anchadan keyin Fotima uning yoniga keldi.

– Mana, ancha terdim, — dedi Feruzal etagidagi yalpizlarni ko'rsatib.

– Voy, bu yalpiz emas, yovvoyi beda-ku! — Fotima kulib yubordi. Yalpiz bunaqa bo'lmaydi. Ko'rdingmi, yovvoyi bedaning barglari dumaloq, tangaga o'xshaydi. Yalpizniki uzunchoq bo'ladi. Keyin to'q yashil bo'ladi. Mana, hidi-ni qara!



Feruza uyalib ketdi. Etagidagi o'tlarni to'kib tashladi-da, Fotima ko'rsatgan yalpizlarni tera boshladi. Ammo baribir mana shu o'tlardan somsa pishirsa bo'lishini hech tushuna olmasdi.

Peshinga yaqin qizaloqlar ancha-muncha yalpiz, binafsha, turli-tuman gullar terib kelishdi. Fotima-Zuhralarning ayasi yalpizlarni yaxshilab yuvdi-da, pichoq bilan maydalab, somsa tugdi. Keyin tandirga yopdi.

Pishgandan keyin Feruza yeb ko'rgan edi, qarasa, maza!

— Yaxshi ekan! — dedi Fotima-Zuhralarga qarab.

— Yalpizni o'zing terganing uchun somsa yanayam shirin bo'lib ketgan, — dedi dadasi kulib

Kechqurun Feruzalar shaharga qaytishayotganda, Fotima bilan Zuhra unga ancha yalpiz somsa berdi. Feruza uyalib turgan edi, Fotima tushuntirdi:

— Bog'chadagi o'rtoqlaringga berasan. Ular ham yalpiz somsa yeb ko'rishsin-da.

Feruza somsalarni olarkan:

— Rahmat, — deb qo'ydi.

OPPOQ BUVANING OPPOQ PAXTASI

Muqimjon uyg'onib qarasa, uyda hech kim yo'q.

— Aya! — dedi ko'rpadan boshini chiqarib.

Har kuni shunaqa deb chaqirishi bilan ayasi yugurib kelardi. Uni erkalab-erkalab, ko'ylakchasini kiygizib qo'yardi.

— Aya! — Muqimjon ovozini baralla qo'yib qichqirdi. Ayasi baribir kelmadi.

— Opa-a! — Muqimjon kichik mushtchasi bilan ko'zini ishqab, hiqillab yig'lab yubordi. — Aka-a!

Xonaga ayasi ham emas, opasi ham emas, akasi ham emas, buvisi kirib keldi.

— Voy, o'zimning shirin bolajonimdan! — dedi xamir yuqi qo'li bilan Muqimjonni quchoqlab. — Voy, o'zimning polvon bolam turib qopti-ku!



Farxod Musajonov. Qo'shoqvoyning "himmati".



– Ayam qanilar? – Muqimjon o'pkasi to'lib buvisiga qaradi.

– Ayangmi? Ayang paxta terishga ketdi. – Buvisi uni darrov kiyintirdi. – Bugun bog'changga oppoq buvang oboradilar. Tushundingmi?

Muqimjon tushundi. Paxta terimi boshlanishi bilan doim shunaqa bo'ladi. Dadasi – agronom. Kechasi bilan dalada, idorada qolib ketadi. Ayasi mashinada paxta teradi. Akasi – shofyor, paxta tashiydi. Maktabda o'qiydigan opasi ham ertalabdan paxtaga chiqib ketadi. Uyda faqat buvisi bilan opoq buvasi qoladi. Buvisi non yopadi. Opoq buvasi uni bog'chaga olib boradi.

Bugun ham buvasi Muqimjonning qo'lidan yetaklab ko'chaga olib chiqdi. Opoq buvasi qarib qolgan. Sochi ham, soqoli ham, qoshi ham oppoq. Shuning uchun uni opoq buva deyishsa kerak. Muqimjonning chopgisi keladi, opoq buvasi esa tez yurolmaydi, har qadamda to'xtaydi. Yo'l chetiga to'kilgan, tutlarning shoxiga ilinib qolgan paxtalarni olib negadir ko'ziga surtib-surtib qo'yadi. Opoq buvasi nimaga shunaqa qilishini Muqimjon tushunmaydi:

– Nimaga bunaqa qilasiz, opoq buva?

– Paxta – tabarruk narsa, jon bolam, – opoq buvasi Muqimjonni sekin-sekin etaklab borarkan, g'alati ertak aytib berdi. – Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda chiroyli bir mamlakat bo'lgan ekan. Bir kuni o'sha yurtga dushman bostirib kelibdi. Odamlar qal'aning ichiga kirib, darvozalarni berkitib olishibdi. Oradan ancha vaqt o'tibdi. Dushman hech ketmas emish. Qal'ada yeyishga ovqat, kiyishga kiyim, yoqishga o'tin qolmabdi. Nima qilishni bilmay, endi darvozalarni ochay deb turishganida, bir donishmand chol: “Men sizlarga ovqat ham, kiyim ham topib beraman”, — debdi-da, ikki qop paxta olib chiqibdi. Paxtaning chigitidan yog' olib, ovqat qilishibdi, o'zini yaradorlarning jarohatiga bosib davolashibdi. Xotinlar paxtaning tolasini yigirib, bo'z to'qishibdi. Bolalarga kiyim tikishibdi, yangi tug'ilgan chaqaloqlarga yo'rgak bichishibdi. Chigitning sho'lxasini otlarga yedirib, jangga tayyorlashibdi. G'o'zapoyani yoqib, uylarni isitishibdi. Dushman bo'lsa qamal qilaverib, holdan toygan ekan. Bu yurtning odamlari hecham taslim bo'lmasligini bilib, orqaga qaytishga majbur bo'libdi.

– Ko'rdingmi, jon bolam! – oppoq buvasi Muqimjonning boshini siladi.





– Ikki qop paxta butun boshli xalqni o'limdan saqlab qolgan ekan. – U yerga to'kilgan bir siqim paxtani olib, yana ko'ziga surtdi. – Paxta – tabarruk narsa!

Muqimjon opoq buvasining oppoq sochiga, oppoq qoshlariga, oppoq soqoliga, qo'lidagi oppoq paxtasiga qarab, o'ylanib qoldi. Ehtimol paxtani yaxshi ko'rgani uchun ham uni opoq buva deyishar. Shunday bo'lsa ajab emas!

O'ktam USMONOV

CHUMCHUQ BOLA

Boboxon chumchuq bolani rosa qiynab ezg'iladi: suvga solib suzdirdi, dum-dumaloq mitti ko'zlariga cho'p tegizib ko'rdi...



Keyin oyog'iga ip bog'lab, ko'chaga olib chiqdi.

Ko'chada Tal'at o'rtog'iga duch keldi. Tal'at Boboxonni ko'rdi-yu, qovog'i solindi. Boboxon juda o'jar bola edi, shundan Tal'at unga yalinib o'tirmay, shosha-pisha yonini kovlashtirdi: kissasida yarimta o'chirg'ich bilan kecha ochgan qizil qalami bor ekan...

– Boboxon, chumchuqni qayerdan olding?

– Bug'doyzordan, chigirtka tutayotganimda do'ppim bilan urib yiqitdim.

– Alishmaysanmi?

Boboxon yalt etib Tal'atga qaradi, so'ng bir narsani o'yladi, shekilli:

– Alishaman, nimang bor? – dedi hovliqib.

– Mana, bo'yoq qalam, shunga berasanmi?

– Fi-i! Tirik chumchuqni bitta qalamgami? Boshqa narsang yo'qmi?

– Agar xo'p desang, mana bu o'chirg'ichimni ham beraman.

Boboxon bilagiga o'rab olgan pishiq, ingichka ipni bo'shatib, Tal'atdan o'chirg'ich bilan qalamni oldi-da, chumchuq bolani berdi. Keyin qiziqsinib:

– Buni alishvolib, nima qilasan? – dedi.



– Hozir bilasan nima qilishimni...

Tal'at chumchuq bolaning oyog'idan avaylab ipni yechdi. Yuragi duk-duk urayotgan bechora qushchani bir-ikki siladi-yu, keyin birdan osmonga qo'yib yubordi...

Boboxon goh qo'lidagi o'chirg'ich bilan qalamga, goh pat-pat qanot qoqib bug'doyzor tomon uchib ketayotgan chumchuq bolaga, goh o'rtog'i Tal'atga javdirar, nima qilishini bilmay, hang-mang bo'lib qolgan edi.

Tamilla QOSIMOVA

TOSHBAQA TAROZIBON EKAN...

Iroda uy orqasidagi maydonchada koptok o'ynayotgan edi. Birdan ko'm-ko'k maysalar orasida yotgan toshbaqani ko'rib qoldi. Uning rasmini kitoblarda juda ko'p ko'rgandi-yu, lekin o'zini endi uchratishi. Iroda yaqin kelib, uni tomosha qila boshladi. Bo'yni xaltum-xaltum, tosh kosasi sarg'imtir jigarrang, katak-katak chizikli toshbaqa qimirlamasdi. “Uxlayotgan bo'lsa kerak” o'yladi Iroda:

Bir bor ekan, bir yo'q ekan,
Bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan.
Qarg'a qaqimchi-yu, chumchuq chaqimchi ekan.
O'rdak surnaychi-yu, g'oz karnaychi ekan,
Toshbaqa tarozibon-u,
Qurbaqa undan qarzdor ekan, —

deb ertak aytardi buvisi. “Qiziq, toshbaqa qanday qilib tarozibonlik qilgan ekan-a? Tosh kosasidan palla qilib, hayvonlarning yaxshi ishlarini tortib ko'rar-mikan? Toshbaqani uyiga olib ketsa-chi, Irodaning yaxshi ishlarini tarozida tortarmikan? Shunda qurbaqa kelib, yaxshiligingdan menga qarz berib tur desa, Iroda: “Qurbaqaxon, yaxshilik qarzga berilmaydi. O'zingiz yaxshi-yaxshi ishlar qiling, toshbaqam tarozida tortib beradi”, — derdi. O'rtog'i Nigora-chi, kirchir yuradi, oyisiga qarashmaydi. Uning yaxshi ishlari juda oz. Buni toshbaqasi tarozida tortib, Nigoraning o'ziga ko'rsatsami, rosa uyalardi-da.



Iroda toshbaqani uyg'otmoqchi bo'lib, tosh kosasini avaylab silay boshladi va birdan qon izlariga ko'zi tushdi. Toshbaqani etagiga solib, uyiga olib ketdi. Axir, dadasi – shifokor. Toshbaqaga, albatta, yordam beradi. Dadasi toshbaqani sinchiklab ko'rib, yorilgan tosh kosasini bint bilan siqib bog'lab qo'ydi.

Iroda toshbaqani parvarish qila boshladi. Unga qoqi gul va maysa-o'tlardan yulib bersa, jon-jon deb yer edi. Karam bargi, bodring po'chog'ini yegan kuni esa, umuman suv ham ichmasdi. Toshbaqa bora-bora sog'ayib, hovlini aylanib yuradigan bo'ldi. Agar u Irodaning olapar kuchugiga yoki baroq mushugiga duch kelib qolsa bormi, boshini, oyoqlarini, hatto kaltagina dumini

ham tosh kosalari orasiga yashirib olar edi. Iroda: “Endi

toshbaqam tuzaldi, qachon yaxshi ishlarni tarozida tortar ekan-a” deb kuzata boshladi. Bir kuni qarasa, toshbaqasi gaz plita orqasiga o'tib, suvaraklarni tutib yeyapti. Iroda chopqillab borib, buvisidan suyunchi

oldi. Buvisi juda-juda xursand bo'ldi. Yana

bir kuni toshbaqasining imillab bog' to-

monga o'tayotganini ko'rgan Iroda:

“Balki yaxshi ishlarni o'sha yerda tort-

tmoqchidir”, — deb o'ylab, sekin-

gina uning orqasidan yurdi. Ammo

toshbaqasi ko'kimtir qurtlarni

yeyishdan boshqa narsani xayoliga ham

keltirmasdi. Dadasi xursand bo'lib:

“Toshbaqangga balli, ekinlarimiz zararkunandalardan tozalanadigan bo'ldi”,

— deb qo'ydi.

— Dada, nega u ertakdagiday yaxshi ishlarni tarozida tortmayapti? — xunob

bo'lib dadasidan so'radi Iroda.

Gap nimadaligini fahmlagan ota qiziga toshbaqaning ertakdagi tarozibonligi


uning foydali jonivor ekanligidan to'qilganini tushuntirib berdi. Irodaning

toshbaqasiga mehri yanada oshib ketdi. Unga “Do'mbog'im” deb nom ham

qo'ydi.

“Buvim meni “Do'mbog'im”, deb erkalaydilar-ku. Axir, toshbaqam ham

yum-yumaloq, do'mboqqina, ko'zlari munchoqday-ku!” o'yladi Iroda.





Do'mbog'im ham, Iroda ham maza qilib yozni o'tkazishdi. Malla chakmoni-ga burkanib, kuz ham keldi. Havolar soviy boshlaganda Do'mbog'im yana kasal bo'lib qoldi. U hech narsa yemas, boshini, oyoqlarini tosh kosasining ichiga tortib, yotgani-yotgan edi.

“Sovuq yeyayotgan bo'lsa kerak” o'yladi Iroda va uni eski movut ko'ylagiga o'rab qo'ydi. Shunda ham Do'mbog'im qimirlamasdi. Kechqurun dadasi ishdan kelganda:

— Dada, Do'mbog'im kasal bo'lib qoldi, — dedi Iroda ko'zlariga yosh olib. Dadasi Do'mbog'imni qo'liga oldi. Iroda xavotirlanib unga qaradi. Dadasi jilmaygach, Iroda yengil tortdi.

— U kasal emas, qish uyqusiga ketmoqchi.

Dadasi kattagina qutichaga qum to'ldirib, Do'mbog'imni qo'ydi va:

— Endi unga tegma. U o'ziga qumdan joy topib olsin, — dedi.

Ertalab, dadasi aytgandek, u qum ostiga sho'ng'ib ketibdi. Faqat tosh kosasining tangadek joyi ko'rinib turar edi.

— Urta! Do'mbog'im tirik ekan. O'zi qum ichiga sho'ng'ibdi, — deb Iroda chapak chalib yubordi.

— Xayr, Do'mbog'im, bahorgacha yaxshi uxla, — dedi u.

Farhod MUSAJONOV

QO'SHOQVOYNING “HIMMATI”

Qo'shoqvoy bitta qiziq kitob o'qib qoldi. Unda Anvar degan bola ukasini juda yaxshi ko'rishi, doim ovutib, o'ynatib yurishi yozilgan ekan. Hikoya Qo'shoqvoyga juda yoqib tushdi. U ham o'sha Anvar degan bolaga o'xshab ukasiga bir yaxshilik qilmoqchi bo'ldi. Nima yaxshilik qilsam ekan, deb rosa o'yladi. Oxiri, ukasi Parpini chaqirdi-da:

— Hozir senga qayiqcha yasab beraman, — dedi.

— Rostdanmi, yasab bering, yasab bering, — dedi Parpi xursand bo'lib.

Qo'shoqvoy qog'ozdan qayiqcha yasay boshladi. Parpi akasining ishiga ko'zlarini chaqchaytirib qarab turdi, sevinchi ichiga sig'may:



— Qachon bitadi, aka, qachon bitadi? — deb ketma-ket tixirlik qilardi.
— Bijirayverib, xalaqit bermasang, tez bitadi, — deb kuldi Qo'shoqvoy.
Nihoyat, qayiqcha bitdi. Parpi ikki qo'llab qayiqchaga yopishgan edi, Qo'shoqvoy uni to'xtatdi:

— Shoshma, oldin men o'zim oqizib ko'ray-chi, qanday chiqqan ekan.
Aka-uka ariq bo'yiga borishdi. Qo'shoqvoy qayiqchani suvga avaylab qo'ydi.
Qayiqcha suv yuzida tebranib, suzib ketdi. Parpi uning ketidan qichqirgani-
cha yugurdi. Qo'shoqvoy ham ukasining ketidan ergashdi. Ariq qo'shni hovliga
chiqib ketadigan joyda Qo'shoqvoy qayiqchani tutib oldi.

— Endi menga bering! — dedi Parpi akasiga.

— To'xta, oldin o'rganib ol, — dedi Qo'shoqvoy.

Ariq boshiga borib, qayiqchani yana oqizdi. Qayiqcha mayda to'lqinlar ustidan
sakray-sakray suzib ketdi, devor tagiga yetganda uni Qo'shoqvoy yana ushlab
oldi.

— Endi bera qoling, men ham bitta oqizay, — yalindi Parpi. — O'zingiz
aytdingiz-ku, senga yasab beraman, deb.

— Hovliqmasang-chi, — ukasini jerkib berdi o'yinga qiziqib ketgan
Qo'shoqvoy. — Sen bilmaysan, cho'ktirib yuborasan. Oldin yaxshilab qarab
o'rganib ol, deya pman-ku, senga!

Qo'shoqvoy qayiqchani bu gal ham o'zi suvga oqizdi. Parpi bir chetda
xomush bo'lib, akasini kuzatib turdi. Qayiqcha suv betida qalqib-qalqib borardi.
Shu payt u ariq labida o'sib yotgan yovvoyi o'tga urilib, ag'darildi, ichiga suv
to'ldi-da, qog'ozi ivib, cho'kib ketdi.

— Voy, attang, — deb yubordi Parpi ko'zlarini javdiratib.

— Qo'yaver, xafa bo'lma, — dedi Qo'shoqvoy jilmayib. — Senga boshqasini
yasab beraman.

— Kerak emas, — dedi Parpi qovog'ini solib. — Unisini ham o'zingiz
o'ynab, cho'ktirvorasiz.



Sobit G'AFUROV

JONLI HAYKAL

O'sha kuni biz — aka-singil Hasan-Zuhralarning tug'ilgan kunimiz bo'lib, o'rtoqlarimizni kutayotgan edik. Ular birin-ketin aytilgan vaqtda kelib, stullarga o'tirishdi.

— Tabriklayman seni, Hasan, tug'ilgan kuning bilan, — deb Abdurahmon menga bir quti bo'yoq qalam uzatdi, singlim Zuhraga esa, qip-qizil lola berdi.

Muqaddas daftar, kitob sovg'a qildi. Baxtiyor shokolad olib chiqqan bo'lsa, Tohir tabrik otkritkasi olib kelibdi.

Hammadan keyin kelgan Murod No'monov esa tug'ilgan kunimizga bir tup o'rik ko'chati olib chiqsa bo'ladimi!

— Voy, — deb yubordi singlim Zuhra.

— Ko'chatni nima qilaman? — deb yuboribman men ham.

Murod bo'sh kelmay:

— Hovliga ekib qo'yamiz. Yaxshi oq o'rik ekan, dadam berdilar. O'zlari payvand qilganlar, — dedi.

Ko'chatni istar-istamas uning qo'lidan oldim, bir chekkaga qo'ymoqchi bo'lgan edim, Murod yana:

— Yo'q, hozir ekamiz, — deya uni qo'limdan oldi-da, onamdan qayerga ekish kerakligini aniqlab, yer kovlay boshladi. Xullas ko'chatni o'zi ekib, o'zi suv qo'ydi. Keyin yuz-qo'lini yuvib kelib, stulga o'tirdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgach, Muroddan boshqa o'rtoqlarim bergan sovg'alar tugab, ayrimlari sinib esdan chiqib ketdi. Ammo Murodning sovg'asi — u o'tqazgan o'rik avj olib o'sdi. Chamamda, oq o'rik bu yil nishona hosil qiladi. O'rik pishsa, albatta, Murodni va o'rtoqlarimni yana chaqirib mehmon qilmoqchimiz. Biz Muroddan o'shanda bekorga ranjigan ekanmiz. U o'ziga-o'zi hovlimizga jonli haykal o'rnatgan ekan. Uning sovg'asi eng yaxshi, unutilmas bo'lib qoldi.



Oltmish O'SAROV

QO'YNING GAPI

Mahmud aka ishdan kelganda qo'yning ustma-ust "ba-a"lab ma'rayotganini eshitdi-yu, o'g'li Otabekka:

– Qo'yga o't, suv bermabsizlar-da? – dedi.

– Berganmiz, — dedi Otabek. — U bir qisim beda yegan, bir paqircha suv ichgan.

– Bo'lmasa, qorni to'ymabdi, chanqog'i bosilmabdi. Ana, eshit. "o't ber", "suv ber", deyapti.

– Qo'y gapirmaydi-ku! — ajablandi Otabek. — Ochqaganini, suvsaganini qaydan bildingiz?

– "Ba", degani — "o't ber", "bo'...", degani — "suv ber", degani. Hayvonlarning tili shunaqa.

Otabek qo'yning oxuriga bir quchoq pichan soldi, bir paqir suv qo'ydi.

Qo'y oldin o't yedi, keyin suv ichdi. Ma'rashini ham qo'ydi. U Otabekka qarab bosh siltadi. Bu "rahmat", degani bo'lsa kerak-da.

Zamira IBROHIMOVA

MARDONA

Supurilib, qalin qilib suv sepilgan hovli. Mardona supachada qo'g'ircho-
g'ining mayin sochlarini tarab o'tirar va unga afsuslanib gapirardi.

– Durдона opam kasal bo'lib qolmaganlarida, uchalamiz maza qilib o'ynardik-a?

Shu payt onasi uydan chiqib:

– Oppoq qizim, men chopib borib do'xtirni aytib kelaman. Sen opangdan xabar olib turgin, xo'pmi? — dedi-yu, shoshganicha chiqib ketdi.

Mardona hatto "xo'p" deyishga ham ulgurmadi. Bir zum onasining orqasidan qarab qoldi. So'ng ko'ngli birdan tog'day ko'tarildi. Axir, kasal opasidan xabar olib turish hazil ish emas.

Mardona tez-tez yurib uyga kirdi. Yotoqxonaning eshigini qiya ochib, ichkariga mo'raladi. Deraza yonidagi karavotda ranglari oqarib ketgan Durдона beholgina yotardi.





— Opajon... tuzukmisiz? — deb so‘radi mehribonlik bilan Mardona. Opasi jilmayganday, so‘lg‘in yuzi yashnab ketganday bo‘ldi.

— O‘zim sizdan xabar olib turaman, xo‘pmi? — dedi.

— Xo‘p, — dedi Durdona.

Durdona singlisining mehribonchiligidan sevindi. Boshidagi, tomog‘idagi og‘riq tarqalayotgandek bo‘ldi. “Qanday yaxshi singlim bor ekan-a. Endi uni hech-hech xafa qilmayman...” U xayol surib yotib, ko‘zi ilindi. Shu tob eshik ochilib, Mardonaning qo‘ng‘iroqday ovozi eshitildi:

— Opajon, tuzukmisiz?

Durdona seskanib ketdi. Singlisini ko‘rib, xiyol jilmaydi.

— Ha, yaxshiman, — dedi.

Mardona eshikni yana asta yopib, sho‘x-sho‘x sakrab, supachaga borib o‘tirdi. “Tez-tez xabar olib tursam, opam tuzuk bo‘lib qoladilar”. Chindan ham, opasidan xabar olib turish unga juda-juda yoqib qolgandi. Ko‘rpachada yotgan qo‘g‘irchog‘ini olib, mahkam quchoqlab oldi.

— Katta bo‘lsam-chi, do‘xtir bo‘laman, — dedi u quvonib. — Hozir sen bilan do‘xtir-do‘xtir o‘ynaymiz. Sen kasalsan, men do‘xtirman, bo‘ptimi?

Mardona o‘yinga berilib ketdi-yu opasidan xabar olish xayolidan ko‘tarildi. “Kasal” qo‘g‘irchog‘ini avaylab yotqizayotganida birdan esiga tushdi. Qo‘g‘irchog‘ini tashlab, g‘izillagancha uyga kirdi. Yotoqxonaning eshigini ochib, mo‘raladi. Durdona chap qo‘lini choyshab ustiga qo‘ygancha og‘ir-og‘ir nafas olib, uxlab yotardi. Mardona ovozini biroz ko‘tarib:

— Opajon!.. — dedi.

Durdona indamadi.

— Opajo-on! — dedi Mardona ovozini biroz balandlatib, opasi cho‘chib uyg‘ondi. Ko‘zlarini katta-katta ochib, qo‘rquv bilan singlisiga qaradi. Mardona ham qo‘rqib ketdi va qaltiroq ovozda so‘radi:

— Opajon, tuzukmisiz?

— ...

Bu safar Durdonaga singlisining ovozi xunukroq eshitildi. Boshi, tomog‘i battar og‘rib ketgandek bo‘ldi. Ko‘zlari yoshlandi.

Opasining bu holatini ko‘rib, Mardona baqrayganicha qarab qoldi. Axir, oyisi kelguncha uni tuzatib qo‘ymoqchi edi-ku!

Ko‘cha eshikning ochilib-yopilgani eshitildi. Mardona yugurib hovliga chiqdi.



Onasi va oq xalatli do'xtir xola oldinma-ketin kirib kelishdi. Ularni ko'rib, Mardona suyunib ketdi. Lekin ayni paytda ko'ngli biroz g'ash tortdi. Nega-a?

Fyodor KAMOLOV

OYGULNING DO'STLARI

Ona qizim, uyni senga, seni Xudoga topshirdim, ehtiyot bo'lib o'tirgin, men tezda qaytaman, — oyisi Oygulning peshonasidan o'pdi-da, shoshilib chiqib ketdi.

Yolg'iz qolgan Oygul bunday qarasa, mushukchasi yap-yangi qo'g'irchoqni sudrab kelyapti.

— Hoy, Qoravoy, bu nima qiliq, qani tashla, — jahl bilan dedi Oygul.

Mushukchasi esa, unga parvo ham qilmay, qo'g'irchoqni tortqilab divanning tagiga olib kirib ketdi. Oygul uni dumidan tortib chiqardi. Bunday qo'pol muomala yoqmadi, shekilli, mushukcha Oygulning qo'lini tirnab, qonatib yubordi.

— Voy, yaramas, hali shunaqamisan? Bo'ldi, endi sen bilan o'ynamayman, — dedi Oygul yig'lamsirab.

Mushukcha gunohkor qiyofada ayanchli miyovladi-da, burchakka biqindi.

Og'riq bosilgach, Oygul kitobini olib, hovliga otlandi. Mushukcha ham hech narsa bo'lmaganday unga ergashdi.

— Xoh, siz qayoqqa? — Oygul mushukchani ichkari itqitib, qoq tumshug'i tagida eshikni qarsillatib yopdi...

Qizcha hovlidagi momoqaymoqlar ochilib yotgan maysazorga cho'kkaladi.

To'g'ri, shunday chiroyli gullarni toptash yaxshi emas-u, biroq tabiat bag'rida dam olishning zavqi boshqacha-da!

Oygul toza havodan to'yib nafas olgach, asta kitobiga ko'z yugurtirdi. Shu choq ochiq qolgan derazadan mushukcha ko'rindi. Sakrashga yuragi dov bermadi. Chorcho'pga osilgan edi... kuchi yetmadi, miyovlaganCHA yerga yumalab tushdi. Keyin yugurganicha kelib, hech nima bo'lmaganday Oygulga suykaldi. Qizcha uni "kechirdi".

— Esi past tentakcham, — deb mushukchasining quloqlaridan tortqilab qo'ydi.



Mushukcha bilan vaqtincha osh-qatiq bo‘lib yurgan kuchuk dik-dik sakrab ularning oldiga keldi.

– Yaxshilab joylashib olinglar-chi, — dedi Oygul, — sizlarga uy hayvonlari haqidagi hikoyani o‘qib beraman.

Ha... Oygul kuzda maktabga boradi, biroq hozir ham sal-pal o‘qishni biladi.

– Si-gir, ech-ki, mu-shuk, voy, Olapar, seni yozishmabdi-ku?

Kuchukcha boshini qiyshaytirdi.

– Balki keyingi betda yozishgandir. Hozir ko‘ramiz. Chit-tak, boy-qush. Yo‘q, bular — qushlar-ku... Xo‘p, mana sen irg‘ishlab yuribsan-ku, nega endi kitobimda yo‘qsan?

Kuchukcha buni qayoqdan bilsin?

Oygul quyosh qizdirgan devorga suyandi. Sap-sariq gullar orasida u nomini bilmaydigan oppoq gullar ham ko‘zga tashlanardi.

– Senga gulchambar qilib beraymi?

Mushukchaga baribir, faqat uning dumidan tortishmasa bo‘lgani...

Shu payt ko‘chada “g‘o-g‘o” degan tovush eshilib, eshikdan avval ona g‘oz, uning ketidan yettita g‘ozcha kirib kelishdi.

Ona g‘oz hovliga kirar-kirmas bo‘ynini cho‘zganicha vahimali pishillab, gullarni bosib-yanchib Oygul tomonga otildi. Mushukcha “lip” etib taxta devorning tepasiga chiqib ketdi. Kuchukcha vovillab g‘ozga tashlandi! Ona g‘oz uzun tumshug‘i bilan kuchukchani cho‘qib oldi, kuchukcha bir amallab qutildi-yu, angillaganicha qochib qoldi.

Oygulning tizzasidan kitobi tushib ketdi. U nima qilishini bilmay, dovdirab atrofiga alangladi. Axir, mushukchadek devorga chiqolmasa... Ona g‘oz bo‘lsa, qanotlarini yoyib hujumga shaylanardi. G‘ozchalar ham gullar orasidan qoqilib, surilib kelishardi.

Shundoq yonginasida ona g‘ozning pishillab qanotlarini tez-tez qoqishidan Oygulning yuzlarini izg‘irin yalab, chimchilaganday bo‘ldi.

U o‘sha yuvosh uy hayvonlari va qushlar haqida yozilgan kitobchani amallab qo‘liga oldi-da, jon-jahdi bilan o‘zini himoya qila boshladi.

– Oyi... oyijon! — deb chinqirdi Oygul beixtiyor.

Biroq uyida o‘zidan boshqa hech kim bo‘lmasa, kim ham yordamga kelardi?

Bexosdan yog‘och devor lopillab, uning tepasida angrayib turgan mushukcha to‘ppa-to‘g‘ri g‘ozning ustiga ag‘darilib tushdi va esxonasi chiqib uning beliga tirnoqlarini botirdi.



Bunday bo'lishini kutmagan ona g'oz talvasada g'o-g'olab qanotlarini bat-tarroq qoqdi. Mushukcha g'ingshir, g'oz esa tinmay g'o-g'olardi. Bu paytda kuchukchani qo'rquvi bosilib, ancha o'ziga kelib qoldi va yana vovillab ko'makka otildi.

Shu choq ona g'oz to'satdan bo'ynini orqaga burib, tumshug'i bilan mushukchani yulib oldi. Biroq mushuk ham haqqini qo'ymadi. Ona g'ozning bir necha patini tortqilab uzdi va tomni mo'ljallab oyog'ini qo'liga olib qochdi. Ona g'oz bo'ynini cho'zib uni quvladi. Kuchukcha "chiranma g'oz..." degandek vovillab ortidan yugurdi.



G'ozchalar ham turtinib-surtinib ildamlashdi.

Mushukchaga yeta olmagan ona g'oz to'xtadi. Yana bir bor g'o-g'oladi. Jahl aralash bolalariga razm soldi. O'zicha ularni bir-bir sanadimi-yey?

Ko'zlariga yosh kelgan Oygul g'ijimlangan va bir necha varag'i yirtilgan kitobiga qaradi. Xayolidan "hali maktabga bormasimdan oq kitobimni dabdala qildim-a", degan o'y o'tdi.

Bu paytda momoqaymoqlarni oralab Oygulning yoniga yetib kelgan mushukcha qizchani oyoqlarini yalardi.

Kuchukcha ham ular yoniga cho'kkaladi.

Vaqt kelib u voyaga yetadi. Zo'r itga aylanadi. Hozir esa biroz titraganicha, alanglab turibdi. Lekin shu holatida ham Oygulni birontasi xafa qilgudek bo'lsa, u himoyaga tayyor.

Oygul bunday o'ylab qarasa, kitobining yirtilgan betlarini elimlash mumkin. Tizzasidagi jizillab turgan joyga ko'k dori qo'ysa, bas, tuzalib ketadi. Umuman, xafa bo'ladigan joyi yo'q.

Kuchukcha bilan mushukchaga esa bekalari yonida, maysalarga yonboshlab yotishdan, shabadada egilib, chiroyli silkinayotgan gullarga termilish-u, quyoshga ko'z qisib qarashdan ortiq huzur yo'q edi...



Jahon bolalar hikoyalari

K. MARUKAS
(Litva)

TOYCHOQ

Ko‘p qavatli bino hovlisiga taxta ortgan arava kirib keldi.

– Qaranglar! – deya qichqirdi to‘rt yashar Vidutis. – Toychoq!

Boshqa bolalar ham quvnoq chuvillashdi:

– Toychoq! Toychoq!

Qo‘g‘irchog‘-u to‘plar-u velosipedlar joy-joyida qoldi. Hamma toychoq tomon yugurdi. Bo‘shab qolgan karusel sekin-sekin aylanib, nihoyat to‘xtadi.

Vidutis birinchi marta tirik otni ko‘rishi edi. Ot boshini chayqar, qulog‘ini dikkaytirib, dumi bilan yonboshiga urib qo‘yardi.

Aravakash Antanas amaki tushirgan taxtalar katta bir uyum bo‘ldi. Bolalar otni o‘rab olishdi, bir-biriga gal bermay chug‘urlashdi:

– Voybo‘, ko‘zlarini qaranglar!

– Botinkasini qaranglar, temir nag‘ali ham bor ekan! – deb qichqirdi Vidutis. – Oyog‘i og‘risa kerak.

– Og‘rimaydi. Bu – taqa, — deb tushuntirdi aravakash amaki.

Ot silkindi, pastki labini osiltirib, yirik tishlarini ko‘rsatib, qattiq kishnadi. Bolalar qichqirgancha orqasiga tisarilishdi.

– Fu, tishlarining kirligini qaranglar! – deb yubordi bir qizcha.

– Sira yuvmasa kerak.

– Ot qanday qilib tishini yuvadi. Axir, uning qo‘llari yo‘q-ku!

– Antanas amaki, u nega temirni chaynayapti?

– Bu temir emas, suvliq, — dedi Antanas amaki va cho‘ntagidan bir burda non oldi-da, kaftiga qo‘yib, otga: “Ol, ye!”, — dedi. Ikkinchi qo‘li bilan otning sag‘risini siladi.

Bolalar bir zumda uylariga chopib qolishdi va biri non, biri kartoshka, yana



birovi pechenye, o'n ikkinchi uyda turadigan bir qizcha esa bir bo'lak tort olib chiqdi...

Vidutis esa katta oyi, deganicha hayajon bilan oshxonaga chopib kirdi. U buvisini "katta oyi" deb chaqirardi.

– Ha, nima deysan, o'g'lim?

Vidutis quvonch bilan bidirladi:

– Hovliga toychoq keldi!

Buvisi qishloqda tug'ilib o'sgandi, shu sababli sira ajablanmadi.

– Nima, umringda ot ko'rmaganmisan! – dedi yelkasini qisib. – Osmondan shakar yog'yaptimi, deb o'ylabman-a!...

– Tezroq non bering! – Vidutis sabrsizlanardi.

Buvisi o'z ishini tugatib, non kesib berguncha, ot-arava hovlidan ketib qoldi. Vidutis ko'chaga yugurib chiqqanida ot yo'q edi. U asta uyga qaytdi. Plastmassadan yasalgan traktor, muruvatli samolyot, batareyali tanklar – hammasi Vidutisning joniga tekkan edi.

Bola katta ko'zguga qaradi-da:

– Menga qara, kel, ikkimiz ot sotib olamiz? – dedi. Ko'zgodan sepkil burunli bola quvonch bilan bosh irg'adi.

– Rostdan sotib olamizmi?

– Sen ham rostdan otni yaxshi ko'rasanmi? Bo'пти? Otimizni qayerda saqlaymiz?

Ko'zgodagi bola barmog'ini labiga bosib o'yga toldi.

– Topdim! – qichqirdi Vidutis.

– Qayerda? – quvondi bola.

– U vannada yashaydi, – deya qichqirdi Vidutis, ko'zgodagi bola esa quvonchdan chapak chalib yubordi.

Oshxonadan buvining tovushi eshitildi:

– Vidutis, kim bilan gaplashyapsan?

– Bir bola bilan. Mening o'rtog'im bo'ladi. U hozir ketadi...

Vidutis otini vannaxonada qanday parvarish qilishi, cho'miltirish va tishini cho'tka bilan tozalab turishi haqida xayolga toldi. Keyin otni minib bog'lar, dalalar, o'tloqlar bo'ylab sayr qilayotgandek, jilmayib qo'ydi.



Vasil SUXOMLINSKIY
(Ukraina)

QANCHA TONG O‘TIB KETDI

Ertadan yozgi ta‘til boshlanadi. Uchinchi sinf o‘quvchisi Vasilko dadasi yoniga kelib:

- Men yozda nima qilaman? – deb so‘radi.
- Dam olasan, ishlaysan, — deb javob qildi dadasi. — Ertaga men bilan dalaga borasan. Bo‘ptimi?
- Bo‘pti! — dedi suyunib Vasilko.

Vasilkoning dadasi agronom bo‘lib ishlar edi. U erta tong bilan turib, dalaga chiqardi. Uxlab yotgan Vasilko kimdir uning yelkasiga astagina turtib, uyg‘o-tayotganini sezdi.

- Uf, sirayam turgim kelmayapti!

Vasilko birdan bugun dadasi bilan dalaga chiqishini eslab, uyg‘onib ketdi va ko‘z ochib, atrofga qaradi. Tashqari hali qorong‘i. Osmonda yulduzlar chaqnayapti, Sharqdan esa shafaq qizarib ko‘rinyapti.



Vasilko darrov yuvinib, dadasi bilan nonushta qildi. Mana, ota-bola hovliga chiqishdi. Vasilko Sharq tomondagi qizarayotgan shafaqni ko‘rsatib, so‘radi:

- Bu nima, dada? Osmon nega qizil? Nahotki, osmonga o‘t tushgan bo‘lsa! Dadasi miyig‘ida kulib:



- Sen hali quyosh chiqishini sira ko‘rmaganmisan? — deb so‘radi.
- Yo‘q, ko‘rmaganman, — javob qildi Vasilko.
- Bo‘lmasa ko‘rib ol, bir ko‘rsang, yana ko‘rging kelaveradi, — dedi dadasi.

Keyin ular qishloqning eng ko‘rkam joyiga kelishdi, qarshilarida oltindek tovlanib bug‘doyzor chayqalardi. Shudring tomchilari quyosh nurida jilvalanib turardi. Vasilko bu manzaraga mahliyo bo‘lib qolgan edi.

– Eh, qanday chiroyli-ya! — dedi u astagina. — Nahotki, har kuni shunday chiroyli tong otsa?!

– Har kuni shunaqa bo‘ladi, — dedi dadasi.

– Eh, qancha chiroyli tongni o‘tkazib yuboribman-a! — dedi achinib Vasilko o‘ziga-o‘zi.

Dushan SULAYMONOV
(Qirg‘iziston)

FOYDALI ISH

To‘xtash yetti yoshga to‘lar-to‘lmas, o‘qishni o‘rganib oldi, o‘zining, otasining ismini bermalol yozadigan bo‘ldi.

– Bu yil maktabga borasan, — dedi otasi. — Endi katta bo‘lib qolding. Uy ishlariga ham qarashib tur.

To‘xtash maktab so‘zini eshitgach, quvonib ketdi. O‘sha tomonga tez-tez boradigan bo‘ldi. Derazadan mo‘ralab, sinf ichida nimalar borligiga qiziqdi. Ammo u qanchalik urinmasin, oynaga bo‘yi yetmasdi.

Tunov kuni maktabga kelsa, hech kim ko‘rinmadi. Ta‘til kunlari ekan-da. Eshikni itarib ko‘rsa, yopiq. Bir amallab ochmoqchi bo‘ldi, qorovul ko‘rib qoldi. O‘rta bo‘yli bu chol Ko‘charboy amaki edi.

– Hoy, bola, nega har kuni bu yerga kelasan? — dedi To‘xtashga qarab. — Hali o‘qish boshlanmagan bo‘lsa...

– Maktabni ko‘rgim kelyapti, maylimi?.. — yalindi To‘xtash.

– Mayli, yura qol!

Ko‘charboy amaki yo‘lakdagi eng oxirgi sinfni ochib ko‘rsatdi.

– Sen mana bu sinfda o‘qiysan.



To‘xtash sinfni ko‘rib yayrab ketdi. Derazalari katta, o‘zi yop-yorug‘, devordagi notanish kishilarning portretlari, doska, parta — hamma-hammasi uning uchun boshqacha edi. U partalarni ushlab ko‘rgisi keldi. Endigina bitta barmog‘ini partaga cho‘zgan edi, Ko‘charboy amaki:

— Bo‘ldi, ketdik, — deb qoldi. — Boshqa sinflarni keyin ko‘rarsan.

Ko‘charboy amaki sinfdan chiqqan zahoti, To‘xtash partaning qopqog‘ini ochdi-yu, sekin o‘tirib oldi.

Qanday yaxshi. Eshitsa, o‘rtoqlarining unga havasi keladi-da.

U yo‘lakka chiqdi.

— Qani, endi uyingga bora qol! Maktabni ham ko‘rib olding. Hademay o‘quvchi bo‘lasan. Shataloq otib yurishing yaxshi emas, — dedi Ko‘charboy amaki.

To‘xtash uyga kelishi bilan ketmonchasini ko‘tarib, uy orqasidagi tomorqa tomon o‘tdi va sabzi kovlashga tushdi. U charchash nimaligini bilmasdi. Otasi unga devor orqasidan tikilib turardi. Chamamda, u foydali ishga qo‘l urgandi.

O‘taboy TURMANJONOV
(Qozog‘iston)

OQ BO‘TALOQ

Turash tuyalarni ilgari ham ko‘rgan edi.

Buvisi, tuya haqida gap ketganda: “Bilasanmi, qo‘zichog‘im, tuya shunaqangi muloyim, mehnatkash, ayniqsa, chidamligini aytmay-sanmi!” — derdi.

Keyin Turashga tuyalar haqida ertaklar aytib berardi. Yana yomon kishilar o‘g‘irlab, begona yurtga sotib yuborgan jajji bo‘taloq haqidagi qadimgi qozoq qo‘shig‘ini aytib berardi.

Biroq o‘sha kuni... o‘sha kuni Turash avvaliga u qanaqa hayvonligini bilolmay qoldi.

U qo‘shnining uyi oldida turardi — oqqush singari oppoq. Biroq, shubhasiz, u oqqush emasdi. Uning oyog‘i to‘rtta edi! Oyoqlari shunaqangi ingichka, shunaqangi nozik ediki... quloqlari ding, pastki labi esa birovdan xafa bo‘lgan-dek osilgan. Qop-qora katta ko‘zlari ajablangandek tikilardi. Bu g‘aroyib jonzot yonida Turashning qo‘shnisi, do‘sti Medeu turardi.





– Buni qara, Turash! – deya qichqirdi Medeu. – Yaqinroq kelsang-chi! Turash miq etmadi.

– Qo‘rqma, bo‘taloq-ku bu, axir!

– Oppoq bo‘taloq ham bo‘larkanmi? – dedi Turash joyidan qimirlamay.

– Nimaga degan-da, kichkina-da. Hali ikki oylik ham bo‘lmagan. Kel, silab ko‘rgin, u juda ham yuvosh.

Turash yaqin keldi. Bo‘taloqning boshiga chiroyli qizil tumor taqilgan, gardanidagi juni kokil qilib o‘ralgan, kokil uchiga esa ola bog‘ich taqilgan. Bo‘ynida, qo‘ng‘iroq bo‘lsa kerak, nimadir osilib turibdi.



– Bo‘taloqni qayerdan olding? – so‘radi Turash.

– Meniki emas, — deya xo‘rsindi Medeu. — Kecha amakim qishloqdan tuyada keldi. Bu — o‘sha tuyaning bo‘talog‘i.

– Tuyaning o‘zi qani bo‘lmasa?

– Ana, uyning orqasida o‘tlab yuribdi.

Medeu bo‘taloqning iliq gardanidan silab qo‘ydi. Bo‘taloq uning qo‘lini sekin yalab qo‘ydi.

– Tuz so‘rayapti, — dedi Medeu. — Bilasanmi, tuyalar sho‘rtang ko‘llar qirg‘og‘ida o‘sadigan o‘tni yaxshi ko‘radi.

Biroq yon-atrofida sho‘rtang o‘t bo‘lmagani uchun, Medeu engashib oddiy o‘tdan yulib, bo‘taloqqa uzatdi. Unga o‘t yoqib qoldi. Bo‘taloq o‘tni ishtaha bilan yeb oldi. Keyin esa ingichka ovozda cho‘zib qichqirib yubordi.

Turash beixtiyor cho‘chib tushdi. Medeu kulib yubordi.



Medeu yana o't yulib bo'taloqqa berdi. Har safar u o'tni maza qilib yeb olar, so'ng yana "to'ymadim, yulib beraver", — degandek tumshug'i bilan Medeuni turtkilardi. Medeu uni boqib, so'ng oppoq juniga yopishib qolgan xas-cho'plarni tozaladi.

— Tuyalar tozalikni yoqtiradi, — tushuntirdi u Turashga.

— Be-e-e, — o'kradi bo'taloq. — Be-e!

Uy tomondan shitir-shitir ovoz eshitildi. Ona tuya kelayotgan ekan. U bo'taloqqa yaqinlashib, unga mehribon ko'zlari bilan boqdi-da, boshdan-oyoq hidlab chiqdi.

Bo'taloq iliqqina, shiringina sut emgisi kelib qoldimi, onasiga talpindi. U to'yib emib olgach, ona tuya tiz cho'kib ko'zlarini yumdi. Bo'taloq uning yoniga cho'kdi.

Turash bilan Medeu xalaqit qilmaslik uchun sekingina ketishdi.

Kechqurun Turash buvisiga bo'taloq haqida gapirib berdi. Uni hech xayolidan chiqarmasdi. Bo'taloqni yana ko'rsaydi-ya!

Turash sezdirmaygina ko'chaga chiqdi. Hammayoq jim-jit, sovuq tushib qolgan. Qariya amaki ona tuyani minib uzoqlashib borayotgan edi. Yonginasida oppoqqina bo'taloq ingichka oyoqlarini g'alati tashlab irg'ishlab borardi.

Ular pastlikka tushib, ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

— Xayr, bo'taloq, — shivirladi Turash.





Adabiy topishmoqlar

TABIAT HAQIDA

Habib RAHMAT

Qorga o'xshar, emas qor,
Qor kabi sovug'i bor.
Quyosh chiqqan zamoni,
Yo'qolar o'shal oni.

(Qorov)

Osmondan yog'adi u,
Yomg'ir, qordek bo'lmas suv.
Kun chiqqach, ketar tarqab,
Kim nomin oldi payqab?

(Tuman)

Ko'k toqida doira,
Ko'rib deysan: "Qoyil-e?"
Turfa ranglar bo'lsa jo,
Bahorda bo'lar paydo.
Elda bor ovozasi,
U — osmon darvozasi.

(Kamalak)

Makoni — osmon-dengiz,
Kemadek suzar, izsiz.
Suv-yomg'irga serob u,
Nima ekan-a, top, bu?

(Bulut)



Paxtaday yomshoq, momiq,
Qo‘lingga olsang, sovuq.
(107)

Sobit G‘AFUROV

U tushganda, dala, qir
Kuladi “qiqir-qiqir”.
Chirmandasi – osmonda,
Raqsi – yerda, har yonda.
(118101)

Nabijon ERMATOV

Tun chog‘ida miltillab,
Osmonni qoplab olar.
Tong mahali lipillab,
Yana ko‘zdan yo‘qolar.
(211111)

Mahmud YUNUS

Goh sopi yo‘q o‘roqday,
Goh bo‘ladi doira.
Atrofga nur sochsa ham,
Harorat bermas sira.
(10)

Mahmud YUNUSALIYEV

Bulutga qilich solar,
Yalt-yalt etib yo‘l ochar.
(101111)



N. MIRZALIYEV

Ismi bor-u, jismi yo'q,
O'yinqaroq, juda sho'x,
Agar kirsam eshikdan,
Zumda chiqar teshikdan.
Gohida chalib xushtak,
Uchadi misli qushdek.
Topa qoling, yulduzim,
Daryodagi qunduzim.

(Shamol)

O'SIMLIKLAR HAQIDA

Habib RAHMAT

Uxlab yotar kunduzi,
Shomda ochilar ko'zi.

(Gulbeor)

Sobit G'AFUROV

Erda asta unadi,
Oftob chiqsa kuladi.
U – bahorning elchisi,
Buni hamma biladi.

(Boychachak)

Novdalarning qulog'i,
Kislorodning bulog'i.

(Yaprog)

“Qo'zi”, — desam, qo'zimas,
“Qorin”, — desam, qorinmas.



Qo‘shib aytmasang uni,
Ko‘z oldingda ko‘rinmas.
(*uimobiz, oŭ*)

Makonidir dalalar,
Pushtalarda bolalar.
To‘ni yo‘l-yo‘l, beqasam,
Go‘шти suvli va asal.
(*Tarvuz*)

Ko‘z uzolmay quyoshdan
Toblanadi bir lagan.
O‘sha lagan ichida
Mag‘iz, saryog‘ to‘plangan.
(*Kungaboqar*)

Yer tagida xo‘p inoq,
Yetildi to‘p-to‘p yong‘oq.
Mazasi yog‘li qaymoq,
Ishonmasang, chaqib boq!
(*Yo, yong‘oq*)

Habib RAHMAT

Tukdan parda yuzida,
Pishar o‘lkam kuzida.
Xushbo‘y hidli, tillarang,
Ko‘ngil uchun bir qarang.
Har biri kosadek u.
Mazali, lekin kamsuv.
Pishsa, yorilar zehi,
Buning nomimi...

(*Behi*)





Tuzilishi danakday,
Teshigi bor elakday.
Mag'izin sevar bobom,
Nima ekan bu?
(*uopog*)

Bobomurod CHORIYEV

Bitta dara, ikki tog',
Ichidagi sariyog'!
(*bo, g'uoX*)

JONIVORLAR HAQIDA

Umida ABDUAZIMOVA

Uning toji qip-qizil,
Yaxshilik qilsang, ahil.
Qichqiradi tong bilan,
Uyg'otadi bong bilan.
(*zo, oX*)

Mahmud YUNUS

Har bahorda qaytadi,
"Tak-tak" qo'shiq aytadi.
(*Laylak*)

Habib RAHMAT

Ko'zin ocholmas,
Kunduz ucholmas.
(*Ko'rshapalak*)



Qadam G‘OYIBOV

Qo‘nadi ming bir gulga,
Sog‘liq ulashar elga.
(*Bolani*)

O‘roqjon QILICHEV

Asal bilan boqadi,
Qo‘l tekkizsang chaqadi.
(*Asalari*)

Mahmud YUNUSALIYEV

Oyoq-qo‘li aslo yo‘q,
Suvda suzar misli o‘q.
(*Suvilon*)

Olti oyoq-qo‘li bor,
To‘r to‘qiydi ipakdan.
(*O‘rgimchak*)

Abdusamad YUNUSOV

Ko‘zi bor, kiprik qoqmas,
Qanoti bor, uchmas hech.
Oyog‘i yo‘q, yo‘l bosar
Suv ichida erta-kech.
(*Baliq*)

G‘anijon ABDULLAYEV

Bersam unga o‘t,
Ferma to‘la sut.
(*Sigit*)





Nabijon ERMATOV

Xavf bo'lsa, koptok bo'lib,
Igna ko'rpa yopadi.
Zumda ko'z ochib, kulib,
Ilgarilab chopadi.

(*Tipratikon*)

Yonidan o'tsa birov,
Bo'ynini cho'zib darrov.
Cho'qiy deb qilar hujum,
"G'a-g'a"lar u betinim.

(*zo, D*)

O'YINCHOQLAR HAQIDA

Habib RAHMAT

Dum-dumaloq,
Yum-yum yumaloq.
Ichi to'la havo-yey,
Tepsam otar shataloq.

(*Koptok*)

Mahmud VALIXONOV

Urgan sari yayraydi,
Terak bo'yi sakraydi.

(*Koptok*)

Sobit G'AFUROV

Ko'ylagi juda yupqa,
O'xshaydi rangdor to'pga.
Bayram bo'lsa, qiynaymiz
Bog'lab ularni ipga.

(*Pufak*)





Ergash NAMOZOV

Ko'zlari yoqut munchoq,
Qizchalarga ovunchoq.
Og'zi bor-u, tishi yo'q,
Ovqat bilan ishi yo'q.

(boyqul, 8, o'q)

OZIQ-OVQATLAR HAQIDA

Habib RAHMAT

Muzga o'xshar-u, muzmas,
Ishtahangni hech buzmas.
Shoshilmay yesam birin,
Oh-oh, qaymoqdan shirin.

(Muzqaymoq)

Xo'rozim yog'och oyoq,
Qo'limda turar shundoq.
Unga kulib qarayman.
Maza qilib yalayman.

(purbzor, o'x)

Sobit G'AFUROV

Shakar kabi oq, mayda,
Ammo ta'mi shirinmas.
O'yla, hech vaqt hech qayda
Usiz ovqat qilinmas.

(znL)



O'roqjon QILICHEV

Bir idishda ikki taom,
Aralashib ketmaydi ham.

(*unxnL*)

TURLI NARSALAR HAQIDA

A. HOSHIMOV

O'zgalarga nur berar,
O'zi esa kul bo'lar.

(*ShmS*)

Bahodir O'RINOV

Charaqlab ko'zi,
Ko'cham, uy yuzin
Qilar kunduzi,
Bu nima, o'zi?

(*Chiroq*)

Robiddin IS'HOQOV

Qulog'iga qo'ysam qulog'im,
Ovoz kelar, toping uyog'in.

(*Telefon*)

Sobit G'AFUROV

Eshitmaydi qulog'i,
Issiq bo'lar bulog'i.

(*uozozO*)





H. AHMADJONOV

Qulogʻini burasa oyim,
Xushxabarlar aytadi doim.
(*Radio*)

Q.MADUMAROV

Mehmon kelsa, avvalo,
Oʻrtaga u yozilar.
Soʻngra uni toʻldirib
Noz-u neʻmat tuzalar.
(*Dasturxon*)

TEZ AYTISHLAR

Gulnora FAYOZOVA

Tursun tunda tura tursin.

* * *

Joʻra jajji joʻjaga goʻja berdi.

* * *

Qoraboy qaragʻayga qaramay qoʻydi.

* * *

Toʻp-toʻp tariqni toʻrgʻaylar taladi.

* * *

Ismoil QOSIMOV

Bu yoz Niyoz biroz piyoz ekdi.

Sobit GʻAFUROV



Sovuqda tustovuq sovqotdi.

* * *

Inobat MIRZAYEVA

Jizzaxning issiq jizzasi maza.

* * *

Ikki ukki — aka-uka ukki.

* * *

Zebo RAVSHANOVA

Salim sariq sabzini savatga sanab soldi.

* * *

Dilmurod MIRTAZOYEV

Tolib tandir tagidan tanga topdi

* * *

Hasan OTAQULDOV

Yaxshivoy Yashin yasagan yashikka yapaloq qumni
yashirdi

* * *

Abdusamad YUNUSOV

Shoshqaloq Shoyim shamolda shamolladi.



BADIIY SOʻZNING QUDRATI

Besh-olti yoshdagi bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishida tobora jiddiy oʻzgarishlar roʻy beradi. Bu jarayon, ayniqsa, ularning oʻzlarini erkin boshqara olishlarida, tevarak-atrofnii idrok etishlarida, tasavvur doiralari kengayganligida, xotira mustahkamlanib, diqqat barqarorlashayotganida, nutq rivojlanib, fikrlarini ravon bayon eta olishlarida yaqqol koʻrinadi. Bolalarning borliqni bilishga boʻlgan ishtiyoqlari kundan-kunga kuchaya boradi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, ularning bu ishtiyoq va qiziqishlarini qondirishda badiiy adabiyot yaqindan koʻmak beradi. Tayanch dasturida besh-olti yoshdagi bolalarga tavsiya etilgan badiiy asarlar bir-biridan keskin farqlanmaydi. Mutaxassislarning taʼkidlashlaricha, bu yoshda bolalar faol “kitobxon”ga aylanadilar. Endilikda ular badiiy asar voqealarining rivojlanishinigina emas, balki asar qahramonlarining ruhiy holatlarini ham diqqat bilan kuzatib, uni his etadilar, toʻqnashuvlarning sabab va oqibatlarini anglab, mustaqil baho berishga intiladilar. Oʻz taassurotlari bilan oʻrtoqlashadilar. Bolalarning “kitobxonlik” darajasini yanada orttirish maqsadida, badiiy asarlarning janr va mavzu doirasi kengaytiriladi. Jumladan, xalq ogʻzaki ijodi boʻyicha mavsum-marosim, oʻyin qoʻshiqlari, topishmoq, tez aytish va sanamalar, maqol va hadislar, ertak va dostonlar, yozma adabiyot boʻyicha hikoya va qissalar, mumtoz va zamona-viy sheʼriyat bilan tanishadilar. Ular jozibali tarzda oʻqib yoki soʻzlab berilayotgan katta hajmli asarlarni 20 – 25 daqiqagacha toliqmay, diqqat bilan eshita oladilar. Qahramonlarning yurish-turishlarini kuzatib, oʻzlari uchun kerakli xulosalar chiqarishga intiladilar.

Badiiy asarlar (ertak, doston, hikoya, sheʼr v. b.)da aks ettirilayotgan gʻoyaviy-estetik fikrlarni bolalar qalbi va ongiga toʻliqroq yetkazish, ularning badiiy didlarini shakllantirish maqsadida tarbiyachilar asar tahlili ustida jiddiy ish olib borishlari lozim. Albatta, asar muallifining maqsadini aniqlash, qahramonlar xulq-atvorlarini tahlil etish – ancha murakkab ish, ammo istak, xohish boʻlsa, amalga oshirish mumkin. Biz tarbiyachilarga yordam tariqasida quyida badiiy asar tahlili va mashgʻulot samaradorligini yanada oshirish maqsadida hal etilishi lozim boʻlgan ayrim vazifalarni koʻrsatib oʻtamiz:

- * badiiy asar magʻziga singdirilgan asosiy maqsadni aniqlash;
- * asar qaysi jihatlar bilan bolani fikrlashga undamoqda?;
- * asar personajlarining oʻzaro suhbatlari;
- * qahramonlar oʻrtasidagi toʻqnashuvlarning sabab va oqibatlariga alohida eʼtibor qaratish;
- * badiiy tasvir vositalari (qahramonlarning tashqi qiyofasi; tabiat tasviri; jonlantirish; oʻxshatish; sifatlash)ni aniqlash;
- * asar shakli boʻyicha bolalarning tushunchalarini mustahkamlash (ertak, hikoya, sheʼr);
- * mavzu va shakl jihatdan oʻxshash asarlarni oʻzaro qiyoslash (oʻzbek xalq ertaklari “Chivinboy”, “Qumursqa”, “Qargʻavoy” — har uchala ertak takror usulida yaratilgan. “Egri bilan Toʻgʻri”, “Saxiy bilan Baxil” mavzu tomondan oʻxshash);



- * badiiy asar voqealari asosida mantiqli savollar tuzish;
- * badiiy asar boʻyicha suhbat-munozara tashkil etish;
- * asar gʻoyasini ochishda xizmat qiluvchi maqol va hikmatli soʻzlardan foydalanish;
- * bolalarning ijodiy fikrlashlarini oʻstirish usullarini izlash (badiiy asar voqeasi yoki qahramonlar sarguzashtini davom ettirish; mustaqil ertak va hikoya toʻqish v. b.)
- * asar boʻyicha ijodiy izlanishni davom ettirish (bolalar ishtirokida ertak va hikoyalarni sahnalashtirish; qoʻgʻirchoq teatri qoʻyish; teatrga sayohat uyushtirish; mehnat, tasviriy faoliyat, musiqa mashgʻulotlarida mavzuni mustahkamlash va b.)
- * kitob javoniga yangi kitoblar va rasmlardan koʻrgazmalar tashkil etish va boshqalar.

Biz quyida ushbu vazifalar asosida majmuadan joy olgan ayrim xalq ogʻzaki ijodi namunalari, adabiy asarlarni kichkintoylar ongi va qalbiga yetkazish yoʻllari xususidagi fikr-mulohazalarimizni bayon etishga intilamiz.

OʻZBEK XALQ OGʻZAKI IJODI

ERTAK

Ertak — besh-olti yoshdagi bolalar uchun ham eng sevimli janr boʻlib qoladi. Ular hayvonlar haqidagi yoxud sehrli ertaklarni ham, turli xalq ertaklari yoxud adabiy ertaklarni ham birdek maroq bilan tinglaydilar. Ertaklarning moʻjizaviy olami, bir-biridan qiziq sarguzashtlari bolani butkul sehrlab oladi. Uning tafakkur doirasini kengaytirib, maʼnaviy olamini boyitadi.

Majmuadan joy olgan ertaklarning mavzulari rang-barangligi bilan farqlanadi. Ularda insoniylik va xudbinlik, mehnatsevarlik va dangasalik, saxiylik va baxillik, toʻgʻrilik va egrilik, kamtarinlik va manmanlik, rostgoʻylik va yolgʻonchilik kabilar qiziqarli voqealarning badiiy talqini orqali aks ettiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, ertaklarda maʼnaviy tarbiyaning asosini tashkil etuvchi bu fazilat va nuqsonlar bir-biri bilan keskin toʻqnashmaydi, balki oshkora badiiy talqin etiladi. Shu tarzda yaxshilikning afzal tomoni, ayni paytda yomonlikning tuban jihatlarini badiiy asoslash orqali kichkintoylarni maʼnaviy-ahloqiy va estetik jihatdan tarbiyalab boradi.

Katta yosh davriga tavsiya etilgan “Oltin tarvuz” ertagida mazmun jihatdan oʻxshash, ammo mohiyat jihatidan bir-biridan farq qiluvchi ikki voqeaning oshkora badiiy talqini orqali yaxshilik va qanoatning hayotiy ahamiyati, yomonlik va noshukurlikning tubanligi koʻrsatiladi. Ertak qahramonlari: boy va kambagʻal dehqon. Ular, aslida, qanday odamlar? Avvalo, ushbu savolga javob berishga urinib koʻramiz.

Ertakning ijobiy qahramoni — kambagʻal dehqon. U — mehnatkash, qanoatli inson. Dehqon oʻzining bir tanobgina yerida erta-yu kech mehnat qiladi va topganiga shukur qilib yashaydi. Shu bilan birga, dehqon — rahm-shafqatli inson. U Laylakning yiqilib tushganini koʻrib, darhol yordam berishga shoshiladi. Dehqon Laylakning singan qanotini davolar ekan, undan zarracha yaxshilik koʻrishni xayoliga keltirmaydi. Bu ishlarni beminnat, xolisona bajaradi. Yaxshilik beiz ketmaydi. Laylak yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytaradi. Shu tarzda ertak voqeasi rivojlangan sari, dehqon tabiatidagi



Tamilla Qosimova. Toshbaqa tarozibon.



saxiylik va bagʻrikenglik ochila boradi. Tarbiyachi asarni ifodali oʻqish jarayonida ijobiy qahramonning ana shu fazilatlarini taʼkidlab, ovoz ohangi orqali oʻz munosabatini bildirib borishi kerak.

Ertakning ikkinchi qahramoni – boy dehqon. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, boy dehqon kambagʻal dehqondan faqat boyligi bilan farq qilmaydi. Balki ochkoʻzligi, berahm va noshukurligi bilan ham ajralib turadi. Darhaqiqat, boy dehqon oʻziga yarasha toʻq va farovon hayot kechiradi. U shu hayotiga ming bora shukur qilib bemalol yashayverishi mumkin edi, ammo unda ochkoʻzlik va qanoatlanmaslik ustunlik qiladi. Natijada u boylik orttirish uchun berahmlarcha laylakning oyogʻini urib sindiradi. Hadislarning birida: “Qilib qoʻyib, soʻng uzr soʻraladigan ishdan saqlan”, — deya odamlar ogohlantiriladi. Boy dehqon yomon ishlari uchun ertak soʻngida oʻz jazosini topadi.

Tarbiyachilar oʻrta guruhdan boshlab badiiy adabiyot mashgʻulotlarining yanada mazmunliroq boʻlishi uchun, yuqorida aytganimizdek, hikmatli soʻzlar va maqollardan imkon qadar foydalanishlari mumkin. Hikmatlarda yaxshilik, yomonlik, noshukurchilik haqida quyidagilar alohida taʼkidlangan: “Har bir qilinadigan yaxshilik sadaqa savobiga tengdir”; “Odamlarga yaxshilik qilish — bu savobi tez tegadigan xayrli ishlardandir”; “Badbaxt odamdagina rahm-shafqat boʻlmaydi”; “Kimki birovga yomonlik qilsa, shu dunyoning oʻzidayoq jazosini koʻradi”; “Qanoat iymondandir”. “Oltin tarvuz” ertagida ham xuddi ana shu maʼnaviy-axloqiy qarashlar badiiy obrazlarda umumlashtirilgan.

Tarbiyachi bolalarni ertak bilan tanishtirgach, qahramonlar xulq-atvori, xatti-harakatlari haqida oʻylab, mulohaza yuritishlariga imkon beradi. Asar takroriy oʻqilgandan soʻng suhbat-munozara tarzida oʻtkaziladi. Suhbat chogʻida tarbiyachi faqat savol beruvchi, bolalar esa faqat javob qaytaruvchi “oʻquvchilarga” aylanib qolmasliklari uchun suhbatni qiziqarli tashkil etish, guruhdagi hamma bolaning munozarada qatnashishiga erishish, ularning aytayotgan fikr-mulohazalarini qoʻllab-quvvatlash lozim. Masalan: “Ulugʻbek, juda toʻgʻri aytdi, haqiqatan ham, kambagʻal dehqon nihoyatda rahmdil ekan”; “Munisa, siz bu haqda nima deysiz?”; “Mushtariy, ertakdagi qaysi qahramon sizga koʻproq yoqdi? Nega?” kabi soʻzlash usulidan foydalanish kerak. Agar munozara toʻgʻri tashkil etilsa, shubhasiz, bolalar badiiy asar boʻyicha mustaqil mulohaza yuritib, unga ijodiy munosabatda boʻlishga, fikrlarini erkin ayta olishga oʻrganadilar. Bu esa, oʻz navbatida, bolalarni kelajakda savodli kitobxon sifatida shakllanishda muhim rol oʻynaydi.

Oʻzbek xalq ertaklari, jahon xalq ertaklari va adabiy ertaklar orasida tuzilishlari anʼanaviy takror usulida yaratilgan asarlar koʻplab uchraydi. Bunday ertaklarda oʻxshash koʻrinish, voqea, savol-javob bir necha bor oʻzgarishsiz yoki biroz oʻzgartirishlar bilan takrorlanadi. Tarbiyachi bolalarga shu usulda yaratilgan ertaklarni oʻqib berayotganda takror kelayotgan oʻrinlariga alohida urgʻu qiladi, ularga bolalarning eʼtiborini jalb etib boradi. Chunki takrorlanayotgan voqealarda, albatta, farqli tomonlar ham mavjud boʻlib, u bolaning idrokini, zehni oʻstiradi. Shu bilan birga, ertak matnida qayta-qayta takrorlanib kelayotgan voqealar kichkintoylar xotirasida tez muhrlanib, ular nutqining ravon rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oʻzbek xalq ertaklari — “Qargʻavoy”, “Qumursqa”, “Chivinboy”, “Ur, toʻqmoq”, “Zumrad va Qimmat” kabilar ana shu usulda yaratilgan. Bu ertaklarning xarakterli tomoni ularda oʻzbek tilining jozibasi, boy imkoniyatlari eng nozik qirralarigacha namoyon boʻladi. Ertaklarda qayta-qayta takrorlanayotgan dialoglar orqali qahramonlar xarakteriga xos xususiyatlar yaqqol koʻrinadi. Masa-



lan, “Qumursqa” ertagining qahramoni jami oʻn bir marta obyektga murojaat qiladi va har safar “aka” soʻzini qoʻshib aytadi: “Yomgʻir aka, sen eng zoʻrmisan?” Ertak qahramonining murojaatidan uning kamtar, katta-yu kichikni hurmat qiluvchi ekanligi bilinib turibdi. “Chivinboy” ertagining qahramoni Chivin esa, jami sakkizta obyektga murojaat qiladi. U ham har safar “aka” soʻzini qoʻshib aytadi. Lekin shunga qaramay, Chivinga nisbatan hammani hurmat qiluvchi obraz deb ayta olmaymiz. Chunki uning nutqi orqali xudbin, gʻarazgoʻy, shaxsiy manfaatparastga xos xususiyatlar yaqqol koʻrinadi: “Mergan aka, Mergan aka, shu boʻrini otib tashlasangiz-chi, echkini ye, desam, yemayman, dedi”.

“Qargʻavoy” ertagi qahramoni Qargʻa jami besh marta murojaat etadi: “Qorr, Qorr! Dengiz, Dengiz! Suv ber...” Qargʻaning murojaatidan uning oʻta qoʻpol va badjahlligi sezilib turadi.

Tarbiyachi mashgʻulot jarayonida ifodali oʻqish qoidasiga binoan, pauza, intonatsiya, ovoz ohangi orqali obraz yaratish kabilarga toʻliq rioya etsa, asarni bolalar qiziqish va tushunish bilan tinglaydilar. Ertak qahramonlarining dialoglarini bolalar rollarga boʻlib aytishlari mumkin va ertak asosida suhbat-munozaralar uyushtirilganda (ayniqsa, Chivinboy va Qargʻavoyga bagʻishlanganlarida) qahramonlarni oʻzaro qiyoslash; ularning maqsadlari va bunga boshqa personajlarning munosabatlarini aniqlash kerak. Masalan: “Nima uchun Chivin shunday xushmuomalalik bilan iltimos qilsa ham, hech kim uning iltimosini bajarishni istamabdi?”; “Nima uchun Qargʻavoyga hech kim chin koʻngildan yordam bermabdi?”. Shunday yoʻl tutilsa, bolalarning ham yomonlikka, yovuzlikka va gʻarazgoʻylikka munosabatlarini aniqlash va toʻgʻri yoʻnalish berib borish imkoni paydo boʻladi.

Takror usulida yaratilgan ertaklarni teatrlashtirish ancha qulay. Negaki bolalar takror kelayotgan voqealar maʼnosini tushunib, qahramonlar nutqini deyarli yodlab oladilar. Teatrlashtirish jarayonida ertak qahramonining ruhiy holatini ham oʻz boshlaridan kechiradilar. Bu esa, oʻz navbatida, bolada obrazga nisbatan mustaqil munosabatni tarkib toptiradi, badiiy havaskorlikka, sanʼatga boʻlgan havasni orttiradi. Bolalarning ijodiy fikrlashlarini yanada rivojlantirish maqsadida ayrim ertaklar mazmuniga oʻzgartirish kiritishni taklif etish mumkin. Shu maqsadda Toshkent viloyati Qibray tumanidagi “Gʻuncha” nomli 13-bogʻchada tajriba-sinov mashgʻuloti oʻtkazildi. Dastlab tarbiyachi bolalarga ertak mazmunini oʻzgartirishni taklif etganida, bolalar tushunmay hayron boʻlishdi. Tarbiyachi: “Oʻylab koʻringlar-chi, Qargʻavoy bilan Qoʻzichoq oʻrtoq boʻlishsa, ertak voqeasi qanday tugardi?” — deb maqsadini aniq aytganida, bolalar oʻrtasida jonlanish paydo boʻldi: “Bechora Qargʻa oʻlmasdi”, “Ular birga koʻza qidirishardi”, “Qargʻa Qoʻzichoqni yemoqchi boʻlmasdi”, “Qargʻa boshqa ovqat topsin, shunda ular oʻrtoq boʻlib qolishardi”, — degan fikrlar bildirildi. Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda ertakni quyidagicha oʻzgartirdi: “Qargʻa (ertak tugallanmasida) xorib-charchab koʻza topib keldi. Qarasa, Qoʻzichoq ketib qolmay boshini egib, uni kutib turgan ekan. Qargʻa uning bir soʻzli, mard boʻlganligi uchun qoyil qolibdi. Hatto oʻzining ochkoʻzligidan biroz uyalibdi.

— Seni yemayman, — debdi u Qoʻzichoqqa.

— Qorning och-ku, — debdi Qoʻzichoq.

— Qoʻyaver, yaxshisi, boshqa ovqat topaman! — debdi Qargʻa va koʻzani Qoʻzichoqqa sovgʻa qilibdi. Keyin “Qorr-qorr” deb, qanotlarini qoqib-qoqib uchib ketibdi”.



Ertak tugallanmasi shu tarzda oʻzgartirilgandan keyin, bolalarga oʻqib berilgach, ular bu parchalarni qayta sahnalashtirganlaridagi xursandliklari, sevinchlari cheksiz edi. Bogʻchada haqiqiy maʼnodagi ertak bayrami boʻldi.

Bizning “oʻzgartirish” haqidagi fikrlarimiz shartli boʻlib, u yoki bu xalq ertagi mustaqilligi va originalligini mutlaqo inkor etmaydi. Maqsad kichkintoylarda yomonlikning roʻy bermasligi, uning oldini olish mumkinligi xususida mustaqil fikrlashga vaziyat yaratish va ular qalbida yaxshilikka, ezgulikka nisbatan yanada kuchliroq his-tuygʻu uygʻotish. Ikkinchidan, har qanday badiiy asar mazmuniga, gʻoyaviy yoʻnalishiga “oʻzgartirish” kiritib boʻlmaydi. “Qargʻavoy” tipidagi bosh qahramonlari oʻta salbiy boʻlmagan, anchayin samimiy, maqsadiga erishish uchun hech kimga ziyoni tegmaydigan, boshlagan ishini oxiriga yetkazish harakatida mehnat qiladigan boʻlsagina, qoʻllash mumkin. Aks holda, shart emas. “Oʻzgartirish”lar bolalarni ijodiy fikrlashga, yaxshilik va ezgulikka boʻlgan his-tuygʻularini kuchaytirishga xizmat qila olsagina, kiritilishi mumkin, xolos.

Tarbiyachilar xalq ertaklari asosida “Ertak bayrami”, “Ertaklar olamiga sayohat”, “Ertak qahramonlari — mehmonimiz”, “Ertakchi bobo keldi” kabi turli bayramlar uyushtirsalar nur ustiga aʼlo nur boʻlur edi.

DOSTON

Doston — oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining hajm jihatidan eng yirik janri. Dostonning oʻziga xos uslubi, undagi kuchli fantaziya, oʻta mubolagʻali tasvir, badiiy matnda uchraydigan kichkintoylar u yoqda tursin, kattalarning ham tushunishi qiyin boʻlgan ayrim soʻzlar uni anglash va oʻqishni bir muncha ogʻirlashtiradi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, bu qiyinchiliklar dostonida ifoda etilgan goʻzal maʼnolardan kichkintoylarimizning bahramand boʻlishiga toʻsiq boʻlolmaydi. Agar tarbiyachi mashgʻulot uchun ajratilgan matnni qayta-qayta oʻqib, oʻrganib chiqsa, ifodali oʻqish malakasini hosil qilsa, shubhasiz, mashgʻulot paytida ortiqcha qiyinchiliklarga uchramaydi. Doston boʻyicha oʻtkaziladigan mashgʻulotdan koʻzda tutilgan maqsadiga toʻliq erishadi. Dostondan olingan parchalarni kichkintoylarga ifodali oʻqib berishda quyidagilarga rioya etish kutilgan natijalar beradi: maʼlumki, ertaklar faqat nasriy yoki, aksincha, faqat sheʼriy usulda yaratiladi. Xalq dostonlarining nutq qurilmasi esa sheʼriy va nasriy nutq qurilmasidan tashkil topgan. Shuning uchun tarbiyachi agar xalq dostonlaridagi maʼnoni bolalarga yetkazishda soʻzlab berish usulidan foydalansa, unda dostonning ertakdan farqi qolmaydi. Demak, dostonning asosiy xususiyatlaridan biri boʻlgan, voqealarning sheʼriy va nasriy nutq usullarida tasvirlanishini saqlash maqsadida uni ifodali tarzda oʻqish lozim. Ayniqsa, sheʼriy matndagi qofiya, sajʼ, vazn, takroriy soʻzlarga alohida eʼtibor berish, undagi mazmunni ohang vositasida ifoda etish kerak. Masalan, “Shirin bilan Shakar” dostonidan olingan quyidagi parchada Shirinbekning Shakarbekka aytgan soʻzlariga eʼtibor beraylik:

Sen eshitgin mendek ukang arzini,
 Otma sarhovuzning yuzgan gʻozini,
 Yaxshilik koʻr, yomonlikni koʻrmagin,
 Gʻozni otib, aka, jabr koʻrmagin!





Bu satrlarda ukaning begʻubor qalbi, akasiga hurmati, uning taqdiriga befarq emasligi iltijoli soʻzlaridan bilinib turibdi. Unda jozibali ohang, musiqiylik bor. Tarbiyachi ana shu ohangni saqlashi, ukaning akaga boʻlgan mehribonligini taʼsirli shaklda bolalar qalbiga yetkazishi lozim.

Dostonga xos xususiyatlardan yana biri uning nasr usulida bitilgan oʻrinlarida koʻrinadi. Unda jumlar ichki qofiya — sajʼ, vazn kabi badiiy ifoda vositalari yordamida bir-biri bilan mantiqan bogʻlanadi. “Alpomish” dostonidan olingan quyidagi parchaga diqqat qilaylik: “Bolalar kundankun, oydan-oy oʻtib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, tili chiqib elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchovini ham maktabga qoʻydilar”. Keltirilgan parchadan koʻrinib turibdiki, dostonning nasr qismi ham maʼlum oʻlchovga boʻysungan. Demak, tarbiyachi ifodali oʻqish jarayonida ana shu oʻlchov, qofiya va sajʼ vositalari tufayli yuzaga kelgan musiqiylikni saqlab, tinish belgilariga, toʻxtamlarga rioya qilib oʻqisa, tinglovchi-bolalarning butun diqqati bir nuqtaga toʻplanadi, ular asar mazmunini tushunib, qiziqish bilan tinglaydilar.

Asardan bolalar yanada chuqur zavqlanishlari uchun tarbiyachilar mashgʻulot jarayonida baxshilar tomonidan ijro etilgan dostonlar yozib olingan disk yozuvlarini eshittirishlari, dostonlarga oid turli rasmlar, illyustratsiyalar bilan tanishtirishlari lozim. Shuningdek, bolalar tasviriy faoliyat mashgʻulotlarida dostonga oid rasmlar chizishi, sayr paytida doston voqealari asosida turli oʻyinlar, musobaqalar tashkil etishlari mumkin.

Tarbiyachi bevosita dostonga bagʻishlangan mashgʻulotdan avval doston haqida, uni kuylovchi avloddan-avlodga yetkazuvchi baxshilar xususida ilk tushunchalar berishni rejalashtiradi. Quyida ana shunday kirish mashgʻulotida foydalanish uchun tayyor matn namunalarini keltiramiz:

Doston haqida ilk tushuncha berish

“Bolajonlarim, qadim zamonlarda radio, televizor boʻlmagan. Lekin u paytlarda ham odamlar toʻy-tomoshalar qilgan, oʻyin-kulgilar boʻlgan, turli tuman qoʻshiqlar, dostonlar yaratilgan. Bugun men sizlarga oʻsha vaqtlarda hamma sevib tinglagan xalq dostonlari haqida gapirib beraman. Diqqat bilan quloq solinglar.

Qadim zamonlarda odamlar oqshom paytlarida yigʻilishib, gurunglashib dam olishar edilar. Ana shunday oqshomlarda baxshi doʻmbira chertib, doston kuylagan. Doston voqealarida xalq orasidan yetishib chiqqan bahodirlarning bolaligidayoq bajargan ajoyib ishlari, yigitlik davrida koʻrsatgan mardligi, qahramonligi, vataniga, xalqiga sadoqati, pokiza muhabbati aks etar edi.

Dostonlarni maza qilib eshitayotgan kattalar yonida sizlarga oʻxshagan bolalar ham boʻlgan. Doston tugnagach, ular ham Alpomish, Goʻroʻgʻli, Avazxon, Ravshaxon, Rustamxon kabi qahramonlardek mardlik koʻrsatishni, el-yurtini dushmanidan himoya qilishni orzu qilganlar. Ota-onalariga, akakulariga, opa-singillariga nisbatan yanada mehribonroq, shafqatliroq boʻlishga intilishgan.

Shirintoylarim, dostonlarni katta-yu kichik nihoyatda sevgan, zerikmay, miriqib tinglagan”.

Baxshi-shoirlar haqida

“Bolajonlarim xalqimiz dostonlarni yoqimli ohangda kuylagan shoirlarni ham juda hurmat qilgan, ularni mehr bilan baxshi, oqin deb atagan.



Xalq baxshilarining doʻmbirani zavq bilan chertib, sirli kuylashlariga hamma mahliyo boʻlgan. Davrada dostonni miriqib tinglab oʻtirgan bolalar esa dostonchilikka havas qoʻyishgan, baʼzilari baxshiga shogird tushgan. Baxshi oʻzi bilgan dostonlarni shogirdiga oʻrgatgan. Shunday qilib, baxshilar tufayli doston avloddan-avlodga oʻtib, bizgacha yetib kelgan. Keyinchalik baxshilar ijro etgan dostonlarni yozib olishgan va ayrimlarini kitob holida nashr etishgan. Masalan, “Alpomish”, “Goʻroʻgʻli”, “Shirin bilan Shakar”, “Rustamxon” va boshqalar ana shunday dostonlardan hisoblanadi”.

Oʻzbek xalqining sevimli baxshilaridan Fozil Yoʻldosh oʻgʻli haqida

“Bolajonlarim, oʻzbek xalqining sevimli baxshilaridan biri – Fozil Yoʻldosh oʻgʻlidir. U juda koʻp va katta-katta dostonlarni yoddan bilgan. Fozil otaning sevimli doʻmbirasi boʻlgan. U ana shu doʻmbirasi joʻrligida doston kuylagan. Fozil ota, ayniqsa, “Alpomish” dostonini yaxshi koʻrgan va nihoyatda jozibali kuylagan. Baxshini yaxshi bilgan odamlarning aytishlaricha, Fozil ota doston kuylashni boshlaganida nafaqat odamlar, hatto sayrayotgan qushchalar ham jim... qolishgan ekan.

Hozir biz ham ana shu dostonidan bir parchani tinglaymiz. Tarbiyachi baxshi kuylagan doston yozib olingan diskni bolalarga qoʻyib beradi. Mashgʻulot oxirida bolalar xohishlariga koʻra guruhlariga boʻlinadilar va oʻzlari xohlagan narsani, masalan, doʻmbira yoki dutor rasmini chizishlari, yoki loydan, plastilindan birorta sozning shaklini yasashlari mumkin. Mashgʻulot soʻnggida bajarilgan ishlar asosida koʻrgazma tashkil etiladi.

MUMTOZ ADABIYOT

ALISHER NAVOIY VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Majmuadan buyuk shoir, alloma Alisher Navoiy hamda shoir, adib, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida maʼlumot beruvchi matnlar ham joy olgan. Tayanch dasturida bu ikki alloma haqida ilk maʼlumotlar oʻrta, katta va tayyorlov guruhlarida berish rejalashtirilgan. Shuning uchun tavsiya etilayotgan hikoya matnlariga tarbiyachining ijodiy yondoshishi nihoyatda muhimdir. Masalan, oʻrta guruhda tarbiyachilar mashgʻulotlarni bolalar tushunchasiga moslashtirib, kichraytirib, soddalashtirib; katta va tayyorlov guruhlarida esa qoʻshimcha dalillar bilan boyitib, murakkablashtiribroq oʻtishlari mumkin.

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur siymosini bolalarga rivoyatlar orqali tanishtirish bilan bir qatorda, dasturda har ikki ijodkor asarlaridan parchalar ham tavsiya etilgan. Masalan, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan “Sher bilan Durroj”, “Ikki vafoliq yor”, “Saddi Iskandariy” dostonidan “Bir kabutar” hikoyatlari va ruboiylar; Boburning “Boburnoma” asaridan parcha, “Yod etmas emish...”, “Har kimki vafo qilsa...” kabi ruboiylari kiritildi.

Alisher Navoiy hikoyatlaridagi vatanparvarlik, doʻstlik, mehr-vafo, yolgʻonchilikning fojiali oqibatlarining soddada, maroqli, goʻzal talqini, “Boburnoma”dan olingan parchada shoh Bobur





xarakteridagi ijobiy xislatlardan biri – kamtarinlik, odamiylikning hayotiy bayoni bola diqqatini oʻziga tortadi. Uning tafakkur doirasini kengaytiradi, maʼnaviy-axloqiy kamolotiga ijobiy taʼsir etadi.

Alisher Navoiy asarlarini bolalarga oʻqib yoki hikoya qilib berayotganda ulardagi badiiylikni idrok etishga, hikoya gʻoyasiga singdirilgan fikrlarni bolalar ongiga yetkazishga harakat qilish lozim. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, tarbiyachi, ayniqsa, asar qahramonlarining xatti-harakatiga, ruhiy holatiga ovoz ohangi orqali oʻz munosabatini bildirib oʻtishi, personajlarning oʻzaro dialoglarini taʼsirli oʻqishi ham bolalarning ularda ifoda etilgan gʻoyalarning tez va toʻliq tushunishlariga yordam beradi. Bolalar bilan asar boʻyicha qisqacha suhbat oʻtkazish, asar qahramonlari haqidagi fikr-mulohazalarini bayon etishlariga, ularning ijobiy va salbiy tomonlariga baho berishlariga imkon yaratish zarur. Bolalarga asarlar mazmuni va gʻoyasini qanday tushunganliklarini aniqlash maqsadida savollar beriladi. Masalan, Navoiyning “Sher bilan Durroj” hikoyati boʻyicha oʻtkaziladigan suhbat-munozarada quyidagi savollardan foydalanish mumkin: Alisher Navoiyning “Sher bilan Durroj” hikoyati nima haqida?

Sher bolasini qumursqalardan qanday asrar ekan? Durroj degan qush haqida eshitganmisiz? (tustovuqqa oʻxshash qush); Yozuvchi: “Durroj Sherni doimo choʻchitib yurishni odat qilibdi”, — deb yozadi. Sizningcha, ularning qaysi biri kuchliroq? Tinch-osoyishta yashash uchun Sher Durrojga nimani taklif etibdi? Oʻylab koʻringchi, nima uchun ularning oʻrtasida haqiqiy doʻstlik paydo boʻlmapti? Sizningcha, Durrojning ovchi tuzogʻiga tushib qolishida kim aybdor: Shermi yoki Durrojning oʻzimi? Qushning oʻzini shunday tutishi toʻgʻrimi? “Yolgʻonchi el oldida uyalib qoladi”, degan iborani qanday tushunasiz? Alisher Navoiy oʻz asarida nimani qoralayapti? Oʻylab koʻringchi, Durroj yolgʻonchilikni emas, chin doʻstlikni tanlaganida, nima oʻzgaradi? Kelinglar, shu mavzuda hikoya tuzamiz...

Xalq maqollarida yolgʻonchilik qattiq qoralanadi, rost soʻz esa ulugʻlanadi: “Yolgʻonchiga qoʻshilma, rost soʻzingni yashirma” “Yolgʻonchilik – badbaxtlik”, “Rostgoʻylik – baxt”. Kelinglar, ushbu maqollarni birgalikda yodlaymiz.

“Boburnoma”dan olingan parcha boʻyicha savollar: Aytingchi, hikoya kim haqida ekan?; Mirzo Bobur qanday lashkarboshi boʻlgan ekan? (qatiyatli, sabotli, insofli, gʻamxoʻr); Nima uchun lashkarlar yoʻl yurishga qiynalibdilar? Angladingizmi, nima uchun Bobur gʻorda oʻzi uchun tayyorlangan joyda qolishni istamadi? Siz Boburning oʻrnida boʻlganingizda gʻorda qolarmidingiz? Nega? Hikoya qanday kayfiyatda tugaydi? (xursandchilik, xafachilik); Hikoyadan siz nimani oʻrgandingiz?

Suhbat-munozaralarda foydalanish uchun tavsiya etilayotgan savollar bir mashgʻulot doirasiga sigʻmaydi, albatta. Shuning uchun bunday mashgʻulotlar uzluksiz bir necha kun davom ettiriladi. Tarbiyachilar ularga ijodiy yondashib, ayrim savollarni soddalashtirishlari yoki toʻldirib koʻpaytirishlari mumkin. Kichkintoylar oʻzlari qiziqqan badiiy asarni qayta-qayta eshitib zerikmasliklari hammaga maʼlum. Tashkil etilayotgan suhbat-munozaralar esa ularga badiiy asardan yanada zavqlanishlarida, aks ettirilayotgan axloqiy-tarbiyaviy gʻoyalarni teranroq anglashlarida yaqindan yordam beradi.



YUSUF XOS HOJIB

Majmuaga Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” asaridan parchalar ham kiritilgan. Maʼlumki, “Qutadgʻu bilig” asari 1069 yilda yaratilgan. U pand-nasihati, taʼlim-tarbiya, axloq-odob xarakteridagi asardir. Muallifning maʼnaviy-ahloqiy qarashlari bizning davrimizda ham oʻz qadr-qimmatini yoʻqotmagan. Asarda insondagi ijobiy fazilatlar umumlashtirilib, ijobiy xususiyatlar — ezgulik; salbiy xususiyatlaryomonlik nomi bilan yuritiladi. Yusuf Xos Hojib odamlardagi eng ulugʻ fazilatni ezgu va goʻzal xulqda, rostlik va hayoda koʻradi. “Bu uch fazilat birlashsa, kishi baxtiyor boʻladi, qut-iqbol uning huzuriga bosh urib keladi”, — degan qatʼiy toʻxtamga keladi. Yusuf Xos Hojib oʻz asarini aqliy kamolotga erishgan, hayot tajribalaridan muhim xulosalar chiqargan pallada yozgan. Shuning uchun uning zakovatli oʻgʻitlari, goʻzal fikrlari, hayotiy oʻxshatishlari, mantiqli xulosalari eshituvchini oʻziga maftun etadi va unga chuqur taʼsir qiladi. Tarbiyachi tanlab olingan parchalarni mahorat bilan hikoya qilishi, ayrim sheʼriy parchalarni bolalarga yod oldirishi maqsadga muvofiqdir.

SAʼDIY SHEROZIY

Majmuaga Sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Saʼdiy Sheroziyning mashhur “Guliston” va “Boʻston” asarlaridan ham parchalar kiritilgan. Ularda shoir oʻz boshidan kechirgan, eshitgan va bilgan voqealarini badiiy bayon etadi, chuqur axloqiy-taʼlimiy xulosalar chiqaradi.

“Guliston” asaridan olingan “Ikki aka-uka” haqidagi hikoyatda halol mehnat ulugʻlanadi, bironing minnat bilan bergan shirin, yumshoq nonidan oʻzining peshona teri bilan topgan bir burda qattiq noni afzal ekanligi koʻrsatiladi. “Boʻston” asaridan olingan chaqimchilik haqidagi sheʼriy parcha ham oʻzining tarbiyaviy ahamiyati bilan bolalar qalbiga chuqur taʼsir etadi, shubhasiz. Tarbiyachi avval sheʼrni ifodali oʻqib berishi, soʻng undagi fikrlarni qisqacha nasriy yoʻlda soʻzlab berishi, bolalar bilan suhbat oʻtkazishi va keyin yana bir marta ifodali oʻqib berishi mumkin. Shunday qilinsa, bolalar asarda ifoda etilgan gʻoyani chuqur tushunib oladilar.

Xullas, tarbiyachilar, kattalar, bolajonlarimizga boy madaniyatimiz, adabiyotimiz haqida qiziqarli usullarda maʼlumot bera olsalar, shubhasiz, farzandlarimizni milliy ruhda tarbiyalashda, ular qalbida beqiyos ijodkor bobolari bilan faxrlanish, iftixor tuygʻularining shakllanishida, tobora rivojlanishida gʻoyat katta ahamiyatga ega boʻladi.

OʻZBEK BOLALAR ADABIYOTI

HIKOYA VA QISSALAR


Majmuadan bolalar uchun yaratilgan oʻzbek yozuvchilarining va jahon xalqlari yozuvchilarining qator hikoyalari ham joy olgan. Bu hikoyalarning markaziy qahramonlari, asosan, bogʻcha yoshidagi bolalardir. Yozuvchilar ularni kundalik hayotda, uyda, koʻchada, oʻrtoqlari davrasida, kattalar orasida tasvirlab, bolalarning rang-barang olamini badiiy tadqiq etishga erishganlar. Hikoyalarda ona-Vatanga, ona-tabiatta muhabbat, halollik, rostgoʻylik, saxiylik kabi insoniy fazilatlar ulugʻlanadi,



yolgʻonchilik, takaburlik, qizgʻancholik v. b. salbiy xislatlar qoralanadi. Ularda aks ettirilayotgan hayotiy voqealar tinglovchi — bolaga oʻziga chetdan qarash imkonini berishi, fikrlashga, mulohaza yuritishga, munosabat bildirishga, xulosalar chiqarishga undashi bilan xarakterlanadi. Yuqorida aytganimizdek, tarbiyachining vazifasi bolalar qalbida badiiy asarga qiziqish uygʻotish bilan birga, ularning asar boʻyicha olgan taassurotlari va tushunchalariga toʻgʻri yoʻnalish berishdan iborat. Masalan, tanqidiy ruhda yozilgan L. Mahmudovning “Barno”; K. Rahimning “Xoʻrozqand”; Sh. Saʼdullaning “Qaysar bolalar”, F. Musajonovning “Toʻlab ber” kabi hikoyalar boʻyicha mashgʻulot oʻtilayotganda qanday usullardan foydalanish lozim. Tarbiyachilar hikoya muallifining niyatini, uning oʻz qahramonlariga munosabatini, hikoya qahramonlarining ruhiy holatida, roʻy berayotgan oʻzgarishlarni, odobsizlik, tarbiyasizlikni yuzaga keltirayotgan sabablarga bolalar eʼtiborini qaratishi, shuningdek, bunday holatlar ustida mulohaza yuritib aniq, toʻgʻri xulosaga kelishlarida yordam berishlari kerak. Masalan, L. Mahmudovning “Barno” hikoyasining qahramoni Munira bir nojoʻya ish qiladi. U koʻchada oʻsib turgan gulni tag-tugi bilan yulib, oʻz hovlisiga ekib qoʻyadi. Hikoya voqealarini qiziqib tinglab oʻtirgan bolalar aksariyat hollarda, “Munira yomon qiz ekan”, — degan xulosaga keladilar. Aslida, shundaymi? Suhbat-munozara mashgʻulotida tarbiyachi bu masalaga oydinlik kiritishi kerak. Yaʼni, u suhbat jarayonida Munirani yomon qiz sifatida qoralamasligi kerak, balki qilingan ishning yomonligiga bolalar eʼtiborini qaratishi lozim. Chunki hikoyadagi Munira oʻz hovlisini chiroyli qilmoqchi, uning niyati yaxshi, lekin bu niyatining ijrosi — yomon. Ana shuni bolalar ongiga yetkazish kerak. Buning uchun quyidagi soʻzlash usulini qoʻllash mumkin: “Munira oʻzi yomon qiz emas, lekin qilgan bu ishi...” yoki “Munira oʻz hovlisini chiroyli qilmoqchi boʻlibdi-yu, lekin bu ishi...”. Agar shunday yoʻl tutilsa, bolalar ham biror odamga baho berayotganlarida unga xolis munosabatda boʻlishni oʻrganadilar. Yomon ishlarning sodir boʻlganligidan afsuslanadilar, oʻzlari uchun kerakli xulosa chiqarib oladilar. Hikoyaning maʼnaviy-axloqiy, estetik ahamiyati ham shunda koʻrinadi.

Hikoya takroriy oʻqilgandan soʻng suhbat-munozara oʻtkaziladi. Ushbu hikoya boʻyicha savollar: Latif Mahmudovning “Barno” hikoyasi nima haqida? Nega Munira koʻchadagi gulsafsarni tag-tugi bilan yulib oldi? Oʻylab koʻring-chi, Munira gulni yulib olayotganida nimalarni his qildiykin? Hikoyada nojoʻya ishga qoʻl urayotgan Muniraning holatini yozuvchi qanday tasvirlaydi? (Koʻzlari ola-kula boʻlib koʻchaga Munira chiqdi. Barnolarning eshigiga, koʻchani boshiga qaradi); Muniraning ishiga Barno qanday munosabatda boʻldi? Barnoning buvisi: “Koʻchani fayzini oʻgʻirlabdi”, — degan gaplarini siz qanday tushunasiz? Muniraning qilgan ishini qanday baholaysiz? Munira toʻgʻri ish qildimi? Nima uchun? Muniraning oʻrnida boʻlganingizda nima qilgan boʻlardingiz? Barnoning oʻrnida boʻlsangiz, oʻzingizni qanday tutar edingiz? Hikoya ertakdan nimasi bilan farq qiladi (*hayotiy voqealar tasvirlanadi*). Sheʼrdan nimasi bilan farq qiladi? (*sheʼrdagi qofiya, ritm, musiqiylik hikoyada yoʻq*).

Tarbiyachi mashgʻulot davomida “Qaysi bir moʻmin biror ekin eksa yoki mevali daraxt oʻtqazsuyu, ulardan qushlar, odamlar yoki hayvonlar yesa, bu uning uchun sadaqa hukmida boʻladi”. “Yomonlikni yaxshilik bilan yeng”, “Gul oʻssa — yerning koʻrki, Qiz oʻssa — elning koʻrki” kabi hadis va maqollardan foydalanishi mumkin.



Mashgʻulotdan keyin bogʻcha hovlisidagi gullarni parvarish qilish, oʻtlardan, toshlardan tozalash, suv quyish, tasviriy faoliyat mashgʻulotlarida gulsafsar rasmini chizish kabi ishlarni bajarish va maʼlum vaqt oʻtkazib hikoyani yana qayta oʻqib berish kerak.

Majmuadan oʻzbek adabiyotining yirik vakillari Muso Toshmuhammad oʻgʻli Oybekning “Alisherning yoshligi” va Xudoyberdi Toʻxtaboyevning “Jannati odamlar” nomli qissalaridan parchalar ham joy olgan. Oʻylaymizki, bu asarlar ota-onalar, tarbiyachi va bolalarga maʼqul boʻladi. Ularda kichkintoylarning oʻziga xos musaffo olami, soddadilligi va begʻuborligi aks ettirilgan. Oʻrnak olsa arziydigan xalq pedagogikasi jozibali tarzda koʻrsatilgan.

Oybek oʻz asarida buyuk shoir Alisher Navoiyning bolalik hayotini aks ettirgan. Adib qissada yosh Alisherni odobli, farosatli, oʻta zukko, bolalarga namuna boʻladigan obraz darajasida tasvirlaydi. Majmuaga kiritilgan har ikki kichik parchada ham qahramondagi ushbu xislatlar mujassamlangan. Agar bolalar birinchi parchadagi voqea orqali toʻrt yoshlik Alisherning kattalar davrasida oʻzini oqilona tutishidan, zukko javoblaridan, mavlono Lutfiyning sheʼrini zavq bilan oʻqishidan qattiq taʼsirlansalar, ikkinchi parchadagi voqea orqali Alisherning birinchi bor maktabga borishi, ilk bora olgan sabogʻi haqidagi voqealarni maroq bilan tinglaydilar. Ulugʻ mutafakkir shoirning bolaligi haqida eshitish, shubhasiz, tinglovchi-bolalar aqlini charxlaydi, fikr-mulohazalarini tiniqlashtiradi, maʼnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

X. Toʻxtaboyevning “Jannati odamlar” qissasidan olingan “Odobli bola oʻyini” hikoyasida xalq pedagogikasida keng tarqalgan, ammo bizning zamonamizda deyarli unutilayozgan bolalarga odob saboqlarini oʻrgatishning bir usuli haqida jonli tarzda hikoya qilinadi. Maʼlumki, oʻzbek xalqi farzand tarbiyasiga azal-azaldan katta eʼtibor bergan va unda didaktika, pand-nasihat ustuvor yoʻnalish hisoblangan. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan tarbiya sohasidagi anʼanalimizga nazar tashlansa, odobli va odobsiz, yaxshi va yomon, egrilik va toʻgʻrilik, yolgʻonchilik va rostgoʻylik kabi bir-biriga zid tushunchalar haqida aniq xulosalar yetarlicha jamlangan. Har bir avlod bu anʼanalarni farzandiga bolaligidanoq singdirar ekan, uni yanada sayqallashtirib borgan. Albatta, bu vazifani oiladagi keksalar nihoyatda sidqidildan, astoydil amalga oshirishga intilganlar. Shuning uchun buviyu bobosining qoʻlida tarbiya topgan kichkintoylarning oʻzlarini tutishlarida, odob-axloqlarida alohida ijobiy tomonlar sezilib turadi. X. Toʻxtaboyev oʻz asarida bolaning bobosi va buvisi qiyofasida ana shunday keksalarning badiiy obrazini yarata olgan. Majmuaga kiritilgan “Odobli bola oʻyini” hikoyasida radio, televizor, komputer boʻlmagan zamonlarning ijobiy tomonlaridan biri koʻrsatiladi. Yaʼni u paytlarda odamlar bir-birlariga mehrlil-qibatli, hurmatli, oʻzaro ahil boʻlishgan, xalq anʼanalariga hamma amal qilgan, shuning uchun ham bu anʼanalarni kichkintoylarga singdirish nisbatan oson kechgan. Odamlar qahraton qish kunlarida, oydin yoz kechalarida bir joyga toʻplanishib, hozirgi til bilan aytganda, madaniy kechalar uyushtirganlar. Hozirgi madaniy kechalardan farqli bu kechalar maxsus tadbir sifatida uyushtirilmagan. Unga kattalar va bolalar oʻz ixtiyorlari, xohish va irodalari bilan borishgan “Odobli bola oʻyini”dagi voqealar ham qor gupillab yogʻib turgan qish kunlarining birida boʻladi. Unda bolalar nafaqat vaqtlarini sermazmun oʻtkazadilar, balki milliy odob-axloqimizning sir-asrorlaridan baholi qudrat xabardor boʻladilar.



X. Toʻxtaboyevning “Jannati odamlar” qissasidan olingan bu hikoyaning yana bir qimmatli tomoni tarbiyachi va ota-onalar uchun juda katta tajriba-mashgʻulot vazifasini oʻtashidir.

Agar, bolalar Oybekning “Alisherning yoshligi” yoki X. Toʻxtaboyevning “Jannati odamlar” qissalarining davomiga qiziqish bildirishsa, ushbu kitoblarni topib, ayrim parchalarni oʻqib berish mumkin. Ular asosida tarbiyachi, ota-onalar va bolalar birgalikda davra suhbatlari, munozaralar, oʻyinlar oʻtkazishsa, yanada samarali boʻladi.

Xullas, kichkintoylarga biror asarning maʼqul boʻlish va boʻlmasligi shu asarning badiiy saviyasiga, unda yaratilgan obrazlarning jozibadorligiga bogʻliq. Agar asar badiiy jihatdan har tomonlama mukammal yozilgan boʻlsa, u qaysi janrda boʻlishidan qatʼi nazar, kichkintoylarni qiziqtiradi, qalblarini hayajonlantiradi.

SHEʼR

Besh-olti yoshdagi bolalar sheʼriyat olamiga katta hayrat va muhabbat bilan qaraydilar. Chunki ularning ruhiy olamiga mos tarzda yaratilgan sheʼrlar murgʻak qalblarini hayajonlantiradi, goʻzallikdan, nafosatdan zavq olish tuygʻusini oʻstiradi. Badiiy obrazlar orqali shoir aytmoqchi boʻlayotgan fikrni, soʻzlar maʼnosini tushuna boshlaydilar. Obrazli tasvir vositalarini, musiqiylik hosil qiluvchi ritm va qofiyani, sheʼriy va nasriy nutq qurilmasini farqlay boshlaydilar. Endilikda tarbiyachi va ota-onalarning vazifalari ana shu koʻnikmalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat.

Tarbiyachilar katta va tayyorlov guruhlarida oʻtkaziladigan sheʼr yodlash va ifodali oʻqish mashgʻulotlariga jiddiyroq yondashmoqlari lozim. Mashgʻulotlarda kichik guruhlardagi kabi koʻrgazmali materiallardan, oʻyinchoqlar yoki oʻyin usullaridan foydalanish shart emas, albatta. Negaki bu yoshdagi bolalar katta odamning qalbdan his etib, jozibali tarzda oʻqiyotgan sheʼrni diqqat bilan tinglab, uning maʼnosini tushuna oladilar. Sheʼr bola qalbi va ongiga yanada chuqurroq etib borishi uchun tarbiyachi mashgʻulotning kirish qismida sheʼr muallifi va mavzusi haqida qiziqarli suhbat tashkil etishi, keyinroq sheʼr tahlili boʻyicha munozara suhbat oʻtkazishi mumkin. Sheʼr tahlili masalasida shoshma-shosharlik qilish kerak emas. Chunki bola oʻqilayotgan sheʼrdagi bir butunlikni his etadi, undagi obrazlilikdan hayajonlanadi. Sheʼr ifodali oʻqilgach, darhol tahlil etish maʼnosida savollar berilsa, shubhasiz, u qismlarga boʻlinib ketadi va badiiyligiga putur yetib, oddiy voqeaga aylanib qoladi. Shuning uchun sheʼr haqidagi suhbatni navbatdagi mashgʻulotga qoldirish maqsadga muvofiq.

Majmuada tabiat mavzuiga oid yil fasllari, daraxtlar, sabzavot va mevalar, parranda-yu darrandalar, hayvonot olamiga bagʻishlangan qator sheʼrlar kiritilgan. Kichkintoy uchun tabiat yaqin va qadrdon. U tabiatni jonli va jonsiz deb ikkiga ajratmaydi, balki oʻzi bilan bir butunlikda his etadi. Kattalardan farqli tabiatni bir qadar “badiiy” tushunadi. Shuning uchun nafis sheʼriyat ularning ruhiyatiga bir zumda taʼsir etadi, his-tuygʻularini junbishga keltiradi. Shu tariqa maʼnaviy-estetik jihatdan tarbiyalaydi. Quyida shoira Kavsar Turdiyevaning “Bahor” sheʼri boʻyicha oʻtkaziladigan mashgʻulotning kirish va tahliliga bagʻishlangan suhbat-munozarada foydalanish uchun tayyor matn, shuningdek, savollardan namunalarni keltiramiz.



Mashgʻulotning kirish qismida tarbiyachi bolalarning bahor fasli haqidagi fikrlari, kuzatishlari, oʻyinlari, kayfiyatlari asosida suhbat oʻtkazadi. Soʻngra tarbiyachi ularning fikrlarini umumlashtiradi: “Bolajonlarim, juda toʻgʻri payqabsizlar. Haqiqatan ham, tabiatda roʻy beradigan hamma oʻzgarishlar bir-biri bilan chambarchas bogʻliq. Bahor quyoshi qor va muzlarni eritadi, yerdan koʻm-koʻk maysalar bosh koʻtaradi, atrofimiz turli ovozlarga toʻlib ketadi. Qushlarning sayrashiga, suvning qoʻngʻiroqdek tovushiga bolalarning shodon ovozlari, oʻyin-kulgilari qoʻshiladi.

Bahorda oʻt-oʻlanlar, daraxtlargina emas, balki chumolilar, kapalaklar, qurt-qumursqalar ham uygʻonadi. Ular ham xuddi biz kabi bahorni sevinch bilan qarshi oladilar.

Bolalar shoirasi Kavsar Turdiyeva ham bahorni juda yaxshi koʻradi. U borliqni birdaniga oʻzgarib, goʻzallashib ketganligidan paydo boʻlgan hayratlarini “Bahor” sheʼrida aks ettiradi. Hozir men sizlarga ana shu sheʼrni oʻqib beraman, diqqat bilan eshiting”, – tarbiyachi sheʼrni hayajon bilan ifodali tarzda oʻqiydi. – Sheʼr sizlarga yoqdimi? Juda soz! Yana bir marta eshitishni xohlaysizlarmi?.. Endi, bahor gullarini, daraxtlarning rasmini chizamiz”.

Ushbu sheʼr boʻyicha savollar: K. Turdiyevaning “Bahor” sheʼrida bahor faslining qaysi davri haqida soʻz yuritilyapti? (*Erta bahor, bahorning oʻrtasi, bahorning soʻnggi kunlari*); Sheʼrda nima “zumrad poyondozi”ga oʻxshatilyapti? Sheʼrning “Birdan zumrad poyondozi Dalalarga tashlandi” misralari orqali siz nimani tasavvur etayapsiz? Shoira “Bir kechada gilamga chatib chiqdi gullarni”, deganda, nimani nazarda tutyapti? Siz bahor kunlari olcha daraxtining bir kechada qiygʻos gullagan oppoq daraxtga aylanib qolganini koʻrganmisiz? Sheʼrning qaysi misrasi orqali havo isib qolganligini sezib oldingiz? (Qalin, sovuq muzlarni Eritoldi iydirib); Sheʼrdagi: “Har bir daraxtga chiqdi chopon kiydirib”, – degan iborani qanday tushunasiz? Hech eʼtibor berganmisiz, kattalar qay paytda bir-birlariga chopon kiydiradilar? (*Xalqimizning eng chiroyli odatlaridan biri yaxshi kunlarida sovgʻa tariqasida chopon kiydiradilar. Daraxtlar ham sovuq, qahraton qishni mardonavor yengib, yaxshi kunlarga etib kelishdi, shuning uchun ular eng yaxshi mukofotga sazovor boʻldilar. Shoira daraxtlarning koʻm-koʻk barglarga burkangan qiyofasini ana shunday badiiy obraz orqali gavdalantiradi.*); Sheʼr hikoyadan nimasi bilan farqlanadi? (*Sheʼrning musiqali, taʼsirli chiqishida ritm va qofiyalarning, tasvir vositalari: jonlantirish, oʻxshatish, sifatlash kabilarning oʻrni va ahamiyati katta*).

Tarbiyachi mashgʻulot vaqtida bolalarning eʼtiborini nasriy va sheʼriy asarlar orasidagi farqli tomonlarga qaratishi va ayrim nazariy tushunchalarini mustahkamlab borishi maqsadga muvofiq.

Majmuadan joy olgan qator sheʼrlarda davlatimizning milliy mafkurasi tamoyillari – maʼnaviy poklik, halollik, mehnatsevarlik, xalqqa, ona-Vatanga, ona-tabiatga muhabbat tuygʻulari aks ettirilgan. Vatanga muhabbat oiladan boshlanadi. Bola dunyoga kelib dastlab oʻz uyini, oilasini, ota-onasini, yaqinlarini koʻradi va ularning issiq mehrini his etadi. Uning jajji qalbida ularga nisbatan mehr-muhabbat hislari paydo boʻladi. Ana shu tuygʻu asta-sekin oʻsib, rivojlanib oʻz Vatanga, xalqiga muhabbatdek ulugʻ tuygʻuga aylanadi. Shuning uchun ham “Vatanga muhabbat ostonadan boshlanadi”, deydi xalqimiz. Agar tarbiyachilar bu haqidagi fikrlarini kichik guruh (qarang: ushbu majmuaning I-kitobi “Badiiy soʻzning qudrati” metodik maqola) bolalari qalbiga taʼsirli yetkazish uchun xalq qoʻshiqlaridan, alla, erkalama, ovutmachoqlardan foydalanishsa, oʻrta, katta va tayyorlov guruhlarida xalq qoʻshiqlari bilan bir qatorda, shoirlar tomonidan ijod etilgan Vatan mavzuidagi sheʼrlarga



keng murojaat etadilar. Majmuaning “O‘zbekiston — mening Vatanim” bo‘limidan E. Vohidovning “O‘lka”, B. Isroilning “Shunday o‘lkam bor”, Q. Otaning “O‘zbekistonim”, P. Mo‘minning “Qadim Turon” va boshqa she‘rlar bilan tanishadilar. Shuningdek, ushbu bo‘limda Q. Rahimboyevaning “O‘g‘lim... so‘ng qizimga birinchi saboq”, X. Davronning “Yagonadir Vatanning sening” va E. Malikovning “Bayroq, Gerb va Madhiya haqida jajjigina ertak” kabi saboq hikoyalari ham joy olgan. Vatanni madh etuvchi, vatanparvarlik mavzuidagi bu asarlar bolalar qalbida muqaddas ona-Vatanimiz — O‘zbekistonga bo‘lgan mehr-muhabbatining rivojlanishida va tobora kuchayib borishida beqiyos katta ahamiyatga ega.

Majmuada bolalar uchun tavsiya etilayotgan she‘riy asarlar orasida kichkintoylar uchun maxsus ijod etilmagan, lekin ularning his-tuyg‘ularini boyitishda, ma‘naviy-estetik tarbiyasida, badiiy didini oshirishda ijobiy ta‘sir etuvchi Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning g‘azal va ruboiylari, Oybekning “Na‘matak”, Zulfiyaning “Oltin kuz”, A. Oripovning “Tog‘lar”, “Ona”, A. S. Pushkinning “Qish oqshomi” she‘rlari va boshqa asarlar ham kiritilgan. Albatta, kichkintoylar bu she‘riy asarlardagi chuqur ma‘nolarga tushunmasliklari mumkin. Ammo misralarga jo bo‘lgan shoirlarning his-hayajonlarini, quyoshga “Bir savat oq gul ko‘tarib”, “shamolning belanchagida nafis chayqalayotgan” (Oybek) Na‘matakning ma‘sumligini, nazokati, nafasati, matonatini va nihoyat badiiy tilning go‘zalligini, jozibasini his etadilar. Bu asarlar kichkintoylarning badiiy estetik didlarini ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi, shubhasiz.

Xullas, kichkintoylar badiiy so‘zning qudratini ilk bora uyda, bog‘chada his etadilar, bilib oladilar. Agar oilada, bog‘chada badiiy tarbiya to‘g‘ri tashkil etilsa, badiiy mukammal asarlar ifodali o‘qib yoki so‘zlab berilsa, bolalar maktab ostonasiga qalblarida adabiyotga bo‘lgan katta qiziqish, katta havas bilan qadam qo‘yadilar. Bu qiziqish, bu havas ularni kelajakda, o‘quvchilik yillarida, badiiy adabiyot bilan ajralmas do‘st bo‘lishga olib keladi. Bu do‘stlik, ya‘ni ilg‘or g‘oyalar yuksak badiiy mahorat bilan aks etgan asarlarni doimiy ravishda o‘qib borish esa yosh avlodni oliy insoniylik ruhida tarbiyalash, estetik didini rivojlantirishda uzluksiz davom etadi.

Zamira Ibrohimova,
filologiya fanlari nomzodi



MANBALAR KO'RSATKICHI

Ilmiy va uslubiy adabiyotlar

1. Barkamol avlod orzusi. – T., “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik konserni bosh tahririyati, 1999-y.
2. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996-y.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 1996-y.
4. Onalik va bolalik - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi. – T.: 2001-y.
5. Maktabgacha ta'limning davlat standarti. O'zR XTV, T. Qori-Niyoziy nomidagi O'zPFITI. – T.: 1995-y.
6. Радуга. Программа и руководство для воспитателей средней группы детского сада. – М.: 1994 й.
7. Uchinchi mingyillikning bolasi. Tayanch dasturi. – T.: Ma'rifat-Madadkor, 2000-y.
8. Uchinchi mingyillikning bolasi: Tayanch dasturini amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan qo'llanma. – T.: Ma'rifat-Madadkor, 2000-y.
9. “Bolajon” Tayanch dasturi loyihasi. – T.: 2010-y.
10. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – T.: O'qituvchi, 1975-y.
11. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti (darslik-majmua). – T.: O'qituvchi, 1994-y.
12. Ibrohimova Z. Kichkintoylar adabiyotining xususiyatlari. – T.: O'qituvchi, 1994-y.
13. Mansurov A., Jo'rayev U., Lafasov M. Hadis ilmi saboqlari. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999-y.
14. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – T.: O'qituvchi, 1985-y.
15. Shermuhammedov P., Tursunov J., Safarov O., Egamov X. O'zbek bolalar adabiyoti (darslik-xrestomatiya). – T.: O'qituvchi, 1976-y.
16. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001-y.

Badiiy adabiyot

O'zbek xalq og'zaki ijodi

1. Alla-yo, alla. O'zbek xalq allalari. To'plovchi: O. Safarov. – T.: O'qituvchi, 1999-y.
2. Alla aytay, jonim bolam. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: G. Mardonova. – T.: Cho'lpon. 1996-y.
3. Alla, alla, oppog'im. Nashrga tayyorlovchi: M. Yoqubbekova. – T.: 2002-y.
4. Alpomish. O'zbek xalq dostoni. Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. Tayyorlovchi: M. Murodov. // G'uncha, 1994, 7-8-son.
5. Asotirlar va rivoyatlar. To'plovchilar: M. Murodov, M. Shayxova. – T.: Yosh gvardiya, 1990-y.
6. Boychechak. Bolalar folklori va mehnat taronalari. To'plovchilar: O. Safarov, Q. Ochilov. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984-y.
7. Bulbuligo'yo. O'zbek xalq ertaklari. Tuzuvchi: M. Mahmudov. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1986-y.
8. Go'ro'g'li. O'zbek xalq dostoni. Aytuvchi: Muhammadqul Jomrot o'g'li Po'lkan. Tayyorlovchi: M. Murodov. // G'uncha, 1988. 10-son.





9. Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. Ertaklar, rivoyatlar v. b. To'plovchi: H. Razzoqov. – T.: G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1967-y.
10. Laylak keldi, yoz bo'ldi... To'plovchi: M. Murodov. – T.: Mehnat, 1990 y.
11. Navro'z. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, M. Jo'rayev. – T.: Fan, 1992-y.
12. Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. To'plovchi: M. Jo'rayev. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2000-y.
13. Rustamxon. O'zbek xalq dostoni. Aytuvchi: F. Yo'ldosh o'g'li. Tayyorlovchi: M. Murodov // G'uncha. 1988. 7-son.
14. Chalpapak yoqqan kun. O'zbek xalq ertaklari. To'plovchi: Z. Xusainova. – T.: Yulduzcha, 1987-y.
15. Cho'loq bo'ri. O'zbek xalq ertaklari. To'plovchi: S. Xolmirzayeva. – T.: Yulduzcha. 1988-y.
16. Shirin bilan Shakar. O'zbek xalq dostoni. Aytuvchi: F. Yo'ldosh o'g'li. Tayyorlovchi: M. Murodov // G'uncha, – 1989-y. 3-son.
17. O'zbek xalq maqollari. 2 jild. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, B. Sarimsoqov v. b. – T.: Fan, 1987-y.
18. O'zbek xalq topishmoqlari. Tuzuvchi: Z. Xusainova. – T.: O'zadabiynashr. 1961-y.
19. O'zbek topishmoqlari. Tuzuvchi: M. Abdurahimov. – T.: O'qituvchi, 1991-y.
20. O'zbek xalq ertaklari. 2 jildlik. Tuzuvchilar: M. Afzalov, H. Rasulov, Z. Xusainova. – T.: O'zadabiynashr, 1963-y.
21. O'zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. Tuzuvchilar: M. Afzalov, H. Rasulov, Z. Husainova. – T., O'qituvchi nashriyoti matbaa ijodiy uyi, 2007-y.
22. Qaynar buloq. O'zbek xalq bolalar qo'shiqlari. To'plovchi: Y Sultonov, – T.: Yulduzcha, 1991-y.
23. Axloq-odobga oid hadis namunalari. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar: H. Hikmatullayev, A. Mansurov. – T.: Fan, 1990-y.
24. Hadislar – bolalarga. Nashrga tayyorlovchi: M. Sattorov. – T.: Adolat. 2004-y.

Mumtoz adabiyot

1. Alisher Navoiy. Xamsa. Nashrga tayyorlovchi: P. Shamsiyev. – T.: Fan. 1958-y.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. A. Hayitmetov nasriy bayoni. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974-y.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: P. Shamsiyev. – T.: Yulduzcha, 1989-y.
4. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2 jild. Arab tilidan U. Uvatov tarj. – T.: Mehnat, 1992-y.
5. Kaykovus. Qobusnoma. Ogahiy tarj. S. Dolimov bayoni. – T.: O'qituvchi, 1968-y.
6. Sa'diy Sheroziy. Bo'ston. Fors tilidan Chustiy tarj. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti. 1960-y.
7. Sa'diy Sheroziy. Guliston. Forschadan she'rlar: G'. G'ulom, Sh. Shomuhamedov; nasr: R. Komilov tarjimasini, – T.: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968-y.
8. Temurnoma. Nashrga tayyorlovchi: P. Ravshanov. – T.: Cho'lpon, 1990-y.
9. Yusuf Xos Xojib. Qutadug'u bilig. Ogahiy tarj. B. To'xliyev bayoni. – T.: Yulduzcha, 1989-y.

**O'zbek bolalar adabiyoti**

1. Badiiy terma kitob (bog'chalarning katta guruhlar uchun). Tuzuvchi-mualliflar: S. G'oziyeva, D. Ochilova, L. Dolimova. – T.: O'qituvchi, 1993-y.
2. Bog'chalarning tayyorlov gruppalar uchun xrestomatiya. Tuzuvchilar: A. Po'latov, S. Po'latova. – T.: O'qituvchi, 1979-y.
3. Bolalarning katta gruppalar uchun xrestomatiya. Tuzuvchilar: A. Po'latov, S. Po'latova, – T.: O'qituvchi, 1981-y.
4. Durdona. Bog'chalar uchun badiiy adabiyot xrestomatiyasi. Tuzuvchi: Z. Ibrohimova. – T.: Cho'lpon, 1995-y.
5. Kichkintoylar uchun xrestomatiya. Tuzuvchilar: S. G'oziyeva, L. Dolimova. – T.: O'qituvchi, 1978-y.
6. Uchinchi mingyillikning bolasi: Tayanch dasturi bo'yicha ertak, hikoya, she'rlar to'plami. Tuzuvchilar: Z. Ibrohimova, D. Qoraboyeva. – T.: Istiqlol. 2005-y.
7. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. She'riyat. 1-kitob. Tuzuvchilar: T. Adashboyev, A. Akbar. – T.: O'qituvchi, 2006-y.
8. O'zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Nasr. 2-kitob. Tuzuvchi: S. Matjon. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006-y.

Shuningdek, mualliflarning nashr etilgan kitoblaridan, to'plam, gazeta, jurnal sahifalarida chop etilgan she'riy, nasriy va tarjima asarlaridan foydalanildi.



MUNDARIJA

<i>A. Oripov, M. Burhonov. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi</i>	3
So‘zboshi o‘rnida.....	5

KATTA YOSH DAVRI (5—6 YOSHGACHA)

O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI

O‘zbek xalq bolalar qo‘shiqlari

“Ketgan qushlar uzoqdan yana bizga qaytadi...” (*Mavsum qo‘shiqlari*)

“Omonlik-hey, omonlik...”.....	10
“Navro‘z keldi, yoz keldi...”.....	11
“Qaldirg‘och qayib uchar...”.....	11
“Ketgan qushlar...”.....	11
“Chitti gul-a, chitti gul...”.....	11
“Laylak keldi, yoz bo‘ldi...”.....	12
“Laylaklar uchib keldi...”.....	13

“Tulkicha-ya, tulkicha...” (*Qiziqmachoqlar*)

“Ola tog‘ning boshida...”.....	13
“Girdon-girdon tozi...”.....	13
“Tulkicha-ya, tulkicha...”.....	14
“Qurbaqajon, qurbaqa...”.....	15

“Turna, arqon sol!...” (*Hukmlagichlar*)

“G‘alvir, g‘alvir!...”.....	15
“Qaldirg‘och, g‘och-g‘och...”.....	16
“Qaldirg‘och, g‘och-g‘och...”.....	16
“Laylak keldi, ilon qoch...”.....	16

“Chumchuq keladi bir gala...” (*Chumchuq haydash*)

“Ey, hoy, gala, ...”.....	16
“Hala-yo, hala-yo...”.....	17
“Jo‘xorilar oq bo‘ldi...”.....	17



“Onabosh, qani, chiq...” (<i>Chorlamalar</i>)	
“Bizlar o‘ynayapmiz...”	17
“Bacha-bacha, bozi...”	17
“Bacha bo‘lsang, kelaver...”	17
“Sarimsoq dumaloq choq...”	18
“O‘zbargani suvi bor...”	18
“San tur, san chiq!..” (<i>O‘yin boshlanmasi</i>)	
“Chori chambar...”	18
“Qovun palak...”	19
“Guldon-guldon tozi...”	19
“Bo‘m-bo‘m-bo‘m...”	19
“Tiri-tiri, traktor...”	19
“Lagan-lagan...”	20
O‘raga sichqon tushdi, guldur-gup! (<i>Guldur-guplar</i>)	
“Dim-dim...”	20
“O‘raga sichqon tushdi, guldur-gup...”	20
“Jildir-ji p”	20
“Guldur, guldur, guldur-gur...”	21
“Bululim-bululim, bir tanga...” (<i>Aytishma o‘yinlar</i>)	
“Sohibjamol uydan chiqsa...”	21
“Oppoq-oppoq, oq ko‘rak...”	21
“Bululim-bululim, bir tanga...”	22
“Opa,opa, anjir...”	22
“Guldur-guldur...”	22
“Ro‘-ro‘-ro‘...”	22
“Xurmacha bog‘i...”	23
“Xurmacha bog‘i...”	23
“Besh tosh otdim uzoqqa...”	24
“Umbul baka-bum...”	24
“O‘toptilar, ketoptilar...”	24
“Dasturxonda sedona...”	24
“Uy-uyingga...”	25
“Besh, olti, yetti... chumchuq uchib ketdi!..” (<i>Sanamalar</i>)	
“Bir, ikki, uch, to‘rt...”	25
“Chumchuqlar uyga kirdi...”	25
“O‘n bilan o‘n...”	26
“Bir-ikki, o‘n olti...”	26
“Paroxod qatnaydi,qatnaydi...”	26



O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARI

Tabiat haqida.....	27
Hayvonlar haqida.....	28
Parranda va hasharotlar haqida.....	29
Uy-ro'zg'or buyumlari haqida.....	29

TEZ AYTISHLAR.....	31
---------------------------	-----------

O'ZBEK XALQ MAQOLLARI

Ota-ona haqida.....	33
Odob haqida.....	34
Do'stlik haqida.....	35
Mehnat haqida.....	36
Bilim haqida.....	37

AXLOQ-ODOBGA OID HADIS NAMUNALARI.....	38
---	-----------

O'ZBEK XALQ ERTAKLARI

Saxiy bilan Baxil.....	41
Egri va To'g'ri (qisq. olindi).....	45
Zumrad va Qimmat.....	47
Ovchi bola (qisq. olindi).....	52
Dehqon bilan shayton.....	55
Oltin tarvuz.....	58
Qarg'avoy.....	60
Gilam.....	62
Qurbaqa qiz.....	65
O'tinchi yigit bilan sher.....	67

O'ZBEK XALQ AFSONA VA RIVOYATLARI

Oy bilan Shirin.....	69
Non hidi.....	70
Ibn Sino va kitoblar.....	71
Ibn Sino shogirdlari.....	74
Qaldirg'och himmati.....	75
Yetti go'dakning rizqi	76

O'ZBEK XALQ DOSTONLARI

Go'ro'g'lining tug'ilishi (parcha). <i>M. Murodov tayyor</i>	78
Shirin bilan Shakar (parcha). <i>M. Murodov tayyor</i>	79

JAHON XALQLARI ERTAKLARI

Arslon va quyon (qirg'iz) <i>M. Alimov tarjimasini</i>	82
--	----





Uch o'g'il (uyg'ur). <i>E. Usmon tarj.</i>	83
Qaldirg'och va ikkita qovoq voqeasi (yapon). <i>A. Boboxonov tarj.</i>	84
G'ozlar-oqqushlar (rus). <i>A. Said tarj.</i>	87
Har kim fe'liga yarasha (eston) <i>H. Ahrorova tarj.</i>	90
Bug'u bilan baliq. (chukot) <i>Ya. Hudoyqulov tarj.</i>	93
Kaklik bilan quyon. (afrika) <i>A. Boboxonov tarj.</i>	94

MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI

Ulug'lik sari eltuvchi yo'l...

Yu.X. Hojib. "Qutadg'u bilig" (dostondan parchalar:) <i>B. To'xliyev bayoni</i>	96
"Kimki farog'atli kunni istasa..."	96
"Olamdagi eng ulug' fazilat..."	96
"Mehmonga taklif qilinsa..."	97
"O'zingga tilasang uzun ehtirom..."	97
"Seni siz deganlarni..."	97
A. Navoiy. Bir kabutar. ("Saddi Iskandariy" dost.), <i>Z. Ibrohimova bayoni</i>	98
A. Navoiy. Himmatli bo'lsang. ("Hayrat ul-abror" dost.). <i>A. Hayitmetov bayoni</i>	99
Z. M. Bobur. G'or topildi. ("Boburnoma" dan). <i>Z. Ibrohimova bayoni</i>	100
S. Sheroziy. Bir necha amaldorlar.	
"Ikki aka-uka..." ("Guliston" dan). <i>R. Komolov tarj.</i>	101
S. Sheroziy. "Erur hammadan..." ("Bo'ston" asaridan). <i>Chustiy tarj.</i>	101

O'ZBEK BOLALAR ADABIY ERTAKLARI

<i>P. Muhammadyorova</i> . Sharlar uchdi.....	103
<i>Z. Ibrohimova</i> . Gulbahorning do'stlari.	108
<i>Z. Ibrohimova</i> . Urushqoq gul va bola.....	111
<i>T. G'oyibov</i> . Hunarli yigit xor bo'lmaydi.....	114
<i>R. Azizxo'jayev</i> . Quyoncha bilan Tulkicha.....	117
<i>Yo. Shukurov</i> . Oysha.....	119
<i>X. To'xtaboyev</i> . To'pdan ayrilganni bo'ri yer.....	121
<i>R. Tolib</i> . G'alati ziyofat.	122
<i>R. Tolib</i> . Kechikkan lola.....	124
<i>O. Begali</i> . Rangin qorlar.....	126
<i>A. Obidjon</i> . Chumolining hikoyasi.....	128
<i>A. Avloniy</i> . Maqtanchoq g'oz.	129
<i>A. Avloniy</i> . Xo'roz ila bo'ri.....	130

JAHON BOLALAR ADABIY ERTAKLARI

<i>K. Chukovskiy</i> . Do'xtir, voyjonim. <i>T. Adashboyev tarj.</i>	131
<i>V. Berestov</i> . Chin so'z. <i>Z. Ibrohimova tarj.</i>	138





<i>Aka-uka Bondarenkolar. Nega hayvonlar birga yashamaydilar?</i>	
<i>J. Nasriddinov tarj.</i>	140
<i>Aka-uka Grimmlar. Bir xumcha shovla. S.To'raxonova tarj.</i>	144
<i>Ch. Aytmatov. Jimjiloq. S.Qorayev tarj.</i>	146
<i>Sh. Perro. Qizil shapkacha. Sh.Sa'dulla tarj.</i>	147
<i>V. Suxomlinskiy. Maqtanchoq xo'roz. A. Osmon tarj.</i>	149
<i>X. A. Andersen. Boychechak. (Qisqartirib olindi). S.Yo'ldoshev tarj.</i>	150

O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATI

O'zbekiston — mening vatanim

<i>E. Vohidov. O'lka</i>	152
<i>E. Raimov. Kuyga to'lsin ona-Vatan</i>	153
<i>Q. Rahimboyeva. O'g'lim... so'ng qizimga birinchi saboq</i>	153
<i>Q. Ota. O'zbekistonim.</i>	154
<i>T. Adashboyev Mustaqillik</i>	155
<i>P. Mo'min. Qadim Turon</i>	156
<i>A. Oripov. Tog'lar.</i>	157
<i>N. Oripov. Ona yurtim</i>	158

“Gul yuzli bahor...” (Yil fasllari)

<i>Cho'lpon. Boychechak</i>	159
<i>Zulfiya. Lolaqizg'aldoq</i>	160
<i>I. Muslim. Birinchi sovg'a</i>	162
<i>H. Saloh. Qaldirg'och uchib keldi</i>	163
<i>Sh.Qurbon. Navro'zim</i>	164
<i>M.Murodov. Navro'zi olam</i>	165
<i>A. Ziyomat. Yalpiz terar Gulnoza</i>	165
<i>M. Qo'shoqov. Tok ochdik</i>	166
<i>H. Rahmat. Yomg'ir yog'ar</i>	166

“Endi quyosh barchani bir mehrda suyadi...”

<i>R. Fayz. Yoz</i>	167
<i>S. Jabbor. Yoz</i>	167
<i>A. Akbar. Birinchi iyun</i>	168
<i>R. Tolib. Yo'ldagi suhbatlar</i>	168
<i>M. Qahhor. Sho'x shamol</i>	170
<i>Z. Diyor. Olma</i>	171

“Bog'lar ko'm-ko'k ko'ylagin bo'yab oldi sariqqa...”

<i>Zulfiya. Oltin kuz. (qisq. olindi)</i>	172
---	-----



<i>Shuhrat. Kuz.....</i>	172
<i>E. Raimov. Kuz qo'shig'i.....</i>	173
<i>A. Ziyomat. Paxta.....</i>	174
<i>S. Inoyatov. Turnalar.....</i>	175
<i>H. Rahmat. Kuzning so'nggi kunlari.....</i>	175

“Yog‘, yog‘aver, oppoq qor...”

<i>Cho'lpon. Qor.....</i>	176
<i>R. Tolib. Qish yaqin.....</i>	176
<i>S. Barnoyev. Jumboq.....</i>	177
<i>K. Turdiyeva. Qor parchalar.....</i>	177
<i>D. Matjon. Yog‘, yog‘aver, oppoq qor.....</i>	178
<i>D. Rajab. Qor.....</i>	178
<i>E. Sohibnazar. Ma'qul bo'ldi quyoshga.....</i>	179
<i>T. Xolmatov. Ona, tabiat.....</i>	180

“Kel, oppog‘im, kel, erkam...” (Onalar va bolalar)

<i>A. Navoiy. “Boshni fido ayla ato boshig‘a...”.....</i>	180
<i>G. Nurullayeva. Alla.....</i>	180
<i>S. Zunnunova. “Yer uzra qo‘ndi oqshom”.....</i>	181
<i>Mirtemir. Uyg‘on.....</i>	182
<i>Q. Ota. Onajonim.....</i>	183
<i>R. Parfi. “Oyi, oyi, aytib bering...”.....</i>	185

“Xiyobonda chogim kelar...” (Bolalar dunyosi)

<i>M. Yusuf. “Madinaxon turib ketdi...” Orzu.....</i>	186
<i>R. Nazar. Hosil bayrami.....</i>	187
<i>Yu. Shomansur. Shirmoy non.....</i>	188
<i>J. Rahim. “Yordam...”.....</i>	188
<i>Sh. Otabek. Achchiq choy.....</i>	189
<i>T. Yo‘ldosh. Mehmon.....</i>	189
<i>K. Turdiyeva. Qanday yaxshi. Sodiq do‘st.....</i>	190
<i>A. Abdurazzoq. Sodda qo‘zichoqlar.....</i>	191
<i>Z. Diyor. Kapalak.</i>	192
<i>M. A‘zam. Tursun, Unsin va Tabassum.....</i>	193
<i>A. Rahimov. Ikki qo‘rroq.....</i>	194
<i>E. Sohibnazarov. Buvimni sayr qildirdim.....</i>	194

“Chuchmomojon, chuvlab chiq, dala-dashtdan duvlab chiq...” (Gullar olamida)

<i>Oybek. Boychechak.....</i>	194
<i>Q. Muhammadiy. Tongda. Nilufar. Tugunchasi ochildi.....</i>	195
<i>Sh. Sa‘dulla. Lola. Chinni gul.....</i>	197



<i>R. Is'hoqov. G'uncha.....</i>	198
<i>R. Fayz. Chuchmoma.....</i>	198
“Ko'chamizga tol ekdim, katta bo'lsin, o'ssin deb...” (Daraxtlar olamida)	
<i>R. Tolib. Nihol. Yaproq.....</i>	199
<i>E. Raimov. Chinor.</i>	200
<i>A. Abdurazzoq. Tol.....</i>	201
<i>E. Vohidov. Qarag'ay. Archa. Terak.....</i>	202
<i>Q. Muhammadiy. Baqaterak.....</i>	203
<i>T. To'la. Majnuntol.</i>	204
“Tillaqo'ng'iz... gul ichida qola qol...” (Hasharotlar haqida)	
<i>A. Abdurazzoq. Tilla qo'ng'iz.....</i>	204
<i>Q. Ota. Shoxli qo'ng'iz.....</i>	205
<i>A. Obidjon. Kapalak qo'shig'i.....</i>	206
<i>Sh. Sa'dulla. Ninachi.....</i>	206
<i>D. Rajab. Chumoli.....</i>	207
<i>Q. Ota. Xirmon bo'lar.....</i>	207
<i>A. Obidjon. Jangchi chumoli.....</i>	208
<i>S. Xudoyorov. Qirqoyoq va qirq paypoq.....</i>	208
“Oq ayig'im, oq ayiq...” (Yovvoyi hayvonlar haqida)	
<i>A. Muxtor. Kenguru.....</i>	209
<i>Q. Nosirova. Kenguru. Oq ayiq.....</i>	210
<i>M. Boboqulov. Olmaxon.....</i>	210
<i>A. Muxtor. Toshbaqa.....</i>	211
<i>R. Farhodiy. Parishonxotir timsoh.....</i>	212
<i>A. Abdurazzoq. O'rmonda.....</i>	212
JAHON BOLALAR SHE'RIYATI	
<i>N. Boqizoda. Chumchuqlar qarori. S. Barnoyev tarj.</i>	213
<i>A. S. Pushkin. Qish oqshomi. (qisq. olindi) M. A'zam tarj.</i>	216
<i>N. Bayramov. Vatan. A.Toshxo jayev tarj.....</i>	216
<i>J. Smaqov. Boychibor. H. Imonberdiyev tarj.</i>	217
<i>G. Sulaymonova. Suv qayerda yashaydi? H. Imonberdiyev tarj.</i>	218
<i>F. H. Dog'larja. Ko'zoynak. A. Akbar tarjimasi.</i>	219
<i>A. Barto. Toychoq. M. Asqarov tarjimasi.</i>	219
O'ZBEK BOLALAR HIKOYALARI	
<i>F. Musajonov. To'lab ber. Pahlavon va nimjon.....</i>	220
<i>Ya. Sa'dullayeva. Hozir, buvijon!..</i>	224
<i>M. Murodov. Ikki xil yordam. Sening galing.....</i>	225



<i>N. Fozilov.</i> Quyoncha.....	227
<i>H. Badalov.</i> Karim chumolining tilini bilarkan.....	228
<i>O'. Hoshimov.</i> Akula kelmadi.....	229
<i>K. Rahim.</i> Xo'rozqand.....	230
<i>T. G'oyipov.</i> Sehrli qalam.....	232
<i>Shuhrat.</i> Zaynabning mushugi nega arazladi?.....	233
<i>Z. A'lam.</i> Yakshanba kungi shokolad.....	235
<i>T. Qosimova.</i> Yaxmalak.....	236

JAHON BOLALAR HIKOYALARI

<i>L. Tolstoy.</i> Mushukcha. Sigir va zag'cha. <i>Sh. Sa'dulla tarj.</i>	238
<i>V. Xomchenko.</i> Askar bulog'i. <i>M. Boboyeva tarj.</i>	240
<i>Q. Tangriquliyev.</i> Non. <i>S. G'afurov tarj.</i>	241

MAKTABGA TAYYORLOV DAVRI (6—7 yoshgacha)

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI

O'zbek xalq bolalar qo'shiqlari

“Somsa yopdim yalpizdan, omonlik-e, omonlik!..” (*Mavsum qo'shiqlari*)

“Laylakqor-a, laylakqor...”.....	244
“Ana-ana gullola-ye, gullola...”.....	244
“Keldi bahorning yomg'iri...”.....	244
“Ko'klam keldi, har erlar ..”.....	245
<i>M. Alaviya.</i> Navro'z — bahor bayrami.....	246
“Doirani chaling, jon momo...”.....	247
“Boychechagim boylandi...”.....	248
“Laylak kelsa, yoz bo'lur...”.....	249
“Ha mayli-yo, ha mayli...”.....	249

“Ramazon aytib keldim...” (*Ramazon qo'shiqlari*)

“Assalomu-alaykum...”.....	250
“Kiraversin davlat...”.....	250
“Ramazon aytib keldim...”.....	251
“Oq tanga, ko'k tanga...”.....	251

“Musicha pat-pat etadi...” (*Hukmlagichlar*)

“Musicha pat-pat etadi...”.....	252
“Chumchuq, chumchuq, chumchuq, deng...”.....	252
“Uying kuygur chumchuqlar...”.....	252





“Qirdan qirg‘iy qiyolar...”	253
“G‘oz-g‘ozim bor, g‘oz-g‘oz...” (Qiziqmachoqlar)	
“Yo‘ldan topdim bir qamchin...”	253
“G‘oz-g‘ozim bor, g‘oz-g‘oz...”	254
“Oyi-oyi, barot oyi...”	254
“Davraga kelinglar, ho!..” (Chorlamalar)	
“Tokchaga bug‘doy sepuvdim...”	255
“Tovuq tomda yotarmi...”	255
“Oylar oydin bo‘libdi...”	255
“Do‘st, otalar qo‘ydi mani...”	255
“Og‘zimga soliq qulf ...” (Guldur-guplar)	
“Jildirim-juft...”	256
“Kumush bolta...”	256
“Biron-kalon...”	256
“Chori-chambar...”	256
“Oq terakmi, ko‘k terak?..” (Aytishma o‘yinlar)	
“Qamar, qamar qamchini...”	257
“Biz boyagi hovlida...”	257
“Bululum-bululim, bozi...”	257
“Bo‘rilar va echkilar...”	258
“Chopishda kim o‘zadi...”	258
“Ergash, Ergash, ergashamiz...”	259
“Agar hushyor bo‘lsangiz...”	259
“Topil-topil, qayrag‘och...”	259
“Ruxsor tug‘ilgan kuni...”	260
Chap berish.....	260
Qotirmachoq.....	260
“Zum...m...m...”	261
“Aldab-aldab boplandi...”	261
To‘qson, yuz... yuzga kirgin oppoq qiz...” (sanamalar)	
“Bir, ikki...”	262
“Oppa-oppa...”	262
“O‘n, yigirma...”	262
“Ellig-u ellik...”	263
”Bir, ikki...”	263
O‘ZBEK XALQ TOPISHMOQLARI	
Tabiat haqida.....	263



Jonivorlar haqida.....	265
Oziq-ovqatlar haqida.....	266
Odam tanasining a'zolari haqida.....	267
Turli narsalar haqida.....	268
TEZ AYTISHLAR.....	270
O'ZBEK XALQ MAQOLLARI	
Vatan haqida.....	273
Ota-onalar haqida.....	274
Odob haqida.....	275
Non haqida.....	276
Do'stlik haqida.....	277
Yolg'onchilik va rostgo'ylik haqida.....	278
Bilim haqida.....	279
AXLOQ-ODOBGA OID HADIS NAMUNALARI.....	280
O'ZBEK XALQ ERTAKLARI	
Aql va boylik.....	284
Uch og'ayni botirlar (qisq. matni).....	285
Kenja o'g'il.....	288
Nima eksang, shuni o'rasan.....	289
Tulkiboy.....	290
Shum tulki.....	293
Dushmanning katta-kichigi bo'lmaydi.....	295
Shirin uyqu.....	297
Xurmacha polvon.....	298
O'ZBEK XALQ DOSTONLARI	
Rustamxon. <i>M. Murodov tayyor</i>	300
O'ZBEK XALQ AFSONA VA RIVOYATLARI	
Navoiyning do'sti.....	303
Bog'i Boburiy.....	304
Beruniyning dam olish kunlari.....	306
Luqmoni Hakim.....	307
Sumalak — ko'klam mo'jizasi.....	308
JAHON XALQLARI ERTAKLARI	
Nima uchun inson dunyoda hammadan kuchli? (qirg'iz). <i>M. Alimov tarj</i>	310
O'zboshimcha opa-singillar.(qirg'iz). <i>M. Alimov tarj</i>	311
Dub daraxti bilan qo'ziqorin. (litva). <i>N.Yusupova tarj</i>	313



Quyoning labi nega tirtiqlik. (eston). <i>M.Sodiqova tarj.</i>	314
Masha bilan Ayiq. (rus). <i>I. Muslim tarj.</i>	316
O'n ikki oy. (slovak) (qisq. olindi). <i>A.Boboxonov tarj.</i>	319
Muchalning kelib chiqishi. (xitoy). <i>A.Boboxonov tarj.</i>	323
Tadbirkor xo'roz.(xaus). <i>A.Boboxonov tarj.</i>	329

MUMTOZ ADABIYOTDAN NAMUNALAR

“ULUG‘LIK SARI ELTUVCHI YO‘L...”

<i>Kaykovus</i> . Ota-onani hurmatlash haqida. (“Qobusnoma”dan). <i>S.Dolimov tarj.</i>	330
<i>Yu.X.Hojib</i> . “Qutadg‘u bilig” dostonidan parchalar: <i>B.To‘xliyev bayoni</i>	331
“Salomlashish qoidasi...”.....	331
“Ko‘ngil kamtar bo‘lsa...”.....	331
“So‘zlar misoli...”.....	331
<i>S.Sheroziy</i> . Hotam to‘g‘risida hikoyat.(“Bo‘ston”dan) <i>Chustiy tarj. Z.Ibrohimova bayoni</i>	332

Buyuk siymolar haqida

Amir Temur. <i>Z.Ibrohimova tayyor</i>	333
I. Arabshoh. Amir Temurning Jayxundan shoshilinch o‘tishi.(“Amir Temur tarixi”dan). <i>Z. Ibrohimova bayoni</i>	335
Imom al-Buxoriy. <i>A.Irisov tayyor</i>	335
Imom al-Buxoriy to‘plagan hadislaridan namunalar. <i>A. Irisov tayyor</i>	337

O‘ZBEK BOLALAR ADABIY ERTAKLARI

<i>Ya. Sa‘dullayeva</i> . Yong‘oqjon.....	338
<i>F. Musajonov</i> . Endi hech kim zerikmaydi.....	340
<i>M. Murodov</i> . Eng qimmatli narsa.....	343
<i>Z. Ibrohimova</i> . Uyqu xafa bo‘ldi.	344
<i>Z. Ibrohimova</i> . Mayna bo‘lgan qush.....	348
<i>T. Ilhomov</i> . Adib betartib.....	350
<i>T. Eshbek</i> . Usta.....	351
<i>T. G‘oyibov</i> . Aldoqchi hakka.....	353
<i>R. Tolib</i> . Bulbulcha.....	355
<i>O. Begali</i> . Rahmdilning daraxti.	357
<i>O. Begali</i> . O‘rik gullari.....	360

JAHON BOLALAR ADABIY ERTAKLARI

<i>N. Hikmat</i> . Yo‘lbars bilan mushuk. <i>G.Normatova tarj.</i>	363
<i>L. Tostoy</i> . Uch ayiq. <i>A.Muhiddin tarj.</i>	365
<i>Aka-uka Grimmlar</i> . O‘rmondagi avliyo Yozef. <i>Sh. Ro‘ziyev va M. Javbo‘riyevlar tarj.</i>	368



X. K. Andersen. Jirkanch o‘rdak bolasi. *M. Mahmudov tarj.* 371

O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATI

O‘ZBEKISTON — MENING VATANIM.

<i>P. Mo‘min.</i> Vatan — bu...	379
<i>X. Davron.</i> Yagonadir Vatanning sening.....	380
<i>N. Narzullayev.</i> O‘lkam.....	382
<i>B. Isroil.</i> Shunday o‘lkam bor... ..	382
<i>O‘. Qo‘ldoshev.</i> Oltin shu‘la.....	383
<i>M. Qo‘shmoqboy.</i> O‘zbek xalqi.....	383
<i>T. Adashboyev.</i> Ona tilim.	384
<i>T. Adashboyev.</i> Qiyosi yo‘q.	385
<i>E. Malikov.</i> Bayroq, gerb va madhiya haqida jajjigina ertak.....	386
<i>N. Orifjonov.</i> O‘zbekiston bayrog‘i.....	387
<i>E. Malikov.</i> Jajjigina ertakning davomi.....	388
<i>V. Ahmadjon.</i> O‘zbekiston gerbi.....	390
<i>M. Xoliqov.</i> Temur bobom.....	390
<i>T. Ubaydullo.</i> Inson beshigi.....	391
<i>M. A‘zam.</i> Yer aylanadi.....	392

Qadrdonim bahor, sog‘inganim sen!...” (Yil fasllari)

<i>H. Rahmat.</i> Qadrdonim bahor.....	393
<i>M. Ro‘ziyeva.</i> Bahor.....	395
<i>N. Xolmurodov.</i> Bahor.....	395
<i>I. Boboqulova.</i> Ko‘k somsa.....	396
<i>V. Tojimatov.</i> Sumalak.....	396
<i>N. Oston.</i> Bahor raqsi.....	397
<i>H. Murodov.</i> Yuring, bolalar.....	398

“Bol yig‘moqda mevalar...”

<i>A. Obidjon.</i> Yoz.....	398
<i>H. Rahmat.</i> Saraton.....	399
<i>S. Inoyatov.</i> Yoz yomg‘iri.....	399
<i>K. Turdiyeva.</i> Quyosh ko‘chasi.....	400

“Bog‘larning yetilib to‘lishgan chog‘i...”

<i>Q. Muhammadiy.</i> Bizning kuz.	401
<i>H. Rahmat.</i> Kuz ko‘rinishlari.....	402
<i>M. Yusuf.</i> Kuz.....	402
<i>N. Oston.</i> Xitob.....	403
<i>Y. Sulaymon.</i> Yodgor bog‘im.....	403



“Qorlar o‘ynab yog‘moqda...”

<i>Q. Ota.</i> Yangi yil salomi.....	404
<i>A. Nosirov.</i> Qor yog‘moqda.....	405
<i>N. Turmuhamedov.</i> Qishning ishi.....	406
<i>U. Qurbonov.</i> Zag‘chalar.....	406
<i>D. Rajab.</i> Qish lavhalari.....	407
<i>Y. Sulaymon.</i> Yog‘ayapti.....	408
<i>N. Oston.</i> Qor xat.	408
<i>N. Orifjonov.</i> Oppoq qor.....	409

“Ona erur qiblai olam...”

<i>A. Oripov.</i> Ona.....	409
<i>H. Solihova.</i> Alla.....	410
<i>V. Ahmadjon.</i> Onajonim qo‘llari.....	411
<i>T. Yo‘ldosh.</i> Ota-ona.....	411
<i>M. A‘zam.</i> Onam ishdan keladi.....	412
<i>R. Tolib.</i> Nega xursandmas oyim?.....	412
<i>K. Turdiyeva.</i> Oyim bilan arazlashdim...”.....	413
<i>A. Ziyomat.</i> Keksalar.....	414
<i>A. Abdurazzoq.</i> Buvalar.....	414

“Hozir yoshim oltida...” (Bolalar olami)

<i>Zulfiya.</i> Gullarim.....	415
<i>G‘. G‘ulom.</i> O‘ylashni o‘rganamiz.....	416
<i>E. Vohidov.</i> Oyga uchsak.....	417
<i>K. Turdiyeva.</i> Muloyimlik ko‘chasi.....	418
<i>Y. Sulaymon.</i> Hozir uoshim oltida.....	419
<i>Y. Sulaymon.</i> Bo‘y va es.....	420
<i>M. Yusuf.</i> Qushlar ham yig‘lar.....	420
<i>H. Saloh.</i> Olma.	421
<i>H. Rahmat.</i> Shoshqaloq.	422
<i>H. Rahmat.</i> Esonmisiz-omonmisiz.....	422
<i>H. Imonberdiyev.</i> Olamoshim.....	423
<i>M. Qahhor.</i> Kuchugimiz bolaladi.....	424
<i>T. Adashboyev.</i> Joyiga osyapman.....	425
<i>M. Ibrohimov.</i> Ko‘p qiziqaman.....	425
<i>P. Mo‘min.</i> Bekorjon.....	426
<i>A. Ko‘chimov.</i> Tush ko‘rdim.....	427
<i>F. Shohismoil.</i> Kuzatish.....	428
<i>S. Barnoyev.</i> Feruza aytgan qo‘shiq.....	428



“Dilda havas uyg‘onsin...” (Kasb-hunar haqida)

<i>S. Qo‘qonbekov.</i> Ey, hunarjon, hunarjon.....	429
<i>Q. Hikmat.</i> Nay.....	430
<i>T. Rahimova.</i> Non savatim.....	430
<i>H. Yoqubov.</i> Usta Tolib.....	431
<i>O. Abdurahmon.</i> Usta.....	431
<i>T. Ilhomov.</i> Varragim.....	432

“Nafis chayqaladi bir tup na‘matak...” (Gullar olamida)

<i>Oybek.</i> Na‘matak.....	432
<i>I. Muslim.</i> Boychechak.....	433
<i>R. Farhodiy.</i> Kaktus.....	434
<i>Sh. Sa‘dulla.</i> Lolaqizg‘aldoq.....	434
<i>P. Ermat.</i> Moychechakning qalpog‘i.....	435

“Dalada ko‘p do‘stim bor...” (Meva va sabzavotlar haqida)

<i>Q. Muhammadiy.</i> Olma.....	435
<i>A. Obidjon.</i> Loviya.	436
<i>A. Obidjon.</i> Baqlajon.	437
<i>T. Adashboyev.</i> Shaftoli.....	437
<i>A. Obidjon.</i> Sabzi.....	438
<i>N. Orif.</i> Mosh.	438
<i>N. Orif.</i> Makkajo‘xori.....	439
<i>N. Barakayev.</i> Zira.....	439
<i>M. A‘zam.</i> Qoyil qoling.....	440

JAHON BOLALAR SHE‘RIYATI

<i>G. Mistral.</i> Yer va ayol. <i>Zulfiya tarj.</i>	443
<i>D. Qilich.</i> Uxla, qo‘zim. <i>Shuhrat tarj.</i>	444
<i>M. Omarov.</i> Ona tilim. <i>T. Adashboyev tarj.</i>	444
<i>A. Barto.</i> Men ortiqcha. <i>M. Ahmedov tarj.</i>	445
<i>A. Barto.</i> Gul tergal qishki o‘rmonga. <i>Q. Ota tarj.</i>	446
<i>V. Babayan.</i> Tegirmon haqi. <i>T. Adashboyev tarj.</i>	446
<i>Yu. Marsinkyavichyus.</i> Jang tugadi. <i>T. Adashboyev tarj.</i>	447

O‘ZBEK BOLALAR QISSALARI

<i>Oybek.</i> Alisherning yoshligi. (shu nomli qissadan parcha).....	448
<i>X. To‘xtaboyev.</i> “Odobli bola” o‘yini. (“Jannati odamlar” qissasidan parcha).....	452

O‘ZBEK BOLALAR HIKOYALARI

<i>A. Avloniy.</i> To‘g‘rilik.....	460
<i>Ya. Sa‘dullayeva.</i> Yetib oldimmi?.....	460





<i>O'.</i> <i>Hoshimov.</i> Yalpiz somsa.	462
<i>O'.</i> <i>Hoshimov.</i> Oppoq buvaning oppoq paxtasi.....	464
<i>O'.</i> <i>Usmonov.</i> Chumchuq bola.....	466
<i>T.</i> <i>Qosimova.</i> Toshbaqa tarozibon ekan... ..	467
<i>F.</i> <i>Musajonov.</i> Qo'shoqvoyning "himmati".....	469
<i>S.</i> <i>G'afurov.</i> Jonli haykal.....	471
<i>S.</i> <i>O'sarov.</i> Qo'yning gapi.....	472
<i>Z.</i> <i>Ibrohimova.</i> Mardona.....	472
<i>F.</i> <i>Kamolov.</i> Oygulning do'stlari. Vasila tarj.....	474

JAHON BOLALAR HIKOYALARI

<i>K.</i> <i>Marukas.</i> Toychoq. <i>Ch.</i> <i>Avazov tarj.</i>	477
<i>V.</i> <i>Suxomlinskiy.</i> Qancha tong o'tib ketdi. <i>G.</i> <i>G'afurova tarj.</i>	479
<i>D.</i> <i>Sulaymonov.</i> Foydali ish. <i>T.</i> <i>Adashboyev tarj.</i>	480
<i>O'.</i> <i>Turmanjonov.</i> Oq bo'taloq. <i>M.</i> <i>Ahmedov tarj.</i>	481

ADABIY TOPISHMOQLAR

Tabiat haqida

<i>H.</i> <i>Rahmat.</i> "Qorga o'xshar, emas qor...", "Osmondan yog'adi u...", "Ko'k toqida doira...", "Makoni osmon — dengiz...", "Paxtaday yumshoq, momiq..."	484
<i>S.</i> <i>G'afurov.</i> "U tushganda dala qir...".....	485
<i>N.</i> <i>Ermatov.</i> "Tun chog'ida miltillab...".....	485
<i>M.</i> <i>Yunus.</i> "Goh sopi yo'q o'roqday..."	485
<i>M.</i> <i>Yunusaliyev.</i> "Bulutga qilich solar...".....	485
<i>N.</i> <i>Mirzaliyev.</i> "Ismi bor-u, jismi yo'q...".....	486

O'simliklar haqida

<i>H.</i> <i>Rahmat.</i> "Uxlab yotar kunduzi...".....	486
<i>S.</i> <i>G'afurov.</i> "Yerda asta unadi...", "Novdalarining qulog'i...", "Qo'zi" desam ko'rinmas...".....	486
<i>S.</i> <i>G'afurov.</i> "Makonidir dalalar...", "Ko'z uzolmay quyoshdan...", "Yer tagida ko'p inoq...".....	487
<i>H.</i> <i>Rahmat.</i> "Tukdan parda yuzida...".....	487
<i>H.</i> <i>Rahmat.</i> "Tuzilishi danakday...".....	488
<i>B.</i> <i>Choriyev.</i> "Bitta dara ikki tog'...".....	488

Jonivorlar haqida

<i>U.</i> <i>Abduazimova.</i> "Uning toji qip-qizil...".....	488
<i>M.</i> <i>Yunus.</i> "Har bahorda qaytadi...".....	488
<i>H.</i> <i>Rahmat.</i> "Ko'zin ocholmas...",	488



<i>Q. G'oyibov.</i> "Qo'nadi ming bir gulga..."	489
<i>O'. Qilichev.</i> "Asal bilan boqadi..."	489
<i>M. Yunusaliyev.</i> "Oyoq-qo'li aslo yo'q...", "Olti oyoq-qo'li bor..."	489
<i>A. Yunusov.</i> "Ko'zi bor kiprik qoqmas..."	489
<i>G'. Abdullayev.</i> "Bersam unga o't..."	489
<i>N Ermatov.</i> "Xavf bo'lsa, koptok bo'lib...", "Yonidan o'tsa birov..."	490

O'yinchoqlar haqida

<i>H. Rahmat.</i> "Dum-dumaloq..."	490
<i>M. Valixonov.</i> "Urgan sari yayraydi..."	490
<i>S. G'afurov.</i> "Ko'ylagi juda yupqa..."	490
<i>E. Nomozov.</i> Ko'zlari yoqut munchoq..."	491

Oziq-ovqatlar haqida

<i>H. Rahmat.</i> "Muzga o'xshar-u, muzmas", "Xo'rozim yog'och oyoq..."	491
<i>S. G'afurov.</i> "Shakar kabi oq, mayda..."	491
<i>O'. Qilichev.</i> "Bir idishda ikki taom..."	492

Turli narsalar haqida

<i>A. Hoshimov.</i> "O'zgalarga nur berar..."	492
<i>B. O'rinov.</i> "Charaqlab ko'zi..."	492
<i>R. Is'hoqov.</i> "Qulog'iga qo'ysam qo'log'im..."	492
<i>S. G'afurov.</i> "Eshitmaydi qulog'i..."	492
<i>H. Ahmadjonov.</i> "Qulog'ini burasa oyim..."	493
<i>Q. Madumarov.</i> "Mehmon kelsa avvalo..."	493

TEZ AYTISHLAR

<i>G. Fayozova.</i> "Tursun tunda...", "Jo'ra jajji..."	493
<i>I. Qosimov.</i> "Qoraboy qarag'ayga...", "To'p-to'p..."	493
<i>S. G'ofurov.</i> "Bu yoz..."	493
<i>S. G'ofurov.</i> "Sovuqda..."	494
<i>I. Mirzayeva.</i> "Jizzaxning...", "Ikki ukki..."	494
<i>Z. Ravshanova.</i> "Salim sariq sabzini...",	494
<i>D. Mirtazoyev.</i> "Tolib tandir...",	494
<i>H. Otaqulov.</i> "Yaxshivoy yaxshi..."	494
<i>A. Yunusov.</i> "Shoshqaloq shoyim..."	494

* * *

<i>Z. Ibrohimova.</i> Badiiy so'zning qudrati	495
Manbalar ko'rsatkichi	509



Gulgina: kichkintoylar uchun badiiy adabiyot majmuasi: 2 jildlik/Tuzuvchi-muallif Z. G95 Ibrohimova; mas'ul muharrirlar: M. Ibrohimov va T. Adashboyev; O'zR xalq ta'limi Vazirligi, O'zR FA, Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot in-ti. – Toshkent: “YANGI NASHR” nashriyoti.

J.II:[5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun]. – 528 b.

I. Ibrohimova Z., to'plovchi.

ISBN 978-9943-330-37-5

BBK 83.8(5ŷ)

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi MMXQTMOR qoshidagi
Ilmiy metodik kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Tuzuvchi-muallif
Zamira IBROHIMOVA

GULGINA

II jild

Kichkintoylar uchun badiiy adabiyot majmuasi

Kitobni bezashda rassom *Habibulla Rahmatullayev*
rasmlaridan foydalanildi.
Rassom *Li-Sofi Mariya*

Muharrirlar: *Abduhoshim Irisboyev, Shukur Qurbon, Husan Nishonov*
Rassom-dizayner *Hamidulla Xudoyberdiyev*
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*
Musahhihlar: *Sherali Nishonov, Jahongir Qo'nishev*
Sahifalovchi-dizaynerlar: *Abdurasul Narmanov, Behzod Irisboyev*

Bosishga 2010-yil 10-mayda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.
Adadi 10 000 nusxa. Times, Decor, Century schoolbook garnaturalari.
Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 55,44+2,1(vkl).
Buyurtma №10-782/10-618.

Original-maket “MEDIANASHR” MCHJ
komputer markazida tayyorlandi.

“YANGI NASHR” nashriyoti

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining “O'ZBEKISTON” nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi. 100129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. 2010.